O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

JIZZAX POLITEXNIKA INSTITUTI

KAFEDRA: KASB TA`LIMI VA PEDAGOGIKA

5140900 – KASB TA'LIMI YO'NALISHINING BARCHA SOHALARI UCHUN

UMUMIY PSIXOLOGIYA

FANIDAN MA`RUZALAR MATNI

1-QISM

JIZZAX– 2010

TUZUVCHILAR:

Jiz PI, "Kasb ta`limi va pedagogika"
kafedrasining k. o`qituvchisi Abdurasulov F.P.

Jiz PI, "Kasb ta`limi va pedagogika"
kafedrasining assistenti Payziqulova N.X.

TAQRIZChILAR:

Jiz PI, "Kasb ta`limi va pedagogika"
kafedrasi dotsenti Hamidov J.A.

Jiz PI, "Kasb ta`limi va pedagogika"
kafedrasi mudiri Alimov N.N

1- ma'ruza. Psixologiya haqida tushuncha

Reja:

1. Psixologiya haqida tushuncha
2. Psixologik ta'limotlar tarixidan
3. Psixikaning reflektorlik xarakteri

1. Psixologiya haqida tushuncha

"Psixologiya" so'zi ikkita grek so'zlaridan – *"**psyche**" – jon*, *ruh* va *"**logos**" – ta'limot*, *ilm* so'zlaridan iborat bo'lib, an'anaviy ma'noda inson ruhiy dunyosiga aloqador barcha hodisalar va jarayonlar uning predmetini tashkil etadi. Boshqacha qilib aytganda, **psixologiyaning predmetini har birimizning tashqi olamni va o'z-o'zimizni bilishimizning asosida yotgan jarayonlar, hodisalar, holatlar va shakllangan xislatlar** tashkil etadi. Psixologiya bo'yicha adabiyotlarda uning predmetini qisqacha qilib, **psixikadir**, deb ta'rif berishadi. Psixika – bu inson ruhiyatining shunday holatiki, u tashqi olamni (ichki ruhiy olamni ham) ongli (ba'zan ongsiz ham) tarzda aks ettirishimizni, ya'ni bilishimiz, his qilishimiz, tasavvur qilib, anglashimizni ta'minlaydi. An'anaviy ta'riflarda psixologiya fan sifatida ana shu "psixikaning faktlarini, qonuniyatlarini va mexanizmlarini o'rganadi", – deb ham bayon etilgan. Lekin bu qisqa ta'riflardan psixikaga aloqador jarayonlar ongning aks ettirish shakllari ekan, degan yuzaki xulosaga kelish noto'g'ri bo'ladi. Chunki inson psixikasi va uning ruhiy olamiga aloqador hodisalar va jarayonlar shu qadar murakkab va xilma-xilki, biz ba'zan o'z-o'zimizni ham tushunmay qolamiz. Shuning uchun ham odamlarning bilimdonligi nafaqat tashqi olamda ro'y berayotgan obyektiv hodisalar mohiyatiga aloqador bilimlar majmuiga ega bo'lish bilan, balki hayotda munosib o'rin egallash, o'z ichki imkoniyatlari va salohiyatidan samarali foydalangan holda faoliyatini oqilona tashkil etishning barcha sirlaridan boxabar bo'lish, o'ziga va o'zgalarga ta'sir ko'rsatishning usullarini bilish va ulardan o'z o'rnida unumli foydalanishni nazarda tutadi. Psixologik bilimdonlikning murakkabligi aynan shundaki, atrofimizdagi narsalar va hodisalarning mohiyatini bevosita his qilib bilishimiz mumkin, lekin psixik hayotga aloqador bo'lgan jarayonlarni, o'zimizda, miyamiz, ongimizda ro'y berayotgan narsalarning mohiyatini bilvosita bilamiz. Masalan, o'rtoqlarimizdan biri bizga yoqadi, doimo bizda yaxshi, ijobiy taassurot qoldira oladi, lekin uning u yoki bu xatti-harakatlarini bevosita ko'rib, baholab, tahlil qilolsak-da, unga nisbatan his qilayotgan mehrimizni, uzoq ko'rishmay qolganimizda uni sog'inayotganligimiz bilan bog'liq hisni bevosita ko'rib, idrok qilish imkoniyatiga ega emasmiz. Aynan shunga o'xshash holatlar psixologiya o'rganadigan hodisalar va holatlarning o'ziga xos tabiati va murakkabligidan darak beradi va ularni boshqa turli hodisalardan farq qiladi.

Shunday qilib, psixologiya fani o'rganadigan jarayonlar va hodisalar murakkab va xilma-xil. Ularni o'rganishning ikki jihati bor: bir tomondan, ularni o'rganish qiyin, ikkinchi tomondan oson ham. Oxirgi jihati xususida shuni aytish mumkinki, bu hodisalar bevosita bizning o'zimizda berilgan, ularni uzoqdan qidirish, mavhum analogiyalar qilish shart emas, boshqa tomondan, ular o'zaro bir-birlari bilan bog'liq va umumiy qonuniyatlar va prinsiplarga bo'ysunadi. 1-rasmda psixik jarayonlarning namoyon bo'lish shakllari, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar aks ettirilgan.

Demak, qisqa qilib, *psixologiyaning predmeti konkret shaxs, uning jamiyatdagi xulq-atvori va turli ichki kechinmalari, amallari va faoliyatlarining o'ziga xos tarzda ongi tomonidan aks ettirilishidir*, deb ta'riflash mumkin.

Psixologiya fanining bugungi kundagi vazifalari, tabiiy, uning predmetiga biroz o’zgarishlar kiritadi. Zero, inson ongi va qalbi uchun kurash muammosi butun dunyo miqyosida dolzarb turgan masala sifatida qaralishini inobatga olsak, jamiyatimizning har bir a’zosi, mustaqil yurt fuqarolari ongining milliy-madaniy muhit ta’sirida, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllanishi, ular qalbida sof imon va sog’lom dunyoqarashlar, mustaqil fikrlashning shakllanishi mexanizmlarini o’rganish ham fanning muhim predmeti hisoblanadi. Ayniqsa, buguni yoshlarda aniq maqsad va maslakning bo’lishi, milliy iftixor va g’urur tuyg’ularining to’g’ri tarbiyalanganligi yaxlit xalq va millat manfaatlari bilan uyg’undir. Psixologiya fan sifatida aynan har bir shaxsda o’ziga, yurtdoshlariga, turli faoliyat turlari hamda dunyoga nisbatan to’g’ri munosabatlarni shakllanishi yo’llarini ham o’rganishi kerak.

Aks holda yoshlar ongidagi o’zgarishlarni aniq bashorat qilolmaslik, ularni to’g’ri tarbiyalash vositalarini tanlashda xatoliklarni keltirib chiqaradi. Yurtboshimiz I. Karimovning bu boradagi fikrlari juda o’rinli: “Men ko’hna bir haqiqatni yana eslatmoqchiman: tabiatda bo’shliq bo’lmaganidek, insonning ongu tafakkurida ham bo’shliq vujudga kelishiga aslo yo’l qo’yib bo’lmaydi.

Har bir ongli odamning voqyelikka o’z munosabati, maqsad va intilishlari bo’lishi tabiiy”.[1]

Demak, bugungi psixologiya fani va uning tarmoqlarining predmetini belgilashda yoshlar ongida to’g’ri dunyoqarashni milliy istiqlol g’oyalari va uning asosiy tushunchalari va tamoyillari asosida shakllantirish masalalari nuqtai nazaridan yondashish katta amaliy ahamiyat kasb etadi.

Bu fan muayyan turkumga kiritilgan. Chunki psixologiya fani bu tizimda nufuzli o'rin egallashiga barcha obyektiv shart-sharoitlar yetarli. Sunday qat'iy ishonch bilan aytilgan fikr zamirida bir qator muhim ham tabiiy, ham ijtimoiy omillar mavjud. Zero, psixologiya fani insoniyat tomonidan kashf qilingan fanlarning ichida eng murakkabligi bois, biosferik ta'limotdan kelib chiqqan holda, psixika yuksak darajada tashkil topgan materiyaning xususiyatini aks ettiruvchi kategoriya sifatida o'rganilib kelindi. Lekin bugungi kunda neosferik ta'limotga binoan fazoviy munosabatlar, sayyoralararo aloqalar, o'zaro ta'sirlar, moddalar, zarrachalar, nurlar harakati, almashinishi, qo'shilishi to'g'risida faraziy asosda bo'lsa ham mulohazalar yuritilmoqda. Shunga muvofiq, biosferaga kirib kelayotgan moddalar o'zaro birikib, ayniqsa, muayyan fazoviy maydonning hosil qilishi, to'planishi inson tana a'zolariga ijodiy ta'sir ko'rsatmoqda, natijada favqulodda holatlar sodir bo'lishi, kashfiyotlar yuz berishi, **intuitiv** (lotincha intueri — sinchkovlik, diqqat bilan qaramoq yoki ichki sezgirlik demakdir) shakldagi ruhiy holatlarning kuchayishi namoyon bo'lishi kutilmoqda. Bular qatoriga **telepatik** (yunoncha tele — uzoqni, pathos — sezaman degan ma'no anglatadi) samaralar, o'ta sezgirlik, **ekstrasenzitivlik** (lotincha extra— o'ta, sensus — sezgirlik degani), **ekstrasenslik** (lotincha extra - o'ta, sensus — his qilaman ma'nosini bildiradi) kabi psixologik holatlarning kechishi sabablarini kiritsa bo'ladi. Biroq omadsizlik, ichikish, kasal kimnidir intizor kutishi, nasib etmaslik, ishqiy kechinmalar, tushda ayon bo'lish kabi ruhiy holatlar, hodisalar hanuzgacha ishonchli dalillar bilan tushuntirib berilgani yo'q. Ammo bilish **obyekti** (lotincha objectum — jism demakdir) bilan **subyektining** (lotincha subjectum — tashqi olamni biluvchi inson) birikuvida psixologiyaning qulay imkoniyatlari mavjud ekanligini ta'kidlab o'tish o'rinli.

---

[1]**Karimov I.A.** Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir / “Fidokor” gazetasi, 2000 yil, 8 iyun



1-rasm. Psixik jarayonlarning namoyon bo'lish shakllari va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik

Ushbu fikrning tushunarliroq bo'lishi uchun ayrim misol va talqinlarni qayta tahlil qilib o'tamiz. Masalan, chaqaloq dunyoni taniy boshlagan kunidan boshlaboq uning idrokida tevarak-atrof va unga mehr bilan boqayotgan kishilarning muhiti aks eta boshlaydi. Shundan so'ng unda dastavval obyektiv (tashqi) va subyektiv (ichki) odamlar o'rtasidagi muhitga moslashishga oid sodda instinktlar (lotincha instinctus — tabiiy

qo'zg'atitvchi, tug'ma xususiyat demakdir), shartsiz reflekslar (lotincha reflexus — aks ettirish) yordamida oddiy ta'sirlanish tarzida namoyon bo'ladi. Taraqqiyotning mazkur davrida u o'zligini tushuna va anglay olmaydi, hatto buning yuzaga kelishi haqida mulohaza yuritishi ham aslo mumkin emas. Bola bir yoshgacha davrda tez sur'atlar bilan rivojlanadi, yil davomida uning jismoniy a'zolari 50% gacha o'sib yetilishi mumkin. Bu davrda jismoniy o'sish — psixik (ruhiy) taraqqiyotni tezlashtirishga puxta zamin hozirlaydi, natijada ko'rish, ushlash, talpinish, xo'mrayib lab burish va quvonish, samimiylik ham beg'uborlik singari insoniy tuyg'ular vujudga keladi. Bora-bora nutq faoliyatining paydo bo'lishi esa uning tushunish darajasini yangi sifat bosqichiga ko'taradi. Endi bola psixikaning muayyan xususiyatlari, holatlari, hodisalari, xossalari, sifatlari, fazilatlari, qonuniyatlari orqali moddiy dunyoni anglay boradi. Bolalik dunyosining ichki murakkab qatlamlaridan asta-sekin “o'zlik”ni, shaxsiy “men”likni tushunish tuyg'usi, sezish, his qilish jarayonlari shakllana boshlaydi hamda u yoki bu o'ziga xos to'siqlarni yengish imkoniyati paydo bo'la boshlaydi. Mazkur taraqqiyot bosqichi psixologiya fanida “men” davri yoki “o'zlik”ni anglash davri deb yuritiladi. Bu davr bolada nutq paydo bo'lganidan boshlanib, bir necha rivojlanish bosqichlarini o'ziga qamrab oladi. “Men” davrining anglashilgan shakl va ko'rinishlarining namoyon bo'lishi o'smirlik davriga ham to'g'ri keladi. O'smirlik davrida o'g'il va qizlarning ruhiyatida o'zlikni anglash bilan bog'liq bir talay muammoli savollar va ularning turmushda qaror toptirish tuyg'ulari, istaklari, orzulari paydo bo'lib, ko'pincha bu narsalar yakka shaxsning “kimligi”, “qandayligi”, “kimga va nima uchun kerakligi”ga yo'naltiriladi. Bolaning psixik xususiyatlari, **funksiyalari** (lotincha functio — ijro etish, bajarish degan ma'no anglatadi) uni qurshab turgan jonli vajonsiz tabiat ajoyibotlarini jismoniy va ijtimoiy vositalar orqali egallash uchun xizmat qiladi.

Xuddi shunga o'xshash o'zligini anglash jarayoni insoniyatning barcha tarixiy va **evolutsion** (lotincha evolutio — tabiiy ravishda o'zgarish) taraqqiyoti davrlariga xos xususiyat sanaladi. Ibtidoiy jamoa davrida kishilarning kuch-quvvati, asosan, yashash uchun kurashga va tashqi dunyoni egallashga sarflangan. Keyinroq esa tabiat haqidagi dastlabki bilimlar — tajriba va saboqlar orqali o'zlashtirilgan. Ajdodlarimiz olovni kashf qilganlar, yovvoyi hayvonlarni ovlaganlar, tabiat ne'matlaridan bahramand bo'lganlar va shu tariqa tabiat bilan tanisha boshlaganlar. Moddiy dunyoning saxiyligi, tabiat ehsonlari va ofatlari to'g'risida, hayvonot olamini madaniylashtirish (xonakilashtirish), yer ilmini o'rganish bo'yicha bilimlarning to'planishi natijasida inson tabiat boqimandaligidan qutula borgan soniyadan e'tiboran o'zligini (kimligini) anglash imkoniyati tug'ila boshlagan. Lekin u davrdagi odamlar o'zligini omilkor sifatida tasavvur eta olmaganlar. Insoniyat taraqqiyotining tarixiy bosqichlarida kishilarda ichki ruhiy imkoniyallar yuzaga kelib, tug'ma mayl va layoqat alomatlari asta-sekin iste'dodga, qobiliyatga aylana borgan. Bu jarayon birining o'rniga ikkinchisi ko'r-ko'rona (yunoncha mechanike — qurol yoki sodda tanda demakdir) yuzaga kelganligini bildirmay, balki, aksincha, murakkab sifat o'zgarishlari, organlarning takomillashuvi, tajribada to'plangan bilimlar orqali tartibga solinayotganligini ifodalaydi. Insonning jismoniy (biologik), ruhiy (psixik), ijtimoiy (sotsial) rivojlanishi natijasida Yer kurrasida tashqi dunyo, ichki dunyo, ma'naviyat, yozuv, fan, adabiyot, san'at, texnika yaratilgan. Bularning zamirida inson tafakkuri, ongi, aql-zakovati, kuchli irodasi, mustahkam **xarakteri** (yunoncha xarakter — qiyofa, xisiat degani), ijodiyoti, xayoloti yotadi. Insoniyat taraqqiyotining muayyan bosqichida odam o'zini hayajonlantirgan, taajjubga solgan savollariga javob izlay boshlaydi. Buning natijasida “Inson qanday fikrlaydi?”, “Odam qanday yangilik yaratishi mumkin?”, “Ijod

qilish qay yo'sinda paydo bo'ladi?”, “Aql-zakovatning o'zi nima?’, “Insonga uning ichki ruhiy dunyosi qaysi qonunlar asosida bo'ysunadi?”, “Inson o'ziga o'zi ta'sir o'tkaza oladimi?”, “0'zgalarga-chi?” kabi muammolar yechimini topishga kirishadi. Bularning barchasi psixologik bilimlarning tug'ilish nuqtasini vujudga keltirgan bo'lib, ana shu daqiqadan boshlab inson o'zini o'zi angladi. Binobarin, psixologik bilimlarning namoyon bo'lishi o'zini o'zi anglash omiliga aylanadi, ular tobora uyg'unlashib, mutanosiblashib borib, izchil, uzluksiz aloqaga o'sib o'tadi. Bu esa insoniyatning beqiyos yutug'i - tafakkurning kashf qilinishiga olib keldi. Avvallari uning fikri, xayoli tashqi dunyoni egallashga qaratilgan bo'lsa, tafakkur kashf qilingan davrdan boshlab sub’yekt — ob’yekt (inson fikrlashi tashqi olamga qaratilgan) munosabati o'rnini, sub’yekt (insonning fikri o'zini o'zi anglashga yo'naltirilgan) munosabati egallay boradi. Demak, inson ob’yektiv dunyoni sub’yektiv tarzda aks ettirish orqali o'zini o'zi tadqiq qilishdek murakkab ishni amalga oshirishga qaror qiladi. Shu bois psixologiya fanining vazifalari ko'lami kengaydi, takomillashdi, ichki tarkibda keskin burilish yasaldi, psixologiya o'z predmetiga insonni ilmiy jihatdan o'rganishdan tashqari, o'zini o'zi anglashini ham kiritdi. Psixologiya fani boshqa fan sohalaridan amaliy, tatbiqiy jihatlari bilan farqlanadi hamda ijtimoiy turmushning barcha jabhalarida bevosita qatnashadi va ularga muayyan darajada ta'sir o'tkazadi. Psixologiya fani boshqa fan sohalaridan o'z tatbiqiy ma'lumotlari, natijalarining ko'pqirrali va ko'pyoqlamaligi bilan ajralib turadi va u mutlaqo boshqa sifat ko'rsatkichiga ega. Ayniqsa, o'zini o'zi boshqarish jihati bilan alohida ahamiyat kasb etadi. U tabiatni o'rganish ilmidan farq qilib, o'zining psixik jarayonlari, funksiyalari, holatlari, hissiyoti, irodasi, xarakteri, temperamenti kabilarni boshqarishda o'z ifodasini topadi.

Hozirgi kunda jahon psixologiyasi fani o'zini o'zi boshqarish va kamol toptirish, o'zini o'zi qo'lga olish, o'ziga o'zi buyruq berish, o'zini o'zi tarbiyalashga doir boy materiallar to'plagan, Bu, o'z navbatida, inson munosabati, maqsadi, holati va kechinmalarining o'zgarishi va yangidan yaralishi haqida ilmiy-tatbiqiy ma'lumotlar beradi, kundalik turmush psixologiyasi rang-barangligini ta'minlab turadi. Psixologiya fani inson psixikasini aniqlash, shakllantirish, yangi sharoitga ko'chirish, kamol toptirish, rivojlanish dinamikasini ta'minlash, yangi sifat bosqichiga o'tishini qayd qilish imkoniyati borlig’i bilan o'ta amaliy, tatbiqiy fanga aylangandir. Psixologiya fani sohalari uning amaliyot uchun muhim ahamiyat kasb etishidan dalolat beradi (huquqshunoslik psixologiyasi, klinik psixologiya, mehnat psixologiyasi, savdo psixologiyasi, sotsial psixologiya, pedagogik psixologiya, maxsus psixologiya, sport psixologiyasi va hokazo). Psixologiya amaliy, tatbiqiy jihatdan o'z predmetiga ega bo'lib, amaliy sotsial psixolog, muhandis psixolog, oilaviy psixoterapevt, tibbiyot psixologi, maktab psixologi kabi sohalarni o'z ichiga qamrab olgandir.

Yuqorida bildirilgan fikrlarga yakun yasab, shu narsani alohida ta'kidlab o'tish kerakki, psixologiya fani ko'hna tarixga ega bo'lsa-da, u hali navqiron fan sanaladi, chunki ilmiy psixologiya faniga nemis psixologi V. Vundt tomonidan 1879- yilda Leypsig (Germaniya) universitetida birinchi eksperimental laboratoriya ochish bilan asos solingandi. Shuning uchun endigina **refleksiyani** (lotincha reflexus — o'zining ruhiy holatini tahlil qilish degani) ilmiy jihatdan o'rganishni psixologiya fani predmeti tarkibiga kiritish davri keldi.

Psixologiya fani tabiatshunoslik fanlari va falsafa negizida paydo bo'lgan bo'lib, hanuzgacha uning na gumanitar, na tabiiy fanlar qatoriga kiritilishi aniqlangani yo'q, biroq shunga qaramay, uni har ikkala yo'nalishdagi sohalar bo'yicha to'plangan ma'lumotlar, qonuniyatlar birlashuvining mahsuli deb atash mumkin. Ammo psixologiyaning tarkibida

ham gumanitar, ham ijtimoiy bilimlar mavjud bo'lishidan qat'i nazar, u alohida xususiyatga ega bo'lgan mustaqil fandir. Bizningcha (E.G'), ehtimol uning mohiyatini ochib berish uchun boshqa manbaga murojaat qilish haqiqatga yaqinroq. Chunki psixologiya fani yaqqol inson fazilati, muayyan taraqqiyot xususiyatlari, mexanizmlari, qonuniyatlari, o'ziga xoslik, alohidalik, yakkahollik tabiati yuzasidan bahs yuritadi. Shu jihatdan psixologiya fanini tahlil qilishda uning qay fan sohasi bilan aloqasini aniqlashdan ko'ra ilmiy va kundalik turmush psixologiyasi o'rtasidagi munosabat to'g'risida mulohaza yuritish maqsadga muvofiqdir. Ma'lumki, bar qanday fan negizida muayyan darajada odamlarning turmush va amaliy tajribasi o'z aksini topgan bo'ladi. Masalan, kimyo predmeti moddalarning xususiyatlari, ularning zichligi, og'irligi, o'zaro birikuvi to'g'risidagi kundalik turmush bilimlariga suyanadi, matematika fani sonlar, miqdoriy munosabatlar, geometrik shakllarning xossalari, trigonometrik funksiyalar haqidagi inson tasavvurlari asosiga quriladi. Lekin psixologiya yuzasidan ana shunday mulohazalar yuritish yoki bildirish mumkin emas, chunki uning zamirida tubdan boshqacha o'ziga xoslik yotadi. Har qaysi shaxs kundalik turmushning o'ziga xos psixologik bilimlarini egallagan bo'lib, o'z saviyasi, salohiyati bilan turlicha kamolot ko'rsatkichiga egadir, hatto uning turmush tajribasi va bilimlari ilmiy psixologik bilimlardan ustunroq turishi ham mumkin (“Qari bilganni — pari bilmas”). Chunonchi, yirik yozuvchilar (shaxslararo munosabat va muomala, muloqot xususiyatlari yuzasidan kuzatuvchanlikka egadirlar), shifokorlar, o'qituvchilar, ruhoniylar, savdogarlar kishilar bilan uzluksiz ravishda muomalaga kirishishlari uchun ularning ichki dunyosi va xulq-atvoriga oid bilimlari ham yuksak darajadadir. Lekin har qanday insonda ozmi, ko'pmi psixologik bilimlar mavjuddir. Buning dalili sifatida odamlarning bir-birlarini tushunishlari, ta'sir o'tkazishlari, xulq-atvor oqibatini oldindan bashorat qilishlari, kishining yakkahol xususiyatlarini hisobga olgan holda unga yordam ko'rsatishlarini ta'kidlab o'tishning o'zi kifoya.

Shulardan kelib chiqib, endi kindalik turmushning psixologik bilimlari bilan ilmiy psixologik bilimlar o'rtasidagi tafovutlarga doir mulohaza yuritish mumkin. Kundalik turmushga oid psixologik bilimlar dastavval, yaqqol va alohida olingan holat hamda vaziyatni o'z ichiga qamrab oladi. Masalan, sinchkov bola o'z muddaosiga yetish uchun otasiga, onasiga, buvasiga, opasi hamda akasiga har xil uslub bilan ta'sir o'tkazadi, turlicha vositalardan foydalanadi. U ko'zlagan maqsadiga erishish uchun katta yoshdagilarning individual-tipologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ish tutadi.

Kundalik turmushga oid psixofogik bilimlar aniq vaziyatga qaratilganligi, biror shaxsga yo'naltirilganligi bilan ilmiy psixologik bilimlardan farq qiladi.

Ilmiy psixologiya muayyan metodlar, vositalar, uslublar, usullar, operatsiyalar yordamida ma'lumotlar to'plash va ularni umumlashtirishga intiladi, izlanayotgan obyektning xususiyati, holati, munosabati, bog'lanishi kabilarni aks ettiruvchi ilmiy tushunchalar, ta'riflar, qonuniyatlar, xossalar yordamida psixologik mexanizmlar kashf qilishga harakat qiladi.

Odatda, shaxsning turmush sharoitidagi xususiyatlari, sifatlari, fazilatlari, xislatlari, xulq-atvorlari, xatti-harakatlari bilan, fan olamidagi ilmiy tushunchalar, atamalar o'zaro o'xshab ketsa-da, lekin ilmiy psixologik mazmun, mohiyat. majmua o'zining tuzilishi, tarkibi, aniqligi, mantiqan izchilligi, ma'noning yig'iqligi bilan keskin farq qiladi.

Yuqorida aytib o'tilgan mulohazalar kundalik turmush tajribasida to'planadigan psixologik bilimlar bilan ilmiy bilimlar orasidagi dastlabki farqni sharhlashga yo'naltirilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Lekin shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, turmushga oid amaliy psixologik bilimlarga asoslanmay turib, ilmiy psixologik

nazariyalarni yaratish ham mumkin emas. Holbuki, amaliy bilimlar genetik kelib chiqishi nuqtayi nazaridan birlamchi hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, kundalik turmushning psixologik bilimlari aksariyat hollarda farosatlilik, sezgirlik, topqirlik asosida, intuitiv tarzda namoyon bo'ladi. Buning sababi egallanayotgan bilimlar ko'pincha hayotiy tajribada uchragan voqelikka munosabat, amaliy sinovlar negizida vujudga keladi, vaqt o'tgan sayin undagi ayrim dag'allik va nuqsonlar silliqlanadi. Shu bois bunday psixologik bilimlar maxsus uslublar yordamida qabul qilinadi, ammo mantiqiy tahlil qilinmay turib to'g'ridan to'g'ri muomala tizimiga uzatilaveradi.

Go'daklarning turmushda uchraydigan har xil ko'rinishdagi xarxashalari va ularning maqsadga erishish istaklari kundalik hayotiy tajribalarning sinovlarida toblanadi. Sezgir bolalar esa katta yoshdagi odamlarning zaif va qat'iy jihatlarini puxta o'rganadilar va muayyan qarorga keladilar, so'ng har qaysi shaxsga alohida yondashishni amalga oshirib ko'radilar. Shu tariqa amaliy psixologik bilimlar muayyan tizimga kiritiladi, ularning barqaror xususiyat kasb etganlari esa turmushda qo'llanila boshlanadi.

Ijtimoiy hayotda juda ko'p uchraydigan, ayniqsa, o'qituvchilar, murabbiylar, trenerlar, rahbarlar, shifokorlar faoliyatida namoyon bo'luvchi ta'limiy, tarbiyaviy, tibbiy uslub arzimas ijobiy siljishni payqash imkonini yaratadi. Biroq amaliy faoliyatda erishilgan ushbu samara psixologik tahlilga muhtojdir, chunki uni keltirib chiqaruvchi obyektiv yoki subyektiv omillarni dalillash ancha mushkul. Buning uchun o'zgalarga ta'sir o'tkazish usuli, ularda ichki imkoniyatga ishonch tuyg'usini uyg'otish qo'zg'ovchisi, ta'sirga beriluvchanlikni kuchaytiruvchi motivlar (fransuzcha motif—qo'zg'atuvchi sabab ma'nosini bildiradi) tabiatini chuqur tahlil qilish kerak. Faqat shu yo’l bilan siljishning psixologik ma'no kasb etishini dalillash mumkin bo'ladi.

Hayotiy psixologik bilimlarning ilmiy psixologik bilimlardan yana bir farqli tomoni shundan iboratki, ilmiy jihatdan asoslangan bilimlar anglashilgan, mantiqiy puxta, oqilona xususiyatga ega bo'Iadi. Ilmiy psixologik bilimlar esa faraz va g'oyalarni ilgari surish daqiqasidan boshlab shakllana boradi va ulardan kelib chiqadigan natijalarni mantiqan tekshirish bilan yakunlanadi. Shunda ham olg'a surilgan g'oyalar tekshirish jarayonida biron-bir tasdiq yoki inkor ma'nosiga erishsagina ilmiy psixologik bilimlar tiziminiga kiritiladi.

Hayotiy psixologik bilimlarning ilmiy psixologik bilimlar bilan qiyoslashni davom ettiradigan bo'lsak, unda ular o'rtasidagi tafovutlar yanada yaqqolroq ko'zga tashlanadi. Ma'lumki, hayot psixologiyasida to'plangan bilimlarni meros sifatida bevosita qoldirish yoki ularni yosh avlod ongiga qaysidir yo'l bilan yetkazish imkoniyati o'ta cheklangandir. Chunki keksa avlod tomonidan yaratilgan turmush psixologiyasini yosh avlod to'g'ridan to'g'ri qabul qila olmaydi. Har bir yosh yakkahol ravishda hayotiy psixologik bilimlarni shaxsiy tajribasidan o'tkazganidan keyingina ularning to'g'riligiga ishonch hosil qiladi. Shu bois keksa yoki katta avlod bilan yosh avlod o'rtasida yuz beradigan nizolar, tushunmovchiliklar uzluksiz davom etayotganligi sababli abadiyat qonuniyatlariga aylanib ketgan. Avlodlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar, anglashilmovchilik to'sig'i hayot dialektikasini vujudga keltirib, mangulik muammosiga aylanib qolgan insof, imon, nafosat, adolat, erk tushunchalari atrofidagi bahslarni davom ettirishga puxta zamin hozirlaydi. Ilmiy psixologik bilimlar, bundan farqli o'laroq, tajribalarda, ilmiy tushuncha va qonuniyatlarda yanada oydinlashadi, so'z va alomatlar orqali, nutq yordamida muayyan yozma nutq manbalarida qoldiriladi. Shuning uchun ularning yoyilish ko'lami keng, tarqalish sur'ati tezdir.

Kundalik turmushda to'planadigan psixologik bilimlar ko'proq kuzatishlar, mulohazalar u yoki bu yaqqol holatga nisbatan biror qarorga kelish zamiriga quriladi. Ilmiy psixologik bilimlar tashxis qilish, sinash, tajriba (eksperiment) o'tkazish orqali bir voqelikni takroran tekshirishlar yordamida umumlashtiriladi. Agar kundalik turmush psixologiyasining materiallari tabiiy ravishda ro'y bergan vaziyat, holat, voqelik kabilarni tahlil qilish natijasiga ko'ra kelsa, ilmiy psixologik bilimlar keng qamrovli tajriba ma'lumotlariga tayanadi. Tajribalar esa bir necha bosqichlardan, qismlardan tashkil topgan holda vaziyatlar tabiiy ko'rinishini kutib butinlay olib borilaveradi.

Shu omilni yana ta'kidlash o'rinliki, ilmiy psixologiyada katta hajmdagi materiallar, shu jumladan, qonuniyatlar, xususiyatlar umumlashtiriladi, insonning ichki imkoniyati, iste'dodi, ishchanligi, qobiliyati yuzasidan umuminsoniy tavsifga ega bo'lgan teran xulosalar chiqariladi. Buning natijasida odam psixikasini aniqlash, bashorat qilish, ayrim ruhiy nuqsonlarni tuzatish, noxush kechinmalarning oldini olish imkoniyati tug'iladi, bu esa ijtimoiy psixologik bog'lanishlar mohiyatini oqilona tavsiflash uchun xizmat qiladi. Ijtimoiy va yakkahol turmush og'irliklari va tashvishlarini kamaytirish, aqliy hamda jismoniy zo'riqishlarni pasaytirish, shaxslararo nizolarni bartaraf etish singari sa'yharakatlarni faqat ilmiy psixologik materiallarga asoslangan holda oshirish mumkin.

Shuning uchun psixologiyaning turli sohalarida (yosh psixologiyasi, pedagogik psixologiya, tibbiyot psixologiyasi, sotsial psixologiya va boshqalar) o'tkazilgan tadqiqot ishlari ilmiy ravishda psixika, psixik holat, psixik hodisa, psixik jarayon, psixik funksiya, psixik xususiyat, ijodiyot, faoliyat, ong, xulq, muomala singari tushunchalar asosida materiallar to'plab beradi, shuningdek, psixik aks ettirishning (fizik, fiziologik, psixik, ong, o'zini o'zi anglash) moddiy asoslari, mexanizmlariga doir qonuniyat ochishga imkon yaratadi, hatto insonning o'zligini anglash va boshqarish sari yetaklaydi.

Endi psixologiya fanining predmeti to'g'risidagi savolga javob berishga urinib ko'ramiz. Ma'lumki, psixologiya tarixida bu muammoni tahlil qilishga bag'ishlangan son-sanoqsiz tadqiqotlar mavjud. Lekin ular haqida batafsil fikr yuritmoqchi emasmiz, chunki bu to'g'rida keyinroq to'xtalib o'tiladi.

“Psixologiya” (psychelogos — yunoncha so'z bo'lib. u “jon”, “rux” haqidagi fan, ta'limot, degan ma'noni anglatadi) — Jon tushunchasi o'rniga “psixika”ni qo'llashda davom etmoqdamiz. Lingvistik nuqtayi nazardan “jon”, “psixika” tushunchalari aynan bir xil ma'noni bildiradi. Lekin “psixika” tushunchasi bugungi kunda “jon”dan ko'ra kengroq qamrovga ega bo'lib, ham ko'zga ko'rinadigan, ham ko'zga ko'rinmaydigan degan ifodani o'zida aks ettiradi. Agar psixikaning tarkibiy qismlari faoliyat, xulq, muomala yaqqol namoyon bo'lish xususiyatiga ega bo'lsa, bilish jarayonlari, psixik holatlar, ichki kechimnalar, ijodiy rejalar, ilmiy farazlar miyada mujassamlashgan bo'lib ko'zga ko'rinmaydi. Psixologiya fanining keyingi davrdagi taraqqiyoti ular o'rtasida bir talay tafovutlarni keltirib chiqardi.

Psixika to'g'risida dastlabki tasavvurga ega bo'lish uchun dastavval psixik hodisalar mohiyati bilan tanishish lozim. Odatda psixik hodisalar deganda ichki, subyektiv tajribafaktlar (voqelik) namoyon bo'lishi tushuniladi, boshqacha aytganda psixika hayotning sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol kabi bar biri alohida olingan yaqqol shakllarda namoyon bo'ladi. Ichki, subyektiv tajribaning o'zi nimani anglatadi? Insondagi quvonch yoki zerikish tuyg'ulari, uning nimalarnidir esga tushirishi, biron-bir xohish yoki intilish kechinmalari, xotirjamlik yoki hayajonlanish, hadiksirash hislarining barchasi shaxsning ichki dunyosini tarkibiy qismlari bo'lib, ularning hammasi subyektiv psixik hodisalar sanaladi.

Subyektiv hodisalarning asosiy xususiyati — ularning bevosita subyektga taalluqliligidir. Agar inson idrok qilsa, sezsa, fikrlasa, eslasa, xohish bildirsa, albatta ana shu hodisalarni ayni paytda tushunib (kuzatib) ham turadi. Inson intilsa, ikkilansa, bir qarorga kelsa, biz ularning barchasi sodir bo'layotganligiai anglab turamiz. Shuning uchun psixik hodisalar bizning ruhiyatimizda sodir bo'lishidan tashqari, ular bevosita ko'z o'ngimizda ham namoyon bo'lib turadi. Obrazli qilib aytadigan bo'lsak, odamning ichki dunyosida turli hodisalar vujudga keladi, kechadi, odatda, shaxs bunday hodisalarni harakatlantiruvchi kuchi ham, ularning tomoshabini ham hisoblanadi.

Yuqorida takidlab o'tilgan subyektiv hodisalar xususiyatidan kelib chiqqan holda ayrim psixologlar psixologiya fan subyektiv kechinmalarning paydo bo'lishi va ularning kechishi bilan shug'ullanishi zarur, uning asosiy metodi o'zini o'zi kuzatish (shaxsning o'z fikrlari, his-tuyg'ulari va xatti-harakatlarini o'zi kuzatishi) bo'lmog'i kerak degan xulosaga keladilar. Biroq psixologiya fanining so'nggi davrdagi taraqqiyoti bunday cheklanganlik fanning talablarini mutlaqo ta'minlay olmasligini tasdiqlamoqda.

Psixikaning turli shakllarda ko'rinishi, jumladan, psixik jarayonlar, anglashilmagan holatlar, xulq-atvor, psixosomatik (yunonchapsyche — “jon”, somo — “tana” ma'nosini anglatadi) hodisalar, inson aql-zakovati va qo'lining mo'jizakorligi moddiy va ma'naviy madaniyat mahsulini yaratdi. Har qanday faktlarda voqelikda), hodisalarda psixika namoyon bo'ladi, o'zining xususiyatlarini ajratadi, faqat ular orqali psixikani o'rganish mumkin.

Psixologik voqelik — fakt deganda subyekt ichki kechinmalarining tarkibiy qismlari va ularning obyektiv ko'rinishlari (xulq-atvor, tana harakati, jarayoni, faoliyat mahsuli, ijtimoiy-madaniy hodisalar) orqali psixikaning xususiyatlari, holatlari, qonuniyatlarini o'rganish tushuniladi. Boshqacha aytganda, inson ongidan tashqari, unga bog'liq bo'lmagan holda hukm suruvchi obyektiv borliq, ya'ni atrofimizdagi narsa va hodisalar, muhit, sharoit va boshqalarning psixikada aks etishi psixologik voqelik deb yuritiladi.

Shunday qilib, biz yuqorida psixologiya to'g'risidagi tasavvurlar, uning predmeti hamda unga kiruvchi ilmiy tushunchaiar, psixologik holatlar, voqelik yuzasidan fikr almashdik, ilmiy psixologik materiallar o'rtasidagi bog'liqlik va tafovutga doir mulohaza yuritdik.

Bugungi kunda psixologiya to'g'risidagina emas, balki uning sohalari bo'yicha ham boy ilmiy materiallar to'plangan. Jahon psixofogiya fani tajribasidan quyidagi sohalar mustaqil tadqiqot predmetiga ega ekanligi haqida ishonchli dalillar mavjuddir: mehnat psixologiyasi (muhandislik psixologiyasi, aviatsiya psixologiyasi, kosmik psixologiya), pedagogik psixologiya (ta'lim psixologiyasi, tarbiya psixologiyasi, oliy maktab psixologiyasi, maxsus psixologiya, iste'dod psixologiyasi), tibbiyot psixologiyasi (psixoterapiya, psixogigiyena, psixofarmokologiya, patopsixologiya), yuridik psixologiya (mehnat tuzatish, sud psixologiyasi, sud psixologik ekspertizasi) harbiy psixologiya, savdo va reklama psixologiyasi, sport psixologiyasi, yosh psixologiyasi, qiyosiy psixologiya, psixofiziologiya, eksperimental va amaliy psixologiya kabilar.

Psixologiya predmeti quyidagilarni qamrab olishi zarur:

1) psixologik bilish jarayonlari (sezgi, idrok, xotira va hokazo);
2) psixikaning shakllari (faoliyat, xulq, muomala);
3) psixikaning holatlari (kayfiyat, xayolparishonlik kabilar);
4) psixikaning hodisalari;
5) psixikaning xislatlari, fazilatlari, sifatlari, xossalari;
6) psixikaning qonuniyatlari;

7) psixikaning mexanizmlari;
8) psixik sharoit, muhit, vaziyat;
9) o'zaro sababiy bog'lanishlar;
10) tadqiqot metodlari, vositalari, materiallari, prinsiplari va hokazo.

Psixologiya va uning moddiy asoslari

Psixikaning moddiy asoslari to'g'risida fikr yuritganda, avvalo, u miyaning xususiyati ekanligini ta'kidlash joiz. Bilish jarayonlari to'g'risida gap ketganida, albatta sezgi, fikr, ong kabilar maxsus ravishda tashkil topgan materiyaning oliy mahsuli ekanligini uqtirish maqsadga muvofiqdir. Organizmning psixik faoliyati tana ko'pgina a'zolarining yordami bilan ishga tushadi. A'zolarning ba'zilari ta'sirotlarni qabul qilsa, boshqalari ularni signallarga aylantiradi, xatti-harakatlarning rejasini tuzadi hamda uning amalga oshishini nazorat qiladi. Shuningdek, ularning bir guruhi xatti-harakatga kuch-quvvat, g'ayrat, shijoat baxsh etadi, yana bir tun esa mushaklarni, paylarni harakatlantiradi. Mana shunday murakkab funksiyaning yig'indisi organizmning tashqi muhitga moslashuvini, unga muvofiqlashuvini, hayotiy vazifalarning ijro etilishi va bajarilishini ta'minlaydi.

Organik olamning mikroorganizmdan to insonga qadar bir necha o'n million yillar davom etgan evolutsiyasi davomida xatti-harakatlarning, xulq-atvorning fiziologik mexanizmlari uzluksiz ravishda murakkablashib, tabaqalasha borib, buning natijasi o'laroq organizm muhitning o'zgarishlariga tez reaksiya bildiruvchan va moslashuvchan xususiyat kasb etib borgan.

Jumladan, bir hujayrali amyobaning hayot kechirishi, uning ozuqa qidirish imkoniyati, o'z hayotini muhofaza qilish qobiliyati muayyan darajada cheklangandir. Undagi yolg'iz hujayraning o'zi ham sezuvchi, ham harakatlanuvchi, ham ovqat hazm qiluvchi vazifalarni ijro etadi. Murakkab tuzilishga ega bo'lgan hayvonlarda a'zolarning ixtisoslashuvi ozuqani ko'rish, uni farqlash, xavf-xatarni tez sezish, aniq mo'ljal olish imkoniyatini beradi. Ixtisoslashuvning asosiy funksiyasi signallarni idrok qilishdan iborat hujayralarning vujudga kelishida o'z aksini topadi. Mazkur hujayralar retseptor deb nomlanmish hujayralar turkumini yuzaga keltiradi. Hujayralarning boshqalari mushak to'qimalari ishini, bezlarning shira ajratishini nazorat qiladi. Bunday hujayralar effektorlar deyiladi. Ixtisoslashuv a'zolarni hamda funksiyalarni bir-biridan ajratadi. Organizmning asosiy boshqaruv imkoniyati yaxlit narsa sifatida harakat qiladigan markaziy nerv sistemasi vositasida yuzaga keladi.

Nerv sistemasining asosiy elementlari nerv hujayralari hisoblanib, ularning funksiyasi qo'zg'atishdir. Neyron hujayra tanachasidan, dendritdan, aksondan tashkil topadi. Markaziy nerv sistemasi bosh miya va orqa miyadan iborat.

Hozirgi zamon fanining ko'rsatishicha, orqa miya va miya naychasi reflektor faoliyatining tug'ma (shartsiz reflekslar) hisoblangan shakllarni amalga oshiradi, katta yarimsharlarning qobig'i esa hayotda orttirilgan, psixika yordami bilan boshqariladigan xulq-atvor shakllarining organi sanaladi.

Miya katta yarimsharlari faoliyatining umumiy qonunlari I.P.Pavlov tomonidan kashf etilgan. Hozirgi zamon fiziologiyasi ma'lumotiga qaraganda, miyada hosil bo'ladigan to'lqinlar turli chastotadagi elektromagnit tebranishlariga o'xshab ketadi. Miyada elektr toklari paydo bo'lishining elektroensefalogramma ko'rinishdagi kuchaytirgich yordamida yozib olishning kashf etilishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Chunki kosmonavt miyasining

biotoklari yozuvi uning markaziy nerv sistemasida yuz beradigan o'zgarishlar ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi.

Odam psixik hayotida katta yarimsharlar qobig'i sirtining peshana qismlari alohida rol o'ynaydi. Psixik funksiyalar muayyan tarzda chap va o'ng yarimsharlar o'rtasida taqsimlanishi chuqur o'rganilgan. Ma'lumki, psixikaning mazmuni — tirik mavjudot o'zaro munosabatda bo'ladigan tashqi olam bilan belgilanadi. Shuning uchun tashqi olam inson miyasida shunchaki oddiy biologik muhit emas, balki odamlar tomonidan ularning tarixiy taraqqiyot davomida yaratilgan hodisalar olami hamdir.

Psixik va nerv-fiziologikjarayonlarning o'zaro munosabati masalasi murakkab muammolardan hisoblanadi. Shuning uchun psixikaning o'ziga xos xususiyatlarini nerv-fiziologik xususiyatlaridan qanday muhim belgilari bilan farqlanishini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Bordiyu mazkur o'ziga xoslik mavjud bo'lmaganida edi, u holda psixologiya mustaqil bilim sohasi sifatida tadqiq etilishi ham mumkin emasdi. Psixik jarayonlar o'zida faqat ichki fiziologik jarayonlarni emas, balki tashqi obyektlarning tavsifini ham mujassamlashtiradi.

2. Psixologik ta'limotlar tarixidan

Psixologiya tarixidan

Psixologiya tarixi – bu avvalo insoniyat tomonidan hayvonlarga va insonga xos bo’lgan psixik hayot hodisalari haqidagi bilimlarning asta-sekin to’planib borish tarixidir. Psixologiya tarixi bilan tanishar ekanmiz, inson va hayvonlarning psixik hayotini o’rganishga bo’lgan intilish kishilar hayotining har xil tarixiy bosqichlarida ularning qanday nazariy va amaliy ehtiyojlari bilan taqozo qilganligini, psixik hodisalar qay tarzda kashf qilingan, qaror topgan va aniqlanganligini, ular qanday tushuntirilganligini, ularning ba’zi qonuniyatlari qanday ochilganligini bilib olamiz. Bundan tashqari, psixologiya tarixi tarixiy hayotning har xil bosqichlarida, fan va madaniyatning umumiy taraqqiyoti munosabati bilan psixologik bilimlar sohasi qanday kengayib borganligi hamda dastlab yakkayu-yagona bo’lgan psixologiya qay tarzda taraqqiy etib, butun bir psixologiya fanlari sistemasi darajasiga ko’tarilganligi haqida ham ma’lumot beradi.

Psixologiya tarixida psixikani yanada chuqur va aniq bilish imkoniyatini beradigan, psixologiya fani taraqqiyotiga ko’maklashadigan foydali ilmiy-tekshirish metodlarining izlanishi va yaratilishi katta o’rin tutadi.

Psixologiya hyech qachon ajralgan fan bo’lmagan: u hamisha boshqa bilim sohalari bilan bog’liq holda taraqqiy etib borgan. Umumfan taraqqiyoti tarixida bu bog’lanishlar kengaydi va chuqurlashdi. Boshqa fanlarning yutuqlari psixologiya taraqqiyotiga qanday ta’sir ko’rsatganligini, bilim sohalarining taraqqiyotida psixologiyaning roli qay darajada bo’lganligini, psixologiyaning ilmiy yutuqlari amaliyotda qanday tadbiq qilinganligini kuzatib borish juda qiziqarlidir.

Albatta, psixologiya tarixida turlicha qarashlar va yo’nalishlar bo’lishiga qaramasdan, bu fanning predmeti, ya’ni hayvon va insonlarga xos bo’lgan psixika birdayligicha qolaveradi. Tarixiy jihatdan psixologiyaning o’rganish predmeti emas, balki shu predmetni tushunish, psixik hayot mohiyatini tushunish o’zgarib keladi.

Psixologiya predmetini tushunishdagi muhim o’zgarishlar, yangi psixologik tekshirish metodlarining yaratilishi hamda ularning keng tatbiq qilinishi, ilmiy-falsafiy tafakkurning umumiy yo’nalishi psixologiya fanining tarixiy taraqqiyotidagi

xususiyatlarni belgilab bordi.

Antik dunyoda psixologiyaning paydo bulishi va dastlabki taraqqiyoti

“Psixologiya” termini XVI asrning oxirlarida paydo bo’lib, faqat XVIII asrning oxiri va XX asrning boshlaridagina keng qo’llaniladigan bo’ldi.

Lekin keyinchalik “Psixologiya” deb atalgan ta’limotning o’zi bundan ikki yarim ming yil oldin Gresiyada paydo bo’lgan.

VII-V asrlardagi qadimgi grek filosoflari boshqa dunyoning mohiyatini, uning kelib chiqishini bilishga uringanlar. Shu munosabat bilan ular tabiat haqida, inson haqida, uning olamda tutgan o’rni haqida, xususan uning ruhi va ruhiy hayoti, uning taqdiri haqida fikr yuritganlar.

Qadimgi grek filosoflarining ta’limotiga ko’ra, dunyoning asosida qandaydir bitta moddiy narsa yotadi. Ularning fikricha, inson ham dunyoning bir qismi sifatida shu moddadan tashkil topadi. Masalan, Falesning (624-547-yillar) ta’lim berishicha, butun mavjudotning, shu jumladan, inson tabiatining ham, asosi suvdir. Inson ruhi va ruhiy hayoti par (bug’) shaklida tasavvur qilingan.

Anaksimen (b.e.a. 588-525 y.) butun mavjudot zichlashish va siyraklashish qobiliyatiga ega bo’lgan havodan tashkil topgan, deb ta’lim beradi. Ruh – bu juda siyraklashgan havodir, deydi u.

Geraklit-Tyomniy (b.e.a. 544-483 y.) tabiatning asosi o’t (olov)dir deb hisoblagan. “Hamma narsa olovdan paydo bo’ladi va hamma narsa yana olovga aylanadi”. Butun dunyo, alohida narsalar, shuningdek, inson ruhi ham olovdan kelib chiqadi, deydi u.

Geraklitning fikricha, ruh – bu dunyoning abadiy harakatlanadigan va o’zgarib turadigan asosining – olovning o’tkinchi holatlaridan biridir.

Empedokl (Sisiliya orolidan, 483-423 y.) “Tabiat haqida” degan poemaning avtori bo’lib, u dunyoning asosida qandaydir bitta stixiya (suv, havo, tuproq yoki olovdan bittasi) emas, balki to’rt stixiyaning hammasi, ya’ni suv, havo, tuproq va olov yotadi deb ta’lim bergan. Empedoklning ta’limotiga ko’ra, dunyodagi narsa va hodisalarning turli-tumanligi shu to’rtta elementning birikishi bilan izohlanadi.

Demokritning ta’limotiga ko’ra, tan va ruh egasi bo’lgan inson atomlardan, tarkib topadi. Odamning tanasi qo’polroq, ilmoqsimon, g’adir-budur va sekin harakatlanadigan atomlardan tashkil topadi, ruhi esa eng silliq, dumaloq, sirg’anchiq, binobarin, eng harakatchan atomlardan tashkil topadi. Ruhning har bir ayrim atomi, hatto uning kichkina gruppalari ham sezuvchanlikka ega emas. Ularning bir qanchalari birlashibgina, sezuvchanlik qobiliyatiga ega bo’ladi. Ruh atomlari butun badanga tarqalgan, lekin ularning ko’pchiligi ko’zda, quloqda, panja uchlarida, yurakda hamda bosh miyada joylashgan. Bizning sezgilarimiz, hislarimiz va fikrimiz shu ruh atomlarining maxsus harakatidir. Atrofimizdagi narsalardan doimo dumaloq, yengil atomlar ajralib chiqib, fazoda uchib yuradi. Agar shu atomlardan birortasi ko’zimizga tushsa, biz ko’ramiz; qulog’imizga tushsa eshitamiz, burnimizga kirsa, biror narsaning hidini sezamiz va hokazo. Bizning fikrlarimiz – bu bosh miyadagi ruh atomlarining harakatidir. Bizning hislarimiz, intilish-ehtiroslarimiz – bu yurakdagi ruh atomlarining harakati. Demokritning ta’limotiga ko’ra, ruhiy hayotning markazi yurakdir. Ruhimizni tashkil qiluvchi atomlar tanamizdan chiqib ketmaguncha biz o’z-o’zimizni anglaymiz. Shu atomlarning bir qismi tanamizdan chiqib ketganda uyqu va shunga o’xshash ongsiz holat ro’y beradi, agarda deyarli barcha atomlar tanamizdan chiqib ketsa, yarim o’lik holat (behushlik holati) ro’y

beradi. Barcha ruhiy atomlarining tanadan butunlay ajralib chiqib ketishi o'limga olib keladi. Demokrit ruhning abadiyligini inkor qilgan. Uning ta'limotiga ko'ra, tana o'lishi bilan ruh ham o'ladi: u – moddiy narsadir, maydalanib dunyo atomlarining umumiy yig'indisiga qo'shilib ketadi.

Antik dunyoning ikkita buyuk mutafakkiri Sokrat (469-399 y.) va Platon (427-347 y.) lar ham Demokrit bilan deyarli bir vaqtda yashadilar va ijod etdilar. Sokrat ham, Platon ham jon va tan mutlaqo har xil, hatto qarama-qarshi bo'lgan ikkita mohiyatdir, deb ta'lim berganlar. Tana moddiydir, uni tashqi sezgi organlari bilan idrok qilish mumkin: uni ko'rish va sezish mumkin, u fizik jismdir.

Jon moddiy emas, balki ruhiydir: uni sezgi organlari yordami bilan idrok qilish mumkin emas. U tanaga qarama-qarshi bo'lib, fizik jism emas, balki metafizik, sezib bo'lmaydigan narsadir. Jon moddiy dunyoga emas, balki boshqa – ideal dunyoga, haqiqatan yashayotgan g'oyalar, "obrazlar" dunyosiga taalluqlidir. Jon inson tanasiga o'sha dunyodan kelib qo'shiladi. Uning tana bilan birga bo'lishi vaqtinchalikdir, tana o'lishi bilan jon yana ideal dunyoga qaytib ketadi.

Yerdagi hayot davomida jon tanaga mahkum etilgan, u zindondagi narsa kabi, doimo g'oyalar dunyosiga chiqib ketmoqchi bo'lib intilib turadi.

Platon fikricha, haqiqiy bilimning birdan-bir manbai – g'oyalar dunyosidir. Bizning atrofimizdagi dunyoni sezishimiz va idrok qilishimiz esa, faqatgina o'zgarib turadigan beqaror hodisalar haqida bilim beradi, xolos.

Biroq, jonning (ruhning) ideal holda namoyon bo'lishi ko'pchilik kishilarda to'silib turilishi va moddiy tanaga bo'ysundirilishi mumkin, Oqibatda, jon g'oyalar dunyosini go'yo esdan chiqarib, materiyaga g'arq bo'lmog'i mumkin.

Shuning uchun ham yer yuzidagi hayot sharoitlarida inson joni, materiyaga qanchalik g'arq bo'lish darajasiga qarab, go'yoki uch qismga bo'linadi. Har bir kishida ularning har biri har xil darajada namoyon bo'ladi. Eng oliy qismi – bu insonning g'oyalarni ko'rish-bilish darajasigacha ko'tarila olish qobiliyatiga ega bo'lgan yuksak aqldir, jonning bu qismi insonning boshida o'rin oladi; jonning faol qismi, g'azab, shuhratparastlik, olijanoblik ehtiroslari va ma'naviy fazilatlar manbaidir, u yurakda joylashgan. Jonning uchinchi qismi turli xush-noxush hislar. U his va kayf-safoga doir his-tuyg'ular manbai bo'lib, qorinda joylashgan bo'ladi.

Jonning qaysi qismi ustun chiqishiga qarab, kishining har xil individual xususiyatlari – hayotining yo'nalishi, xarakteri, mayl va qobiliyatlari paydo bo'ladi,

Qadimgi grek faylasuflari, shuningdek Sokrat va Platonlar ham o'zlarining qarashlarini sistemali bayon qilingan mukammal asar sifatida qoldirmaganlar. Ularning bu fikrlari asosan ayrim-ayrim mulohazalar tariqasida saqlanib qolgan. Platonning psixologik fikrlari esa har xil falsafiy asarlarida-dialoglarda sochilgan.

Grek faylasuflaridan birinchi bo'lib ruh va ruhiy faoliyat haqida sistemali ta'limot yaratgan kishi Aristotel (384-322 y.) bo'lgan. Aristotel Platonning shogirdi bo'lib, uning ta'limotiga tanqidiy yondoshgan.

Aristotel maxsus ilmiy predmet sifatidagi psixologiyaning asoschisi va otasidir, u bir qancha asarlar – traktatlar yozib, ularda psixologiya masalalari bo'yicha o'z ta'limotini bayon qiladi. Bulardan eng muhimi "Peri psixis", ya'ni "Ruh haqida" deb nomlangan traktatidir.

Aristotel ruh tana bilan uzviy bog'langan, deb hisobladi. Lekin uning fikricha ruh moddiy, jismiy ham bir narsa emas.

Aristotel jon (ruh)ning uch qismi haqida Platon ta'limotidan farq qilib, uch xil jon

(ruh) haqida vegetativ, sezuvchi va aqlli ruh turlari haqida ta'limot yaratdi. Begetativ ruhning faoliyati ovqatlanishda va ko'payishda ifodalanadi. Ruhning bu turi o'simliklarda, hayvonlarda, in-sonlarda ham bo'ladi. Sezuvchi ruhning faoliyati sezgi va hislarda, xotira va tasavvurlarda namoyon bo'ladi. Ruhning bu turi hayvonlarda ham, insonlarda ham bo'ladi. Aqlli ruhning faoliyati tafakkurda, bilimda va ixtiyoriy harakatlarda yuzaga chiqadi.

Aqlli ruh faqatgina insonlarga xosdir. Shu aqliy insoniy ruh va uning faoliyati haqidagi mulohazalar Aristotel psixologiyasida asosiy o'rin tutadi. Uning fikricha, bu ruhning mohiyati yashirin, ilmiy yo'l bilan bilib bo'lmaydigan botir kuchdan iborat. "Ruh haqida aniq tushuncha berish, – deydi Aristotel, – har jihatdan haddan tashqari qiyin ish, ruh bu jism emas, balki o'shanga xos bir narsadir... U mavhum tushunchadir". Aristotelning fikricha, aqlli ruh ilohiy yo'l bilan paydo bo'lgan; u tanadan tashqarida ham yashay oladi. Tana o'lgandan keyin "aqlli ruh, ilohiy ruh bilan qo'shilib ketadi".

Aristotel ruh va tananing o'zaro munosabati masalasiga katta e'tibor bergan. "Ruh, deydi u, o'z tabiatiga ko'ra hukmron asosdir, tana esa tobe narsadir". Forma materiyaga nisbatan qanday bo'lsa, ruh ham tanaga nisbatan xuddi shunday. U hayotga ma'no va yo'nalish beradi. Ruh ta'sir qiladi va harakatlantiradi, tana esa ta'sirlanadi va harakatga keladi. U ruhning birlamchiligi haqidagi umumiy tezisni quyidagi so'zlarda ifodalagan: "Ruh tirik tananing sababi va manbaidir".

Aristotel ruhning mohiyati va uning tana bilan o'zaro munosabati haqidagi bu o'ziga xos fikrlar bilan birga, birinchi bo'lib, o'z-o'zida kuzatish mumkin bo'lgan ruhiy hodisalarni tasvirlab yozgan va klassifikasiyalashtirgan. Uning psixologiyasida hozirgi zamon psixologiyasiga asos bo'lgan ko'pchilik tushunchalarni uchratish mumkin, chunonchi: tashqi beshta sezgi va sezgilar haqida, xush va noxush hislar haqida, ixtiyoriy va ixtiyorsiz prosesslar haqida, tasavvur va asso-siasiyalar haqida, tafakkur haqida, tushunchalar va xulosa chiqarishlar va hokazolar haqida ta'limot yaratdi.

Aristotel, inson sezgilari tashqi moddiy qo'zg'ovchilar ta'siri tufayli hosil bo'ladi degan fikrni ta'kidlagan. Tafakkur haqidagi ta'limotida u Platonning umumiy va mavhum tushuncha-g'oyalar narigi dunyodan kelib chiqqan degan ta'limotini inkor qildi. Aristotel tushunchalarida ifodalangan umumiylik yakka narsalardan tashqarida yoki yakka narsalardan avval o'zi bor bo'lgan emas, balki yakka narsalarning o'zida bo'ladi, degan ta'limotni ilgari surdi.

Epikur (342-271 y.) va rim shoiri-filosofi Lukresiy Karr (99-55 y.) lar xam ruh haqida o'z qarashlariga ega edilar ya'ni, Epikurning fikricha, ruh g'ayri jismoniy bir narsa emas, "Jismsiz bo'shliqdan boshqa hyech narsani fikrlash mumkin emas... Ruhni g'ayri jismiy narsa degan kishilar alaxsirayaptilar" Epikur moddiy bo'lmagan substansiyaning mavjudligini mutlaqo inkor qilib, "ruh butun organizmga tarqalgan juda nozik jismdir" deb hisobladi.

Lukresiy esa o'zining "Narsalarning tabiati haqida" degan asarida atomistik ruh xaqidagi ta'limotni poetik formada bayon qiladi. U moddiy bo'lmagan ruhning mavjudligini inkor qildi. "Jon, ruh yoki-aql moddiy bo'lib, faqat inson tanasiga xos bo'lgan kuchlarnigina tashkil qiladi"... Ruh ham, jon ham, jismiy tabiatga ega.

Lukresiy psixik hodisalarning tanaga bog'liqligini tajribaga asoslanib isbot qiladi. U "aql ham tana bilan birga o'sadi va so'ladi aql ham tana singari, kasallikka duchor bo'ladi, mastlik natijasida xiralashadi" degan va shunga o'xshash dalillar keltiradi. Lukresiy bu dalillarga asoslanib, ruhning abadiyligi to'g'risidagi ta'limotning yolg'onligi haqida xulosa chiqaradi.

Platon bilan Aristotel yaratgan ruh haqidagi ta'limot o'rta asrlarda – Sharqda ham, G'arbda ham hukmron bo'lib qoldi. Psixologiyadagi bu oqim keyinchalik (XVIII asrda) metafizik yoki rasionalistik psixologiya deb nom oladi.

Bu psixologiya shuning uchun ham metafizik deb ataladi-ki, uning tekshirish predmeti bo'lgan – ruh, psixik prosesslar – fizik hissiy dunyo chegarasidan tashqarida mavjud mohiyat, g'ayri jismiy bir narsa deb tushuntiriladi; shuning uchun ham rasionalistik deb ataladiki, uning tekshirish metodi tajribadan ajratilgan faqat quruq mulohazadan iborat edi.

O'rta asr mutafakkirlarining ruh va ruhiy hayot haqidagi mulohazalari, asosan, ruhning mohiyati haqidagi, uning kuchi, qobiliyatlari va kelib chiqishi haqidagi, uning tana o'lgandan keyingi taqdiri haqidagi, ruhning tanaga bo'lgan munosabati haqidagi masalalarga qaratilgan edi.

Ruhning mohiyati haqidagi masala, odatda, Platon va Aristotellarda qanday hal qilingan bo'lsa, xuddi shunday hal qilinar edi. Ruh o'z tabiatiga ko'ra barcha moddiy va jismoniy narsalarga qarama-qarshi qo'yilar edi. Ruh o'z tabiatiga ko'ra alohida qobiliyatlarga egadir, deb fikr yuritilardi.

Shuningdek, o'rta asr mutafakkirlari iroda masalasiga alohida e'tibor berdilar.

Masalan, Avgustin Ipponskiy (353-430 y.)birinchi bo'lib-kishining boshqa ruhiy qobiliyatlari orasida irodaning muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida fikr yuritgan. Irodaning ustunligi haqida, ayniqsa, Duns Skott (1265-1308 y:) ning ta'limoti juda yaqqoldir. Uning aytishicha, iroda aql-dan ham yuqori turadi.

Butun o'rta asr tarixi mobaynida, undan keyingi vaqtlarda ham, filosofiya va psixologiyada iroda erkinligi haqidagi tortishuv juda katta o'rin egalladi. Bu masala bo'yicha V asrdayoq ikkita oqim – determinizm va indeterminizm paydo bo'lgan.

XVI-XVII asrlar: empirik psixologiyani paydo bo'lishi va uning dastlabki taraqqiyoti

XVI asrning oxiri va XVII asrning boshlarida G'arbiy Yevropada filosofiya va ilmiy tafakkur sohasida keskin burilish ro'y beradi. Fanda tajribaga asoslangan yangi oqim (empirik oqim) rivojlana boshlaydi. Ilmiy tafakkurdagi bu burilish, odatda, ingliz mutafakkirlari F. Bekon, Gobbs, Lokklarning, shuningdek, fransuz filosofi R. Dekartning nomi bilan bog'langan.

Frensis Beko**n** (1561-1625 y.) va Tomas Gobbs (1588-1679 y.) Bekon ta'limotiga ko'ra, fan, birinchi navbatda atrofdagi tabiatni, uning ba'zi bir hodisa va qonunlarini o'rganish bilan shug'ullanmog'i kerak. Tabiatni o'rganish uning ustidan hukmronlik qilish uchun kerak. Tabiatni o'rganish metodi umumiy og'zaki mulohazalardan emas, balki tajribadan iborat bo'lmog'i kerak. Bekon rasionalistik deduktiv metodni fanda befoyda deb inkor qildi va tajribaga asoslangan induktiv metodni asoslab berdi. Ayni vaqtda Bekon ruh va ruhiy hayot haqidagi masalalarni ham qo'zg'agan edi.

Bekon ruhni ikkiga bo'ladi: aqliy va hissiy ruhlar. Birinchisi ilohiy nafasdan kelib chiqadi, ikkinchisi moddiy (jismiy) bo'lib, barcha organik mavjudotlarga xosdir. Hayvonlarning tanasi hissiy ruh organidir, insonda esa tana aqliy ruh organi bo'lib xizmat qiladi.

Bekon ruhning qobiliyatlari haqida gapirar ekan, fahm, aql, xotira, istak, irodalarni ko'rsatadi. Lekin uning ta'limotining bu qismi rivojlantirilmagan. Psixologiya masalalarida u ayrim-ayrim tasodifiy mulohazalar bilan cheklanib qolgan.

Bekonning tasavvurlar mexanikasi haqidagi fikrlarini boshqa bir ingliz faylasufi –

Gobbs yanada mufassalroq rivojlantirdi. Gobbsning fikricha, psixik hayotning asosini go'yoki o'ziga tortuvchi, jalb qiluvchi (huzur, istak, muhabbat) va ranjitadigan (og'riq, qo'rquv, nafrat) kuchlaridan iborat bo'lgan ehtiroslar tashkil etadi. Psixologik hodisalarning o'zi moddiy tartibdagi faktlardir. Ularning rivojlanishi nutqning rivojlanishi bilan bog'liqdir.

Dekart psixologiya sohasidagi ta'limotini, asosan o'zining "Ruh ehtiroslari haqida" degan asarida bayon qilgan.

Ruhning faoliyati sezgilar, xotira, tafakkur, iroda – o'z qonuniyatlariga, ya'ni ruhiy qonunlarga binoan ro'y beradi, tananing faoliyati (harakat) esa mexanika qonunlariga binoan ro'y beradi. Shunday qilib, psixik va fiziologik (moddiy.) jarayonlar parallel holda ro'y beradi. Shuning uchun ham Dekart XX asrgacha bo'lgan psixologiyada keng tarqalgan nazariyaning, ya'ni; psixofizik parallelizm ta'limotining asoschisi hisoblanadi.

Ingliz olimi va pedagogi Jon Lokk Bekon kashf qilgan ilmiy metodning bevosita davomchisi edi. Lokk psixologiya ham, boshqa tabiat fanlari singari, og'zaki mulohazalarga emas, balki tajribaga asoslanmog'i kerak, deb hisoblaydi. Shuningdek u ruhning va uning kuchlarining asl mohiyatini bilish mumkinligini inkor qildi. "Men, deydi Lokk, ruhning mohiyati nimadan iborat yoki hayotiy ruhimizning qanday harakatlari sezgilarga... yoki tasavvurlarga olib keladi degan tekshirishlar bilan o'zimni qiynab o'tirmayman, chunki bu quruq mavhum fikr yurgizishdir" Lokkning aytishicha, faqat ruhiy hodisalarni o'rganish kerak. Bu hodisalarni o'rganishning birdan-bir metodi tajriba va kuzatishdir.

M.V.Lomonosov birlamchi va ikkilamchi sifatlar haqidagi ta'limotni tanqid qilib chiqdi. Uning ta'limotiga ko'ra, ikkilamchi subyektiv sifatlar yo'q: bizning hamma sezgilarimiz obyektivdir.

Shuni aytish kerakki, XVIII asrda Yevropaning barcha mamlakatlarida, ayniqsa Angliyada empirik psixologiya yagona hukmron psixologiya sistemasi bo'lib qoldi.

2.2. Psixologiyaning ilmiy fan sifatida shakllanishi (19-20-asrlar)

Boshqa fan sohalari, ayniqsa, tibbiy-biologik izlanishlarda inson va uning murakkab tuzilishi, ruhiy hayotiga qiziqish ortib borgan sari sekin-asta psixik jarayonlarning ham yaxlit bir tizimi bo'lishi va uni ham fanning yutuqlaridan foydalangan holda o'rganish mumkinligi g'oyasi paydo bo'ldi. Qolaversa, XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, inson ruhiyati to'g'risidagi psixologik hamda falsafiy qarashlar bilan tabiiy-ilmiy (anatomik, fiziologik, biologik, bioximik va boshqalar) qarashlar o'rtasida tafovutlar chiqqani sari uning alohida fan sifatida shakllanishi zarurati ortib bordi. Olimlar orasida aynan inson ruhiy olamini izchil va tizimli o'rganishga extiyoj paydo bo'ldi.

XIX asr oxirlarida, aniqrog'i, 1879 yilda nemis olimi *Vilgelm Vundt* Leybnis universitetida dunyoda birinchi ekmperimental psixologik laboratoriyaga asos soldiki, unda o'tkazilgan yuzlab tajribalar va eksperimentlar psixologiyaning ham alohida fan sifatida o'zini ko'rsatishga haqli ekanligini isbotladi. Aynan shu insonning, Vundtning, psixologiya ilmi maktabini yaratganligida ham ma'no bor. Chunki Vundt tibbiyot fani bo'yicha ham mukammal bilimlarga ega bo'ldi, keyin fiziologiya sohasida muvaffaqiyatli ishladi, so'ngra falsafaga berilib ketdi. Balki, aynan bir qator fanlarni – ham gumanitar, ham tabiiy fanlar asoslarini yaxshi bilganligi obyektiv sabab bo'lgandirki, olim odam psixologiyasi, unda ro'y beradigan jarayonlar – oddiy sezishdan tortib, mavhum

tafakkurgacha bo'lgan jarayonlarni, hissiy holatlarni amaliy tarzda eksperimentlarda o'rgana boshladi. Uning maqsadi – eng avvalo inson ongini tashkil etuvchi sof elementlarni ajratib olishdan iborat edi. Shuning uchun ham psixologiyada u asos solgan yo'nalish *strukturalizm* deb nomlandi.

Vundtning ta'siri shu qadar bo'ldiki, yer kurrasining boshqa bir tomonida – Amerika qo'shma Shtatlarida *funksionalizm* deb nomlangan yana bir yo'nalish paydo bo'ldi. *E. Titchener* asos solgan bu yo'nalish vakillari nafaqat ko'zga ko'rinmas ong tizimi elementlari, balki ko'z bilan ko'rish mumkin bo'lgan va faoliyat natijalariga asoslangan belgilar asosida ham inson xulqi-atvoriga baho berish mumkinligini isbotladilar. Boshqa bir yirik amerikalik psixolog *V. Jeymsning* tadqiqotlari amaliy ahamiyatga molik bo'ldiki, endi u dadil psixologiyani ong elementlari emas, balki ong faoliyatini o'rganuvchi fan deb ta'riflay boshladi. Ong dinamik, harakatdagi, o'zgaruvchan yaxlit tuzilma bo'lib, uning namoyon bo'lishida tananing shart-sharoitlari, uning faolligi muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham bu ikki tuzilmalar odamning yangi sharoiitlarga moslashuvi, va umuman tashqi muhitda o'z o'rnini topishga imkon beradi.

Yuqoridagi fikrlar ta'sirida XIX asrning oxirlarida bugun ham o'z aamiyatini yo'qotmagan *bixeviorizm* oqimi paydo bo'ldi. *E.Torndayk va D.Uotsonlar* asos solgan ushbu yo'nalish vakillarining asosiy g'oyalari shundan iborat bo'ldiki, ular psixologiyaning predmeti nafaqat ong, yoki nafaqat faoliyat, balki *xulqdir*, deb asoslashdi. Xulq u yoki bu xatti-harakatlar, amallar, reaksiyalarda ifodalanib, tashqi ta'sirot – stimulga bog'liqdir. Shuning uchun ham odam va uning psixologiyasini bilish uchun o'sha ta'sir ko'rsatuvchi va ta'sirlangan xulq o'rganilishi kerak. Bu narsalar bizning hozirgi sharoitimizda ham ishlab chiqarishni tashkil etishda, ta'lim berishda va psixoterapiyada inobatda olinadi, ular o'tkazgan mashhur ***"S→R"*** formulasi bizning sharoitlarda ham ta'sir ko'rsatish texnikasida inobatga olinadi, ular o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q.

Psixologiya fan sifatida shakllanib, unda olimlar qarashlari shakllanib borgan sari, ruhiy kechinmalar tabiyatini negizidan, ich-ichidan o'rganishga ehtiyoj paydo bo'ldi. XX asrning boshlarida paydo bo'lgan *psixoanaliz* yo'nalishi fandagi aynan shu kamchilikni bartaraf etish maqsadida paydo bo'ldi. Klassik psixoanalizning asoschilaridan bo'lgan avstriyalik olim *Zigmund Freyd* psixologiya nafaqat ong sohasini, ya'ni bevosita odam tomonidan anglanadigan xulq-atvor shakllarini, balki ongsizlikka aloqador hodisalarni, ya'ni real sharoitda inson o'zi anglab yetolmaydigan hodisalar tabiatini ham o'rganishi lozim degan g'oyani ilgari surdi.

Freyd ikkita asosiy narsaga e'tiborni qaratdi:

- *Birinchi*. Har qanday psixik jarayon yoki holat ongli, ongoldi va ongsiz bosqichlarda yoki holatlarda ro'y beradi. Shaxs tizimida ham bu uchchala bosqichning o'rni bo'lib, ular "Id (U) → Ego (Men) → Superego (Mendan oliy)" bo'laklarda ifodalanadi.
- ***Id*** *– psixik energiyaning o'ziga xos zahira joyi bo'lib*, undagi jarayonlar inson tomonidan anglanmasa-da ongli hayotga ularning ta'siri katta.
- ***Ego*** *– tashqi olam bilan bog'langan, uning ta'sirlariga beriluvchan shaxs xususiyatlarini o'zida mujassam etadi* va doimo "Id"ni siqib chiqarishga harakat qiladi. Shaxs kamol topib, jamiyat normalarini o'zlashtirib borgani sari "Id"ga tobelikdan qutulib borsa-da oxirigacha buning uddasidan chiqa olmaydi.
- ***Superego*** *– o'z navbatida "Ego"dagi mavjud ijtimoiy tasavvurlar va xulqiy odatlar ta'sirida rivojlanadi*. Ya'ni, odam kishilik jamiyatida yashagan sari undagi e'tiqod, ideallar, individual "vijdoniga havola" xislatlardir. Insonda yuqoridagilarning qay biri

kundalik xulq normalarida ustivor bo'lishiga qarab, uning jamiyatdagi mavqyei belgilanadi.

Ikkinchi. Inson xulq-atvorini va uning amallarini boshqarib turadigan psixik energiya ham borki, oxir-oqibat u shaxsning qiyofasini belgilab beradi. Boshqacha qilib aytganda, ehtiyojlarni qondirishga undovchi kuchlar – "***libido***" hamda "***agressiv***" energiyalar ham mavjuddir. Bu kuchlar shaxsning ma'naviy va aqliy salohiyatini ta'minlash maqsadida psixik quvvatni taqsimlovchi mexanizmlar rolini o'ynaydi. Odatda hadiksirash, doimiy xavotirlanish, psixoemosional qoniqmaslik kabi omillar ana shu taqsimotning nomuvofiqligidan kelib chiqadi.

Freydizmning jahon ilmi va malakiyoti uchun ta'siri shu qadar katta bo'ldi-ki, jamoadagi yoki guruhiy ongsizlik g'oyasini ilgarni surgan *K. Yung* hamda individual psixologiyani targ'ib etgan *A. Adler* va ularning izdoshlari bu konsepsiyani yanada rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shdilar. Bu nazariya va konsepsiya hanuzgacha shaxs psixologiyasini, psixoanaliz esa psixoterapiyani o'rganishda asosiy metodlardan biri sifatida qo'llanilib kelinmoqda.

Yuqorida ta'kidlangan *strukturalizm, funksionalizm, bixeviorizm, freydizm* oqimlari jahon psixologiya ilmining shakllanishiga asos bo'lgan bo'lsa, ular ta'sirida shaklangan boshqa o'nlab: *assosiativ psixologiya, geshtaltpsixologiya, gumanistik psixologiya, ekzistensial psixologiya, kognitivizm, ramziy interaksionizm* kabi yo'nalishlar uning qator masalalarini hal qilishga o'z hissasini qo'sha oldi. Eng muhimi – XX asrga kelib, psixologiyaning tadbiqiy sohalari paydo bo'ldi-ki, endi qo'lga kiritilgan yutuqlar bevosita ta'lim, tarbiya, sanoat, biznes, marketing xizmatlari, boshqaruv, sog'liqni saqlash, huquqbuzarlikni oldini olish sohalarga dadil joriy etila boshlandi. XXI asrning birinchi yiliga kelib, psixologiya nazariy, tahliliy fandan bevosita amaliyotning ehtiyojlarini qondiruvchi tadbiqiy fanga aylandi. Bugun bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tilayotgan O'zbekiston misolida ham psixologiya fanining jamiyatni erkinlashtirish va barqarorlashtirish borasida, inson omili imkoniyatlarini yanada yuksaltirish, uning tafakkur tarzini erkinlashtirish jarayonida roli ortib bormoqda. Lekin u bu yuksak vazifalarni bir o'zi, o'z tadqiqot metodlari yoki to'plagan empirik materallarigagina tayanib bajara olmaydi. Bu o'rindagi fanlar kooperasiyasi va boshqa turdosh fanlar bilan bevosita aloqasi amaliy ahamiyatga ega bo'ladi.

XX asr shu bilan xarakterli ediki, u turli fanlar oldiga konkret topshiriqlar qo'ya boshladi. Shuning uchun psixologiya fani oldida tadqiqotlar asosida psixologik qonuniyatlarni asoslash vazifasi turar edi. Ikkinchidan esa, Amerikada ko'pgina psixologlar o'z tadqiqot obyektlarini laboratoriyalarda ayrim psixik jarayonlarni o'rganishdan kichik guruhlarga ko'chira boshladilar. Bu davrda psixologiyada shakllanib bo'lgan uch asosiy oqim (psixoanaliz, bixeviorizm va geshtalt psixologiya) ichida ham ijtimoiy xulq-atvorni kichik guruhlar doirasida o'rganish tendensiyasi paydo bo'ldi. Bunda asosiy diqqat kichik guruhlarga va ularda turlicha eksperimentlar o'tkazishga qaratilgan edi. Bunday holatning paydo bo'lganligi ijtimoiy psixologiyaning fan sifatida shakllanishida nihoyatda katta rol o'ynadi.

Geshtald psixologiya yo'nalishi negizida maxsus ijtimoiy-psixologik yo'nalishlarning – interaksionizm va kognitivizmning paydo bo'lganligi esa bu fanning eksperimental ekanligini yana bir bor isbot qildi.

Bixeviorizm yo'nalishlari doirasida o'tkazilgan ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar avvalo amerikalik olimlar *K.Xall* va *V.Skinner*lar nomi bilan bog'liq. Ular va ularning izdoshlari hisoblangan *K.Miller, D.Dollard, J.Tibo, G.Kelli* va boshqalar diada – ikki kishi

o’rtasidagi munosabatlarning xilma-xil eksperimental ko’rinishlarini tadqiq qilib, ularda matematik o’yin nazariyasi elementlarini kuzatdilar. Diada sharoitida tajribada o’tkazilgan tadqiqotlarda asosan mustahkamlash g’oyasini isbot qilishga urinildi. Klassik bixeviorizmdan farqli o’laroq ijtimoiy-psixologik bixevioristlar hayvonlar o’rniga laboratoriyaga naqd pulga odamlarni taklif eta boshladilar, shuning uchun ham ularning g’oyasida biologizm va mexanizm tarzda ilgarigi hayvonlarda to’plangan dalillar modelini insonlarda qo’llash hollari kuzatildi.

Psixoanaliz doirasida esa ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar *E.Fromm* va *J.Salliven* ishlari bilan bog’liq bixevioristlardan farqli o’laroq bu yerda eksperimentlar ikki kishi emas, balki ko’pchilik ishtirokida o’tkazila boshladi. Ularning izdoshlari (V.Bayon, V.Bennis, G.Sheparde, V.Shutk) o’tkazgan tadqiqotlar tufayli hozirgi kunda ham katta qiziqish bilan o’rganilayotgan kichik “T” guruhlar psixologiyasi yaratildi. Unda guruh sharoitida bir odamning boshqalarga ta’siri, guruhning ayrim individlar fikrlariga ta’siri kabi masalalar ishlab chiqildi va ijtimoiy-psixologik treninglar o’tkazishga asos solindi.

Kognitivizm. K.Levin nazariyasi asosida paydo bo’lgan psixologik yo’nalish bo’lib, undagi o’rganish obyekti munosabatlar tizimidagi kishilar, ularning bilish jarayonlari, ong tizimiga taalluqli bo’lgan kognetiv holatlar bo’ldi. Kognitizm doirasida shunday mukammal, boshqalarga o’xshamas nazariyalar yaratildiki, ular hozirgi kunda ham o’z ahamiyatini yo’qotgani yo’q. Masalan, F.Xayderning balanslashtirilgan tizimlar nazariyasi, T.Nyukomning kommunikativ aktlar nazariyasi, Festingerning kognitiv dissonanslar nazariyasi va boshqalar shular jumlasiga kiradi. Ulardagi asosiy g’oya shundan iboratki, shaxs o’ziga o’xshash shaxslar bilan muloqotga kirishar ekan, doimo munosabatlarda ruhiy mutanosiblik tenglik bo’lishiga, shu tufayli ziddiyatlardan chiqishga harakat qiladi. Maqsad – turli ijtimoiy sharoitlarda shaxs xulq-atvorining psixologik sabablarini tushuntirish va ziddiyatlarning oldini olish uchun yo’l-yo’riqlar ishlab chiqishdan iborat. Hozirgi davrda ham taniqli ijtimoiy psixologlar Olport, Maslou, Rodjers va ularning safdoshlari gumanistik psixologiya doirasida bu ishlarni faol davom ettirmoqdalar.

Navbatdagi nazariya *interaksionizm* bo’lib, bu aslida sosiologik nazariya bo’lib hisoblanadi. Uning asoschisi Gerbart Mid bo’lib, uning qarashlari ta’sirida T.Sarbinning rollar nazariyasi, G.Xaymen va R.Mertonlarning referent guruhlar nazariyasi, F.Gofmanning ijtimoiy dramaturgiya nazariyalari shakllandi. Ular turli ijtimoiy sharoitlardagi xulq-atvorlarni tushuntirish orqali shaxs ijtimoiy-psixologik sifatlarining sabablarini topishga harakat qildilar. Har bir shaxs doimo ijtimoiy o’zaro ta’sir tizimida mavjud bo’ladiki, unda u to’g’ri harakat qilish uchun o’zgalarni tushunishga harakat qilishi, o’zgalar rolini qabul qilishga tayyor bo’lishi lozim. Lekin o’zgalar rolini to’g’ri qabul qilish uchun unda “umumlashtirilgan o’zga” obrazi bo’lishi lozimki, bu obraz shaxslararo muloqot jarayonida, har bir shaxs uchun ibratli bo’lgan kishilar guruhi bilan muloqotda bo’lish jarayonida shakllanadn.

3. Psixikaning reflektorlik xarakteri
REFLEKSOLOGIYA

Amerika bixeviorizmi bilan deyarli bir vaqtda Rossiyada ham psixologiyada alohida obyektiv yo'nalish paydo bo'lib, uning tashkilotchisi professor V.M. Bexterev (1857-1927) edi.

Bexterov ham, bixevioristlar singari, o'z-o'zini kuzatish metodini va empirik psixologiyani subyektiv hamda ilmiy emas, deb qattiq tanqid qildi. U ilmiy psixoiogiya

tashqi kuzatish va eksperimentga asoslanmog'i kerak, deb hisobladi. Sirtdan turib psixika — ongni kuzatish mumkin bo`lmaganligi uchun, psixologiya oddiy (tug'ma) va murakkab (hosil qilingan) reflekslarga asoslangan tashqi reaksiyalarni o'rganmog'i kerak. Bu nomlar Pavlovcha shartsiz va shartli reflekslarga to'g'ri keladi.

V.M. Bexterov o'z ta'limotini obyektiv psixologiya deb, keyinchalik esa refleksologiya deb atadi. Bexterov inson shaxsining barcha murakkab harakatlarini mashinaga o'xshagan mexanik faoliyat, reflekslar zanjiri va qo'shilishi deb hisoblaydi. Masalan, Bexterovning fikricha, inson ongining ijod singari murakkab harakatlari ham ma'lum bir maqsadni ko'zlagan, bir-birlari bilan ulangan refiekslar yig'indisidir, maqsad esa o'zining o'tmishdagi tajribasidan yoki boshqalarning tajribasidan olinadi. Bixeviorizmdagi singari, refleksologiyada ham, hissiyot, diqqat, xotira, tafakkur, iroda kabi barcha an'anaviy psixologik tushunchalar shartsiz (sodda) reflekslar va shartli (murakkab) reflekslar haqidagi, markazlashish, reproduktiv, oriventirovka reflekslari haqidagi, nutq reflekslari haqidagi ta'limotlar bilan almashtiriladi. Psixologik terminlar biologiya, fizika va mexanika sohasidagi terminlar bilan almashtirilgan edi, masalan, irradiatsiya, konsentratsiya, differensiatsiya, tormozlanish, tormozlanishning yozilishi va boshqalar. Bexterovning psixik faoliyati haqidagi ta'limoti, aslida, Amerika bixevioristlarining ta'limotini takrorlagan edi.

VYURSBURG MAKTABI PSIXOLOGIYASI

XX asrning boshlarida Germaniyada Vyursburg maktab psixologiyasi deb atalgan alohida yo'nalish paydo bo'ldi. Bu yo'nalishning vakillari O. Kyulpe (1862-1915), K. Byuller (1879-1922), A. Messer (1837-1937), Ax Nartsis (1871-1946) va boshqalardir.

Ular assotsiativ psixologiyani tanqid qilib chiqdilar va tekshiriluvchilarning o'z-o'zini kuzalishlariga asoslangan maxsus eksperimentlar o'tkazish yo'li bilan, yuksak psixik jarayonlarni, asosan, tafakkurni sodda psixik elementlarga sezgilar va tasavvurlarga bo'lib qo'yish bu murakkab psixik jarayonlarni shu elementlardan tarkib topadilar, deb ta'lim berish mumkin emasligini isbotlashga intildilar. Bu eksperimentlarning tashabbuskorlari va uyushtiruvchilari bo'lgan Kyulpe, Messer, Byuller hamda boshqalar psixologik eksperimentlarini o'zlari ustida sinab ko'rganlar.

Ular o'z eksperimentlarining yakunlarini analiz qilib, tafakkur yuritish aniq o'lchash mumkin bo'lgan vaqtni talab qiladi, deb ta'kidlashga intildilar. Biroq, tafakkur jarayonining mazmunini esa «ilintirib olish» ham mumkin emas ekan, bu jarayonning tarkibidagi sezgilarni, tasavvurlarni, so'zlarni va boshqa yaqqol elementlarni «ilintirib olish» mumkin emas ekan. Tafakkur ham, sezgi singari, birlamchi hodisa ekan: u o'z tabiatiga ega bo'lib, tajribaga bog'liq emas, degan xulosaga keldilar.

Vyursburg maktabining vakillari tafakkur funksiyasining birlamchiligi va o'ziga xosligi haqidagi ta'limoti bilan, tafakkurrining alohida qobiliyatidir, degan tafakkur hukmidagi sxolastik ta'limotni, ruhni alohida moddiy bo'lmagan mohiyatdir, deb ta'riflovchi metafizik ta'limotni faqat boshqa iboralar bilan ifodalagan holda qaytadan takrorladilar, xolos.

Vyursburg maktabining xulosalari psixologiyadagi o'ta ketgan idealizmning vakillari, xususan, professor Chelpanov tomonidan yuqori baholandi. Chelpanov bu xulosalardan insonda moddiy bo'lmagan alohida substansiya sifatidagi ruhning borligini isbotlovchi eng kuchli dalillardan biri sifatida foydalandi.

Vyursburg maktabi psixologlarining asarlari va ularning tafakkurning mohiyati haqidagi xulosalari chet el psixologiyasida, ayniqsa, sovet psixologiyasida qattiq tanqid

qilindi. Vyursburg maktabi psixologlarining asarlari psixologiyada idealizmni mustahkamlashga qaratilgan muvaffaqiyatsiz urinishlardan biridir.

Vyursburg maktabi psixologlari qarashlarining ilmiy jihatdan asossizligi, bixevioristlar va refleksologlarning qarashlari singari, sovet psixologlarining tanqidiy asarlarida to'la-to'kis isbotlangan.

Nazariyotchilar hayvon psixikasi va inson ongining genetik birligi hamda sifat jihatidan farqi haqidagi, inson ongining mehnatda paydo bo'lganligi va tarixiy taraqqiyoti haqidagi ta'limotni asoslab berib, psixika va ongni tushunishdagi idealistik va mexanistik qarashiarni mukammal tanqid qilindi. Dialektik materializm namoyandalari inson ongining taraqqiyotida ijtimoiy-tarixiy hayot shakllarining ahamiyatini ko'rsatdilar va tarixda inson ongining faolligini isbotlab berdilar.

Metafizik — psixolog ruh nima degan narsa haqida mulohaza yuritgan. Bunda usulning o'ziyoq behuda edi. Xususan, psixik jarayonlarni tushuntirmasdan turib, ruh haqida mulohaza yuritish mumkin emas: bu yerda progress xuddi shundan iborat bo'lmog'i kerakki, ruh nima, degan masalalar haqidagi umumiy nazariya va falsafiy uydirmalarni uloqtirib tashlash va ma'lum psixik jarayonlarni xarakterlaydigan faktlarni o'rganishni ilmiy zamirida ko'ra bilishga erishishdir.

XX ASR PSIXOLOGIYASI. PSIXOLOGIYANING IDEALIZM VA MEXANISTIK MATERIALIZMGA QARSHI KURASHI

XX asrning dastlabki yillarida psixologiya sohasida to'plangan merosni qayta ko'rib chiqish hamda uni haqiqiy ilmiy psixologiya asosida qayta qurish haqidagi masala muhim muammolardan biri edi. Psixologlar oldida shu vaqtga qadar psixologiyada hukm surib kelgan idealistik, empirik psixologiyani har tomonlama qayta ko'rib chiqish vazifasi turar edi.

Empirik psixologiyani tanqid qilish yana shuning uchun ham taqozo qilinar ediki, uning va umuman idealistik falsafaning tarafdorlari o'z pozitsiyalaridan birdaniga voz kechmadilar. Masalan, professor Chelpanov o'zining maqoialarida empirik psixologiya materializmga zid emas deb ko'rsatishga urindi. O'sha vaqtlarda psixologiyadagi mexanistik oqim bolgan bixeviorizm va refleksologiyaga ham qarshi kurash zarur bo'lib qoldi. Revolutsiyaning dastlabki yillarida bu oqimlar ancha keng tarqalgan edi. Refleksologiya hatto oliy o'quv yurtiariga o'quv fani sifatida kiritilgan edi. Biroq, u faqat 3-4 yil mobaynida o'qitildi, xolos.

Psixologiyadagi mexanistik oqimiar bilan kurash yana shuning uchun ham dolzarb ediki, uning vakillari o'z nazariyalarini sotsialistik jamiyat qurish ishida katta amaliy ahamiyatga ega bo'la oladigan ta’limot, deb da'vo qildilar. Bixeviorisllar hamda refleksologlar inson psixikasini faqal mexanistik ta'limotga muvofiq tushunish asosida yangi pedagogika sistemasini yaratish lozim, deb hisobladilar.

Bu psixologlarning ta'limotiga ko'ra, mehnat reaksiyalar yoki reflekslar sistemasidir. Pedagogika muhitga moslashish reaksiyalari yoki reflekslarini tarbiyalashdan iboratdir. Bunday qonun-qoidalarda biz insonning bilish va amaliy faoliyatida ong va uning turli shakllarining to'liq inkor qilinganligini ko'ramiz.

Professor K.N. Kornilov boshchiligidagi bir guruh psixologlar idealistik va mexanistik psixologiyani tanqid qilib, psixologiyani diaiektik materializm asosida ko'rishga intildilar.

1923-yil psixonevrologiya fanlari bo'yicha birinchi Butun Rossiya syezdi bo'lib o'tdi. Shu syezdda idealistik psixologiyaga qarshi keskin kurash avj oldirildi. Ayniqsa, bu kurash keying 1924-yiigi syezdda yana kuchaytirildi.

1924-yili prof. Kornilov o'zining «Hozirgi zamon psixologiyasi va marksizm» nomli kitobida birinchi bo'lib o'z qarashlarini aniq ifoda qildi. U bu kitobida empirik psixologiyani tanqid qildi, avvalo, bu psixoiogiyaning asosiy kamchiliklariga - inson psixik faoliyatida tashqi xulqiy momentni e'tibordan chetda qoldirilishiga, psixologiyadagi dualizm va idealizmga qarshi chiqdi. Kornilov Bexterevning refleksologiya maktabini va I.P. Pavlovning ba'zi bir o'taketgan izdoshlarini (chunki ular psixologiyani refleksologiya bilan almashtirmoqchi bo'ldilar) tanqid qilar edi, ularning inson xulqida ongining roliga yetarli baho bermaganliklarini, shuningdek, psixika - ongga nisbatan qarashlaridagi mexanizmni fosh qilib tashladi.

Mustaqil fan sifatida psixologiya uchun bixeviorizm va refleksologiyaga qarshi kurashda Moskva, Leningrad oliy o'quv yurtlari va boshqa tadqiqot muassasalarining psixologlari faol ishtirok etdilar. Mexanistik qarashlarning yaroqsizligini ko'rsatuvchi asarlar nashr qilindi.

Psixologiyadagi mexanistik oqimlarga qarshi kurashda psixoiogiyaning predmeti - ong haqidagi masala katta o'rin egalladi.

Bixeviorizm tarafdorlari, Bexterev va uning izdoshlari, refleksologlar ong masalasini o'rganishni e'tibordan chetda tutgan psixologiyani vujudga keltirish mumkin, deb hisobladilar.

Bu qarashiarga qarama-qarshi o'laroq, professor Kornilov rahbarligidagi psixologlar psixologiya predmeti faqat xulqning tashqi alomatlarinigina emas, balki shuning bilan birga insonning subyektiv kechiriklarini ham o'rganishdan iborat bo'lmog'i kerak, deb hisobladilar.

Ongning psixologlar tomonidan o'rganilishi mumkin va zarur ekanligiga, ayniqsa, L.S.Vigotskiy qat'iy rioya qildi.

Psixologiya sohasida ikki frontga, ya'ni empirik psixoiogiyaning subyektivizm va idealizmga qarshi, bixevioristlar va refleksologlarning mexanizmga qarshi olib borgan kurashi faqatgina psixologiyaga emas, balki falsafaga ham taalluqli edi. Bu kurashning yakunlari quyidagilarda ifodalandi.

Empirik psixologiya o'zining oldingi mavqeini yo'qotdi, u o'qitish predmet sifatida uzil-kesil siqib chiqarilgan edi. Refleksologiya vakillari o'z nuqtayi nazarlarini yanada qattiq turib himoya qildilar. Lekin ular ham tanqid ta'sirida o'zlarining xatolarini tan olishga majbur bo'ldilar. Bu jihatdan, ayniqsa, falsafiy munozaralar (1927—929) katta natijalar berdi, munozaralar falsafa frontida mexanitsistlarning batamom tor-mor bo'lishi bilan tugadi.

Bexterev (u vaqtda o'zi mahrum edi) shogirdlaridan birguruhi «Refleksologiyami yoki psixologiyami» va «Refleksologiya va uning yondosh fanlariga munosabati» degan ikkita broshyura chiqardilar. Bu broshyuralarda ular o'zlarining oldingi fikrlarining yanglish ekanligini e'tirof etdilar. Ular o'z xatolarini, refleksologiya hali inson xulqini to'la-to'kis holiga, ya'ni uni qiliqlari va xatti-harakatlarida olib mukammal tekshirish darajasiga ko'tarilganicha yo'q, degan bahona bilan izohladilar. Ular psixikaning realligini esa uni o'rganishning zarurligini e'tirof etdilar. 1930—1931-yillarda refleksologiya aslida tugatilgan edi.

REAKTOLOGIK PSIXOLOGIYA

Kornilovchi psixologlar guruhining ishlari faqat empirik va subyektiv psixologiyani tanqid qilish bilangina cheklanib qolmadi. Tanqid jarayonida yangi psixologiya sistemasini tuzish bo'yicha ham ishlar olib borildi. Bu psixologlarning aytishicha, yangi psixologiya sistemasi marksistik fan bo'lishi kerak edi.

Lekin bu faqat niyat edi, xolos. Aslida esa Kornilov psixologiya predmetini tushunishning o'zida bixevioristlar va refleksologlar bergan ta'rifga asoslangan edi.

Kornilov ta'limoti nuqtayi nazaricha, psixoiogiyaning predmeti inson xulqini to'la-to'kis holicha, ya'ni uning qiliqlari va xatti-harakatlarini o'rganishdir. Muayyan muhitdagi organizmning reaksiyalari xulqning alohida elementlari deb hisoblandi.

Xulqning elementlari bo'lgan reaksiyalar haqidagi ta'limot Kornilov maktabi psixologiyasida markaziy o'rinni egallardi. «Biz psixologiyada nimani o'rganmaylik,— deb yozgan edi Kornilov,— tub aslida reaksiyani o'rganamiz, chunki reaksiya xulqimizning barcha eng murakkab, yuksak va nozik shakllaridan iboratdir. Yangi psixologiya bitta metodni, bu ham bo'lsa, reaktologik metodni biladi». Lekin xulq va reaksiya tushunchasi Kornilovda bixevioristlar va refleksologlarga qaraganda, boshqacha tushuntiriladi, jumladan xulq va reaksiya tushunchalarining mazmuniga nerv-fiziologik va mushak harakatlaridan tashqari, yana psixik moment, ong momenti ham kiritilgan edi. Lekin Kornilov psixika va ongni reaksiyada ishtirok etadigan va uning organizmning tashqi muhitga nisbatan javob harakati bilan birgalikda ro'y beradigan passiv bir narsa debgina tushundi.

Psixik moment esa faqat inson kechirmalaridagi reaksiyalarning subyektiv ifodasi deb tushunildi, xolos.

Kornilov reaksiya tushunchasiga psixik, ongli momentlarni kiritar ekan, buning bilan u go'yoki subyektiv empirik psixologiyaning bir tomonlamaligini bartaraf qilmoqchi bo'ladi. Kornilovning fikricha, psixologiyani shunday tushunilsa, «inson xulqidagi obyektiv va subyektiv hodisalarning organik sintezi» kelib chiqadi.

1926-yili professor Kornilov o'z psixik nazariyasining namunasi sifatida «Psixologiya darsligini chiqardi. Keyingi yillarda bu darslik (1931-yilgacha) mayda o'zgartirishlar bilan bir necha marta nashr qilindi.

Aslida bu «psixologiya darsligi»da psixologiyaga doir hech narsa yo'q edi. Psixika haqidagi masala faqatgina bosh qismida, u ham bo'lsa reaksiyaning tarkibiy momenti sifatida eslatilib o'tilar edi. Psixologiya xulq haqidagi fan sifatida talqin qilinar edi. Xulq organizm reaksiyalarining yig'indisi deb tushunilar edi. Butun psixologiya sistemasi tug'ma va hosil qilingan, oddiy va murakkab reaksiyalarni bayon qilishdan iborat qilib qo'yilgan edi, aslida esa bu darslikda bixevioristik va refleksoioglar ta'limoti qisqacha bayon qilingan edi, xolos (shuning uchun ham bu darslik keyinchalik «reaktologiya darsligi» deb atalgan edi).

Shu narsani ta'kidlash kerakki, o'sha vaqtlarda, bixevioristlar va refleksologlarning siquvi ostida psixologiyani xulq haqidagi fandir, deb ta'riflash keng tarqalgan edi.

Agar 1923 va I924-yillardagi syezdlar psixonevrologiya fanlari sohasidagi syezdlar deb atalgan bo'lsa, 1930-yildagi psixologiya syezdi esa, inson xulqini o'rganish masalalariga bag'ishlangan syezd edi.

PSIXOLOGIYA SOHASIDAGI MUNOZARALAR. 30-YILLARDA PSIXOLOGIYADA ERISHILGAN YUTUQLAR

Inson xulqini o'rganish bo'yicha chaqirilgan Butunittifoq syezdi psixologiya taraqqiyoti birinchi bosqichining yakuni bo'ldi. Biroq, syezdning yakunlari o'sha davr psixologiyasini ko'rish sohasida hamma narsa o'z o'rnida emasligini ko'rsatdi. Xususan, insonning butun psixik faoliyatini reaksiyalarga tenglashtirib qo'yishga bo'lgan urinishlar ochiqdan ochiq ko'rinib turardi, bu esa psixologiyani amalda reaktologiyaga aylantirib qo'yardi, bu reaktologiyani marksistik psixologiyaning aniq gavdalanishi deb aytishga, demak, marksistik psixologiyani empirik (subyektiv) va obyektiv psixologiyani, ya'ni

bixeviorizm bilan refleksologiyaning «sintezi» deb tushuntirishga urinishlaridan oydin dalolat berar edi.

Syezddan keyin, ko'p o'tmasdan, (1929 - 1931-yilgacha) bularning hammasi psixologiya fani sohasidagi metodologiya munozaraning kuchayishiga olib keidi.

Psixologiya sohasidagi munozaralar falsafiy (umumetodologik) frontdagi kurashning aniq ifodasi bo'ldi. Falsafadagi munozara mexanizmni antimarksistik oqim deb qoraladi. Bu metodologik munozara fanning boshqa sohalariga, ya'ni siyosiy iqlisod, adabiyotshunoslik, tabiatshunoslik kabilarga ham tarqaldi.

Diskussiya, bizning psixologiyamizda bir qancha juda qo'pol metodologik og'machilik va buzg'unchiliklarning mavjudligini ochib berdi. Masalan, psixologiya sohasida mexanistik qarashlar yo'li bilan sinfiy — dushman bo'lgan ta'sirni kuchaytirishga urinish borligi aniqlandi. Idealistik nazariyalar bilan chirmashib ketgan bu og'machilik va mexanistik qarashlar o'sha vaqtda chinakam dialektik-marksistik qarashlar deb targ'ib qilinardi.

Shuningdek, munozara, refleksologiya va reaktologik psixologiya asosida o'sha davr pedagogika sistemasini ko'rish mumkin emasligini, yangi jamiyat qurayotgan kishilarni qaysi usullar bilan, qanday yo'nalishda tarbiyalash va qayta tarbiyalash mumkin, degan masalani hal qilish mumkin emasligini ko'rsatdi.

Refleksoiogiya va reaktologiya asosida faqat hayvonlarni dressirovka qilish (o'rgatish) usullari haqidagina gapirish mumkin.

Munozara jarayonida bizda burjua idealistik psixologiyasining turli oqimlari, chunonchi: V. Shtern personalizmi, struktura psixologiya, freydizm boshqa-boshqa oqim tarqalganligi aniqlandi.

Bu oqimlarning hammasi bizda tanqidiy asosda ko'rib chiqilmasdan qabul qilinib, sotsialistik qurilish vazifalariga to'liq javob beradigan ilmiy nazariyalar deb taqdim qilinardi. Masalan, struktura,— Geshtalt — psixologiya asosida ta'limning «kompleks sistemasi», savod o'rgatishda butun so'zlar metodi kabi mutlaqo yaroqsiz va zararli metodlar ishlab chiqildi. Psixotexnikani, ya'ni mehnatni o'sha zamon talabi asosida uyushtirish amaliyotini Shtern psixologiyasiga binoan rivojlantirmoqchi bo'ldilar. Ular pedagogika va psixiotriyani freydizm psixologiyasiga tayangan holda asoslashga intildilar.

30-yil ideologik frontda yanada avjiga chiqqan sinfiy kurashning kuchaygan davri edi, o'sha vaqtda bu sohada yangidan yangi yo'llar qidirila boshladi.

O'sha vaqtda yangi psixologiya uchun kurashga boshchilik qilgan professor Kornilov, garchand xatolarga yo'l qo'ygan bo'lsa ham, uning tarixiy xizmatlari shundan iborat ediki, bixevioristlar va refleksologlarning avjiga chiqqan siqig'i ostida kurash olib bordi va psixologiya fanining mustaqilligini himoya qilib qola oldi.

Munozaralarning eng muhim yakuni haqiqatan ham ilmiy psixologiyani yaratish vazifasi edi. Munozaralar shu narsani ko'rsatdiki, buning uchun o'sha davr metodologik merosini, psixologiya sohasiga bevosita daxldor bo'lgan ta'limotini puxta o'rganish va egallab olmoqiari kerak edi, ikkinchidan, psixologlar psixologiya sohasidagi barcha tarixiy meros va yutuqlarni o'rganish bilan shug'ullanishlari va bu yutuqlarni tanqidiy o'ziashtirib olishlari kerak edi va uchinchidan, o'tmishda erishilgan yutuqlarga asoslanib turib, ilmiy psixologiya muammolarini ishlab chiqishni ilgari surmoqlari kerak edi.

Munozara natijasida o'sha davr psixologiyasida haqiqatan ham qayta kurash ishlari boshlandi. Psixologiyaning metodologik va asosiy muammolari bo'yicha asarlar yozildi, bir qancha burjua psixologiyasi nazariyalari tanqidiy ravishda yoritildi. Bir qancha

eksperimental ishlar qilinib, ularda psixik jarayonlar sifat jihatidan o'ziga xos hodisalar deb tushunildi, ular organizmning reflekslari va reaksiyalariga tenglashtirib qo'yilmadi.

Ikkita o'quv qo'llanmasi munozaralardan keyin psixologiyaning qayta ko'rilganligini ko'rsatuvchi yaqqol dalil edi. Bulardan birini professor Kornilov («Psixologiya I-nashri 1934 va 2-nashri 1935-yillarda) ikkinchisini esa professor S. L. Rubinshteyn («Основы общей психологии», 1935-yil) tuzgan edi.

Bu asarlarda psixologiya masalalari munozaralargacha bo'lgandan boshqacharoq talqin qilindi. Xususan, professor Kornilov, bu kitobida psixologiya predmetini tushunishni keskin o'zgartirdi, ayrim psixik jarayonlar esa endi organizm reaksiyalarining kombinatsiyasi deb talqin qilinmaydi. Bu psixologiyada emotsiyalar, iroda va xarakter psixologiyasiga ham o'rin beriladi.

30-yillarda psixologlar psixikani eksperimental o'rganish yuzasidan ko'p maxsus laboratoriya va xonalar tashkil qildilar. Bunday laboratoriyalar faqat markaziy shaharlar (Moskva, Leningrad)dagina emas, balki olis viloyatlar hamda milliy respublikalar, shaharlarida ham tashkil qilindi.

Shu davrda O'zbekistonda ham eksperimental laboratoriya va xonalar tashkil qilina boshladi. Toshkentda O'rta Osiyo Davlat universiteti huzurida, O'rta Osiyo Kommunistik universiteti, temiryo'l transport boshqarmasida va Magnat instituti huzurida laboratoriyalar tashkil qilingan. Samarqand shahridagi o'zbek pedinstitutida ham boy jihozlangan laboratoriya tashkil qilingan edi.

Bu davrda professor Lazurskiy kashf etgan juda foydali tabiiy eksperimentni qo'llab, bolalar psixologiyasi va eksperimental psixologiya sohasida ko'plab eksperimental tadqiqotlar o'tkazdilar.

Ayrim psixik jarayonlar va ularning funksiyalarini o'rganish sohasida ham bir qancha ishlar qilindi. Masalan, V.A. Artemovning idrok sohasidagi, Ye.A. Ribnikov va A.N. Leontevlarning xotira sohasidagi, L.S. Vigotskiyning tafakkur sohasidagi tadqiqotlari va boshqalar shular jumlasidandir.

Mehnat psixologiyasi sohasida ham juda ko'p ishlar qilindi. Ular faqat xona va laboratoriyalardangina emas, balki bevosita ishlab chiqarishning o'zida, zavod, fabrikalarda, shu jumladan, O'zbekiston paxta dalalarida ham o'tkazildi.

Bu davrda hayvonlar psixikasini o'rganish sohasidagi ishlar ham kuchli sur'atda avj oldirildi. Bu jihatdan Ladngina Kot Voytonis va boshqalarning ishlari, ayniqsa, qimmatlidir.

Shu yillari psixologiyaning deyarli hamma sohalarini: psixika, psixika va ong taraqqiyoti haqidagi, sezgi, idrok, xotira kabilar haqidagi ta'limotlarni qamrab oluvchi bir qancha katta asarlar nashr qilindi. Bulardan eng muhimlari quyidagilardir: «Psixologiya», prof. K.N. Kornilov, B.M. Teplov va L.M. Shvartslar tahriridagi jamoa asar; prof. S.L. Rubinshteyn «Основы общей психологии»; «Психология», Kostyuk tahririda (ukrain tilida), «Общая психология» D. N. Uznadze (gruzin tilida).

Shu narsani ta'kidlamoq kerakki, bu asarlarning ko'pchilik qismi o'sha davr psixologlarining tadqiqotlari materiallari asosida yozilgan. Urushgacha davrda o'sha davr psixologiyasi manzarasi mana shundan iborat edi.

1950-1965-YILLARDA PSIXOLOGIYA MASALALARI

Psixik jarayonlarning fiziologik asoslari haqidagi masala

1950-yillarda psixologiya fanining rivojlanishida I.P. Pavlovning fiziologiya sohasida olib borgan ilmiy tekshirishlariga katta e'tibor berildi. Chunki psixik jarayon va xususiyatalarni ilmiy jihatdan o'rganish, uning fiziologik mexanizmini o'rganishni taqozo

qilar edi. Bu o'rinda I.P. Pavlovning oliy nerv faoliyati, uning xususiyat va qonuniyatlari haqidagi ta'limoti muhim ahamiyatga ega edi. Lekin bu davrda Pavlov ta'limotini ba'zi flziolog va psixologlar mexanistik ta'limot deb hisoblar edilar. Haqiqatdan ham Pavlovning ba'zi shogirdlari va izdoshlari mexanistik qarashlarga berilib, psixik hodisalarni fiziologik hodisalardan iborat deb, psixologiyani oliy nerv faoliyati fiziologiyasiga tenglashtirib qo'ydilar. Bunday qarashlar izlanishlari olamshumul ahamiyatga ega bo'lgan psixologlar tomonidan tanqid qilindi va qoralandi.

I.P. Pavlov psixik hodisalarning, jarayon va xususiyat laming nerv-fiziologik mexanizmi oliy nerv faoliyati bilan bog'liqligini asoslab berdi.

O'sha vaqtlarda butunittifoq Fanlar Akademiyasi va Tibbiyot (meditsina) Fanlar Akademiyasi sessiyalarida Pavlovning oliy nerv faoliyati haqidagi ta'limotini psixologiyaga tatbiq etish masalasi ilgari surildi va uni psixologik hodisalarni ilmiy jihatdan tushunishdagi ahamiyati yoritib berildi.

Ayniqsa, Pavlovning bosh miya po'stida yangi muvaqqat nerv bog'lanishlarining hosil bo'lishi haqidagi ta'limoti, qo'zg'alish va tormozlanish qonuniyatlari haqidagi ta'limoti psixologiya uchun juda samarali bo'ldi. Pavlovning inson bosh miyasi po'sti faoliyatidagi ikki signal sistemasi haqidagi ta'limoti ham qimmatlidir. Bu ta'limot inson ongining tafakkur va nutq singari yuksak shakllarining nerv fiziologik mexanizmlarini aniqlash imkoniyatini beradi. I.P. Pavlovning oliy nerv faoliyatining tiplari haqidagi ta'Iimoti tempenamentning nerv-fiziologik asoslarini, uning muhit va tarbiya ta'siri tufayli o'zgaruvchanligini aniqlash imkoniyatini berdi.

Psixologiyaning metodlari haqidagi masala, xususan o'z-o'zini kuzatish metodi haqidagi masala, psixologiyada metodning obyektivligini qanday tushunmoq kerakligi haqidagi masala juda ham keskin qo'yildi. Metodning obyektivligini faqat tashqi kuzatish, tashqi eksperiment debgina tushunmaslik kerak, aksincha bu yana bixeviorizm va refleksoiogiyaga olib keladi.

Ikki Akademiyaning Pavlov fiziologiyasiga bag'ishlangan sessiyasidan keyin har xil psixik hodisalarning nerv-fiziologik mexanizmlarini o'rganish bo'yicha ko'plab maxsus tadqiqotlar o'tkazildi. Bu ishlar Moskva va Leningrad akademiyasining psixologiya institutida, Pedagogika Fanlari akademiyasining psixologiya institutida, shuningdek, boshqa shahariardagi oliy o'quv yurtlarining ba'zi bir kafedralarida va laboratoriyalarida o'tkazildi. Psixologiyani Pavlovning oliy nerv faoliyati haqidagi ta'limoti asosida qayta tashkil qilish V.A. Artemov, T.P. Yegorov, A.V. Zaporojets, P.I. Ivanovlarning psixologiyadan o'quv qo'llanmalarida ham o'z aksini topgan. Mana shularga binoan o'rta va oliy o'quv yurtlarida psixologiyani o'qitish ishlari ham qayta tashkil qilina boshladi.

1962-yili Fanlar Akademiyasining huzurida oliy nerv faoliyati va psixologiyaning falsafiy masalalari bo'yicha Butun Ittifoq kengashi o'tkazildi, Bu kengashda I.P. Pavlov ta'limoti psixik jarayonlarning nerv-fiziologik asosi ekanligi yana bir marta asosli ravishda tasdiqlandi va uning tadqiqotlari yuksak darajada tashkil topgan materiyaning — miyaning mahsuli bo'lgan psixika haqidagi ta'minotni tasdiqladi.

Keyingi yillarda fiziologlar tomonidan inson psixikasidagi ayrim hodisalarni tushuntirish uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan ishlar qilindi. Masalan, akad. P.K. Anoxin 1932-yildayoq boshlagan teskari afferentatsiya (teskari bog'lanish) ning ahamiyatini aniqladi.

Reflektor jarayonlar organizmning faqat javob harakati bilangina tugallanib qolmas ekan. Organizmning har bir javob harakati miya po'stiga markazga intiluvchi teskari (afferent) impuls yuborib turadi, bu impuis javob harakatning natijasidan miya po'stiga

signal berib turar ekan. Shu refleksning strukturasi yoy shaklida emas, balki halqa shaklida ekan, deb hisoblashga asos beradi. Demak, refleksning teskari bog'lanishni amalga oshiradigan yana 4-qismi (orqaga qaytaruvchi krani) ham bor ekan. Teskari afferentatsiya haqidagi bu ta'limot «oldindan aks ettirish» (javob harakatni maqsadga muvofiq qilishni bilish) deb atalgan hodisaga bog'langan tekshirishlar o'tkazishga imkoniyat berdi. Anoxinning shu tadqiqoti maqsadga muvofiq yo'naltirilgan xatti-harakatiarning fiziologik asosini ochib beradi.

Bir qancha psixik hodisalarni tushuntirish uchun Bernshteynning organizmning biologik faolligi masalasi sohasidagi tekshirishlari muhim ahamiyatga egadir. Bu tekshirishlarning ma'lumotlariga qaraganda organizm muhitga moslashmaydi, balki shu muhitda paydo bo'lgan to'siqlarni bartaraf qilishga «tirishadi» maqsadga erishmoq uchun kurashadi.

A.R. Nuriyaning bosh miya po'stida psixik funksiyalarning lokalizatsiyalashuvi haqidagi ishlari psixik faoliyatning fiziologik asoslarini tekshirishga qo'shilgan qimmatli hissadir.

Shaxs va ongning ba'zi funksiyalari masalalari. Psixologlarining tekshirishlarida shaxs va shaxsning yoshga qarab rivojlanishi masalalari katta o'rin egallaydi. 1956-yili (mayiyun) Leningradda shaxs psixologiyasi bo'yicha Butun Ittifoq kengashi o'tkazildi. Dokladlarda kishi shaxsini tarbiyalash va shakllantirish masalalariga muhim e'tibor berildi.

Hozirgi vaqtda shaxs tushunchasini aniqlashga, uning eng muhim belgilarini: ijtimoiyligi, ongliligi, o'z-o'zini anglashni tahlil qilishga bag'ishlangan qimmatbaho asarlar oz emas. Shaxsning ehtiyojlariga xos xususiyatlariga, uning ongli va ijodiy faolligiga, yangi jamiyat qurish davrida uning maslak, ideallari, dunyoqarashi va e'tiqodlarining yo'nalishiga katta e'tibor berilmoqda.

Shaxsning turli yoshda qanday rivojlanishi, uning individual xususiyatlari, xarakteri, qobiliyatlari hamda qiziqishlari masalasi inson psixikasi va ongi taraqqiyotiga old umumiy muammoning muhim tarkibiy qismidir.

Psixologlar ongning individual taraqqiyotini shaxs sifatida o'sayotgan odamning barcha tomonlaridagi, barcha psixik jarayonlaridagi sifat jihatdan o'zgarishdir, deb qaraydi. Bu o'zgarish — o'sish organizmning rivojlanish qonuniyatlari va kishilarning turmush sharoitlari tufayli, ijtimoiy muhit hamda ta'lim-tarbiya ta'sirida ro'y beradi. Ijtimoiy muhit, ta'lim va tarbiyaning ta'siri har bir insonning rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Biroq shu narsani ta'kidlamoq kerakki, bu rivojlanish rivojlanayotgan subyekt o'zi hayot jarayonida faol ishtirok etgan taqdirdagina ahamiyatga ega bo'ladi.

Keyingi yillar mobaynida psixologiya va pedagogikada «Ta'lim va aqliy rivojlanish» muammosi, ayniqsa, faollashdi. Bu masalaning hal etilishi maktablardagi ta'lim jarayonida o'tkazilayotgan eksperimentlarga asoslanmoqda.

Rivojlanishning o'zini qanday tushunishdan qat'i nazar, tadqiqotchilarning hammasi ta'limning hal qiluvchi roli sharoitida ta'lim va tarbiyaning bir-biri bilan bog'lanligini e'tirof etadilar.

Psihologlar alohida psixjk funksiyalar va jarayonlani io'rganish sohasida, xususan, sezgi, idrok, xotira, tafakkur sohasida ko'p ishlar qildilar. E.G. Ananev, A.V. Zaporojets, N.A. Leontev va boshqalar olib boradigan sezgi va idrok sohasidagi tekshirishlar asosan bu jarayonlarning retseptiv tomonlariga qaratilgan. Tekshirishlar shuni ko'rsatdiki, ko'ruv, eshituv, teri sezgilari, shuningdek, sezgi va idrokning boshqa turlari faqat markazga intiluvchi jarayonning, faqat refleks boshlang'ich zvenosininggina mahsuli emas. Ular markazdan qochuvchi jarayonlarni ham, subyektning faolligini aks ettiradigan qidiruv,

sinov reaksiyalarini ham qamrab oladi. Bularning barchasi alohida, perseptiv harakatlar bo'lib, ular ichki psixik jarayonlar bilan birga, tashqi, birinchi navbatda, ozmi-ko'pmi yorqin ifodalangan harakat komponentlarini ham o'ziga qamrab oladi.

Xotira sohasida xotiraning mahsuldorligi esda olib qolish faoliyatining nimaga qaratilganiga bog'liq ekanligi masalasi keng o'rganilgan. Yaxshi esda qoldirishda qaytadan tiklash (esga tushirish) va boshqa psixik jarayonlarning roli aniqlangan. A. A. Smirnov va P. I. Zinchenkoning asarlarida esda qoldirish maxsus xildagi ichki psixik faoliyat sifatida aniqlangan. Bu faoliyatning strukturasi ochilgan, turli esda olib qolish usullarining xarakteristika, uning tarkibiga kiruvchi bar xil mnemonik harakatlarning alohida zvenolarning xarakteristikasi berilgan. Esda qoldirish jarayonida ishtirok etadigan tafakkur jarayonlariga alohida e'tibor berilgan.

Keyinchalik psixologiya sohasidagi ilmiy ishlar faollashtirildi. 1956-yildan boshlab «Вопросы психологии» jurnalining chiqa boshlashi buning guvohidir. Psixologiya masalalari sohasidagi ko'p materiallar, shuningdek, «Семья и школа», «Дошкольное воспитание», «Начальная школа», «Психологический журнал», «Вопросы психологии» jurnallarida va boshqa davriy matbuotda bosilib chiqib turdi. Ilmiy ishlarning faollashtirilganligi, shubhasiz, 1957-yiI Psixologlar Jamiyatini tuzishga yordam berdi. Shu yillar mobaynida bizning oliy o'quv yurtlarimiz psixologiyadan zaruriy o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlandi.

Bu qobiliyatiarga kiruvchi esda olib qolish qobiliyatiarida ayrim zvenolarning xarakteristikasi berilgan. Esda olib qolishda qatnashuvchi fikrlash jarayonlariga alohida e'tibor berilgan.

Tekshirish uchun savollar

1.Psixologiya nimalar haqida bahs yuritadi?
2.Psixologiya fanining tarixi to'g'risida nimalarni so'zlab bera olasiz?
3.Psixika deganda Siz nimani tushunasiz?
4.Aks ettirish haqida gapirib bering.
5.Faoliyat, xulq, muomala aks ettirish shakllarimi?
6.Psixologik bilimlarning paydo bo’lishining tarixiy davrlarini qanday izohlaysiz?
7.Psixologiyaning ilmiy fan sifatida shakllanishi davri qaysi asrga to’g’ri keladi va u haqda nima bilasiz?
8.Birinchi ekmperimental psixologik laboratoriyaga kim asos solgan?
9.Bixeviorizm oqimi qachon paydo bo’lgan va uning asosiy g’oyasi nimani anglatadi?
10.“Id (U) – Ego (Men) – Superego (Mendan oliy)” tushunchalarini mohiyatini qanday asoslab bera olasiz?

Adabiyotlar

Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. – T.: O’zbekiston, 1998. – B. 15.

Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir // “Fidokor” gazetasi, 2000 yil, 8 iyun.

Karimova V.M. Psixologiya. O’quv qo’llanma. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, “O’AJBNT” markazi, 2002. – 205 b.

Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. Ma’ruzalar matni. 1-qism. – T.:

TDIU, 2005. – 208 b.
Nemov R.S. Psixologiya. Uchebnik dlya studentov vissh. ped. ucheb. zavedeniy: V 3-x t. – M.: Gumanit. izd. sentr VLADOS, 2003. – 576 [640; 608] s.
Prikladnaya sosialnaya psixologiya / Pod red. A.N.Suxova i A.A.Derkacha. – M.: Izd-vo "Institut prakticheskoy psixologii"; Voronej: Izd-vo NPO "MODEK", 1998. – 688 s.
Psixologiya. Uchebnik / Otv. red. prof. A.A.Krilov. – 2-ye izd., pererab. i dop. – M.: Izd-vo: PROSPEKT (TK Velbi). 2004. – S. 37-52.
Psixologiya. Uchebnik dlya ekonomicheskix vuzov / Pod obsh. red. V.N.Drujinina. – SPb.: Piter, 2002. – 672 s.

2-ma'ruza. Miya va psixika. Ong haqida tushuncha

Reja:

1. Nerv sistemasining tuzilishi va psixika
2. Miyaning ishidagi psixik va nerv-fiziologik xususiyatlar
3. Ong haqida tushuncha

1. Nerv sistemasining tuzilishi va psixika

Psixikaning moddiy asosi nerv sistemasi va bosh miya hisoblanadi. Shu sababli nerv sistemasining tuzilishini va qanday ishlashini bilmasdan turib, psixik hayot hodisalarini tushunib bo'lmaydi.

Nerv siyetemasi nerv to'qimasidan iborat, bu to'qima esa nerv hujayralaridan tashkil topgan. Nerv hujayrasi protoplazmadan tuzilgan tana bo'lib, ikki turli o'simtalari bor, bu o'simtalarning bir xillari kalta, boshqa bir xillari uzun bo'ladi. Kalta o'simtalari sertarmoq bo'lib, dendritlar deb ataladi. Uzun o'simtalari aksonlar yoki neyritlar deb ataladi. Har bir hujayrada bu o'simtalar ikkitadan ortiq bo'lmaydi. Neyrit ikkita pardabilan o'ralgan. Neyritga yopishib turadigan birinchi pardasi yog'simon parda bo'lib, uni et parda yoki mielin pardasi deb ataladi. Ikkinchi tashqi pardasini shvann pardasi deyiladi. Bu pardalar toladan o'tuvchi nerv qo'zg'alishini ajratib turuvchi izolyasiyadek bir vazifani o'taydi. Neyrit, odatda, nerv tolasi, deb ataladi.

Nerv hujayrasi, uning o'simtalari va ularni qoplovchi pardalar birgalikda ***neyron*** deb ataladi Nerv sistemasi juda ko'p neyronlardan tuzilgan. Nerv tolalari miyadan tutam-tutam bo'lib chiqib nerv stvolini yoki, oddiy so'z bilan aytganda, nervni hosil qiladi.

Nerv hujayralari va mielinsiz tolalar to'plami miyaning kul rang moddasini, mielinli nerv tolalarining to'plami esa miya-ning oq moddasini tashkil etadi. Hujayralar – ularning yadrolari va tolalari sinapslar degan maxsus mayda tolachalar yordami bilan bevosita bog'lanadi (sinaps grekcha so'z bo'lib, "ilgak" degan ma'noni bildiradi).

Nerv sistemasining maxsus xossalari bor, bu xossalardan asosiylari ***qo'zg'aluvchanlik*** va ***o'tkazuvchanlikdir.*** Bu xossalar shundan iborat.

Agar nerv tolasining biron joyiga tegilsa, issiq; sovuq, elektr toki, ximiyaviy moddalar va boshqa shu kabilar bilan ta'sir etilsa, yoki qo'zg'atilsa, nerv tolasining qo'zg'atilgan joyida maxsus fiziologik jarayonlar ro'y beradi, buni *qo'zg'alshi* deyiladi.



5-rasm. Nerv hujayrasi



6-rasm. Diffuz nerv sistemasi

Agar nerv tolasi yetarli darajada qo'zg'atilsa, bu qo'zg'alish sodir bo'lgan joyidagina qolmay, balki nerv tolasi bo'ylab tarqaladi va bir nerv hujayrasidan ikkinchi nerv hujayrasiga o'tadi, nihoyat, qo'zg'atish kuchi muayyan darajaga yetganda qo'zg'alish butun nerv sistemasiga yoyilishi mumkin.

Nerv to'qimasida qo'zg'alish jarayoni yuz berganda bir qancha hodisalar: elektr, ximik, issiqlik hodisalari paydo bo'ladi. Yonma-yon turgan bir nerv hujayrasining aksoni bilan ikkinchi nerv hujayrasining tutashadigan joyi – sinapslar borligi tufayli, qo'zg'alish nerv tolalarida bir tomonga tarqaladi. Mielin pardasi borligidan, qo'zg'alish nerv tolasida ayrim-ayrim tarqaladi.

Odamning nerv sistemasi hayvonot olamining uzoq evolyusiyasi jarayonida va odamning tarixiy taraqqiyoti davomida vujudga kelgan.Nerv sistemasi birinchi marta kovak ichli hayvonlarda ro'yi rost ko'rinadi. Bu nerv sistemasi butun organizmga yoyilgan ayrim hujayralardan tuzilgan. Masalan, gidroid poliplarning nerv sistemasi shunday bo'ladi. Bu – *diffuz* tipda tuzilgan nerv sistemasidir

Umurtqali hayvonlar bilan odamda nerv sistemasi murakkab tuzilgan bo'lib, uch qismga – markaziy, periferiyadagi va vegetativ qismlarga bo'linadi.

2.2. Markaziy nerv sistemasi

Markaziy nerv sistemasi bosh miya bilan orqa miyadan tarkib topgan. ***Orqa miya*** umurtqa pog'onasining kanalida joylashgan bo'lib, nerv to'qimasidan tuzilgan va shaklan go'yo yo'g'on chilvirga o'xshaydi. Orqa miya uzunasiga ketgan ikkita egat bilan ikki qismga: o'ng va chap qismlarga bo'linadi. Orqa miyaning atrof-chekkasida oq modda (nerv tolalarining to'plami), o'rtasida esa kul rang modda (nerv hujayralarining to'plami) joylashganligini orqa miyaning ko'ndalang kesigidan ko'rish mumkin. Kul rang modda kesigi shaklan kapalakka o'xshaydi. Orqa miya oldingi qismlari oldingi ildizchalar, orqadagi qismlari orqadagi ildizchalar, deb ataladi.

Orqa miyada nerv tutam bo'lib joylashgan, qo'zg'alish periferiyadagi nerv uchlaridan, skelet muskullari, teri, shiliq pardalardagi nerv uchlaridan shu nerv tolalarning tutamlari orqali nerv impulslari shaklida bosh miyaga yetib boradi va bosh miyadan periferiyaga keladi. Nerv tolalarining ana shu tutamlari o'tkazuvchi yo'llar deb ataladi.

Orqa miya ongli psixik jarayonlarning bevosita markazi bo'lmay, balki ongsiz reflektor harakatlarni idora etadigan markazdir. U tana va qo'l-oyoq muskullarini, ko'z muskullarini idora qiladi, shuningdek, organizmda bo'ladigan bir qancha fiziologik jarayonlarni, ya'ni tomir harakatlari, ter chiqarish va boshqa shu kabi fiziologik jarayonlarni ham idora etadigan markazdir. Ana shu markazlardan bir qismi vegetativ nerv sistemasiga taalluqlidir.

Bosh miya kalla qutisida joylashgan bo'lib, go'yo orqa miya tepasidagi ustki qavat hisoblanadi.

Mutaxassislar tomonidan bosh miya quyidagi qismlarga ajratiladi 1-rasm.:

- *ketingi miya;*
- *o'rta miya;*
- *oraliq miya;*
- *oldingi miya.*

*Ketingi miya*ga uzunchoq miya, Varoliy ko'prigi va miyacha kiradi. Uzunchoq miya bilan Varoliy ko'prigi orqa miyaning go'yo bevosita davomidir. Lekin shu bilan birga, uzunchoq miya orqa miyaga qaraganda xiyla murakkab vazifani o'taydi. Uzunchoq miya orqali orqa miyadan bosh miyaning yuqoriroqdagi bo'limlariga va, aksincha, bosh miyaning yuqoriroqdagi bo'limlaridan orqa miyaga impulslar o'tib turadi. Uzunchoq miya yadrolari emish, chaynash, yutish, so'lak ajratish, me'da va me'da osti bezidan shira ajratish, qusish va shunga o'xshash bir qancha murakkab reflektor jarayonlarda qatnashadi. Nafas olishni, yurakning ishla shini idora etadigan, qon tomirlar tonusini saqlaydigan markazlar uzunchoq miyadadir. Miyacha markaziy nerv sistemasining pastdagi hamma bo'limlariga, shuningdek, yuqoriroqdagi qismlariga ko'p yo'llar bilan mahkam bog'langandir. Miyachaning juda qatta ahamiyatga ega eqanligi loaqal shundan ham ko'rinadiki, miya cha olib tashlangandan keyin tananing muvozanat va harakat funksiyalari juda ham buziladi; harakatlar tartibsiz, chalkash, poyma-poy bo'lib qoladi. Miyachasi olib tashlangan hayvon qaddini ko'tarib va boshini tutib turolmaydi; boshi va tanasi doim tebranib turadi; omonat, poyma-poy, haddan tashqari keskin harakatlar qiladi.

O'rta miya. Muskul tonusining normal taqsimlanishini va gavdaning tovush hamda yorug'lik singari qo'zg'ovchilarga, shuningdek og'irlik kuchiga nisbatan to'g'ri turishini idora etadigan to'rt tepalik, qizil yadro va miyaning boshqa ba'zi bir uchastkalari o'rta miya tarkibiga kiradi. O'rta miyasi olib tashlangan mushuk, it va maymunlar normal harakat qila olmaydigan bo'lib qoladi.

Oraliq miya muhim funksiyalarni o'taydigan bir qancha nerv uchastkalaridan iborat. Gavdaning umumiy sezuvchanligini ham o'rta miya idora etadi. Pastroqdagi vegetativ markazlarning ishlarini birlashtiradigan va muvofiqlashtiradigan oliy vegetativ markazlar ham o'rta miyada deb taxmin qilinadi.

Uzunchoq miya, Varoliy ko'prigi, o'rta miya va oraliq miya hammasi birgalikda **miya dastasi** yoki **miya stvoli** deb ataladi.

Oldingi miya va uning po'sti bosh miyaning oliy qismlaridir. Hayvon biologik taraqqiyot bosqichining qancha yuqorisida tursa, oldingi miyasi bosh miyaning boshqa qismlariga nisbatan o'shancha ko'prok joy egallaydi. Oldingi miya ikkita yarim shardan – o'ng va chap yarim sharlardan iborat. Bosh miyaning peshana bo'ladigan ensa bo'lagiga qarab boradigan katta egat bu yarim sharlarni bir-biridan ajratib turadi. Oldingi miyaning o'ng va chap yarim sharlari **qadoq modda** deb ataluvchi jism yordami bilan o'zaro birlashadi.



1-rasm. Bosh miya va uning tuzilmasi

Yarim sharlarning miya po'sti deb ataladigan butun yuzasi tekis bo'lmay, balki g'ijim-g'ijim, burmachalar bilan qoplangandir, bular go'yo egat va pushtalarga o'xshaydi. Shu bilan birga, hayvon biologik taraqqiyotning qancha yuqori bosqichida tursa, yarim sharlar yuzasidagi bu egatlar shuncha chuqurroq va pushtalari ko'proq bo'ladi. Odam miyasining yarim sharlaridagi pushtalar juda ko'p va egatlari ko'p darajada chuqurdir.

Bosh miya po'sti miyaning kul rang moddasidan iborat 9-rasm. Miyaning turli qismlarida po'stning qalinligi 1 *mm* dan. 4-5 *mm* gacha boradi. Odamning bosh miya po'stining butun yuzasi o'rta hisob bilan 2000 *kv.sm* keladi. Bosh miya yarim sharlari po'stining yuzasi odatda to'rtta katta qismga – peshona qismi (eng kattasi), tepa qismi, ensa qismi va chakka qismiga bo'linadi 2-rasm.



2-rasm. Bosh miya yarim sharlari po'stining yuza qismlari



3-rasm. Kulrang modda bo'lagi

Ba’zi bir olimlarning hisobiga qaraganda, bosh miya po’sti va yarim sharlarida 15 milliardga yaqin nerv hujayrasi bor.

Katta yarim sharlar po’sti shakli va funksiyasi bilan bir-biridan farq qiladigan olti qavat nerv hujayralaridan tuzilgan 4-rasm. Oltinchi qavat o’z navbatida ikki qatlamga bo’linadi. Ammo bosh miya po’stining turli qismlari olti qavat hujayradan. iborat emas, balki ikki, uch, to’rt qavatdan, ba’zi qismlari esa olti qavatdan iborat. Bosh miya po’stining hujayralar qavati bir xilda bo’lgan uchastkalari maydon hosil qiladi. Odam bosh miyasining po’stida hammasi bo’lib 52 ta maydon bor Tuzilish jihatidan bir-biriga o’xshaydigan maydonlar sohalarni tashkil etadi; bunday sohalar 11 tadir. Bosh miya po’stining uchinchi va beshinchi qavatlari katta-katta, piramidasimon hujayralardan tuzilgan, qolgan qavatlari esa mayda (donasimon) hujayralardan, uchburchak va dugsimon hujayralardan tuzilgan. Bosh miyaning po’sti ostidagi qismlari po’st ostidagi soha deb ataladi.



4-rasm. Bosh miya po’stining qismlari

2. Miyaning ishidagi psixik va nerv-fiziologik xususiyatlar
Bosh miya va psixik funksiyalar

Po’st ostidagi soha va po’st ostidagi tugunlar differensiallashmagan va umumiy sezuvchanlik markazidir. Emosiya va instinktlarimiz shu soha bilan chambarchas bog’liqdir Harakatlarimizni idora etish uchun po’st ostidagi tugunlardan targ’il jismning ahamiyati ayniqsa kattadir. Targ’il jism zararlanganda, odatda, harakat kuchayadi, ammo poyma-poy bo’ladi.

Yuksak darajada tashkil topgan hayvonlarda psixik jarayonlarning va odamda ongli jarayonlarning bevosita moddiy asosi bosh miya po’stidir. Bosh miyaning pastroqdagi boshqa hamma qismlari, shuningdek, orqa miya ongsiz reflektor harakatlarning markazlari bo’lib, xilma-xil fiziologik jarayonlarni idora etadi.

Bosh miyaning yuqorida aytilgan hamma qismlari va orqa miya markaziy nerv sistemasi bosib o’tgan taraqqiyot yo’lining bosqichlaridir. Bosh miyaning taraqqiyotidagi har bir qismi (pastdan yuqoriga qarab hisob qilganda) o’zidan avvalgi qismning ustiga qatlangan. Orqa miya, undan keyin esa uzunchoq miya markaziy nerv sistemasining eng qadimgi qismlaridir. Oldingi miya va po’st genetik jihatdan miyaning zng yosh qismlaridir. Markaziy nerv sistemasining yuqorigi qismlari taraqqiy qilgunicha pastdagi (qadimgi) qismlari murakkabroq psixik funksiyalarni xam bajargan deb o’ylash mumkin. Markaziy nerv sistemasining yuqorigi qismlari tarkib topib taraqqiy qilishi bilan, murakkabroq psixik funksiyalar miyaning yuksak taraqqiy qilgan qismlariga o’tdi. Shu bilan birga psixik funksiyalar tobora murakkablashib va takomillashib bordi. Psixik funksiyalar miyaning yuksak taraqqiy qilgan qismlariga o’tishi bilan miyaning pastdagi qismlari muayyan refleks va instinktiv harakatlarnigina idora etadigan bo’lib qoldi.

Buning haqiqatan ham shunday ekanligini quyidagi hollar ko’rsatib turibdi. Biologik taraqqiyotning ancha past bosqichlarida turgan hayvonlarning miya po’sti va

oldingi miyasi olib tashlanganda, bu qismlarning funksiyasini pastroqdagi qismlar o'tay boshlaydi. Masalan, oldingi miyasi olib tashlangan baqa tamomila normal baqaga o'xshaydi. Bunday baqa odatdagicha o'tiradi; baqa turgan taxta ag'darila boshlasa, u ag'anab tushmaslikka harakat qiladi; agar baqa chalqancha ag'nab tushsa, o'nglanib oladi. Shunday qilib, baqa miya yarim sharlaridan mahrum bo'lsa ham harakat qilish va o'z harakatlarini muvofiqlashtirish qobiliyatini saqlab qoladi.

Yarim sharlari olib tashlangan kaptar og'ziga solingan ovqatni yeydi, turtib yuborilsa yuradi; bunday kaptar turtinmasdan ucha oladi. Ammo kaptar turtib yuborilmasa, odatda, qimirlamay turaveradi. Agar it miyasining ikkala yarim shari olib tashlansa, sun'iy suratda boqilib borilsagina bir necha yil yashay oladi. Bunday it og'ziga solingan ovqatni yeydi, yura oladi. It urilsa vangillaydi qattiq tovush eshitganda sapchib tushadi. Ammo bunday it o'zicha ovqat qidirib topolmaydi va hatto yaqinidagi ovqatni ham topib yeya olmaydi. Bu it uni boquvchi kishilarni tanimaydi. Avval hosil qilgan malakalari shu bilan birga, yangi malakalar hosil qilish qobiliyati ham yo'qoladi. Ba'zi fiziologlar maymunlarning yarim sharlarini olib tashlab tajribalar qilganlar. Maymunlar operasiya qilingandan keyin psixik funksiyalari yo'qolishi bilan birga, harakatni muvofiqlashtirish tizimi ham buzilgan. O'lar to'ppa-to'g'ri o'tirib tura olgan, shuningdek, narsalarni changallay olgan, ammo murakkabroq harakatlar, ayniqsa yurish qobiliyati buzilgan.

I.P.Pavlov yuksak nerv faoliyatiga doir tekshirishlarida shunday hodisalarni ilmiy asosda tushuntirib berdi.

Hayvonlar bosh miyasining ayrim qismlarini olib tashlash ustidagi tajribalar shuni ko'rsatdiki, hayvon biologik taraqqiyotning qancha yuqori bosqichida tursa, quyi qismlarining yuksak psixik funksiyalarni bajara olish imkoniyati o'shancha kam bo'ladi.

Odamda miyaning quyi qismlari yuksak psixik funksiyalarni bajarishga mutlaqo qobil emas. Odam miyasining po'sti ostidagi qismlari po'st funksiyasini loaqal qisman ham bajara olmasa kerak. Yarim sharlarsiz tug'ilgan bolalar (*anensefallar*)ni kuzatish bu holatni juda ravshan tasdiqlaydi. Odatda bunday bolalar uzoq yashamaydi. Shunday bolalardan birining faqat uch yil-u to'qqiz oy yashagani ma'lum. Bu bola doim yotgan, turishga biron marta ham harakat qilib ko'rmagan. U narsalarni ushlashga hyech urinmagan, hatto narsalarni qo'lda ushlab turishni ham bilmagan. Faqat yuzida ba'zi bir harakatlar ko'rilgan; u ba'zan ijirg'angan; emganda va qoshiqlab ovqat berilganda lablari va tili harakatga kelgan. Bola tagi bulg'anganda ham hyech bir parvo qilmagan. Bu bola bilan gaplashish yoki unga biron narsa o'rgatish aslo mumkin bo'lmagan. Unda hatto eng oddiy ko'nikmalar ham hosil bo'lmagan.

Yuqorida aytilganlardan, miyaning po'st ostidagi qismlarining psixik hayotga hyech qanday aloqasi yo'q, degan ma'no chiqmaydi. Yarim sharlar po'sti o'z tolalari bilan bosh miyaning hamma qismlariga va orqa miyaga bog'langan. Shu bilan birga, yuqorida aytilganidek, orqa miyadagi nerv hujayralarining tolalari va po'st ostidagi sohalarning tolalari yarim sharlar po'stining qismlariga bog'langandir. Shu sababli butun markaziy nerv sistemasi va uning faoliyati bo'lmasa, psixik hayot ham bo'lmas edi.

Shu bilan birga, butun nerv sistemasining va butun organizmning faoliyatida bosh miya po'sti asosiy rol o'ynaydi I.P.Pavlov ta'limotiga ko'ra, yarim sharlar po'sti organizmdagi hamma funksiyalarni idora etadi.

Pavlov ta'limotiga ko'ra, katta yarim sharlar po'sti organizmning barcha funksiyalarini boshqaradi.

3. Ong haqida tushuncha

Ongning paydo bo'lishi va uning ijtimoiy-tarixiy mohiyati

Inson psixikasi bilan yuksak darajada tashkil topgan **hayvon** psixikasi o'rtasida katta farq bor. Hayvon o'z to'dasidagilarga favquloddagi vaziyat bilan bog'liq bo'lgan hodisalar haqida „o'z tili"da xabar berishi odatiy hodisa. Odam hayvonlardan farqli o'laroq, nutq vositasida o'z qabiladoshlariga o'tmish (xotirot), hozirgi davr va kelajak to'g'risida ma'lumot berish hamda ijtimoiy turmush tajribalarini yetkazish imkoniyatiga ega. Insoniyatning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotida aks ettirish (in'ikos qilish) imkoniyatlari til tufayli qayta qurildi, oqibatda odam miyasida atrof-muhit timsollari, xususiyatlari aniqroq aks eta boshladi. Oqibatda kishilik dunyosi tomonidan orttirilgan tajribadan yakka shaxs bahramand bo'la bordi, keyinroq uning uchun noma'lum hisoblangan borliq hodisalari, holatlari, qonuniyatlari to'g'risidagi bilimlarga egalik qila boshladi. His-tuyg'ular, ichki kechinmalar, taassurotlar, hayajonga soluvchi nafosat timsollari yuzasidan zavqlanish, huzurlanish imkoniyati vujudga keldi, ularning mazmuni, ma'nosi, mohiyati haqida o'ziga o'zi hisobot berish, ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishni baholash muammolarini keltirib chiqardi. Hayvonot olami bilan insoniyatning xabar yetkazish vositasi o'rtasidagi farq tafakkurda ham o'z aksini topdi. Chunki har qanday psixik funksiya boshqa turdagi, shakldagi, mazmundagi funksiyalar qobig`ida namoyon bo'ladi va muayyan shart-sharoitlar vujudga kelganida rivojlanadi. Yuksak taraqqiy etgan hayvonlarda amaliy (sodda) tafakkur mavjud bo'iib, chamalash orqali moljal olishga, favquloddagi vaziyat yuzaga keltirgan vazifani bajarishga yo'naltirilgan bo'ladi. Hayvonlar, aniqrog'i maymunlar ayrim hollarda „qurol" yasash va undan kezi kelganda foydalanishlari tajribalarda kuzatilgan, biroq ulardan birontasi tafakknrni mavhum tarzda amaliyotga tatbiq eta bilmagan. Holbuki, hayvonlar idrok qilish ko'lamidan tashqari chiqish imkoniyatiga ega emaslar, binobarin, u yaqqollikdan mavhumlikka o'ta olmaydi, hatto bunday vaziyatni aks ettirish imkoni ham yo'q. Hayvon yaqqollik, bevosita idrok qilishlikning quli bo'lsa, aksincha, inson mavhum fikrlashning gultojisidir. Inson va hayvon o'rtasidagi bu boradagi tafovut quyidagilarda mujassamlashadi: a) shaxsning xulq-atvori, faoliyati yaqqollikdan mavhum holatga o'tish imkoniyatiga ega; b) favquloddagi vaziyat munosabati tufayli vujudga kelishi mumkin bo'lgan oqibatni oldindan payqash layoqati mavjud; d) qiyinchiliklar uchrasa, ularni yengish uchun qo'shimcha vositalar qo'llash, o'zgartirishlar kiritish imkoni borligi bilan ajralib turadi. Masalan, avtomobil ishdan chiqsa, inson uni sozlaydi, yomg'ir yog'sa, narsalarni panaga oladi, ayb ish qilib qo'ysa, himoyalanish yo'1-yo'riqlartai o'ylaydi, muammo yechimini qidiradi va hokazo. Shaxs favquloddagi vaziyatning qurboniga aylanmaydi, aksincha u kelajakni ko'ra bilishga qodir, aql-farosati bashorat qilish imkoniyatini yaratadi. Inson faoliyat mahsulini oldindan payqash, fe'l-atvor oqibatini oldindan sezishga qodir ekanligi bilan ustuvorlik qiladi. Hayvonlarning amaliy tafakkuri ularni yaqqol vaziyatdan bevosita ta'sirotga bo'ysunishini taqozo etadi. Shaxsning mavhum fikrlashga bo'lgan qobiliyati uni muayyan vaziyatga bevosita bog'liqlikdan xalos etadi. Inson bevosita muhim ta'sirga javob berish bilan qanoatlanib qolmay, balki uni kutayotgan ta'sirni ham bartaraf etishga qurbi yetadi. Inson psixikasi bilan hayvon psixikasi o'rtasidagi birinchi farq shaxsning o'zi anglagan qadriyatga binoan ongli xatti-harakat qilish qobiliyati mavjudligidir.

Shaxsning hayvondan ikkinchi farqi — uning mehnat qurollarini yaratish va saqlashga layoqatli ekanligi bo'lib, u mehnat qurollarini oldindan tuzilgan rejaga muvofiq yasaydi va muayyan maqsadni amalga oshirishda foydalanadi, keyinchalik uni qayta ishlatish niyatida asrab, olib qo'yadi. Ulardan odamlar hamkorlikda foydalanadilar va ularni hamkorlikdagi faoliyatida

yaratadilar. O'zaro tajriba almashadilar, bilimlarni boshqalarga yetkazishadi, umumiy vorislik tufayli u yana yuksaladi.

Inson psixikasining hayvonnikidan yana bir farqi shundaki, u ijtimoiy tajribani boshqalarga uzluksiz ravishda yetkazishida aks etadi. Tajribalarni instinktiv xatti-harakatlar tarzida o'zlashtirish ham insonga, ham hayvonga xosdir, lekin shaxsiy tajribaga ko'ra ijtimoiy tajribaning ustuvorligi odamning ongli mavjudot sifatida yanada mukammallashuvida asosiy manba hisoblanadi. Shaxsni ijtimoiy munosabat, ijtimoiy tajriba shakllantiradi, moddiy va ma'naviy qurollarni egallash natijasida unda yuksak insoniy funksiyalar (ixtiyoriy xotira, ixtiyoriy diqqat, mavhum tafakkur) vujudga keladi va rivojlana boradi. Subyekt tomonidan kishilik dunyosida yaratilgan madaniy merosni o'zlashtirilishi, ayrim o'zgartirishlar kiritilishi uning kamolotida sifat jihatidan yuksak bosqichni yuzaga keltiradi. Yuksak funksiyaiar, nutqiy faoliyatning takomillashuvi, mehnatning hayotiy ehtiyojga aylanishi, ertangi hayot to'g'risida mulohazalar tug'ilishi ongning rivojlanishi uchun muhim imkoniyatlar yaratdi. Shu bois inson va hayvon o'rtasidagi tafovut tajribaning vorislik funksiyasini kasb etishi bilan yakunlanadi. Jismoniy va aqliy faoliyat kundalik zaruratga aylanishi sababli ong bevosita nazorat funksiyasini bajara boshlaydi, shuningdek, jamiyat, jamoa, tabiat to'g'risidagi tasavvurlarni tushunishi, anglash ham uning tasarrufiga aylanadi.

Borliq voqeliklarini bir tekis in'ikos ettirish vositasi sifatida insonda his-tuyg'ular rivojlana boshlaydi. Inson bilan hayvonot olami o'rtasidagi tafovut his-tuyg'ular orqali namoyon bo'ladi. Lekin atrof-muhitdagi o'zgarishlarga nisbatan befarqlik bar ikkala toifadagi mavjudotlarda birdek hukm surmaydi, ya'ni tashqi ta'sirlar ijobiy yoki salbiy hissiy qo'zg'atishni vujudga keltiradi. Emotsional holatlar hayvonlarda ustuvor o'rin egallaydi, ularga o'zlarining munosabatlarini bildiradi. Biroq hayvonlardan farqli o'laroq, odam o'zining yuksak his-tuyg'ulari (axloqiy, aqliy, nafosat, praksik — lazzatlanish) bilan jamiyatga va tabiatga nisbatan munosabatini bildiradi. Jumladan, quvonch, g'am-g'ussa, mehr-muhabbat, achinish, hamdardlik, zavqlanish, faxrlanish, iftixor va boshqalar. Tabiat manzaralari, mehnat mahsuli, turmush lahzalari, ezgulik, armon insonni faollikka undaydi va har bir soniyadan maqsadga muvofiq foydalanish xohishlari motiv vazifasini bajarishga o'tadi. Yuksak his-tuyg'ular inson xulq-atvorining regulatoriga aylanadi. Undagi vijdon, uyat mas'ullik esa qadriyat tariqasida xizmat qiladi. His-tuyg'ularni boshqarish, nazorat qilish onglilikni taqozo etadi, ko'zlangan maqsadni amalga oshirishni ta'minlashga yordam beradi.

Agarda psixikaning taraqqiyoti biologik evolutsion qonunlar ta'siri bilan ro'y bergan bo'lsa, inson ongining rivojlanishi ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot qonunlari tufayli amalga oshgandi. Hayvon bilan odam psixikasidagi yana bir tafovut ularni rivojlanish shart-sharoitlarida ko'rinadi va muhit, munosabat, ta'sir orqali aks etadi. Shaxslararo munosabatga kirishmasdan turib, kishida yuksak his-tuyg'ular shakllanmaydi, yuksak psixik funksiyaiar rivojlanmaydi, inson shaxsi kamol topmaydi. Odam faqat ijtimoiy muhitda, shaxslararo munosabatda insoniy fazilatlarni egallab, til, aql, ong yordamida kamolga yetadi, xolos. Shunga qaramasdan, ong paydo bo'lishining biologik shart-sharoitlari mavjudligi to'g'risida mulohaza yuritish mumkin. Chunki dastlabki ijtimoiy munosabatlarning biologik shart-sharoiti ibtidoiy jamoa davridagi to'dadan iborat edi. Shaxsnjng biologik jihatlaridan tashqari uning ijtimoiy omillari ham mavjud bo'lib, u muayyan ma'noda ijtimoiy munosabatlar mahsulidir. Bunga ijtimoiy muhitdan tashqarida (o'rmonda) shakllangan inson farzandlarining qiyofasi yaqqol misoldir.

Muhitdagi keskin halokatli o'zgarishlar tufayli inson o'zining moddiy ehtiyojini qondirish maqsadida mehnat faoliyatini kashf etdi va u ijtimoiy munosabatlarning

rivojlanishiga, turmush shart-sharoiti yaxshilanishiga, ongning takomillashuviga, fikr almashish, axborot uzatish imkoniyatining tug'ilishiga olib keldi. Tartibsiz to'dalardan kishilik jamiyati paydo bo'lgunga qadar bir qancha davrlar o'tdi, odamning qo'li mo'jizakor ish qurollarini yasaydigan, ularni takomillashtiradigan, keyinchalik foydalanishi uchun asraydigan ongli mavjudotga o'sib o'tdi. Mehnat faoliyatida odamning ongi aks ettirishning yuksak shaklini egalladi, faoliyatning obyektiv xususiyatlarini farqlash, ularni maqsadga muvofiqlashtirish tufayli atrof-muhitni o'zgartirish, unga ta'sir o'tkazish qudrati, qobiliyati, layoqati vujudga kela boshladi. U faqat qurollardan muvaqqat foydalanishdan voz kechib, avlodlarga qoldirish, asrashni ong ta'sirida ro'yobga chiqara bordi, buning natijasida insonning har xil shakldagi faoliyati ongli faoliyatga aylandi, o'zaro munosabatlar mazmuni, ko'lami kengaya boshladi, shaxsiy mehnat ulushi jamoa ehtiyojini qondirishning asosiy manbayiga aylandi. Tabiatga ta'sir o'tkazish, uni o'zgartirish to'g'risidagi maqsad o'z funksiyasini o'zgartirdi, qo'l esa yangiliklar yaratish quroliga, sezish, payqash, paypaslash, his etish organi vazifasini bajarishga o'tdi.

Kishilik jamiyatida mehnat faoliyatining takomillashuvi, shaxslararo munosabat yangi shakllarining paydo bo'lishi til va nutqni vujudga keltirdi, ularning barchasini maqsadga muvofiq amalga oshirishni ta'minlovchi ong jadal sur'atlar bilan rivojlandi. Ong faqat faoliyat, xulq-atvor, muomala, his-tuyg'ular regulatori emas. balki yakkahol shaxsning ijtimoiy psixologik xususiyatlarini to'g'ri amalga oshishining asosiy manbayi rolini bajara boshladi.

Shunday qilib, insonning ongi ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot mahsuli bo'lishi bilan birga, u mehnat faoliyatida, ijtimoiy tajribani o'zlashtirishda, hamkorlikdagi o'zaro ta'sirda, tabiatga, jamiyatga munosabatlar mohiyatida mukammal rivoj topdi. Buning mahsuli va shakli sifatida individual, guruhiy, etnik (milliy), ijtimoiy ong namoyon bo`lgan hamda ular taraqqiyot tufayli o'zining yangi bosqichlariga o'sib o'tgan, keyinchalik fan, texnika yaralishiga puxta zamin hozirlagan.

Ongning mohiyati

Psixikaning yuqori bosqichi insongagina xos bo'lgan, uning eng yuksak darajasi hisoblanmish ongda o'z aksini topadi. Ong psixikani yaxlit tarzda ifodalovchi yuksak shakli hisoblanib, insonning yakka va hamkorlik faoliyatining, (muloqot, nutq, til) vositasida ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning mahsuli sifatida yuzaga kelgandir. U ijtimoiy mahsul bo'lishidan tashqari, unga muayyan munosabat bildirish, ya'ni maqsadni ko'zlash, o'zlikni anglash kabilarni namoyon etish imkoniyatiga ham egadir. Quyida ongning tarkibiy qismlarining mohiyatini yorituvchi va ularning hukm surishiga ta'sir etuvchi omillarga doir ayrim manbalar xususiyatini tavsiflashga harakat qilamiz. Odatda, inson ongi uni qurshab turgan tevarak-atrof haqidagi bilimlar majmuasidan iborat bo'lib, uning tuzilishi va tarkibiga shunday bilish jarayonlari kiradiki, bevosita ularning yordami bilan shaxs o'z axborotlari ko'lamini uzluksiz boyitib boradi.

Insondagi bilimlar sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol singari bilish jarayonlari asta-sekin anglashilish darajasiga ko'tariladi, keyinchalik esa muayyan turkumlarning tarkibiga kiradi. Harakatli hissiy tub ma'nodagi hissiy bilish bosqichlariga taalluqli sezgi, idrok, appersepsiya, tanish, bilib olish va tasavvur kabi bilish jarayonlari ko'magi, miyaga bevosita ta'sir o'tkazuvchilarning aks ettirishi natijasida inson ongida borliqning mazkur daqiqasida shaxs tasavvurida ularning hissiy manzarasi yuzaga keladi. Xotira jarayoni ongda o'tmishdagi narsa va hodisalarining obrazlarini esga tushirsa hamda bosh miyaning u yoki bu katta yarimsharlarining bo'limlarida aks etgan muayyan izlarni jonlantirish imkoniyatiga

ega bo'lsa, xayol jarayoni ehtiyoj obyekti hisoblangan favquloddagi davr hukmiga kirmagan obrazlar modelini namoyon etadi. Bilishning yuksak darajasi bo`lmish tafakkur jarayoni umumlashgan, ijtimoiy xususiyatli, bilvosita va so'z orqali ifodalanuvchi bilimlarga asoslangan holda gavdalanuvchi muammolar yechimini hal etishni ta'minlaydi. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan bilish jarayonlarining unisi yoki bunisi aks ettirish imkoniyatidan mahrum bo'lsa, buzilsa yoki ularning qaysidir xususiyati batamom, qisman izdan chiqsa u ongni tubdan o'zgartirish sari yetaklaydi.

Ong psixologik tafsifming yana biri subyekt bilan obyekt o'rtasidagi aniq farqlanishda o'z ifodasini topadi, ya'ni shaxs „men" degan tushunchasi bilan „men emas" atamasi tarkibiga nimalar tegishli, aloqador ekanligini aniq biladi. Tirik mavjudotlar olamida birinchi bo'lib, borliqda uni aniq qurshab turgan tevarak-atrofga nisbatan o'zini qarama-qarshi qo'ygan, yaratuvchanlik kuch-quvvatiga, o'zgartiruvchanlik imkoniyatiga asoslangan shaxs o'zi uchun, sifat jihatidan yuksak darajadagi makon vujudga keltirish uchun hayvonot dunyosini mangu tark etgan, shu bois jonivorlar bilan uning o'rtasidagi ziddiyat va tafovut ongida saqlanib kelmoqda. Tabiatning tarkibiy qismi hisoblangan inson sutemizuvchilar olamida tanho o'zini o'zi nazorat qilishga, o'zini o'zi bilishga, o'zini o'zi boshqarish imkoniyatiga ega bo'lgan jonli zotdir, binobarin, u psixik faoliyatni tashkil qilishga, maqsadga yo'naltirishga, o'zini o'zi tadqiq qilishga qodir mavjudotdir. Shaxs o'z xulq-atvorini, bilish jarayonlarini aqliy va ijodiy faoliyatini, irodaviy sifatlarini ongli ravishda oqilona baholay oladi hamda o'zini o'ziboshqarabiladi.

Har qaysi insonda hukm suruvchi „men"likning „men emas"likdan ajratishga intilishni „o'zini namoyon qilish, o'zini o'zi ifodalash, kimligini kashf etish, o'zini o'zi takomillashtirish, o'ziga o'zi buyruq berish, o'ziga o`zi tasir o'tkazish singari jarayonlarda" ontogenetik hayotning dastlabki taraqqiyot pallasidan, ya'ni bolalikning ilk daqiqalaridan boshlab, to yetuklikning u yoki bu bosqichlarini egallash davrigacha davom etib, o'zini o'zi anglashning yuzaga kelishi bilan yakunlanadi. Lekin „men”lik muammosining boshqa qirralari, xususiyatlari, mexanizmlari, ta'sir etuvchi omillari, yangi sifat darajalari o'zini o'zi anglashning takomil bosqichlarida namoyon bo'laveradi, bu jarayon komil inson — jismoniy va ma'naviy barkamollik darajasiga erishgunga qadar davom etishi mumkin. Biroq yuksak kamolot darajasiga erishish shaxsning iste'dodi, salohiyati, ishchanlik qobiliyati, aqliy va ijodiy faoliyati mahsuldorligiga bog'liq bo'lib, barcha insonlar taraqqiyot cho'qqisiga erishadi, degan ma'noni anglatmaydi. Chunki ijtimoiy hayotdagi umumbashariy talab, ehtiyoj negizida muayyan hududiy qulay (senzitiv) ham obyektiv, ham subyektiv shart-sharoitlar taqozosi bilan jahon fani va madaniyatida keskin o'zgarishlar yaratishga qodir tarixiy yakka shaxs dunyoga keladi. Bizningcha, komil insoniylikka erishishning o'ziga xos axloqiy, aqliy, irodaviy, g'oyaviy tarkiblari mavjud bo'lib, tanlangan idealga intilish, kasbga sodiqlik, samoviy muhabbat uning negizini tashkil qiladi. Tashqi olam taassurotlaridan mutlaqo voz kechish, fikriy soflikka erishish, tana a'zolarini musaffolashtirish (ortiqcha moddalardan tozalash), qulaylikka tortilganlik orqali shaxs oliy darajaga, ya'ni komillikka yetishi mumkin, lekin bu bosqich nisbiy xususiyat kasb etadi.

Ongning uchinchi psixologik tavsifi shaxsning maqsadini ko'zlovchi faoliyatini ta'minlashga oid ta'rifi ifodalangan bo'lib, uning yana bir funksiyasi mazkur maqsadini yaratishga yo'naltirilganligi bilan boshqalardan farq qiladi. Ushbu jarayonda shaxs faoliyatining turli xususiyatga ega motivlari yuzaga keladi, ular inson tomonidan chamalab chiqiladi, buning natijasida motivlar kurashi namoyon bo'ladi va bu o'rinda ustuvorlikka erishish yetakchilikni ta`minlaydi, irodaviy zo'r berish oqibatida muayyan

qonun qabul qilinadi, harakatlarni bajarishning izchilligi qay yo'sinda amalga oshirilishi hisobga olinadi, maqsadni qaror toptirishga to'siq vazifasini o'tovchi fikriy to'siqlar bartaraf etiladi va unga mutanosib o'zgarishlar kiritiladi, samaradorlikni oshirish uchun ba'zi bir tuzatishlar amalga oshiriladi.

Maqsadni ko'zlovchi faoliyatning amalga oshirilishi jarayonida, uning muvofiqlashuvida, voqelikka yo'naltirilishida obyektiv va subyektiv sabablariga ko'ra, ayrim nuqsonlarga yo'l qo'yilishi, buzilish vujudga kelishi ong funksiyasining zaiflashuvini bildiradi. Faoliyat ongli munosabatni taqozo etganligi tufayli uning tarkibiy qismlari bajarilishida ayrim kamchilikka yo'l qo'yilsa, bu holat ongning nazorat funksiyasi izdan chiqqanligini anglatadi.

Ongning to'rtinchi psixologik tavsifi uning tarkibida muayyan darajadagi, ma'lum tizimga xos emotsional (hissiy) munosabatlar qamrab olinganligini aks ettiradi. Shundan keyin shaxs ongiga muqarrar ravishda turli-tuman his-tuyg'ular (har xil darajali ijobiy, salbiy, barqaror, statik, dinamik), kechinmalar, stress, affekt holatlar to'g'risidagi axborotlar oqimi kirib kela boshlaydi.

Shaxsning boshqa kishilarga, tabiatga, jamiyatga, ashyolarga nisbatan munosabatlari mavjud mezonlarga asoslansa, muayyan qoidalarga bevosita amal qilinsa, har bir narsaga oqilona, odilona va omilkorlik bilan yondashilsa, ongning nazorat funksiyasi hukm surayotganligidan dalolat beradi.

Shaxsdagi mo'tadillik, ruhiy sog'lomlik ongning boshqaruv imkoniyati mavjudligini bildirsa va ayrim hollarda hissiyotga berilsa, demak, uning o'z funksiyasini bajarishdan chetlashganligi namoyon bo'ladi. Agar turli xususiyatli munosabatlar ong nazoratida amalga oshirilsa, shaxs xulq-atvorida, faoliyatida va muomala jarayonida, hech qanday nuqsonlar, chetga og'ishlar sodir bo'lmaydi. Shu narsani ta'kidlash o'rinliki, patologik holatlarni tahlil qilish, ong mohiyatining genezisini atroflicha anglab olishga ko'maklashadi. Shu bois ongning zaiflashuvi shaxsning his-tuyg`ulari va munosabatlarini o'zgartiradi hamda vaqt-vaqti bilan simpatiya antipatiya bilan, quvonch qayg'u bilan, optimizm pessimizm bilan o'rin almashib turishi kuzatiladi.

Ongning yuqorida ta'kidlab o'tilgan barcha funksiyalari namoyon bo'lishining muqarrar sharti til va nutq hisoblanadi. Shaxs nutq faoliyati yordami bilan bilimlarini o'zgartiradi, ajdodlar tomonidan ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot davomida yuzaga keltirilgan tajribalar majmuasi tilda nuistahkamlanadi, u o'zining tafakkuri orqali hayoti va faoliyatini boyitadi. Til alohida obyektiv tizim sifatida namoyon bo'lib, ijtimoiy-tarixiy jarayonlarda vujudga kelgan an'analar, marosimlar, qadriyatlar, g'oyalar majmuasi tariqasida ijtimoiy ongda aks ettirilgandir. Psixologik talqinlarga qaraganda, alohida, yakkahol shaxs tomonidan egallangan til boyliklari, qoidalari muayyan ma'noda uning yaqqol, individual ongi sifatida yuzaga keladi, shaxsiy hayoti va faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim o'rin tutadi. Til bilan nutq borliqni anglashning aloqa quroli hamda vositasi funksiyasini bajarib, shaxsning boshqa mavjudotlardan farqlash sharti hisoblanadi va til bilan tafakkur birligi ong uchun moddiy negiz vazifasida ishtirok etadi, qaysidir ma'noda mexanizm rolini bajarishi ham mumkin.

Shunday qilib, ontogenezda ongning paydo bo'lishi („men" davrining boshlanishi), uning taraqqiyoti, tarkibiy qismlari, unda ijtimoiy muhitning, zarur shart-sharoitlarning o'rni, biologik va ijtimoiy shartlanganlikning ta'siri, tarbiyaning ustuvorligi to'g'risidagi ilmiy tadqiqot ishlari mazkur muammoning psixologik tafsifini ishlab chiqishga muhim negiz yaratdi.

Tekshirish uchun savollar

1. Psixikaning moddiy asosi nimadan iborat?
2. Qo'zg'aluvchanlik va o'tkazuvchanlik deganda nimani tushunasiz?
3. Nerv hujayrasi, uning o'simtalari va ularni qoplovchi pardalar birgalikda nimani tashkil etadi?
4. Diffuz tipda tuzilgan nerv sistemasining tarkibiy qanday?
5. Bosh miya bilan orqa miya birgalikda qanday nerv sistemasi deb yuritiladi?
6. Bosh miya qanday qismlardan tashkil topgan?
7. Miya dastasi yoki miya stvoli deganda nimani bilasiz?
8. Bosh miya po'sti nima va u necha qismdan iborat?
9. Bosh miya va psixik funksiyalar bir-biri bilan qanday o'zaro muvofiqlikni tashkil etadi?
10. I.P.Pavlov yuksak nerv faoliyatiga doir qanday ilmiy tekshirishlarni o'tkazgan?
11. Ong qanday paydo bo'lgan?
12. Ong deganda siz nimani tushunasiz?
13. Ongning qanday tavsiflari bor?
14. Ong qanday bosqichlardan iborat?
15. Ta'limda ong qanday funksiyani bajaradi?

Adabiyotlar

Aleksandrov Yu.I. Sistemnaya psixofiziologiya // Osnovi psixofiziologii: Uchebnik / Yu.I.Aleksandrov, D.G.Shevchenko, I.O.Aleksandrov; Otv.red. Yu.I.Aleksandrov. – M.: Infra-M, 1997. – 430 s.

Karimova V.M. Psixologiya. O'quv qo'llanma. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, "O'AJBNT" markazi, 2002. – 205 b.

Morenkov E.D. Obshiy obzor stroyeniya sentralnoy nervnoy sistemi // Xrestomatiya po anatomii sentralnoy nervnoy sistemi. – M.: RPO, 1998. – S. 6-10.

Psixologiya. Uchebnik / Otv. red. prof. *A.A.Krilov*. – 2-ye izd., pererab. i dop. – M.: Izd-vo: PROSPEKT (TK Velbi). 2004. – S. 37-52.

3-ma'ruza. Hozirgi zamon psixologiyasining ahvoli, tuzilishi va metodlari

Reja:

1. Yangi davr va psixologiya. Psixologiya fanining dolzarbligi
2. Hozirgi zamon psixologiyasi va uning fanlar sistemasidagi o`rni
3. Hozirgi zamon psixologiyasida tadqiqot metodlari

1. Yangi davr va psixologiya. Psixologiya fanining dolzarbligi.

Psixologiya sohasida mukammal darsliklar yozila boshlagan davrga sal kam 160 yil bo'ldi. Shu davr ichida juda ko'plab ilmiy tadqiqot natijalarini o'z ichiga olgan monografiyalar, darsliklar, qo'llanmalar yozildi. Lekin, bu bilan fan o'zining jamiyat oldidagi vazifalarini to'laqonli bajara oldi, degan xulosa chiqarib bo'lmadi. Sababi, psixologiya sohasida faoliyat ko'rsatgan barcha olimlar ko'proq diqqatlarini mavhum shaxs va individual psixologiyaga qaratdilar. Vaholanki, inson, uning barkamolligi, jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta'siri masalasi o'tib borayotgan asrimizning oxiriga kelib,

o’ta dolzarb va muhim muammolar qatoridan joy oldi.

XX asrda erishilgan yutuqlaridan eng muhimi shu bo’ldiki, inson o’z aqli-idroki, tafakkuri va ijodiy salohiyati bilan murakkab texnika, elektronika va boshqa shunga o’xshash global texnologiyalarni kashf etdi. Lekin shu bilan birga ana shunday murakkab texnologiyalarni yaratgan inson va uning hayoti bilan bog’liq muammolar kamaymadi. Vaqti kelganda, shunday faktga to’g’ri kelamizki, murakkab elektron texnikani yaratgan o’ta aqlli inson o’zi va o’z atrofidagilarning ruhiy kechinmalarini to’g’ri baholay olmasligi sababli, o’zini nochor va kuchsiz sezishi mumkinligini hayot isbotladi.

XXI asr bo’sag’asida juda ko’plab davlatlarda bo’lgani kabi dunyo xaritasida munosib o’rin olgan mustaqil O’zbekistonda ham barcha sohalarda tub islohotlar boshlandi. Bu islohotlarning barchasi **inson omilini** har qachongidan ham yuqori saviyaga ko’tarib, uning kuchi, idroki, salohiyati, ruhiy hamda ma’naviy barkamolligini bevosita taraqqiyot, rivojlanish va sivilizasiya bilan uzviy bog’ladi. Bundan inson va uning mukammalligi, o’z ustida ishlashi, o’z mukammalligi xususida qayg’urishi muammosi har qachongidan ham dolzarb masalaga aylandi. Fanda yangi yo’nalishlar, yangicha yondoshuvlar paydo bo’ldi. Masalan, ***sinergetik*** yondoshuv barcha fanlarda bo’lgani kabi psixologiya, uning tarmoqlari hamda u bilan turdosh bo’lgan fanlar misolida yaqqol namoyon bo’la boshladi. Eslatib o’tamiz, ***“sinergetlar”*** so’zi grekcha “***synergetes*** – xodimlar, sheriklar” so’zlaridan olingan bo’lib, *sinergiya* – ***synergia*** hamkorlikdagi, hamjihatlikdagi harakat ma’nosini anglatadi. Ya’ni, inson va uning psixologiyasini o’rganish va unga ta’sir ko’rsatishda gumanitar fanlarning hamkorlikdagi rivojlanishi yoki boshqacha qilib aytganda, ushbu fanlar maqsadlarining mushtarak uyg’unlashuvi shaxs iqtidori va qobiliyatlarini rivojlantirishning ishonchli vositasi sifatida qaraladi.

Bundan tashqari, yangi davr fanlarini rivojlantirishga ***akmeologik*** yondoshuv ham mavjudki, unga ko’ra, har bir fanning inson uchun ahamiyati va o’rni o’sha fanlarning shaxs kamolotiga qo’shajak hissaning salmog’ini belgilash va baholashni taqozo etadi. (***Akmeologiya*** grekcha “***akme*** – cho’qqi, yuqori pog’ona, gurkiratuvchi kuch” ma’nolarini bildiradi va uning predmeti deganda insonning o’z-o’zini rivojlantirish va o’zligini anglashini yuqori darajalariga yetishga o’rgatuvchi fanlar majmui tushuniladi).

Inson psixologiyasini bilish, o’z taraqqiyotini va iqtidorini tashkil etishni bilish, har qanday yosh davrda ham optimal ravishda ishga yaroqlilikni, turli o’zgarishlarga psixologik jihatdan tayyorlikni ta’minlash, yangicha fikrlash va tafakkur qilish, ro’y berayotgan jarayonlarni obyektiv va to’g’ri idrok qilish qobiliyatini rivojlantirish muammosini ilgari surdi.

Shunday qilib, yangi davr har bir insondan o’z ichki imkoniyatlarini adekvat bilish, shu bilimlar zahirasi bilan yaqinlari va hamkasblari psixik dunyosini bilishni talab qilmoqda. Buyuk Suqrot o’z davrida *“O’z-o’zingni bil!”* degan shiorni o’rtaga tashlagan edi. Yangi davr bu bilimlar yoniga *“O’z yoningdagilarni va ularning qilayotgan ishlarini ham bil”*, degan shiorni har qachongidan ham dolzarb qilib qo’ydi. Ayni shu muammoni yechishda hozirgi zamon psixologiya ilmi va amaliyotining roli benihoya kattadir.

An’anaga aylanib qolgan hodisalardan biri shuki, psixologiya va u o’rganadigan hodisalarni faqatgina ushbu fan bilan bevosita shug’ullanadigan kimsalar o’rganib kelishgan, zero, psixologik hodisalar bilan har qanday inson ham tanish bo’lishi va u inson hayotining asosini tashkil etishi kerak. Yangi davr va uning o’zgarishlarga boy hayoti endi har bir kishining psixik hodisalar qonuniyatlarini bilish va shunga mos tarzda oqilona va omilkorona ish yuritish zaruratini talab qilmoqda.

Jahon hamjamiyatining mustaqil O’zbekistonni tan olishi, davlatimizning keng tashqi

siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyati o'zbek xalqining ma'naviy qadriyatlari va imkoniyatlari tiklanishiga, o'zini boshqa xalqlar oilasidagi to'la huquqli millat sifatida anglab yetishiga keng imkon yaratdi. Tobora kengayib borayotgan xalqaro aloqalar jahon madaniyatini yanada chuqurroq bilish, umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo'lish uchun qulay zamin yaratmoqdaki, bu o'z navbatida o'zbek xalqining turli faoliyat sohalaridagi iste'dodi rivojlanishiga, uning tadbirkorlik va kirishimlilik, bir necha chet tillarni va kompyuter texnologiyalarini tez o'rganib olish kabi iqtidorini ro'yobga chiqishiga, xorijiy mamlakatlarga borish, ular bilan aloqalar o'rnatish, dunyo standartlari bo'yicha oliy o'quv yurtlarida tahsil olish imkonini berdi. Ana shunday keng ko'lamli aloqalarga qaramay, xalqimizda, ayniqsa, yoshlarda milliy qadriyatlarga hurmat, vatanparavarlik, saxovat an'analari yanada rivojlanib, iqtidorlari yuksaklarga ko'tarilmoqda. Bu insonga munosabatni, uni tarbiyalash ishining dolzarbligini yanada yaqqolroq tasavvur qilishga olib keldi.

Globalizasiya sharoitida psixologiya o'rganadigan muammolarning dolzarbligi, avvalo, har bir shaxsning murakkab insoniy munosabatlar, axborot kommunikasiyalari sharoitida yashayotganligi, inson xulqini boshqarish ayrim mamlakatlar uchun ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yetakchi omili sifatida e'tirof etilishi bilan izohlanadi. O'z vaqtida Hindistonning taniqli siyosiy arbobi *Maxatma Gandi* shunday yozgan ekan: *"Men uyimning darvoza va eshiklarini mahkam berkitib o'tira olmayman. Chunki unga toza havo kirib turishi kerak. Va shu barobarida eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo'lib, xonadonimni ag'dar-to'ntar qilib, o'zimni yiqitib tashlashini ham xohlamayman"*. Bu so'zlarni bugungi globalizasiya sharoitida insonning jamiyatda tutgan o'rni va zarur maqomni egallashiga, informasion xurujlar va turli xil ma'lumotlarning turli yo'llar bilan mamlakatimizga, umuman, boshqa mamlakatlarga ham kirib kelib, u yoki bu mintaqada asrlar mobaynida shakllangan qadriyatlar, urf-odatlar, e'tiqod shakllariga va tarbiya uslublariga salbiy yoki ijobiy ta'siri jarayonlari ma'nosida qo'llash shaxs ruhiyatiga aloqador siru-sinoatlarni bilishni, shaxsga o'z-o'zini himoya hilish, o'z ustida ishlash imkoniyatlarini bilishni dolzarb qilib qo'yadi. Zero, dunyoga yuz ochgan, yoshlari dunyo tillarini bemalol egallab, "***internetomaniya***" kasaliga chalinish arafasida turgan O'zbekistonga ham yaxshi, ham yomon ta'sirlar, xurujlar mavjudligi sharoitida shaxsning o'zini-o'zi psixologik jihatdan salbiy ta'sirotlardan himoya qila olish imkoniyatlarini kengaytirish eng dolzarb muammolardan biridir. Ya'ni, siyosat sohasimi, iqtisodiyotmi, mafkura yoki ma'naviyatmi, tarbiya yoki huquq masalalarimi, barchasida inson omili va uning manfaati talab va ehtiyojlarini o'rganish, undagi hayot jabhalariga ko'nikish va teran fikrlash qobiliyatlarini o'stirish fan oldida turgan eng muhim vazifadir. Yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalash inson aqli va shuuri uchun kurashning eng samarali usullaridan biridir. Zero, davlatimiz rahbari Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, "Milliy g'oya va istiqlol mafkurasi haqida gap borar ekan, biz nihoyatda keng qamrovli, murakkab, ser-qirra, insoniyat tarixida aniq va mukammal ifodasi, tugal namunasi hali-hanuz yaratilmagan tushunchalarni o'zimizga tasavvur qilishimiz kerak, deb o'ylayman. Bu tushunchalar Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi yuksak g'oyalarning ma'no-mazmunini teran anglab yetishga xizmat qiladi. Bu mafkura xalqni xalq, millatni millat etadigan, uning sha'nu sharafi, or-nomusi, ishonch-e'tiqodini ifodalaydigan, jamiyatimizning o'ziga xos taraqqiyot yo'li, turmush tarzi, tub manfaatlariga tayangan holda muttasil rivojlanib, takomillashib boradigan g'oyalar tizimidir"[2].

---

[2]**Karimov I.A.** Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. – T.:

Shaxs ongi va xulqiga tajovuzlarning ortib borayotganligi, xulqni boshqarish barcha sohalarda ustivor bo'lgan bir sharoitda insonning ruhiyatini, unda sodir bo'ladigan murakkab jarayonlarni, xolatlarni o'rganishning, yoshlarda mafkuraviy immmunitetning shakllanishining ahamiyati ham oshib boraveradi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, odamni o'rganish qanchalik qadimiy va an'anaviy vazifa bo'lishidan qat'iy nazar, bugungi globalizasiya va bozor munosabatlariga o'tish davrida psixologiya fani uchun dolzarb bo'lmagan mavzu yoki jarayonning o'zi yo'qdir.

2. Hozirgi zamon psixologiyasi va uning fanlar sistemasidagi o`rni

Psixologiyaning tarmoqlari

Psixologiyaning alohida **tarmoqlarini** differensiasiya qilish eng avvalo ishlab chiqarishdagi inson faoliyati kechadigan sohalar va ularning vazifalaridan kelib chiqadi. Hozirgi davrga kelib psixologiyani inson shaxsi haqidagi eng muhim fanlardan biri sifatidagi ahamiyatini hamma tan olmoqda. Inson shaxsining esa bevosita kirib bormagan sohasini topish qiyin.

Psixologiya iqtisodiyot, ta'lim-tarbiya, sanoat ishlab chiqarishi, qishloq ho'jaligi, kibernetika, axborotlar texnologiyalari kabi qator xalq xo'jaligi sohalari bilan aloqador fan tarmog'i hisoblanadi. Chunki hamma sohada inson shaxsi faoliyat ko'rsatar ekan, har bir sohada ishni samarali tashkil etish, inson xulq-atvorini turli vaziyatlarda boshqarish uchun inson psixologiyasini, shaxslararo munosabatlar psixologiyasini, odamlarning turli vaziyatlardagi xulq-atvor normalarini bilish, texnikaning inson qobiliyatlariga mos tarzda yaratish va ikkinchi tomondan, tafakkur va harakatlarni texnologik normalarga ko'ra tarbiyalash va moslashtirish muhimdir. Shuning uchun hozirgi davr mutaxassislari psixologik bilimlardan boxabar bo'lishlari lozimdir.

Quyida, ya'ni 2-rasmda psixologiyaning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi zamonaviy ketma-ketligi tartib bilan yoritilgan. Fan sifatida psixologiya avvalo, "ijtimoiy gumanitar", so'ngra "tabiiy, aniq va texnika" va eng oxirida "iqtisodiyot" blokidan o'rin olgan bir qator fanlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu tom ma'noda uning jamiyatda amaliy ahamiyati ortib borayotganligidan darak beradi.

Psixologiyaning 300dan ortiq tarmoqlari fan sifatida rivojlanayotganligi hozirgi kunda uning fanlar tizimida yanada mustahkamlanayotganligidan dalolat beradi.

Demak, psixolog diplomiga ega bo'lgan mutaxassis o'z iqtidori va qiziqishlari, oliy maktabda olgan ta'limiga ko'ra u yoki bu turdagi psixolog ixtisosini egallashi mumkin. Quyida Amerika Qo'shma Shtatlari (AQSH) va Rossiya Federasiyasi (RF)da tayyorlanadigan ixtisosliklar ro'yxatini keltiramiz, vaholangki, ular xalq ho'jaligining turli tarmoqlarida mehnat qilishlari va o'z bilimlarini joriy etishlari mumkin.

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, Amerikada ham, Rossiyada ham deyarli bir xil psixologiyaning tarmoqlari mavjud va ular o'sha jamiyatning muammolaridagi umumiylikdan kelib chiqadi.

O'zbekiston, 1998. – B. 15.



2-rasm. Psixologiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi

1-jadval. AQSH va RFdagi mavjud ba'zi psixologik tarmoqlar klassifikasiyasi

AQSH	RF
Muhandis-psixolog *Odam-texnika tizimidagi o'zaro munosabatlar xususida bilimlarga ega bo'lib, texnik moslamalarni ishlab chiqishda ishtirok etadi*	**Muhandis-psixolog** *Odam va texnika o'zaro munosabatlariga oid psixologik muammolar bilan shug'ullanadi*
Maslahatchi-psixolog *Shaxsiy muammolarni hal qilish yuzasidan tavsiyalar berib, testlar o'tkazadi*	**Siyosiy-psixolog** *Siyosiy tuzilmalar a'zolariga psixologik maslahatlar berish, siyosiy dasturlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi*
Madaniyat masalalari bo'yicha psixolog *Turli madaniy muhit sharoitidagi odamlar ijtimoiy xulqini solishtirma tahlili bilan shug'ullanadi*	**Tibbiyotchi psixolog** *Tibbiy maskanlarda psixologik profilaktika va psixogigiyena masalalari bilan shug'ullanib, bemorlarning psixologik xususiyatlarini o'rganadi*
Klinik psixolog *Terapiya va bemorlarning hissiy emosional kechinmalari masalalarini o'rganadi*	**Psixologiya o'qituvchisi** *Psixologiyaning turli aspektlariga oid ma'ruzalar o'qiydi*
Ishlab chiqarish va sanoat psixologi *Ishlab chiqarish sharoitlarini takomillashtirish hamda xodimlarni tanlash masalalarini o'rganadi*	**Trener-psixolog** *Muloqot malakalari oshirish, shaxsning o'z imkoniyatlarini takomillashtirish bo'yicha treninglar o'tkazadi*
Salomatlik psixologiyasi bo'yicha mutaxassis *Odamlarni sog'lom turmush tarziga o'rgatish va turli kasalliklarni oldini olishga o'rgatadi*	**Maktab psixologi** *Maktabdagi o'quv jarayoniga oid muammolar bilan shug'ullanib, o'quvchilar, ota-onalar va o'qituvchilarga psixologi maslahatlar beradi*
Iste'molchilar psixologiyasi bo'yicha mutaxassis *Tovarlarning emosional jihatdan iste'molbopligini baholaydi, marketing, reklama va mollarning tovar qiyofasiga oid muammolarni o'rganadi*	**Menejment sohasidagi psixolog** *Maxsus maslahatlar, menejerlarni o'qitish va tayyorlash bo'yicha trening-seminarlar tashkil etish, tashkilotlarda axborotlar almashinuvining psixologik tomonlarini o'rganadi*
Taraqqiyot psixologiya bo'yicha mutaxassis *Inson tug'ilishidan to qarigunicha bo'lgan taraqqiyot davrining psixologiyasini o'rganadi*	**Reklama sohasidagi psixolog** *Reklama mahsulotlari tayyorlovchilarga maslahatlar beradi*

1-jadvalning davomi

Psixometriya bo'yicha mutaxassis *Testlar, so'rovnomalar va boshqa psixologik tekshiruv vositalarini standartlashtirish, ishlab chiqish, ma'lumotlarni statistik tahlil qilish hamda test natijalarini qayta ishlash bilan shug'ullanadi*	**Bolalar psixologi** *Bola taraqqiyoti masalalari bilan shug'ullanib, ota-onalarga maslahatlar beradi va bolalarni maktabga tayyorlaydi*
Ijtimoiy psixolog *Shaxsning ustanovkalari, dunyoqarashi va biddiyatlarini, ijtimoiy guruhlararo munosabatlarni, liderlik masalalarini o'rganadi*	**Huquqshunos psixolog** *Sud-psixologik ekspertizalar jarayonida qatnashadi, huquqshunoslikka oid jarayonlarning psixologik ta'minoti bilan shug'ullanadi*
Qiyosiy psixologiya *Turli toifadagi hayvonlar xulqini qiyosiy tarzda laboratoriya sharoitida o'rganadi, odam va hayvon xulqiga oid umumiyliklarni asoslaydi*	**Psixofiziolog** *Insondagi psixologik va fiziologik jarayonlarning xususiyatlarini o'rganadi*
Psixofiziolog *Inson xulqining biologik asoslarini o'rganadi*	**Ijtimoiy psixolog** *Kichik guruhlar va jamoalar rivojlanishi va psixologiyasini o'rganadi*
Maktab psixologi *Muvaffiqiyatli o'qishga xalaqit beruvchi omillarni diagnostika qiladi*	**Zoopsixolog** *Oliy toifali hayvonlar xulq-atvorini o'rganadi*
Eko-psixolog *Inson ehtiyojlariga mos tarzda turarjoylar va binolarni loyihalashtirishga yordam beradi*	**Salomatlik psixologiyasi bo'yicha mutaxassis** *Psixogigiyena va psixoprofilaktika, turmush darajasining infratuzilmasini oshirish masalalari bilan shug'ullanadi*

Biroq ayrim tarmoqlardagi psixolog mutaxassisning bajaradigan ishlari va mavqyeida tafovutlar va farqlar mavjud. O'zbekistonda ham mustaqillik yillarida inson omiliga berilayotgan e'tibor tufayli psixologiya fani o'z yutuqlarini xalq ho'jaligining deyarli barcha tarmoqlariga joriy etish imkoniyati tug'ildi. Shu bois ham bugungi kunda maktab psixologi, salomatlik psixologi tayyorlash, reklama va marketing sohasi, boshqaruv va ishlab chiqarishni tashkil etish borasida fanning amaliyotga aralashuvi jarayoni tezlashdi. Oliy o'kuv yurtlarida tayyorlanayotgan psixolog kadrlarning asosiy sifat belgisi ham ularning amaliyotda o'z bilimlarini tadbiq eta olish malakasi bilan aniqlanmoqda. Demak, XXI asr psixologiyasi o'zining tadbiqiy xarakteri bilan ajralib turadi va uning tarmoqlari rivoji va samaradorligi ilmiy va nazariy bilimlarning nechog'li xalq ho'jaligining turli tarmoqlariga joriy etilishi bilan izohlanadi.

Quyida bizning sharoitimizda rivoj topayotgan va amaliy tus kasb etayotgan psixologiya tarmoqlarining qisqacha tavsiflarini keltirdik:

- *umumiy psixologiya* – psixologiyaning barcha masalalarining o'ziga xos jihatlarini o'rganadigan maxsus sohasi;

- *pedagogik psixologiya* – kishiga ta'lim va tarbiya berishni psixologik qonuniyatlarini o'rganishni o'z predmeti deb biladi;
- *yosh davrlari psixologiyasi* – turli yoshdagi odamlarning tug'ilgandan to umrining oxirigacha psixik rivojlanish jarayonini, shaxsning shakllanishi va o'zaro munosabatlari qonuniyatlarini o'rganadi;
- *ijtimoiy psixologiya* – odamlarning jamiyatdagi birgalikdagi ish faoliyatlari natijasida ularda hosil bo'ladigan tasavvurlar, fikrlar, e'tiqodlar, hissiy kechinmalar va xulq-atvorlarini o'rganadi;
- *mehnat psixologiyasi* – kishi mehnat faoliyati psixologik xususiyatlarini, mehnatni ilmiy asosda tashkil etishning psixologik jihatlarini o'rganadi;
- *injenerlik psixologiyasi* – avtomatlashtirilgan boshqaruv sistemalari operatorning faoliyatini, odam-texnika o'rtasida funksiyalarni taqsimlash va muvofiqlashtirishning xususiyatlarini o'rganadi;
- *yuridik psixologiya* – huquq sistemasining amal qilishi bilan bog'liq masalalarning psixologik asoslarini o'rganadi;
- *harbiy psixologiya* – kishining harbiy harakatlar sharoitida namoyon bo'ladigan xulq-atvorini, boshliqlar bilan ijro etuvchilar o'rtasidagi munosabatlarning psixologik jihatlarini o'rganadi;
- *savdo psixologiyasi* – jamiyatda tijoratning psixologik sharoitlari, ehtiyojning individual, yoshga oid, jinsga oid xususiyatlarini, xaridorga xizmat ko'rsatishning psixologik omillarini aniqlaydi, modalar psixologiyasi kabi masalalarini ko'radi;
- *tibbiyot psixologiyasi* – shifokor faoliyati psixologiyasini, bemor xulq-atvorining psixologik jihatlarini o'rganadi;
- *iqtisodiy psixologiya* – turli vaziyatlarda ishlab chiqarish munosabatlariga kirishish orqali xo'jalik yuritishni maqsad qilgan shaxslar, yaxlit guruh, jamoalarning iqtisodiy tafakkuri hamda iqtisodiy xulq-atvoriga aloqador umumiy qonuniyatlar va xatti-harakat mexanizmlarini, ishlab chiqarish munosabatlarining har bir xo'jalik subyekti ongida aks etishini o'rganadi.

Shuningdek psixologiyada etnopsixologiya, oilaviy hayot psixologiyasi, boshqaruv psixologiyasi, shaxs psixologiyasi, rahbar psixologiyasi, psixodiagnostika va boshqa ko'plab sohalari mavjud bo'lib, ular bevosita ishlab chiqarishdan tushayotgan talab va taklifga mos tarzda rivojlanmoqda.

PSIXOLOGIYA FANINING ASOSIY PRINTSIPLARI

Hozirgi zamon psixologiya fanining quyidagi printsiplari ko`rsatib o`tish mumkin: determinizm printsipi, ong va faoliyat birligi printsipi, psixikaning faoliyatda rivojlanishi printsipi.

Determinizm printsipiga ko`ra, psixika yashash sharoiti bilan belgilanadi va yashash sharoiti o`zgarishi bilan o`zgaradi. Agar hayvon psixikasi haqida gapiradigan bo`lsak, uning taraqqiyoti biologik qonuniyatlar asosida ruy beradi. Inson psixikasining taraqqiyotiga esa ishlab chiqarish usullari, ijtimoiy tarixiy omillar ta`sir qiladi.

Ong va faoliyat birligi - ong va faoliyat bir-biriga qarama-qarshi emas, ular bir butunlikni tashqil qiladilar. Ong faoliyatning ichki rejasini, uning dasturini tashqil etadi.

Psixikaning faoliyatda rivojlanishi printsipiga ko`ra psixika taraqqiyot mahsuli, faoliyat natijasi deb qaraladi. Faoliyat jarayonida (o`qish, o`yin, mehnat) odam ijtimoiy tajribani o`zlashtiradi, bu esa psixik taraqqiyotning faqat insongagina xos shaklini tarkib toptiradi.

3. Hozirgi zamon psixologiyasida tadqiqot metodlari

Psixologiya fanining metodlari

Aniq izlanish predmetiga ega bo'lgan har qanday fan o'sha predmetining mohiyatini yoritish va materiallar to'plash uchun maxsus usullar va vositalardan foydalanadi va ular fanning ***metodlari*** deb yuritiladi. Fanning salohiyati va obro'si ham birinchi navbatda o'sha metodlar yordamida to'plangan ma'lumotlarning *ishonchliligi* va *validliligi*ga bog'liq bo'ladi. Bu fikrlar bevosita psixologiyaga ham aloqador bo'lib, metodlar masalasi bu fanda juda katta ahamiyatga molik masala sifatida qaraladi. Chunki yuqorida ta'kidlaganimizdek, psixik hodisalarni bevosita qo'l bilan ushlab, ko'z bilan ilg'ab, quloq bilan sezish qiyin. Lekin juda ko'plab fanlar bilan faol hamkorlik shunga olib kelganki, psixologiyaning har bir tarmog'i o'z vazifalarini yechish va ma'lumotlarga ega bo'lish uchun ko'plab metodlarni sinovlardan o'tkazib, eng ishonchli va mukammallarini saqlab qolgan.

Matematik statistika va ehtimollar nazariyasining psixologiya sohasida qo'llanilishi va unda erishilgan muvaffaqiyatlar avvalo har bir metodning ishonchlilik darajasini aniqlash, qolaversa, to'plangan ma'lumotlarning qay darajada asosli va valid ekanligini isbotlashga yordam beradi.

3-rasmda[3] asosiy psixologik metodlar va ularni qo'llash shakllari keltirilgan. Ushbu metodlar yordamida tadqiqotchi yoki qiziqqan shaxs u yoki bu psixik jarayon, xolat yoki shaxs xususiyatlari to'g'risida birlamchi ma'lumotlar to'playdi, to'plangan ma'lumot yana tahlil qilinadi va maxsus tarzda ishlatilishi mumkin.

Kuzatish metodi

Bu usul eng tabiiy va hayotiy metodlar jumlasiga kiradi. Chunki biz hayotda o'rgangan ko'p odatlarimiz, harakatlarimizning asosida o'zining bilim-bilmay kuzatgan, xotiramizda shu tarzda olib qolgan ma'lumotlarimiz yotadi. Ilmiy nuqtai nazardan esa kuzatuvning turlari va bosqichlari farqlanadi.

Tashqi kuzatuv mohiyatan kuzatiluvchi xulq-atvorini bevosita tashqaridan turib, kuzatish orqali ma'lumotlar to'plash usulidir. Usulning o'ziga xosligi shundaki, tadqiqotchi kuzatiluvchining faoliyatiga aralashmagan va unga xalaqit bermagan tarzda, uning tashqi xulq-atvori, nutqi, o'zgalarga munosabatini "zimdan kuzatib", qayd qilib boradi. Kuzatishning ikki asosiy turi bo'lib, tashqi-obyektiv kuzatish va ichki – o'z-o'zini kuzatish farqlanadi. *O'z-o'zini kuzatish* birovlarni tashqaridan kuzatishdan farqli, odamning o'zida kechayotgan biror o'zgarish yoki hodisani shaxsan o'rganishi maqsadida ma'lumotlar to'plash va qayd etish usulidir.

Erkin kuzatuv ko'pincha biror ijtimoiy hodisa yoki jarayonni o'rganish maqsad qilib qo'yilganda qo'llaniladi. Masalan, bayram arafasida aholining kayfiyatini bilish maqsadida kuzatuv tashkil qilinsa, oldindan maxsus reja yoki dastur bo'lmaydi, kuzatuv obyekti ham qat'iy bo'lishi shart emas. Yoki dars jarayonida bolalarning u yoki bu mavzu yuzasidan umumiy munosabatlarini bilish uchun ham ba'zan erkin kuzatish tashkil etilishi mumkin. *Standartlashtirilgan kuzatuv* esa, buning aksi bo'lib, nimani, qachon, kim va kimni kuzatish qat'iy belgilab olinadi va maxsus dastur doirasidan chiqmasdan, kuzatuv

---

[3]Izoh: Havola etilayotgan metodlar turkumi R.S. Nemovning "Psixologiya" (2005 y.) darsligidan olingan va ular amaliyotda ishlatilayotgan eng asosiy metodlar hisoblanadi

olib boriladi.

Ijtimoiy hamda pedagogik psixologiyada guruhiy jarayonlarning shaxs xulq-atvoriga ta'sirini o'rganish maqsadida bevosita *ichkaridan kuzatuv* tashkil qilinadi, bunda kuzatuvchi shaxs o'sha guruh yoki oila hayotiga tabiiy ravishda qo'shiladi va zimdan kuzatish ishlarini olib boradi. Bu bir qarashda kontrrazvedkachilarning faoliyatini ham eslatadi. Shu yo'l bilan olingan ma'lumotlar bir tomondan tabiiyligi va mufassalligi bilan qimmatli bo'lsa, ikkinchi tomondan, agar kuzatuvchida konformizm xislati kuchli bo'lsa, o'zi ham guruh hayotiga juda kirishib ketib, undagi ayrim hodisalarni subyektiv ravishda qayd etadigan bo'lib qolishi ham mumkin. Guruhiy fenomenlarni tashqaridan kuzatish buning aksi – ya'ni kuzatuvchi guruhga yoki kuzatilayotgan jarayonga nisbatan chetda bo'ladi va faqat bevosita ko'zi bilan ko'rgan va eshitganlari asosida xulosalar chiqaradi.

Umuman, kuzatish metodining ijtimoiy hayot, professional ko'rsatgichlarni qayd qilishda so'zsiz afzalliklari bor, lekin shu bilan birga kuzatuvchining professional mahorati, kuzatuvchanligi, sabr-qanoatiga bog'liq bo'lgan jihatlar, yana to'plangan ma'lumotlarni subyektiv ravishda tahlil qilish xavfi bo'lgani uchun ham biroz noqulayliklari ham bor, shuning uchun ham u boshqa metodlar bilan birgalikda ishlatiladi. Umuman kuzatish vositasida ma'lumotlar to'plashga qaror qilgan kimsa har doim ham aniq kuzatuv obyektini ajratib olishi, undan nimalarni kutayotganligini tasavvur qilishi, kuzatuv daftarini tutib, kuzatilayotgan odam yoki guruhning faoliyatini ma'lum muddat davomida bosqichma-bosqich izchil tarzda qayd qilib borishi, izlanishlari nihoyasida esa barcha tuplangan ma'lumotlarni psixologik jiatdan tahlil qila olishi kerak.

So'rov metodi

Odamlarni so'roq qilish, u yoki bu bilmagan yoki qiziqtirgan narsalarni so'rab o'rganish insonga xos xislat. Ko'cha-kuyda ketayotganimizda ham vaqtni yoki ko'chalar nomini so'rovchilar bo'ladi. Katta tadbirlar arafasida, mustaqillik, "Navro'z" bayramlari arafasida odamlar kayfiyatlarini bilish uchun ham oddiy odatiy so'roqlar o'tkazilishi rasm bo'lgan. Lekin bu hayotiy usul psixologiyada ham fikr-o'ylarni o'rganish orqali qimmatli ilmiy ma'lumotlar to'plash vositasi sifatida qadrlanadi. Shuning uchun so'roq metodlari psixologiyaning barcha tarmoqlarida birlamchi ma'lumotlar to'plashning an'anaviy usullaridan hisoblanadi. Unda tekshiriluvchi tekshiruvchi tomonidan qo'yilgan qator savollarga muxtasar javob qaytarishi kerak bo'ladi.

Og'zaki so'roqni yoki ba'zan uni oddiygina qilib, suhbat metodi deb ataladi, o'tkazadigan shaxs unga ma'lum darajada tayyorgarlik ko'rgach so'roq o'tkazadi. Agar mabodo uning professional mahorati yoki tajribasi bunga yetarli bo'lmasa, so'rov o'z natijalarini bermasligi mumkin. Lekin mahoratli so'rovchi ushbu metod yordamida inson ruhiy kechinmalariga aloqador bo'lgan noyob ma'lumotlarni to'plash imkoniga ega bo'ladi.

Yozma so'roq yoki anketaning afzalligi shundaki, uning yordamida bir vaqtning o'zida ko'pgina odamlar fikrini o'rganish mumkin bo'ladi. Unga kiritilgan savollar, ulardan kutiladigan javoblar (yopiq anketa), yoki erkin o'z fikrini bayon etish imkoniyatini beruvchi (ochiq anketa) so'rovnomalar aniq va ravon tilda javob beruvchilar tushunish darajasiga monand tuzilgan bo'lsa, shubxasiz, qimmatli birlamchi materiallar to'planadi.

So'roqning ham *erkin va standartlashtirilgan* shakllari mavjud bo'lib, birinchisida oldindan nimalar so'ralishi qat'iy belgilab olinmaydi, ikkinchi shaklida esa, xattoki, komp'yuterda dasturi ishlab chiqilib, minglab odamlarda bir xil talablar doirasida so'roq

o'tkazilishi nazarda tutiladi. So'rovlar o'tkazilishida hal qilinishi lozim bo'lgan eng muhim masalalardan biri so'raluvchilarni tanlashdir. Chunki agar saylovoldi kompaniyalarida yoki talaba-yoshlarning o'z ijtimoiy harakatini tuzish borasidagi fikrlari o'rganilganda, tabiiy bir muammo paydo bo'ladi : necha kishini va qayerlardan so'rash lozim, degan. Tanlov obyektini tanlashda uning tarkibiga kiruvchilarning u yoki bu ijtimoiy qatlamga mansubligi muim rol o'ynaydi. Masalan, talaba yoshlarning fikrini o'rganish uchun barcha talabalar fikrini mutloq o'rganish shart emas. Tanlov agar 10% deb belgilansa, O'zbekiston oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan barcha talabalar sonidan kelib chiqib, o'shaning 10 foizi o'rtasida, bir necha oliygohlarda so'roq o'tkazilishi kifoya qiladi. Barcha nafaqaho'rlarning ijtimoiy himoya borasidagi fikrlarini o'rganish kerak bo'lganda ham shu tamoyil nazarda tutiladi. Demak, tarkiban monand guruhlar ajratib olingach, tadqiqotchi o'sha guruhning tushunish darajasi va ehtiyojlaridan kelib chiqib, so'roq o'tkazadi yoki intervyular uyushtiriladi.

Savolnomalarda savol berish tartibi va mazmuni ham katta ahamiyatga ega. Yoshlarga "Siz vatanparvarmisiz?" yoki jamoatchilikka "Siz tinchlik tarafdorimizsiz?" kabi savollar oldindan javobi aniq bo'lgani uchun ham odatda respondentlarga havola etilmaydi. Psixologik nuqtai nazardan o'sha vatanparvarlik belgilarining namoyon bo'lishini savollarda mujassam etish yoki dunyoda tinchlik bo'lishi uchun har bir insondan nimalar talab qilinishini o'rganish birinchidan, turli xil fikrlarni to'plashga yordam beradi, ikkinchidan, ijtimoiy xulqning turli qirralarini aniqlashga imkon beradi. Yanada sodda qilib aytilsa, odamga "Siz aqllimisiz?" degan savolni intellektual darajani aniqlashga imkon beruvchi savollar, topshiriqlar yoki testlar bilan almashtirishni nazarda tutadi.

Ko'pincha psixologik so'rovlarda odam o'z fikrini ochiq va erkin bayon etishi uchun ismi-sharifini aytmasligi tavsiya etiladi, bu anonim so'rov deyiladi. Ba'zi bir so'rovnomalarda esa "Ismingiz" deyish o'rniga "O'zingiz o'ylab topgan ism-sharifingiz?" deb ham qator ajratiladi. Bu ham anonim so'rov o'tkazish usuli sifatida oxirgi yillarda qo'llanib kelinmoqda. Xulosa qilinadigan bo'lsa, shuni aytish kerakki, so'rov metodlari inson psixologiyasini o'rganish, uning dunyoqarashi, saviyasini aniqlashning qimmatli usulidir. Lekin uni professional tarzda to'g'ri ishlatish va natijalarni to'g'ri tahlil qilish juda katta amaliy ahamiyatga egadir.

Psixologik testlar

Hozir butun dunyoda "**test**" so'zi jamiyatda va kishilar orasida keng qo'llaniladigan so'zlardan bo'lib qoldi. Chunki biror kasb-hunar orttirish uchun ham odam test sinovidan o'tadi, ya'ni testning "sinov uslubi" ekanligi ko'pchilikka ayon bo'lib qoldi. Psixologik testlarning har qanday boshqa testlardan farqi shundaki, ular yordamida shaxs va jamiyatga aloqador bo'lgan o'rganilayotgan hodisa xususida ham sifat, ham miqdor xarakteristikalarini olish, ularni ko'pchilikda qayta-qayta sinash va ma'lumotlarni korrelyasion analiz orqali ishonchlilikka tekshirish mumkin bo'ladi. Ayni testga qo'yilgan talab hyech qachon o'zgarmaydi, xattoki, shunday testlar borki, ular turli millat va elat vakillarida, turli davrlarda ham o'zgarmagan holda ishlatilaveradi. Masalan, Ravenning aqliy intellektni o'lchash, Kettelning va Ayzenkning shaxs testlari shular jumlasidandir. Ularning ham turlari mavjud.

***Test** – so'rov* oldindan qat'iy tarzda qabul qilingan savollarga beriladigan javoblarni taqozo etadi. Masalan, Ayzenkning 57 ta savoldan iborat testi shaxsdagi introversiya-ekstroversiyani o'lchaydi, savollarga "ha" yoki "yo'q" tarzida javob berish so'raladi.

Test – *topshiriq* odam xulqi va xolatini amalga oshirgan ishlari asosida baholashni nazarda tutadi. Masalan, shaxs tafakkuridagi kreaktivlilikni aniqlash uchun ko'pincha bir qarashda oddiygina topshiriq beriladi: berilgan 20 ta doira shaklidagi shakllardan o'zi xohlagancha rasmlar chizish imkoniyati beriladi. Ma'lum vaqt va tezlikda bajarilish sur'ati, rasmlarning o'ziga xos va betakrorligiga qarab shaxs fikrlashi jarayonining naqadar nostandart, ijodiy va kreaktivligiga baho berilib, miqdoriy ko'rsatgich aniqlanadi.

Bu kabi metodlarning umumiy afzalligi ularni turli yosh, jins va kasb egalariga nisbatan qo'llashning qulayligi, bir guruhda natija bermasa, boshqa guruhda yana qayta tekshiruv o'tkazish imkoniyatining borligi bo'lsa, kamchiligi – ba'zan tekshiriluvchi agar testning mohiyatini yoki kalitini bilib qolsa, sun'iy tarzda uning kechishiga ta'sir ko'rsatishi, faktlarni falsifikasiya qilishi mumkinligidir.

Testlar ichida ***proyektiv*** *testlar* deb nomlanuvchi testlar ham borki, testning asl maqsadi tekshiriluvchiga sir bo'ladi. Ya'ni, tekshiriluvchiga shunday topshiriq beriladiki, u topshiriqni bajarayotib, nimani aniqlashayotganligini, natijasi qanday bo'lishini oldindan bilmaydi. Masalan, mashhur Rorshaxning "*Siyoh dog'lari*" testi, yoki TAT (tematik appersepsion test), tugallanmagan hikoyalar kabi testlarda bir narsaning proyeksiyasidan go'yoki ikkinchi bir narsaning mohiyati aniqlanadi. 1921 yilda kashf etilgan "Siyoh dog'lari" va ularga qarab tekshiriluvchining nimalarni eslayotganligi, dog'lar nimalarga o'xshayotganligiga qarab, uning shaxs sifatidagi yo'nalishlari, hayotiy tamoyillari, qadriyatlariga munosabati, ishni bajarish paytidagi emosional holatlari aniqlanadi. Bu testlar juda noyob, qimmatli, lekin uni faqat professional psixologgina qo'llashi va natijalarni mohirona tahlil qilishi talab qilinadi.

Psixologik eksperiment

Eksperimentning mohiyati shundaki, aynan shu yo'l bilan bir omilning ta'siri ikkinchi bir omil ta'sirini ta'minlashi yoki hodisaning ro'y berishiga olib kelganligi isbotlanadi. Ya'ni, eksperiment psixik hodisalarning sabablarini aniqlash va ilmiy farazlarni isbot qilishga yordam beradi. Masalan, o'quvchilarning o'zlashtirish darajalari qanday omillarga bog'liq, degan savol paydo bo'lsa va bunday olmillardan biri o'quv jarayonida tarqatma materiallardan keng foydalanish lozimligi fikri taxmin qilinsa, o'sha eksperiment sinfida tarqatma materaillar ishlatiladi, ikkinchi sinov sinfda esa eskicha o'qitilaveradi. Natija ma'lum muddatdan keyin bolalarning o'zlashtirish darajasi, darsga munosabatlari, xotiralari kuchi orqali tahlil qilinadi. Mana shunga o'xshash jarayonlar va sinovlar eksperiment deyiladi va hayotda va psixologik amaliyotda ko'plab murakkab eksperimentlar aniq dasturlar asosida o'tkaziladi, yangiliklar ochiladi.

Har qanday eksperiment uchun odatda ataylab shunday sun'iy bir vaziyat shakllantiriladiki, aynan shu vaziyatda tadqiqotchini qiziqtirayotgan psixik jarayon yoki hodisa ajratiladi, o'rganiladi, ta'sir ko'rsatiladi va baholanadi. Agar *tabiiy eksperiment* o'sha qiziqtirayotgan fenomen tekshiriluvchi uchun tabiiy hisoblangan sharoitlarda (masalan, mehnat jarayonida, kanikulda yozgi lagerda, lisey auditoriyasida va shunga o'xshash) maqsadli tashkil etilib, o'rganilsa, *laboratoriya eksperimenti* maxsus joylarda, maxsus asbob-uskunalar vositasida ataylab o'rganiladi. Masalan, diqqatingizning xususiyatlarini bilish kerak bo'lsa, psixologiya laboratoriyasida maxsus taxistoskop deb atalgan moslama yordamida yoki "Landolt xalqachalari" deb nomlangan jadvallar yordamida o'rganish mumkin bo'ladi. Hattoki, ijtimoiy munosabatlar borasida ham o'zaro hamjihatlik, liderlik va konformlilik hodisalarini tekshirish uchun *gruppaviy integratorlar*

va gomeostat deb nomlanuvchi moslamalar yaratilgan va ular yordamida guruhdagi turli xil hodisalar o'lchangan.

Eksperiment o'tkazishning asosiy shartlaridan biri tekshirilayotgan obyektda eksperiment hamda nazorat guruhlarining bo'lishidir. Tadqiqotchining taxmini asosida birinchi guruhda u yoki bu o'lchovlar, tekshirishlar, shart-sharoitlar kiritilsa, nazorat guruhi o'sha yangiliklar va sun'iy kiritilgan omillar ta'siridan xoli qilinadi. Eksperiment so'ngida natijalar ikkala guruh misolida taqqoslanib, kerakli xulosalar chiqariladi. Oddiy qilib aytilsa, agar maosh mehnat motivasiyalaridan biri deb, uning ta'sirini o'rganish kerak bo'lsa, eksperimental guruh a'zolariga maoshlar ko'paytirib beriladi, nazorat guruhi esa eski maoshda qoldiriladi. Ikkala guruh a'zolarining esa kundalik ish samaralari, ishga munosabati, ishlab chiqarishdagi mahsuldorlik maxsus mezonlar asosida taqqoslab chiqiladi. Demak, eksperiment uchun maxsus sharoitlar va natijalarni to'g'ri tahlil qilish uchun professional psixologlar kerak.

Modellashtirish

Kuzatish, so'roq, eksperiment yoki boshqa usullar yordamida o'rganilayotgan hodisaning tub mohiyati ochilmagan sharoitlarda ***modellashtirish*** usuli qo'llaniladi. Bunda o'sha hodisaning umumiy xossasi yoki asosiy parametrlari modellashtirilib, o'sha model asosida tadqiqotchini qiziqtirgan jihat o'rganiladi va xulosalar chiqariladi.

Modellar texnik, mantiqiy, matematik yoki kibernetik bo'lishi mumkin. Matematik model asosida o'rganilgan hodisaga mashhur tadqiqotchilar Veber-Fexnerlarning sezgirlikning quyi va yuqori chegarasini aniqlashga qaratilgan matematik formulasi hamda shu asosda to'plangan ma'lumotlar tahlilini misol qilish mumkin. Mantiqiy modellar yordamida ko'pincha inson aqli va tafakkuri jarayonlari va qonunlarini hisoblash mashinalari ish prinsiplari bilan qiyoslash orqali tuzilgan g'oyalar va simvollar ishlatiladi. Kibernetik modellashtirishda esa g'oyalar psixologiyasini EHM dagi matematik programmalashtirish tamoyillariga moslashtirish nazarda tutiladi. Hozir ko'pgina murakkab shaxs xususiyatlari ham programmalashtirilgan bo'lib, ular algoritmlar asosda qisqa fursatda ko'pgina sifatlarni ko'plab parametrlar nuqtai nazaridan hisoblab, natijalarni umumlashtirishga imkon bermoqda. Ko'pincha matematik o'yinlar g'oyasi odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar sohasini o'rganishda ham qo'llanilmoqda. Ma'lum bo'lishicha, odamning fikrlash operasiyalari bilan EHM larning ishlash prinsiplari o'rtasida ma'lum uyg'unlik bor ekan, bu esa murakkab psixik jarayonlarni modellashtirish orqali inson aqlu-zakovati chegarasini yanada kengaytirish istiqbolini beradi.

Umuman psixologiyaning va uning har bir alohida tarmoqlarining o'ziga xos metodlari bor. Ular ijtimoiy xulq va alohida individ ichki dunyosini kompleks tarzda o'rganish imkonini beradi. Gap shundaki, ularni o'z vaqtida va professional tarzda qo'llay bilish va olingan natijalardan to'g'ri xulosalar chiqara olishdir.

O'z-o'zini nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. Yangi davr psixologiyasi nima? Sinergetik va akmeologik yondoshuvlarning asosiy mohiyati nimadan iborat?
2. Psixologiya fanining dolzarbligi nima bilan izohlanadi?
3. Psixologiya fanining predmeti nima va uni qisqacha tushuntirib bering?
4. Psixologiya so'zi qaysi tildan kelib chiqqan va u nimani anglatadi?

5. Psixikaning namoyon bo'lish shakllari qanday ko'rinish kasb etgan va ularni qisqacha izohlang?
6. Psixologiyaning tarmoqlari va ularni boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligini nima bilan tushuntirish mumkin?
7. AQSH va RFdagi mavjud psixologik tarmoqlar klassifikasiyasi haqida nimalarni bilasiz?
8. Mamlakatimizda rivoj topayotgan va amaliy xarakter kasb etayotgan qanday psixologiya tarmoqlaridan xabardorsiz?
9. Psixologiya fanining qanday asoslari metodlari mavjud va ular qanday tasniflangan?
10. Kuzatish, so'roq hamda psixologik testlar deganda nimalarni tushunasiz?

Adabiyotlar

Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. – T.: O'zbekiston, 1998. – B. 15.

Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir // "Fidokor" gazetasi, 2000 yil, 8 iyun.

Karimova V.M. Psixologiya. O'quv qo'llanma. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, "O'AJBNT" markazi, 2002. – 205 b.

Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. Ma'ruzalar matni. 1-qism. – T.: TDIU, 2005. – 208 b.

Klimov. Ye.A. Vvedeniye v psixologiya truda: Uchebnik dlya vuzov. – M.: Kultura i sport: YuNITI, 1998. – 343 s.

Lipatov S.A. Metodi sosialno-psixologicheskoy diagnostiki organizasiix // Vvedeniye v prakticheskuyu sosialnuyu psixologiyu / Pod obsh. red. Yu.M. Jukova, L.A. Petrovskiy, O.V.Slovyevoy. – M: Nauka, 1993. – 456 s.

Mayers D. Sosialnaya psixologiya / Perev.s angl. – SPb.: Piter, 1999. – 688 s.

Nemov R.S. Psixologiya. Uchebnik dlya studentov vissh. ped. ucheb. zavedeniy: V 3-x t. – M.: Gumanit. izd. sentr VLADOS, 2003. – 576 [640; 608] s.

Prikladnaya sosialnaya psixologiya / Pod red. *A.N.Suxova i A.A.Derkacha*. – M.: Izd-vo "Institut prakticheskoy psixologii"; Voronej: Izd-vo NPO "MODEK", 1998. – 688 s.

Psixologiya. Uchebnik / Otv. red. prof. *A.A.Krilov*. – 2-ye izd., pererab. i dop. – M.: Izd-vo: PROSPEKT (TK Velbi). 2004. – S. 37-52.

Psixologiya. Uchebnik dlya ekonomicheskix vuzov / Pod obsh. red. *V.N.Drujinina*. – SPb.: Piter, 2002. – 672 s.

4-ma'ruza. Psixikaning filogenezda rivojlanishi

Reja:

1. Psixika materiya evolyutsiyasining mahsulidir
2. Qo`zg`aluvchanlik. Tropizmlar
3. Xatti-harakatning instinktiv shakllari
4. Xatti-harakatning instinktiv tarzda hosil qilinadigan shakllari
5. Hayvonlarning intellektual xatti-harakatlari
6. Hayvonlarning munosabati va "tili"

1. Psixika materiya evolyutsiyasining mahsulidir

Kishi psixikasining paydo bo`lishi va rivojlanishi eng murakkab muammolardan biri bo`lib, tabiat qonunlarining mohiyatini tushunib yetishga harakat qiladigan tadqiqotchilarni bu muammo hamma vaqt qiziqtirib kelgan. Materialistik yo`nalishdagi olimlar psixikaning paydo bo`lishini materiyaning uzoq davom etgan rivojlanishining natijasi deb izohlashadi. Ular materiyaning tabiatini tadqiq qilisharkan, harakat materiyaning hayot kechirish usuli, uning tarkiban o`ziga xos ajralmas xususiyati ekanligi uchun ham materiya harakatining turli xil shakllarini o`rganadilar. Harakatsiz, xamisha mutlaqo harakatsizlikdagi materiya umuman bo`lmaydi. Olamdagi butun materiya jami noorganik va organik tabiat harakatlanish, o`zgarish va rivojlanish holatida bo`ladi.

Jonsiz, noorganik materiyadan tortib to eng oliy va murakkab materiya hisoblanmish kishi miyasiga qadar barcha materiyalar moddiy olamning yangi xususiyati - in'ikos etish xususiyatiga, ya'ni ta'sirotlarga javob qaytarish qobiliyatiga egadir. In'ikos materiyaning mavjud bo`lish shakllariga bog`liq bo`ladi: in'ikos tashqi ta'sirotlarga materiyaning ta'sir qilish xarakteri va mavjud bo`lish tarziga muvofiq javob qaytarishga qodirligi bilan namoyon bo`ladi.

Jonsiz tabiatda harakat jism va moddalarning mexanik, fizikaviy yoki kimyoviy ta'siri tarzida yuz berishi mumkin. Noorganik tabiatdagi harakatning oddiy misollariga e'tibor qiling: dengizdagi qoya suvning ta'siriga muayyan qarshilik ko`rsatadi - to`lqinlar qoyaga urilib qaytadi, lekin qoyaniig o`zi ham sekin-asta yemirila boshlaydi; quyosh nuri suv yuzasiga kelib urilgach, sinib qaytadi; elektr razryadlari natijasida ozon molekulalari hosil bo`ladi. Jonli materiyaga o`tishda uning harakati tarzi ham sifat jihatidan o`zgaradi. Jonli materiyaga in'ikosning biologik shakllari xos bo`lib, jonli materiyaning ma'lum bir bosqichida esa in'ikosning yangi shakli sifatidagi psixika paydo bo`ladi.

Materiya harakatining biologik shakli – hayot - tabiat: rivojlanishining sifat jihatidan yangi bosqichidir. O`lik materiyadan tirik materiyaga o`tishni izohlaydigan qator gipotezalar mavjuddir. Ulardan biri A. I. Oparinga tegishli bo`lib, unga ko`ra organik moddalar - atomlari turli shakllarda azotning, kislorodning, vodorodning, fosfor va oltingugurtning atomlari bilan bog`langan modda – uglerod negizida hosil bo`lgan birikmalarning paydo bo`lishi jonli materiya paydo bo`lishining zarur sharti hisoblanadi. Hozirgi paytda fanda A. I. Oparinning gipotezasini tasdiqlaydigan juda ko`p ma'lumotlar mavjuddir.

Oparinning giiotezasiga ko`ra, taxminan ikki milliard yil ilgari atmosferada erkin kislorod ajralib chiqib, organik moddalarda fotoximiyaviy reaktsiyaning va fotosintezning yuz berishiga olib keldi. Birinchi galgi okean bamisoli xuddi organik moddalardan tayyorlangan allaqanday «sho`rva» ga o`xshash bo`lgan. Organik birikmalarning rivojlanishi jarayonida uglerodning juda ham murakkab birikmalari - benihoya katta molekulalar paydo bo`ldi. Molekulalar shunisi bilan ajralib turishardiki, ular tarkibiy qismlarga osongina parchalanishardi. Bu birikmalarning mavjud bo`lib turishini ta'minlash uchun muhit bilan doimiy modda almashinuvi bo`lib turishi, ya'ni bu molekulalar muhitdan yangi moddalarni tanlab olib, chatishtirishlari (o`zlashtirishlari) va parchalanish mahsulini o`zga tusga kiritgan holda tashqi muhitga ajralib chiqarishlari lozim edi. Shunday qilib, bu benihoya katta molekulalar muhit bilan modda almashinuvini avtokatalitik tarzda yo`naltirib, o`zini-o`zi qaytadan hosil qiluvchi sistemaga aylanib qolishdi. Oqsilli molekula bilan muhit o`rtasidagi modda almashinuvi avval boshdanoq faol jarayon edi. Bu benihoya katta molekulalar koatservatlar degan nom bilan atala

boshladi. Koatservat tomchilari ma'lum ma'noda to`yimli moddalar uchun kurashda o`zaro raqobat qilishardi, degan taxminlar ham bor. Bu tomchilarning ancha qulay kimyoviy tarkibiga yoki strukturaga ega bo`lgan ba'zi birlari boshqalariga nisbatan tezroq o`sdi. Ular ertaroq kattalashib, beqaror bo`lib qolishar va ancha mayda zarrachalarga parchalanib ketishardi. So`ngra jarayon yana takrorlanardi: o`sish, parchalanish va xokazo. Kimyoviy tarkibi bir muncha farq qiladigan tomchilarning qo`shilishi ham sodir bo`lib turardi. Shunday qilib, koatservatlar bir qancha xususiyatlarga ega edi, shu tufayli ularni tirik moddaning strukturasi sifatida qabul qilish mumkin.

Xo`sh, bu xususiyatlar nimadan iborat edi?

Koatservatlar xayot kechirishni qo`llab-quvvatlash uchun zarur moddalarga nisbatan ma'lum darajada qo`zg`aluvchanligini namoyon qilgan va o`zlarnning hayotiy faoliyatida bevosita ishtirok etishining xojati bo`lmagan moddalarga nisbatan indefferent (loqayd) bo`lib qolgan holda tashqi muhitdagi «ozuqa» moddalarni tanlab o`zlashtirishardi. Modda almashinuvidagi bunday ehtiyoj o`zini tartibga solish qobiliyatining samarasi bo`ldi. Koatservatlar kimyoviy tarkibi turlicha bo`lgan molekulalarni ajratish va qo`shishga, ya'ni tabiiy tanlash chog`ida evolyutsiyada o`zining rolini o`ynagan turfa materialni yaratishga layoqatli bo`lib chiqdi. Bundan tashqari, bu o`rinda tashqi ta'sirotlarning in'ikosi bu ta'sirotlarning faqat kuchi va xarakteriga emas, balki shuningdek organik, birikmalar - koatservatlarning ichki holatiga ham bog`liq bo`lgan edi.

In'ikosning o`ziga xos qoldiq shakllari mavjud bo`lgan bunday organik strukturalar bir qancha geologik davrlar davomida faoliyat ko`rsatgan holda hozirgi zamon jonli sistemalari ajdodlarining paydo bo`lishiga olib kelganligini faraz qilish uchun asos bor.

Hozirgi tirik organizmlarning ehtimoldan uzoq bo`lmagan prototiplari - koatservatlarda bo`lgani kabi har qanday jonli materiyada in'ikos jonsiz tabiatdagi in'ikosga qaraganda sifat jihatidan yangi shakl kasb etadi. U faqat tashqi ta'sirotning kuchi va xarakteriga emas, balki organizmning ichki holatiga ham bog`liq bo`ladi. Har qanday jonli organizm barcha tashqi qo`zg`atuvchilarga nisbatan tanlangan holda (faol) munosabatda bo`ladi va bu bilan jonli materiyaning sifat jihatidan yangi xususiyatini - o`z-o`zini tartibga solish hususiyatini namoyon qiladi.

Uzoq vaqt davom etgan evolyutsiya natijasida hozirgi organizmlarda in'ikosning qo`zgaluvchanlikdan tortib to uning ancha yuksak darajadagi shakllari - psixik hayotning ifodalanishi shakllari bo`lmish sezgilar, idrok, xotira, tafakkurga qadar turli xildagi shakllarini ko`ramiz.

2. Qo`zg`atuvchanlik. Tropizmlar.

O`simlik va hayvonlarga mansub shakllar evolyutsiyasining barcha bosqichlarida jamiki jonli organizmlar in'ikosning alohida, biologik shakli - ta'sirlanuvchanlikka ega bo`ladi. Ta'sirlanuvchanlik tirik organizmning biologik ahamiyatiga ega bo`lgan (biotik) ta'sirotlarning ta'siriga javob berish qobiliyati demakdir. Oddiy ta'sirlanuvchanlyak sodda, bir hujayrali tirik organizmdayoq seziladi. Ular muhitning ta'siriga harakatlanish bilan javob beradi. Muhit biotik ta'sir o`tkazishi mumkin bo`lib, buning natijasida jonli organizmda protoplazmaning xossasi o`zgaradi. qo`zg`atish ta'siriga uchraydigan o`zini tartibga soluvchi sistema sifatidagi tirik hujayrada qidiruv harakatlari hosil bo`ladi. Agar muhit ta'siri mazkur xujayraga xos kimyoviy tarkib va protoplazma strukturasini qayta tiklashga yordam bersa, hujayraning izlash harakati to`xtaydi.

Biotik omillarga nisbatan o`ziga xos harakatlar bilan javob berish usullari tropizmlar yoki taksislar ded ataladi. Uning fototropizm - jonli organizmning yorug`lik ta'siri ostida harakatlanish tendentsiyasi; termotropizm - issiqlik ta'siri ostida harakatlanish tendentsiyasi; xemotropizm - muayyan fizikaviy-kimyoviy muhitni tanlash tendentsiyasi; topotropizm - mexanik usul bilan qo`zg`atuvchining ta'siri ostida harakatlanish tendentsiyasi kabi turlari va boshqa bir qancha tropizmlar mavjuddir. O`simliklarning biologik in'ikos etish shakli o`zini tartibga solishga yordam beradigan tropizmlarning mavjudligi bilan mukammallik kasb etadi.

Hayvonlarga mansub shakllarda ta'sirlanuvchanlikning yangi turi — sezuvchanlik paydo bo`ladi. A. N. Leontevning gipotezasiga ko`ra, sezuvchanlik «genetik jihatdan qaraganda, muhitning organizmni boshqa ta'sirotlar bilan bog`lovchi, organizmni muhitda mo`ljal olishiga yordam beruvchi, signallik vazifasini o`tovchi ta'sirlarga javob ta'sirdan bo`lak narsa emas». Ta'sirlanuvchanlikdan sezuvchanlikka o`tilishi hayot tarzining o`zgachaligi bilan bog`liqdir. Yuksak taraqqiy etgan hayvonlarda sezuvchanlik oshib, sezgi organlari shakllanadi. Narsalarning o`zicha (biron bir organik ehtiyojni ular yordamida qondirib bo`lmasligi ma'nosida) ahamiyatsiz belgilari (hidi, shakli, rangi) signallik ahamiyatiga ega bo`ladi. Shuning uchun ham ma'lum bir sharoitlarda hatto oddiy hayvonlar ham biotik ta'sirotlardan emas, balki mazkur konkret vaziyatda turli xildagi biotik ta'sirotlar ro`y berayotgani haqida signal berishi mumkin bo`lgan abiotik, indifferent ta'sirotlardan ham ta'sirlana boshlashi mumkin.

Hayvonlarning organizmlarida biotik va abiotik omilni sezuvchanlikning mavjudligi tufayli o`simliklarga qaraganda ham ancha ko`prok ta'sirotlarni aks ettirish imkoniyati vujudga keladi.

Jumladan, infuzoriyalarda ular uchun neytral (befarq) belgi hisoblangan yorug`likda ta'sirlanishning hosil bo`lishi kuzatildi. Tajriba quyidagicha tarzda o`tkazildi: naycha ichiga suv bilan birga bir hujayralilar jonlashtirildi. Naychaning bir tomoni isitildi. Bir hujayralilar darhol naychaning iliqroq qismiga o`tishdi, negaki ularda ijobiy termotropizm tendentsnyasn mavjuddir. Naychaning isitilgan qismi yoritilib ham turdi. Oddiy sharoitlarda yorug`likka ahamiyat bermaydigan infuzoriyalar o`zlariga xush keladigan haroratning yorug`lik bilan qo`shilishi bir necha marta takrorlanganidan keyin, harorat qandayligidan qat'i nazar, yorug`lik tushgan joyda to`planisha boshladi.

Shunday qilib, sodda hayvonlarda tashqi muhitda yorug`lik bilan issiqlik qo`shilib, muvaqqat bog`lanishlar hosil qilinishiga nisbatan ham faol muljal ola bilish tendentsiyasi mavjudligi namoyon bo`ladi.

Shubhasiz, bu o`rinda gap faqat muvaqqat bog`lanishlarning hosil qilinishiga nisbatan yuz beradigan tendentsiya haqida borishi mumkin, xolos. Chunki bir hujayralilarda mustahkam shartli bog`lanishlar haqida so`z ham bo`lishi mumkin emas: bunday bog`lanishlar hosil bo`lishga ulgurmasidanoq yo`qolib ketadi. Buning ustiga in'ikosning yo`qolgan shakllari qaytadan tiklanmaydi va in'ikosning bunday shakllaridan mahrum bo`lgan hayvonlar biologik ehtiyojlariga mos keladigan shart-sharoitlarni qidirishga yangitdan urina boshlashi kerak.

In'ikos etish darajasi ko`p hujayrali hayvonlarda ancha yuksakroqdir. Bir hujayralilarga o`xshab suvli muhitda hayot kechiradigan kovakichakliklar (masalan, o`troq holda yashaydigan gidroid poliplar, meduzalar) eng sodda ko`p hujayralilar jumlasiga kiradi. Lekin bu organizmlarning tuzilishi bir hujayralilarga nisbatan anchagina murakkabroqdir. Murakkabligi bu hayvonlarning ko`p hujayrali ekanligida emas, balki ulardagi hujayralarning nisbatan bir xil emasligadadir: masalan, tanasining tashqi qismida

sanchiladigan (chaqadigan) xujayralar joylashgan bo`lsa, ichki qismi esa ovqat hazm qiladigan hujayralar bilan qoplangan bo`ladi. Ko`p hujayralilarning organizmida, shuningdek organizmning biron-bir qismida ro`y bergan qo`zg`alishning o`tkazgichi funktsiyasini bajaradigan alohida sezuvchan protoplazmali hujayralar ham bo`ladi. Alohida sezuvchan (nerv) xujayralari o`zaro birikib, hayvonning butun tanasiga yoyilgan nerv shohobchasini tashkil etadi. Kovakichaklilardagi qisqichlar - o`ljani ushlab turish organlari yuksak darajada sezuvchandir.

Kovakichaklilarning xatti-harakatlari qisman meros tariqasida xotira, ya'ni evolyutsiya jarayonida muayyan qo`zg`atuvchilar bilan organizmning tegishli reaktsiyalari o`rtasidagi bog`lanishlar orqali hosil bo`lgan va meros qolgan (asosan taksislar shaklida), shuningdek alohida bir organizmning muvaqqat bog`lanishlari yordamida hayot kechirishi jarayonida tarkib topadigan shartli reflekslar bilan belgilanadi.

Aniq ifodalangan bog`lanishlarning hosil bo`lishini quyidagi misolda kuzatish mumkin. Agar aktiniyaga bir parcha qog`ozni yaqinroq keltirib tutilsa, hayvon uni qisib olib, yutib yuboradi; bu jarayon bir necha bor takrorlangandan keyin aktiniya qog`ozni og`iz teshigiga xatto yaqin keltirmasdan otib yubora boshlaydi. Hosil bo`ladigan bog`lanishlar, afsuski, qisqa muddatli bo`lib, odatda ular uch-to`rt soatdan keyin so`nib qoladi.

Evolyutsion zanjirda kovakichaklilardan yuksak turadigan va yerda hayot kechiradigan ko`p hujayralilarda hayot tarzining o`zgarganligi munosabati bilan tananing tuzilishi murakkablashadi, qo`zg`atuvchilarning ma'lum bir turlarini aks ettiradigan o`ziga xos organlar - sezgi a'zolari rivojlanadi, aks ettirish shakllari ham ancha murakkablashadi. Endilikda chuvalchanglarda ham tananing murakkablashgan (segment) tuzilishini, shuningdek sezgi a'zolari (ko`z murtaklari, sezish, hid va ta'm bilish a'zolari murtaklari) ni ko`rsa bo`ladi. Chuvalchangning har bir segmentida nerv hujayralarining to`dalari - gangliylari mavjud bo`ladi. Gangliylar (asosiysidan tashqari) o`zlarining aks ettirish imkoniyatlariga ko`ra bir xil emas. Har bir segmentdagi gangliy o`sha segmentni mustaqil bajariladigan ayrim funktsiyalarning bir muncha avtonom tashuvchisiga aylantiradi. Agar ayrim segmentlar qo`zg`atiladigan bo`lsa, ular qimirlab, besaranjom bo`la boshlaydi.

Shunday qilib, ko`p sonli nerv tugunchalarining paydo bo`lishi haliveri yana ham nafisroq aks ettirish va, demak tevarak-atrofdagi tashqi muhitga moslashish uchun sharoit tug`dirishi mumkin bo`lgan o`sha hakiqiy foydali murakkablikni ta'min eta olmaydi. Lekin hozirdayoq ancha murakkab aks ettirish imkoniyatlari paydo bo`la boshladi - ular asosiy gangliyda mujassamlashgandir. Asosiy gangliy funktsiyalari va bog`lanishlariga ko`ra bir xil bo`lmagan nerv hujayralarining birikuvidan tarkib toladi. Bu gangliy gangliylar zanjirida asosiy yetakchi uch hisoblanadi. U hayvon tanasining istalgan qismida yuz beradigan qo`zralishlarni jamlaydi, ularni tahlil qiladi, boshqa xujayralarga o`tkazadi, impulslarni segmentlarning mushak apparagiga yo`naltiradi. Sudraluvchi va kavlovchi hayvonlar sifatidagi chuvalchanglarda asosiy gangliylar mavjud bo`lganligi tufayli tananing bosh qismida ixtisoslashgan sezuvchi organlar: paypaslash imkonini beradigan tukchalar, mo`ylovchalar, ko`z murtaklari paydo bo`ladi.

3. Xatti-harakatning instinktiv shakllari

Chuvalchanglarning xatti-harakatlari kovakichaklilardan ko`ra ancha murakkabroqdir. Chuvalchanglarga faol tarzda qidirish xususiyati xosdir.

Masalan, yomg`ir chuvalchanglari yerga tushgan barglarni oldin o`tkir uchlaridan qisib olib, so`ngra ularni iniga torta boshlashadi. Bir qancha olimlarning tadqiqotlari shuni ko`rsatdiki, chuvalchanglarning barg shaklidan bevosita ta'sirlanishidan ko`ra ko`proq barg uchida mavjud bo`lgan kimyoviy moddalardan ta'sirlanishi ularning «maqsadga muvofiq» xatti-harakati hisoblanadi. Chuvalchang jins xotirasi ancha aniq ifodalangan bo`lib, u tug`ma shartsiz reflekslarda namoyon bo`ladi. Chunonchi xalqali chuvalchanglarning ayrim turlarida ona chuvalchanglar o`z nasabini parvarish qiladi, bu xususiyat ularda tug`ma bo`ladi. Nereis turkumiga mansub chuvalchangning urg`ochisi o`zi yashaydigan naychasiga tuxum qo`yib u yoqdan- bu yoqqa faol harakat qila boshlaydi. Bu bilan u embrionlarning nafas olishi uchun zarur bo`lgan teza suvni ko`paytirishga erishadi. Chuvalchanglarning ba'zi bir turlari o`ziga juft topish uchun, ma'lum bir vaqt davomida uzoq yo`l bosib o`tadi.

Biroq shartsiz reflekslar faqat tashqi muhitning muqarrar tarzda qat'iyan barqarorligi sharoitida hosil bo`ladi; muhit esa doimo o`zgarib turadi va shuning uchun ham tug`ma ta'sirotlarning genetik jihatdan programmalashtirilgan holda yoyilishiga to`sqinlik kilishi mumkin.

Gangliy funktsiyali nerv sistemasiga ega bo`lgan hayvonlarning aks ettirish imkoniyatlari shartsiz reflekslar bilangina cheklanmaydi. Hayot kechirish jarayonida ularda tug`ma reaktsiyalarga nisbatan yangi, ancha harakatchan reaktsiya shakllari - shartli reflekslar paydo bo`ladi.

Ko`rsatib o`tilganidek, kovakichaklilar ham muvaqqat bog`lanishlar, shartli reflekslar hosil qila oladilar, biroq chuvalchanglarda shartli reflekslar darajasi yuqariroq bo`ladi. Garchi ularning hosil bo`lishi uchun hamon katta miqdordagi qo`zg`atuvchilarning birikuvi zarur bo`lsa ham, lekin muvaqqat bog`lanishlar muayyan darajada mutanosiblikni namoyon etadi.

Chuvalchanglar eksperiment sharoitida T shaklidagi labirintdan uyalariga yo`l topib chiqib ketishlari kerak edi. Agar birinchi qismi erkin chiqa oladigan bo`lsa, chap tomondagilariga elektr toki bilan ta'sir qilinar edi, 120-180 ta tajribadan so`ng chuvalchang o`ngga buriladngan bo`lib qoldi. Agar shartli bog`lanishlar hosil qilinganidan keyin elektr toki bor o`tkazgichlar o`ng tomonga qo`yilib, uyaga boradigan yo`l chap tomondan qo`yilgan taqdirda esa chuvalchanglar qaytadan o`rganishga tushishardi. Aytish kerakki, qaytadan o`rganish ilk bor o`rganishga qaraganda ikki-uch baravar tezroq yuz berardi.

Shunday qilib gangliy funktsiyali nerv sistemasining o`ziyoq, cheklanmagan miqdordagi ta'sirlarga javob qilishning yetarli darajada murakkab vositasidan iboratdir. Yetakchi gangliy bilan idora qilinuvchi ganglioz nerv sistemasiga ega bo`lgan hayvonning xatti-harakati diffuziyali, to`rli nerv sistemasiga ega bo`lgan hayvonlarning xatti-harakatlaridan jiddiy ravishda farq qiladi. Chuvalchanglarda xatti-harakatlarning nasliy yo`l bilan qaror topgan, programmalashtirilgan shakllari (genezisiga ko`ra, instinktlardan ham avval paydo bo`lgan) yuzaga chiqadi va ayni paytda aks ettirishning ancha nafis shakli - shartli reflekslar namoyon bo`la boshlaydi.

Gangliy funktsiyali nerv sistemasining ancha murakkab tuzilganligi aks ettirishning imkoniyatlarini shunga muvofiq ravishda oshiradi. Gangliy funktsiyali nerv sistemasiga ega bo`lgan hayvonlar orasida biz o`rgimchaksimonlar va hasharotlarda aks ettirish darajasining ancha yuksakligini ko`ramiz. Bu hayvonlarda tuzilishi jihatidan turlicha, juda murakkab sezgi organlari mavjuddir. Hayvonot olami evolyutsayasida retseptorlarning ixtisoslashuvi, muayyan ko`zg`atuvchilardan ta'sirlanishga moslashish kuzatiladi.

Jumladan, bo`g`imoyoqlilarning ko`pchrligida xemoretseptsiya hid va ta'm bilish yo`nalishida tabaqalashgan bo`ladi. Tegishli retseptorlar o`rtasida sifatli tafovutlar qaror topadi: ta'm retseptsiyasi ko`zg`atuvchi bilan bevosita to`qnashuv natijasida ro`y beradi, hid sezish esa ma'lum masofadan turib ham yuzaga keladi. Bundan tashqari, xasharotlarda fotoretseptorlar - yaqin joylashgan kichik narsalarning (yirik va uzoqda joylashgan narsalar bunday organlar bilan salpal farqlanadi) rang-barang tasvirini aks ettiradigan murakkab faset ko`zlar tobora rivojlanib bormoqda. Shuningdek, boshqa o`ziga xos retseptorlar, masalan, tegib ketishni bildiradigan moslamalar ham mavjud.

Bo`g`imoyoqlilarda, ayniqsa hasharotlarda, muxitning muayyan sharoitlariga munosabat bildirishning murakkab turma shakli - instinktlar mavjuddir. Instinktlar izchil ravishda bir qancha moslashuvchi harakatlarni keltirib chiqargan holda xalqasimon xarakter kasb etadi.

Jumladan, o`rgimchaklarning ba'zi turlarida urg`ochilari o`z tuxumi uchun tolalardan pilla yasaydi. Bu pillani urg`ochi o`rgimchak qo`riqlab va tez-tez ko`chirib boradi. O`rgimchak bolalari paydo bo`lishi bilan urg`ochi o`rgimchak ularning yonidan siljimasdan ko`riqlab turadi. Nasl kattalashgan sari urg`ochi o`rgimchak ham ularga shuncha befarq bo`la boradi va so`ngra esa o`rgimchak bolalari mustaqil harakat qiladigan bo`lib qolgandan keyin ularni tashlab ketadi.

Asalarilarda biz gruppaviy xatti-harakatlar bilan bog`liq bo`lgan eng murakkab instinktlarni ko`ramiz.

Ma'lumki, asalarilar uyasida bitta ona ari, bir necha o`nlab erkak va bir necha yuzlab bepusht ishchi ari (jinsiy organlari etilmagan) lar bo`ladi. Ishchi arilarning xatti-harakatlari juda ham murakkabdir. Rivojlana borgani sari har bir ishchi asalari uyadagi vazifasini o`zgartira boradi. Oldiniga u asalari bolalarini (g`umaklarni) boqadi, uyani tozalaydi, so`ngra uyani qo`riqlaydi, oziqa topib keladi, katakchalar yasaydi. Yerda yashaydigan arining instinktlari ham juda murakkab harakatlar zanjiridan iboratdir. U o`ziga uya qazib olib, uchib ketishdan oldin har gal uni ozgina tuproq bilan niqoblaydi. O`ljani olib kelganidan keyin ari uni uyaga kiraverishga qo`yib, haligi tuproqni chetga surib, uyani tekshirib ko`radi, shundan keyingina uni uyaga olib kiradi.

Bo`g`imoyoqlilarning bunday xatti-harakatlari go`yo maqsadga muvofiqday bo`lib ko`rinishi bilan kishini xayratga soladi. Lekin bu «maqsadga muvofiqlik» maqsadni anglashdan xolidir. U muayyan tashqi qo`zg`atuvchiga yoki ma'lum bir qo`zg`atuvchilar birikmasiga javob tariqasida ro`y beradi va mazkur turning barcha vakillarida bir xilda amalga oshiriladi. Instinktiv xatti-harakat saqlanadi, lekin har gal biron-bir muhim bo`g`inda buzilish yuz berishi bilan maqsadga muvofiqligini yo`qotadi.

Rus zoopsixologi V. A. Vagner (1849-1934) urg`ochi o`rgimchakning noma'kul bo`lib qolgan instinktlari sharoitida uning xatti-harakatlarini kuzatgan va tavsiflab bergan edi.

Chunonchi, ko`pincha o`rgimchak pillasining ichidagini zararkunandalar yeb ketgan bo`ladi, lekin urg`ochi o`rgimchak bo`shab qolgan pillani qo`riqlashda va u yoqdan-bu yoqqa ko`chirishda davom etadi. Shunday hollar ham bo`ladiki, urg`ochi o`rgimchak pillani yasab va odatda tuxum qo`yish chog`ida bajariladigan harakatlarni bir necha marta takrorlab, amalda tuxum qo`ymasligi ham mumkin. Shunday bo`lsa-da, u kelgusi bosqichga, ya'ni bo`sh pillani qo`riqlashga va uni u yoqdan-buyoqqa ko`chirishga o`tadi. Asalarilar reaktsiyalarining maqsadga muvofiqligi ham nisbiydir. Agar mumkatakning orqa tomoni teshib qo`yilsa, asalari yaroqsiz uyaga ma'lum miqdordagi shirani to`kib

bo`lgach, garchi uning ikkinchi tomonidan shira oqib ketayotgan bo`lsa ham, mum bilan bekitib ketadi.

Frantsuz tadqiqotchisi K. Fabr arining bir qolipdagi, maqsadga muvofiq bo`lmagan xatti-harakatini kuzatgan edi. Yer arisi uyasining oldiga chalajon chigirtkani keltirib, barcha arilar singari uyasini tekshirish uchun kirib ketganida tadqiqotchi uning o`ljasini chetrog`ga surib qo`ydi. Ari uyasidan chiqib, uni izlab topib, yana uyasining oldiga qo`yadi va tekshirish uchun yana uyasiga kirib ketdi. Fabr arining uyasi oldidan chigirtkani qirq marta chetga surib qo`ydi va ari qirq martasida ham o`ljasini topib, uni olib kirish uchun uyasini tekshirgan.

Bu misollar instinktning cheklanganligini ko`rsatadi. Instinktiv harakatlar muayyan shart-sharoitlarga qat'iy bog`liq, bo`ladi. Instinktning amal qilish mexanizmi shundan iboratki, tashqi shart-sharoitlar reflektor munosabat bildirishga undaydi, eng oxirida esa navbatdagi munosabat bildirish uchun qo`zg`aydi va hokazo. Shu tarzda reflekslarning butun bir zanjirini harakatga keltiradi va bu bilan nasliy yo`l bilan mustahkamlangan programmani amalga oshiradi. Instinktiv harakatlar standart shart-sharoitlar o`zgarishi bilanoq o`zining maqsadga muvofiqligini yo`qotadi. Shunday qilib, xatti-harakatlarning instinktiv shakllari faqat doimiy sharoitlardagina maqsadga muvofiqdir.

Shuni qayd qilish kerakki, ba'zi bir instinktlar mazkur turning barcha vakillariga xos bo`lsa ham, lekin ularning namoyon bo`lishi ayrimlarida biroz boshqacharoq tarzda kechadi. Instinktning bu tarzdagi nisbiy har xilligi turning hayot kechirish sharoitlari keskin o`zgarib ketgan taqdirda ham saqlanib qolishini ta'minlaydi. Yosh hayvonlarda instinktiv harakatlarni kuzatayotib, bu harakatlarning stereotip tarzda, oldindan o`rgatilmasdan yuz berayotganini ko`rish mumkin. Biroq bu harakatlar yosh hayvonlarda qarilariga nisbatan ancha beso`naqay tarzda yuz beradi. Jonzotning individual hayot kechirishi jarayonida orttirilgan va tug`ma xatti-harakat programmasining puxta bajarilishini ta'minlaydigan tajriba instinktlarning rivojlanishiga yordam beradi.

Tabiatshunoslarning kuzatuvlari shuni ko`rsatdiki, hasharotlarning hayoti davomida ko`plab shartli bog`lanishlar hosil bo`ladi. Bu bog`lanishlar turli xildagi retseptorlarning amal qilishi negizida paydo bo`lishi mumkin. Masalan, bu harakat signallari asosidagi tabiiy ta'sirlar xotirasi, narsalarning rangi yoki shakliga nisbatan ko`rish xotirasi bo`lishi ham mumkin.

Chunonchi, agar asalari uyalarini sharkdan g`arbga qarab ikki metr nariroqqa ko`chirib ko`yilsa, asalarilar shira yig`ib qaytganlaridan keyin ilgari o`zlari kirib-chiqib yurgan teshiklar o`rnida havoda to`planishadi. Ular shu tarzda bir necha minut davomida o`sha joyda aylanishib, shundan keyingina uyalar ko`chirilgan yangi joyga qarab uchib borishadi, ya'ni asalarilar oldiniga bo`shliqda faqat harakatlantiruvchi signallarga binoan mo`ljal olishgan bo`lsa, endilikda muvaffaqiyatsizlikka uchragandan keyin ko`rib mo`ljal olish qobiliyatini ishga solishdi. Mo`ljal olish hasharotlarda benihoya muhim rol o`ynaydi, Ular o`zlari oziq oladigan gullarning shakli bilan shartli bog`lanishga osongina muvaffaq bo`lishadi, shuningdek yorug`liklarning nisbatlariga, yorug`likning spektridagi ma'lum bir qismiga bog`lanishlar ham tez hosil bo`ladi (asalarilar, jumladan, sariq, yashil-ko`k, yashil va ultrabinafsha nurlarni yaxshi ajratadi).

Kuzatishlar shuni ko`rsatdiki, hasharotlarda shartli bog`lanishlar xatti-harakatning instinktiv programmalarini («ishga tushirish signallari») harakatga keltirish haqida xabar beruvchi qo`zg`atuvchilar yaxshiroq hosil bo`ladi.

Quyidagi tajriba diqqatga sazovordir. Bir xildagi doirasimon teshikchalari bo`lgan qutilarga suv yoki qand eritmasi quyilgan bir nechta banka joylashtirildi. Bir holda qand

eritmasi quyilgan banka joylashtirilgan qutiga uchburchak rasmi, suvli banka joylashtirilgan qutiga esa to`rtburchak rasmi tushirildi. Boshqa bir holda qand eritmasi qo`yilgan banka joylashtirilgan qutiga gulga o`xshaydigan jimjimador bezak rasmi tushirildi, suvli banka joylashtirilgan qutiga esa oltiburchakli yulduz surati tushirildi. Ma'lum bo`lishicha, asalarida sodda geometrik shakllarni (uchburchak, kvadrat) ajrata bilish qobiliyatini hosil qilish ancha qiyinroq va aksincha ancha murakkabroq shakllarni ajrata bilish qobiliyatini hosil qilish osonroqdir. Birinchi qarashda kutilmagandek bo`lib tuyuladigan bu natijalar murakkab geometrik shakllarnnng biologik jihatdan ahamiyatiga ko`ra tamomila asoslidir - ular asalarilar qo`nadigan gullarning shakliga o`xshaydi.

Binobarin, ganglioz nerv sistemasiga ega bo`lgan hayvonlarda biologik jihatdan ahamiyatga molik xabar yetkazuvchi belgilari bo`lgan predmetlarga nisbatan muvaqqat bog`lanishlar ancha oson yuzaga keladi; shartli bog`lanishlar faqat fe'l-atvorning instinktav xatti-harakatlar programmalari doirasida hosil bo`ladi. Shuni hisobga olish kerakki, ganglioz nerv sistemasiga ega bo`lgan hayvonlarda aks ettirishning asosiy shakli instinktiv harakatlar bilan bog`liqdir.

Harakatning instinktiv shakllarini faqat bo`g`imoyoqlilarda emas, balki yuksak taraqqiy etgan barcha umurtqali hayvonlar (baliqlar, amfibiyalar, sudralib yoki o`rmalab yuradigan hayvonlar, qushlar, sut emizuvchilar) da kuzatish mumkin. Baliqlarning ayrim turlarida, jumladan, naslini qo`riqlashdek juda murakkab instinkt namoyon bo`ladi.

Chunonchi, kolyushka deb ataluvchi baliqning erkagi suv ostida chuqurcha hosil qilib, unga mayda suv o`tlarini to`shaydi, yon atrofiga yirikroq o`simliklardan devor yasaydi va uni tanasinnng shilimshig`i bilan suvaydi. So`ngra erkak baliq urg`ochi baliqni urug` tashlashi uchun shu yerga xaydaydi va urug`dan baliqchalar ochilib chnqqunga qadar in atrofini qo`riqlaydi.

Umurtqalilarning ko`pchiligida naslni parvarish qilish, shuningdek jinsiy urchish, oziqlanish, himoyalanish bilan bog`liq juda murakkab instinktlarni uchratish mumkin. Qushlar va sut emizuvchilardagi uya qurish va naslni parvarish qilish benihoya maqsadga muvofiqday tuyuladi. Lekin bunday maqsadga muvofiqlik faqat tashqi omillar oqibati sifatida kelib chiqqanligi sababli hayvonning xatti-harakati muhit o`zgarishi natijasidagina bir oz o`zgaradi. Instinktiv harakatlarni keltirib chiqaradigan shart-sharoitlarning ma'lum bir kompleksi sal o`zgarishi bilanoq bu harakatlarning bir tekis borishi darhol buziladi - qushlar jo`jalarini tashlab ketishlari, sut emizuvchilar bolalarini g`ajib tashlashlari mumkin.

Hayvonlarning muhofaza harakatlari, agar faqat instinktiv tarzda yuz beradigan bo`lsa, o`ta to`mtoqligi bilan ajralib turadi. Bunga ko`plab misollar keltirish mumkin. Mana shulardan biri:

Amerikada terisining usti qora jun bilan qoplangan uncha katta bo`lmagan bir yirtqich hayvon yashaydi. U amalda barcha turdagi yirtqich hayvonlarning hujumidan saqlangandir-hayvonlar uni orqasidagi uzun chizig`idan tanib oladi. Bu hayvon skuns deb ataladi. Tabiat skunsga bir bezni ato etganki, u benihoya zaharli hid tarqatuvchi suyuqlik chiqaradi. Salgina xavf tug`ilishi bilanoq, skuns dushmaniga orqasini o`girib, dumini ko`taradi va havoga suyuqlik purkaydi. Natijada eng katta yirtqichlar ham bir necha soat davomida «xushidan ketib qoladi». Amerika qit'asidagi barcha hayvonlar skunsni chetlab o`tishga harakat qilishadi. Bu hayvonni yangi iqlimga moslashtirishga qaror qilishdi. Yosh hayvonlarni oldiniga o`ralgan maydonda saqlashdi. Yirtqichlarni parvarish qilishda xizmatchilar qiynalmasliklari uchun hayvonlardagi mushk bezlari olib tashlandi. Erkinlikka qo`yib yuborilgan skunslar o`rmonlarda bemalol yurishardi. qachonki,

skunslarga hujum qila boshlaganida ular qochmasdan, orqalarini o`girib turishaverdi va dushmanlarining engilgina o`ljasiga aylanishdi. Shundan keyin skunslarning bezlari kesib tashlanmadi - ularni boqishning boshqa usullari topildi.

Instinktiv reaktsiyalar xatti-harakatlarning tug`ma shakllarini ishga tushirishga olib keladigan oddiy omillar tufayli sodir bo`ladi. Shu jihatdan hayvonlar xatti-harakatning tug`ma shakllarini o`rganayotgan etologlarning tadqiqotlari katta qiziqish uyg`otadi. Mazkur fanning vakillari instinktiv harakatlar mutlaqo aniq shakllangan signallar orqali qo`zg`atilishini ko`rsatib berdilar.

Jumladan, qurbaqa agar ro`parasida hasharot ko`rinsa, uni tutish uchun otiladi. Tez harakat qiluvchi qo`zg`atuvchiga nisbatan reaktsiya qilish faktini tekshirib ko`rish oson. Agar qurbaqaning ro`parasiga ingichka ipga bog`langan qog`oz osib qo`yiladigan bo`lsa va uni silkitib, uyoqdan-buyoqqa surib turilsa, qurbaqa albatta qog`ozga otiladi. Sut emizuvchilarda ham instinktiv harakatlar biron-bir qo`zgatuvchiga javoban yuz beradi, buning ustiga har xil turlarning vakillarida bir xildagi munosabat turli xildagi tashqi omillar orqali hosil bo`lishi mumkin. Masalan, endigina tug`ilgan kuchukcha ham, endigina tug`ilgan qo`zichoq ham, ma'lumki, onasining emchagini izlay boshlaydi, uni topganidan keyin esa zo`r berib ema boshlaydi. Shu narsa aniqlandiki, bu harakatlar programmasi signallar orqali kelib chiqqandir. Kuchuk bolasi junning issiqligiga reaktsiya bildiradi. Agar unga onasining o`rniga boshqa issiq narsa tutilsa, qidiruv reaktsiyasi sodir bo`lmaydi. Agar unga isitilgan mo`yna tutilsa, u shu zahotiyoq qidiruvni boshlaydi. qo`zichoq esa bosh suyagining ustki qismida qorong`ilik bo`lishiga munosabat bildiradi; agar qo`zichoqning og`ziga muguzcha tutilsa, u so`rishga oid biron-bir harakat qilmaydi, lekin unga muguzcha tutish bilan birga bosh suyagining ustida qorong`ilik hosil qilinishi hamono u ema boshlaydi.

Shunday qilib, instinktiv harakatlar turli xildagi ko`p sonli qo`zg`atuvchilarning aks etishini ta'min eta olmaydi va shunga ko`ra umurtqalilarning aks ettirish imkoniyatlarini cheklab qo`yadi. Umurtqalilarda naychali nerv sistemasi (orqa va bosh miya bilan qo`shilib) rivojlangan bo`lib, shu tufayli ularda tashqi muhitni asliga ancha o`xshaydigan tarzda aks ettirishning potentsial imkoniyatlari oshadi. Ganglioz nerv sistemasiga ega bo`lgan hayvonlarga iisbatan umurtqali hayvonlarda retseptorlar yanada takomillashib, tobora ko`proq maxsuslashib boradi. Evolyutsiya natijasida erishiladigan ana shu barcha ichki imkoniyatlar atigi birgina instinktiv harakatlarni keltirib chiqarish uchun foydalanilmaydi, albatta.

4. Xatti-harakatning instinktiv tarzda hosil qiladigan shakllari

Yuksak taraqqiy etgan hayvonlarda, ayniqsa sut emizuvchilarda, xatti-harakatning yangi, ancha nafis shakllari birinchi darajali ahamiyat kasb etmoqda. Bir turga mansub hayvonlarda muvaqqat bog`lanishlarning hosil bo`lishidagi individual farqlar instinktning namoyon bo`lishidagi individual farqlarga qaraganda ancha sezilarli bo`lib bormoqda. Bir xil hayvonlarda shartli bog`lanishlar nisbatan tez, boshqalarida sekin hosil bo`lishi mumkin. Soddaroq hayvonga qaraganda umurtqali hayvonlarda shartli bog`lanishlar mislsiz ko`p hosil bo`ladi. Hayvon. evolyutsion taraqqiyotning yuqori bosqichiga ko`tarilgan sari, hosil bo`ladigan shartli bog`lanishlari ham shuncha murakkabroq va yana ham nafisroq bo`lishi mumkin.

Baliqlarda shartli bog`lanishlar ancha tez hosil bo`ladi. Shartli bog`lanishning hosil bo`lishi uchun yorug`lik, rang, narsaning shakli, shuningdek tovush va ta'm belgilari signal

bo`lib xizmat qilishi mumkin. Lekin bu bog`lanishlar tez o`zgarmaydigan bo`ladi. Chunonchi, cho`rtanbaliqda mayda baliqlarni ovlashga oid shartli refleks osongina hosil bo`ladi. Lekin bu refleksni susaytirish juda qiyin. Eksperimentda mayda baliqlar cho`rtan-baliqdan shisha bilan alohida ajratib qo`yilganda Yirtqich baliq yangitdan vaqtinchalik bog`lanish hosil qilmagunga qadar uzoq vaqt davomida shishaga urilib turdi, shisha olib qo`yilgandan keyin esa yangi bog`lanish ham o`z navbatida uzoq vaqt saqlanib turdi. Shundan keyin cho`rtanbaliq yonida suzib yurgan mayda baliklarga umuman ahamiyat bermay qo`ydi.

Shunday qilib, shartli bog`lanishlar ham holatlar o`zgarganda hayvon xatti-harakatini nisbatan kam o`zgartirishi mumkin.

Jonli materiya aks ettirishning rivojlanishida navbatdagi bosqich - xatti-harakatning yangi belgilarini mustaqil hosil qilishga asoslangan nafis individual xatti-harakatning yanada murakkabroq shakllarini chiniqtirishdir. Nafis individual harakat uchun muhitning ayrim xususiyatlarigina (harorat, rang, hid) emas, balki butun bir konkret vaziyatlar tahlil va sintez qilinishi shart.

Chunonchi, agar tovuqning oldida don sepib, uni to`rli rama bilan to`sib qo`yilsa, tovuq ushbu to`rga o`zini ura boshlaydi. Holbuki, taraqqiyotning ancha yuksak bosqichida turuvchi qushlar (masalan, qarg`a, zag`izg`on yoki quzg`un) bundan vaziyatda o`zlarini boshqacha tutishadi: to`r orqasidagi donni olish uchun urinishda dastlabki muvaffaqiyatsizlikka uchragach, ular to`siqni aylanib o`tib, donni cho`qiy boshlashadi.

Birinchi holatda xatti-harakat instinktiv programmaga asosan bo`lgan bo`lsa, ikkinchi holda xatti-harakat bevosita vaziyatni tahlil qilish natijasida ro`y berdi.

Xatti-harakatning ikkinchi tipi ayniqsa sut emizuvchilarda yaqqolroq namoyon bo`ladi. Bunday hayvonlar endi butun bir vaziyatlarni idrok etib, tahlil qila boshlaydi, o`z xatti-harakatlarini to`g`rilab, o`zgarayotgan shart-sharoitlarga moslasha boshlaydi. Yuksak taraqqiy etgan hayvonlarda xatti-harakatning instinktiv shakllari bilan bir qatorda o`zgaruvchan individual shakllari - malakalar va intellektual xatti-harakatlar ham mavjud bo`ladi. Malakalar deganda hayvonlarning shartli bog`lanishlariga asosan bajaradigan va avtomatik tarzda takrorlanadigan xatti-harakat tushuniladi. Malakalar xuddi instinktlarga o`xshab rivojlanishning nisbatan quyi bosqichlarida ham bo`ladi, lekin aniq ifoda etilgan malakalar faqat bosh miya qobig`i bo`lgan hayvonlardagina namoyon bo`ladi.

Hayvonlarning malakalari tarkibiga kiradigan harakatlantiruvchi elementlar turning o`ziga xos tajribasini takrorlaydigan tug`ma harakatlardan iborat bo`lishi ham, shuningdek tasodifiy harakat namunalarining takrorlanishi jarayonida ko`nikma hosil bo`lgan harakatlardan iborat bo`lishi ham mumkin. quyidagi fakt birinchi turdagi harakatlarga misol bo`la oladi.

O`rgatuvchi quyonni nog`ora chalishga osongina o`rgata oladi. Bu harakat turning o`ziga xos bo`lgan harakati hisoblanadi: yilning ma'lum bir paytida barcha quyonlar o`rmonda to`nkalarni, yerda ag`darilib yotgan daraxtlar va boshqa narsalarni «chala boshlashadi». Zanjirdagi itning harakat reaktsiyalarini ikkinchi xildagi harakatlarga misol qilib ko`rsatish mumkin. Tajriba kuyidagi tarzda o`tkazildi. It bo`yini cho`zsa ham olmasligini bilgan holda uning oldiga bir parcha go`sht tashlashdi. Go`sht parchasi ipga bog`langan bo`lib, ikkinchi uchini it panjalari bilan tortishi mumkin edi. It bir necha muvaffaqiyatsiz harakatlardan so`ng tasodifan ipning uchidan tortib, go`shtni egallab olishga erishadi. Bu harakat eslab qolindi va keyinchalik har gal it go`sht bog`langan ipni o`ziga tortadigan bo`lib qoldi. Bir gal go`sht bog`langan ipning uchiga itning oldingi oyoqlari etmaydigan qilib tashlandi. It oldingi oyoqlari bilan ipni tortishga bir necha bor

muvaffaqiyatsiz uringanidan keyin orqasiga o`girilib, ipni orqa oyog`i bilan tortib oldi (1-rasm).

Bu fakt hayvonlarda hosil bo`lgan malakalar o`zgartirilgan vaziyatda ham takrorlanishi mumkinligi haqidagi qoidani tasdiqlaydi. Misol qilib ko`rsatilgan holatda eksperimentning shart-sharoitlari murakkablashtirilib, it bu yangi vaziyatga ipga qadar etishga imkon tug`dirishi mumkin bo`lgan malakani oldingi oyog`idan orqa oyog`iga ko`chirish bilan munosabat bildiradi.



1- rasm.

Shunday qilib, malakalar bir-biridan jiddiy ravishda farq qilishi mumkin: bir xil holatda ular avtomatik takrorlanishiga ko`ra instinktlarga yaqin tursa, boshqa bir holda intellektual xatti-harakatlarga yaqinlashib ketadi.

5. Hayvonlarning intellektual xatti-harakatlari

Ayrim narsalar o`rtasidagi murakkab munosabatlarning aks ettirilishi intellektual xatti-harakatlar negizini tashkil etadi. Quyidagi tajriba intellektual xatti-harakatga misol bo`la oladi.

Tajriba o`tkazilgan asbob ikkita bo`sh naychadan iborat edi. Naychadan bittasiga qarg`aning ko`z o`ngida ipga bog`langan xo`rak-bir parcha go`sht joylashtirildi. qarg`a xo`rakning naycha ichiga kiritilganini, ikkinchi naychaga o`tadigan joydagi yoriqdan bir lahza paydo bo`lib, ikkinchi naycha ichiga kirib ketganini ko`rdi. qarg`a shu zahotiyoq ikkinchi naychaning oxiriga sakrab bordi va xo`rakning paydo bo`lishini kutib turdi. (Boshqa yirtqich qushlar, mushuklar, itlar ham xuddi ana shu tarzda xatti-harakat qilishdi.)

Keltirilgan misol shuni ko`rsatadiki, yuksak taraqqiy etgan hayvonlar narsalar o`rtasidagi munosabatlarni payqash qobiliyatiga va mazkur vaziyatning natijasini oldindan bilish, ya'ni o`sha narsa agar u harakat qilayotgan bo`lsa, qaerda paydo bo`lishini hisobga olish qobiliyatiga egadir. Bunday xatti-harakatni endi aqliy xatti-harakat deb ayta olamiz.

Olimlar yuksak taraqqiy etgan hayvonlar orasida primatlarni (odamsimon maymunlarni) alohida o`ringa qo`yadilar. Primatlar ko`plab boshqa sut emizuvchilardan farqli o`laroq, faqat oziqa emas, balki turli xildagi narsalar vositasida qilingan xiylalarga

ham befarq qarab turishmaydi. Bu xildagi qiziqishni «kat'iy» va «beg`araz» qiziqish (I. P. Pavlov), «tadqiqot impulsi» (N. Yu. Voytonis) deb atashadi. Maymunlarda bu xildagi faoliyatning faolligi ko`rish qobiliyatining yuksak darajada rivojlangani bilan qo`shilib, ularning idrok etish doirasini beqiyos kengaytirib, tajribasini behad oshirib yuboradi va malakalarning hosil qilinishi uchun, xatti-harakatlarning murakkab turlari paydo bo`lishi uchun boshqa hayvonlardagiga qaraganda anchagina kuchli negiz yaratadi.

Maymunlar intellekti (aqli) ular bajaradigan vazifalarning faqat murakkabligi bilan emas, balki ular faoliyatining yo`naltirilganligi bilan ham belgilanadi. Maymunlar qo`liga tushgan narsani soatlab titib o`tirishi, odamni qafasiga xar xil usullar bilan mahliyo etishi, sudralib ketayotgan qurt-qumursqalarni kuzatishi mumkin va xokazo. Maymunlar xatti-harakatining bunday xususiyatlariga ega ekanligi ularning hayot kechirish usuli bilan izohlanadi. Tabiiy sharoitlarda maymun oziqa izlab, uzluksiz ravishda «tekshirish» faoliyati bilan mashg`ul bo`ladi. Yovvoyi shimpanzelarda «taomlarning» sakson bitta xili mavjud. Ularning yarmisi meva-chevalar bo`lsa, to`rtdan bir qismi barglardan iboratdir. qolgan qismini don-dun, gullar, poyalar, daraxt po`stlori tashkil etadi. Shimpanzelar bulardan tashqari hasharotlar va qurt-kumursqalar bilan oziqlanadi. Onda-sonda ularning «dasturxonida» kaltakesaklar, mayda kemiruvchilar, ba'zan esa yirik hayvonlar ham bo`lib turadi. Bundan shu narsa tushuniladiki, maymunlarda mo`ljal olish-tadqiqotchilik xatti-harakatining yuksak darajada taraqkiy etganligi, ularning istalgan ob'ektlarga qaratilgan qiziqishlari aniq shakllangan biologik asosga egadir. Maymunlar iste'mol qiladigan mevalarning turli-tuman shaklga va tusga egaligi ular tomonidan faqat farq qilinadigina emas, balki shartli reflekslar hosil bo`lishi natijasida tegishli ta'm belgilari bilan ham bog`lanadi. Maymun ovqat izlayotib, mevalarning iste'mol qilish mumkin bo`lganlarini iste'mol qilib bo`lmaydiganlari va zaharlilaridan bexato ajratadi.

Maymunlar ovqatining rang-barangligi ularning analizatorlik qobiliyatini oshiradi. Maymun shu qadar rang-barang ovqatlana boshlagach, endi oziqaning qat'iyan belgilab ko`yilgan turlariga yoki ovqatlanishning muayyan bir vaziyatiga instinktiv ravishda munosabat bildirib qola olmaydi. Har gal u hammasini va atrofdagi hamma narsani tekshirishi va shu tarzda o`ziga kerakli oziqani topishi lozim bo`ladi.

Maymunlarning bu xildagi xatti-harakatlarining boshqa hayvonlarga nisbatan yuksak darajada rivojlanganligi primatlarda qo`l tipidagi oldingi oyoqlarning mavjudligi bilan ham belgilanadi. Qo`li borligi uchun ham maymunlar atrofdagi narsalar bilan juda ham murakkab munosabatlarga kirishish imkoniyatiga egadir. Ana shuning uchun ham maymunlarda qolgan boshqa hayvonlarda mavjud bo`lmagan juda ko`plab muvaqqat bog`lanishlar (assotsiatsiyalar) hosil bo`ladi. Faol mo`ljal olish – tadqiqotchilik xatti-harakati zamirida maymunlarda aks ettirishning turli-tuman vositalari paydo bo`ladi. Ma'lum sharoitlarda maymunlarda xatti-harakatning instinktiv shakllari namoyon bo`ladi. Boshqa umurtqalilarda bo`lgani kabi maymunlarda instinktiv reaktsiyalar oddiy omil tufayli yuz berishi mumkin. Amerikalik olimlar G. Xarlou, M. Xarlou, S. Suomilarning tadqiqotlari yangi tug`ilgan maymun bolasi sun'iy onaning ayrim turlarigagina haddan ziyod ixlos qo`yishi mumkinligini ko`rsatdi.

Tajriba quyidagi tarzda olib borildi. Makaka maymunining yangi tug`ilgan bolalarini xuddi haqiqiy onasining kattaligida qilib ishlangan sun'iy ona bilan birga qafasta solib qo`yildi. Maymunchalarning biriga metall karkasdan yasalgan «ona», ikkinchisiga yog`och silindrdan yasalib, tukli mato bilan o`ralgan «ona» to`g`ri keldi. Yumshoq onalik maymuncha ko`p vaqtini uning yonida o`tkazdi, uni goh kuchoqlar, goh uning ustiga ham chiqib ketardi.

U har gal biron xavf tug`ilsa onasining himoyasiga qochib borgan. Metall ona tekkan maymuncha esa juda qiynaldi. Tadqiqotlar shuni ko`rsatdiki, maymunlarning bolalari sut bergan simli onadan ko`ra sut bermasa ham matodan yasalgan onani afzal ko`rishi aniqlandi. Matodan yasalgan onalar maymunchalarda badastirlik hissini - xavfsizlik va ishonch hissini uyg`otadi.

Biroq yuksak taraqqiy etgan katta maymunlarning instinktiv xatti-harakati bir hujayrali tuban hayvonlar instinktidan jiddiy farq qiladi. Yuksak taraqqiy etgan maymunlar (jumladan, shimpanzs) da xatti-harakatning uya kurishdek tug`ma shakli mavjuddir. Tabiiy sharoitlarda ular har kuni daraxtlarda shox-shabbalardan uya qurishadi. Kuzatishlar shuni ko`rsatdiki, maymunlar uya qurishda materiallarni tanlash chog`ida amaliy tahlilga binoan ish ko`rishadi.

Tadqiqot jarayonnda maymunlarning binokorlik «faoliyati» kemiruvchilar (kalamush)ning uya qurishi bilan taqqoslab ko`rildi. qattiqligi turlicha materiallar, jumladan, daraxt shoxlari va kog`oz mavjud bo`lgan holda shimpanze ham, kalamushlar ham uyani bir xil tipda, ya'ni uyaning asosiy qismini qattiq materialdan yasab, ichiga ancha yumshoqroq material to`shaydi. Agar shimpanzega va kalamushga faqat yumshoq material berilsa, u holda ikkalasi ham uyani shu materialdan qurishga kirishadi. Lekin ular tavsiya qilingan materialdan uyalarini yasab bo`lganlaridan keyin ularga ancha dag`alroq material berilsa, u holda hayvonlarning reaktsiyalarida darhol sifat farq ko`rinadi. Shimpanze ancha dag`al materialga ega bo`lganidan keyin shu zahotiyoq uyasini qayta qurishga kirishadi. Yumshoq materialdan qurilgan inshootni qo`li bilan bir chekkaga surib qo`yadi va ancha dag`al materialdan uyaning asosini qura boshlaydi. Shundan keyingina u yumshoq materialdan foydalanadi, uni uyasining ichki yuzalariga to`shaydi. Kalamushlar xuddi shunga o`xshash vaziyatda qurilishni davom ettiradilar, dag`al materialni yumshoq material ustidan to`shay beradilar.

Shunday qilib, uya qurish maymunlarda garchi instinktiv harakatlar natijasida amalga oshirilgan bo`lsa ham, bu harakatlar tashqi shart-sharoitlar hisobga olingan holda yuz berdi.

Maymunlarning individual tajribada hosil qilgan xatti-harakatlari o`ziga xos xususiyati bilan ajralib turadi. Maymunlarda va ancha tuban hayvonlarda malakalarning hosil bo`lishini kuzatgan tadqiqotchi ba'zan shunday ajablanadigan faktga duch kelishi mumkinki, ancha tuban umurtqali hayvonlarda malakalar maymunlarga qaraganda tezroq paydo bo`ladi. Bu fakt malaka tezroq hosil bo`ladigan hayvonlarga qaraganda maymunlar ancha sodda degan ma'noni anglatmaydi. Gap shundaki, maymunlar u yoki bu narsalarni va ularning atrof-muhitdagi nisbatini sezishga layoqatli bo`lib, ularga ta'sir ko`rsatish imkoniyatiga egadir. Ularning xatti-harakatlari esa ko`pincha ushbu qobiliyat bilan belgilanadi. Shunday ham bo`ladiki, maymunning «beg`araz» qiziquvchanligi diqqatini uning o`zi eksperimentdan o`tkazilayotganiga jalb qilishga ko`ymaydi. Ko`pincha uni «problema qutisi»ga yashirib qo`yilgan xo`rakdan ko`ra iste'mol qilib bo`lmaydigan narsalar ko`proq qiziqtirib qoladi. Lekin maymunlarda mustahkam shartli bog`lanishlar hosil bo`layotgan holda ular xuddi boshqa yuksak taraqqiy etgan hayvonlardagi kabi bir xilda yuz beradi.

Rafael ismli shimpanzeda o`tkazilgan qator tajribalardan bir jihatiki ko`rib chiqamiz. qutiga yashirib qo`yilgan mevalar oldida spirt lampasi yoqib qo`yilgan. Rafael mevani olish uchun necha bor urinishlaridan birida tasodifan shamchiroq ustida turgan suvli idishning jo`mragiga tegib ketdi. Jo`mrakdan tushgan suv alangani o`chirdi. Harakat xotirada saqlab qolindi. Yangi vaziyatda suvli idish bir chekkaga qo`yiladi. Bir necha

marta uringanidan so`ng Rafael bu vazifaning ham uddasidan chiqdi: u og`ziga suv to`ldirib, uni alangaga qarab sepdi. Navbatdagi vaziyatda xo`rak solingan quti suv havzasining o`rtasida joylashgan solning ustiga qo`yildi. Suvli idish esa yana boshqa bir sol ustiga qo`yildi. Rafael alangani o`chirish uchun omonat ko`prikdan ikkinchi solga qarab otildi.

Hayvon harakatning o`zlashtirilgan usuli (malaka) ni yangi vaziyatga ko`chirdi. To`g`ri, bu xildagi harakat nomaqbul (sol atrofida suv bor!) hisoblanadi. Lekin u biologik jihatdan o`rinlidir. Omonat ko`prikchadan harakat qilish maymun uchun ortiqcha jismoniy qiyinchilik tug`dirmaydi. Shu boisdan ham eksperimentda sodir qilingan vaziyat shimpanze uchun hal etilishi aql-idrokning ishga solinishini talab qiladigan problemali vaziyat bo`lgani yo`q. Munosabat bildirishning ancha bir xil usuli sifatida instinktlar va malakalar hayvon organizmini ortiqcha zo`riqishdan saqlaydi. Hayvon qatorasiga bir necha bor muvaffaqiyatsizlikka duch kelgandan keyingina masalani hal qilishning yuksakroq darajadagi usuliga, ya'ni intellekt (aql-idrok) bilan, ish kurish usuliga murojaat qiladi. Biroq vujudga kelgan vaziyat hayvonlar uchun kamdan-kam holda problemaga aylanadi va, binobarin, ancha yuksak, idrokni ishlatiladigan darajada aks ettirish alohida zarurat sifatida namoyon bo`lmaydi. Intellektual xatti-harakat hayvonlarning ko`pincha yashirin imkoniyati sifatida qolib ketadi.

N. N. Ladigina-Kots (1889—1963) ning tajribalarida Paris degan shimpanze ichiga xo`rak solingan naychani olishi bilanoq, naychaning ichiga kiritish uchun yaroqli bo`lgan, ishlatishga qulay qurolni tanlashga tushardi. Bunda Paris turli belgilarni - narsalarning shakli, uzunligi, kengligi, qalinligini ajrata bilardi. Agar mos keladigan narsa topilmasa, Paris yonida yotgan daraxt shoxlaridan yon shoxlarini yulib olar, enli taxtadan payraxalar ajratib chiqarar, buklangan simlarni to`g`rilar, xullas, maymun «qurol» yasar edi.

Biroq yuksak taraqqiy etgan maymunlardagi «qurol yasash» faoliyatining ahamiyatini oshirib yuborish yaramaydi. V. Keler, E. G. Vatsuro, N. N. Ladigina-Kotslar o`tkazgan tajribalardan ma'lumki, shimpanzelar aynan bir xildagi vaziyatda, ya'ni maqsadga erishish uchun ikkita tayoqni birlashtirish zarur bo`lgan paytda o`zlarini yo`qotib qo`yishdi. Bu shundoq ham tushunarli: shoxlarni g`ajish, payraxalarni ajratish-bular maymunning tabiatda bajaradigan tabiiy harakatlaridir. Lekin maymunlar tabiiy sharoitlarda tayoqlarni bir-biriga ulab ish ko`rmaydi. Bu xildagi vazifalarni bajarish uchun ko`p urinish, sinab ko`rish talab qilinadi. Shunga qaramay, maymunlar ba'zan ikkita ancha qisqa tayoqdan bitta uzun tayoq yasashga, ya'ni «kurol» yasashga muvaffaq bo`lishardi. Ammo ular tayyorlangan «qurolni» saqlashmaydi, nafi tegadi deb o`ylashmaydi. Maymunda «qurol» uning bevosita harakati jarayonida paydo bo`ladi va shu zaxoti yo`qoladi. Shu sababdan ham odamning mehnat faoliyati bilan maymunlarning tegishli harakatlari o`rtasida faqat shartli o`xshashlik bo`lishi mumkin.

Shu munosabat bilan I. P. Pavlovning xo`rak yashirilgan quti bilan o`tkazgan tajribalari qiziqarlidir. Maymun uchburchak shaklidagi teshikdan xo`rakni ko`radi. Agar ana shu teshikka uchburchak shaklida yo`nilgan tayoqni bosilsa, qutini ochish mumkin. Eksperimentchi bu jarayonni maymunning ko`z o`ngida bajaradi. Maymunning qarshisida har xil - dumaloq, kvadrat, uchburchak qilib yo`nilgan tayoqlar qalashtirib tashlangan. Oldiniga barcha maymunlar qo`liga ilingan tayoqni har qanday teshikka kiritishga urinishadi. So`ngra esa ular tayoqlarni paypaslab, hidlab, uyoq-buyog`ini ag`darib ko`rishdi va navbatma-navbat teshikka kiritishga urina boshlashdi. Pirovardida to`g`ri mo`ljal olindi.

Shunday qilib, maymunlarning intellektual harakatlari taxminiy harakatlar jarayonida konkret amaliy tafakkur shaklida yuz beradi.

Yuksak taraqqiy etgan maymunlardagi xatti-harakatlarning o`ziga xos xususiyati ularning taqlidchiligidir.

Masalan, maymun polni supurishi yoki lattani ho`llashi, uning suvini siqishi va polni artib chiqishi mumkin. Bunday taqlidiy harakatlar ko`pincha juda oddiy tarzda bo`ladi: odatda maymunlar harakatning natijasiga emas, balki uning o`ziga taqlid qilishadi (3-rasm). Shuning uchun ham maymun polni «supurarkan», ko`pincha axlatni bir joydan ikkinchi joyga ko`chiradi va uni poldan batamom olib tashlamaydi. (To`g`ri, ba'zi bir to`g`ri o`rgatilgan hayvonlar bu vazifani ham uddalaydi.) Maymunlarda intellektual taqlidning mavjudligi isbotlanmagan.

Shunday qilib, aks ettirishning barcha shakllari (tropizmlar, instinktlar, malakalar, intellektual xatti-harakatlar) keskin chegaralanmaydi. Hayvonot olamida rivojlanishning yagona uzluksiz yaqinligi mavjuddir: instinktlar, jumladan, malakalarni hosil qiladi, malakalar instinktlarga aylanadi.

Lekin rivojlanishning uzluksizligi konkret ifodalanish jarayonida uzilishning mavjudligi ham ko`rinib qoladi: hayvonlarning bir xil turlarida instinktlar ustun bo`lsa, boshqalarida shaxsiy tajriba jarayonida orttirilgan bog`lanishlar ustunroq bo`ladi.

6. Hayvonlarning munosabatlari va «tili»

«Ijtimoiy hayvonlarning o`zaro munosabatlari ba'zan juda ham murakkablashib ketadi. Ganglioz nerv sistemasiga ega bo`lgan va katta-katta to`dalarga birlashib hayot kechiradigan hayvonlardayoq faqat murakkab individual instinktiv xatti-harakatlarnigina emas, balki o`sha to`daning alohida bir vakili «tili»ga nisbatan instinktiv reaktsiyalari ham rivojlanganini ko`rish mumkin.

Chunonchi, asalari shira to`plab, uyasiga qaytayotganida muayyan bir shaklda harakatlar yasab («raqsga tushib»), bu bilan asalga boy gullar qaerda joylashgani haqida butun asalarilar to`pini xabardor qilishi aniqlandi. Chumolilarning «tili» juda murakkabdir. Ma'lum bir harakatlar kat'iy bir xabarni anglatadi. Harakat reaktsiyalari birgalikdagi harakatga chaqiriqni, ovqat berish hakidagi iltimosni va shu kabilarni anglatishi mumkin.

Ganglioz nerv sistemasiga ega bo`lgan hayvonlardagi «til» gavdasini ma'lum bir qiyofada tutish bilan, akustik signallar, kimyoviy («xid bilish») axborotlar, turli xildagi suykanishlar orqali ifoda etiladi.

To`plashib yurgan hasharotlar xatti-harakatlarining maqsadga muvofiqligi va uyg`unligi kuzatuvchini hayratga soladi. Lekin ushbu uyg`un ravishdagi maqsadga muvofiqlik axborotni qabul qiluvchi hayvonlar reaktsiyasining bir xilda ekanligi bilan belgilanadi. Ularning reaktsiyalarida ozgina bo`lsa ham anglashilganlikdan, axborotni qayta ishlashdan asar yo`q bo`ladi; signal olinishi bilanoq evolyutsiyada hosil qilingan xatti-harakat sodir bo`ladi.

Yuksak taraqqiy etgan hayvonlar (qushlar, sut emizuvchilar) ning to`dasida ham o`zaro munosabatlarning muayyan shakllari mavjuddir. Hayvonlarning har qanday tarzda biron-bir to`daga birlashuvi muqarrar ravishda to`dadagilarning bir-biri bilan aloqa qilishlari uchun zarur bo`lgan «til» ning paydo bo`lishiga olib keladi.

Har qanday to`dada biologik jihatdan tengsizlik qaror topadi: kuchli hayvonlar kuchsizlarini o`ziga bo`ysundirishadi. Kuchlilariga ovqatning yaxshiroq joyi tegadi, ular

o`zlarini to`daning boshqa a'zolari orasida ancha erkin his qilishadi. Kuchsiz hayvonlar boshqa turlarga mansub hayvonlar uchun o`lja bo`lib, o`zi mansub bo`lgan turning eng yaxshi vakillari saqlanib qolishi uchun garov bo`lib xizmat qiladi. Kuchsiz hayvonlar, o`z navbatida, to`da ichida o`zlarini nisbatan himoya qilish imkonini beradigan vositalarga egadir (4-rasm). «Bo`ysunish qiyofasi» atalmish alohida bir holatga kirib turish ana shunday vositalar jumlasidan bo`lib, ancha kuchliroq hayvon bilan to`qnashuvda mag`lubiyatga uchrayotgan hayvon o`zining olishuvni davom ettirishga qodir emasligini shunday holat vositasida xabar qiladi.

Masalan, avstriyalik etolog K. Lorents quyidagicha vaziyatni kuzatishga muvaffaq bo`ldi. yosh bo`ri o`zining kuch-quvvatga to`lib ketgannni sezib, to`daning boshlig`iga tashlanadi. Lekin katta bo`ri yetakchilikni da'vo qilgan yosh bo`riga tishlarining hali etarli darajada mustahkam emasligini bir pastdayoq ko`rsatib qo`ydi. Yosh bo`ri darhol bo`ysunganlik holatiga kirdi: vahshiyona tusga kirgan raqibining og`zi ostiga bo`ynini qo`ydi, Odatda hayvonlar olishuv paytida bo`ynini muhofaza qiladi. Katta burining hujumkorlik vajohati shu zahotiyoq so`ndi - minglab avlodlar hayoti davomida hosil bo`lgan instinkt o`z ta'sirini ko`rsatdi. Tobelik holatiga kirish odati to`da bo`lib yashaydigan barcha hayvonlarda bor. Maymunlarda bunday holatni bildiradigan qiyofalar aniq ifoda etilgan bo`ladi.

Hayvonlarda kiyofa, suykanish «tili» dan tashqari eshitiladigan signallar «tili» ham bor. Sayroqi qushlarda, delfinlarda, maymunlarda murakkab tovush signali borligi bayon qilib o`tildi. Chiqariladigan tovush hayvonning hissiy holatini aks ettiradi. Shimpanzening ovoz reaktsiyalarini tahlil qilish shuni ko`rsatdiki, maymunning har bir chiqargan tovushi mo`ayyan reflektor faoliyati bilan bog`langandir. Tovushlarning bir necha guruhi: ovqatlanish paytida chiqariladigan tovushlar, mo`ljal olish va mudofaa qilish, tajovuz solish tovushlari, jinsiy funktsiyalarning namoyon bo`lishi bilan bog`liq tovushlar va hokazolar ma'lumdir.

Bitta to`dadagi hayvonlar bir-birining tovush reaktsiyalariga qarab mo`ljal olishadi. Tovush reaktsiyalari to`daning vakillariga o`z sheriklarining qanday holatdaligi haqida qo`shimcha axborot etkazadi va shu yo`sinda to`daning ichida xatti-harakatni yo`naltirib turadi. Ochiqqan hayvonlar biron-bir narsani iste'mol qilayotgan hayvonlarning ishtahali tovushi eshitilgan tomonga qarab siljishadi; sog`lom va to`q hayvonlar o`z qabiladoshlarining o`yini yoki mo`ljal olishga oid tovushlariga e'tibor beradi va shu tarzda harakat qilish yoki xatti-harakatini yo`naltirish ehtiyojini qondiradi; urushayotgan maymunlarning ovozini eshitishi bilan serka maymun to`dada tartib o`rnatish uchun chopib keladi; xavf-xatar haqidagi vahimali signal butun to`dani bezovtalantirib qo`yadi. Hayvonlarning «tili» da faqat bitta narsa etishmaydi - hayvonlarning «tili» odamlarning tilidan farqli o`laroq, tajribani ifoda etish vositasi bo`lib xizmat qila olmaydi. Shuning uchun ham biron bir alohida buyuk jonzot vakili o`zining individual tajribasida anchagina oson ovqat topishning bir qator usullarini topdi deb taxmin qilganimizda ham, u o`z tajribasini hayvonlar ixtiyoridagi «til» da mavjud bo`lgan vositalar bilan (hatto unda shunday ehtiyoj paydo bo`lgan taqdirda ham) ifodalashga qodir emas.

Adabiyotlar

Engels F. Maymunning odamga aylanish protsessida mehnatning roli,- Engels F Tabiat dialektikasi. T., «O`zbekiston», 1983.

Виготский Л. С. Проблемы развития психики.—Собр. соч., 3-том. М., Педагогика, 1983.

Ладыгина-Котс Н. Н. Развитне психики в процессе эволюции организмов. М., Наука, 1968.

Леонтьев А. Н. Избранные психологические произведения, 1-том, М., Педагогика, 1983.

Спиркин А. Г. Сознание и самосознание. М., Политиздат, 1972.

Хрестоматия по психологии. М, Просвещение, 1977, 84, 113-betlar.

5-ma'ruza. Psixikaning muhitga va a'zolarning tuzilishiga bog`liqligi

Reja:

1. Psixika va muhit
2. Psixika va nerv sistemasining evolyutsiyasi

1. Psixika va muhit

Agar jonli mavjudotlarning xayot kechirish muhiti hamma joyda mutlaqo bir xil bo`lganida, ehtimol, Yer yuzi bir xil turdagi hayvonlar bilan to`lib ketgan bo`lardi. Haqiqatda esa muhit iqlim jihatidan ham, yashash sharoiti jihatidan ham g`oyat rang-barang bo`lib, bu organizmlarning tabaqalanishini taqozo etadi. Yer yuzida bir milliondan ziyodroq turdagi har xil hayvonlar yashaydi. Yer yuzidagi hodisalar juda rang-barang bo`lsa ham, ularning siklli almashinuvi - yillik sikllari, kun va tunning almashinuvi, haroratniig almashinuvi va hokazolar mavjuddir. Barcha jonzot mavjud shart-sharoitlarga moslasha boradi.

Oddiy ta'sirlanuvchanlikdan boshlangan o`z-o`zini boshqarish qobiliyati odamning ijodiy aql-idrokida yuksak darajadagi taraqqiyotiga erishdi.

Aks ettirish usullari qanchalik yuksalgan sari hayvonlarning mazkur turi muhitning bevosita ta'siridan shunchalik ozod bo`la boradi. Muhitning o`zgarishiga tropizmlar bilan munosabat bildiradigai bir hujayrali organizm muhit shart-sharoitlariga tamomila bog`liq bo`ladi.

Misol uchun, jumladan, muhitning harorati o`zgarishi bilan organizmdagi kimyoviy reaktsiyalarning tezligi ham o`zgara boshlaydi: harorat ko`tarilishi bilan reaktsiyaning tezligi oshadi, pasaygan taqdirda pasayadi, harorat xaddan ziyod oshib yoki pasayib ketganda esa bir hujayrali organizm halok bo`ladi. Agar juda past haroratli sharoitga joylashtirilsa, shubhasiz, boshqa har qanday jonli organizm ham shunday qismatga uchraydi. Lekin mana shunday sharoitlarda yuksak taraqqiy etgan hayvonlarning xatti-harakatlarida jiddiy tafovut bo`ladi.

Yashash sharoitlarining keskin o`zgarishi hayvonlarni joyini o`zgartirishga majbur etishi azaldan ma'lum. Hayvonlarning bu xildagi xatti-harakatlari sharoitga ko`proq yoki kamroq darajada mos bo`lishi mumkin. Cho`l toshbaqasi va mayda kemiruvchnlar issiq kunlar boshlanishi va qishki sovuq tushishi oldidan o`zlarining normal hayot kechirishlari uchun zarur shart-sharoitlarga ancha mos keladigan harorat saqlanadigan chuqur in qazib, ur tagiga kirib ketadi. Bu o`rinda instinktlar harakat qiladi. Fil o`ziga suv sepa boshlaydi, qalin soyaga yashirinadi, maymun ham issiqdan yaxshi saqlanishi uchun imkon beradigan joyni tanlashga va tayyorlashga urinadi. Bu o`rinda instinktlardan tashqari hayvonlar individual xayot kechirish jarayonida orttirgan tajriba - shartli bog`lanishlar ta'sir qiladi.

Shunday qilib, hayvonlar muhitga bevosita bog`liqlikdan sekin-asta qutila boradi. Lekin jonli mavjudotlar rivojlanishning har qanday darajasida ham bunday bog`liqlikdan hech qachon batamom qutila olmaydi. Muhit – jonli organizmning hayot kechirish shart-sharoiti, jonli mavjudotlar hayot kechirishining bosh omili, boshqachasiga aytganda, jonli organizmlarning hayot kechirishi muhitning shart-sharoitlari bilan aniq belgilab qo`yilgandir (sababli bog`liqliqdir).

2. Psixika va nerv sistemasining evolyutsiyasi

Aks ettirishning bir-biriga o`xshashligi eng avvalo sezgi a'zolari va nerv sistemasining tuzilishiga bog`liqdir. Retseptor muayyan turdagi qo`zg`atuvchilarga qanchalik nafis javob qilsa, reaktsiya ham shunchalik bir-biriga o`xshash bo`ladi. Bunda ma'lum darajada to`g`ridan-to`g`ri bog`lanish bor. Masalan, ko`rish retseptori quyoshning tarkoq nurini aks ettirishga moslashuv munosabati bilan rivojlandi.

Xuddi oddiy ko`p hujayrali kovakichaklilarda bo`lgani kabi bir hujayralilarda ham yorug`likka faqat umumiy reaktsiyani - fototropizmni kuzatish mumkin. Yer chuvalchangida uning epidermisida joylashgan yorug`likni sezuvchi hujayralar mavjuddir. Bu hujayralar yorug`likning bor yo yo`qligini qayd etish qobiliyatiga egadir. Mollyuskaning «likopchasida» uning tanasiga botgan holda bamisoli qopchiq singari yoyilgan yorug`likni sezuvchi bir guruh xujayralar uchraydi. Ko`rish organining bunday tarzda joylashuvi hayvonga yorug`likning faqat bor yo yo`qligini emas, balki uning qaysi tomondan tushayotganini ham payqash imkonini beradi. Hasharotlarda ko`zning faset tarzida tuzilishi mayda narsalarning shaklini ajrata olishi uchun imkoniyat tug`diradi. Umurtqali hayvonlarning ko`pchiligida ko`z yorug`likni sindiruvchi maxsus linza (ko`z gavhari) ga egadir. Shu tufayli predmetning tasvirini aniq ko`rish imkoni tug`iladi.

Retseptorlarping rivojlanshii ma'lum darajada muayyan turdagi nerv sistemasining rivojlanishi bilan birga boradi. Sezgi a'zolari va nerv sistemasining rivojlanish darajasi muqarrar ravishda psixik aks ettirishning darajasi va shaklini belgilab beradi. Rivojlanishning quyi bosqichida (masalan, kovakichaklilarda) nerv sistemasi butun organizm bo`ylab tarqalgan va o`zaro chatishib ketgan o`simtalari bo`lgan nerv xujayralaridan tarkib topgan nervdan iborat bo`ladi. Bu tursimon nerv sistemasidir. To`rsimon nerv sistemasiga ega bo`lgan hayvonlar, yuqorida aytib o`tilganidek, asosan tropizmlar orqali reaktsiya bildiradi. Ularda muvaqqat bog`lanishlar qiyinchilik bilan hosil bo`ladi va yaxshi saqlanmaydi.

Rivojlanishning keyingi bosqichida nerv sistemasi sifat jihatidan bir qator o`zgarishlarga uchraydi. Nerv hujayralari faqat to`rlar emas, balki tugunlar (gangliylar) ham hosil kiladi. Tugunli yoki gangliyli nerv sistemasi eng ko`p miqdordagi qo`zg`atuvchilarni qabul qilish va qayta ishlash imkonini beradi. Negaki, sezuvchan nerv hujayralari ko`zg`atuvchilarga bevosita yaqin joylashgan bo`ladi va ko`zg`alishni tahlil etish sifatini o`zgartirib yuboradi. Ganglioz nerv sistemasiga ega bo`lgan hayvonlarda etakchi gangliy nerv sistemasinnng boshqa barcha tugunlariga qaraganda ancha murakkab tuzilishga ega. Chuvalchanglardagi ganglioz nerv sistemasi ancha soddaroqdir: ulardagi segment gangllylar o`zlarining aks ettirish imkoniyatlariga ko`ra bir xil va shunga binoan yanada sezgirlyak bilan aks ettirishga imkon bermaydi. Faqat asosiy gangliy o`z funktsiyalari va bog`lanishlari jihatidan bir xil bo`lmagan nerv xujayralari ko`shiluvidan tarkib topganligi uchun ancha rang-barang ko`zg`atuvchilarni qabul qiladi va qayta ishlaydi.

Tugunli nerv sistemasining murakkablashuvi yuksak taraqqiy etgan umurtqasiz hayvonlarda - hasharotlarda kuzatiladi. Tananing har bir qismida gangliylar qo`shilib, bir-biri bilan nerv yo`llari orqali bog`langan nerv markazlarini hosil qiladi. Ayniqsa bosh qismida joylashgan markaz murakkab tuzilgandir. Xasharotlarning nerv sistemasi muhit bilan etarli darajada murakkab tuzilishga ega bo`lgan retseptorlarning yordamida bog`lanadi. Ganglioz nerv sistemasiga ega bo`lgan hayvonlar tashqi muxitning ta'sirini ham tug`ma, ham individual tajribada orttirilgan reflekslarni ishlatgan holda aks ettiradi. Biroq bu o`rinda ko`p sonli tug`ma reflekslar ustunlik qiladi.

Nerv sistemasining oliy tipi - naychasimon nerv sistemasidir. U naychasimon qilib birlashgan nerv hujayralaridan tashkil topgan bo`ladi (xordalilarda). Umurtqalilarda evolyutsiya jarayonida orqa va bosh miya - markaziy nerv sistemasi paydo bo`ladi va rivojlanadi. Hayvonlarda nerv sistemasi rivojlanishi bilan bir vaqtda sezgi organlari ravojlana va takomillasha boradi. Nerv sistemasi va retseptorlarning rivojlanishiga muvofiq ravishda psixik aks ettirish shakllari ham murakkablashadi. Hayvonlarda yangi psixik funktsiyalar paydo bo`ladi va evolyutsiyaning ancha quyi bosqichida paydo bo`lganlari (sezgilar, idrok, xotira va nihoyat, tafakkur) takomillashadi. Nerv sistemasi qanchalik-murakkab bo`lsa, psixika ham shunchalik mukammal bo`ladi. Umurtqalilar evolyutsiyasida bosh miyaning rivojlanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Bosh miyada turli xildagi funktsiyalarni o`z zimmasiga oladigan alohida cheklangan markazlar hosil bo`ladi. Bu markazlar maxsus nerv birikmalari — assotsiativ zonalar orqali o`zaro bog`lanadi. Hayvon qanchalik yuksak taraqqiy etgan bo`lsa, bu zonalar ham shunchalik mukammal bo`ladi. Markaziy nerv sistemasiga ega bo`lgan hayvonlar muhitning ta'sirini ancha o`xshash holda aks ettiradi. Bunda yuksak darajada uyushgan hayvonlar nerv faoliyatining asosiy fondini shartli reflekslar yig`indisi tashkil etadi.

Shunday kilib, psixikaning evolyutsiyasi retseptorlar funktsiyalari shakllarining, shuningdek signal faoliyatining murakkablashuvida ifodalanadi.

Hayvonlarda tana tuzilishining, nerv snstemasi va sezgi organlarining progressiv rivojlanishi aks ettirish shakllarining mikdor va sifat jihatidan o`zgarishi tufayli jonli organizmning muhit bilan tobora murakkab va ko`p tomonlama bog`lanishlari hosil bo`lishini taqozo etadi. Psixik funktsiyalar hayvonning hayot kechiradigan muhitiga va o`zining tuzilishi xususiyatlariga bog`liq holda rivojlanadi. Jumladan, ko`rish retseptorining tuzilishi hayvonning hayot kechiradigan muhitda ko`zi yordamida yaxshiroq mo`ljal olishga imkon beradi. Chuqur suv tagida yashaydigan baliqlarning ko`zlari oz miqdordagi yorug`likning qo`zg`alishlarini, ilg`aydi. Ular ko`zining to`r pardasida yuksak darajada sezuvchan maxsus a'zolar - tayoqchalar bo`ladi. Ko`z. qorachig`i va gavhari nisbatan kattadir. Yer ustida yashaydigan yuksak taraqqiy etgan hayvonlarning ko`zi shunday tuzilganki, muguz pardasi va gavhari ultrabinafsha .nurlarni to`r pardaga qadar o`tkazmaydi. Kunduzi va tunda hayot kechiradigan hayvonlarning ko`zi ham yashash sharoitiga bog`liq maxsus a'zoga egadir. Ko`zlarning har xil tuzilishda bo`lishining o`zi ham muayyan muhit sharoitlarida qo`zg`atuvchilarning ancha o`xshash tarzda aks ettirilishini ta'minlaydi.

Biroq bir xildagi muhit sharoitlarida hayvonlarda faqat bir tipdagi retseptorlar rivojlanadi va etakchi bo`lib qoladi, deb o`ylash yaramaydi. Hayvonlarda sezuvchanlikning filogenetik rivojlanishi ular uchun qaysi bir qo`zg`atuvchi biologik jihatdan ko`proq ahamiyatga ega ekanligiga bog`liqdir. Urgimchak bir xildagi muhitning o`zida tebranishga qarab mo`ljal oladi; qurbaqa - kishi eshitadigan shitirlashga, ko`rshapalak - ultratovushlarga, it ko`proq hidga (barcha hidlarga ham emas, balki organik

kislotalar hidiga, hid sezgisi pasaygan kezlarda - xushbuy narsalar - gullar, o`tlar hidiga) qarab mo`ljal oladi va xokazo.

Psixikaning evolyutsiyasi bir tekisda yuz bermaydi. U bir-biridan farq qiladigan yo`nalishda bo`ladi. Bir xildagi muhitning o`zida aks ettirish darajasiga ko`ra turlicha hayvonlar yoki aksincha, hayot kechirishning turli xil sharoitlarida aks ettirish darajasiga ko`ra bir-biriga yaqin bo`lgan har xil turga mansub hayvonlar yashaydi. Masalan delfinlar, fillar va ayiqlar shu jihatdan bir xilda yuksak darajada rivojlangan hayvonlar deb xisoblanadi.

Muhit allaqanday doimiy narsa emas. Har qanday materiya singari muhit evolyutsiyalashadi. Ushbu evolyutsiyalashuvchi muhitga unda yashaydigan hayvonot turi moslashadi. Shunday ham bo`lishi mumkinki, hayvonlar turidan biri uchun, afsus, muhit tubdan o`zgarib, bu psixik funktsiyalarining rivojlanishiga ta'sir qiladi, ayni chog`da esa bu o`zgarish boshqa hayvonlarning funktsiyasi rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko`rsatmaydi. Jumladan, yashash sharoitining tubdan o`zgarganligi ibtidoiy odamsimon maymunlarning xatti-harakatlari sifat jihatidan qayta o`zgarishiga sabab bo`ldiki, bu oqibat natijada Yerda odamning paydo bo`lishiga olib keldi.

Adabiyotlar

Engels F. Maymunning odamga aylanish protsessida mehnatning roli,- Engels F Tabiat dialektikasi. T., «O`zbekiston», 1983.

Виготский Л. С. Проблемы развития психики.—Собр. соч., 3-том. М., Педагогика, 1983.

Ладыгина-Котс Н. Н. Развитне психики в процессе эволюции организмов. М., Наука, 1968.

Леонтьев А. Н. Избранные психологические произведения, 1-том, М., Педагогика, 1983.

Спиркин А. Г. Сознание и самосознание. М., Политиздат, 1972.

Хрестоматия по психологии. М, Просвещение, 1977, 84, 113-betlar.

6-ma'ruza. Mehnat faoliyati jarayonida ongning paydo bo`lishi va uning ijtimoiy-tarixiy mohiyati

Reja:

1. Hayvonlar va odam psixikasi o`rtasidagi farqning mohiyati
2. Mehnat faoliyati – ijtimoiy munosabatlar rivojlanishining shart-sharoiti va natijasidir

1. Hayvonlar va odam psixikasi o`rtasidagi farqlarning mohiyati

Shubha yo`qki, odam psixikasi bilan eng yuksak taraqqiy etgan hayvonning psixikasi o`rtasida juda katta tafovut mavjuddir.

Masalan, hayvonlarning «tili» bilan odamning tilini bir-biriga taqqoslab bo`lmaydi. Hayvon o`z qabiladoshlariga muayyan, bevosita vaziyat bilan cheklangan hodisalar haqida faqat xabar berishigina mumkin bo`lgan bir paytda kishi til vositasida boshqa odamlarga o`tmish, hozirgi payt va kelajak haqida axborot berishi, ularga sotsial tajribani yetkazishi mumkin.

Insoniyat tarixida til tufayli aks ettirish imkoniyatlarining qayta qurilishi yuz berdi: borlik kishi miyasida yanada ravshan aks etadi. Alohida har bir kishi til tufayli jamiyatning ko`p asrlik tajribasida orttirilgan tajribadan foydalanadi, u o`zi shaxsan hech qachon uchratmagan hodisalar haqidagi bilimlarga ega bo`lishi mumkin. Bundan tashqari, til kishiga ko`plab hissiy taassurotlarning mazmuni to`g`risida o`ziga hisob berish imkoniyatini yaratdi.

Hayvonlarning «tili» bilan odamning tili o`rtasidagi tafovut tafakkurdagi tafovutni ham belgilaydi. Bu shu narsa bilan izohlanadiki, alohida har bir psixik funktsiya boshqa funktsiyalarnnng o`zaro ta'sirida rivojlanadi.

Tadqiqotchilar o`tkazgan ko`plab eksperimentlar yuksak taraqqiy etgan hayvonlarga faqat amaliy tafakkur (Pavlovning iborasi bilan aytganda, «ko`l» tafakkuri) xosligini ko`rsatdi. Maymun faqat tusmollab mo`ljal olish jarayonidagina u yoki bu vaziyat keltirib chiqargan vazifani xal etishga va xatto «qurol» ham yasashga qodirdir. Hayvonlarning psixikasini o`rgangan birorta ham tadqiqotchi maymunlarda tafakkurning mavhumlashgan yo`sinda yuz berganini xali kuzatgan emas. Hayvon faqat ko`rinib turgan tarzida idrok etiladigan vaziyat chegaralaridagina harakat qilishi mumkin, u bundan tashqariga chiqishi, shu vaziyatni mavhumlashgan holda aks ettirib, mavhum printsipni o`zlashtirishi mumkin emas, Hayvon - bevosita idrok qilinadigan vaziyatning qulidir.

Kishining xulq-atvori mazkur konkret vaziyatdan abstraktsiyalashashga (mavhumlashishga) va ushbu vaziyat munosabati bilan kelib chiqishi mumkin bo`lgan oqibatlarni oldinroq payqash layoqatiga ko`ra ajralib turadi. Jumladan, dengizchilar kemadagi kichikkina teshikni shoshilinch tarzda tuzata boshlaydilar, uchuvchi esa yonilg`i ozayib qolishi bilanoq yaqinroqdagi aerodromni izlay boshlaydi. Odamlar muayyan vaziyatning sira ham quli emas, ular kelajakni ko`ra bilishga qodirdirlar.

Shunday qilib, hayvonlarning konkret, amaliy tafakkuri ularni muayyan vaziyatdan bevosita ta'sirotga bo`ysundiradi, odamning mavhumlashgan tarzda tafakkur yuritishga bo`lgan qobiliyati uning ushbu muayyan vaziyatga bevosita bog`liqligini bartaraf etadi. Kishi muhitning bevosita ta'sirinigina emas, balki uni xali kutayotgan ta'sirlarni ham qaytarishga qodirdir. Kishi xususan o`zi anglagan zaruratga ko`ra - ongli xatti-harakat qilish qobiliyatiga ega. Bu - inson psixikasining hayvon psixikasidan eng birinchi muhim farqidir.

Odamnnng hayvondan ikkinchi farqi uning qurollarni yaratishga va saqlashga layoqatli ekanligidir. Hayvon qurolni konkret ko`rinib va ta'sir etib turgan vaziyatda yaratadi. Hayvon konkret vaziyatdan tashqarida qurolni hech qachon qurol sifatida ajratmaydi, uni biron naf keltiradi, degan maqsad bilan saqlab qo`ymaydi. Muayyan vaziyatda qurol o`z rolini bajarib bo`lganidan keyin u maymun uchun qurol sifatida mavjud bo`lmay qoladi. Jumladan, agar maymun hozirgina tayoqdan mevani o`ziga tortib olish uchun foydalangan bo`lsa, biroz vaqt o`tgach, hayvon uni g`ajishi yoki boshqa bir maymunning uni g`ajiyotganiga bamaylixotir qarab o`tiraverishi mumkin. Shu tariqa hayvonlar doimiy narsalar olamida yashashmaydi. Narsa faqat konkret vaziyatda, faoliyat jarayonidagina muayyan ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, hayvonlarning qurolsozlik faoliyati hech qachon kollektiv tarzda ruy bermaydi, maymun, nari borsa, o`z qabiladoshining faoliyatini kuzatib boradi, lekin ular hech qachon birgalikda, bir-biriga yordam bergan holda harakat qilishmaydi.

«Faoliyat» tushunchasi hayvonlarga tatbiqan faqat shartli ravishda, «hayotiy faoliyat» ma'nosidagina qo`llanilishi mumkin, xolos.

Odam hayvondan farqli o`laroq, oldindan, o`ylangan rejaga binoan qurol yaratadi, uni belgilangan maqsadda foydalanadi va saqlaydi. Inson nisbatan doimiy narsalar olamida yashaydi. Kishi quroldan boshqa odamlar bilan birgalikda foydalanadi, biridan quroldan foydalanish tajribasini o`zlashtirsa, boshqa odamlar bilan uni baham ko`radi.

Inson psixik faoliyatinnng ajralib turadigan uchinchi belgisi — ijtimoiy tajribaning biridan ikkinchisiga o`tkazilib turishidir. Hayvon ham, odam ham qo`zg`atuvchining muayyan turiga, ajdodlarning instinktiv xatti-harakatlari tarzidagi ma'lum bir tajribaga egadir. Unisi ham, bunisi ham hayot in'om etgan turlp vaziyatlarda shaxsiy tajriba orttiradi. Lekin faqat odamgina ijtimoiy tajribani o`zlashtiradi. Alohida bir kishining xulq-atvorida ijtimoiy tajriba asosiy o`rinni egallaydi. Kishi psixikasini ko`proq darajada u egallab oladigan ijtimoiy tajriba rivojlantiradi. Bola tug`ilgan chog`idanoq qurollarni ishlatish yo`llarini, munosabat vositalarini egallay boshlaydi. Kishining psixik funktsiyalari alohida sub'ekt tomonidan insoniyatning madaniy rivojlanishi qurollarini egallab olishi tufayli sifat jihatidan o`zgaradi. Kishida oliy, xususan insoniy funktsiyalar (ixtiyoriy xotira, ixtiyoriy diqqat, abstrakt tafakkur) rivojlana boradi.

His-tuyg`ularning rivojlanishida, xuddi abstrakt tafakkurning rivojlanishida bo`lgani kabi, voqealikni ko`proq darajada adekvat (bir xilda) aks ettirish vositasi mujassamlashgandir. Shuning uchun his-tuyg`ulardagi tafovut hayvon bilan inson o`rtasidagi to`rtinchi, juda muhim tafovut hisoblanadi. To`g`ri, odam xam, yuksak tarakkiy etgan hayvon ham atrofida yuz berayotgan narsalarga befarq bo`lib qola olmaydi, albatta. Narsalar va voqelik hodisalari hayvonlarda ham, kishilarda ham nima ta'sir ko`rsatayotgan bo`lsa, shunga nisbatan munosabatning ma'lum bir turini - ijobiy yoki salbiy hissiyotni qo`zg`atishi mumkin. Biroq faqat odamdagina boshqa kishining g`am-g`ussasini va quvonchini birgalikda baham ko`rishdek etuk qobiliyat mavjud, faqat odamgina tabiat manzaralaridan zavqlanishi yoki biron bir hayotiy faktni anglab yetgan taqdirda aql-idrokli his-tuyg`uni boshdan kechirishi mumkin.

Inson psixikasining hayvon psixikasidan eng muhim farqi ularning rivojlanish shart-sharoitlarida ko`rinadi. Agar hayvonot dunyosnning rivojlanishi davomida psixikaning taraqqiyoti biologik evolyutsiya qonunlariga binoan ro`y bergan bo`lsa, xususan inson psixikasining, kishi ongining rivojlanishi ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot qonunlariga bo`ysunadi. Insoniyat tajribasini o`zlashtirmasdan, o`ziga o`xshaydiganlar bilan muloqotda bo`lmasdan turib, rivojlangan, xususan insoniy his-tuyg`ular bo`lmaydi, ixtiyoriy diqkat va xotira qobiliyati, abstrakt tafakkur yuritish qobiliyati rivojlanmaydi, kishining shaxsi shakllanmaydi. Odam bolalarini hayvonlar orasida tarbiyalash hollari shundan dalolat beradi.

Chunonchi, barcha bolalar-mauglilar hayvonlarga xos sodda reaktsiyalarni namoyon qilishdi va ularda odamni hayvondan farqlaydigan xususiyatlarni topib bo`lmaydi. Maymun bolasi taqdir taqozosi bilan yakka o`zi to`dadan ajralib qolgan taqdirda ham baribir o`zini maymun sifatida namoyon qilgan bir paytda, odam ham faqat uning rivojlanishi odamlar orasida yuz bergan taqdirdagina odam bo`lib etishadi.

Inson psixikasi materiya evolyutsiyasining butun jarayoni davomida tayyorgarlikdan o`tdi. Psixika rivojlanishining tahlili bizga ong bo`lishining biologik shart-sharoitlari haqida gapirishimizga imkon beradi. Odamning ajdodi, shak-shubhasiz, konkret xatti-harakat tafakkuriga layoqatli bo`lgan, ko`plab bog`lanishlar hosil qila olgan. Odamdan oldingi mavjudot qo`lga o`xshagan oyoqlari bo`lgani holda oddiy qurollarni yasab va ulardan konkret vaziyatlarda foydalana olgan. Bularning hammasini biz hozirgi odamsimon maymunlarda ham ko`rishimiz mumkin.

Lekin ongni bevosita hayvonlarnnng evolyutsiyasidan keltirib chiqarish mumkin emas: inson, - ijtimoiy munosabatlar mahsulidir. Ijtimoiy munosabatlarning biologik shart-sharoiti to`dadan iborat bo`lgan edi. Odamning ajdodlari to`dalashib yashardi, bu barcha zotlarga dushmandan o`zini ancha puxta himoya qilish, bir-biriga o`zaro yordam ko`rsatish imkonini berardi.

Maymunning odamga, to`daning jamiyatga aylanishiga ta'sir ko`rsatgan omil – bu mehnat faoliyati, ya'ni qurollarni birgalikda yaratish va qo`llanish jarayonida odamlar tomonidan amalga oshiriladigan tarzdagi faoliyat bo`ldi.

2. Mehnat faoliyati – ijtimoiy munosabatlar rivojlanishining shart-sharoiti va natijasidir.

Rivoj topayotgan mehnat faoliyati ijtimoiy munosabatlarning, jamiyatning rivojlanishiga, ijtimoiy munosabatlarning rivoji esa mehnat faoliyatining takomillashuviga ta'sir ko`rsatdi. Odamning ajdodi taraqqiyotidagi bu siljish yashash shart-sharoitlari keskin o`zgarganligi oqibatida ro`y berdi. Muhitning halokatli tarzdagi o`zgarishi ehtiyojlarni qondirishda katta qiyinchiliklar tug`dirdi - oziq-ovqatni osongina topish imkoniyatlari kamayib, iqlim yomonlashib ketdi. Odamning ajdodlari yo yo`q bo`lib ketishi, yo o`z xatti-harakatini sifat jihatidan o`zgartirishi lozim edi. Odamning maymunsimon ajdodlari zarurat tug`ilishi bilan birgalikda muboshir mehnat harakatlarini bajarishga majbur bo`ldi. F. Engels ta'kidlaganidek, «daraxtlarga tirmashib yashaydigan maymunlar galasidan kishilik jamiyati paydo bo`lguncha, ehtimol Yer tarixida odamlar turmushidagi bir sekunddan ortiq ahamiyatga ega bo`lmagan yuz ming yillar o`tgandir».

Odam ajdodlarining to`da ichidagi instinktiv muomalasi asta-sekin «ishlab chiqarish» faoliyati negizidagi muomala bilan almasha bordi. To`daning a'zolari o`rtasidagi munosabatlarning o`zgarishi birgalikdagi faoliyat, faoliyat mahsulini o`zaro ayirboshlash - to`daning jamiyatga aylanishiga yordam beradi. Shunday qilib, mehnatning paydo bo`lishi va kishilik jamiyatining tuzilishi odamning odamsimon ajdodlarining odamga aylanish sababi bo`lib hisoblanadi.

Mehnatda kishining ongi - aks ettirishining evolyutsion yo`nalishidagi eng oliy shakli-ashyoviy faoliyatning ob'ektiv barqaror xususiyatlarini ajrata olish va shu asosda atrofdagi (reallikni tubdan o`zgartira olish xususiyatiga ega bo`lgan shakli ham rivojlana bordi.

Qurollarni ular keyinchalik naf keltirishni o`ylamasdan tayyorlash, qo`llanish va saqlash - bu harakatlarning hammasi insonni muhitning bevosita ta'siriga bo`ysunishdan ancha xalos qildi. Avloddan avlodga o`ta borgan sari ibtidoiy odamlarning qurollari o`tkir qirrali tosh parchalarining omad yor kelib topilishidan tortib, to kollektiv tarzda tayyorlanib, ixtisoslashganlariga qadar tobora ko`proq murakkab tus ola bordi. Bunday qurollar bilan doimiy ish jarayonlari - sanchish, kesish, chopish jarayonlarnini bajarish odat tusiga kiradi. Aynan shu munosabat bilan odam yashaydigan muhitning hayvon yashaydigan muhitdan sifat jihatidan farqlanish yuz berdi. Yuqorida aytib o`tilganidek, hayvonlar tasodifiy narsalar olamida yashaydi, odam esa o`ziga doimiy narsalar olamini yaratadi. Odamlar yaratgan o`zidan oldingi avlodlar bajargan ish jarayonlari, xatti-harakatlar va faoliyatning moddiy ifodasi hisoblanadi. qurollar orqali bir avlod ikkinchi avlodga ish jarayonlari, xatti-harakatlar, faoliyat tarzida o`z tajribasini yetkazadi.

Mehnat faoliyati davomida odamning diqqat-e'tibori yaratilayotgan qurolga va, binobarin, xususan o`z faoliyatiga qaratilgan bo`ladi. Alohida bir kishining faoliyati butun jamiyatning faoliyatiga qo`shilgan bo`lib, shu boisdan ham kishi faoliyati jamiyat

ehtiyojlarini qondirishga yo`naltiriladi. Tarkib topgan sharoitlarda kishining o`z faoliyatiga tanqidiy nuqtai nazardan munosabatda bo`lishi zarurligi namoyon bo`ladi. Kishining faoliyati ongli faoliyatga aylanadi.

Ijtimoiy taraqqiyotning ilk bosqichlarida odamlar tafakkurining rivojlanishi odamlar ijtimoiy praktikasining xali past darajadaligi munosabati bilan cheklangan xarakterda bo`ladi, qurollar ishlab chiqarish qanchalik yuqori darajada bo`lsa, aks ettirish darajasi ham shunga muvofiq ravishda yuqori bo`ladi. qurollar ishlab chiqarishning yuksak darajasiga erishilgan sharoitda qurol yasashga oid yaxlit faoliyat qator bo`g`inlarga ajratiladi, har bir bo`g`in jamiyatning turli a'zolari tomonidan bajarnlishi mumkin. Operatsiyalarning taqsimlanishi pirovard maqsadni - ovqatning topilishini yanada orqaga surib yuboradi. Bu qonuniyatni faqat abstrakt tafakkurga ega bo`lgan odamgina anglab etishi mumkin. Demak, mehnatning ijtimoiy tashkil etilishi jarayonida qurol ishlab chikarish darajasining yuksalishi va ongli faoliyatni shakllantirishning eng muhim sharti bo`lib hisoblanadi.

Tabiatga ta'sir ko`rsatgan va uni o`zgartirgan holda odam shu bilan bir qatorda o`zining xususiy mohiyatini ham o`zgartiradi. «Mehnat, - degan edi Marks, - avvalo odam bilan tabiat o`rtasida yuz beradigan protsessdir; odam bu protsessda o`z faoliyati orqali o`zi bilan tabiat o`rtasida moddalar ayirboshlanishiga vositachilik qiladi, bu ayrboshlashnn tartibga soladi va nazorat qiladi. Odamning o`zi, tabiat kuchi sifatida, tabiat moddasiga qarama-qarshi turadi. Odam tabiat moddasini o`z hayoti uchun yaroqli formada o`zlashtirib olish uchun o`z tanasidagi tabiiy kuchlarni: qo`l va oyoqlarini, bosh va barmoqlarani harakatga keltiradi. Shu harakat vositasi bilan tashqi tabiatga ta'sir kilib va uni o`zgartirib, odam, shu bilan birga, o`z tabiatini ham o`zgartiradi. U o`z tabiatining mudroq kuchlarnni taraqkiy ettirib, bu kuchlarning faoliyatini ham o`z hukmiga bo`ysundiradi».

Mehnatning ta'siri ostida qo`lning yangi funktsiyalari qaror topdi: qo`l harakatlar qilishda g`oyat darajada epchillik kashf etdi, anatomik tuzilish sekin-asta takomillasha borgan sari elka va bilakning o`zaro nisbati o`zgara bordi, barcha bo`g`imlarning, ayniqsa qo`l barmoqlarinnng harakatchanligi oshdi. Biroq qo`l faqat ushlaydigan qurol sifatida emas, balki ob'ektiv voqelikni bilish organi sifatida ham rivojlandi. Mehnat faoliyatn shunga olib keldiki, faol harakat qiluvchi qo`l sekin-asta faol (paypaslab) sezishga ixtisoslashgan organga aylana boshladi. Paypaslab sezish - olamni bilishning odamga xos bo`lgan alohida xususiyatdir. qo`lning barmoqlari,- deb yozgan I. M. Sechenov,—«nafis sezgi organidir, va bu organ qo`lda na faqat qisqarishga, uzayishga va turli xil yo`nalishda bir joydan ikkinchisiga qarab ko`chishga, balki shu xildagi har bir ko`chishni muayyan tarzda his-etishga ham qodir bo`lgan asosiy ildizga o`rnatilgandek tuyuladi». qo`l faqatgina kaft bilan barmoq uchlari surkanishni va ezilishni tananing boshqa qismlarn (masalan, orqa, elka, boldir) ga qaraganda ancha kuchli sezuvchanligi sababli emas, balki mehnat jarayonida shakllangan va narsalarga qaraganda ta'sir ko`rsatishga muchal bo`la turib, faol sezishga qodir ekanligi uchun ham sezgi a'zosi hisoblanadi. Shu boisdan ham qo`l bizga moddiy dunyodagi narsalarnnng muhim xossalari haqida qimmatbaho bilimlar beradi.

Shunday qilib, kishining qo`llari uning ajdodlari oyoq-qo`llariga mutlaqo xos bo`lmagan turli xildagi funktsiyalarni bajarish qobiliyatiga ega bo`ldi. Xuddi shuning uchun ham F. Engels qo`lning faqat mehnat qilish muchali emas, balki mehnatning mahsuli ham ekanligi xaqida gapirgan edi.

Q`lning rivojlanishi butun organizmning rivojlanishi bilan o`zaro bog`liq holda davom etdi. qo`lning ish muchali sifatidagi ixtisoslashuvi to`g`ri yurishning rivojlanishiga yordam berdi. Ishlaydigan qo`llarning harakati doimo ko`z bilan nazorat qilib turildi. Olamni bilish jarayonida, mehnat faoliyati jarayonida ko`rish va sezish organlari o`rtasida ko`plab bog`lanishlar hosil bo`ladi va buning natijasida qo`zg`atuvchining ta'sir etish samarasi o`zgaradi - u kishi tomonidan ancha chuqur va ancha o`xshash tarzda anglab olinadi.

Qo`lning faoliyati miyaning rivojlanishiga ayniqsa katta ta'sir ko`rsatdi. Rivojlanayotgan ixtisoslashgan muchal tarzidagi qo`lning bosh miyadagi vakolati ham shakllangan bo`lishi lozim edi. Bu miyaning faqat hajmi ortishiga emas, balki uning tuzilishi murakkablashuviga ham sabab bo`ldi.

Mehnatning paydo bo`lishi va rivojlanishi kishining ovqatga, boshpanaga va shu kabilarga bo`lgan ehtiyojlarinnng beqiyos darajada muvaffaqiyatli tarzda qondirilishiga olib keldi. Lekin odamlarning ijtimoiy munosabatlari biologik ehtiyojlarni sifat jihatidan o`zgartirib yubordi va yangi, xususan, insoniy ehtiyojlarni keltirib chiqardi. Mehnat mahsulotlarining rivojlanishi mehnat mahsulotlariga ehtiyojni yaratdi.

Shunday qilib, mehnat kishilik jamiyati taraqqiyotiga, insoniy ehtiyojlarnnng shakllanishiga, faqat aks ettiruvchi emas, balki dunyoni o`zgartiruvchi inson ongining rivojlanishiga sabab bo`ldi. Odamning evolyutsiyasidagi ana shu barcha hodisalar odamlar o`rtasidagi o`zaro munosabatlar shaklining tubdan o`zgarishiga olib keldi. O`zidan oldingi avlodlar tajribasini keyingi avlodga yetkazish, o`z qabiladoshlariga mehnat harakatlarinn o`rgatish, ayrim harakatlarni ular o`rtasida taqsimlash zarurati odamlarda o`zaro bir-birlari bilan aloqa bog`lash ehtiyojini tug`dirdi. Instinktlar tili bu ehtayojni sira ham qondira olmasdi.

Mehnat jarayonida mehnat bilan birga aloqa bog`lashning kishi tili yordamida amalga oshiriladigan oliy shakli rivoj topdi.

Adabiyotlar

Engels F. Maymunning odamga aylanish protsessida mehnatning roli,- Engels F Tabiat dialektikasi. T., «O`zbekiston», 1983.

Виготский Л. С. Проблемы развития психики.—Собр. соч., 3-том. М., Педагогика, 1983.

Ладыгина-Котс Н. Н. Развитне психики в процессе эволюции организмов. М., Наука, 1968.

Леонтьев А. Н. Избранные психологические произведения, 1-том, М., Педагогика, 1983.

Спиркин А. Г. Сознание и самосознание. М., Политиздат, 1972.

Хрестоматия по психологии. М, Просвещение, 1977, 84, 113-betlar.

7-ma'ruza. Faollik va faoliyat

Reja:

1. Ehtiyojlar faollik manbaidir
2. Ehtiyojlarning turlari
3. Kishi ehtiyojlarining rivojlanishi xususiyatlari
4. Faoliyat va uning maqsadlari haqida tushuncha

1. Ehtiyojlar faollik manbaidir

Tirik mavjudotlarning atrofdagi olam bilan hayotiy ahamiyatga molik bog`lanishlar bo`lishini ta'minlaydigan faoliyati ularga xos yalpi xususiyat hisoblanadi. Faollik - bu tirik mavjudotda «o`z kuchi bilan javob qilish» qobiliyatining borligidir (F. Engels).

Jonli mavjudotni muayyan tarzda va muayyan yo`nalishda harakat qilishga undaydigan ehtiyojlar uning faolligi manbai bo`lib hisoblanadi. Ehtiyoj - jonli mavjudotning hayot kechirishning konkret shart-sharoitlariga uning qaramligini ifoda etuvchi va bu shart-sharoitlarga nisbatan uning faolligini vujudga keltiruvchi holatidir.

Kishining faolligi ehtiyojlarning qondirilishi jarayonida namoyon bo`ladi. Huddi shu o`rinda odamning faolligi shakllari bilan hayvonning xatti-harakatlari faolligi o`rtasidagi tafovutlar ayon bo`ladi. Hayvon o`z ehtiyojlarining ob'ekti bo`lishi hamda unda ularni egallab olish uchun faol intilishga da'vat etishi ehtimoli borligini o`zining tabiiy tuzilishiga (tanasining va a'zolarining tuzilishiga, instinktlarining boyligiga) ko`ra bamisoli oldindan bilishi tufayli faollik bilan harakat qiladi. Hayvonlar ehtiyojining qondirilishi jarayoni ularning muhitga yaxshiroq moslashuvini ta'minlaydi. Masalan, qunduz xatti-harakatining tug`ma ravishda hosil bo`lgan programmasi uning quruvchilik ehtiyojlarini qamrab qolmasdan, balki bu ehtiyojlarni qondirish ob'ektlari: to`g`on quriladigan daraxtlarning navlari, daraxtlarning suvga yaqinligi, «o`rmon kesish» usullari (qunduzlar daraxtning shoxi aynan suvga tushishini mo`ljallab, uning suvga qarshi tomonini kemiradi) va hokazolar ham aks etgan bo`ladi.

Shunday qilib, hayvoning ehtiyojlarida uning faolligi omili sifatida tabiatdan olingan, buyum bevosita ishtirok etadi.

Odamning faolligi va faollikning manbai bo`lgan insoniy ehtiyojlar tamomila boshqacha manzara kasb etadi. Kishining ehtiyoji uni tarbiyalash jarayonida, ya'ni kishilik madaniyati olami bilan yaqinlashtirish jarayonida shakllanadi. Tabiatdan olinadigan buyum shunchaki oddiy o`lja, ya'ni faqat biologik ma'noga ega ovqat tarzidagi buyum bo`lmay qoladi. Odam qurollar yordamida buyumni tarixiy taraqqiyot mahsuli hisoblashish xususiy ehtiyojlariga moslashtirilgan holda tubdan o`zgartirishga qodirdir. Shuning uchun ham kishining o`z ehtiyojlarini qondirish jarayoni ijtimoiy taraqqiyot bilan belgilanadigan. faoliyat shaklini egallashning faol, muayyan maqsadga yo`naltirilgan jarayoni sifatida alohida ajralib turadi.

Ehtiyojlar qondirilishi jarayonida rivojlanib va o`zgarib boradi. Ular hozirgi zamon kishisida uning ajdodlarida bo`lganiga qaraganda boshqachadir, uning avlodlarida ham boshqacha bo`ladi. Kishining ehtiyojlarini to`la-to`kis qondirish uni har tomonlama rivojlantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi, lekin bu yakkayu yagona shart emas, albatta. Buning ustiga kamolotga erishishning boshqa shart-sharoitlari (va birinchi navbatda mehnat) mavjud bo`lmasa, o`z ehtiyojlarini osongina qondirish imkoniyati kishini ko`pincha inqirozga uchratadi. Mehnat bilan yo`naltirilmaydigan tekinxo`rlik ehtiyojlari zid xulq-atvor (ba'zan esa jinoiy xatti-harakat) ning manbai bo`lib qolishi mumkin va ayrim kishilarda shunday bo`lmoqda.

Jamiyat kishining tarbiyasiga nisbatan qo`yayotgan eng muhim talablardan biri mehnat qilish ehtiyojini tarbiyalashdan, iboratdir. Mehnat qilishga bo`lgan ehtiyojning yanada rivojlanishi ishlab chiqarishni rivojlantirish, ko`pgina ishlab chiqarish jarayonlarini maksimal darajada avtomatlashtirish, mehnat sharoitlarinn yaxshilash, ish vaqtini qisqartirish natijasida, faqat ijtimoiy foydali mehnatdagina o`zini namoyon eta oladigan bunyodkorlik kuchlarini jonlantirish oqibatida yuz beradi, deb hisoblash uchun asos bor.

Hozir ba'zan og`ir va zerikarli bo`ladigan mehnat sog`lom, har tomonlama kamolga etgan kishi uchun quvonch va rohat-farog`at manbaiga aylanadi.

«Umumiy ta'lim va hunar maktabini isloh qilishning asosiy yo`nalishlari» da o`quvchilarning mehnat tarbiyasi va kasbga yo`naltirilishi qanday rol o`ynashi ta'kidlangandir.

Ehtiyojlarni tanlash va shakllantirish masalasi tarbiyaning eng muhim vazifalaridan hisoblanadi. A. S. Makarenko buni aniq-ravshan tarzda ta'kidlagan hamda insoniy ehtiyojlarni tanlash va tarbiyalash, ularni kishini yanada barkamollik sari kurashga odatlantiradigan o`sha ma'naviy cho`qqiga ko`tarish lozimligi haqida yozgan edi.

2. Ehtiyojlarning turlari

Kishining ehtiyojlari ham ijtimoiy, ham shaxsiy xarakterga egadir. Bu, birinchidan, hatto shunchaki tor ma'nodagi shaxsiy xarakterga ega bo`lib tuyuladigan (masalan, oziq-ovqat bilan bog`liq) ehtiyojlarni qondirish uchun ham ijtimoiy mehnat taqsimotining mahsulidan (dasturxonga non selektsiyachilar, agronomlar, traktorchilar, kombaynchilar, elevatorlarning xodimlari, tegirmonchilar, novvoylar, sotuvchilar va boshqa shu kabi odamlar mehnat g`ayrat-shijoatlarining moddiylashgan mahsuli sifatida kelib tushadi) foydalanilishida o`z ifodasini topadi. Ikkinchidan, kishi -o`z ehtiyojlarini qondirish uchun mazkur ijtimoiy muhitda tarixan tarkib topgan vositalar va usullardan foydalanadi hamda muayyan shart-sharoitlarga ehtiyoj sezadi. (Bir parcha go`shtni iste'mol qilish uchun hech bo`lmaganda o`sha go`sht tegishli usulda tayyorlangan bo`lishi lozim. Kishida likobcha, pichoq va vilka, ba'zi bir gigiena talablariga rioya qilish va shu kabilarga ehtiyoj tug`iladi.) Va nihoyat, uchinchidan, kishining ko`pgina ehtiyojlari uning tor ma'nodagi shaxsiy talab-ehtiyojlaridan ko`ra ko`proq kishi o`zi mansub bo`lgan va birgalikda mehnat qiladigan jamiyatning, jamoaning, guruhning ehtiyojlarini ifodalaydi - jamoa ehtiyojlari kishining shaxsiy ehtiyojlari tusini kasb etadi.

Bu jarayon quyidagi misolda o`zining yorqin ifodasini topishi mumkin. Yig`ilishda doklad qilishdan iborat jamoat topshirig`iga ega bo`lgan o`quvchi ma'ruzaga uni tayyorlashning o`zi, aytaylik, qiziqarli kitobni o`qishga qaraganda ham jozibaliroq mashg`ulot ekanligi sababli emas, balki u jamoaning talabini bajarishga o`zida juda zo`r ehtiyoj sezayotganligi uchun ham g`oyat puxtalik bilan tayyorgarlik ko`radi.

Ehtiyojlar kelib chiqishiga va predmetiga ko`ra farqlanadi.

Kelib chiqishiga ko`ra ehtiyojlar tabiiy va madaniy bo`lishi mumkin.

Tabiiy ehtiyojlarda kishining faollik kasb etayotgan faoliyati, uning hayoti va uning avlodi hayotini saqlash va ko`llab-quvvatlash uchun zarur bo`lgan shart-sharoitlarga bo`ysunganlik ifodalanadi. Barcha odamlarda ovqatlanishga, suv ichishga, qarama-qarshi jinsning mavjud bo`lishiga, uxlashga, sovuqdan va haddan ziyod issiqdan saqlanishga va hokazolarga tabiiy ehtiyoj bo`ladi. Agar tabiiy ehtiyojlardan qaysi biri biron darajada uzoq vaqt davomida qondirilmasdan qolsa, odam muqarrar ravishda halok bo`ladi yoki sulolasini davom ettirish imkoniyatidan mahrum bo`ladi.

Garchand tabiiy ehtiyojlar (ularning soniga ko`ra) odamning hayvon ajdodlaridagi va ibtidoiy odamlardagi kabi tarzda qolgan bo`lsa ham, lekin ular o`z psixologik mohiyatiga ko`ra hayvonlarning tabiiy ehtiyojlaridan tubdan farq qiladi. Ehtiyojlarni qondirishning usullari va qurollari o`zgaribgina qolmasdan, eng muhimi, ehtiyojlarning o`zi o`zgarib bormoqda, endilikda hozirgi zamon kishisi uni miloddan oldingi ajdodlarga qaraganda boshqacha tarzda his etmoqda. «Ochlik bu ochlik demakdir, lekin pishirilgan

go`shtni pichoq va vilka yordamida iste'mol qilish orqali qondiriladigan ochlikka nisbatan xom go`shtni qo`llar, tirnoqlar va tishlar yordamida yamlab yutiladigan ochlik boshqacha tarzdagi ochlikdir». Shunday qilib, kishining tabiiy ehtiyojlari ijtimoiy-tarixiy xarakterga egadir.

Madaniy ehtiyojlarda odamning faol faoliyati insoniyat madaniyatining mahsuliga bog`liq ekanligi ifodalanadi; uning ildizlari butunlay kishilik tarixining sarhadlariga borib taqaladi. U yo bu xilda tarkib topgan madaniyat sharoitlarida biron-bir tabiiy ehtiyojni qondirish vositasi bo`lib xizmat qiladigan narsalar (vilka va qoshiq, ovqatni eyish uchun ishlatiladigan cho`plar) ham, shuningdek boshqa odamlar bilan mehnat va madaniy munosabat bog`lash uchun, kishining murakkab va rang-barang ijtimony hayot kechirishi uchun zarur bo`lgan narsalar ham madaniy ehtiyojlar ob'ekti hisoblanadi. Turli iqtisodiy va ijtimoiy tuzum sharoitida kishida uning tarbiyasiga va xulq-atvorning keng yoyilgan hamda udum bo`lgan odatlari va shakllarini o`zlashtirishiga bog`liq holda turli xildagi madaniy ehtiyojlar tug`iladi. Agar kishining madaniy ehtiyojlari qondirilmasa, u halok bo`lmaydi (tabiiy ehtiyojlari qondirilmagan sharoitda ana shunaqa bo`lishi mumkin edi), lekin undagi odamiylik sifatlari jiddiy zararlanadi.

Madaniy ehtiyojlar o`zining darajasiga ko`ra, kishiga nisbatan jamiyat tomonidan qo`yilayotgan talablar bilan bog`liqligiga ko`ra jiddiy farqlanadi. Bir yosh kishining mazmuniga ko`ra qiziqarli va sermazmun kitobni topishdan iborat ehtiyoji bilan boshqa birovning aloxida bashang qilib bezatilgan galstuk topishdek ehtiyojini bir xil deb qarash mumkin emas. Bu ehtiyojlarning o`zi ham, ular tufayli yuz beradigan faoliyat ham o`z darajasiga ko`ra turlicha baholanadi. Ma'naviy jihatdan o`rinli bo`lgan ehtiyoj - odam yashayotgan jamiyatning talablariga javob beradigan, ana shu jamiyatda qabul qilingan didlar, baholar va, muhimi, dunyoqarashga mos keladigan ehtiyojlardir.

Ehtiyojlar o`z predmetining xarakteriga ko`ra moddiy va ma'naviy bo`lishi mumkin.

Moddiy ehtiyojlarda kishining moddiy madaniyat predmetlariga qaramligi (ovqatlanishga, kiyinishga, uy-joyga, maishiy turmush ashyolariga va boshqa narsalarga ehtiyoj sezishi), ma'naviy ehtiyojlarda esa ijtimoiy ong mahsuliga tobeligi ifodalanadi. Ma'naviy ehtiyojlar ma'naviy madaniyatni yaratish va o`zlashtirishda o`z aksini topadi. Kishi o`z fikr-mulohazalari va tuyg`ularini boshqalar bilan baham ko`rishga, gazetalar, kitoblar va jurnallar o`qishga, kinofilmlar va spektakllar ko`rishga, muzika tinglashga va shu kabilarga ehtiyoj sezadi.

Ma'naviy ehtiyojlar moddiy ehtiyojlar bilan uzviy bog`liqdir. Ma'naviy ehtiyojlarni qondirish uchun, moddiy ehtiyojlar predmeti hisoblanmish moddiy narsalar (kitoblar, gazetalar, yozuv va nota qog`ozlari, bo`yoqlar va shu kabilar) talab qilinishi, shubhasiz.

Shu tariqa, kelib chiqishiga ko`ra, tabiiy, shu bilan birga predmetiga ko`ra moddiy, kelib chiqishiga ko`ra madaniy hisoblangan ehtiyoj yo moddiy bo`lishi, yo predmetiga ko`ra ma'naviy bo`lishi mumkin. Shunday qilib, bu xilda tasniflash ehtiyojlarning kishi ongining taraqqiyoti tarixiga nisbatan va ularning o`zlari qaratilgan ob'ektga nisbatan munosabatini ko`rsatgan holda juda ham rang-barang turlarini o`ziga qamrab oladi.

Ehtiyojlarning qondirilnshi bilan bog`liq bo`lgan faoliyatga undovchi va uning yo`nalishini belgilovchi sabablar motivlar deb ataladi. Unda sub'ektning faolligi namoyon bo`ladi. Ehtiyojlarda sub'ektning shaxs hayot kechirishi lozim bo`lgan konkret shart-sharoitlarga qaramligi xulq-atvorni va faoliyatni motivlashtirish tarzida o`zining faolligini ko`rsatadi. Modomiki, ehtiyojlar kishi faolligi barcha turlarining mohiyatini, asosiy harakatlantiruvchi kuchini tashkil etarkan, u holda motivlar ushbu mohiyatning konkret, rang-barang ko`rinishlari sifatida namoyon bo`ladi. Motivlar yoki motivlashtirish

psixologiyada sub'ektning xulq-atvori va faoliyati yo`nalishini belgilab beradigan sabablar sifatida qaraladi.

3. Kishi ehtiyojlarining rivojlanishi xususiyatlari

Hayvonning xatti-harakati hamisha u yo bu ehtiyojni qondirishga bevosita yo`naltirilgan bo`ladi. Ehtiyoj hayvonni faqat faollikka undab qolmasdan, balki ushbu faollikning shakllarini ham belgilaydi. Misol uchun ovqatlanish ehtiyoji (ochlik) hayvonda, jumladan, ovqatlanish faolligini vujudga keltiradi - og`zida so`lak ajratila boshlanadi, ovqatni izlash yoki o`ljani poylash, egallash va uni iste'mol qilish kabi jarayonlar yuz bera boshlaydi. Shartli refleks - bu faollikni yangi qo`zg`atuvchilar (masalan, qo`ng`iroq chalinishi) bilan yoki yangi harakatlar (masalan, tepkini bosish) bilan bog`lanishi mumkin. Lekin bunda hayvonnnng hatti-harakati tuzilishi shundayligicha qoladi. qo`ng`iroqning chalinishi tashqi qo`zg`atuvchilar oqimidan aynai ovqatlanish haqida xabar beruvchi signal sifatida ajralib turadi. Hayvon tepkini bosishni aynan ovqatning berilishiga olib keluvchi xatti-harakat tarzida bajaradi. Boshqa so`zlar bilan aytganda, hayvon eng murakkab shartli reflekslar orqali faoliyat ko`rsatgan taqdirda ham ehtiyojlar to`g`ridan-to`g`ri uning psixikasining ham aks ettirish, ham yo`naltirish funktsiyalarini belgilaydi. Hayvon organizmining talab-ehtiyojlari psixika tevarak-atrofdagi olamga nimalarni in'om etishi va qanday javob xatti-harakatlarini keltirib chiqarishini belgilab beradi.

Odamning xulq-atvori esa butunlay boshqacha tarkib topgandir. Stulchada o`tirib, ovqat eya oladigan kichkinagina bolaning xatti-harakatlarini ham uning tabiiy ehtiyojlari tufayli hosil bo`lgan dsb aytish mumkin emas. Ovqatlanish ehtiyojini qondirish uchun o`zicha qoshiqning sira hojati yo`q. Lekin tarbiyaning ta'sirida bu xildagi predmetlar bola uchun yuqoridagidek zhtiyojni qondirishning zarur sharti bo`lib qoladi. Asl ma'nodagi ehtiyojning o`zi emas, balki uni qondirishning jamiyatda qabul qilingan usullari hatti-harakatning shakllarini keltirib chiqara boshlaydi.

Shunday qilib, bolaning faolligini rivojlantirishning dastlabki bosqichlaridayoq biologik jihatdan ahamiyatga molik buyumlar emas, balki ularning kishi tomonidan iste'mol qilinishi usullari, ya'ni ushbu buyumlarning ijtimoiy tajribadagi vazifalari unnng omillari sifatida maydonga chiqadi. Bolaning shu yo`sinda orttiradigan xatti-harakat shakllari - bu buyumlar bilan munosabatda bo`lishning jamiyat tomonidan ularning kishilar amaliyotdagi vazifalariga muvofiq tarzda ishlab chiqilgan usullaridir: stolning atrofida o`tiriladi, qoshiq bilan ovqat yeyiladi, krovatchada uxlanadi va hokazo.

Barcha ota-onalar va tarbiyachilar bunga erishish shunchaki oddiy bir narsa emasligini bilishadi. Bola stolning ustiga chiqishga yoki stulning tagiga kirishga urinadi, qoshiq bilan stolni uradi, ko`li bilan likobchadagi ovqatdan olishga harakat qiladi, tuvakka o`tqazishlarini so`rash lozimligini unutib qo`yadi va hokazo. Bunday «sho`xliklar» va «tarbiyasizlik» ka karshi astoydil olib boriladigan kurash katta yoshdagilar tomonidan bolaga tegishli buyumlar bilan ijtimoiy jihatdan qabul qilingan muomala usullarini, o`z ehtiyojlarini muayyan buyumlar vositasida qondirish va ular bilan ish bajarishning insoniy shakllarini o`rgatishdan bo`lak hech narsa emas. Haqiqatan ham bola ehtiyoji qondirilayotgan insoniy shart-sharoitlar ta'siri ostida uning xulk-atvori buyumlarning ahamiyati bilan emas, balki ularning ijtimoiy ahamiyati bilan belgilana boshlaydi.

Bu bolaning nimani ustun qo`yishini ham, uning ularga qanday munosabatda bo`lishini ham tubdan o`zgartirib yuboradi.

4. Faoliyat va uning maqsadlari haqida tushuncha

Agar hayvonlarning xatti-harakati butunlay atrof-muhit bilan belgilansa, kishining faolligi uning ilk yoshlaridanoq butun insoniyat tajribasi va jamiyat talablariga ko`ra yo`naltirib boriladi. Xatti-harakatning bu turi shu qadar o`ziga xoslikka egaki, psixologiyada unn atash uchun maxsus termin - faoliyat termini qo`llaniladi. Faollikning bu, alohida maxsus insoniy turining farq qiluvchi psixologik belgilari nimalardan iborat?

Bu farq qiluvchi belgilardan biri shundan iboratki, faoliyatning mazmuni tamomila uni keltirib chiqargan ehtiyoj bilan, belgilanmaydi. Basharti motiv sifatidagi ehtiyoj faoliyatga turtki berib, uni rag`batlantirar ekan, u holda faoliyatning shakllari va mazmuni ijtimoiy shart-sharoitlar, talablar va tajriba bilan belgilanadi. Masalan, kishini ishlashga undagan motiv (sabab) ovqatga nisbatan ehtiyoj tug`ilishidan ham kelib chiqishi mumkin. Lekin odam stanokni, masalan, uning ochligini bartaraf etnsh uchun emas, balki bu unga topshirilgan detalni tayyorlash imkonini bergani uchun ham boshqaradi. Uning faoliyati mazmuni shunchaki ehtiyoj bilan emas, balki maqsad bilan - undan jamiyat talab qilayotgan muayyan mahsulotni tayyorlash uchun belgilanadi. Kishining nima uchun muayyan tarzda harakat qilayotgani uning nimani ko`zlab ish qilayotganiga mos kelmaydi. Uni faoliyatga undovchi xohish-istaklar, sabab bilan ushbu faoliyatni yo`naltiruvchi bevosita maqsad bir-biriga to`g`ri kelmaydi.

Binobarin, faoliyatnnng birinchi farqli belgisi shundan iboratki, u faollik manbai bo`lgai ehtiyoj sifatida yuzaga chiqqan holda faollikning yo`naltiruvchisi bo`lgan anglanilgan maqsad bilan bashqariladi. K. Marks faoliyatning ushbu eng muhim belgisini qayd etarkan, shunday deb yozgan edi: «O`rgimchanning ishi to`quvchining ishini eslatadi, asalari ham mumdan uya yasab, ba'zi kishilarni - me'morlarni uyatga qoldiradi. Lekin eng yomon me'mor ham eng yaxshi asalaridan avvalo shu bilan farq qiladiki, u mumdan uya yasashdan oldin, bu uyani miyasida ko`radi. Mehnat protsessining oxirida bu protsess boshlanmasdan oldinoq kishining tasavvurida, ya'ni fikran mavjud bo`lgan natija hosil bo`ladi. Kishi asalaridan tabiat bergan narsaning formasini o`zgartirish bilangina farq qilib qolmaydi; tabiat bergan narsada u o`z ongli maqsadini ham amalga oshiradi, bu maqsad, qonun sifatida, kishining ish usulini va bu ishning xarakterini belgilab beradi va kishi o`z irodasini ana shu maqsadga bo`ysundirishi lozim».

Marks yuqorida keltirgan so`zlarida faoliyatning psixik jihatdan boshqarilishining yana bir muhim belgisini qayd etadi. Faoliyat muvaffaqiyatli bo`lishi uchun psixika narsalarning xususiy ob'ektiv xossalarini aks ettirishi va ular bilan (organizmning ehtiyojlari bilan emas) oldiga qo`yilgan maqsadga erishish usullarini ham belgilab berishi lozim. Va nihoyat, faoliyat kishining xulq-atvorini maqsadga qaratilgan harakatlarni ro`yobga chiqarish, xususan olganda esa yuzaga kelgan ehtiyojlarni, o`zicha zudlik bilan qondira olmaydigan, ya'ni bevosita madadga tayanmaydigan faollikni rag`batlantirish va qo`llab-quvvatlash imkonini beradigan darajada boshqarishga qodir bo`lishi kerak. Bundan ko`rinib turibdiki, faoliyat bilish va iroda bilan chambarchas bog`liq bo`ladi, ularga tayanadi, bilish va irodaviy jarayonlarsiz yuz berishi mumkin emas.

Demak, faoliyat - kashining anglanilgan maqsad bilan boshqarib turiladigan ichki (psixik) va tashqi (jismoniy) faolligidir.

Shunday qilib, faoliyat haqida gapirish mumkin bo`lishi uchun kishi faolligida anglanilgan maqsadning mavjudligini aniqlash lozim. Faoliyatning barcha qolgan jihatlari - uning motivlari, bajarilish usullari, tegishli axborotni tanlash va qayta ishlash anglanilgan

bo`lishi ham, anglanilmagan bo`lishi ham mumkin. Ular shuningdek chala-yarim tarzda anglanilgan va hatto noto`g`ri anglanilgan bo`lishi ham mumkin. Masalan, maktabgacha tarbiya yoshidagi bola uni o`ynashga majbur qiladigan ehtiyojni kamdan-kam tarzda anglab etgani kabi kichik yoshdagi maktab o`quvchisi o`z o`qish faoliyatining motivlarini anglamagan holda ish ko`radi. Intizomsiz o`smir o`z xatti-harakatlarining haqiqiy motivlarini chala-yarim va ko`pncha noto`g`ri anglaydi. Hatto katta yoshdagi odamlar ham o`zlarining noto`g`ri va nomunosib xatti-harakatlari va qiliqlarini oqlash uchun ularga ikkinchi darajali, «niqoblangan» motivlarni to`g`ri deb da'vo qilishadi.

Faqat motivlar emas, balki faoliyatning u yoki bu rejalarini tanlashga olib kelgan ko`pgina fikrlash jarayonlari ham kishi tomonidan to`la-to`kis anglanilgan bo`lavermaydi. Faoliyatni amalga oshirishning usullariga kelganda shuni aytish kerakki, ularning ko`pchiligi odatda ongdan tashqari holda yo`naltiriladi. Bunga odatlanib qolingan har qanday harakat: yurish, so`zlash, xat yozish, avtomobilni boshqarish, musiqa asbobida kuy chalish va shu kabilar misol bo`lishi mumkin.

Faoliyatning ana shu barcha jihatlari ongda aks etish darajasi va to`laqonliligi tegishli faoliyatning anglanilganligi darajasini belgilaydi.

Faoliyatning anglanganligi darajasi qanday bo`lishidan kat'i nazar, maqsadni anglash xamisha uning muqarrar belgisi bo`lib qolaveradi. Ushbu belgi bo`lmagan hollarda kishi tushunchasidagi faoliyat ham bo`lmaydi, balki impulsiv (beixtiyor) xatti harakat yuz beradi. Faoliyatdan farqli o`laroq, impulsiv xatti-harakat bevosita ehtiyojlar va hissiyot bilan idora qilinadi. U individning qattiq xayajonga tushishi (affekti) ni va maylinigina ifoda etadi va shuning uchun ham ko`pincha egoistik va jamiyatga zid xarakterga ega bo`ladi. Jumladan, g`azabnok yoki to`xtatib bo`lmaydigan darajada ehtirosga berilgan kishi impulsiv harakat qiladi.

Xatti-harakatning impulsivligi uning anglanilmaganligi degan ma'noni bildirmaydi. Lekin bu holatda kishi shaxsiy motivining maqsadda ifodalangan ijtimoiy mazmuni emas, balki faqat uning shaxsiy motivi anglanilgan bo`ladi, o`sha motiv uning xatti-harakatini yo`naltiradi.

Adabiyotlar

Асмолов А. Г. Деятельность и установка. М., МДУ nashriyoti, 1979.

Виноградова М. Д,, Первин И, Б. Коллективная познавательная деятельность и воспитание школьников. М., Просвещение, 1977.

Запорожец А. В. Развитие произвольных движений. М, РСФСР, ПФА nashriyoti, 1960.

Леонтьев А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. М., Политнздат, 1975.

Ломов Б. Ф. Человек и техника, Иккинчи нашри, М., Сов. радио, 1966.

Милерян Е. А. Психология формировання общетрудовых политехнических умений. М., Педагогика, 1973.

Эльконин Д. Б. Психология игры. М., Педагогика, 1972.

8-ma'ruza. Faoliyatning strukturasi

Reja:

1. Harakatlar va sa'i-harakatlar
2. Harakatni boshqarish va nazorat qilish
3. Faoliyatni interiizatsiyalash va eksteriorizatsiyalash va eksteriorizatsiyalash

Faoliyat - voqelikka nisbatan faol munosabat bildirishning shunday bir shaklidirki, u orqali kishi bilan uni qurshab turgan olam o`rtasida real bog`lanish hosil qilinadi. Odam faoliyat orqali tabiatga, narsalarga, boshqa kishilarga ta'sir ko`rsatadi. Faoliyatda u o`z ichki xususiyatlarini ishga solib va namoyon qilib, narsalarga nisbatan sub'ekt sifatida, odamlarga nisbatan esa shaxs sifatida gavdalanadi. O`z navbatida ularning javobiy ta'sirotini his qilgan holda, u shu yo`l bilan odamlarning, narsalarning, tabiat va jamiyatning haqiqiy, ob'ektiv, muhim xususiyatlarini bilib oladi. Uning qarshisida narsalar ob'ektlar sifatida, odamlar esa shaxs sifatida gavdalandi.

1. Harakatlar va sa'i-harakatlar

Toshning og`irligini bilish uchun uni ko`tarib ko`rmoq, parashyutning chidamlilignni aniqlash uchun esa unda samolyotdan sakrab ko`rmoq kerak. Kishi toshni ko`tarayotib va parashyutda tushayotib, faoliyat orqali ularning real xususiyatlarini bilib oladi. U ana shu real harakatlarni timsoliy harakatlar bilan almashtirishi, ya'ni «tosh og`ir» deb aytishi yoki parashyutda tushish tezligi va traektoriyasini tegishli formula bo`yicha hisoblab chiqishi mumkin. Lekin hamisha ham ish, amaliy faoliyat birinchi galda turadi. Ushbu faoliyatda faqat tosh yoki parashyutning emas, balki kishining ham o`z xususiyatlari (u nima uchun toshni ko`tardi, parashyutdan foydalandi va hokazo) ham namoyon bo`ladi. Amaliyot kishining nimani bilishi va nimani bilmasligini, uning olamda nimani ko`rayotgan va nimani ko`rmayotganini, nimani tanlab olayotgani va nimani rad etayotganini belgilaydi va ko`rsatadi. Boshqacha so`zlar bilan aytgaada, u kishi psixikasining mazmunini va uning mexanizmlarini belgilab beradi va shu bilan barobar ularni namoyon qiladi.

Faoliyatga yo`llagan maqsad, odatda, yo ko`proq, yo ozroq darajada uzoqlashgan bo`ladi. Shuning uchun ham unga erishish kishi ana shu maqsad yo`lida harakat qila borgan sari uning oldida paydo bo`ladigan qator juz'iy vazifalarning kishi tomonidan izchilik bilan hal etila borishidan tarkib topadi.

Misol uchun, ishchining mehnat faoliyati, jumladan, umuman muayyan bir mahsulotni talab qilingan sifat darajasida ishlab chiqarishdan iborat yagona maqsadga va mo`ljallangan mehnat unumdorligiga erishishga qaratilgan deylik. Bu maqsadni amalga oshirish uchun vaqtning har bir bo`lagi mobaynida ma'lum bir joriy vazifadarni bajarish, masalan, detalni yo`nish, zagotovka (tanavor)ni o`lchab chiqish, xom ashyoni apparatga solish va shu kabilarni muvaffaqiyatli hal etish zarur bo`ladi.

Faoliyatning yolg`iz bitta oddiy joriy vazifani bajarishga yo`naltirilgan nisbatan tugallangan har bir shunday qismini harakat deb atashadi.

Biz yuqorida keltirgan mehnat harakatlari narsalar bilan amalga oshiriladigan ishlardan iborat. Tashqi olamdagi narsalarning holatini yoki xususiyatlarini o`zgartirishga qaratilgan harakatlarni shunday deb atashadi. Narsalar bilan bajariladigan har qanday ish (harakat) makon va zamonda bog`langan muayyan sa'i-harakatlardan tarkib topdi.

Masalan, «a» harfini yozish harakati ruchka (qalam) ga va bir-biriga nisbatan muayyan tarzda joylashgan bosh, ko`rsatgich va o`rta barmoqlar bilan ruchka (qalam) ni bosishdan: so`ngra ruchka (qalam) ni qog`oz ustida ushlab turish va ma'lum bir joyda pero qog`ozga tekkunga qadar pastga tushirishdan; keyin esa peroni yuqoridan o`ngdan chap tomonga qarab va so`ngra soat millariga qarshi yo`nalishda doira shaklida yurgizib, yuqorida yozuv boshlangan nuqtada to`xtash, egilgan chiziq bo`ylab pastga xuruj qildirish,

doiraning quyi qismiga etgan joyda o`ngga qarab burish va chapdan o`ngga qarab yoysimon shaklni chizish bilan tugallashdan tarkib topadi.

Kishining narsalar bilan qiladigan sa'i-harakatlari tahlili shuni ko`rsatadiki, ulariing barchasi ham, tashqi rang-barangligiga qaramasdan, qoida tariqasida gavdaning, oyoqlarning va boshning yordamchi sa'i-harakatlari bilan birga qo`shilgan uchta oddiy qismdan - «olish», «ko`chirish», «qo`yib yuborish»dan tarkib topadi. Sa'i-harakatlarning har xil turlarida bu qismlar o`z traektoriyasi, qanchalik davom etishi, kuchi, tezligi, sur'ati (ma'lum bir vaqt mobaynida takrorlanish soni) bilan za ular tananing qaysi bir qismi bilan bajarilishiga qarab farqlanadi. Sifat nuqtai nazaridan sa'i-harakatlar aniqligi, nishonga tegishi, epchilligi va uyg`unlashganligi bilan belgilanadi.

Kishi faoliyatida narsalar bilan qilinadigan sa'i-harakatlardan tashqari tananing o`zini tutishini va qiyofaning saqlanishini (tik turish, o`tirish va shu kabilar), bir joydan ikkinchi joyga ko`chishini (yurish, yugurish va shu kabilar), aloqa bog`lashini ta'minlaydigan sa'i-harakatlar ham ishtirok etadi. Aloqa qilish vositalariga ifodali sa'i-harakatlar (imo-ishora va pantomimika), ma'noli ishoralar va, nihoyat, nutqiy sa'i-harakatlar kiradi. Sa'i-harakatlarning zikr etilgan turlarida qo`l va oyoqlardan tashqari tanadagi va yuzdagi mushaklar, xiqildoq, tovush paychalari va boshqalar ishtirok etadi.

Shunday qilib, narsalar bilan bajariladigan (yoki boshqa xildagi tashqi) harakatning amalga oshirilishi muayyan sa'i-harakatlar sistemasining amalga oshirilishidan iboratdir. Bu harakatning maqsadiga, ushbu harakatga tortilgan narsaning xususiyatlariga va harakatning shart-sharoitlariga bog`liq bo`ladi.

Jumladan, stakanni olish uchun qalamni olishga qaraganda boshqacharoq tarzda sa'i-harakat qilinishi kerak. Chang`ida yurish piyoda yurishga nisbatan boshqacha sa'i-harakat qilishni taqozo etadi. Og`ir yukning bir joydan ikkinchi joyga ko`chirilishi mushaklarning yengilgina paketni bir joydan ikkinchi joyga olib qo`yishdagiga qaraganda boshqacha tarzda ishlashini shart qilib ko`yadi. Katta mixning qoqilishi mayda mixning qoqilishiga qaraganda boshqacha tarzda ro`y beradi, mixni shiftga qoqish uni polga qoqishga qaraganda sa'i-harakatlarning boshqacha sistemasini talab qiladi.

Yuqorida keltirilgan misollarning barchasida harakatning maqsadi bitta, lekin uning ob'ektlari har xildir. Ob'ektning ayni ana shu har xilligi sa'i-harakatlarning va mushak faoliyatining turli xilda tuzilgan bo`lishini taqozo etadi. Fiziologlar P. K. Anoxin, N. A. Bernshteyn, E. A. Asratyanlarning tadqiqotlari mushaklarning ishi bevosita sa'i-harakat vazifalari bilangina emas, balki hamisha ushbu sa'i-harakat ro`y berayotgan shart-sharoitlar bilan ham boshqarilishini ko`rsatadi. Mushaklar sa'i-harakatlarning mo`ljaldagi yo`nalishini va tezligini ta'min etish uchun o`z faolligini ko`tarilayotgan og`irlik hajmiga, surilayotgan buyumning qarshiligiga, bo`g`imlarning pishanglaridagi orqaga urish kuchiga «moslaydi».

2. Harakatni boshqarish va nazorat qilish

Sa'i-harakatlarning bajarilishi uzluksiz ravishda nazorat qilib va uning natijalari harakatning pirovard maqsadi bilan taqqoslangan, holda to`g`rilab (korrektirovka qilib) boriladi.

Ana shunday nazorat va korrektirovka buzilgan taqdirda bemorlar xatto eng sodda harakatlarni ham muvaffaqiyatli bajara olmaydigan bo`lib qoladilar. Ular stol ustidagi stakanni qo`liga olishda hamisha adashib, ko`lini boshqa tomonga cho`zadilar, suv ichish uchun stakanni og`izlariga to`g`ri olib bora olmaydilar, uni keyin o`rniga qo`ya

olmaydilar. Ular stulga to`g`ri o`tirisha olmaydi, nonni kesaman deb qo`l barmoqlarini kesib yuborishadi, satrlarga rioya qilgan holda chiziqlar o`tkazishga qodir emaslar va hokazo.

Harakat qay yo`sinda nazorat qilib boriladi? Bu o`rinda hali ko`p narsa aniqlangan emas. Bu, shubhasiz, sezgi a'zolari (ko`rish, eshitish, mushaklar sezgisi) vositasidagina ro`y berishi mumkin. Sa'i-harakatlarni sensor nazorat qilish (sezgi a'zolari yordamida nazorat qilish) ning roli sinab ko`rilayotgan kishi geometrik shaklning, masalan, olti burchakli yulduzning tasvirini uning oynadagi aksiga qarab turib chizishi lozim bo`lgan tajribalarda durustgina isbot etiladi.

Odatda buni oldiniga sira bexato bajarib bo`lmaydi, chunki kishi oynada qalamning odam qo`li harakat qilayotgan tomonga emas, balki qarama-qarshi tomonga qarab yurgizilayotganini ko`radi. Sinalayotgan kishi faqat mashq qilish tufayligina ko`rish natijasida olingan ma'lumotlardan foydalanishni va ularni qo`lning harakati bilan to`g`ri muvofiqlashtirishni o`rganadi.

Sinab ko`rilayotgan odamga tajriba jarayonida narsalarning va qo`l harakatlarining amaldagi holatini jiddiy ravishda buzib ko`rsatadigan prizmali ko`zoynak taqilib o`tkazilgan tajribalar shu nuqtai nazardan olganda yanada qiziqarliroqdir.

Bunday holatda kishi o`zining sa'i-harakatlarini to`g`ri boshqarish (narsalarni ushlash, ularga yaqinlashish, belgilangan joyga qo`yish va shu kabi jarayonlarni bajarish) qobiliyatini mutlaqo yo`qotib qo`yishi ma'lum bo`ldi. Faqat uzoq vaqt mobaynida mashq qilganidan keyingina u bunday buzilishlarni to`g`rilashga o`rgandi. Agar ko`rish signallari yana taxminan 0,27 sekundga kechika boshlagan bo`lsa, buzilishlarga ko`nikishiga hech qanaqa mashq bilan erishib bo`lmasdi. Ha, aytgancha, faol sa'i-harakat qilish imkoniyatidan mahrum bo`lgan hayvonlar ham agar oldingi oyoqlarinnng harakatlarini ko`rib turmasalar, uni boshqara olmaydilar.

Bundan ma'lumki, sa'i-harakatlarni boshqarish teskari aloqa printsipiga binoan amalga oshiriladi. Sezgi a'zolari ana shunday aloqa vositasi, narsalar va sa'i-harakatlarning muayyan idrok etiladigan va harakat mo`ljallari (orientirlari) rolini o`ynaydigan belgilari axborot manbai bo`lib xizmat qiladi. Teskarm aloqaning bunday shaklini P. K. Anoxin teskari afferentatsiya deb atadi.

Shunday qilib, ashyoviy (yoki boshqa xildagi tashqi) harakatning bajarilishi ma'lum bir sistemaga oid sa'i-harakatlarni amalga oshirish bilangina cheklanmaydi. U muqarrar ravishda sa'i-harakatlarning joriy natijalari va harakatlar ob'ektining xususayatlariga muvofiq tarzda sa'i-harakatlarni sensor (hissiy) nazorat va korrektirovka qilishni o`z ichiga oladi. Miyaga tashqi muhitning holati, unda sa'i-harakatlar qanday ro`y berayotgani va uning natijalari haqidagi axborotni yetkazib turadigan. xissiy orientirlarini o`zlashtirish ana shu jarayonning negizi hisoblanadi.

Chunonchi, temirchi temirning qizdirilishi darajasini uning rangiga qarab chamalab ko`rib, bolg`ani urish kuchini shunga mutanosiblashtiradi. Duradgor randani bosish kuchini va sa'i-harakat tezligini yog`ochning karshiligini o`zgaruvchan mushaklar sezgisi orqali moslashtiradi. Kranchi yukni qo`l va oyoqlarining qat'iy ravishda bir-biriga mutanosib va uzluksiz sa'i-harakatlari bilan traektoriyasini ko`rish orqali nazorat qilgan holda uyg`unlashtirib, murakkab va eng qulay traektoriya bo`ylab o`tkazadi. Shofer mashinani to`xtatarkan, tormoz tepkisini bosish kuchini mashinaning harakati tezligi, yo`lning holati, mashinaning vazni va shu kabilar bilan uyg`unlashtiradi.

Ko`rib turganimizdek, ushbu barcha mo`ljallar sa'i-harakatlarni alohida o`zicha emas, balki harakat maqsadiga muvofiq tarzda belgilaydi. Masalan, pargardan doira

chizig`i chizish va bo`lak chiziqlarni o`lchash uchun foydalanish urinishlarning turli xil sistemasini taqozo etadi. qalam bilan «a» harfini yozishda «o» harfini yozish chog`idagiga qaraganda boshqacha urinish bo`ladi. Kechikib qolib avtobus orqasidan chopayotgan yo`lovchining sa'i-harakatlari sistemasi rekord qo`yishni niyat qilgan yengil atletikachini sira ham qanoatlantirmaydi. Ushbu barcha hollarda aynan bir xil harakat ob'ektlarini (pargar, qalam, qog`oz) yoki hatto o`shanday harakatlarni (yugurish) ko`rib turibmiz, lekin bu harakatlarning maqsadlari har xil va shuning uchun bu harakatlar tarkibiga kiradigan sa'i-harakatlar sistemasi ham har xildir.

Bundan ko`rinib turibdiki, harakat tarkibiga kiruvchi sa'i-harakatlar sistemasi pirovard natijasida ushbu harakatning maqsadi bilan boshqariladi va yunaltiriladi. qilinayotgan sa'i-harakatlarning natijalari aynan shu maqsad nuqtai nazaridan baholanadi va to`g`rilab turiladi. Aynan shu harakatning maqsadi uni bajarishda, nazorat qilish va yaxshi izga solishda narsalarning qaysi bir xususiyati va holati mo`ljal bo`la olishini belgilab beradi.

Kishining maqsadi ko`pincha muayyan vaqt ichida yo`q va harakatlar yordamida erishilishi mumkin bo`lgan narsalardan iborat bo`ladi. Demak, maqsad miyada faoliyatning bo`lajak natijasining timsoli, o`zgarib turadigan andazasi tarzida namoyon bo`ladi. Aynan o`sha orzu qilingan (ehtiyoj sezilgan) bo`lg`usi andaza bilan harakatning amaldagi natijalari taqkoslanadi, aynan o`sha andaza sa'i-harakatlarning shakl-shamoilini belgilab va to`g`rilab turadi. Chunonchi, kishi suv ichish uchun stakanni olib, lablariga yaqinlashtirganidagi kabi oddiy bir holda ham uning harakatlari orzu qilingai natija (chanqoqni bosish), shuningdek qo`l stakanga cho`zilishi va so`ngra stakan bilan birga lablarga kadar borishi andazalari orqali idora qilinadi. Bo`lg`usi harakat modellari (sa'i-harakat programmasi) va uning natijasi (maqsadning programmasi)ni, miyada ushbu harakatning o`zini oldindan hosil qiladigan andazalarni fiziologlar «harakat aktsetori» va «oldindan aks ettirish» (P. q. Anoxin), «harakatlantiruvchi vazifa» va «bo`lg`usi ehtiyoj andazasi» (N. A. Bernshteyn), «zaruriy mohiyat» va «kelajak andazasi» (Mittelshted, U. Eshbi), «namuna», «o`zgarib turadigan andaza» va shu kabilar deb aytadilar.

Nomlarning rang-barangligi ushbu modellar mohiyati nimadan iboratligi, ular miyada qanday tarkib topishi va amal qilishi haqida tavsiya etilayotgan gipotezalarning rang-barangligini aks ettiradi. Bularning hammasini hozircha biz aniq bilmaymiz. Lekin bo`lg`usi harakatlar va ulardan kutilayotgan natija miyada oldiidan allaqanday tarzda tasavvur qilinishining o`zi shak-shubhasizdir. Aks holda, yuqorida ko`rib o`tganimizdek, faoliyatning o`zi ham bo`lishi mumkin emas edi.

3. Faoliyatni interiorizatsiyalash va eksteriorizatsiyalash

Lekin miya kelajakni qanday qilib «oldindan ko`rishi» va hali bajarilmagan harakatlarning natijasi psixikasida qanday qilib aks etishi mumkin? Buning uchun atrofdagi olamning bitta printsipial xususiyati - uning qonuniyati tufayli imkoniyat tug`iladi. Bundan undagi turli xil hodisalar muayyan doimiy bog`lanishlar va munosabatlar orqali bog`langan, undagi narsalar esa ma'lum bir shart-sharoitlarda namoyon bo`ladigan muayyan muqarrar xususiyatlarga va tuzilishga ega bo`ladi (olov doimo kuydiradi; tundan so`ng hamisha kunduz keladi; jismning tezligi ishlatilgan kuchga mutanosib bo`ladi; qo`shiluvchi sonlarning o`rni almashtirilgani bilan yig`indisi o`zgarmaydi va hokazo).

Ob'ektlar bilan hodisalar o`rtasidagi bunday barqaror (invariant) munosabatlar ob'ektlarning muhim xususiyatlari va hodisalarining qonuniyatlari deb ataladi. Aynan ob'ektlar va hodisalarda muayyan muhim va barqaror xususiyatlar hamda qonuniyatlarning mavjudligi ma'lum bir sharoitlarda ularning «fe'li-atvorini», ya'ni u yoki bu ta'sirotlar ostida ularning bo`lg`usi o`zgarishlarini oldindan bilish va shu asosda harakatlarni maqsadga muvofiq tarzda yo`naltirib turish imkonini beradi. Tashqi, konkret faoliyat bu holda go`yo ichki, timsoliy faoliyat tarzida his etiladi. Ob'ektlar ustida bo`ladigan konkret harakatlar ushbu ob'ektlarning muhim xususiyatlari ustida olib boriladigan timsoliy (psixik) jarayonlar bilan almashtiriladi, ya'ni narsalar bilan bajariladigan jismoniy jarayonlar ularning mohiyatini tasavvur qilgan holda yuz beradigan xayoliy jarayon bilan almashtiriladi.

Tashqi, real harakatdan ichki, timsoliy harakatga bu xildagi o`tish jarayonini interiorizatsiya (tom ma'nosi bilan aytganda, ichki tarzga aylanish) deb atashadi. Interiorizatsiya tufayli kishi psixikasi ma'lum bir vaqt ichida uning nazari e'tiborida bo`lmagan narsalarning timsolida foydalanish qobiliyatiga ega bo`ladi. Kishi muayyan daqiqa chegaralaridan tashqariga chiqib, «xayolida» o`tmishga va kelajakka, vaqtga va bo`shliqqa erkin ko`chib o`tadi. Kishining harakati hayvonning butun xatti-harakatini belgilab beradigan yuqoridagidek tashqi vaziyatga xuddi qul kabi qaramlikdan qutuladi.

Psixologiya interiorizatsiyaning qanday yuz berishini barcha jihatlariga qadar to`la bilmaydi. Lekin shu narsa aniq isbot qilinganki, bunday o`zgarishning muhim quroli bo`lib suz, o`zgarish vositasi bo`lib esa nutqiy faoliyat xizmat qiladi, So`z buyumlarning muhim xossalarini va axborotdan foydalanishning insoniyat amaliyotida yuzaga kelgan usullarini belgilaydi va o`zida mujassamlashtiradi. Shuning uchun ham so`zlarni to`g`ri ishlatishga o`rganish ayni chog`da buyumlarning muhim xususiyatlarini va axborotdan foydalanishning usullarini o`zlashtirishdan iboratdir. Kishi so`z orqali butun insoniyatning, ya'ni o`zidan oldingi o`nlab va yuzlab avlodlarning, shunnngdek o`zidan yuzlab va minglab kilometr uzoqdagi kishilar va kollektivning tajribasini o`zlashtirib oladi.

So`zlarni va umuman narsalarning munosabatini bildiradigan real timsoldarni qo`llash narsalarning o`zi bevosita bo`lmagan hollarda tegishli munosabatlar haqidagi axborotdan foydalannshga shuning uchun ham imkoniyat yaratadi, jamiyat amaliyotida shakllangan tajriba va bilimlar, timsollar va talablar yordamida kishi faoliyati va xulq-atvorini yo`naltirib turishga ko`mak beradi.

Shunday qilib, kishi faoliyati juda murakkab va o`ziga xos jarayondir. U shunchaki ehtiyojlarni qondirishdangina iborat bo`lib qolmasdan, balki ko`proq darajada jamiyatning maqsadlari va talablari bilan belgilanadi. Maqsadning anglanilganligi va unga erishish yuzasidan ijtimoiy harakatlar tajribasi bilan bog`liq ekanligi kishi faoliyatining o`ziga xos belgisidir.

Kishi faolilyatining tashqi (jismoniy) va ichki (psixik) jihatlari chambarchas bog`liqdir. Tashqi jihat - odam tashqi olamga ta'sir ko`rsatish uchun qiladigan sa'i-harakatlar -motivlashtiruvchi, bilishga undovchi va boshqaruvchi ichki (psixik) faoliyat bilan belgilanadi va yo`naltiriladi. Ikkinchi tomondan, butun ana shu ichki, psixik faoliyat buyumlar va jarayonlarning xususiyatlarini o`zida namoyon qiladigan, ularning maqsadga muvofiq tarzda qayta o`zgartirilishini amalga oshiradigan, psixik andozalarning o`xshashlik darajasini, shuningdek erishilgan natijalar va harakatlarning kutilganlariga muvofiqligi darajasini ko`rsatadigan tashqi jihat tomonidan yo`naltirilib va nazorat qilinib turadi.

Biz ichki, psixik faoliyatni tashqi, konkret faoliyatning interiorizatsiyalashuvi natijasi deb hisoblash mumkinligini ko`rib chiqdik. Shunga muvofiq tarzda tashqi, konkret faoliyatni ham ichki, psixik faoliyatning eksterizatsiyalashuvi (tom ma'nosi bilan aytganda, ichki tarzga aylanishi) deb qarash mumkin.

Adabiyotlar

Асмолов А. Г. Деятельность и установка. М., МДУ nashriyoti, 1979.

Виноградова М. Д,, Первин И, Б. Коллективная познавательная деятельность и воспитание школьников. М., Просвещение, 1977.

Запорожец А. В. Развитие произвольных движений. М, РСФСР, ПФА nashriyoti, 1960.

Леонтьев А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. М., Политнздат, 1975.

Ломов Б. Ф. Человек и техника, Иккинчи нашри, М., Сов. радио, 1966.

Милерян Е. А. Психология формировання общетрудовых политехнических умений. М., Педагогика, 1973.

Эльконин Д. Б. Психология игры. М., Педагогика, 1972.

9-ma'ruza. Faoliyatning o`zlashtirilishi. Malakalar

Reja:

1. Harakatlarning avtomatlashtirilishi va malakalarning hosil bo`lishi
2. Malakaning tuzilishi
3. Faoliyatning o`zlashtirilishi va mashqlar
4. Mashqlarning egri chiziqlari
5. Malaka anglanilgan holdagi avtomatlashtirilgan harakatdir
6. Malakalarning o`zaro ta'siri
7. Ko`nikmalar

1. Harakatlarning avtomatlashtirilishi va malakalarning hosil bo`lishi

Har qanday harakatning tahlil etilgan jihatlarini tegishli tarzda uning motor (harakat), sensor (hissiy) va markaziy qismlari deb atash mumkin. Shunga muvofiq ushbu qismlarning xarakatni amalga oshirish jarayonida bajaradigan vazifalari ijro etish, nazorat qilish va boshqarib turishdan iborat bo`lishi mumkin. Kishi faoliyat jarayonida harakatlarni ijro etishda, nazorat qilish va boshqarib turishda foydalanadigan yo`l-yo`riqlar ushbu faoliyatning usullari deb ataladi.

Aytib o`tilgan vazifalarning har birini kishi anglanilgan tarzda ham va anglanilmagan tarzda ham amalga oshirishi mumkin. Masalan, so`zni talaffuz etishi uchun zarur bo`lgan hiqildoq harakatlari sistemasi kishi tomonidan mutlaqo anglanilmagan holda ishlaydi. Lekin kishi aytmoqchi bo`layotgan iboraning grammagik shakllari va mazmuni hamisha ongda oldindan ayon bo`ladi. Har qanday sa'i-harakatni amalga oshirish uchun zarur bo`lgan o`sha mushaklar qisqarishi va cho`zilishining murakkab birikuvchi qoida tariqasida anglanilmagan bo`ladi. Aftidan, sa'i-harakatlar ongning ishtirokisiz, shunchaki fiziologik tarzda idora etiladi. Biroq, odatda, harakatlarning pirovard maqsadlari, shuningdek ularning umumiy xarakteri hamisha anglanilgan bo`ladi. Masalan, kishi velosipedda mutlaqo ongsiz holatida yurishi mumkin emas. U qayoqqa borayotganini, qaysi yo`l bilan va qanaqa tezlik bilan borayotganini va shu kabilarni umuman tasavvur qilishi lozim. Bu har qanday mehnat, o`yin va boshqa xil harakat

jarayonlariga ham taalluqlidir. Va, nihoyat ayrim sa'i-harakatlar ongli tarzda yo`naltirilgan holda ham, anglanilmagan holda ham bajarilishi mumkin. Masalan, yurish sa'i-harakatlarning anchagina qismi anglanilmagan holda amalga oshiriladigan faoliyatning shundoqqina ko`rinib turgan misoli hisoblanadi. Lekin shu xildagi sa'i-harakatlarning arqon ustida yurish chog`ida bajarilishi, sensor nazorat qilinishi va markazdan boshqarilishi (ayniqsa uquvsiz dorbozda) eng jiddiy darajada anglanilishi zarur bo`lgan ob'ektga aylanadi.

Teskari holat yuz berishi ham mumkinki, bunda harakatning ma'lum bir jihatlari oldiniga mayda-chuydalariga qadar ongli ravishda idora qilinishini taqozo etadi, so`ngra esa ong borgan sari kam ishtirok etgani holda bajarila boshlaydi, bunday hollarni ishning bajarilishi avtomatlasha boshlaganiga o`xshatishadi.

Kishida maqsadga muvofiq tarzdagi sa'i-harakatlarni ijro etish va boshqarishning aynan shu tarzda qisman avtomatlashuvi malaka deb ataladi.

Biz aynan sa'i-harakatlarning anglanilmagan holdagi boshqarilishi to`g`risida so`z yuritayotirmiz, negaki, harakatlarni boshqarish bilan sa'i-harakatlarni boshqarish bir xildagi narsa emas. Sa'i-harakatlarning tobora ko`proq darajada avtomatlashuvi ayni chog`da ushbu sa'i-harakatlarni ham o`z tarkibiga olgan xarakatlarning ongli ravishda boshqarish bilan qo`shilgan holda yuz beradi.

Chunonchi, velosipedchi o`z muvozanatini saqlash uchun ishlatadigan sa'i-harakatlarning avtomatlashuvi uning diqqat-e'tiborini atrofidagi ko`cha harakatiga, yo`lning holatiga va shu kabilarga qaratishiga va shu asosda o`z harakatlarini yanada anglanilgan tarzda boshqarishiga yordam beradi. O`rganuvchi pianinochinint kerakli klavishlarni topish chog`idagi sa'i-harakatlarining shu tarzdagi avtomatlashuvi umuman harakatlarni bajarishni anglanilgan holda boshqarish darajasini keskin oshirishga, kuyning chalinishini asarning ijodiy rejasidan kam farq qiladigan darajaga ko`tarishga imkon beradi.

Umuman olganda, «sof» malaka haqida, chamasi, faqat hayvonlarga ta'rif berilayotganda gapirish mumkin. Odamda patologik holatlardan bo`lak barcha xildagi faoliyat pirovard natijada ong bilan boshqariladi. Harakatning u yoki bu qismlari avtomatlashuvi esa ongli ravishda yo`naltiriladigan ob'ektni faqat almashtiradi, harakatning umumiy maqsadlarini, uning ijro etilishi shart-sharoitlarini, uning natijalarini nazorat qilish va baholashni ong uning tasarrufi doirasiga olib kiradi.

2. Malakaning tuzilishi

Harakatning shu tarzda qisman avtomatlashuvi tufayli uning tuzilishida ro`y beradigan o`zgarishlar quyidagilardan iboratdir.

1. Sa'i-harakatlarning ijro etilishi usullari o`zgaradi. Bunga qadar o`z holicha yuz berib kelgan qator juz'iy sa'i-harakatlar yagona jarayonga, tarkibiga kiruvchi alohida sodda sa'i-harakatlar o`rtasida to`siklar va uzilishlar mavjud bo`lmagan bitta murakkab sa'i-harakatga qo`shilib ketadi. Masalan, o`quvchi bosqichli harakat sifatida bajaradigan harakatni o`zgartirish jarayoni tajribali shofyor tomonidan bir marta qo`lni silliqqina ishlatgan holda bajariladi. Ortiqcha va keraksiz sa'i-harakatlar bartaraf etiladi. Jumladan, o`quvchi yozuvni o`rgana boshlagan paytda bu jarayonni bajararkan, ko`plab ortiqcha harakatlar qiladi: tilini chiqaradi, gavdasini qimirlatadi, boshini engashtiradi va hokazo. Harakat jarayoni o`zlashtirib olingandan keyin barcha ortiqcha sa'i-harakatlar yo`qolib ketadi. Mujassamlashuv yuz beradi, ya'ni sa'i-harakatlarni ikkala qo`l (oyoq)

bilan bir vaqtning o`zida bajarish boshlanadi. Agar boshlovchi tokar keskichni oldiniga uzunasiga qarab, so`ngra esa ko`ndalangiga qarab yurgizsa, tajribali tokar keskinchi detalga bir vaqtning o`zida bir qo`li bilan moxovikni uzunasiga, boshqasi bilan esa supportni ko`ndalangiga aylantirarkan, diagonal chiziq bo`ylab qisqa masofadan olib boradi. Pirovardida sa'i-harakatlarni bajarish sur'ati tezlashadi. Shunday qilib, harakatlarni o`zlashtirish jarayonida uning harakatlantiruvchi barcha jihatlari: sa'i-harakatlar tarkibi (u soddalashadi), sa'i-harakatlarning izchilligi (u uzluksiz bajariladigan bo`ladi) va sa'i-harakatlarning uyg`unligi (ular bir vaqtning o`zida bajariladigan bo`ladi), shuningdek ularning tezligini mumkin qadar rejali bo`lishiga imkon tug`iladi.

2. Harakatni sensor nazorat qilish usullari o`zgaradi. Sa'i-harakatlarning bajarilishini ko`rish orqali nazorat qilish ko`proq mushaklar yordamida (kinestetik) nazorat bilan almashadi. Bunga tajribali mashinistkaning harflarga qaramasdan yozishi, malakali slesarning iskananing ustidan bolg`a bilan urayotganda ko`rish nazoratini ishga solmasligi (slesar bolg`ani urayotib, iskananing qalpog`iga emas, balki uning tig`iga qarab turadi) va shu kabilar oddiy misol bo`lishi mumkin. Sa'i-harakatlarning xarakterini belgilaydigan turli xildagi o`lchamlarning nisbatini baholash imkonini beradigan maxsus sensor sintezlar hosil bo`ladi. Masalan, shofyorda tezlikni ko`z bilan chamalash va sezish, duradgorda yog`ochni his qilish, tokar va silliqlovchida o`lchovlarni juda yaxshi farq qilish, uchuvchida fazoda holatni his qilish tuyg`usi o`tkir bo`ladi, harakat natijalarini nazorat qilish uchun muhim bo`lgan mo`ljallarni tez farqlash, va ajratish qobiliyati rivojlanadi. Jumladan, shofyorda motorning shovqinida uning qanchalik kuch bilan ishlayotganini bildiradigan belgilarni ajratish qobiliyati, po`lat erituvchida metallning tarkibini, uning harakatini, rangining tovlanishiga qarab ajratish qobiliyati rivojlangan bo`ladi va hokazo.

Shunday qilib, harakatlar o`zlashtirila borgan sari uning natijalarini va bajarilish sharoitlarini yanada aniqroq va tezroq bevosita sifatli nazorat qilish uchun imkoniyatlar tug`iladi.

3. Harakatni markazdan turib boshqarish usullari o`zgarib bormoqda. Diqqat harakat usullarini idrok etishdan xoli bo`lib, u harakatiing asosan vaziyati va natijasiga qaratilgan bo`ladi. Ba'zi hisob-kitoblar, echimlar va aqliy mehnat talab qiladigan boshqa jarayonlar tez va birga qo`shilgan holda (fahmlangan tarzda) amalga oshirila boshlaydi. Jumladan, shofyor dvigatelning ortiqcha kuch bilan ishlayotganini uning tovushidanoq sezib, o`ylab-netib o`tirmasdanoq, uning harakatini qanaqa tezlikka ko`chirish kerakligini darhol tushunib etadi; apparatchi asboblarning ko`rsatkichlarini o`qiboq, ularning ishlashida ro`y berayotgan buzilishlarni va ularni bartaraf etish uchun nimalar qilish kerakligini fahmlaydi. Navbatdagi sa'i-harakatlarga tayyorgarlik bundan oldingi sa'i-harakatlar amalga oshirilayotgan paytdayoq yuz bera boshlaydiki, natijada reaktsiya uchun sarflanadigan vaqt keskin kamayadi. Chunonchi, uchuvchi qo`nishni boshlayotganidayoq muayyan sharoitlardagi qo`nishning ushbu turini bajarish uchun qo`llaniladigan barcha standart usullarni ishga solishga o`zicha tayyor bo`ladi. Shuning uchun ham birinchi usulni bajarishdan ikkinchisiga o`tish maxsus planlashtirilmagan tarzda ham amalga oshirilaveradi. Faqat qo`nishning qanday usulini tanlash rejalashtiriladi, xolos. qo`llanilishi lozim bo`lgan usullarning butun boshli zanjirini yoki turlarini ana shu tarzda ong yordamida oldindan ko`ra bilish antitsipatsiya deb ataladi.

3. Faoliyatning o`zlashtirilishi va mashqlar

Harakat usullaridagi bu o`zgarishlar qanday yuz beradi va ularning psixologik mexanizmi qanday?

O`z negizi e'tibori bilan bu tadqiqot qilishga urinshilarni va tanlashni o`z ichiga oladigan mexanizmdir. Kishi muayyan harakatni bajarishga urinib ko`radi va uning natijasini nazorat qilib turadi. Muvaffaqiyatli sa'i-harakatlar, o`zini oqlagan mo`ljallar va boshqa usullari asta-sekin tanlanadi va mustahkamlanadi, muvaffaqiyatsiz chiqqanlari va o`zini oqlamaganlari esa qo`llanishdan chiqarilib, boshqalari bilan almashtiriladi. Muayyai harakatlar yoki faoliyat turlarini o`zlashtirish maqsadida ularni anglagan tarzda hamda ongli ravishda nazorat qilshiga va tuzatishga asoslangan holda ko`p martalab takroran bajarish faoliyati mashq deb ataladi.

Mashq qila borgan sari kishi harakatlari xarakterining o`zgarishi bu harakatlarni bajarish chog`ida uning psixik faoliyati tuzlishida yuz beradigan o`zgarishlarni aks ettiradi. Ongli tarzda nazorat qilinib va tuzilib turiladigan har bir yangi urinish harakat usullari va vazifalarini faqat eslab qolishdagina aks etmaydi. Odatda u vazifani tekshirish usullarining, uni hal qilishi va tuzatish yo`llarining ham o`zgarishiga olib keladi.

Misol uchun bir xildagi bir necha detallarga belgi qo`yish jarayonini takroran bajarib mashq qilayotganda o`quvchi faoliyatining tuzilishi qanday o`zgarishini ko`rib chiqamiz.

Birinchi detal. O`quvchi o`zi uchun yangi bo`lgan faoliyat oldida turibdi. Hozircha u bu ish qanday bajarilishini ko`rib va tushunib oldi, xolos. Jarayonni o`zi bajarishi uchun u o`qituvchining og`zaki ko`rsatmalarini, namoyish chog`ida idrok etilgan shakllarni harakat tiliga aylantirishi (ya'ni o`zining xususiy sa'i-harakatlarini tartibga solishi) talab qilinadi. O`quvchi ishni bajarishga urinarkan, o`z xatolarini payqagan va to`g`rilagan holda vazifaning «harakatlantiruvchi mohiyati» ni birinchi marta chinakamiga payqaydi va uni bajarish usullarini «mushaklari bilan his qila boshlaydi». Harakat manzarasiga, uning timsoliga sa'i-harakatlarni tartibga solib turish uchun zarur mushaklar sezgisi qo`shiladi. Ayni shu yo`sinda eng asosiy qiyinchilik yengib o`tiladi, harakatni qay tarzda bajarish haqidagi timsoliy-mantiqiy tasavvurlar bilan uning amalda bajarilishi o`rtasida bog`lanish hosil bo`ladi. Shu tarzda ish jarayonining hissiy-harakat timsoli hosil qilinadi va konkret-aqliy jihatdan anglanadi, ya'ni harakatning bajarilishini boshqarib va nazorat qilib boradigan psixik modeli tarkib topadi.

Ikkinchi detal. O`quvchi ishga endi harakatlarni bajarish va boshqarish usullari haqida hissiy harakat tasavvuriga ega bo`lgan holda kirishadi. Shuning uchun ham so`zdan ishga, timsoldan harakatga o`tish bilan borliq qiyinchiliklarning ko`pchiligiga duch kelinmaydi. Jarayonlarni bajarishda sezilarli darajada siljish, keskin burilish va jadallik odatda ana shu tufayli sodir bo`ladi.

Uchinchi va turtinchi detallar. Detaldan-detalga o`tgan sari jarayonlarni bajarish usullarida unchalik katta o`zgarish ro`y bermaydi. Bu o`zgarishlar ortiqcha sa'i-harakatlarni istisno etish, noto`g`ri sa'i-harakatlarni to`g`rilash, bir-biriga bog`liq bo`lganlarnni birga qo`shib bajarishga ko`chish, ishni bajarish yo`llarini tobora ko`proq darajada standartlashtirish bilan bog`liq holda ro`y beradi. Ularning bajarilish usullari ana shunday tarzda standartlashtirilishi munosabati bilan ularni bajarish tobora avtomatlashib, ongning nazoratidan xalos bo`ladi, shartli refleks reaktsiyasi sistemasi kabi yuz beradi.

N+N+1+... detallar. Ishni nazorat qilish va boshqarib borishning asosiy usullarini avtomatlashtirish harakatining shart-sharoitlarini yanada kengroq hisobga olish uchun

ongni xoli qoldiradi. Harakatlarning tezligini ixtiyoriy boshqarish, ularni o`zgarib turuvchi vazifalarga moslashtirish, yangi vaziyatlarga va detallarga ko`chirish imkoniyati tug`iladi.

4. Mashqlarning egri chizig`i

Agar harakat belgilaridan birontasi (masalan xatolar miqdori, to`g`ri hal etilgan masalalar miqdori, sarflangan vaqt, mahsulot miqdorining mashqlar (urinishlar) soniga bog`liq holda qanday o`zgarishi o`lchanadigan bo`lsa, u holda harakatning o`zgarish jarayoninn miqdor jihatidan tasvirlab berish mumkin. Mashqlar soni gorizontal o`q (abstsissa) bo`ylab, harakatning o`lchanayotgan belgisi esa vertikal o`q (ordinata) bo`ylab chiqariladi. Grafikda hosil bo`lgan nuqtalarni birlashtiradigan chiziq mashqlar egri chizig`i, ya'ni o`rgatish egri chiziqlari deb ataladi. U hosil qilinayotgan malakaning oshib borayotganligini bildiradi.

Konkret eksperimentlar natijasini tasvirlash jarayonida hosil bo`ladigan egri chiziqlar juda xilma-xildir. Hatto bitta kishining o`zi bir xildagi vazifalarni bajargan taqdirda ham egri chiziq bir xilda bo`lmaydi. Lekin umuman olganda mashqning barcha egri chiziqlarini ikki turga ajratish mumkin: a) salbiy tezlikka ega bo`lgan egri chiziqlar (malakaning hosil bo`lishi oldiniga tezlik bilan davom etgan holda, so`ngra tobora sekinlasha boradi, tezlikning ma'lum darajada so`nggi chegarasiga, xatolarning haddan ziyod ko`p takrorlanishiga qadar borib qoladi va hokazo); b) ijobiy tezlikni ifoda etadigan egri chiziqlar (oldiniga harakatning o`zlashtirilishi sekinlik bilan davom etadi, so`ngra esa tobora tezlashadi).



5-rasm. Chiniqtirish egri chiziqlari: abstsissa – urinishlar soni; ordinata-birinchi urinishga nisbatan protsent hisobida o`lchanadigan vaqt (masofa).

5-rasmda katta yoshdagi kishilar (A) va bolalar (S) da chalkashliklardan o`tish ko`nikmasining hosil bo`lishini belgilaydigan o`rgatish egri chiziqlari tasvirlangandir. Grafikdagi ordinata o`qi bo`ylab yo`l qo`yilgan xatolar va sarflangan vaqt yoki bosib o`tilgan masofaning uning birinchi urinishdagi holatiga nisbatan protsent hisobidagi

uzunligi chiqariladi. Barcha egri chiziqlarning salbiy tezlikka ega bo`lgan egri chiziqlarga taalluqli ekanligini payqash qiyin emas. 6-rasmda o`quvchilarning bir xildagi arifmetik masalalarni echishga oid mashqlari egri chizig`i ko`rsatilgan: ordinata - xatolarning (noto`g`ri qo`yilgan savollar va noto`g`ri bajarilgan amalarning) boshlang`ichga nisbatan protsent hisobidagi miqdorini bildiradi.

Egri chiziqlarning birinchi turi sinovlari va xatolar qilish yo`li bilan o`rgatish (noma'lum chalkashliklardan o`tish, masalan, odam uchun ana shundan o`rganish hisoblanadi) ko`proq o`rin olgan jarayonlarga xosdir. Egri chiziqlarning ikkinchi turi amallarning to`g`ri bajarilishi uchun ko`pincha anglab etish talab qilinadigan masalalarga xos bo`ladi. Masalalarni hal etish yo`llari tushunib etilgan bunday hollarda u to`g`ri hal qilinadi va xatolar takrorlanmaydi.

5. Malaka anglanilgan holdagi avtomatlashtirilgan harakatdir

Takrorlanib turadigan amaliy urinishlarsiz hech qanday malakani hosil qilib bo`lmaydi. Ba'zi bir psixologlar, jumladan, bixevioristlar ana shu faktga tayangan holda hayvonlarda va odamlarda malakalar hosil bo`lishi jarayonini aynan bir xil narsa deb hisoblashga urinadilar. Lekin fiziologik mexanizmning o`xshashligi bu jarayonlarning bir-biridan priptsipial jihatdan farqini yo`qqa chiqarmasligi kerak. Odamlarda harakatlarning bajarilishi, ko`rib o`tganimizdek, hamisha ong bilan idora qilib turiladi. Shuning uchun ham hayvonlarda yuz beradigan jarayonlarning o`zi odamda printsipial jihatdan o`zgacha tarzda bo`ladi. Uning amaliy sinovlari muayyan sa'i-harakatlarni ongli tarzda bajarish uchun urinish tusini kasb etadi. Natijalarni nazorat qilish, shart-sharoitlarni baholash, harakatlarni to`g`rilab turish xam u yoki bu tarzda anglanilgan holda yuz beradi. Buni tanqidiy urinishlar manbalari to`g`rilab boradi. Masalan, taqlid qilish o`zlashtirilayotgan harakatlarning namunasini anglanilgan tarzda sobitqadamlik bilan kuzatishiga tayana boshlaydi. Eng muhimi, usullarning tanlanishi va boshqarilishi ular maqsadining anglanilishi va mazmunining tasavvur etilishi orqali boshqariladi.



6-rasm. Mashklar egri chizig`i: abstsissa-bir xil turdagi masalalar miqdori; ordinata-xatolarning boshlang`ichga nisbatan protsent hisobidagi miqdori.

Malakani shakllantirishda kuzatilayotgan va bajarilayotgan harakatlarning kishi tomonidan so`z bilan ifoda etilishi - nutq faoliyati, shuningdek bajarilishi lozim bo`lgan harakat timsolining «xayoldagi» ifodasi - ideal faoliyat yetakchi vosita bo`lib xizmat

qiladi. Kishida malakalarni shakllantirish mexanizmining printsipial jihatdan farq qiladigan ushbu xususiyatlari malakalarni shakllantirish jarayonining qonuniyatlarini ham belgilab beradi.

Kishining malakasi ongli ravishda avtomatlashtirilgan harakat sifatida hosil bo`ladi. U harakatni bajarishning avtomatlashtirilgan usuli tarzida amalga oshiriladi. Uning roli ongni harakat usullarini bajarilishini nazorat qilishdan xoli qilishdan va uni harakatning maqsadi hamda shart-sharoitlarini idrok etishga yo`naltirishdan iboratdir. Bu jarayonning asosiy bosqichlarini quyidagi sxemada ko`rsatish mumkin.

Malakaning rivojlanish bosqichlari	Malakaning xarakteri	Malakaning maqsadi	Harakatni bajarish usullapи
1. Tanishtirish	Harakatlarni tushunib etish va tasavvur qilish	Harakatlarni bajarish usullari bilan tanishish	Maksadni aniqroq, unga erishish usullarini esa sal-palgina tushunish; harakat chog`ida juda ko`p qo`pol xatolarga yo`l qo`yish
2. Tayyorgarlik ko`rish (taxlil qilish)	Anglanilgan tarzda, lekin no`noqlik bilan bajarish	Harakatlariing ba'zi qismlarini o`zlashtirib olish; ularni bajarish usullarini tahlil qilish	Harakatni bajarish usullarini aniq tushunub yetish, lekin uni noaniq va tuturuqsiz bajarish; ko`plab ortiqcha urinishlar diqqatni juda ham kuchaytirishlar; o`z harakatlariga etiborni qaratish; sust nazarat qilish
3.Standartlashtiruvchi (sintez qilish)	Harakat qismlarini avtomatlashtirish	Oddiy urinishlarni yaxlit bitta harakatga qo`shish va birlashtirish	Harakatlar sifatini oshirish, ularni qo`shish ortiqchasini bartaraf etish, natijaga e'tiborni qaratish: nazorat qilishni yaxshilash mushaklar bilan nazorat qilishga ko`chish
4. O`zgaruvchan (vaziyatga bog`liq bo`lgan)	Vaziyatga mutanosib tarzda moslashish	Harakat xususiyatini ixtiyoriy boshqarishni o`rganish	Harakatlarni maqsadga muvofiq tarzda nafislik bilan bajarish; maxsus sensor sintezlari asosida nazorat qilish, aqliy (intuitiv) tarzda sintez qilish

Alohida bitta malakaning shakllantirilishi hech qachon mustaqil, ajratib olingan holdagi jarayon hisoblanmaydi. Unga odamning bundan oldingi butun tajribasi ta'sir ko`rsatadi va unda ishtirok etadi.

6. Malakalarning o`zaro ta'siri

Har qanday malaka ham kishi allaqachon egallab olgan malakalar sistemasida amal qiladi va tarkib topadi. Ularning biri yangi malakaning tarkib topishiga va amal qilishiga yordam bersa, boshqalari xalaqit beradi, uchinchi bir xili esa uni o`zgartiradi va hokazo. Bunday hodisa psixologiyada malakalarning uzaro ta'siri deb yuritiladi.

Bu qanday yuz beradi. Eslatib o`tamizki, harakat uning maqsadi, ob'ekti va shart-sharoitlari (vaziyat) bilan belgilanadi. Uning o`zi esa harakatlantiruvchi ijroning, sensor nazorat qilish va markaziy boshqaruvning muayyan. usullari sistemasi sifatida amalga oshiriladi. Harakatning muvaffaqiyatliligi, ya'ni malakaning samaradorligi ana shu usullarning harakat maqsadlariga, ob'ektiga va shart-sharoitlariga qanchalik muvofiq kelishiga bog`liqdir.

Malaka hosil qilinishinipg umumiy qonuni shundan iboratki, kishi yangi vazifaga duch kelganda oldiniga faoliyatning o`zida shu choqda mavjud bo`lgan usullarini foydalanishga urinadi. Bunda u, o`z-o`zidan ravshanki, shu xildagi masalalarni xal etish uchun uning o`z tajribasida qo`llanishga to`g`ri kelgan usullarni mazkur masalani echishga ham tatbiq etish vazifasidan kelib chiqkan holda ish tutadi. Bundan ko`rinib turibdiki, faoliyat usullarini ko`chirishning muvaffaqiyatliligi masalalarning ularni hal etish usullari o`xshashligi qanchalik to`g`ri baholanishiga bog`liqdir. Bu o`rinda bir-biridan farq qiladigan ikkita holat mavjud bo`lishi mumkin.

Birinchisi - bajarilishi, nazorat qilinishi va markazdan boshqarilishi usullariga ko`ra garchi amalda har xil bo`lsa ham, ikkita harakatning maqsadi, yoki ularning ob'ektlari, yo shart-sharoitlari kishi tomonidan o`xshash deb tasavvur qilinishidir. Bunday vaziyatda harakatning samarasiz usullari boshlang`ich nuqta bo`lib qoladi. Ularning noto`g`riligini payqab olish, bartaraf etish va yangi to`g`ri usullar bilan almashtirish vaqt va ko`p martalab urinishlarni taqozo etadi. Malakaning shakllantirilishi qiyinlashadi va sekinlashadi. Bunday hollarda malakalarning teskari kuchirilishi, ya'ni interferentsiyasi yuz berishi to`g`risida gapiriladi.

Masalan, rasm darslarida bolalarga qalamni yuqoridan pastga qarab harakat qildirgan holda vertikal to`g`ri chiziq o`tkazish o`rgatilyapti. Chizmachilik darslarida esa ularga xuddi shu vazifani pastdan yuqoriga qarab bajarish o`rgatiladi. Maqsadiga ko`ra bir xil bo`lgan bu harakatlarni bajarish usullarining qarama-qarshiligi o`quvchilarda chizmachilik malakalarini egallashda jiddiy qiyinchiliklar tug`diradi. Xuddi shunday qiyinchiliklarning yuz berishi tokar richagni yuqoriga qarab burganda avtomatik ravishda ishlay boshlaydigan stanokdan richagni pastga qarab buraladigan stanokka o`tib ishlagan paytida ham kuzatiladi. Ishchi uzoq vaqtga qadar adashadi - richagni eskichasiga, yuqoriga qarab burayveradi. Malakalar interferentsiyasi mexanizmining dramatik shakldagi namoyishi bundan bir necha yil muqaddam Shvetsiyada ommaviy tarzda yuz berdi. Bu yerda butun transportning chap tomondan harakat kilishi o`ng tomondan harakat qilish bilan almashtirilishi haqida e'lon qilingan edi. Shuning natijasi o`laroq, shaharlardagi ko`chalar «aralash-quralash» bo`lib ketdi va haddan ziyod ko`p falokatlar yuz berdi.

Ehtimoldagi ikkinchi bir qarama-qarshi xolat - ikkita masalaning to`g`ri hal etilishi uchun zarur bo`lgan harakatlarning bajarilishi, nazorat qilib va markazdan boshqarib borilishi usullari jihatidan o`xshash bo`lgan bir paytda ularning maqsadi, ob'ektlari va shart-sharoitlari tashqaridan qaraganda turlicha ekanligidir.

Chunonchi, o`quvchida temirni egovlash bo`yicha yaxshi malaka orttirilganligi odatda uning temirni qo`larra bilan kesish usullarini egallashini ancha yengillashtiradi. Bu o`rinda harakat ob'ektlari va maqsadlari har xil bo`lgani holda uni bajarish va sensor nazorat qilish usullari o`xshashdir. Har ikkala vaziyatda ish qurolining gorizontal harakat

qilishini ta'minlash uchun ikkala qo`l amalda bab-baravar urinishi lozim. Shunday qilinganda ishning to`g`ri harakatlar qilishdan boshlanishiga erishiladi va malakaning hosil bo`lishi ancha yengillashadi. Shunday paytlarda malakalarning ijobiy kuchirish yoki induktsiyasi xaqida gapiriladi.

Tajribaning va mavjud malakalarning yangi malaka hosil qilinishiga ta'siri harakatlarning o`ziga va ularning ob'ektlariga taalluqli xususiyatlar bilangina emas, balki kishining ushbu harakatlar va ob'ektlarga nisbatan munosabati bilan ham belgilanadi. Agar interferetsiyalashtiruvchn masalalar vaqtlarga bo`lib qo`yilsa va ularni bir-biridan jiddiy farq qildiradigan belgilari o`quvchilar ongiga singdirilsa, o`qitish va ayniqsa qayta o`qitish chog`ida g`oyat ko`p xalaqit beradigan teskari ko`chish ancha susayishi mumkin. Agar o`quvchiga tashqaridan qaraganda turlicha bo`lib ko`rinadigan vazifalardagi muhim o`xshashlik belgilari ataylab namoyish etiladigan bo`lsa, malakalarniig ijobiy ko`chishi ancha yengil bo`lib, o`rgatish esa tezlashadi.

Harakatni uning shakllangan sharoitlaridan ajratib olish va yangi shart-sharoitlarga, ya'ni ob'ektlarga ko`chirish kelajakda yaxshi oqibatlarga olib keladigan juda muhim voqea hisoblanadi. Biz hozirdayoq shuni bilamizki, harakatning bunday ko`chirilishi ko`p hollarda vazifalarning yangi turlarini shu zahotiyoq, sinovlarsiz va bexato, muvaffaqiyatli bajarish imkonini bermoqda, ya'ni xatti-harakatning printsipial jihatdan yangi turlarini idrok bilan ish ko`rishga yo`l ochib bermoqda. Uning ana shunday muhim ahamiyatga ega ekanligi munosabati bilan o`zi hosil bo`lgan konkret shart-sharoitlardan ajratilgan holdagi bunday harakatni operatsiya degan termin bilan ataymiz.

Aytilganlardan ko`rinib turibdiki, harakatni fakat muayyan psixik faoliyat, ya'ni o`xshash deb hisoblash, umumlashtirish va shu kabilar asosidagina operatsiyaga aralantirishi mumkin. Harakatning markazdan boshqarilishi usullari ham ko`chirilishi, ya'ni psixik harakatlar operatsiyalarga aylantirilishi ham mumkin.

Jumladan, tashqi ko`rinishn bo`yicha oynaga qarab turib rasm chizish tajribalarida chap qo`l bilan rasm solish chog`ida orttirilgan malakalar o`ng ko`l bilan rasm solishga o`tish chog`ida ham sa'i-harakatlarnn boshqarishga o`z ta'sirini ko`rsatdi. Kishi dastxatining o`ziga xos belgilari u qanaqa harfni yozayotganiga qaramay saqlanib qolishi ham shu narsa bilan izohlanadi. Bunisi tugul, bu belgilar chap qo`l bilan yozayotganda ham, qalamni tish va hatto oyoq barmoqlari orasiga qisib yozilgan choqda ham saqlanib qoladi.

Markaziy boshqaruvning tuzilishidagi o`xshashlik grammatik tuzilishiga va lug`at sostaviga ko`ra bir-biriga yaqin tillar (masalan, ingliz va nemis, rus va ukrain tillari) nima uchun boshqa tillarga qaraganda osonroq o`zlashtirilish sabablarini tushuntirib beradi. Ko`chirishning ushbu turi o`zlashtirilgan hisob usullarini xilma-xil sonlarga nisbatan qo`llanish, turli xil masalalarni yechishda umumiy formulalardan foydalanish imkonini beradi va xokazo. Pirovard natijada ko`chirish printsipi har qanday axborotning kishi tomonidan anglab olinishi va qayta ishlanishi chog`ida mantiqiy tafakkur usullarini avtomatik ravishda qo`llanishning negizini tashkil etadi.

Ko`chish problemasi pedagogik psixologiyaning markaziy problemalaridan biri bo`lib hisoblanishining ajablanadigai joyi yo`q. O`zlashtirilgan harakatlarning yangi vazifalarga to`g`ri va muvaffakiyatli ko`chishini amalga oshirish - bu faoliyatning yangi turlarini tez va eng kam xato qilgan xolda o`zlashtirish demakdir. Kishi o`zlashtirilgan harakatlarpi to`g`ri tatbiq etishi mumkin bo`lgan ob'ektlar qanchalik ko`p bo`lsa, uning o`zida orttirilgan malakalarga tayangan holda hal etishi mumkin bo`lgan masalalar doirasi ham shunchalik keng bo`ladi. Soddaroq qilib aytganda, kishida o`zlashtirilgan harakatlar

qanchalik kengroq va aniqroq ko`chiriladigan bo`lsa, u shunchalik ko`p narsa o`rgangan, uning olgan ta'limi shunchalik samarali natijaga ega bo`lgan, bular uning faoliyatida shunchalik samarali yordam bergan bo`ladi.

7. Ko`nikmalar

Har qanday xulq-atvor yangi sharoitlarda yoki yangi ob'ektlarga nisbatan jarayonlarning ko`chishi asosida tarkib topadi. Ko`chish esa shart-sharoitlar yoki narsalarning faoliyat maqsadlari uchun muhim bo`lgan belgilari bo`yicha o`xshashligiga tayanadi.

Bu o`xshashlik anglanilgan yoki anglanilmagan bo`lishi mumkin. Faoliyat qanchalik murakkab, maqsadlar qanchalik uzoqroq vaqtga mo`ljallangan hamda ular ob'ektlarning qanchalik ko`proq o`zgartirilishini talab qiladigan bo`lsa, muvaffaqiyatli ko`chishni ta'minlash uchun zarur bo`lgan oraliq aqliy faoliyati shunchalik keng tus kasb etadi. Lekin har qanaqa holda ham bunday ko`chish ko`nikma, ya'ni qo`yilgan, maqsadga muvofiq tarzda harakat usullarini tanlash va amalga oshirishi uchun mavjud bilimlar va malakalardan, foydalanish deb hisoblash mumkin.

Ko`nikma ekstsriorizatsiya qilishni - bilimlarning jismoniy harakatga mujassamlashuvini taqozo etadi. Uning boshlanish nuqtasi axborotning yuksak darajada, ya'ni ongda qayta ishlanishidan iboratdir. Amaliy harakatlarning ana shu yuksak darajadagi faoliyati natijalari bilan yo`naltirib turilishi esa uning yakunini tashkil etadi. Masalan, ma'lum bir jismning hajmini aniqlashdan iborat vazifa qo`yilgan, deylik. Uni xal etish uchun avvalo uning geometrik jismlarining qaysi bir turiga mansubligini aniqlash lozim. So`ngra bunaqa jismlarning hajmi qanday hisoblab chiqilishini esga tushirmoq kerak. Shundan keyin qanaqa o`lchovlar qilinishn kerakligi ma'lum bo`ladi. So`ngra tegishli o`lchovlarni amalga oshirish kerak. Pirovardida zarur hisoblash jarayonlarini bajarish lozim. Bulardan ko`rinib turibdiki, bilimlarni ko`nikmalarda ro`yobga chiqarish bir qator malakalar va jarayonlarning o`zlashtirilgan bo`lishini taqozo qiladi.

Shunday qilib, «ko`nikma» atamasi faoliyat sub'ektning o`zida mavjud bilimlar va malakalar bilan maqsadga muvofiq boshqarilishi uchun zarur psixik va amaliy harakatlarning murakkab sistemasi egallab olinishini ifodalaydi. Bu sistema vazifa bilan bog`liq bilimlarning tanlanishini, vazifa uchun muhim bo`lgan xususiyatlarning ajratilishini, shu asosda vazifaning bajarilishiga imkon beradigan tub o`zgartirishlar sistemasi aniqlanishini, ana shu o`zgartirishlarning amalga oshirilishini, qo`yilgan maqsad bilan uning natijalarini taqqoslagan holda nazorat qilib va shu asosda bayon etilgan jarayon to`g`rilab borilishini o`z ichiga oladi.

Ko`nikmalarning tarkib topishi bilimlarda mujassamlashgan axborotni va narsadan olinadigan axborotni qayta ishlash jarayonlarining, ana shu axborotni aniqlash, uni harakat bilan taqqoslash va o`zaro bog`lash jarayonlarining butun bir sistemasi egallanishini bildiradi.

Bu xildagi shakllantirish. ya'ni ko`nikmalarga o`rgatish jarayoni turli yo`llar bilan amalga oshirilishi mumkinligini qayd qilib o`tish zarurdir. Bu yo`llarni bir-biridan, farq qiluvchi ikkita holatga ajratish mumkin. Birinchi holatda o`rgatilayotgan kishi zarur bilimga ega bo`ladi. Uning oldiga bu bilimlardan maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi qo`yiladi hamda kishining o`zi sinab ko`rish va xatolarga yo`l qo`yish orqali tegishli mo`ljal olgan, axborotni qayta ishlash vositalari va faoliyat usullarini topgan holda uning yechimini izlaydi.

Garchi bu yo`lning samaradorligi past bo`lsa ham, bugungi kunda u ta'lim jarayonida eng ko`p qo`llaniladigan yo`l ekanligini qayd qilamiz. Ikkinchi yo`l shundan iboratki, ta'lim berayotgan kishi o`quvchining bilimlarni qo`llash uchun zarur bo`lgan psixik faoliyatini boshqarib boradi.

Bu holda pedagog o`quvchini belgilar va jarayonlarni tanlash mo`ljallari bilan tanishtiradi, qo`yilgan vazifalarni bajarish uchun olingan axborotlarni qayta ishlash va undan foydalanish yuzasidan o`quvchining faoliyatini uyushtiradi. Bu yo`l hozir pedagogik psixologiyada jadal tadqiq qilinmoqda.

Adabiyotlar

Асмолов А. Г. Деятельность и установка. М., МДУ nashriyoti, 1979.

Виноградова М. Д,, Первин И, Б. Коллективная познавательная деятельность и воспитание школьников. М., Просвещение, 1977.

Запорожец А. В. Развитие произвольных движений. М, РСФСР, ПФА nashriyoti, 1960.

Леонтьев А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. М., Политнздат, 1975.

Ломов Б. Ф. Человек и техника, Иккинчи нашри, М., Сов. радио, 1966.

Милерян Е. А. Психология формировання общетрудовых политехнических умений. М., Педагогика, 1973.

Эльконин Д. Б. Психология игры. М., Педагогика, 1972.

10-ma'ruza. Faoliyatning asosiy turlari va odamda ularning rivojlantirilishi

Reja:

1. Faoliyatning shakllantirilishi
2. O`yin
3. Ta'lim
4. Mehnat

Kishi faoliyati ongli ravishdagi faollik sifatida uning ongi shakllana va rivojlana borishi tufayli tarkib topadi va rivojlanadi. Uning o`zi ongning shakllanishi va rivojlanishi negizi, uning mohiyati manbai bo`lib xizmat qiladi.

1. Faoliyatning shakllantirilishi

Faoliyat hamisha kishining boshqa odamlar bilan muayyan munosabatlari sistemasida yuz beradi. U boshqa odamlarning yordami va ishtirokini taqozo etadi, ya'ni birgalikdagi faoliyat xususiyatiga ega bo`ladi. Uning natijalari tevarak-atrofdagi olamga, boshqa kishilarning hayoti va taqdiriga muayyan ta'sir ko`rsatadi. Shuning uchun faoliyatda kishining faqat narsalarga munosabati emas, balki uning boshqa odamlarga bo`lgan munosabati ham doimo o`z ifodasini topadi.

Boshqacha so`zlar bilan aytganda, faoliyatda kishining shaxsi ifodalanadi va ayni chog`da faoliyat uning shaxsini shakllantiradi.

Ahil, uyushgan kollektivning sobitqadamlik bilan olib borilayotgan ijtimoiy foydali faoliyatida ishtirok etish kishida kollektivchilikni, uyushqoqlikni, o`z manfaatlarini jamiyat manfaatlari bilan bog`lash ko`nikmasini rivojlantiradi. A. S. Makarenko faoliyatning shaxsni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi haqidagi tushunchani tarbiyaviy ishning o`zi yaratgan nazariyasi va amaliyotiga asos qilib olgan

edi. U shunday deb yozgan edi: «...men bolalarning hayoti ma'lum bir odatlar turkumini tarbiyalaydigan tajriba tarzida yo`lga qo`yilishipi talab qilaman...». Ushbu talabga binoan tarbiyalanuvchilar kollektivining butun hayoti shunday tashkil etildiki, u bolalarni faoliyatning shaxsda muayyan fazilatlar (sobitqadamlilik, intizomlilik, sofdillik, mas'uliyatlilik, qat'iyatlilik) ning namoyon bo`lishini takozo etadigan har xil turlarga jalb qilgan edi. Masalan, tungi poxodlar va navbatchiliklar koloniyachilardan qo`rquvni engishni, matonat ko`rsatish va o`zini tuta bilishni talab qilardi. Xulq-atvordagi jasurliklar takrorlanaverib, odat tusiga kirib qolardi. Ma'lum bir sharoitlarda sodir bo`ladigan muayyan xatti-harakatlar shaxs fazilati darajasiga ko`tariladigan odatlarni keltirib chiqaradi.

Kishida xilma-xil faoliyat turlarining paydo bo`lishi va rivojlanishi murakkab hamda uzoq davom etadigan jarayondir.

Bolaning faolligi faqat asta-sekinlik bilan, rivojlanish jarayonida, tarbiya va ta'lim ta'siri ostidagina ongli ravishda maksadga yo`naltirilgan faoliyat shaklini kasb etadi.

Bu faollik oldiniga impulsiv xatti-harakat xususiyatiga ega bo`ladi. Tug`ilganidan keyingi dastlabki kunlarda bolaning xulq-atvori bir nechtagina oddiy tug`ma reaktsiya — himoyalanish (nur yorug`lashganda yoki baland tovush chiqqanida ko`z qorachig`ining torayishi, og`riq sezgan paytida ingrashi va bezovtalana boshlashi), ovqat so`rash (tamshanishi), chalkash-chulkash (tebratilganda jimib qolishi) va birmuncha keyinroq esa mo`ljallash-izlanish (qo`zg`atuvchiga boshini o`girishi, narsalarga qarashi va boshqalar) kabi reaktsiyalar bilan cheklanadi. O`n birinchi-o`n ikkinchi kunligidan tortib chaqaloqda dastlabki shartli reflekslar shakllana boshlaydi. Shu tufayli bir yoshi mobaynida bolada izlanish xulq-atvori (ushlash, ko`zdan kechirish, har xil shaklda aylantirish) rivojlana boradi, buning natijasida u tashqi dunyodagi narsalarning xossalari haqida ma'lumot yig`adi va harakatlar uyg`unligini o`zlashtiradi. Ta'lim olishi va taqlid qilishi ta'sirida bir yoshidan boshlab bolada amaliy xulq-atvor shakllana boradi. Buning yordamida bola buyumlarni ishlatishning insoniy usullarini va ularning ijtimoiy amaliyotdagi ahamiyatini o`zlashtira boshlaydi (uxlash uchun karavotga yotadigan, stulchaga o`tiradigan, to`pni o`ynaydigan, qalam bilan rasm soladigan bo`ladi).

Faollikning ushbu shakllari bilan birlikda kommunikativ xulq-atvor bolaga o`z ehtiyojlari va istaklarini qondirish, ijtimoiy talablarni va axborotni o`zlashtirishi uchun yordam beradigan asosiy vosita rivojlana boshlaydi.

Dastlabki kezlarda bu xulq-atvor nutqgacha davri shakllari (baqirish, imo-ishora qilish, mimika) orqali ro`yobga chiqariladi. Yetti-sakkiz oyligidan bola oldiniga sustroq, keyinroq esa faol ravishda insoniy muloqot, hamjihatlik va axborot ayirboshlashning asosiy vositasi - nutqiy xulq-atvorni o`zlashtira boshlaydi. Nutqning o`zlashtirilishi timsollarni buyumlardan va harakatlardan ajratish uchun, ma'nolarni bo`rttirib ko`rsatish, ularni qayd etish va xulq-atvorni idora qilishda ularga tayanib ish tutish uchun xal qiluvchi negiz yaratadi.

2. O`yin

Hayotining birinchi yillaridayoq bolada faoliyatning oddiy shakllarini o`zlashtirishi uchun dastlabki shart-sharoitlar tarkib topa boshlaydi. Ulardan birinchisi o`yin faoliyati hisoblanadi.

Ma'lumki, o`yin faoliyatini hayvonlarning bolalarida ham kuzatiladi. Bu - ularning turli xildagi xarxashalaridan, urishishni taqlid qilishi, uyoqdan-buyoqqa chopishi va

hokazolardan iboratdir. Ba'zi bir hayvonlarning buyumlarni o`ynashlari ham kuzatiladi. Jumladan, mushukcha dumalayotgan ip koptogidan ko`zlarini uzmay qarab o`tiradi va unga tashlanadi, uni dumalatadi va hokazo. Kuchukcha topgan lattasini pol ustida sudrab yurib, titkilay boshlaydi. Hayvon bolalarining o`yin jarayonidagi qilig`ini avvalo ularning organizmidagi faollikka, jamlangan kuch-quvvatni sarflashga bo`lgan ehtiyojni qondirishi deb qarash mumkin. Ular och qolganlarida yoki kamroq oziqa berilganda, yuksak haroratli muhitning ta'siri ostida va, nihoyat, hayvonning tanasi haroratini oshirib yuboradigan yoki miyaning faolligini susaytirib qo`yadigan kimyoviy moddalar ta'siri ostida o`yinni to`xtatishlari ana shundan dalolat beradi. Agar hayvon birmuncha vaqt mabaynida o`ynaydigan sherigidan mahrum etib qo`yilsa, keyinchalik uning qo`zg`alishi va o`yin faoliyati keskin kuchayadi, ya'ni go`yo tegishli kuch-quvvat to`plangani kabi hodisa ro`y beradi. Bu hodisa «o`yinga to`ymaslik» deb ataladi.

Uyin faoliyati bilan organizmda kuch-quvvat almashinuvi o`rtasidagi bog`lanish o`yinga nisbatan maylning tug`ilishiga olib keladi. Lekin o`yin faoliyatini ro`yobga chiqaradigan fe'l-atvor shakllari qanday va qayoqdan paydo bo`ladi? Kuzatishlar shuni ko`rsatadiki, bulardan ba'zi birlari, masalan, mushukchadagi «sichqon ovlash» ishtiyoqi hayvonning tug`ma instinktiv harakatlari jumlasiga kiradi. Boshqa bir xillari esa, masalan, shimpanze bolasining katta yoshdagi maymunlar va odamlarning harakatlarini takrorlashi taqlid qilish orqali yuz beradi. Uchinchi bir xili tevarak-atrofdagi olam bilan o`zaro birgalikda harakat qilish jarayonida hayvonlarning o`zlari tomonidan topiladi. Shunday kilib, hayvon bolalari harakatlarining manbai ham xuddi katta yoshdagi hayvonlarda bo`lgani kabi turlarga xos instinktlarda, taqlid qilishda, o`rganishda mujassamlashgandir. Shuning uchun ham hayvon bolalarining xatti-harakatlari katta yoshdagi hayvonlarning turlariga oid fe'l-atvorga o`xshamasligi mumkin emas. Lekin bu harakatlar katta yoshdagi hayvonlarda ovqatlanishga, dushmanlardan o`zini himoya qilishga, muhitda to`g`ri mo`ljal olishga, xavf-xatardan saqlanishga va shu kabilarga bo`lgan muayyan real biologik ehtiyojlarni qondirish uchun xizmat qiladi. Hayvon bolalarida esa xuddi ana shu harakatlar shunchaki «faoliyat» o`rnida sodir bo`ladi va o`zining real biologik maqsadlaridan ajralgandir. Ular o`yin faoliyatining o`ziga xos tub xususiyati ana shunda mujassamlashgandir. Uning maqsadi o`zining yordami tufayli muvaffaq bo`linadigan, amaliy natijalarga ershiishdan emas, balki amalga oshiriladigan «faoliyat» ning o`zidan iboratdir.

Tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, o`yin bolalarda ham o`z faolligini ro`yobga chiqarish shakli, hayot kechirish va faoliyat ko`rsatish shakli bo`lib xizmat qiladi. Shu tarzda u funktsional mamnunlik bilan bog`liqdir. Faollikka bo`lgan ehtiyoj uning qo`zg`atuvchisi bo`lsa, taqlid qilish va tajriba esa manbai hisoblanadi. Lekin bolaning o`yin harakatlari avval boshdanoq buyumlardan foydalanishning insoniy usullari va amaliy xulq-atvorning katta yoshdagilar bilan muloqot jarayonida va katta yoshlilar rahbarligida o`zlashtirib olinadigan insoniy shakllari zamirida rivojlana boradi. Bu hol bolalar o`yin faoliyatining printsipial jihatdan muhim xususiyatlarini belgilab beradi, uning shakllari, manbalari, mexanizmlari, funktsiyalari va natijalari hayvonlarning o`yinidan tubdan farq qilishiga olib keladi.

Bola o`z tajribasida qurol buyumlar bilan bir vaqtning o`zida boshqa turdagi buyumlar - o`yinchoqlarga duch keladi. Uyinchoqlarini ishlatishning insoniy usuli - o`yin, ya'ni ular yordamida allaqanday boshqa, haqiqiy buyumlar va harakatlarni ifoda etishdir. Katta yoshdagilar bolalarni o`yinchoqlardan ana shu tarzda foydalanishga o`rgatadi. Ular bolaga qo`g`irchoqqa suv qanday ichirilishini, uni qanday qilib tebratish kerakligini, sayr

qildirishni, o`yinchoq ayiq bolasini qanday ovqatlantirishni, mashinani qanday qilib xaydash kerakligini ko`rsatishadi va hokazo.

Lekin bolada o`yinchoqqa nisbatan «haqiqiy» buyumning tasviri sifatidagi munosabatning o`zi o`yin faoliyatiga faqat so`z aralashuvi munosabati bilan hosil bo`ladi.

Kichkina bola (bir yoshdan ikki yoshga qadar) xali, masalan, tebratish, ovqatlantirish va boshka shu kabi harakatlarni qo`g`irchoqdan cho`pga ko`chira olmaydi. U tegishli buyumsiz harakatni tasvirlashni yoki bu harakatni bir buyumdan ikkinchisiga ko`chirishni uddalay olmaydi. Bunday jarayonlar u faqat nutqni egallagandagina yuz berishi mumkin. Bola payraxaga qo`g`irchoq sifatida muomala qila boshlashi uchun uni qo`g`irchog`im deb (masalan, «Katya» deb) ataydigan bo`lishi kerak. U ovqatlantirish harakatini qo`g`irchoqdan toychaga ko`chirishi uchun unga katta yoshdagi kishilar «toychani ovqatlantir» va hokazo deb aytishi kerak. Keyinroq so`z kattalar «haqiqiy» buyumlarda kuzatadigan harakatlarni bolaning o`zi ham mustaqil ravishda o`yinchoqqa ko`chirishiga imkoniyat yaratadi. Bola so`zning ahamiyatini amaliy harakatlar orqali yoki katta yoshdagilarning harakatlarini kuzatish natijasida o`zlashtirib olgan holda so`z bilan birgalikda bu harakatlarni o`ynaydigan buyumlariga ko`chiradi. Bu o`rinda o`yin faoliyati buyumning ahamiyatini belgilaydigan harakatlarni o`sha buyumning o`zidan ajratishdan va bu harakatlarni boshqa buyumga - o`yinchoqqa ko`chirishdan iborat bo`ladi. Uyin faoliyati tufayli so`zning ahamiyatini buyumning tashqi ko`rinishidan amalda ajratiladi va bu mohiyat buyum ustidagi harakatlar bilan, uning kishi faoliyatidagi vazifasi bilan bog`lanadi.

Bu jarayon qanchalik chuqurlasha borgan sari so`z buyumlar bilan bsvosita bog`lanishidan holi bo`la boradi. So`zning ahamiyati tashqi harakatlarda, so`ngra esa harakat to`g`risidagi tasavvurda borgan sari kengroq ifodalana boshlaydi. Buyumlar bilan bajariladigan real harakatlarni nutq harakatlari bilan almashtirish imkoniyatlari paydo bo`ladi. To`rt-besh yoshga etganda o`yinchoqlar bilan o`ynash choridagi real harakatlar borgan sari yo`qola boradi va nutq xarakatlarga aylana boshlaydi. Bola qo`g`irchoqni ovqatlantirish jarayonini batafsil tasvirlash o`rniga endi qoshiqchani uning og`ziga bir martagina tutish va «Ovqatlantiryapman... Endi bas, to`yib qolding», deyish bilan kifoyalanadi va hokazo. Uchinchi yoshning o`rtalariga borib bolada o`z harakatlarini boshqalarning harakatlariga qarshi qo`yish paydo bo`ladi, bola faoliyati va istaklarinint tashqi olamga hamda boshqa odamlarga e'tirozini ifoda etuvchi «meni» ajralib turadi. Buyumlarga bo`lgan munosabat odamlarning buyumlarga nisbatan funktsiyalarn sifatida namoyon bo`la boshlaydi. Rolli o`yinlar paydo bo`ladi. Rolli o`yinlarda bola katta yoshdagi kishilarning o`zi kuzatgan ijtimoiy funktsiyalarini, ularning shaxs sifatidagi xulq-atvorini aynan takrorlaydi. Jumladan, ikki yashar qizcha qo`g`irchoqni ovqatlantirarkan, ovqat edirish o`yini bilan ovora bo`lsa, to`rt yashar bola qo`g`irchoqni ovqatlantirayotganda qizini ovqatlantirayotgan ona bo`lib o`ynaydi. Bolaning sotsial tajribasi kengaya borgan sari maishiy mavzuga oid syujetlar («ona», «tarbiyachi», «kino», «bolalar bog`chasi», «hayvonat bog`i»), ishlab chiqarishga oid syujetlar («uchuvchilar», «kosmonavtlar», «tramvay», «zavod») va so`ngra ijtimoiy-siyosiy («urush», «pionerlar» va shu kabi) syujetlar bilan boyitila boradi. Bunda o`yin mazmuni konkret harakatlarni tasvirlashdan odamlar o`rtasidagi munosabatlariki tasvirlashga tobora ko`proq ko`chiriladi.

Aslida bu o`rinda so`zlar va tevarak-atrofdagi hodisalarning mohiyatini amalda egallash jarayoni yana ham rivoj topadi. Ushbu jarayon esa o`z doirasiga inson funktsiyalari va munosabatlarining sotsial mohiyatini, ularning bola tomonidan kuzatilayotgan xulq-atvorda qay tariqa mujassamlashuvini o`z doirasiga jalb etadi.

(Bugungi bolaning - radio tinglovchining, kino va televidenie tomoshabinining shu xildagi kuzatuv doirasi ham juda kengdir.)

Bola vrach bo`lib o`ynarkan, o`zini xuddi «vrach kabi» tutadi. U qalamni xuddi stetoskop singari ushlaydi, qo`g`irchoqni yotqizayotib, boshini chayqab qo`yadi va «Senga ukol qilish kerak ekan» deydi va hokazo. Uning harakatlari mazkur paytda bola ishlatayotgan buyumlar xossasi bilan emas, balki vrachning vazifalari to`g`risidaga tasavvurlar bilan boshqariladi. Boshqacha so`zlar bilan aytganda, bolada o`z xulq-atvorini sotsial rol va unga tegishli harakatlar to`g`risidagi tasavvurlar bilan boshqarish qobiliyati shakllana boshlaydi. Rolli o`yinlarning rivojlangan bosqichiga etganda bola boshqa bolalar bilan o`zaro hamkorlikka kirisha boshlaydi. Bolalar o`yin paytida rollarni taqsimlar va bir-biri bilan qabul qilingan rollarga mos keladigan tarzda muomala qilarkan (ona-bola, vrach-bemor tarzida) sotsial xulq-atvorni, kollektiv talablariga bo`ysundirilgan harakatlarni kelishib olishni o`zlashtirishadi.

Qoidali o`yinlar o`ynaladigan keyingi bosqichda xulq-atvorning bu belgilari yana ham rivojlana boradi. Shuni ham e'tiborga olish kerakki, endilikda harakatlar mavhum talablar yoki qoidalar bilan boshqariladi. Tevarak-atrofdagi kishilar, o`yin ishtirokchilari ana shunday qoidalarning sohiblari sifatida namoyon bo`ladilar. Faoliyatning o`zidan ko`zlangan maqsad uning sotsial jihatdan mustaxkamlangan natijasiga ko`chiriladi, ya'ni yutib chiqishga qaratilgan bo`ladi. Amalda ana shu o`rinda o`yindan chiqish boshlanadi. Ijtimoiy belgilariga ko`ra o`yin bo`lib qoladigan (faoliyat hamon biron-bir foydali mahsul bermaydi) bu faoliyat psixologik tuzilishi jihatidan mehnatga (maqsad faoliyat ko`rsatishning o`zidangina emas, balki natijaga erishishdan iborat) va ta'limga (maqsad o`yinni o`zlashtirib olishdan iborat) yaqinlashadi.

Shunday qilib, o`yin bolani buyumlar va hodisalarning nutq amaliyotda mujassamlashgan mohiyatlarini o`zlashtirib olishini va ushbu mohiyatlarni ishlata bilishni mashq qildiradi. Uyin bajarilayotgan harakatlarni aynan jarayon sifatida anglanishini («jo`rttaga») rivojlantiradi, bu jarayonlarning o`zini o`zi idora qilish (qoidalar) asosida bajarilishini o`rgatadi, pirovardida esa o`zini konkret harakatlar sub'ekti sifatida idrok etishdan sotsial rolni bajaruvchi, ya'ni insoniy munosabatlar qiluvchi sub'ekt sifatida idrok etish darajasiga qadar rivojlanganligini anglab etishiga imkoniyat yaratadi.

3. Ta'lim

Bolaning xulq-atvori va faoliyati rivojini o`rganar ekanmiz, bitta eng muhim faktga duch kelamiz. Bolada bir nechtagina oddiy shartli reflekslardan tashqari unda keyinchalik kuzatiladigan boshqa barcha xulq-atvor shakllari va faoliyat turlari oldiniga yo`q, bo`ladi. Amaliy va kommunikativ xulq-atvor, mo`ljal olish va izlanish faoliyati, ushlash va u yoq-bu yoqqa surish, emaklash, yurish, gapirish va o`ynash, mehnat qilish va sotsial jihatdan birgalikda harakat qilish bola tug`ilganidan so`ng ma'lum bir vaqt o`tgach paydo bo`ladi va rivojlana boshlaydi. Buning ustiga xulq-atvorning har qanday shakli va faoliyatning har bir turi o`zining paydo bo`ladigan muayyan davrlariga, shakllanish sub'ektlariga va o`zining qayta qurilish hamda murakkablashish bosqichlariga ega bo`ladi. Ularning hammasi bolaning rivojlanish faktlari hisoblanadi, bu faktlar esa undagi muayyan tug`ma asos va nasliy programmalar bilan, organizmning rivojlanishi va anatomik-fiziologik jihatdan etilishi, uning oliy nerv faoliyati funktsional mexanizmlarining shakllanishi va murakkablasha borishi bilan bog`liq bo`ladi.

Shunday bo`lsa-da na xulq-atvorning bu shakllaridan birontasi, na shu faoliyat turlaridan birontasi tashqi muhit shart-sharoitlaridan mustasno holda, o`zicha avtomatik tarzda paydo bo`lmaydi. Ularning barchasi bolaning amaliy va sotsial tajribasi asosida, unipg tevarak-atrofdagi odamlar va buyumlar bilan o`zaro birgalikdagi harakati tufayli paydo bo`ladi va rivojlana boradi. Bola «odamga aylanishi» jarayonida qanday tajriba orttirgan bo`lsa, o`rganish faktlari, ya'ni tajribaning o`zlashtirilishi hisoblanadi. Kishi xulq-atvori biologik tajriba bilam emas, balki sotsial tajriba bilan belgilanadi. Sotsial tajriba esa biologik yo`l bilan o`tkazilishi mumkin emas. U organizmning xossalari bilan emas, balki kishi yashayotgan xususiyatlari bilan belgilanadi. Biologik yo`l bilan nasldan-naslga faqat organizmning sotsial tajribani, xulq-atvor va faoliyatning insoniy shakllarini amalda o`zlashtirish uchun zarur bo`lgan ayrim xususiyatlarignna o`tishi mumkin. Bola xulq-atvorining tug`ma biologik xususiyatlarga oldindan qat'iy holi ekanligi uning xayvon bolasiga nisbatan eng muhim afzalligi hisoblanadi. Ana shunday afzallik tufayli kishi xulq-atvori turlari va faoliyati usullari evolyutsiyasining boshlanishi uning organizmining biologik rivojlanishi bilan emas, balki jamiyatning tarixiy rivojlanishi bilan begilana boshladi.

Shunday qilib, o`rgatish bolada xulq-atvorning va borliqni aks ettirishning insoniy shakllarini hosil qilishga yordam beradigan yetakchi rivojlanish omili sifatida amal qiladi.

Lekin bola xulq-atvori va faoliyatining biz hozirga qadar ko`rib chiqqan barcha turlarida ushbu pirovard natija, ya'ni ijtimoiy tajribaning o`zlashtirilishi faoliyatning aynan o`z maqsadlariga to`g`ri kelgani yo`q. Bola buyumlarni biron-bir narsani o`rganish uchun u yoqdan-bu yoqqa surmaydi. U dastlabki qadamlar qo`yayotganida va ilk bor gapirishga urinayotganida yurish va gapirishni o`rganishni maqsad qilib qo`ymagan bo`ladi. Uning xatti-harakatlari tekshirib ko`rishga, faollik ko`rsatishga, buyumlarga egalik qilishga, tevarak-atrofdagilarga ta'sir o`tkazishga va shu kabilarga bo`lgan bevosita ehtiyojlarini qondirishga qaratilgandir. Tegishli harakatlarning va axborotning o`zlashtirilishi shu sababdan ham bola uchun maqsad emas, balki tegishli ehtiyojlarni qondirish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Faoliyatning alohida turi bola hayotida sodir bo`ladigan vaqt ham yetib keladi. Bu maqsadi bevosita muayyan axborotni, harakatlarni, xulq-atvor shakllarini o`zlashtirishga qaratilgan faoliyatdir. Sub'ektning o`rganishni o`ziga maqsad qilib olgan, bunday o`ziga xos faoliyati ta'lim deb ataladi. U quyidagilardan tarkib topadi: a) ideal va amaliy faoliyatning u yoki bu turini muvaffakiyatli tashkil etish uchun zarur bo`lgan tashqi olamning muhim ahamiyatli xossalari xususidagi axborotning o`zlashtirilishi (bu jarayonning mahsuli - bilimlardir); b) faoliyatning ana shu barcha turlari tarkib topadigan usullar va jarayonlarning o`zlashtirilishi (bu jarayon mahsuli - malakalardir); v) qo`yilgan vazifa va ilgari surilgan maqsadga muvofiq keladigan usullar va jarayonlarni to`g`ri tanlash hamda nazorat qilish uchun ko`rsatilgan axborotdan foydalanish yo`llarining egallanishn (bu jarayon mahsuli - ko`nikmalar hosil qilinishidir).

Shunday qilib, ta'lim kishining harakatlari muayyan bilimlar, malakalar, ko`nikmalarni o`zlashtirib olishga qaratilgan ongli maqsad bilan idora qilingan joydagina yuz beradi.

Bundan ko`rinib turibdiki, ta'lim - o`ziga xos insoniy faoliyatdir. Hayvonlarda esa faqat o`rganish bo`lishi mumkin. Lekin odamda ham faqat u o`z xatti-harakatlarini anglab yetilgan yuksak xayoliy maqsadga (idealga) ko`ra yo`naltirish layoqatiga ega bo`lgandagina ta'lim faoliyati yuz berishi mumkin. Bunday layoqatning yetarli darajadagi rivojlanishiga faqat olti-yetti yoshga chiqqan paytga kelib, faoliyatning oldingi turlari -

o`yin, nutq, amaliy xulq-atvor va shu kabilar negizida shakllana borgan holda erishiladi. O`quv faoliyatini shakllantirishning eng birinchi asosiy sharti - bolada muayyan bilimlarni, ko`nikma va malakalarni o`zlashtirish uchun anglanilgan motivlar tug`ilishi hisoblanadi.

Katta yoshli kishilar bolaning rivojlanishiga faol ijtimoiy ta'sir ko`rsatuvchilar sifatida namoyon bo`ladilar. Ular uning faoliyati va xulq-atvorini uyushtiradilar, ularni insoniyatning ijtimoiy praktikasi doirasida yo`naltiradilar. Bola faoliyati va xulq-atvorini ularning insoniyat ijtimoiy tajribasini o`zlashtirish sari yo`naltirishdan iborat ushbu faol jarayon o`qitish deb ataladi. Bola shaxsining rivojlanishiga uning ta'siri nuqtai nazaridan olinganda bu jarayon tarbiya deb ataladi. Ta'lim va tarbiyani amalga oshirishga yordam beradigan asosiy vositalar - bu bajarilishi lozim bo`lgan ishni ko`rsatish va tushuntirishdan, rag`batlantirish va jazolashdan, vazifalar va talablar qo`yishdan, tekshirish va tuzatishdan iboratdir. Katta yoshli kishilar ushbu ta'sirlar yordamida bolada bilimlarni egallashga va faoliyat ko`rsatishga istak tug`dirgan, uni yo`naltirgan, nazorat qilgan, to`g`rilab borgan va shu yo`sinda uni shakllantirgan holda bu faoliyatni boshqarib turadilar.

Bularning hammasi qay tarzda, qanday vositalar bilan, qanday materialda va qaysi maqsadda bajariladi, qanaqa axborot ma'lum qilinadi va qanday harakatlar o`zlashtiriladi - bu masalalarning hammasi bilan alohida fan - pedagogika fani shug`ullanadi.

O`quv faoliyati kishini ijtimoiy foydali faollik ko`rsatishning har xil turlari uchun zarur bilimlar, malakalar va ko`nikmalar bilangina qurollantirib qolmaydi. U kishida shuningdek o`zidagi psixik jarayonlarni idora qilish, o`z xatti-harakatlari va operatsiyalarni tanlay bilish, uyushtirish va yo`naltira bilish malakalarini, bajarilayotgan vazifaga mos keladigan ko`nikmalar va tajribani ham shakllantiradi. Uquv faoliyati shu tariqa kishini mehnatga tayyorlaydi.

4. Mehnat

Mehnat - bu ma'lum bir ijtimoiy foydali (yoki hech bo`lmaganda jamiyat tomonidan-iste'mol qilinadigan) moddiy yoki ma'naviy mahsulotni ishlab chiqarishga yo`naltirilgan faoliyat demakdir. Mehnat faoliyati - kishining eng yetakchi, asosiy faoliyatidir. Insoniyat agar mehnat qilishni to`xtadigan bo`lsa, u (tur sifatida) o`z hayot-mamotini tugallagan bo`lur edi. Shuning uchun ham mehnat faoliyati kishining hayot kechirishini, boshqa turlar ustidan g`alaba qozonishini hamda tabiat kuchlari va moddalaridan foydalanishini ta'min etadigan o`ziga xos turga oid xulq-atvori deb hisoblanishi mumkin.

Mehnat faoliyati odamlar iste'mol qiladigan buyumlarni va ana shunday iste'mol qilinadigan buyumlarni ishlab chiqarish uchun zarur buyumlarni - don va mashinalarni, mebel va qurollarni, kiyim-kechak va avtomobillarni hamda shu kabilarni ishlab chiqarish maqsadini ko`zlagan bo`lishi mumkin. Bular energiyadan (issiqlik, yorug`lik, elektr, harakat) va axborot vositalaridan (kitoblar, chizmalar, filmlar) iborat bo`lishi mumkin. Pirovardida bu ideologiya mahsulotlari (fan, san'at, g`oyalar) va kishilarning xulq-atvorini hamda mehnatini uyushtiruvchi (boshqaruv, nazorat qilish, muhofaza qilish, tarbiyalash) harakatlar bo`lishi ham mumkin.

Bu o`rinda kishi tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulot uning o`z ehtiyojlarini qondirish uchun zarurligi yoki zarur emasligining ahamiyati yo`q. Agar bu mahsulot umuman jamiyatga kerak bo`lsa, shuning o`zi kifoya. Xususan, kishi faoliyatining

maqsadlari uning shaxsiy ehtiyojlari bilan belgilanmaydi. Bunday maqsadlarni unga jamiyat belgilab berayotir, faoliyatning o`zi esa muayyan ijtimoiy topshiriqni bajarish shaklini kashf etmoqda. Shunday qilib, kishilarning mehnat faoliyati o`z mohiyatiga ko`ra ijtimoiy hisoblanadi. U jamiyat ehtiyojlari bilan shakllanadi, belgilanadi, yo`naltiriladi va boshqariladi.

Bu faoliyat o`z xarakteriga ko`ra ham ijtimoiy hisoblanadi. Hozirgi jamiyatda mehnat taqsimoti tufayli kishi o`zi uchun talab qilingan barcha narsalarni faqat ishlab chiqarmaydigina emas, balki bironta xam mahsulotni ishlab chiqarishda deyarli hech qachon boshidan oxiriga qadar ishtirok etmaydi. Shuning uchun ham kishi hayot uchun talab qilinadigan barcha narsalarni o`z mehnatiga ayirboshlangan tarzda jamiyatdan olishi kerak. Shaxsning ehtiyojlari tashqaridan qaraganda uning o`z mehnati bilan emas, balki jamiyat tomonidan qondirilayotgandek bo`lib tuyuladi. Buning qanday yuz berishi jamiyatda hukmron bo`lgan ishlab chiqarish munosabatlari sistemasi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham jamiyatda har qanday mahsulotning ishlab chiqarilishi ayni paytda mehnat qilish, uning mahsulini taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonida odamlarning muayyan munosabatlarini ro`yobga chiqarish bo`lib ham hisoblanadi.

Shu tariqa kishi mehnat jarayonida bajaradigan harakatlar biologik ehtiyoj bilan emas, balki ilgari surilgan ishlab chiqarish maqsadi va bu maqsadni ro`yobga chikarish jarayonida uning boshqa odamlarga nisbatan munosabatlari bilan belgilanadi. Bu xildagi harakatlarni bajarish va boshqarish uchun axborotni qayta ishlashning oliy jarayonlaridan foydalanish va, eng avvalo, tasavvur va tafakkurni ishga solish zarurdir.

Bulardan shu narsa ravshanki, knshi psixikasining bu ajoyib xususiyatlari manbainn isbot qilish maqsadida «rux» ning qandaydir alohida xususiyatlarini o`ylab topishga hojat yo`q. Bularga bo`lgan zarurat inson faoliyati qonuniyatlari bilan belgilanadi, ya'ni kishining ijtimoiy-mehnat mohiyatiga ega bo`lgan jonzot sifatida mavjudligi shaklining o`zidan kelib chiqqandir.

Ro`yobga chiqarilishi uchun yuksak psixik funktsiyalar bajarilishini takozo etarkan, kollektiv mehnat faoliyati ayni chog`da insoniyatning rivojlanish jarayonida ularning shakllanishi uchun asos va shart-sharoitlar yaratadi.

Misol uchun ibtidoiy ovchilar o`rdasidagi hurkituvchilarning xatti-harakatlarini olib ko`raylik. Ularning harakatlari o`z holicha o`ljani ushlashga qaratilgan bo`lmaydi. Bunisi tugul, agar u yolg`iz o`zi harakat qiladigan bo`lsa, u holda uning bu harakatlari o`ljaning osongina qochib ketishiga olib kelgan bo`lardi - uning o`zi esa qolardi. Shuning uchun uning butun faoliyati faqat boshqa kishilarning - ovchilarning faoliyati bilan uyg`unlashgan tarzdagina biron-bir ma'no kasb etadi. Hayvon xurkituvchi maqsadga erishish uchun ovchilarning harakatlarini hisobga olishi, ya'ni bug`uni duch kelgan tomonga haydamasdan, balki ovchilar tomonga haydashi kerak. Shu tariqa uning xatti-harakatlari biologik mohiyatga ega bo`lgan maqsadga karatilgan bo`lmasdan, aksincha ijtimoiy mohiyat kasb etadi. U ichki instinktiv kechinmalar shaklida emas, balki tashqi real ob'ektlar bilan bo`ladigan harakatlarning idrok etilishi orqali aks etadi. Shu tarzda ob'ektlar va ular bilan bajariladigan harakatlarning timsollari faoliyatga undaydigan biologik ehtiyojning xayoldagi kechinishidan amaliyotning o`zi bilan ajratiladi.

Mehnatni uning tabiat maxsulini shunchaki o`zlashtirishidan farq qildiradigan eng muhim belgisi shundan iboratki, u qurollarni tayyorlash va ko`llanish bilan, ya'ni buyumlarning birining ikkinchisiga ta'siridan foydalanish bilan bog`liqdir. Shuning uchun ham mehnat jarayonida buyumlarning bir-birlariga nisbatan ob'ektiv xossalari namoyon bo`ladi. Har qanday mehnat ham buyumlarning biologik mohiyatiga emas, balki ana shu

ob'ektiv xossalariga amal qiladigan faoliyat hisoblanadi. Masalan, nayzaga suyakdan uchlik yasash uchun suyakni xazm qilib bo`lishi yo bo`lmasligi emas, balki uning nisbatan qattiqligini hisobga olish lozim bo`ladi. Suyakdan buyumlarni yasashga oid bunday harakatlar ham suyakning ta'mi yoki to`yimliligi bilan emas, balki uning ana shu ob'ektiv xossalari bilan boshqariladi.

Shunday qilib, odamlarning amaliy ijtimoiy mehnat bilan kechadigan turmush o`zi ular uchun buyumlarning yangi mohiyatlari va ularga nisbatan yangi munosabatni yaratadi. Kollektiv faoliyatning o`zi buyumlarda ularning ob'ektiv xossalarini alohida ko`rsatib beradi. U boshqa odamlar bilan axborot ayirboshlashga va bu axborotni alohida kommunikativ harakatlarda - nutqda mustahkamlashga majbur etadi. Aynan kollektiv faoliyat boshqa odamlarni ham shu faoliyat ishtirokchilari deb qarashga majbur qiladi. Pirovardida u shaxs xatti-harakatlarini ideal maqsadlarga yo`naltirishga va ularni ijtimoiy tajriba bilan belgilashga o`rgatadi.

Voqelikka nisbatan bunday munosabatda bo`lish esa, yuqorida ko`rib o`tganimizdek, ongning negizini tashkil etadi. U kishini buyumlarga nisbatan faoliyat sub'ektiga va odamlarga nisbatan esa shaxsga aylantiradi. U kishini tevarak-atrofdagi olamning qulidan uning sohibi darajasiga ko`taradi, kishiga bu olamni qayta o`zgartirish va uzoqqa mo`ljallangan maqsadlarga erishish uchun intilish imkonini beradi, kishining xatti-harakatlarini ongli ravishda rejalashtirilgan faoliyatga va uning Yer kurrasida mavjudligini esa moslashgan holda hayot kechirishdan ma'lum bir mazmun va yuksak maqsadga ega bo`lgan faol hayot kechirishga aylantiradi.

Adabiyotlar

Асмолов А. Г. Деятельность и установка. М., МДУ nashriyoti, 1979.

Виноградова М. Д,, Первин И, Б. Коллективная познавательная деятельность и воспитание школьников. М., Просвещение, 1977.

Запорожец А. В. Развитие произвольных движений. М, РСФСР, ПФА nashriyoti, 1960.

Леонтьев А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. М., Политнздат, 1975.

Ломов Б. Ф. Человек и техника, Иккинчи нашри, М., Сов. радио, 1966.

Милерян Е. А. Психология формировання общетрудовых политехнических умений. М., Педагогика, 1973.

Эльконин Д. Б. Психология игры. М., Педагогика, 1972.

11-ma'ruza. Muomala haqida tushuncha

Reja:

1. Muomalaning ko`p qirraligi
2. Munosabat va faoliyatning birligi

1. Muomalaning ko`p qirraligi

Insonning o`zini qurshab turgan olam bilan o`zaro birgalikdagi harakati odamlar o`rtasida ularning ijtimoiy hayoti va, eng avvalo, ishlab chiqarish faoliyati jarayonida tarkib topadigan ob'ektiv munosabatlar sistemasida yuz beradi. K. Marks ishlab chiqarish munosabatlarining jamiyatnnng asosi tarzidagi mohiyatini ochib berarkan, shunday deb yozgan edi: «Ishlab chiqarishda kishilar tabiatgagina emas, balki bir-birlariga ham ta'sir etadilar. Ular birgalashib ishlamoq va o`z faoliyatlarini o`zaro ayirboshlamoq uchun

ma'lum tarzda birlashmasdan turib ishlab chiqara olmaydilar. Ishlab chiqarmoq uchun odamlar bir-birlari bilan muayyan aloqa va munosabat bog`laydilar va faqat shu ijtimoiy aloqa va munosabatlar orqali ularning tabiatga nisbatan munosabatlari mavjud bo`lib turadi, ishlab chiqarish voqe bo`ladi».

Ob'ektiv munosabatlar va aloqalar (bog`langanlik, bo`ysunganlik, hamkorlik, o`zaro yordam munosabatlari va boshqalar) har qanday real guruhda muqarrar va qonuniyatli tarzda yuzaga keladi. Guruh a'zolari o`rtasidagi ushbu o`zaro ob'ektiv munosabatlarning in'ikosi shaxslararo sub'ektiv munosabatlardirki, ularni o`rganish bilan sotsial psixologiya shug`ullanadi.

Guruh ichida shaxslararo birgalikdagi harakat va o`zaro munosabatlarni tadqiq qilishning asosiy yo`li - turli xildagi sotsial faktlarni, shuningdek, o`sha guruh tarkibiga kiradigan odamlarning o`zaro birgalikdagi harakatini chuqurroq o`rganishdan iboratdir. V. I. Lenin ayrim odamlarning real maqsadlari va his-tuyg`ulari haqida qanaqa belgilariga qarab xulosa chiqarish kerakligi to`g`risidagi savolga javob berarkan, shunday deb yozgan edi: «Ma'lumki, bunday alomat faqat bitta bo`lishi mumkin, u ham bo`lsa shaxslarning harakatlaridir, - ammo faqat ijtimoiy «Fikr-zikr va hislar» haqida so`z borayotganidan, bunga yana, shaxslarning ijtimoiy harakatlaridir, ya'ni sotsial faktlardir, deb ilova qilmoq lozim».

Demak, har qanday ishlab chiqarish odamlarning birlashuvini taqozo etadi. Ishlab chiqarmoq uchun odamlar birlashmog`i lozim - marksizm shunday ta'lim beradi. Lekin kishilarning hech qanday birligi unga jalb etilgan odamlar o`rtasida bog`lanish o`rnatilmagan va ular o`rtasida tegishli hamjixatlikka erishilmagan bo`lsa, birgalikdagi to`laqonli faoliyat yurita olmaydi. Masalan, o`qituvchi o`quvchilarga biron-bir narsani o`rgata olishi uchun, ular bilan munosabatga kirishishi shart.

Munosabat - odamlar o`rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog`lanishlar rivojlanishining ko`p qirrali jarayonidir.

Munosabat birgalikda faolnyat ko`rsatuvchilar o`rtasida axborot ayirboshlanishini o`z ichiga oladi. Bunday axborot ayirboshlanishi munosabatning kommunikativ jihati sifatida ta'riflanishi mumkin. Odamlar munosabatga kirisharkan, munosabatning eng muhim vositalaridan biri sifatidagi tilga murojaat qiladilar.

Munosabatning ikknichi jihati - munosabatga kirishuvchilarning o`zaro birgalikdagi harakati - nutq jarayonida faqat so`zlar bilan emas, balki harakatlar, xatti-harakatlar bilan ham ayirboshlashdan iborat. Univermag kassasi oldida hisob-kitobni amalga oshirarkan, xaridor bilan sotuvchi hatto ulardan birontasi hech qanday so`z ishlatishmasa ham o`zaro munosabatga kirishadi; xaridor kassirga xarid qilingan narsa uchun tovar cheki va pul taqdim etsa, sotuvchi chek urib, qaytimini sanab beradi.

Nihoyat, munosabatning uchinchi jihati munosabatga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok eta olishlarina taqozo qilishidir. Masalan, munosabat bo`yicha sheriklardan biri boshqasini ishonsa bo`ladigan, aqlli, tushunadigan, tayyorgarlik ko`rgan kishi sifatida idrok etishi yo idrok etmasligi, yoki oldindanoq u hech narsani tushunmaydi va xabar qilingan narsaning fahmiga etmaydi, deb hisoblashi juda muhimdir. Shunday qilib, yagona munosabat jarayonida shartli ravishda uchta jihatni - kommunikativ (axborot uzatish), interaktiv (o`zaro birgalikda harakat qilish) va pertseptiv (o`zaro birgalikda idrok etish) jihatlarni alohida ko`rsatish mumkin.

Ana shu uchta jihatning birligi holida o`rganilayotgan munosabat birgalikdagi faoliyatni va unga jalb etilgan odamlarning o`zaro birgalikdagi harakatlarini tashkil etish usuln sifatida maydonga chiqadi. Munosabat qonuniyatlarini bilish hamda munosabat

o`rnatish malakalari va qobiliyatlarini rivojlantirish pedagog uchun ayniqsa muhimdir. Negaki, uning kasbiga ko`ra vazifasi ham agar u o`quvchilarni o`zi bilan birgalikdagi faoliyatga unumli jalb qila bilgan, tarbiyaning maqsadlari va vazifalariga javob beradigan tarzdagi o`zaro birgalikdagi harakat va o`zaro hamjihatlikni yo`lga ko`ya olgan, ya'ni to`laqonli pedagogik munosabatni o`rnata olgan taqdirdagina muvaffaqiyatli hal etilishi mumkin.

Amalga oshirilishi shakllari jahatidan qaraladigan pedagogik munosabat – pedagog va ta'lim olayotganlarning o`zaro birgalikdagi harakati usullari sistemasidir. Bunda, avvalo, axborot ayirboshlash, o`qituvchi tomonidan turli xildagi kommunikativ vositalar yordamida o`quvchi bilan o`zaro hamjihatlik va o`zaro munosabatlar o`rnatilishi munosabatning mazmunini tashkil etadi.

Pedagog faoliyatining didaktik va xususan tarbiyaviy vazifalarini o`qituvchi bilan o`quvchilar kollektivi o`rtasidagi sermaxsul munosabat jarayonini tashkil etmasdan turib yetarli darajada unumli tarzda amalga oshirib bo`lmaydi. Shu tariqa pedagog faoliyatida munosabat, birinchidan, xususan o`quv vazifalarini xal etish vositasi sifatida, ikkinchidan tarbiyaviy jarayonna sotsial-psixologik jihatdan ta'minlovchi sistema sifatida, uchinchidan, o`qituvchilar va o`quvchilar o`rtasida tarbiya va ta'limning muvaffaqiyatli olib borilishiga imkon beradigan o`zaro munosabatlarning muayyan sistemasini tashkil etish usuli sifatida va, nihoyat, to`rtinchidan, buningsiz maktab o`quvchisining individga xos xususiyatlarini tarbiyalab bo`lmaydigan jarayon sifatida maydonga chiqadi. Pedagogik munosabat deganda pedagog va o`quvchilar kollektivi o`rtasida o`zaro birgalikdagi harakatning mazmunan axborot ayirboshlashdan, o`quv-tarbiyaviy ta'sir ko`rsatish va o`zaro hamjihatlikni tashkil etishdan iborat sistemasi, usullari va malakalari tushuniladi. Pedagog ushbu jarayonning tashabbuskori sifatida maydonga chiqadi va uni tashkil etadi hamda unga boshchilik qiladi.

Pedagogik munosabat, bir tomondan, o`quv-tarbiya jarayonining hissiy-holati bo`lib, ikkinchidan esa, uning bevosita mazmuniy ta'rifi sifatida namoyon bo`ladi.

2. Munosabat va faoliyat birligi

Munosabatning birgalikdagi faoliyat bilan aloqasi aniq-ravshandir. Lekin shunday savol tug`iladi: munosabat birgalikdagi faoliyatning bir qismi, tomoni, jihati hisoblanadimi yoki munosabat va faoliyat ikkita mustaqil, to`laqonli jarayonmi?

Kishi birgalikda faoliyat ko`rsatayotganda zaruriyatga ko`ra boshqa odamlar bilan birlashishi, ular bilan muomalaga kirishishi, ya'ni aloqa o`rnatishi, o`zaro hamjihatlikka erishishi, kerakli axborot olishi va javob tariqasida axborot berishi lozim va hokazo. Bu o`rinda munosabat faoliyatning bir tomoni, bir qismi, uning eng muhim informativ jihati, kommunikatsiya (birinchi turdagi munosabat) sifatida namoyon bo`ladi.

Lekin odam kommunikatsiya sifatida munosabatni o`z tarkibiga olgan faoliyat jarayonida biron narsa yaratib (asbob yaratib, fikr bildirib, hisoblar qilib, mashinani tuzatib va shu kabilarni amalga oshirib), shu bilangina cheklanib qolmaydi; u yaratilgan buyum orqali o`zini, o`zining xususiyatlarini, o`zining individualligini boshqa odamlarga «uzatadi», o`zini boshqa odamlarda (shu jumladan, faoliyat maqsadlariga erishish uchun u aloqa bog`laydigan odamlarda ham va hatto «o`zga odam» sifatida o`zida ham) davom ettiradi.

Yaratilgan narsa (qurilgan bino, aniq she'riy satr, o`tkazilgan daraxt, yaratilgan yoki ijro etilgan qo`shiq) - bu, bir tomondan, faoliyat mavzui bo`lsa, ikkinchi tomondan esa vosita sifatida namoyon bo`ladiki, kishi uning yordami bilan ijtimoiy hayotda o`zini qaror

toptiradi. Negaki, bu narsa boshqa odamlar uchun yaratilgandir. Shu narsa orqali odamlar o`rtasidagi munosabat bevosita o`z aksini topadi, ijod qilayotganlarga va bajarayotganlarga ham, iste'mol qilayotganlarga va o`zlashtirayotganlarga ham babbaravar tegishli bo`lgan umumiy narsani ishlab chiqarish tariqasidagi munosabat hosil bo`ladi.

Kapitalistik jamiyatda, undan ilgariroq feodal va quldorlik jamiyatlarida mehnat samaralari ajratib olinishi natijada odamlar o`rtasidagi umumiy narsani ishlab chiqarish sifatidagi munosabat to`silib va yemirilib turganligini qayd etish kerak. Yaratilgan narsada o`z mehnatini aks ettirgan holda uning bunyodkori bu narsa kimga mo`ljallangan bo`lsa, o`shanda o`zini davom ettirishga umid borlay olmasdi. Negaki, bu narsa orqali boshqalarga uning o`zi emas, balki uning xo`jayini o`zini ko`rsatar edi. Kishilarning munosabati, o`zaro bir-birini tushunishi, o`zaro bir-birini hurmat qilishi ana shu tariqa boshidanoq buzilardi. Ekspluatatsiya va kishi shaxsini allakimlarning iqtisodiy rejalari va manfaatlarini ko`zlagan holda ezish yo`q bo`lgan va mehnat samaralari ularni bunyod etuvchilarniki bo`lgan jamiyatda ahvol tamomila o`zgarib ketadi.

V. A. Suxomlinskiy shunday deb yozgan edi: «Inson o`zini avvalo insonda qoldiradi. Bizning umrboqiyligimiz ham ana shundadir. Hayot kechirishning oliy baxt-saodat ekanligi va mohiyati ham ana shundadir... Inson ruhi hayvonning hayot kechirishidan shunisi bilan ham farq qiladiki, biz o`z naslimizni davom ettirarkanmiz, unga o`z go`zalligimizni, ideallarimizni, yuksaklikka va olijanoblikka sodiqligimizni qoldiramiz. Siz o`zingizni odamda qanchalik chuqur aks ettira va namoyon qila olsangiz, siz grajdanin sifatida shunchalik boy-badavlat erursiz va sizning shaxsiy hayotingiz shu qadar baxtiyor bo`lardi».

O`zligini boshqalarda davom ettirish sifatidagi munosabat esa ikkinchi turga oid munosabat hisoblanadi. Agar bir turga oid munosabat (kommunikatsiya tarzidagi munosabat) birgalikdagi faoliyatning bir tomonn sifatida yuz bergan bo`lsa, o`zining muhim tomon ekanligi sifatida ikkinchi turga munosabat ijtimoiy qimmatga ega bo`lgan va shaxsan ahamiyatga molik narsani ishlab chiqarish bo`yicha birgalikdagi faoliyatni yuzaga chiqaradi. Bu o`rinda bog`liklik o`zgaradi va endi faolnyatning o`zi munosabatning bir jihati, qismi, zarur sharti sifatida maydonga chiqadi.

Adabiyotlar

1. Андреева Г. М. Межличностное восприятие в группе. MDU nashriyoti, M., 1981.

2. Бодалев А. А. Восприятие человека человеком. M., MDU nashriyoti, 1982.

3. Выгодский А. С. Мышление и речь. Собр. соч 2- том, M., Педагогика, 1982, 6—361-betlar.

4. Жинкин Н. И. Механизмы речи. M., RSFSR, PFA nashriyoti, 1958.

5. Добрович А. Общение: наука и искусство. M., Знание, 1978.

6. Коломинский Я. Л. Психология общения. M., Знание, 1974.

7. Кон И. С. Дружба. M., Политиздат, 1980.

8. Леонтев А. А. Педагогическое общение. M., Знание, 1979.

12-ma'ruza. Axborot ayirboshlash tarzdagi munosabat

Reja:

1. Munosabat va til
2. Og`zaki kommunikatsiya. Nutq
3. Nutq mexanizmi

4. Nutqsiz kommunikatsiya
5. Nutqning rivojlanishi

1. Munosabat va til

Munosabatning o`zaro birgalikda harakat qilish va faoliyat ko`rsatish jarayonida odamlarni birlashtiradigan umumiy narsa ishlab chiqarish tarzida tushunilishi ana shu umumiy narsa avvalo munosabat vositasi sifatadagi tildan iborat ekanligini bildiradi. Til munosabatga kirishuvchilar o`rtasida aloqa bog`lanishini ta'minlaydi. Negaki, uni bu maqsad uchun tanlangan so`zlar mohiyatiga ko`ra kodlashtirgan holda axborotni ma'lum qilayotgan kishi ham, bu mohiyatning kodini ochgan, ya'ni uning ma'nosini oshkor etgan va ana shu axborot asosida o`z xulq-atvorini o`zgartirgan holda bu axborotni qabul qilayotgan kishi ham tushunadi.

Axborotni boshqa kishiga yo`llayotgan kishi (kommunikator) va uni qabul qilayotgan kishi (retsipient) munosabat va birgalikdagi faoliyat maqsadlariga erishish uchun mohiyatlarni kodlashtirish va kodini ochishning bitta yagona sistemasidan foydalanishlari, ya'ni «bitta tilda» so`zlashishlari kerak. Agar kommunikator va retsipient kodlashtirishning turli xil sistemalarini qo`llaydigan bo`lsalar, bu holda ular o`zaro hamjihatlikka va birgalikda faoliyat borasida muvaffaqiyatga erisha olmaydilar. Vaviloniya minorasi qurilayotgan paytida quruvchilar kutilmaganda «aralash-quralash tilda» gaplasha boshlaganliklari oqibatida uning ag`darilib tushganligi haqida Injilda keltirilgan afsona kodlashtirish va kodlarni ochish jarayonlarini bir-biriga bog`lash chog`ida o`zaro birgalikda harakat qilinmasligini aks ettiradi. Negaki, turli xil tillarda so`zlashadigan kishilar bir-birlari bilan murosaga kela olmaydilar, bu esa birgalikdagi harakatning amalga oshirilishini amri mahol qilib qo`yadi. qo`llaniladigan belgilar (so`zlar, imo-ishoralar, ierogliflar va hokazolar) zamiridagi mohiyat munosabatda ishtirok etayotgan shaxslarga tanish bo`lgan taqdirdagina axborot ayirboshlash mumkin bo`ladi.

Mohiyat - belgining tevarak-atrofdagi voqelikni bilishni ifoda etadigan qism sifatidagi mazmunga ega bo`lgan jihatidir. Qurol odamlarning mehnat faoliyatini ifodalagani singari belgilar ham ularning bilish faoliyati va munosabatini namoyon qiladi.

So`zlar belgilari sistemasi hayot kechirish, ijtimoiy-tarixiy tajribani o`zlashtirish va o`zatish vositasi sifatidagi tilni tarkib toptiradi.

Ijtimoiy tajribani jamg`arish va uzatish vositasi sifatidagi til mehnat jarayonida paydo bo`lib, hali sinfsiz jamiyat tongotaridayoq rivojlana boshlagan edi. Odamlar bir-birlariga biron muhim ahamiyatga molik axborotni uzatish uchun aniq-tovushlardan foydalana boshladilar.

Qo`llarida biron mehnat qurolini ushlab, ko`zlari esa ushbu narsalarga qarab turgan vaqtda bir-birlari bilan munosabatga kirishish uchun aniq tovushlardan foydalanish kishilarga ayniqsa moyillik tug`dirgan. Munosabatga kirishadigan odamlar o`rtasidagi masofa anchagina olis bo`lgan kezlarda ham, xuddi shuningdek qorong`ilikda, tuman tushganda, chakalakzorda o`y-fikrni tovushlar vositasida yetkazish qulay bo`lgan.

Til yordamida munosabatga kirishish tufayli borliqning alohida bir kishining miyasidagi in'ikosi boshqa odamlarning miyasida aks etayotgani yoki aks etgani bilan doimiy ravishda to`ldirilib turadi - o`y-fikrlarni ayirboshlash, axborot berish ro`y beradi.

Munosabat chog`ida kishi doimo muhim narsani nomuhimidan, zarur narsani tasodifiysidan ajratishga, yakka-yolg`iz narsalarning timsolidan ularning hammasi uchun umumiy bo`lgan xossalarni so`zlar yordamida barkaror aks ettirishga o`tishga o`rganadi. Butun boshli narsalar doirasiga xos va shu asnoda so`z yuritilayotgan konkret narsaga ham

taalluqli muhim xususiyatlar shu so`z orqali o`z ifodasini topadi. Biz «gazeta» deb aytadigan bo`lsak, qo`limizda ushlab turgan gazeta varaqlarinigina nazarda tutmasdan, mazkur narsaning boshqa bosma mahsulotdan farqini hisobga olgan holda uning qaysi toifadagi narsalarga tegishli ekanligini uqdiramiz.

So`zlar muayyan bir mohiyatga ega, ya'ni ashyoviy olamga allaqanday tarzda tegishli bo`ladi. O`qituvchi u yoki bu so`zni ishlatganda uning o`zi ham, uning tinglovchilari ham yolg`iz o`sha bitta hodisani nazarda tutishadi va ularda anglashilmovchilik yuz bermaydi. Mohiyatlar sistemasi kishining butun hayoti davomida rivojlanib va boyib boradi. Uni sobitqadamlik bilan shakllantirish o`rta ta'limning ham, oliy ta'limning ham markaziy bo`g`ini hisoblanadi.

2. Og`zaki kommunikatsiya. Nutq.

Nutq - bu og`zaki kommunikatsiya, ya'ni til yordamida munosabat qilish jarayoni demakdir. Ijtimoiy tajribada biron-bir mohiyatni anglatadigan so`zlar og`zaki kommunikatsiya vositasi hisoblanadi. So`zlar eshittirib yo ovoz chiqarmasdan aytilishi, yozib ko`yilishi, yoki kar-soqov kishilarda biron-bir mohiyatga ega bo`lgan imo-ishoralar bilan almashtirilishi (buni har bir harf barmoqlar harakati bilan ifoda etiladigan daktilologiya va imo-ishora butun bir so`z yoki so`zlar turkumini anglatadigan imo-ishorali nutq deb ataladi) mumkin.

Quyidagi nutq turlari farq qilinadi: yozma va og`zaki nutq. O`z navbatida og`zaki nutq dialogik va monologik nutqlarga ajratiladi. Og`zaki nutqning eng sodda turi dialog, ya'ni allaqanday masalalarni birgalikda muhokama qilayotgan va hal etilayotgan hamsuhbatlar tomonidan olib boriladigan suhbat hisoblanadi. Gapirishayotganlarning bir-birlariga luqmalari, suhbatdoshidan keyin iboralarni va ayrim so`zlarni takrorlash, savollar berish, qo`shimchalar qilish, izoh berish, faqat so`zlashayotganlar tushunadigan sha'malar qilish, turli xil yordamchi so`zlar va undovlar so`zlashuv nutqi uchun xos xususiyatdir. Bu nutqning o`ziga xos xususiyatlari ko`p jihatdan hamsuhbatlarning hamjihatligi darajasiga, ularning o`zaro munosabatlariga bog`liq bo`ladi. Aksariyat hamma joyda ham pedagog oilaviy muhitdagi dialogni hech qachon sinfda o`quvchilar bilan munosabatda bo`lgani kabi olib bormaydi. So`zlashuv chog`ida hissiy xayajonlanish darajasi katta ahamiyatga ega bo`ladi. Iymangan, hayratlangan, quvongan, qo`rqqan, jahli chiqqan kishi xotirjam holatidagi kabi gapirmaydi, o`zgacha ohangdagina gapirib qolmasdan, balki ko`pincha boshqa so`zlarni, iboralarni ishlatadi.

Og`zaki nutqning ikkinchi bir turi monolog nutq bo`lib, uni bitta kishi boshqasiga yoki uni tinglayotgan ko`plab kishilarga qarata gapiradi: bunga o`qituvchining hikoyasi, o`quvchining kengaytirilgan javobi, doklad va shu kabilar kiradi. Monologik nutq tuzilishi jihatidan juda ham murakkab bo`lib, fikrning tugallanganligini, grammatik qoidalarga ancha qat'iy amal qilinishini, monolog aytayotgan kishining bayon etmoqchi bo`lgan fikrda qat'iy mantiq dialogik va izchillik bo`lishini taqozo etadi. Monologik nutqni egallash nutqqa nisbatan katta qiyinchiliklar tug`diradi, uning kengaytirilgan shakllari ontogenezida (yuzaga kela boshlaganidan takomillashuviga qadar) kechikibroq rivojlanadi, o`quvchilarda bu nutqni shakllantirish maxsus vazifa hisoblanadi va pedagoglar uni ta'limning qator yillari mobaynida bajarishlariga to`g`ri keladi. qiynalmasdan, bemalol suhbatlasha oladigan, lekin oldindan yozilgan tekstdan foydalanmasdan monologik xarakterga ega bo`lgan og`zaki axborot (doklad, keng ma'ruza va shu kabilar) bilan chiqishga qiynaladigan katta yoshli odamlar ham uchrab turishi

tasodifiy hol emas. Ko`pincha bu o`qituvchilarning o`quvchilarda monologik nutqni shakllantirish ishiga yetarli e'tibor bermaganliklari oqibati hisoblanadi.

Yozma nutq insoniyat tarixida og`zaki nutqdan ancha keyin paydo bo`ldi. U bir-birlaridan makon va zamon bilan ajralib turuvchi odamlar o`rtasida munosabat qilish ehtiyojining natijasi sifatida paydo bo`ldi va fikr shartli sxematik suratlar yordamida ifoda etiladigan paytlardagi piktografindan minglab so`zlar bir necha o`nlab harflar yordamida ifoda etilayotgan hozirgi zamon yozuviga qadar rivojlandi.

Yozuv tufayli odamlar to`plagan tajribani avloddan avlodga eng yaxshi tarzda yetkazish imkoni tug`ildi. Negaki, og`zaki nutq yordamida o`tkazilgan taqdirda u buzilishi, o`zgarib va hatto beiz yo`qolib ketishi mumkin edi. Yozma nutq fanda foydalaniladigan murakkab umumlashmalarning rivojlantirilishida, badiiy timsollar (obrazlar)ni yetkazishda muhim rol o`ynaydi. Bolaga ta'lim berishning dastlabki kunlaridanoq rivojlantirilishi maktabning eng muhim vazifasi bo`lib hisoblanadigan yozuv va o`quv bolaning aqliy saviyasini kengaytiradi hamda bilimlarni egallash va bayon qilishning eng muhim vositasi hisoblanadi. Yozma nutqdan foydalanish mumkin qadar to`g`ri ta'rif berilishiga erishish, logika va grammatika qoidalariga qat'iyroq amal qilish, mazmun va fikrlarni ifoda etish usuli ustida chuqurroq mulohaza yuritish imkoniyatini yaratadi. Ko`pincha biron-bir narsani yozib qo`yish — bu uni yaxshi anglab olish va eslab qolish demakdir.

3. Nutq mexanizmi

Nutq o`zining fiziologik negiziga ko`ra eshitish va harakat analizatorlari faoliyatini bajaradi. Miya qobig`ida tashqi olam tomonidan bo`ladigan turli xil qo`zg`atuvchilar bilan so`zlarning talaffuz qilinishini boshqarib turadigan tovush paychalari, hiqildoq, til va boshqa a'zolar harakati o`rtasidagi muvaqqat bog`lanishlar o`rnatiladi. Nutq ikkinchi signallar sistemasi negizida amal qiladi. So`z, I. P. Pavlov aytganidek, «signallar signali» dir. So`zlar birinchi signallar sistemasi signallarini, olamning timsollari tarzida mavjud bo`lgan turli-tuman taassurotlarni xabar qilgan holda bevosita qo`zg`atuvchilar keltirib chiqaradigan ta'sirlarga turtki berishi mumkin. So`zlar va ularning birikmalari har doim miyada birinchi signallar sistemasi signallarining mavhumlashtirilishi, umumlashtirilishi va qayta ishlanishi natijasi hisoblanadi. Og`zaki munosabatdek murakkab jarayon uni ta'min etuvchi mexanizmlarning izchillik bilan harakatga keltirishga tayanadi. Nutqni programmalashtirish - nutqiy ifodaning, ya'ni kishi bildirmoqchi bo`lgan fikrning ma'naviy o`zagini tuzish - birinchi bosqich hisoblanadi. Buning uchun inson muhim deb hisoblaydigan axborot ajratib olinib, yaroqsizlari, ya'ni ikkinchi darajalilari bir chetga surib qo`yiladi. Ikkinchi bosqich - jumlaning sintaktik strukturasini tuzishdan iboratdir. Iboraning umumiy tuzilishi, uning grammatik shakli tahmin qilib ko`riladi, kerakli so`zlarning qidirib topilishini, ularni eng aniq talaffuz etadigan tovushlarning tanlanishini ta'min etadigan mexanizmlar ishga solinadi. Va nihoyat, jumlani ovoz chiqarib aytila boshlaydi, ya'ni nutq real tarzda ro`yobga chiqadi. Shunday qilib, «gapirish» jarayoni boshlanadi. Bu jarayon davomida kommunikator uzatilishi lozim bo`lgan axborotni kodlashtiradi. Hamsuhbat (retsipient) tinglash jarayonida olingan axborotning kodini ochadi. Bu o`z navbatida eshitilgan nutqning tovushlarini bosqichma-bosqich so`zlar mohiyatiga aylantirishdan iborat bo`lib, kommunikatorning aytmoqchi bo`lgan so`zi anglab etilishini ta'minlaydi. Tinglovchining unga xabar qilingan narsani to`g`ri tushunganligi kommunikator uchun faqat retsipientning o`zi kommunikatorga aylanib (kommunikativ rollar almashgan holda), unga xabar qilingan narsani qabul qilgani va

tushunib etganini ma'lum qilganidan keyingina aniq-ravshan bo`ladi. Dialogik munosabatda kommunikativ rollar navbatma-navbat o`zgarib turadi, natijada sekin-asta hamjihatlik tarkib topadi. Muloqat qilayotganlarning xatti-harakatlari va xulq-atvori muvofiqlashgan bo`lish ehtimoli tug`iladi. Buningsiz birgalikda faoliyat ko`rsatishda biron natijaga erishib bo`lmaydi.

Nutqiy fikr-mulohazani kodlashtirish va kodini ochish jarayonlari og`zaki munosabatda muvaffaqiyat keltiradigan aqliy markazlar va sistemalar saqlanib qolgan taqdirdagina yuz beradi. Mabodo ushbu sistemalar ishida buzilishlar ro`y bersa, kishi nutqida turli xildagi buzilishlar - afaziyalar (so`zlashish va tushunish qobiliyatining yo`qotilishi) sodir bo`ladi. Ba'zi hollarda jumla tuzish qobiliyati yo`qolib qoladi-yu, lekin nutqni tushunish qobiliyati saqlangan bo`ladi, boshqa bir hollarda garchi bemor so`zlarini to`g`ri tanlasa ham nutqi aniq bo`lmaydi, ya'ni dizatriya (talaffuzdagi buzilish) paydo bo`ladi, uchinchi bir holda fikrni bayon qilish imkoniyatlari saqlanib qolgan taqdirda ham nutqiy fiqr-mulohazani idrok etish imkoniyati yo`qoladi va hokazo.

XIX asrning o`rtalaridayoq ikkita olim miyaning ba'zi bir qismlari ishidagi buzilish nutqning ham buzilishiga olib kelishini kashf etgan edi. Jumladan, P. Broka bemorlarda chap yarim sharning pastki peshana qismidagi burmalari orqa tomonning uchdan bir ulushi shikastlangan holda so`zlarni talaffuz etishda buzilish ro`y berishini aniqladi. Keyinroq K. Vernike chap yarim sharning ustki chakka qismidagi burmalari orqa tomonining uchdan bir ulushi shikastlanganda so`zlarni tushunishning buzilishi hollarini tavsif qilgan edi. Miya to`qimalarining ushbu qismlari harakatlantiruvchi nutq («Broka markazi») va nutqni tushunish («Vernike markazi») «markazlari» deb yuritila boshladi. Lekin keyinchalik, asosan sovet psixofiziologlari (A. R. Luriya, N. A. Bershteyn, P. K. Anoxin va boshkalar)ning ilmiy ishlari tufayli nutqning fiziologik negizi miyaning alohida qismlari («nutq markazlari») faoliyatidan ko`ra ko`proq yahlit holidagi miya faoliyatining murakkab tarzda tashkil topishidan iborat ekanligi aniq-ravshan bo`ldi. Shunday qilib, nutq funktsiyalarining jo`shqin (ya'ni qat'iyan anatomik tarzda emas, balki harakatchan) tarzda cheklanishi to`g`risidagi tasavvur tarkib topdiki, bu markaziy nerv sistemasining keng ravishda kompensatsiyalab turish imkoniyatlaridan foydalanilishi munosabati bilan nutqning buzilishini to`g`rilashida juda katta ahamiyat kasb etadi.

4. Nutqsiz kommunikatsiya

Odamlar o`rtasidagi munosabatni telegraf orqali axborot berishga o`xshatish mumkin emas. Telegraf orqali axborot berilganda kommunikator bilan retsipient og`zaki muomalaga kirishadilar. Odamlar munosabatiga aloqa bog`lovchilarning his-hayajoni ham qonuniy ravishda jalb etilgan bo`ladi. U kommunikatsiyaning mazmuni hisoblanmish narsaga ham, munosabatga kirishganlarga nisbatan ham muayyan tarzda taalluqli bo`lib, nutqiy fikr-mulohazalar bilan qo`shilgan holda yuzaga chiqadigan bu his-hayajonli munosabatda axborot ayirboshlashning alohida, nutqsiz jihati, o`zgacha, nutqsiz kommunikatsiya tarkib topadi. Nutqsiz kommunikatsiya vositalariga qo`l, barmoq va yuz harakatlari, imo-ishora, ohang, pauza, turq-tarovat, kulgi, ko`z yoshi qilish va shu kabilar kiradiki, bular og`zaki kommunikatsiya vositalari - so`zlarni to`ldiruvchi va kuchaytiruvchi, ba'zan esa o`rnini bosuvchi belgilar sistemasini hosil qiladi. O`rtog`ining boshiga tushgan kulfatdan xabar topib, unga hamdarlik bildirayotgan suhbatdoshi nutqsiz kommunikatsiya belgilarini ishlatadi: yuzlarini g`amgin tutadi, past ohangda, qo`llarini yuziga yo peshanasiga qo`ygan va boshini chayqagan holda chuqur xo`rsinib gapiradi va hokazo.

Nutqsiz kommunikatsiya vositalari bamisoli o`ziga xos xis-tuyg`u tili bo`lib, so`z bilan ifodalanadigan til kabi u ham ijtimoiy taraqqiyot mahsuli hisoblanadi va turli milliy madaniyatlarda bar-birlariga o`xshamasligi mumkin. Bolgarlar rus kishisi ma'qullash va rozilik belgisi sifatida qabul qiladigan bosh irg`ash bilan ham - suhbatiga qo`shilmaganini ifoda etishsa, ruslarda rad etish ma'nosida qabul kilingan bosh chayqashni esa hech ikkilanmay rozilik belgisi sifatida qabul qilishi mumkin.

Nutqsiz kommunikatsiyani amalga oshirish uchun turli xil yosh gruppalarida turlicha vositalar tanlanadi. Jumladan, bolalar yig`idan ko`pincha katta yoshdagilarga ta'sir kilish va ularga o`z istaklari hamda kayfiyatini yetkazish vositasi sifatida foydalanadilar. Bolalarnnng yig`isida ifoda etilgan kommunikativ xarakter ularda ko`pincha uchraydigan «Men senga emas, balki onamga karab yig`layapman!» degan ogohlantirishini ham yaxshi anglatadi.

Og`zaki kommunikatsiya ta'snrini kuchaytirishda munosabatga kirishuvchilarning fazoda joylashuvi muhim ahamiyatga egadir. Sira o`ylanmasdan tashlangan luqma kommunikatorning retsipientga munosabatini aniq ifodalaydi. Ta'limning ba'zi turlarida (jumladan, chet tillarda «so`zlashuvga» o`rgatishda) o`qituvchi o`quvchilarni sinfda qabul qilinganidek bir-birining orqasidan emas, balki doira shaklida, bir-birlariga yuzma-yuz o`tqazishni afzal ko`radi. Bu munosabatga kirishuvchilarning bir-birlarini tushunishlarini jiddiy ravishda engillashtiradi va chet tilda muomala qilish borasida malaka orttirilishini tezlashtiradi.

Nutqsiz kommunikatsiyada qo`llanilayotgan vositalarning axborotni so`z bilan yetkazish maqsadlariga va mazmuniga muvofiqligi munosabat madaniyatining tarkibiy qismlaridan hisoblanadi. Bunday muvofiqlik ham og`zaki va ham nutqsiz kommunikatsiya vositalari kasb faoliyatining quroli hisoblangan pedagog uchun juda muhimdir. A. S. Makarenko pedagog bitta so`zning o`zini unga goho buyruq, goho iltimos, goho nasixat va hokazo ma'no baxsh etgan holda turli ohangda talaffuz eta bilishi kerak, deb ta'kidlagan edi.

5. Nutqning rivojlanishi

Kishi ehtiyojlari azaldan agar u boshqa odamlar bilan birgalikda harakat qilgan holda o`zaro munosabatga kirishgan taqdirdagina qondirilishi mumkin bo`lib kelgan. Bu hol sub'ektda uning uchun nima muhim va ahamiyatli ekanligini aytish ehtiyojini keltirib chiqaradi. Bola aniq-ravshan nutqni egallay boshlaydi, birinchi yoshining oxiriga yetganda buning dastlabki belgilari paydo bo`ladi. Murakkab talaffuzni talab qilmaydigan va oson aytiladigan «opa», «dada», «buvi» va shu kabi ohangdosh so`zlar jumlasidandir. Katta yoshdagilar bu hamohanglikni konkret shaxslarga — ona, ota, buviga bog`laydilar va bolada ana shu ohangdosh so`zlarning uning yaqin-atrofidagi konkret shaxslar bilan bog`lanishi qaror topishiga («bu sening buving») yordamlashadilar.

Shundan keyin ana shu ohangdoshlarning har biri bola uchun so`zga aylanadi. Ushbu so`zni u kattalar bilan birgalikdagi harakatlarini tashkil etish uchun qo`llaydi. «Buvi» so`zi endi uning kundalik ehtiyojlarini qondirish vositasi sifatida ishlatiladi. Bola so`zni talaffuz qilarkan, istaganiga erishishga — e'tibor qilinishiga, erkalatilishiga, o`yinchoq va shu kabilarga erishishga intiladi. So`z aloqa vositasiga aylanadi. qo`llaniladigan so`zlar soni borgan sari to`xtovsiz orta boradi va ikki yoshga to`lgan kezida bolalarning so`z boyligi haddan ziyod kengayibgina qolmasdan, balki ularning grammatik shakllarni to`g`ri ishlatishi ham mumkin bo`lib qoladi, jumlalar

murakkablashib va uzunroq qilib tuzila boshlaydi. Bolaning tili maktab yoshigacha bo`lgan yillar davomida boyib boradi.

Ayni paytda nutqsiz kommunikatsiya — imo-ishora, pantomimika, nutqning ohangidagi rang-baranglik ham rivojlana boradi. Shu yillarda kommunikatsiya jarayonida teskari aloqalar shakllanadi — bola hamsuhbatining yuzlaridagi ifodani o`qishga, uning ohangida ma'qullash yoki ma'qullamaslik alomatini payqashga, katta yoshdagi kishining so`zlariga ilova bo`ladigan va kuchaytiradigan qo`l-barmoqlari va yuz harakatining ma'nosini tushunishga o`rganadi. Bularning hammasi unga o`z harakatlarini to`g`rilab borish, munosabat jarayonida tegishli darajada hamjihatlikka erishish imkonini beradi.

Maktabda o`qish va yozish, keyinroq esa til va adabiyot darslarida bolalarda muomala vositasi sifatida tilga va munosabat jarayoni sifatida nutqqa ongli munosabat shakllantiriladi. Til o`qituvchi tomonidan maxsus uyushtirilgan tahlil predmetiga aylangan holda o`quvchilar oldida sotsial jihatdan shakllangan qonunlar ta'siriga bo`ysunadigan murakkab belgilar sistemasi sifatida namoyon bo`ladi. Bu qonunlarni o`zlashtirish o`quvchiga faqat savodli yozish, o`qish va gapirish emas, balki til yordamida unga qadar va uning uchun insoniyat tomonidan yaratilgan ma'naviy qadriyatlarga egalik qilish imkonini beradi. Sovet psixologlarining tadqiqotlari asosiga qurilgan hozirgi zamon savod chiqarish metodikalari o`quvchilarda nutqni ongli ravishda tovushlarga ajratib tahlil qilish ko`nikmalarining shakllantirilishini yetakchi printsip sifatida qabul qiladi. Nutqning bu xilda tahlil etilishi savodli yozishning unumli egallanishiga o`tishni juda osonlashtiradi. O`quvchilarda sintaksisni o`zlashtirish jarayonida anchagina qiyinchiliklar yuz beradi. Jumladan, rus tilida punktuatsiya (tinish belgilarini qo`yish) ning ikki yuzga yaqin qoidasi mavjuddir.

Moskva universiteti psixologlarining tadqiqotlari shuni ko`rsatdiki, ana shu barcha qoidalar jumladagi so`zlar bog`lanishining atigi uchta funktsiyasini — ularning biriktirilishini, bo`linishini va ajratilishini ko`rsatadi. Aniqlanishicha, o`quvchilar punktuatsiyaning bironta ham qoidasini yod olmagan holda tinish belgilarini bexato qo`ya bilishlari uchun ularga konkret jumlalarda bu funktsiyalarni muayyan belgilariga ko`ra tahlil etish va aniqlashni o`rgatish kifoya ekan.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda va o`quvchilarda nutqiy munosabatga kirishish malakasini hosil qilishda pedagogikaning roli benihoya kattadir. Bu o`rinda ham o`qituvchining erkin va aniq-ravshan nutki o`quvchilar nutqi va tafakkurini rivojlantirishning birinchi darajali muhim shartlaridan hisoblanadi. V. A. Suxomlinskiy shunday deb yozgan edi: «Pedagogika madaniyatining yana bir jihati borki, u haqda tashvishlanmay gapirib bo`lmaydi, u ham bo`lsa o`qituvchining nutq madaniyatidir. Yigirma yil muqaddam men bir o`qituvchining darsida bolalar yangi materialning bayonini eshitib o`tirib juda charchaganlariga, darsdan holdan toyib chiqayotganlariga e'tibor bergan edim. Men o`qituvchining so`zlarini (u biologiyadan dars berayotgan edi) diqqat bilan eshita boshladim. Uning nutqi pala-partish, mantiqan noizchil, ma'nosi shu qadar noaniq ediki, u yoki bu tushunchani birinchi marta qabul qilayotgan bola biror narsani tushunib olishi uchun butun kuchini to`plashi kerak edi».

V. A. Suxomlinskiy «o`qituvchining nutq madaniyati o`quvchilarning darsdagi aqliy mehnatining samaradorligini hal qiluvchi darajada belgilaydi», deb ta'kidlagan va bunday madaniyatni shakllantirish — o`qituvchn so`z yordamida hosil qilishga urinadigan va bularsiz oddiylikdan murakkablikka, yaqindan olislikka, konkretlikdan umumiylikka o`tib bo`lmaydigan tushunchalar tafsilotidagi noaniqlikni, tasavvurlar tarqoqligini bartaraf etish, o`quvchilar qo`llanadigan darsliklardagi matn (tekst) larni chuqur tahlil qilish, matndagi

mantiqiy izchillik va sabab-oqibat bog`lanishlarni aniqlash yo`llarini ko`rsatib bergan edi. Yuksak nutq madaniyati — o`qituvchi tomonidan vaqtdan oqilona foydalanilishining muhim shartidir. «Predmet, hodisa, tushuncha o`qituvchi nutqida bolaga tushunarli darajada yorqin, qulay so`z qobig`iga o`rab berilmagunga qadar behisob takrorlashlarga zarurat tug`ilgan paytlarda qanchadan-qancha vaqt zoe ketadi»,—deb yozgan edi V. A. Suxomlinskiy.

Adabiyotlar

1. Андреева Г. М. Межличностное восприятие в группе. MDU nashriyoti, M., 1981.
2. Бодалев А. А. Восприятие человека человеком. M., MDU nashriyoti, 1982.
3. Выгодский А. С. Мышление и речь. Собр. соч 2- том, M., Педагогика, 1982, 6—361-betlar.
4. Жинкин Н. И. Механизмы речи. M., RSFSR, PFA nashriyoti, 1958.
5. Добрович А. Общение: наука и искусство. M., Знание, 1978.
6. Коломинский Я. Л. Психология общения. M., Знание, 1974.
7. Кон И. С. Дружба. M., Политиздат, 1980.
8. Леонтев А. А. Педагогическое общение. M., Знание, 1979.

13-ma'ruza. Munosabat shaxslararo birgalikda harakat qilishdir

Reja:

1. Sotsial nazorat va ijtimoiy qoidalar
2. Munosabat jarayonlaridagi rollar va rollar ehtimoli
3. Pedagogik munosabatda psixologik bog`lanish
4. Shaxslararo mojaro
5. Shaxslararo o`zaro birgalikdagi harakat
6. Do`stona munosabat

Odamlar munosabatga kirisharkan, ya'ni biron kimsaga savol, iltimos, buyruq bilan murojaat qilarkan, biron narsani tushuntirarkan yoki ta'riflarkan, boshqa bir kishiga ta'sir o`tkazishni, undan o`zi xohlagandek javob olishni, topshirig`ining ijro etilishini, shu paytga qadar tushunmaganini tushunib etishni zarurat tarzida o`z oldiga maqsad qilib qo`yadi. Munosabat maqsadlari odamlarning birgalikdagi faoliyati ehtiyojlarini aks ettiradi. Bu hol quruk safsatabozlikning, ya'ni fatik munosabatning (lotincha fatuus, ya'ni nodon so`zidan olingan), kommunikatsiya vositalarining birgina munosabat jarayoninnng o`zini hosil qilishdan iborat yagona maqsad yo`lida tuturuqsizlik bilan foydalanilishini mustasno etmaydi. Gogolning Xlestakovi tomonidan o`ylab topilgan va uning «Pushkin bilan» bema'nilarcha «dialogi» ayni ana shundaydir: «Xo`sh, Pushkin jo`ra, ishlar qalay endi?»—«Shunaqa jo`ra,—ba'zan o`ziga o`zi javob qaytaradi u,— endi hammasini aytaversam...» Agar munosabat fatik xarakterda bo`lmasa, u albatta ba'zi natijalarga erishilishini boshqa odamlar xulq-atvori va faoliyatining o`zgartirilishini ko`zlaydi yoki, har holda, ehtimolda tutadi. Bu o`rinda munosabat shaxslararo birgalikdagi harakat, ya'ni odamlarning birgalikdagi faoliyati jarayonida tarkib topadigan aloqalari va o`zaro bir-birlariga ta'sirining yig`indisi sifatida yuzaga chiqadi. Shaxslararo o`zaro birgalikdagi harakat odamlarning bir-birlariga ta'siriga javobining vaqtga izchil yoyilgan tarzini ifoda etadi: A. individning B. individ xulq-atvorini o`zgartiradigan xatti-harakati unda javob reaktsiyasini paydo qiladi, o`z navbatida bu A. ning xulq-atvoriga ham ta'sir ko`rsatadi.

1. Sotsial nazorat va ijtimoiy qoidalar

Birgalikdagi faoliyat va munosabat ijtimoiy qoidalar - odamlarning birgalikdagi harakati va o`zaro munosabatlarini qat'iyan belgilab qo`yadigan hamda jamiyatda udum bo`lgan, xulq-atvor namunalari asosida amalga oshiriladigan sotsial nazorat sharoitida yuz beradi.

Jamiyat ijtimoiy qoidalar sifatida qabul qilgan, ma'qul topadigan, udumga aylangan va tegishli vaziyatda turgan har bir kishidan bajarilishini kutayotgan namunalarning o`ziga xos sistemasini yaratadi. Ularning buzilishi qoidadan chetga chiqadiganlarning hulq-atvori to`g`rilanishini ta'minlaydigan sotsial nazorag mexanizmlari (ma'qullamaslik, ta'na qilish, jazolash) ni o`z ichiga oladi. qoidalarning mavjudligi va qabul qilinishi haqida biron kishining barcha boshqa odamlar xulq-atvoridan farq qiluvchi xatti-harakatiga atrofdagilarning bir xilda munosabat bildirishi dalolat beradi. Ijtimoiy qoidalar doirasi behad darajada kengdirki, ular mehnat intizomi, harbiy burch va vatanparvarlik talablariga javob beradigan xulq-atvor namunalaridan to odoblilik qoidalariga qadar hammasini o`z ichiga oladi. Ijtimoiy qoidaga mos keladigan xulq-atvorga po`lat erituvchining o`z ish joyidagi eng yuqori unumga erishuvi ham, birinchi sinf o`quvchisining o`qituvchi sinfga kirib kelishi bilan o`rnidan turishga odatlangan qoidasining bajarilishi ham kiradi.

Odamlarning ijtimoiy qoidalarga murojaat qilishi ularda o`z xulq-atvori uchun mas'ullik hissini uyg`otadi, harakatlari va qiliqlarining ushbu qoidalarga mos kelishi yoki mos kelmasligini baholagan holda ularni to`g`rilab borish imkonini tug`diradi. Qoidalarga qarab mo`ljal olish kishiga o`z xulq-atvorining shakllarini andazaga qarab moslash, keraklilarini, sotsial jihatdan maqbullarini tanlab olish, nomaqbul shakllariga amal qilmaslik, o`zining boshqa odamlar bilan munosabatlarini yo`naltirib va boshqarib borish imkonini beradi. O`zlashtirilgan koidalardan odamlar o`zlarining xususiy xulq-atvorini o`zgalarning xulq-atvori bilan taqqoslaydigan mezon sifatida foydalanadilar.

2. Munosabat jarayonlaridagi rollar va rollar ehtimoli

O`zaro birgalikdagi harakat jarayonlarida sotsial nazorat munosabatga kirishadigan odamlar «bajaradigan» rollar repertuariga muvofiq tarzda amalga oshiriladi. Psixologiyada rol deganda xulq-atvorning normativ jihatdan ma'qul bo`lgan muayyan ijtimoiy mavqeni (lavozimga, yoshi yoki jinsiy belgilariga, oiladagi mavqeiga va boshqalarga ko`ra) egallab turgan har bir kashidan, tevarak-atrofdagilar kutayotgan namunasi tushuniladi. Sub'ekt o`qituvchi yoki o`quvchi, vrach yoki bemor, katta yoshli kishi yoki bola, boshliq yoki bo`ysunuvchi, ona yoki buvi, erkak yoki ayol kishi, mehmon yoki mezbon va shu kabi rolni bajaradi. Har qanday rol mutlaqo aniq talablarga va atrofdagilarning muayyan orzu-istaklariga javob berishi kerak.

Yolg`iz bir kishining o`zi munosabatning turli xil vaziyatlariga duch kelarkan, qoida tariqasida har xil rollarni bajaradi. O`zining xizmatdagi roliga ko`ra direktor bo`lib turgan kishi betob bo`lib qolganida bemor roliga kirgan holda vrachning barcha ko`rsatmalarini bajaradi; shu bilan birga uy sharoitida u keksa onasining mo`mingina o`g`li rolini saqlab qoladi; mehmonlarni qabul qilayotgan kezda mexmonnavoz mezbon bo`lib chikadi va hokazo. Rol mavqelarining ko`pligi ba'zida ularning to`qnash kelishiga — rol konfliktlariga (ziddiyatlarga) sabab bo`ladi. O`qituvchi pedagog sifatida o`z o`g`lining xarakteridagi kamchiliklarni sezmasligi mumkin emas va unga nisbatan talabchanlikni kuchaytirish zarur, deb hisoblaydi, lekin ota sifatida u ba'zan rahmdillik qilib, bolaning salbiy qiliqlarini xaspo`shlab, ularning avj olishiga ko`maklashadi. Intizomsiz

o`quvchining ota-onalari huzuriga kelganda pedagog mehmon sifatida ularning farzandi nojo`ya xatti-harakat qilgani haqidagi noxush xabar bilan mezbonlarni ranjitmasligi lozim edi, lekin o`qituvchi sifatida shunday qilishga majburdir.

Turli xil rollarni bajarayotgan odamlarning o`zaro birgalikdagi harakati rollar ehtimoli bilan boshqariladi. Kishi buni istaydimi yoki istamaydimi, lekin atrofdagilar undan muayyan namunaga mos keladigan xulq-atvorni talab qiladi. Rolning qanday bajarilishi sotsial nazorat ostida bo`ladi, ijtimoiy jihatdan muqarrar ravishda baholanadi va namunadan salgina chetga chiqilishi esa qoralanadi.

Jumladan, ota-onalar mehribon, hushmuomala, bolalarning ayblariga nisbatan shafqatliroq bo`lishlari kerak - bu rollar ehtimoliga mos bo`lib tushadi va ijtimoiy jihatdan ma'qullanadi, har qanday rag`batga loyiq deb tan olinadi. Lekin atrofdagilarga ota-onaning xushmuomalaligi haddan oshib ketayotgani, hamma narsa ham kechirilayotgani sezilib turadi va qat'iyan qoralanadi. «Onajonisi o`g`lini erkalatib yubordi, ko`p o`tmay u hali onasi tugul, boshqalarning ham boshiga chiqib oladi» - bu qat'iy, ehtimol, nohaq, lekin onaning mehribonligiga nisbatan rollar ehtimolining eng oxirgi chegarasini aniq belgilab beradigan hukmdir. Ota-onalar bolalariga nisbatan qattiqqo`l va talabchan bo`lishlari kerak. Bu ham ota-onalar roliga oid yo`l-yo`riqdir. Bu o`rinda ijtimoiy baho ana shu yo`l-yo`riqlarning ikkinchi bir mutlaq chegarasini belgilab beradi «U onasining oldida miq eta. olmaydi, u bolani tamomila ezib tashlabdi», - «orqavoratdan» qoralash shundoqqina sezilib turibdi. Shu tariqa ona rolining bajarilishi ijtimoiy jihatdan ma'qul deb topiladigan muayyan diapazon mavjud. Xuddi shu narsa oilaning katta yoshdagi avlodga mansub boshqa a'zolariga ham taalluqlidir.

Bolaga kelganda shuni aytish kerakki, uniig rolndan gapga albatta quloq solishi, kattalarni hurmat qilishi, a'lo o`qishi, saranjom-sarishta, tirishqoq bo`lishi va shu kabilar bilan bog`lik holda kutiladigai maqsadlar hammaga ayon. Atrofdagilarning barchasi — faqat oilada emas, balki undan tashqari hamma joyda bolaga (maktab o`quvchisimi, yo o`spirinmi, bundan qat'i nazar) sira ham «orqavoratdan» emas, balki, aytish mumkinki, «ochiq tekst» bilan, uning o`z roliga loyiqmi yoki loyiq emasligini aytaveradi.

Shunday qilib, o`zaro birgalikda harakat qilayotgan odamlar xulq-atvorining bir-birlaridan kutgan tahminlariga mosligi munosabat jarayonida muvaffaqiyatga erishishning zarur sharti hisoblanadi.

Munosbatga kirisharkan, har bir kishi o`zi bilan munosabatga kirishayotgan odamlarning xulq-atvori, so`zlari va hatti-harakatlari ko`proq yoki ozroq darajada muayyan bir tarzda bo`lishini kutadi. Kishining boshqalardan eshitishga yoki ularda ko`rishga tayyor bo`lgan narsani ulardan kutish mumkinligini bexato va aniq taxmin qilish, qobiliyati va malakasi odob deyiladi.

Bundan odobli kishi har doim va barcha hollarda bunday ehtimolga amal qilaverishi kerak, degan ma'no kelib chiqmaydi, albatta. Bordi-yu, sub'ektning printsiplari va e'tiqodi uning nazarida atrofdagilar undan kutishayotganiga nisbatan keskin ravishda zid bo`lgan vaziyat vujudga kelgudek bo`lsa, u printsipiallik ko`rsatib, o`z xulq-atvornning odobga qay darajada to`g`ri kelish-kelmasligi haqida qayg`urib o`tirmasligi ham mumkin. Galileyning «u baribir aylanyapti!» degan mashhur iborasi undan o`z so`zidan tamomila va qat'iyan voz kechishni kutayotgan inkivizatorlarga nisbatan odobsizlik deb qaralishi mumkin emas, albatta. Balki bu yuksak printsipiallik, ilmiy xalollik va grajdanlik matonat dalili, xolos.

Lekin kundalik xayotiy vaziyatlarda noto`g`ri taxmin qilish yoki buni inkor etish odobdan emas. Odobsizlik — bu munosabat jarayonida munosabatga kirishganlarning

o`zaro birgalikdagi harakatlarining izdan, chiqishiga olib keladigan va ba'zan mojaroli vaziyatlarni vujudga keltiradigan darajada buzilishi demakdir. Odobsiz xulq-atvor nisbatan beg`araz xarakterga ega bo`ladi. Masalan, agar ikkita tanish odam uchrashganda juda ham rasmiy tarzda berilgan «Ishlar qalay»? degan savolga ulardan biri xonadondagi barcha kishilar sog`lig`i to`g`risida, keyingn kunlardagi uncha ahamiyatsiz voqealar xususida batafsil hikoya qila boshlasa, bu ma'lum darajada odobsizlik deb qaralishi mumkin. Lekin ayrim hollarda odob talablariga rioya qilmaslik jiddiy salbiy oqibatlarga ham olib keladi. Bu ayniqsa, pedagogik munosabat chog`ida odobsizlik ko`rinishlarining sodir bo`lishiga taalluqlidir.

Konkret bir misol keltiramiz. O`qituvchi to`qqizinchi sinfda ifodali o`qish to`garagini tashkil etib, uni ancha muvaffaqiyatli ravishda olib borardi.

Lekin kunlardan birida quyidagi hol yuz berdi. To`garak rahbari I. A. Krilovning «Sinchkov kelin» masali ustida ishlashni taklif etadi. u hali o`qishni boshlamasidanoq, to`garak qatnashchilaridan biri o`rnidan turib boshqa masalni tanlashni iltimos qiladi: «Boshqa xohlagan masalni olaylik, faqat bunisini emas!» — «Nima uchun, tushuntirib bering»—e'tiroz bildiradi o`qituvchi. «Ayta olmayman...»—o`quvchi sekingina javob beradi. O`qituvchi buning hammasini akslikka yo`g`rib, o`z so`zida turib oladi. Yigitcha lablarini tishlagancha o`rniga o`tiradi. O`qituvchi masalning tugallovchi

Mamnun edi, u juda baxtiyor;

Topgani-chun majruh bir yor,

satrlarini o`qib va degan so`zlariga istehzoli ohang baxsh etganini biladiki hamma yoqqa suv sepgandek jimlik cho`kkanidan, bolalarning hayajonli va darg`azab yuzlaridan va, nihoyat, qizlardan birining ko`zlari yoshlanganidan nima sodir bo`lganini tushunib yetgan edi. Birdaniga u to`garakda qatnashayotganlar orasida bundan bir necha yil muqaddam poezd tagiga tushib ketib, oyog`idan ajralgan bir yigitcha va u ko`pdan buyon sevadigan qiz ham shu yerda o`tirganini eslab qoldi.

O`qituvchi o`quvchilar kollektivining odamlardan tarkib topganligini va hatto yoppasiga, hammasi bilan ish olib borayotgan bo`lishiga qaramay har birining shaxsnni e'tiborga olish kerakligini esdan chiqarmasligi shart. O`quvchilar bilan psixologik bog`lanish hatto vaqtincha yo`qolsa ham katta ziyon etkazishi aniq, bu aql bovar qilmaydigan salbiy oqibatlarga olib keladi. Mabodo hamjihatlikning bu tarzda buzilishlari istisno tariqasida bo`lmasdan, balki qoidaga aylanib qolsa, u holda pedagog bilan o`quvchilar o`rtasida tezdayoq bartaraf etish mushkul bir jarlik hosil bo`ladi, deb baralla aytaverish mumkin.

Pedagogik odobning tegishli aloqa o`rnatish chog`ida tarbiyachiga in'om etadigan imkoniyatlaridan foydalanish o`quvchining rivojlanishi uchun istiqbol yaratib bergan holda uning shaxsini shakllantirish jarayonini ancha qulay sharoitlarda amalga oshirish imkonini beradi.

3. Pedagogik munosabatda psixologik bog`lanish

Bog`lanish (latincha contactus ya'ni «yaqinlashish» degan so`zdan olingan) - munosabatga kiruvchilar o`rtasida ikki tomonlama aloqa bo`lishini taqozo etadi. Bunga erishish va uni ko`ngildagidek rivojlantirish sharti munosabatga kirishuvchi shaxslarning o`zaro bir-birlariga hurmati va ishonchidan iboratdir. Pedagog o`quv-tarbiya ishi jarayonida o`quvchilar bilan aloqa bog`larkan, ulardan o`qituvchi rolining o`zi taqozo etadigan darajada izzat-ikrom kutadi. Bu o`rinli rol taxminlari «O`quvchilar uchun qoidalar» bilan, maktab an'analari, o`qituvchilar kollektivining yakdil talablari bilan

qo`llab-quvvatlanadi. Lekin munosabatda odamlarning aloqalari ikki tomonlama xarakterga ega ekanligi o`z navbatida o`qituvchidan ham o`quvchilarga «isbatan hurmat va ishonch bildirilishini talab qiladi. A. S. Makarenkoning nomi bilan bog`liq «Shaxsga nisbatan iloji boricha talabchanlik va unga nisbatan iloji boricha hurmat hamda ishonch bo`lishi kerak», degan mashhur pedagogik ta'rifni juda yaxshi bilgan holda ayrim o`qituvchilar uning faqat birinchi kismini qo`llaydilar, garchi A. S. Makarenko bular ikkita har xil narsa emas, balki yolg`iz birgina narsa, deb ta'kidlagan bo`lsa ham, ta'rifning ikkinchi qismiga rioya etishni o`zlari uchun shart deb hisoblamaydilar.

Agar pedagog o`z tarbiyalanuvchilariga nisbatan ishonch va hurmat bilan munosabatda bo`lsa, u har qancha printsipial va talabchan bo`lgan taqdirda xam, uning eng arzimas tanbehlari ham ta'sirli bo`ladi. Ayni chog`da o`spirin o`qituvchining so`zlarida, bordi-yu, o`ziga «nsbatan hurmat-e'tiborni sezmasa, juda asosli va mantiqan to`g`ri pand-nasihatlarni ham ko`pincha loqayd qoldirishi turgan gap.

Pedagoglar bilan o`quvchilarning o`zaro munosabatlari havosiz bo`shliqda ro`y bermaydi. U ozmi yo ko`pmi darajada maktabdagi umumiy muhitda yuz beradi, o`quvchilar psixologiyasini tushunishning pedagogik kollektivga xos darajasiga, uning pedagogik va psixologik madaniyatiga bog`lik bo`ladi. Aloqalarning bu ob'ektiv bog`liqligini maktab hayotida boshlang`ich sinf o`quvchisining nojo`ya ish qilib qo`yganidan tortib to butun maktabni hayajonlantirgan favqulodda hodisaga qadar yuz beradigan istalgan bir hodisani psixologik tahlil qilish jarayonida ko`rish mumkin. O`quvchiga nisbatan talabchanlikni ularga nisbatan hurmat bilan uyg`un tarzda yo`lga qo`ya biladigan pedagog tarbiyaning maqsadlarini ro`yobga chiqarish uchun eng qulay pedagogik muhitni yarata oladi. Ular o`quvchilar bilan munosabat chog`ida ularga hurmat ko`rsatarkan, o`spirinlarda o`zini-o`zi hurmat qilishini shakllantiradilar. Bu esa bolalar bilan bo`ladigan bundan keyingi aloqalarning shartiga aylanadi. O`quvchilar bilan, ayniqsa, o`smirlar bilan munosabatda ularning o`zini-o`zi xurmat qilishiga tayanish ularga samarali pedagogik ta'sir ko`rsatishda ishonchli vositadir.

O`spirinda katta yoshli kishidan farqli o`laroq, o`ziga o`zi beradigan baho, odatda barqaror bo`lmaydi. Shuning uchun ham u o`z yurish-turishlariga turli xildagi nufuzli shaxslar tomonidan berilishi ehtimol tutilgan baholarga - ota-onalarning, pedagoglarning, tengdoshlarning, o`zidan kattaroq yoshdagi bolalar va boshqalarning baholariga qarab mo`ljal olishga majburdir. Ushbu tashqi baholar o`zgarib qolgan taqdirda u boshqa odamlar bilan uni qanoatlantiradigan darajadagi munosabatni davom ettirish uchun mustahkam negiz sifatida hurmatini saqlab qolishga intiladi, boshqa odamlar uni o`zini qanday tutishni xohlayotganlaridek kiyofada ular ko`z o`ngida namoyon bo`lishga harakat qiladi. Tajribali pedagoglar o`spirinlar bilan muvaffakiyatli tarzda munosabat bog`layotib, ularning o`zini o`zi hurmat qilishiga tayanish va buning yordamida mustahkam psixologik aloqa bog`lanishiga erishish qanchalik muhimligini bilishadi.

Konkret bir misol keltiramiz. Valeriy P. yomon o`qir, sinfdagilardan orqada qolib kelardi. Aftidan, u landovurlikka ko`nikib ketgan va ikkilarga, sinfdagilarning xazar qilishiga, o`qituvchilarning tanbehlariga, ota-onalarning ta'nalariga e'tibor qilmaydigan bo`lib kolgan edi. Uning sinf rahbari bo`lgan va fizikadan dars beradigan muallima unga yordam berishga harakat qilib ko`rdi. U bola bilan ko`shimcha ravishda shug`ullana boshladi va bu borada psixologik jihatdan obdon rejali usulni ko`lladi: u Valeriy bilan birgalashib sinfning orqasidan kuvmadi, aksincha unga yangp materialni darsga qadar tushuntirib, barcha o`quvchilarni jo`rttaga ortda qoldirib borardi. Yangi material yuzasidan masalalarni xal etish chog`ida hatto sinfdagn ilg`or o`quvchilar ham no`noqlik qilib

qolishganida o`qituvchi Valeriyni chaqirar va u topshirnqni muvaffaqiyatli uddalar edi. Bu hol o`rtoqlarinig unga nisbatan munosabatini jiddiy tarzda o`zgartirib yubordi. Valeriy buni payqamasdan qolmadi. Ko`p o`tmay o`qituvchi unga yangi mavzuni o`zlashtira olmayotgan qizchani «shatakka olish»ni topshirdi. U bu ishga g`urur bilan va bajonidil kirishdi. Keyinroq u o`quvchi qizcha oldida uyalib qolmaslik uchun o`z tashabbusi bilan faqat yangi materialni emas, balki eski materialni ham bekami-ko`st o`zlashtirishga kirishdi. Valeriyda o`zini o`zi hurmat qilish hissi tug`ilib, umuman kishga nisbatan munosabati o`zgarib qoldi. Endi u boshqa fanlar bo`yicha ham yaxshi o`qishga intilardi. Nihoyat egallagan narsasini — boshqa odamlar hurmatini va shu bilan bog`liq o`zini-o`zi hurmat qilishini endi u yo`qotishni istamasdi.

O`zini o`zi hurmat qilish tuyg`usi — bu aniq, lekin mo`rt quroldir. Bordiyu katta yoshdagi kishilar ehtiyotsizlik qilib, bilmasdai yoki jo`rttaga o`smirda o`ziga nisbatan hurmat tuyg`usini barbod qilgudek bo`lsa, bu holda ular uni noxush ta'sirlarga qarshilik ko`rsatish imkoniyatidan mahrum etgan, ibratomuz narsalarga loqayd qoldirgan bo`ladilar. Bola qanchalik yomon bo`lmasin, agar unda o`ziga nisbatan hurmat saqlanib qolsa, bu hol uni boshqa odamlarni ham hurmat qilishga, o`zi yashayotgan jamiyatni hurmat qilishga o`rgatish mumkinligiga umid bog`lash imkonini beradi. Demak, bunday o`spirindan umidvor bo`lish mumkin. Psixologik bog`lanishning buzilishi esa shaxslararo mojaroga sabab bo`lishi hech gap emas.

4. Shaxslararo mojarolar

Munosabat jarayonlarini har doim va barcha vaziyatlarda ham sip-silliqqina va ichki qarama-qarshiliklarsiz yuz beradi deb tasavvur qilish yaramaydi. Ayrim vaziyatlarda bir-birini inkor etuvchi qadriyatlar, vazifalar va maksadlarning mavjudligini aks ettiruvchi pozitsiyalar antagonizmi yuzaga chiqadiki, ba'zan bu o`zaro adovatni keltirib chiqaradi — shaxslararo mojaro sodir bo`ladi. Mojaroning ijtimoiy mohiyati turlicha va shaxslararo munosabatlar negizini tashkil etadigan qadriyatlarga bog`liq bo`ladi. Ba'zan yigitchaning diqqat-e'tiboriga bab-baravar da'vogarlik qilib, raqiblarga aylanib qolgan yuqori sinfda o`qiydigan ikkita qizning o`zaro munosabatlari ham mojaroviy bo`ladi. Mojaro bittasi noinsoflik qilgan ikkita o`rtoqning to`qnashuvi tusini oladi. Shubhasiz, bu mojarolarning sabablari va xarakteri xususidagi ijtimoiy baho bir-biridan jiddiy ravishda farq qiladi.

Bu hol shaxslararo mojaroning kelib chiqish sabablariga, uning sababiy bog`lanishlariga (determinizmiga) e'tiborni jalb qilishi shart.

Birgalikdagi faoliyat jarayonida mojarolarning sabablari o`rnida ikki xil toifadagi determinant, ya'ni ashyoviy-amaliy kelishmovchiliklar va shaxsiy-pragmatik manfaatlar o`rtasidagi tafovut maydonga chiqadi.

Agar birgalikdagi yaxshi uyushtirilgan, ijtimoiy foydali faoliyatni amalga oshirayotgan o`zaro birgalikdagi harakatida ashyoviy-amaliy ziddiyatlar ustunlik qiladigan bo`lsa, u holda yuz bergan mojaro odatda shaxslaroro munosabatlarning uzilishiga olib bormaydi va his-hayajonning keskinligi va dushmanchilikning kuchayishiga sabab bo`lmaydi. Maktab “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati a'zolari mikrorayondagi ishni yo`lga qo`yish xususida keskin munozara boshlashib, bir-birlari bilan etarlicha mojaroviy munosabatda bo`ladilar, lekin bu tortishayotganlarning o`zaro do`stona aloqalari va bir-biriga yaqinligida aks etishi umuman shart emas. Pozitsiyalarning keskin qarama-qarshiligi natijasida qabul qilingan qaror va ana shu qarama-qarshilikning munozara chog`ida bartaraf etilishi umumiy muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Ayni chog`da shaxsiy-pragmatik manfaatlar jabhasidagi ziddiyatlar tezda xushko`rmaslikka va dushmanlikka olib keladi. Umumiy ishning yo`qligi o`zlarining tor doiradagi egoistik (shaxsiyatparastlik) maqsadlari bilangina yashaydigan odamlarni raqobat vaziyatiga solib qo`yadi, bunday vaziyatda bir kishining yutug`i ikkinchisining mag`lubiyatini anglatadi. Bu hol shaxslararo munosabatlarni keskinlashtirmasligi mumkin emas.

Shaxsiy-pragmatik manfaatlardagi tafovutlarga ashyoviy-amaliy kelishmovchiliklar tusi berilgan yoki aksincha uzoq davom etgan ashyoviy-amaliy kelishmovchiliklar sekin-asta shaxsiy xushko`rmaslikka olib keladigan vaziyatlar ham bo`ladi. Bunday hollarda shaxsiy manfaatlardagi tafovutlar ham «o`tib ketgan sana bilan» izlab topiladi va qayd qilinadi.

Mojarolarning kelib chiqishiga, shuningdek, munosabatga kirishuvchilarning o`zaro birgalikda harakat qilishlariga g`ov bo`lgan va bartaraf etilmagan ma'naviy anglashilmovchiliklar ham sabab bo`ladi. Munosabatdagi ma'naviy anglashilmovchilik - bu aytilgan talabning, iltimosning, buyrug`ning ma'nosi munosabat bog`lashgan sheriklar uchun muvofiq emaslagidir. Bu hol ularning o`zaro hamjihatligi va birgalikda harakat qilishi uchun to`sqinlik tug`diradi.

Misol uchun katta yoshdagilar bilan bolaning o`zaro munosabatlarida ma'naviy anglashilmovchilik shu sababli yuz beradiki, bola katta yoshdagilarning talablari to`g`riligini tushungan holda bu talablar uning tajribasiga, qarashlari va munosabatlariga yot bo`lgani uchun ham ularni qabul qilmaydi. Ma'naviy anglashilmovchilik katta yoshdagilar — o`qituvchilar va ota-onalarning bolalar va o`smirlar bilan bo`ladigan munosabatida ayniqsa muhim rol o`ynaydi. Bu ularning yoshlaridagi farq bilan, birovlarida hayotiy tajribaning mavjudligi va boshqalarida buning yo`qligi, manfaatlardagi tafovutlar bilan va, shuni ta'kidlash juda ham muhimki, tarbiyaviy ta'sirlarni qo`llashda katta yoshdagi kishilarning ko`pincha xatolarga yo`l qo`yayotganligi bilan izohlanadi.

Agar pedagog o`quvchilar psixologiyasini bilsa va uni e'tiborga ola borsa, o`quvchining qiziqishlarini va e'tiqodini, yoshiga xos xususiyatlarini, ilgari egallangan tajribasini inobatga olsa, uning istiqboli va qiyinchiliklari bilan hisoblashgan holda ish tutadigan bo`lsa, ma'naviy anglashilmovchiliklarni bartaraf etishi mumkindir.

Bolalar bilan katta yoshdagi kishilarning tegishli hamjihatligiga erishish uchun hal etilishn lozim bo`lgan asosiy vazifa quyidagi tarzda bayon etilishi mumkin: bolalarni katta yoshdagi odamlarning tilini qo`llashga va katta yoshdagilarni bolalarning tilini tushunishga o`rgatish kerak. Bu o`rinda yuqoridagi paragrafda so`z yuritilgan bola nutqini rivojlantirish vazifasi, uning so`z boyligini rivojlantirish yoki talaffuz qilish va to`g`ri yozish qoidalarini o`zlashtirishi nazarda tutilayotgani yo`q. Mohiyatlarning ifodasi sifatidagi tilni bola maktabgacha yoshida egallab oladi va maktabda o`qigan yillari davomida uni takomillashtirib, boyitib boradi. Lekin tilni qo`llash va rivojlantirish mohiyatlarning shakllantirilishi bilan cheklanmaydi. So`zlar kishi ongining boshqa faktlari kabi mohiyatlarning umumiy tarzda qabul qilingan sistemasidan tashqari alohida har bir kishi uchun xos ma'lum darajadagi shaxsiyatga oid mazmun, qandaydir alohida ahamiyat kasb etadi. Mohiyatlar bilan shaxsiyatga oid mazmunning nisbati A. N. Leontevning asarlarida chuqur tadqiq etilgan edi. «Shaxsiyatga oid mazmunlar mohiyatlardan farqli o`laroq... o`zining ortiqcha individualligiga, «nopsixologik» tarzda mavjudligiga ega emas. Agar tashqi sezuvchanlik sub'ekt ongida mohiyatlarni ob'ektiv olamining realligi bilan bog`lab tursa, shaxsiyatga oid mazmun esa ularni uning ushbu olamdagi hayoti realligi bilan, uning sabablari bilan bog`laydi. Shaxsiyatga oid mazmun inson ongining

g`arazliligini yuzaga chiqaradi». Nimaiki faoliyatning maqsadlarini uni amalga oshirish sabablari bilan bog`laydigan bo`lsa, uning ehtiyojlari nimada aksini topgan bo`lsa, shaxsiyatga oid mazmun, ya'ni alohida ahamiyat kasb etadi. K. Marks kapitalistik jamiyatda yollanma ishchilar mehnatini ta'riflarkan, shunday deb yozgan edi: «Uning uchun o`n ikki soatlik ish kunining mazmuni to`qish, yig`irish, parmalash va hokazolardan iborat emas, balki bu unga yoyish, mayxonaga borish, uxlash imkoniyatini beradigan pul topish usulidir, yolg`iz bittagina so`zning, harakatning, holatning o`zi har xil odam uchun har xil mazmun kasb etishi mumkin. O`qituvchining o`quvchiga «Tanaffusda sen yana Petrov bilan mushtlashibsan» degan tanbehi ularning har ikkalasi uchun ham bir xil mazmunni anglatadi. Munosabatga kirishuvchilarning o`zaro bir-birlarini anglab yetishlarida mohiyatlar darajasida hech qanaqa qiyinchilik yo`q - unisi ham, bunisi ham gap nima haqda borayotganligini tushunishadi. Lekin ularning shaxsiyatiga oid mazmuni turlicha bo`lishi mumkin. Maktabdagi mushtlashish o`qituvchi uchun intizomning buzilishi hisoblanadi. O`quvchi uchun, ehtimol, Petrovning ancha ojiz bola sifatida uni xo`rlashlariga barham berish uchun yana bir urinib ko`rishidir.

Katta yoshdagi kishilar bola tilni faqat uning o`ziga xos mohiyatlari bilan ko`shib emas, balki ular tegishli ma'naviy va dunyoqarash qadriyatlarini ko`zda tutgan holda qabul qilgan shaxsiyatga oid mazmunlar sistemasini ham qo`shib egallashiga erishishlari uchun barcha asosga egadirlar va bu istak bolalar bilan umumiy til topish borasidagi vazifa e'tibori bilan o`rinlidir. Buningsiz kelishish va mojarolardan holi bo`lish qiyin. Katta yoshdagi kishilar bu maqsadni (bolalarning katta yoshdagilarning tilini ularning shaxsiyatiga oid mazmuni sistemasiga kirib borgan holda o`zlashtirib olishlarini) e'tiborsiz qoldirmagan holda bolaning shaxsiyatiga oid mazmunni chuqur anglab olishlari kerak. Bunda kim bilan munosabatga kirishgan bo`lsang, o`zingni o`sha kishining o`rniga qo`ya bilish, unga o`xshash bo`lish muhim rol o`ynaydi. Pedagogning o`quvchi shaxsiyatiga oid mazmunlar sistemasiga kira bilmasligi va shunday qilishni istamasligi pedagogik munosabat jabhasidagi shaxslararo mojarolarga olib kelishi ehtimoldan holi emas.

5. Shaxslararo o`zaro birgalikdagi harakat

Birinchi toifadagi munosabat (faoliyatdan ko`zlangan maqsadga erishish uchun axborot ayirboshlash, kommunikatsiya o`rnatish) bilan bir qatorda ikkinchi toifadagi munosabatning (o`zligingni boshqa kishilarda davom ettirish, o`zining o`ziga xosligini «translyatsiya qilish» kabilarning) ham mavjudligi har bir kishining ikkinchisiga ko`rsatadigan ta'siriga e'tiborni jalb qiladi. Bu ta'sir ta'sir ko`rsatilayotgan kishi tomonidan ham, ta'sir ko`rsatayotgan kishi tomonidan ham anglanishi mumkin va, aksincha, anglanilmasligi ham mumkin.

Sotsial ta'sir masalasi ta'lim va tarbiyaning psixologik jihatlarini o`rganishda alohida muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim — bu avvalo axborot jarayonidir. O`qituvchi o`quvchiga bilimlarni ma'lum qiladi (tegishli axborot beradi) va o`z navbatida teskari aloqa tarzida undan ma'lum qilingan bilimlar qanday o`zlashtiralganligi haqida tasavvur hosil qiladigan axborot oladi (javobni tinglaydi, kontrol ishni tekshiradi va hokazo). O`zaro birgalikdagi harakat mohiyatlar darajasida amalga oshiriladi. Biroq, yuqorida qayd qilib o`tilganidek, pedagog tushunchalarni hosil qilgan holda faqat mohiyatlarni yetkazib qolmay, balki o`quvchilarga bu tushunchalar uning uchun ega bo`lgan mazmunni «translyatsiya qiladi» (yetkazdi). U Ulug` Vatan urushi haqida hikoya qilarkan, o`quvchilarga, masalan, faqat Brest qal'asi himoyasiga oid faktlarni ma'lum qilib qolmaydi va ularni ana shu faktlar xususida xulosa yasashga o`rgatish bilangina cheklanmaydi, balki

ularga o`zining ana shu voqealarga shaxsiy munosabatini, Brest kal'asi himoyachilarining qahramonligi sovet vatanparvari sifatida uning uchun qanday mazmunga egaligini xabar qilishga intiladi. Mazmunlarning o`qituvchidan o`quvchiga o`tkazilishi, «translyatsiya qilinishi» tarbiyaning eng muhim jihati hisoblanadi. Mazmunni mohiyatdan ajratib bo`lmagani singari tarbiyani ham ta'limdan ajratib bo`lmaydi, albatta.

Pedagog tarbiya vazifalarnni amalga oshirarkan, o`quvchilarga ko`rsatadigan ta'sir tarbiyalanuvchilar ko`rib, eshitib va bajarib borayotgan mazmunlarning muayyan darajada o`zgarishini taqozo qiladi. Har xil pedagog ularga turlicha darajada juda ham xilma-xil tusda ta'sir ko`rsatadi.

Quyidagicha eksperiment o`tkazildi. Sinab ko`rilayotgan boshlang`ich sinf o`quvchilariga har xil o`yinchoqlarni taklif qilishdi, lekin ulardan birini, ya'ni qizil rangli matryoshkani hech biri sira ham qo`lga olmasliklari va uni buramasliklari kerakligi haqida qat'iy ravishda ogohlantirishdi. O`yinchoqlar bilan yakka o`zlari qoldirilgan bolalarning har birini zimdan kuzatib turishdi. Sinab ko`rilayotganlarning umumiy sonidan ba'zi bir qismi taqiqni hamisha buzardi. Eksperimentning ikkinchi davrasida bolalarga boshqa narsalar bilan o`ynashga ruxsat berilgani holda qizil qutichani ochish man etildi. Lekin shu bilan birgalikda sinovdan o`tayotganlarning ro`parasida ko`rinarli qilib ularning pedagogi portretini ko`yishdi. Eksperiment shuni ko`rsatdiki, bitta tarbiyachining portreti qo`yilganda «tartibbuzarlar» soni kamayadi, ikkinchisini ko`yilganda ham birinchi davradagndek darajada bo`ladi, uchinchisining portreti qo`yilganda esa ular soni sezilarli darajada oshadi. O`qituvchining borligi haqida birgina ogohlantirishning o`zi (birinchi va uchinchi hollarda) vaziyatning mazmunini turlicha o`zgartirib yubordi. Bitta pedagogning «ishtiroki» bolalarning «qonunga rioya etishini» oshirsa, ikkinchisining qo`shilishi taqiqni buzishga intilishni kuchaytirib yubordi.

Pedagog ko`rsatadigan ta'sirning turlicha samara kasb etishi zamirida uning shaxsiyatiga oid xususiyatlar, garchi turlicha bo`lsa-da, uning o`zini davom ettirish, o`zining shaxsiyatiga oid mazmunlarni bolalarga o`tkaza bilish qobiliyati, uning pedagogik munosabati xarakteri va samaradorligi aksi mujassamlashgandir.

6. Do`stona munosabat.

Munosabatga kirishuvchilarning o`zaro yaqinliligi bilan, bir-birlari bilan munosabatdan qoniqish hosil qilganligining yuksak darajasi, javob tariqasidagi his-tuyg`ular va afzallikning o`zaro taxmin qilinishi, bilan belgilanadigan, o`zaro munosabatlar va o`zaro birgalikdagi harakatning barqaror individual-tanlash sistemasi sifatidagi do`stlik odamlar munosabatining alohida shakli sifatida yuz beradi. Do`stlikning rivojlanib borishi uning o`zaro hamjihatlikning zarurligini, oshkoralik va ochiqlikni, ishonchni, o`zaro faol yordamlashuvni, bir-birlarining ishlariga o`zaro qiziqishni, samimiylikni va his-tuyg`ularning beg`arazligini qaror toptiruvchi yozilmagan qonun-qoidaga amal qilishini taqozo etadi. Do`stlik qonun-qoidasining jiddiy ravishda buzilishi yo uning to`xtatib qo`yilishiga, do`stlikning shunchaki yuzaki oshnachilik munosabatlaridan iborat qilib, yoki hatto tamomila bunga zid narsaga-dushmanlikka aylantirib qo`yilishiga olib boradi.

Do`stona munosabat o`rnatish va do`st tutinish problemasi o`spirinlik yoshida ayniqsa dolzarb masalaga aylanib qoladi. Pedagoglarning kuzatishlari, o`spirinlarning sir saqlanadigan kundaliklari, ularning «Do`stlik va muhabbat to`g`risida»gi mavzularda o`tkaziladigan suhbatlarga qiziqishlari ana shundan dalolat beradi. Lekin bu izlanishlar muvaffaqiyatli chiqaveradi deb tasdiqlash uchun asos yo`q. Chunki o`spirinlar o`zaro

munosabatlarining haqiqiy xarakterini do`stlik qonun-qoidalarining yuksak mezoni bilan taqqoslash chog`ida yuz beradigan qiyinchiliklarga duch keladilar. Ba'zan tarkib topayotgan munosabatlarning do`stlik andazasiga mos kelmasligi bilinib qolgan taqdirda yuz beradigan ko`ngil sovishlar o`spirinlar orasida janjallarga ham olib keladi. Bunisi ko`proq qiz bolalarning bir-birlari bilan munosabatlariga xosdir.

Do`st orttirishga bo`lgan ehtiyoj o`spirinlik yoshi uchun xos xususiyat hisoblanadi. O`spirin odatda do`stona munosabatning o`lchovi haqida yetarli darajada aniq-ravshan tasavvurga ega bo`ladi, lekin bu yoshda u ko`proq intiladigan alohida juftlashgan holda do`stlashuvdan ko`ra ko`proq o`z tengdoshlari bilan kengroq ma'nodagi munosabatga kirishishni taqozo etadigan o`rtoqlik ancha keng tarqalgan bo`ladi. O`rtoqlik munosabatlarn o`spirin o`zi uchun ahamiyatli xislatlar va fazilatlari bilan o`zini ko`plab tengdoshlarida davom ettirish imkoniga ega bo`la oladigan tarzdagi munosabatni kengaytirishga yordam beradi: uning uchun birov bilan o`qilgan kitoblarni muhokama qilish qiziqarli bo`lsa, boshqasi bilan stol tennisi o`ynash va uchinchisi bilan bo`lg`usi kasb haqida gurunglashish qiziqarli bo`lib tuyuladi.

O`spirinlik davriga xos o`rtoqlikni yuzaki munosabatlarga o`xshatish mumkin emas. Chunki o`rtoqchilik munosabatining sub'ekti o`z tengdoshlarining hayoti va faoliyatiga o`zi uchun ahamiyatli individuallik jihatlari bilan ta'sir o`tkazishga intiladi, shu bois u faqat o`zi uchun emas, balki o`sha tengdoshlari uchun ham muhim va qimmatli bo`lgan narsa bilan boshqalarda o`zini davom ettirish imkoniyatlarini qidiradi. O`smirlarning do`stligi - bu do`stona munosabatni rivojlantirish yo`lidagi bir bosqichdirki, bu do`stlik sotsial yetuklik darajasiga erishgan katta yoshdagi kishilarda o`zining teranlik darajasiga yetadi.

Katta yoshdagi o`quvchilar o`rtasidagi do`stona munosabatlar xarakteri to`qqizinchi va ayniqsa o`ninchi sinfda sezilarli darajada o`zgarishi eksperimentlarda isbotlangan. To`qqizinchi sinfda o`qishni davom ettirishmoqchi bo`lgan o`quvchilar o`rtasida agar sakkizinchi sinfdaliklarida o`zaro afzal ko`rish bilan hayot yo`lini tanlash o`rtasidagi bog`lanish hali sezilmagan bo`lsa, to`qqizinchi va o`ninchi sinflarda do`stlik tuyg`ularining qaytadan kuchayishi yuz beradi. O`zaro do`stona yaqinlik belgisiga ko`ra birlashgan ulfatlar, tadqiqotlardan ma'lum bo`ldiki, muayyan bir kasb atrofida guruhlarga ajrala boshlaydi. Agar bu kichik guruhda avvaliga qiziqishi boshqacha sinfdosh qo`shilib yurgan bo`lsa ham, ko`pincha (garchand har doim bo`lmasa ham) u bir qancha vaqt o`tgandan keyin ulfatdan chiqib yoki uning uchun ancha xush keladigan kasb yo`nalishiga ega bo`lgan boshqa ulfatga qo`shilib ketadi, ma'lum darajada yolg`izlanib qoladi.

Umumiy ta'lim va hunar maktabining isloh qilinnshi munosabati bilan o`quvchilarga kasb jihatidan o`zlarining kimligini aniq belgilab olishda ularga yordam berishi lozim bo`lgan pedagog uchun bu jarayon ancha qiziqish tug`diradi. Do`stlik munosabati o`rnatgan va ta'riflangan bo`g`inlarda, eksperimentlar natijasida olingan ma'lumotlarning guvohlik berishicha, o`quvchilarning o`zlari qaysi kasbni egallash niyatida ekanliklarini aniqlagan, bo`lg`usi kasb haqidagi, uning «imkoniyatlari va istiqbollari, unga tayyorlanish yo`llari va hokazolar haqidagi axborot bilan bir-birlarini boyitgan holda olib boradigan yashirin kasb tanlash ishi yuz beradi. Buning ustiga kimki shu kasblarga qiziqmaydigan bo`lsa, munosabat doirasidan o`zidan-o`zi surilib chetga chiqib qoladi.

O`spirinlarda juftlashgan tarzdagi do`stona munosabat andazasi, garchi faqat shunday bo`lmasa ham, ko`pincha jinslar o`rtasida yuz beradigan ishqiy munosabatlarda, ilk yoshlik muhabbatinnng dastlabki ko`rinishlarida kurtak yozadi.

Adabiyotlar

1. Андреева Г. М. Межличностное восприятие в группе. MDU nashriyoti, M., 1981.
2. Бодалев А. А. Восприятие человека человеком. M., MDU nashriyoti, 1982.
3. Выгодский А. С. Мышление и речь. Собр. соч 2- том, M., Педагогика, 1982, 6—361-betlar.
4. Жинкин Н. И. Механизмы речи. M., RSFSR, PFA nashriyoti, 1958.
5. Доброви́ч А. Общение: наука и искусство. M., Знание, 1978.
6. Коломинский Я. Л. Психология общения. M., Знание, 1974.
7. Кон И. С. Дружба. M., Политиздат, 1980.
8. Леонтев А. А. Педагогическое общение. M., Знание, 1979.

14-ma'ruza. Muomala odamlarning bir-birlarini tushunishidir

Reja:

1. Kishining kishi tomonidan idrok etilishi mexanizmlari
2. Muomalada teskari aloqa
3. Muomalani mashq qilish

Muomalaning o`zaro birgalikdagi harakati va kommunikativ jihatidan tashqarida uning pertseptiv jihati - munosabat ishtirokchilarining uning jarayonida amalga oshiriladi o`zaro idrok etishi yuzaga chiqadi.

O`zaro birgalikda harakat qila boshlaydigan odamlar o`zaro hamjihatlik darajasini baholab oladigan va muomalaga kirishgan sherigining kimligi haqida o`ziga hisob bera oladigan bo`lsagina muomala yuz berishi mumkin. Muomala ishtirokchilari o`z ongida bir-birlarining ichki dunyosini qayta tiklashga (asli holida aks ettirishga), xis-tuyg`ularini, xulq-atvorining sabablarini, ahamiyatga molik ob'ektlarga nisbatan munosabatini fahmlab yetishga harakat qiladi. «Muomala chog`ida siz eng avvalo kishidagi qalbni, uning ichki dunyosini izlang»,—deb yozgan edi K. S. Stanislavskiy. Lekin boshqa kishining ichki dunyosini bunday tarzda qayta tiklash juda ham murakkab vazifadir. Sub'ektga boshqa odamlarning faqat tashqi qiyofasi, ularning fe'l-atvori va xatti-harakatlari, ular qo`llanadigan kommunikativ vositalargina bevosita in'om etilgan va u ana shu ma'lumotlarga tayangan holda o`zi bilan muomalaga kirishgan odamlarning kimligini tushunib etish, ularning qobiliyatlari, o`y-fikrlari, niyatlari va shu kabilar haqida xulosa qila olish uchun muayyan ishni bajarishiga to`g`ri keladi. Taniqli sovet psixologi S. L. Rubinshteyn shunday deb yozgan edi: «Kundalik hayotda, odamlar bilan muomalaga kirisharkanmiz, biz ularning xulq-atvoriga qarab mo`ljal olamiz. Negaki, biz ularning tashqi ma'lumotlari mohiyatini go`yo «o`qib», ya'ni «mag`zini chaqib» chiqamiz va shu yo`sinda kontekstda mujassamlashadigan matnning ichki psixologik jihati mavjud bo`lgan mazmunini aniqlaymiz. Bunday «o`qish» naridan-beri tez yuz beradi, chunki tevarak-atrofdagilar bilan muomala jarayonida bizda muayyan darajada ularning fe'li-atvoriga nisbatan avtomatik tarzda amal qiladigan psixologik ichki ma'no hosil bo`ladi». Alohida bir hatti-harakat o`zicha uning zamiridagi ichki psixologik jihat bilan uzil-kesil bog`liq emas va bu xrl shaxslararo idrokni psixologik vazifaning bajarilishiga aylantiradi. Muomalaning pertseptiv jihati — bu kiishning kishi tomonidan idrok etilishi, tushunilishi va baholanishi demakdir. Individ boshqa odamlarni o`rganarkan, ular bilan birgalikda faoliyat ko`rsatish istiqbollarini yaxshiroq va yanada ishonarliroq aniqlab olish

imkoniyatiga ega bo`ladi. Kelishib olingan harakatlarning muvaffaqiyatliligi ular ichki dunyosining aniq-ravshan «o`qib chiqilganligi»ga bog`liqdir.

1. Kishining kishi tomonidan idrok etilishi mexanizmlari.

Muomala jarayoniga kam deganda ikki kishi jalb etilgan bo`ladi. Ularning har biri boshqasining tashqaridan seziladigan fe'l-atvor belgilariga qarab uning o`zi to`g`risidagi, uning ichki dunyosi to`g`risidagi tasavvurni qay tariqa hosil qila oladi? O`zaro bir-birini bilish borasida shaxslararo idrok etishning uchta muhim mexanizmning ta'sirini — identifikatsiyalash (aynan o`xshatish), refleksiya (fikrni tahlil etishga moyillik) va stereotiplashtirish (bir xil qolipga solish)ni alohida ko`rsatish mumkin.

Idenfikatsiyalash — bir kishining ikkinchi kishini uning ta'rifini sub'ektning o`z ta'rifiga anglanilgan, yoki anglanilmagan, tarzda o`xshatilishi orqali tushunish usulidir. Odamlar o`zaro birgalikda harakat qilish vaziyatlarida boshqa kishini o`zining o`rniga qo`yib ko`rishga uringan holda uning ichki holati, niyatlari, o`y-fikrlari, mayllari va his-tuyg`ulari haqida taxmin qiladilar. Avgust oyi kunlardan birida institut qoshida g`oyat hayajonlangan holda darslikni varaqlashayotgan ikkita qizni uchratib qolgan student o`zining abiturient sifatida institut eshiklari oldida imtihonga kirishga taklif qilishlarini kutib turgan paytlarini eslab, bir zumdayoq ushbu qizlarning ruhiy holatini xayolan o`z boshidan kechira boshlaydi.

Ammo sub'ektga munosabat boshqa kishini faqat undan o`zini chetlashtirgan holda, tashqaridan turib tushunishi emas, balki o`zi bilan muomalaga kirishgan individning uni qanday qabul qilishi, uning o`zini qay tarzda idrok etishi va tushunishi ham muhim ahamiyatga egadir. Sub'ektning u bilan munosabatga kirishgan sherigi tomonidan qay tarzda idrok etilishini anglab etishi refleksiya deb ataladi. Refleksiya boshqa kishini idrok etish tarkibiga kiradi. Boshqa odamni idrok etish, jumladan idrok etish sub'ekti sifatida o`ziga nisbatan uning munosabatini anglab etish degan ma'noni bildiradi. Shunday qilib, kishining kishi tomonidan idrok etilishini ko`zgudagi qo`shaloq aksga o`xshatish mumkin. Kishi boshqa birovni aks ettirarkan, o`sha kishining idrok etish ko`zgusida o`zini ham aks ettiradi.

Shaxslararo idrok etish jarayonidagi ko`zguda ko`p martalab aks etish Ya. Marshak tomonidan tarjima qilingan she'rda hazilomuz shaklda quyidagicha tarzda bayon etilgandir:

Aftidan, u sizni o`pgan o`xshaydi?
Aniq bilmadim, shunga o`xshaydi.
Lekin qanaqasiga bo`ldingiz rozi?
Eh, u shunaqa tentakdir o`zi!
U meni uxlab qolganu
Uyqumda sezmaydi deb,
Yo men nima o`ylasam, shunimi,
Bilmadim, meni uxlayapti, deb o`yladi!

Muomala jarayonida identifikatsiyalash va refleksiya birgalikda yuz beradi.

Agar har bir kishi o`zi munosabatga kirishgan odamlar to`g`risida doimo to`liq, ilmiy asoslangan axborotga ega bo`lganida bormi, ular bilan bo`ladigan o`zaro harakat taktikasini bexato va aniq ishlab chiqishi mumkin bo`lardi. Lekin sub'ekt kundalik hayotda, odatda bunaqa aniq axborotga ega bo`lavermaydi, bu esa uni ularning qilgan ishlari va xatti-harakatlaraning sabablarini boshqalarga to`nkashga majbur qiladi. Boshqa kishining xatti-harakatlari sababini his-tuyg`ularni, niyatlarni, o`y-fikrlarni va xulq-atvor

motivlarini unga to`nkash yo`li bilan tushuntirish kauzal atributsiya (lotincha saiza — sabab va atributo — qo`shib qo`yaman, in'om etaman degan so`zlardan olingan), ya'ni sababiy belgilar yoki sababiy izohlash deb ataladi. Pedagogning bolaning xatti-harakatlarini sababiy jihatdan noto`g`ri izohlashi maktabda ko`ngildagidek pedagogik munosabat o`rnatilishini qiyinlashtirib, ba'zan esa umuman yo`qqa chiqarib qo`yadi. N. K. Krupskaya shunday deb yozgan edi: «Bolalarning hatti-harakatlariga yomon sabablarni qo`shib qo`yishidan ham kattaroq jinoyat yo`qdir». Kauzal atributsiya ko`pincha anglanilmagan holda — yo boshqa kishiga o`xshatish negizida, ya'ni sub'ektning o`zi xuddi shunday vaziyatda u payqashi mumkin deb hisoblaydigan motivlar yoki his-tuyg`ularning boshqa birovga xosligi ta'kidlangan paytda, yo muomalaga kirishgan sherikni o`zlariga nisbatan ba'zi bir qolipdagi tasavvurlar hosil bo`ladigan shaxslarning muayyan toifasiga kiritish yo`li bilan yuz beradi.

Stereotiplashtirish — xulq-atvor shakllarini tasniflash va ularni hozirgacha ma'lum va mashhur deb sanalgan, ya'ni ijtimoiy qoliplarga mos keladigan hodisalar jumlasiga kiritish yo`li bilan ularning sabablarini (ba'zan hech qanaqa asossiz) izohlashdan iboratdir. Bu o`rinda kishining shakllangan va andoza (shtamp) sifatida qo`llaniladigan timsoli qolip tarzida xizmat qiladi. Stereotiplashtirish shaxslararo idrok sub'ektining kitoblardan, kinofilmlardan va boshqa manbalardan olingan ma'lumotlar, tanishlarning aytganlaridan eslab qolingan fikrlar ham qo`shilgan tarzdagi shaxsiy tajribasini umumlashtirish natijasi sifatida tarkib topishi mumkin. Buning ustiga bu bilimlar faqat shubhali bo`libgina qolmay, balki umuman noto`g`ri bo`lishi, to`g`ri xulosalar bilan bir qatorda haddan ziyod noto`g`ri xulosalar qilinishi ham mumkin. Shu bilan birga ana shu negizda tarkib topgan shaxslararo idrok etish qoliplari nuqul boshqa odamlarni tushunib etishning go`yo ishonchli namunalari sifatida qo`llanib keladi.

Jumladan, A. A. Bodalev tomonidan o`tkazilgan so`rov kishining tashqi ko`rinishi bilan uning xarakteriga xos belgilari bir xilligi haqidagi juda ham noto`g`ri stereotip tasavvurlarnnng keng tarqalganligini ko`rsatdi. So`ralgan 72 kishidan 9 tasi iyagi kvadrat shaklidagi odamlarning irodasi kuchli bo`ladi, deb aytgan, 17 kishi keng peshanali odam aqlli bo`ladi, deb ta'kidlagan. Uchtasi dag`al sochli odamlarni tabiatan bo`yin egmaydigan bo`lishadi, deb taxmin qilgan. Beshtasi bo`yi o`rta bo`ylikdan past odamlar hamisha hukmini o`tkazishga urinishi bilan, serg`ayratligi bilan, hammaga buyruq qilish istagi bilan ajralib turadi, deyishgan. Beshta odam chiroyli kishilar yo ahmoq, yo o`ziga bino qo`ygan bo`lishadi, degan fikrdadir. Ikkitasi esa agar odamning lablari yupqa va bo`zargan bo`lsa, u munofiq va ichi qora bo`ladi, deb ta'kidlashdi.

O`z-o`zidan ravshanki, ana shu barcha qoliplar shaxslararo idrok jarayoniga kiritilgan holda odamlarni noto`g`ri tarzda bilishga va ular bilan muomala jarayonining jiddiy buzilishiga olib keldi.

Amerikalik irqchilar tomonidan negrlarning shahvoniy jihatdan tajovuzkor, makkor, karomat qilib bo`lmaydigan va hokazo fe'li-atvorga ega deb an'anaviy tarzda talqin etilishi sababiy belgilar (kauzal atributsiya)ning mexanizmi sifatida bir xil qolipga solish bilan bog`liqdir. Mazkur holatda stereotiplashtirish oldindan paydo bo`ladigan fikr tarzida ro`y beradi: etnik jihatdan bu xilda oldindan paydo bo`ladigan fikrlar keng tarqalgan va bevosita burjua jamiyatiga xos narsa hisoblanadi.

Kauzal atributsiyaning xususiyati psixologiya tomonidan yaxshi o`rganilgan turli xildagi shart-sharoitlarga bog`liq bo`ladi. Masalan, notanish kishini idrok etish chog`ida, jumladan, idrok sub'ekti zga bo`lgan ilk axborot katta rol o`ynaydi.

A. A. Bodalev o`tkazgan tajribalarida ikki guruhdagi studentlarga bitta odamning fotosurati ko`rsatilgan. Birinchi holda tajriba o`tkazuvchi uni taniqli olim sifatida, ikkinchi holda esa jinoyatchi sifatida ta'riflagan. Uni tashqi qiyofasiga qarab ta'riflash tavsiya qilingan. Sinab ko`rilayotganlarning birinchi guruhi («taniqli olim» axboroti varianti) suratda tasvirlangan kishini jonini fido qilib ishlaydigan, mehribon, sezgir, aqlli odam deb ta'riflaydi. Ikkinchi guruhdagilar («jinoyatchi» varianti) ko`z oldilarida berahm, hech narsadan tap tortmaydigan va makkor kishining portreti turibdi, deb ta'kidlashdi. Portretdagi yolg`izgina bir detalning — ko`zning o`zi bir holda mehribon va dono deb izohlansa, boshqa bir holda yovuz va rahm-shafqatsiz deb izohlandi. Ehtimol, olingan axborot idrok etish jarayonini kishi qiyofasiga beriladigan bahoni olim yoki jinoyatchi obrazi qoliplariga moslagan holda qat'iy yo`naltirib qo`ygan bo`lishi kerak.

O`quvchilarga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatni yuzaga keltiradigan qoliplar pedagogik munosabatda o`qituvchining sub'ektivizmiga aylanib qoladi.

Amerikalik psixologlar quyidagicha tajriba o`tkazib ko`rgan edilar. Tajribali ekspert o`qituvchilardan katta bir guruhiga (ular 400 kishi edi) studentlarning kseroda nusxalangan shaxsiy delolari (anketalari, tarjimai hollari, fotosuratlari, yozma ishlaridan namunalar va boshqalar) tarqatildi. Har bir ekspert studentning shaxsiy delosini o`rgangach, studentni muayyan sxema bo`yicha har tomonlama ta'riflashi lozim edi. Barcha studentlarga xarakteristika olingandan keyin tekshirish materialini ikkita guruhga ajratish mumkinligi ayon bo`ldi. Bir guruh ekspertlar umuman ijobiy baholanishi lozim bo`lgan studentlarga, boshqa bir guruhi salbiy baholanishi lozim bo`lgan studentlarga ta'rif berishdi. Shunisi ham borki, ayrim ekspertlar bir xil toifaga, ya'ni yo faqat ijobiy, yo salbiy deb ajratish mumkin bo`lmagan javob berishdi.

Tajribadan kutilgan g`oya nimadan iborat edi? Haqiqatda 400 ekspertning barchasi kseroda nusxalangan bir xildagi shaxsiy delolarni olishgan edi. Farq qiladigan tomoni shunda ediki, shaxsiy delolardan 200 tasida yoqimtoygina, jiddiy va o`ychan yigitchaning fotosurati, qolgan 200 tasida esa xuddi shu yoshdagi oliftaroq, biroz yoqimsizroq yigitchaning fotosurati ilova qilingan edi. Birinchi xil fotosuratlar ijobiy ta'riflashga turtki bergan bo`lsa, ikkinchi xili salbiy ta'riflashga sabab bo`lgan, Shunday qilib, ekspertlar ko`plab ob'ektiv ma'lumotlarga ega bo`lsalar ham, fotosurat «o`z ishini ko`rsatdi».. Hech kim ekspertlardan studentning tashqi ko`rinishiga baho berishni so`ramagan edi, lekin, ma'lum bo`ldiki, aynan ana shu tashqi ko`rinish ahamiyatliroq bo`lib chiqdi va ekspertizaning natijalarida farqlarni keltirib chiqardi.

Afsuski, pedagogik ishda baholashning sub'ektivliligi ko`pincha kishining tashqi ko`rinishiga beriladigan baho bilan bog`liqdir.

Pedagogning idrok etish ob'ekti haqida oldindan bilib oladigan axboroti yanglash fikr va sub'ektivizmning tarkib topishi uchun jiddiy asos hisoblanadi.

60-yillarning oxirida amerikalik psixologlar Rozental va Djekobson yanglish fikr tarkib topishining yuqorida ko`rsatilgan omili qanday rol o`ynashini aniqlashga qaratilgan psixologik tajriba o`tkazishgan edi.

Ma'lumki, g`arbda bir qator o`quv yurtlarida tekstga (o`lchovga) ko`ra o`rganish qo`llanilib kelmoqda, ya'ni aqliy iste'dod darajasini maxsus testlar (IQ iste'dod koeffitsienti) yordamida aniqlashga urinib ko`rilmoqda. Mazkur test o`qishga kiruvchilarning keyinchalik turli o`quv gruppalariga ajratib yuborilgan ikkita kontingentida o`tkazildi. O`tkazilayotgan testning natijalari haqida studentlarning o`zlari xabardor qilinmagan edi, lekin tajriba o`tkazayotganlar o`qituvchilarni bundan xabardor qilib, misol uchun ularga Smitning iste'dodliligh koeffitsienti juda past, Djonsniki esa

yuqori ekanligini aytib turishdi. Har bir gruppada testga ko`ra baholangan studentlardan 2-3 ta bor edi. Ayni paytda o`qituvchilar tajriba o`tkazuvchilardan jo`rttaga soxta ma'lumotlarni olishdi, negaki, testga ko`ra baholanayotganlar aqliy iste'dodi koeffitsienti yuksak yoki past deb tasodifan (ro`yxatda birinchi turgani «iste'dodli» deb, ikkinchisi — «layoqatsiz» deb, uchinchisi —«iste'dodsiz», to`rtinchisi —«layoqatsiz» va hokazo tarzida) aytilgan edi. Biroz vaqt o`tgandan keyin tajriba o`tkazuvchilar testga ko`ra baholangan shaxslarning o`qishda erishgan yutuqlari bilan tanishishdi. Go`yo yuksak koeffitsientiga ega bo`lgan studentlar asosan yaxshi o`qishardi, ulardan o`qituvchilari ham mamnun edi va ular to`g`risida yaxshi fikrlar bildirishdi. Kimki IQ koeffitsienti pastga «kiritilgan» bo`lsa, ular o`ta nochor ahvolda edi — ayrimlari o`qishni tashlab ketgan, boshqalari juda kiynalib o`qishardi. Garchi bu o`rinda istisnolar bo`lsa ham, lekin allaqanday qonuniyat mavjudligi sezilib turardi. Kishilar taqdiri uchun alamsiz bo`lmagan bu tajribaning natijalari nimalardan dalolat beradi? O`qituvchilar qarshisida iste'dodli kishi o`tirganini «bilgan holda» bu kishi iste'dod sohibi sifatida o`zini namoyon qilishi uchun mumkin bo`lgan barcha imkoniyatni ishga solishdi va boshqasining «iste'dodsiz» ekanligini «bilgan holda» unisi bilan «ovora» bo`lishni istashmadi, unga iltifot qilishmadi va bu uning ahvoliga hamda o`qishiga ta'sir etmasdan qolmadi. Pedagoglarda oldindan olingan axborotga binoan studentga ma'lum bir nuqtai nazardan qarashga tayyorlik shakllandi va ular bu fikrni tasdiqlash uchun barcha ishlarni qilishdi.

Shu munosabat bilan bir savol tug`iladi: o`quvchining yaxshi o`qimasligini unga atayin o`zlashtirmovchi sifatida, yo ozoda kiyinmagan, yo gapga quloq solmaydigan deb munosabatda bo`lish evaziga ba'zan pedagoglarning o`zlari keltirib chiqarishmaydimi? g`arazgo`ylik yuz beradi, sub'ektivizm namoyon bo`ladi, keyinchalik esa bunday pozitsiyaning to`g`riligini isbotlash uchun muayyan ishlar qilinadi.

Idrok etish sub'ekti ijobiy munosabatda bo`lgan shaxslarga ijobiy, xush ko`rmaydigan shaxslarga salbiy nisbat berilishi kauzal atributsiyaga xos tipik hollardan biri hisoblanadi. Masalan, tajriba sharoitlarida pedagoglar o`zlariga notanish bolalarga o`quv topshiriqlarini bajarganliklari uchun qo`ygan baholar qayd etib borildi. Bolalarning qaysi birlari ularga ancha yoqimli, qaysi birlari kamroq yoqqanday bo`lganligi oldindan aniqlab qo`yildi. «yoqimli» bolalar (tajriba o`tkazuvchi bilan kelishilganiga ko`ra) «yoqimsizroq»lariga qaraganda hatto ko`proq xatoga yo`l qo`yganlarida ham birinchilari yuqoriroq baholangani va ularga ijobiy fazilatlar xosligi qayd qilingani, ayni chog`da «yoqimsizroqlariga» salbiy xislatlar berilgani ma'lum bo`ldi. Tajribada aniqlangan bunday bog`liqlik oreol effekti (samarasi) nomi bilan yuritiladi.

Oreol effektining mohiyati shundan iboratki, kishi tomonidan qoldiriladigan umumiy ijobiy taassurot sub'ektning idrok etish chog`ida berilmagan fazilatlarni ham ijobiy baholashiga sabab bo`ladi: shu bilan birga umumiy nomaqbul taassurot tegishlicha salbiy baholarga olib keladi. Orel effekti ko`pincha idrok ob'ekti idrok etilayotgan narsa haqida juda kam axborotga ega bo`lgan paytda namoyon bo`ladi. Lekin bu effekt tanish kishini idrok etish chog`ida ham, lekin unga nisbatan yorqin namoyon bo`ladigan hissiy munosabat bildirilgan sharoitlarda yuz beradi. Shunday qilib, ayrim o`qituvchilar tomonidan sinfda pedagogika nuqtai nazaridan nomaqbul hisoblangan «erkatoylar»ning bo`lishiga yo`l qo`yilishi o`quvchilarning baholarini ko`ra-bila turib sub'ektiv tarzda soxtalashtirishga va ularning shaxsiyatiga oid fazilatlarning noto`g`ri idrok etilishiga olib keladi.

Shaxslararo idrokning ijtimoiy qimmatga molik birgalikdagi faoliyat jarayoniga qo`shib yuborilishi uning xarakterini o`zgartiradi, uni kauzal atributsiyaga aynan o`xshash

qilib qo`yadi, oreol effektining salbiy ta'sirini bartaraf etadi. Haqiqiy kollektivda kishining kishi tomonidan tushunib etilishi aynan ana shunday xarakterda bo`ladi.

2. Muomalada teskari aloqa.

Yuqorida aytib o`tilganidek, muomala shunchaki axborotni yetkazish bilangina cheklanib qolishi mumkin emas. U muvaffaqiyatli tarzda yuz berishi uchun muqarrar ravishda teskari aloqaning mavjud bo`lishini — sub'ekt tomonidan o`zaro birgalikdagi harakat natijalari haqida axborot olib turilishini taqozo etadi.

Individ biron boshqa kishiga nima haqdadir xabar qilarkan, buyurar yoki iltimos, yo savol bilan murojaat qilar ekan, umuman u bilan o`zaro birgalikda harakat qilarkan, har doim: o`zining boshqa kishiga murojaat qilishining samaradorligi to`g`risida zarur axborot oladi—zarurat bilan muomala qilish refleksiyani taqozo etadi. U o`zini to`g`ri tushunishlariga va tegishli natijaga erishish maqsadida ana shu axborot asosida o`zining harakatlari va nutqiy kommunikatsiyasi vositalari sistemasini qayta qura borib, o`z fe'l-atvorinn to`xtovsiz to`g`rilab boradi. Sub'ektiv ravishda so`zlayotgan kishi teskari aloqaga e'tibor qilmasligi mumkin, lekin u o`zi anglamagan holda hamisha uni qo`llaydi.

Mabodo teskari aloqaning imkoniyatlarn allaqanday sabablarga ko`ra cheklangan bo`lsa ham, uning muomaladagi roli juda ham aniq-ravshan anglanadi. Maktab radiosi orqali gapirayotgan yuqori sinf o`quvchisi tinglovchilar bilan odatdagidek teskari aloqaga erisha olmay juda ham qiynaladi — uning nutqi ishonarli bo`lmaydi, o`xtin-o`xtin tutilib qoladi, tezlashadi yoki kechirilmaydigan darajada sekinlab qoladi, odatdagi ohang yo`qolgan bo`ladi va hokazo. Agar hamsuhbatni ko`rish orqali idrok etish imkoniyati bo`lmasa, qo`l barmoqlari va yuz harakati orqali bo`ladigan imo-ishoralar kambag`allashib, harakatlar erkinligini yo`qotib qo`yadi. Hamsuhbatning fe'li-atvorini idrok etish chog`ida olinadigan signallar sub'ektning keyingi harakatlari va fikrlarini to`g`rilab borish uchun asos bo`ladi.

Umuman hamsuhbatni yoki tinglovchini idrok etish muomala vaqtida o`zaro hamjihatlikka erishishning muhim sharti bo`lib xizmat qiladi. Agar pedagog o`quvchilar uni qanday tushunishlari va qabul qilishlari haqida unga teskari aloqa tarzida yuboriladigan axborotni qabul qila bilmasa, o`zaro birgalikda harakat qilish amri mahol bo`lib, pedagogik aloqa uzilib qoladi. Muomalaning monologik shakllaridan foydalanishda uning dialogik shakllariga nisbatan ko`proq qiyinchiliklar tug`ilishi ana shu bilan izohlanadi; o`qituvchining lektsiyada teskari aloqaga ega bo`lishi seminar yoki laboratoriya mashg`ulotlaridagiga qaraganda juda qiyin. Tajribali pedagog dars holatlarida juda qisqa vaqt ichida bir necha o`nlab o`quvchilarnint yuzlaridagi ifodaning, mimikaning, so`zlash ohangining, qo`llarini va gavdasini qimirlatgan holdagi imo-ishoralarining «kalitini topadi» va ularning psixik holatlari, hadiksirashlari, orzu-umidlari, qayg`u-alamlari, o`y-niyatlari to`g`risida xulosa chiqargan holda ularning ichki dunyosi to`g`risidagi tushunchaga muvofiq tarzda o`z xulq-atvorini to`g`rilab boradi, tarbiyaviy ta'sir ko`rsatish usullari va yo`llarini tanlaydi. Shunday qilib, shaxslararo idrok etish jarayonida teskari aloqa xabar beruvchi funktsiyani va o`zini o`zi boshqarish funktsiyasini bajaradi.

Kishining jismiy qiyofasidagi ayrim belgilar (yuzlari, qo`llari, elkalari), o`zini tutishlari, qo`llarini va gavdasini qimirlatib imo-ishora qilishlari, so`zlash ohangi axborot tashuvchilar sifatida xizmat qiladi. Muomala jarayonida bularni e'tiborga olish darkor. Hamsuhbat yoki tinglovchining yuzlari teskari aloqa signallarining alohida axborot tashuvchisi hisoblanadi. Pedagog o`quvchining yuzlaridagi ifodaga qarab uni o`ta diqqat

bilan tinglashayotganliklari yoki tamomila eshitmayotganliklari («yuzlarida ifodaning yo`qligi»), unga ishonch bildirayotganliklari yoki shubhalanib qarayotganliklari («yuzlaridagi shubhaomuz ifoda») va hokazolar to`g`risida xulosa chiqaradi.

Shunisi ham borki, boshqa odamlar bilan muomala sub'ektining idroki to`g`risidagi yetarli darajada to`liq tasavvur olish idrok etuvchidan keladigan signallarning butun kompleksini va eng avvalo ular xatti-harakatlarining tahlilini yuzaga chiqaradi. Shunaqa hollar ham uchraydiki, pedagogning pand-nasihatlarini e'tibor bilan tinglayotgani «shundoqkina ko`rinib turgan» o`quvchi aynan shu paytning o`zida o`ynab yurgan o`rtoqlariga iloji boricha tezroq qo`shilishni sabrsizlik bilan kutayotgan bo`ladi.

3. Muomalani mashq qilish.

Odamlarda samarali muomala o`rnatish malakalari tasodifiy ravishda tarkib topadi yoki ta'limning yordamchi mahsuli sifatida yuz beradi (birinchi sinf o`quvchisi «to`laqonli javob» qaytarishga, katta yoshdagi kishi unga murojaat qilayotganda o`rnidan turishga va hokazolarga o`rgatiladi). Katta maktab yoshida o`quvchilar xulq-atvor qoidalariga bag`ishlangan ommabop adabiyotlarni (qisman oilaviy hayot etikasi va psixologiyasi kursida) o`qirkan, muomala madaniyatining ba'zi jihatlari bilan tanishadi. Lekin muomala malakalarining maxsus o`rgatilishi alohida bir vazifa bo`lib, pedagog uchun uning qanchalik muhim ekanligini ta'riflash shart emasdir. Sotsial-psixologik trening yoki muomala treningi, ya'ni muomalaning mashq qilinishi bu vazifani hal etish yo`llaridan biri sifatida namoyon bo`ladi.

Sotsial-psixologik trening mazmunan ikki xil vazifani: birinchidan, muomalaning va, shu jumladan, pedagogik muomalaning umumiy qonuniyatlarini o`rganishni, ikkinchidan, pedagogik kommunikatsiyaning «texnologiyasi»ni egallash, ya'ni professional pedagogik muomala ko`nikma va malakalari shakllantirilishini o`z ichiga oladi.

Shunday qilib, sotsial-psixologik trening problemasining nazariy va amaliy tomonlari ajratib ko`rsatiladi. Amaliy tomoni o`quvchilar bilan bo`ladigan muomala ko`nikmalari va malakalarini egallashga va ularni chiniqtirishga qaratilgan mashqlar: darsning barcha bosqichlarida izchillik bilan harakat qilish malakalarini (asosan maktabdagi pedagogik praktika jarayonida tobiga yetkaziladi), pedagogik ish davomida mushaklarnnng zo`riqishini so`ndirish malakalarini, ixtiyoriy diqqatni taqsimlash malakasini shakllantirishga, kuzatuvchanlikni namoyon qilishga qaratilgan mashqlarni taqozo etadi.

Magnitafon yozuvi yordamida teskari aloqadan foydalangan holda o`tkaziladigan nutq texnikasi va madaniyatiga doir mashqlar, tobora rasm bo`lib borayotgan videomagnitafon texnikasi bor joylarda esa o`quvchilar bilan muomalaga kirishilgan sharoitlarda adekvat mimika va pantomimikaning rivojlantirilishini ta'minlaydigan mashqlar alohida ahamiyatga egadir. O`zining magnitafon lentasiga yozilgan ovozini tinglayotgan va buning ustiga yana o`zini videomagnitafon ekranida ko`rayotgan kishining o`z nutqini, mimikasini va pantomimikasini to`g`rilash uchun qulay imkoniyatlarga ega bo`lishi, o`zini «tashqaridan turib» xuddi boshqa kishini idrok qilganday idrok etishi hammaga ma'lum.

Psixologik-pedagogik trening shakllaridan yana biri tipik pedagogik vaziyatlarni, misol uchun imtihonlarni modellashtiruvchi amaliy o`yinlardir. Muomala treningi, ya'ni muomalani mashq qilish o`qituvchilarni tayyorlash va malakasini oshirish sistemasida

pedagogik ishning yangi shakli bo`lib, pedagogik ta'lim uchun juda ham istiqbolli hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Андреева Г. М. Межличностное восприятие в группе. MDU nashriyoti, M., 1981.
2. Бодалев А. А. Восприятие человека человеком. M., MDU nashriyoti, 1982.
3. Выгодский А. С. Мышление и речь. Собр. соч 2- том, M., Педагогика, 1982, 6—361-betlar.
4. Жинкин Н. И. Механизмы речи. M., RSFSR, PFA nashriyoti, 1958.
5. Добрович А. Общение: наука и искусство. M., Знание, 1978.
6. Коломинский Я. Л. Психология общения. M., Знание, 1974.
7. Кон И. С. Дружба. M., Политиздат, 1980.
8. Леонтев А. А. Педагогическое общение. M., Знание, 1979.

15- ma'ruza. Jamoa

Reja:

1. Guruhlar va ularning tasnifi
2. Jamoada shaxslararo munosabatlarning amaliy faoliyati orqali ifodalanishi
3. Jamoadagi shaxslararo munosabatning ko`p darajali tuzilishi
4. Jamoa va uning boshqa guruhlarga nisbatan psixologik jihatdan farqlari

1. Guruhlar va ularning tasnifi

Pedagog o`z ishi davomida faqat alohida har bir o`quvchi bilan ish olib bormasdan, balki o`z tarkibida o`quvchilarni birlashtirgan turli xildagi guruhlar - sinf jamoasi, o`quvchilar ishlab chiqarish brigadasi, oila va ba'zan esa o`spirinni o`z ta'siriga tortgan ko`cha ulfatlar yoki sinfning o`zida biron-bir yetakchi tevaragida birlashgan bolalar to`dasi bilan ish olib borishiga ham to`g`ri keladi. Shu munosabat bilan o`qituvchi guruhlar va jamoalarning asosiy sotsial-psixologik qonuniyatlarini bilishi shart.

Guruh — bu muayyan belgiga, masalan, sinfiy mansublikka, birgalikda faoliyat ko`rsatishning mumkinligiga va uning xarakteriga, tashkil topish xususiyatlari va shu kabilar asosida ajralib turadigan insoniy umumiylikdir. Guruhlarning tasniflanishi ham shunga muvofiq tarzda bo`lib, kichik va katta guruhlarga bo`linadi - o`z navbatida ular ham real (bog`langan), shartli formal (rasmiy) hamda noformal (norasmiy) guruhlarga, rivojlanish darajasi turlicha bo`lgan, ya'ni rivojlangan (jamoalar) va yetarli darajada rivojlanmagan yoki kam rivojlangan guruhlarga (uyushmalarga, birlashmalarga, aralash guruhlarga) bo`linadi.

Katta guruhlar umumiy makon va zamonda hayot kechirayotgan anchagina odamlarni o`z tarkibiga olgan sotsial umumiylikni tashkil qiladigan real (bog`langan) guruhlar shaklida bo`lishi mumkin. Bu xildagi katta guruhlarga korxonaning mehnat jamoasi yoki ko`pgina o`kituvchilar bir-birlari bilan bevosita o`zaro aloqada bo`lmasalar ham, lekin ayni chog`da yagona bitta rahbarga (direktorga, ilmiy mudirga) bo`ysunadigan, bitta partiya va kasaba soyuz tashkilotiga kiradigan, maktab hayotiga oid hamma uchun umumiy hisoblangan ichki tartibning barcha qoidalariga amal qiladigan kattagina bir maktabning pedagoglar jamoasi kiritilgan bo`lishi mumkin. Katta guruhlar ba'zi bir belgilari (sinfiy, jinsiy, milliy, yosh va boshqa belgilari)ga binoan ajratiladigan va birlashtiriladigan guruhlar shaklida bo`lishi ham mumkin. Katta shartli guruhga kiritilgan

kishilar hech qachon bir-birlari bilan uchrashmagan bo`lsalar ham, lekin bu xildagi guruhga ajratilgani uchun asos bo`lgan belgilariga ko`ra umumiy sotsial va psixologik ta'rifga ega bo`lishlari mumkin. Jumladan, o`spirinlar turli shahar va qishloqlarda istiqomat qilishlariga bog`liq bo`lmagan holda bitta katta shartli guruhga birlashtirilishi, ehtimol, ular turli xalqlarning tillarida so`zlashishlari, hech qachon bir joyga yig`ilmagan bo`lishlari mumkin va hokazo. Ularning umumiy sotsial (o`rta maktab o`quvchilari), yosh (12—15 yashar payti), psixologik (shaklanib kelayotgan ulg`ayish tuyg`usi, o`spirinlik paytida o`zligini namoyon etishi va hokazo) ta'riflari asosiy belgilariga ko`ra bir-biriga o`xshash bo`ladi. Katta shartli guruhlarni o`rganish (yosh psixologiyasida, sotsial psixologiyada va boshqalarda) ularning umumiy xususiyatlari farqlanishi natijasida guruhlarda ish olib borishning ilmiy asoslangan strategiyasi va taktikasini ishlab chiqish imkonini beradi. Shartli (yosh) guruh sifatidagi o`spirinlar shaxsiyati rivojlanishining umumiy konuniyatlarini bilgan holda pedagog maktabda va maktabdan tashqari muassasalarda tarbiyaviy ishni sobitqadamlik bilan va samarali tarzda olib boradi.

Kichik guruhlar - hamisha bog`langan umumiylik bo`lib, unga kiruvchi shaxslarning o`zaro birgalikdagi real harakati va ular o`rtasidagi real o`zaro munosabatlar bilan bog`langandir. Bu guruhlar rasmiy (formal) bo`lishi, ya'ni yuridik jihatdan qayd etilgan huquq va burchlarga, normativ asosida o`rnatilgan strukturaga, tayinlab yoki saylab qo`yilgan rahbarlikka ega bo`lishi mumkin. Ijtimoiy mehnat taqsimoti sharoitlarida bu guruhlar sotsial jihatdan taqozo etilgan faoliyat ko`rsatishi bilan bog`langandir. Maktablardagi sinfda komolot guruhi ana shunday rasmiy guruh hisoblanadi, o`quvchilarning sotsial jihatdan muhim bo`lgan faoliyatini yo`lga qo`yishda ularning roli va ahamiyati beqiyosdir.

Shuningdek, yuridik jihatdan qayd etilgan statusga ega bo`lmagan, ammo tarkib topgan shaxslararo munosabatlar (do`stlik, xayrixohlik, hamjihatlik, ishonch va shu kabilar) sistemasi bilan ifodalanadigan norasmiy (ko`pincha ularni noformal deb ham atashadi) guruhlar ham alohida ajralib turadi. Ular alohida ajralib turadigan umumiylik (masalan, turli maktablar va kasb-hunar kollejlarining mototsikl sportiga qiziqishlari umumiyligi negizida birlashgan bir qancha o`quvchisi) sifatida yuzaga chiqishi va rasmiy guruhlar ichida etarli darajada barqaror tus kasb etishi (sinfdagi do`stona ulfat tarziga kirishi) mumkin. Nihoyat rasmiy guruh o`zining barcha ta'riflarini saqlab qolgan holda norasmiy guruhlarning barcha fazilatlari (mustahkam do`stlik aloqalari, guruh a'zolarining o`zaro xayrixohligi va shu kabilar)ga ham ega bo`lishlari mumkin. Shunday qilib, rasmiy va norasmiy guruhlar o`rtasidagi chegaralar shartli va nisbiydir. O`quvchilarning bu xildagi norasmiy guruhlarini shakllantirish o`qituvchi olib borishi lozim bo`lgan tarbiyaviy ishning muhim vazifasi hisoblanadi. Bunday guruhlarning mavjudligi maktab o`quvchilari kiradigan o`sha rasmiy guruhlarni mustahkamlagan va ularning faoliyatini boyitgan bo`lur edi.

Har qanday (katta va kichik) guruhlardagi muomala va faoliyat ana shu guruhlarga kiradigan odamlarning hayot tarzini belgilab beradigan hamda ularning qadriyatlarini, ideallarini, e'tiqodlarini, dunyoqarashini shakllantiradigan ijtimoiy munosabatlar bilan belgilanadi va yo`naltirib turadi. «Individ - bu ijtimoiy mavjudotdir. Shuning uchun uning hayot kechirishi qanday ko`rinishda bo`lmasin va agar u hatto boshqalar bilan birgalikda kechiriladigan bevosita kollektiv hayot kechirish shaklida yuz bermagan taqdirda ham ijtimoiy hayotning ifodasi va tasdig`i bo`lib hisoblanadi». Guruhlar rivojlanishining darajasi yoki saviyasi ularni tasniflashning eng muhim negizi hisoblanadi. Guruhiy rivojlanish darajasi - shaxslararo munosabatlar shakllanganligining belgisi, guruhlar

shakllanishi jarayonining natijasidir. Guruhning bu xildagi o`lchovi (parametri) psixologiyada alohida ajratib ko`rsatilgandir. g`arb psixologiyasida guruhning hayot kechirish davri, kommunikatsiyalar miqdori (guruh a'zolarining muayyan vaqt mobaynida bir-birlariga murojaat qilganliklari soni), hokimiyat va bo`ysunuvning tarkib topgan munosabatlari va boshqalar guruhlar shakllanganligining o`lchovi sifatida xizmat qiladi. Psixologiya guruhning faoliyatini, undagi shaxslararo munosabatlar xarakterini belgilaydigan qadriyatlar va maqsadlarni guruh tarzidagi rivojlanish darajasini aniqlash uchun asos sifatida qabul qilgandir. Rivojlanish darajasiga ko`ra farqlanadigan guruhlarning — kollektivlar, sotsial yo`nalishdagi uyushmalar, aralash guruhlar, sotsial yo`nalishga zid uyushmalar va birlashmalarning psixologik toifasi ana shu asnoda tarkib topadi. Guruh tarzida rivojlanishning yuksak darajasi jamoalarga xos faoliyatda va shaxslararo munosabatlarda namoyon bo`ladi.

Jamoa guruhiy rivojlanishning eng yuksak formasidir

Shaxsni kamol toptiradigan va tarbiyalaydigan jamoa o`zi bilan jamiyat o`rtasidagi bog`lovchi bo`g`indir. Mehnat jamoasi o`zining yuksak ko`rinishlarida (zarbdorlik harakatida, yoshlarning mehnat brigadasi va shu kabilarda) kishi shaxsini har tomonlama kamol toptirish uchun shart-sharoit yaratadi.

Jamoaning psixologik muammolarini hal etishga pedagogik jihatdan to`g`ri yondashuv shaxslararo munosabatlarning umumiy nazariyasini yaratishning eng muhim shartidir.

G`arb psixologiyasi tushunchasidagi kichik guruh

G`arbdagi va, avvalo AqShdagi, psixologlarning diqqat-e'tiborini kichik guruh - bir-birlari bilan bevosita aloqada bo`lgan va o`zaro birgalikda harakat qiladigan, odamlarning birlashmasi jalb etgandir. Kichik guruhga asosan his-hayajonga oid bog`lanishlar (xayrixohlik, yoqtirmaslik, befarqlik, ko`ngilchanlik va hokazo) orqali hosil bo`ladigan umumiylik deb qaraladi. Kichik guruhlarning jipsligi, ular tuzilishining guruh ichidagi aloqalarni uzishga qaratilgan kuchlar ta'siriga qarshi barqarorligi, guruh faoliyatining uning hajmiga, unga rahbarlik qilish uslubiga bog`liq holdagi samaradorligi, shaxsning guruhdagilarga moslashuvi (konformliligi) yoki uning guruhdan mustaqilligi, shuningdek shaxslararo munosabatlarning boshqa muammolari - bularning hammasi eksperimental tadqiqot mavzusi qilib olindi va psixologiyaning maxsus bo`limiga - guruh dinamikasi (group dynamics)ga asos soldi.

Turli xil sotsial-psixologik hodisani tushunib etish uchun yagona nazariy asosning yo`qligi Amerika sotsial psixologiyasiga xos xususiyat hisoblanadi. Har xil guruhlardagi odamlar xulq-atvorining qonuniyatlarini aslini olganda bilib-bilmasdan bo`ladigan bog`lanishga borib taqaladi: guruh tazyiq o`tkazadi, guruh a'zolari esa guruhiy tazyiqqa bo`ysunadilar yoki bo`ysunmaydilar (konformizm moslashuv, nonkonformizm - moslashmaslik); guruh bir xil individlarga yaqinlashadi, boshqalaridan esa o`zini chetga oladi yoki, aksincha, ularni o`z muhitidan chiqarib yuboradi; agar guruh ichidagi aloqalar-soni ko`paya borsa, u holda guruhiy aloqalar nafislashib boradi va uzilib qoladi (jipslik, moslik) va hokazo.

Amerika psixologiya fanining ancha ta'sirli oqimlaridan biri -bixeviorizm bir vaqtlar kishini asosan har xil omillardan ta'sirlanuvchi mexanizm sifatida ta'riflashga shay turgan edi. Bixeviorizmning va sotsial psixologiyadagi boshqa nazariy yo`nalishlarning vorislari endilikda har qanday ijtimoiy guruhda bir-biri bilan tashqaridan bog`langan va o`zaro birgalikda harakat qilayotgan individlarning xuddi ana shunday mexanik agregatini ko`rishga tayyordir. Jumladan, guruhning tazyiqi ta'siri ostida individlarning kam deganda

uchdan bir qismi o`z fikrini o`zgartirishi va xususiy fikrining tajribada ishtirok etayotgan boshqa kishilarning baholariga to`g`ri kelmay qolgan sharoitlarida o`z fikrini bildirish va himoya qilishni xohlamayotganligini sezgach, ya'ni kelishuvchilikni namoyon qilgan tarzda ko`pchilik tomonidan tiqishtirilgan fikrga qo`shilishi tajribalarda (40-yillarda AqSh da) aniqlangan deb kelinardi. Keyingi barcha tadqiqotlar ushbu xulosani tasdiqlash tusini kasb etgan edi. Guruhning yiriklashuvi natijasida moslashuvchanlikning kuchayishi yo kuchaymasligi, sinab ko`rilayotganlarning o`zlari moslashuvchanlik fe'l-atvorini qanday izohlashlari aniqlandi, moslashuvchanlik ta'sirotlarining jinsga va yoshga xos xususiyatlari kabilar o`rganildi.

Mazkur alternativa (mumkin bo`lgan ikki holdan biri) yo tarbiyaning mazmunini ijtimoiy muhitning, guruh va jamoaning ta'siriga qarshilik ko`rsatishga qodir shaxsni shakllantirishdan iborat deb bilish, yoxud hamisha boshqalarning fikriga qo`shilishga moyil bo`lgan, guruhning ta'siriga qarshilik ko`rsata olmaydigan va bunday qilishni istamaydigan individlarni, ya'ni konformistlar (moslashuvchilar)ni tarbiyalashdek aniq-ravshan pedagogik muammoga aylanib qoladi. Masalaning bu tarzda qo`yilishidan qanoatlanmaslik dastlab asos qilib olingan alternativaning noto`g`riligi haqidagi mulohazaga sabab bo`ldi. Amerikalik psixologlarning tajribalarida individlarga ta'sir ko`rsatuvchi guruhning o`zi qanday paydo bo`lgan? Bu odamlarning tasodifiy birlashuvi natijasida tarkib topgan bo`lib, «aralash gruppa» (latincha diffusio - sochilib ketish, to`kilish so`zidan, «jipslik»ka teskari so`zdan olingan) deb atalishi ham mumkin. Tajriba shartlariga ko`ra guruhning bir-birlari bilan hozir bo`lishning umumiy o`rni va vaqtidan bo`lak biron boshqa narsa orqali bog`lanmagan individlarning shunchaki oddiy yig`indisi sifatida shaxsga beixtiyor ta'sirini o`rganish mo`ljallangan edi. Chamasi, shaxs bilan guruhning o`zaro birgalikdagi harakati mohiyatini tushunishning o`zida psixologni boshi berk ko`chaga kiritib qo`yadigan allaqanday jiddiy bir xatoga yo`l qo`yilgan bo`lsa kerak. Bunday vaziyatdan qutulish uchun, ehtimol, guruhning rivojlanish nazariyalari mohiyatini qayta ko`rib chiqish va kollektiv psixologiyasini tushunib etish borasida guruhiy ta'sir ko`rsatish modelidan foydalanish qanchalik o`rinli ekanligini aniqlash lozimdir.

2. Jamoada shaxslararo munosabatlarning amaliy faolyati orqali ifodalanishi

Psixologiya shaxslararo munosabatlarni - jamoaning jipsligini, undagi psixologik muhitni, jamoaning uning a'zolari tomonidan idrok etilishini, shaxsning jamoadagi ahvoli va o`zini o`zi hurmat qilishini, bir-birlariga to`la ishonishlarini, xususan jamoaning istiqbollari munosabati bilan shaxsning jamoadagi istiqbollarini va shu kabilarni tushunib etish uchun kollektivlarni shakllantirish borasida o`tmishda orttirilgan tajribadan va, eng avvalo, A. S. Makarenkoning tajribasidan muvaffaqiyatli ravishda foydalandi. Jamoa faoliyatining jamiyat maqsadlariga bo`ysundirilgan umumiy maqsadlariga ko`ra birlashgan odamlar guruhi ekanligi haqida A. S. Makarenko asoslab bergan tushuncha psixologiya uchun an'ana bo`lib qoldi.

Lekin shunday bir savol tug`iladi: jamoadagi shaxslarar munosabatlarning o`zi nimadan iborat? U g`arb psixologiyasi kichik guruhlarda kashf etgan qonuniyatlarga bo`ysunadi, keyingilari esa har tomonlama ta'sir qila oladimi? Sovet psixologlari Amerika psixologiyasi kichik guruhlarda kashf etgan va o`rinsiz ravishda yalpi, go`yo har tomonlama deb e'lon qilganiga qaraganda boshqacha qonuniyatlar amal kilishini aniqladi. Bu real jamoalarda shaxslararo munosabatlarni o`rganish jarayonida isbotlandi.

Jamoaning Amerika psixologiyasi o`rganadigan an'anaviy ob'ektda - aralash birlik xususiyatiga ega bo`lgan kichnk guruhda mavjud bo`lmagan va kashf etilishi ham mumkin

bo`lmagan, lekin jamoadagi shaxslararo munosabatlarni o`rganish jarayonida aniqlangan birinchi psixologik hodisasi jamoaning o`zini o`zi belgilashi bo`ldi. Jamoa o`zini o`zi belgilashi moslashuvchanlik va moslashmaslik hodisalarini tajriba yo`li bilan o`rganish jarayonida aniqlandi. Odatda bunday tajriba qalbaki guruh deb atalmish guruhlar yordamida o`tkaziladi. Buning uchun yo begona «go`l» individni chalg`itish haqida kelishib qo`ygan odamlar guruhidan foydalaniladi, yoxud eksperiment o`tkazayotgan kishi guruhdan kelayotgan axborotni guruh bilan «ta'sir o`tkazilayotgan» individ o`rtasidagi aloqalar ustidan bo`ladigan nazorat yordamida jo`rttaga soxtalashtiradi. Metodika sinovdan o`tkazilayotganlar uchun ahamiyatsiz vazifalarning hal etilishini ko`zda tutgan edi. Masalan, ularga to`g`ri chiziqdan bir qismining uzunligini, vaqtning qisqa oraliqlari davomliligini va shu kabilarni aniqlash taklif etilardi.

Misol uchun sinaluvchilarni ma'lum bir vaqt davomida soatdan foydalanmagan va sekundlarni ichida sanagan holda bir minutning davomililigini aniqlash bo`yicha mashq qildirishdi. Tezda ular minutning davomliligini 5 sekundga qadar aniqlik bilan hisoblay oladigan bo`lishdi. So`ngra sinaluvchilarni maxsus tajriba xonalariga olib kirishib, minutning davomliligini aniqlashni va tugmachani bosish orqali tajriba o`tkazuvchiga va shuningdek boshqa sinaluvchilarga minut tugagani haqida xabar berishni taklif qilishdi (tugmacha bosilganida tajriba o`tkazuvchiiing qarshisidagi pultda va boshqa barcha xonalarda lampochkalar yonishini sinaluvchilar bilishardi). Tajriba jarayonida tajriba o`tkazuvchi barcha xovalarga go`yo bitta yoki bir necha sinaluvchi tomonidan bo`layotgandek signal berish (masalan signal barcha xonalarga 35 sekunddan so`ng yuborildi), kimda-kim ta'sirni sezib (konformlilik-moslashuvchanlik) uning signaliga javob tariqasida tugmani bosishga shoshilib qolganini va kimga bu ta'sir qilmaganini qand etish imkoniyatiga ega edi. Ta'sirning darajasi haqida dastlabki tajribalarda va soxta signallar berilishi sharoitlaridagi tajribalarda minutning davomliligini baholashdagi farqlarga qarab hukm chiqarish mumkin edi.

Tajriba ko`p yoki oz darajada moslashuvchanlik qilgan; shaxslar soni juda ko`pligini ko`rsatdi.

Bir-birlari bilan faqat tashqaridan qaraganda o`zaro birgalikda harakat qiluvchi odamlar guruhida, buning ustiga ularning real faoliyati va hayotiy qadriyatlari bilan bog`lanmagan ob'ektlar xususida boshqacha natija bo`lishi ham mumkin emasdi - guruh a'zolarining moslashuvchilarga va moslashmaydiganlarga ajralishi muqarrar bo`lib qolgan edi. Lekin moslashuvchanlikning bunday tahlitda tadqiq qilinishi buning har qanday guruhda, shu jumladan, faoliyati shaxs uchun ahamiyatli va ijtimoiy jihatdan arzigulik mazmunga ega bo`lgan jamoada ham o`zaro munosabatlar modeli bo`lgan edi, deb xulosa chiqarishga imkon berganmidi?

Shu munosabat bilan odamlarni birgalikdagi, ijtimoiy ahamiyatga molik faoliyati negizida birlashtiradigan umumiyliklarda odamlarning o`zaro munosabatlari uning mazmuni va qadriyatlari orqali yuzaga chiqadi degan gipoteza ilgari surildi. Bordi-yu, shunday ekan, u holda moslashuvchanlikka chinakam alternativa sifatida moslashmaganlik (negativizm, mustaqillik va boshqalar) emas, balki jamoachilikning tajriba yo`li bilan o`rganilishi lozim bo`lgan ba'zi bir alohida belgisi yuzaga chiqishi kerak.

Gipoteza tajriba yo`li bilan tadqiqotlar o`tkazish taktikasini belgilab berdi. Agar «qalbaki guruh» metodikasini qo`llab, jamoaga mansub shaxsni uning nomidan qabul qilingan qadriyatli mo`ljallardan voz kechishga undaladigan bo`lsa, u holda moslashuvchanlik qilayotgan individlarni va o`zlarining ichki qadriyatlariga muvofiq

tarzda harakat qilishga layoqatli individlarni ajratib yuboradigan mojaroli vaziyat yuzaga keladi.

Shaxslararo munosabatlarning bu xususiyati jamoaning o`zini o`zi belgilashi deb nomlana boshladi. Jamoaning o`zini o`zi belgilashi jamoa a'zosiiing bilvosita omillarga - e'tiqodlar, printsiplar, ideallar, birgalikdagi faoliyat maqsadlariga bog`liq holda har qanday ta'sirlarga (shu jumladan, o`zining umumiyligiga ham) tanlab, ya'ni bir xilini qabul qilgan va boshqalarini rad etgan holda munosabatda bo`lishida ko`rinadi.

Jamoaning o`zini o`zi belgilashi guruhiy tazyiq tabiiy ravishda paydo bo`lgan yoki maxsus uyushtirilgan sharoitlarida shaxsning fe'l-atvori guruhning bevosita ta'siriga va kishining moslashuvchanlikka shaxsan moyilligiga qarab emas, balki asosan faoliyatning guruhda qabul qilingan maqsadlari va vazifalariga, barqaror qadriyatli mo`ljallarga bog`lik bo`lgan hollarda yuz beradi. Jamoaning o`zini o`zi belgilashi aralash guruhdan farqli o`laroq, jamoadagi guruh tarzida tazyiqqa nisbatan shaxsning javob tarzida ta'sirlanishining ustunlik qiluvchi usuli hisoblanadi va shuning uchun ham shaxslararo munosabatlarning alohida belgisi sifatida namoyon bo`ladi.

Shunday qilib, odamlarni ijtimoiy foydali faoliyatnts amalga oshirish uchun birlashtiradigan jamoalarda moslashuvchanlikning chinakam alternativasi salbiy fe'l-atvor (moslashmaslik va boshqalar) emas, balki haqiqiy jamoachilikning guruhda shaxsning o`zini o`zi belgilashi kabi xususiyatga ega bo`lgan alohida belgisi ekanligi haqidagi gipoteza tasdiqlandi.

Jamoaning o`zini o`zi belgilash hodisasi o`ziga xos shunday bir «hujayracha» bo`lib chiqdiki, unda jonli sotsial organizm hisoblangan jamoaning eng muhim sotsial-psixologik xususiyatlari namoyon bo`ladi. Ikkita yoki bir nechta individ o`rtasidagi munosabatlarni ular o`rtasidagi bevosita aloqadangina iborat deb bo`lmaydi. Birgalashib faoliyat ko`rsatadigan guruhlarda bunday munosabatlar muqarrar ravishda birgalikdagi faoliyat mazmuni, qadriyatlari va maqsadlari bilan belgilanadi. Nisbatan bevosita o`zaro munosabatlar aralash guruhlarda qayd etilishi mumkin, jamoada esa ular asosan jamoa a'zolarining birgalikdagi faoliyati tufayli kelib chiqqan bilvosita xususiyatga ega bo`ladi. Shunday qilib, jamoa o`zining psixologik xususiyatlariga ko`ra guruhiy; rivojlanish doirasida oshirilgan tadqiqotlar doimiy ob'ekt bo`lib qolgan o`sha kichik guruhlardan sifat jihatidan farq qiladi. Shuning uchun ularni o`rganish jarayonnda hosil qilingan xulosalarni jamoaga tatbiq etishga urinishlar muvaffaqiyatsizlikka mahkum etilgandir.

3. Jamoadagi shaxslararo munosabatlarning ko`p darajali tuzilishi

Agar aralash guruhda o`zaro munosabatlar nisbatan bevosita bo`lsa, jamoada esa guruhiy jarayonlar bilvosita ro`y beradi va darajalar ierarxiyasi (start)ni hosil qiladi. Guruhiy tuzilishning markaziy bo`g`ini (A) guruhiy faoliyatning o`zidan, uning mazmunli ijtimoiy iqtisodiy va sotsial-siyosiy ta'rifidan tarkib topadi (1-rasmga qarang).

Birinchi qatlam (B startidagi) guruh a'zolaridan har birining guruhiy faoliyatga, uning ko`zlagan maqsadlariga, vazifalariga, printsiplariga munosabatini, faoliyatning sabablarini, uning har bir ishtirokchi uchun sotsial mohiyatini qayd etadi.

Ikkinchi start (V)da shaxslararo munosabatlarning birgalikdagi faoliyat mazmunidan (uning maqsadlaridan, vazifalaridan, amalda yuz berishining borishidan), shuningdek guruhda qabul qilingan va pirovard natijada jamiyatda mavjud ideologik qurilmalarning aksi hisoblangan printsiplar, g`oyalar va qadriyatli mo`ljallardan bilvosita kelib chiqadigan ta'rifi o`rin oladi. Aftidan, shaxslararo munosabatlarning turli xil hodisalarini, masalan, jamoaning o`zini-o`zi belgilashi va sal keyinroq so`z yuritiladigan boshqa hodisalarni

aynan shunga kiritish kerak. Faol ravishda bilvosita ifoda etish - mavjudlik printsipi va ikkinchi psixologik stratni anglab etish printsipidir.



1-rasm

Nihoyat, shaxslararo munosabatlarning so`nggi, yuzadagi qatlami (G) faoliyatning va jamoa maqsadlari, na jamoa uchun umumiy ahamiyatga ega bo`lgan qadriyatli mo`ljallar guruh a'zolarining shaxsiy aloqalarini bilvosita ifodalaydigan asosiy omil sifatida yuzaga chiqmaydigan bog`lanishlar (asosan his-hayajonli bog`lanishlar)ning mavjudligini taqozo etadi. Bu degani bunaqa bog`lanishlar, tom ma'nosi bilan aytganda, bevosita mazmunni anglatmaydi. Xohlagan ikkita odamning munosabatlari u yoki bu manfaatlar, didlar va boshqalar shaklida bilvosita bo`g`inga ega bo`lmaganligini tasavvur qilish qiyin. Lekin gapning sirasini aytganda, guruhiy faoliyatning mazmuni bunday bog`lanishlarga ta'sir ko`rsatmaydi, yoxud juda ham sust darajada seziladi.

Aralash guruhga xos qonuniyatlarni jamoaga tatbiq etish mumkin bo`lmagani singari jamoadagi shaxslararo munosabatlarning yuzadagi qatlami hodisalarini o`rganish jarayonida hosil bo`lgan xulosalarni haraqlamalashtirish va undagi shaxslararo munosabatlarni mohiyat jihatidan ta'riflash uchun zarur deb hisoblash noto`g`ri bo`lur edi. Xuddi shuningdek V stratidagi bog`lanishlar, garchi etarli bo`lmasa ham, B stratidagi ma'lumotlarni hisobga olmasdan, ya'ni faoliyatda ishtirok etayotganlar faoliyatining sotsial mohiyatini, faoliyatning sabablarini va shu kabilarni aniqlamasdan turib, jamoaga ta'rif berish uchun muhim hisoblanadi.

4. Jamoa va uning boshqa guruhlarga nisbatan psixologik jihatdan farqlari

Jamoa – shaxslararo munosabatlar birgalikdagi faoliyatning ijtimoiy qiymatlari va shaxsiy jihatdan ahamiyati orqali o`z ifodasini topadigan guruhdir. Uning psixologik jihatdan boshqa guruhlarga qaraganda farqi ham mana shundadir. Jamoaning o`zini o`zi belgilashi ko`rinishlarining ustunligi va moslashuvchanlik ta'sirotlarining susayishigina emas, balki keyinroq aytib o`tiladigan qator boshqa psixologik hodisalari ham uni boshqa umumiylardan farq qildiradi.

Quyidagi rasm (2-rasm) guruhlar tipologiyasi haqida yaqqol tasavvur beradi. Unda istalgan guruhni joylashtirish mumkin bo`lgan makonni tashkil etuvchi vektorlar, bir tomondan, shaxslararo munosabatlar (S)ning bilvositaligi darajasini ko`rsatsa, ikkinchi tomondan esa bilvositalikning bir-biriga qarama-qarshi ikkita yo`nalishda (umumiy tarzda aytganda); ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotga mos keladigan A yo`nalishida va unga qarshilik qiladigan V yo`nalishida rivojlana boradigan mazmuniy jihatini ifoda etadi. A vektorni bilvosita omillarning sotsial yo`nalishdagi rivojlanishi deb, V vektorini esa nosotsial yo`nalishdagi rivojlanishi deb belgilaymiz.



2-rasm

Endi uchala vektor (A, V, S)ni qo`llagan holda shakl yasaymiz va uning qismlarini ko`rib chiqamiz.

1 raqamli shakl jamoaning ijtimoiy taraqqiyot talablariga javob beradigan tegishli belgilarini ifoda etadi. Omillarning sotsial jihatdan yuksak ahamiyatga ega ekanligi shaxslararo munosabatlarni mumkin qadar yuksakroq darajada belgilab beradi va bilvosita ifoda etadi, jamoani yuksak darajada jipslashtiradi.

shakl sotsial qadriyatlarining yuksak darajada rivojlanganligi guruhiy jarayonlarni faqat juda sust ifoda etadigan birlikni ko`rsatadi. Ehtimol, bu endigina barpo etilgan va hali yaxshi tarkib topmagan birgalikdagi faoliyatga ega bo`lgan guruhdir. Bunda bir kishining muvaffaqiyati boshqalar faoliyatining muvaffaqiyatliligini belgilamaydi va bir kishining muvaffaqiyatsizligi boshqasining natijalariga ta'sir etmaydi. Ma'naviy qadriyatlar ana shunday guruh bo`ladi, lekin ular muomala va birgalikdagi mehnat jarayonida puxtalanmagan, balki keng sotsial muhitdan jalb etilgan bo`ladi. Ularning bundan keyingi taqdiri ularni kun sayin bunyod etayotgan va mustahkamlayotgan jamoa faoliyati yo`liga qo`yilishi yo qo`yilmasligiga bog`liqdir. Buni sotsial yo`nalishdagi uyushma deb aytiladi.

3-shakl individlarning o`zaro munosabatlari yuksak darajada bilvositalikka egaligi ro`y-rost bo`lgan, lekin ularni bilvosita ifoda etadigan omillar o`taketgan darajada reaktsion va sotsial taraqqiyotga dushman hisoblanadigan guruhni bildiradi. Ko`rib chiqilayotgan shaklning mavqeini istalgan bir jamiyatga qarshi birlashma (korporatsiya) egallashi mumkin.

4- shakl odamlarning o`zaro munosabatlari amalda birgalikdagi faoliyatning umumiy omillari bilan bilvosita ifoda etilmaydigan, balki nosotsial qarashlar va tasavvurlarni namoyon qiladigan umumiylikni aks ettiradi. Bu nosotsial uyushmadir.

Va nihoyat 5- shakl oddiy aralash guruhni aks ettiradiki, unda bilvosita ifoda etuvchi omillarning sotsial qimmati ham, ularning shaxslararo birgalikdagi o`zaro harakat sistemasida ifodaliligi darajasi ham bo`lmaydi. Masalan, tasodifiy odamlardan to`plangan va unga sotsial jihatdan ahamiyatsiz topshiriq taklif etiladigan eksperimental guruh ana shu tarzdadir.

Demak, guruhiy rivojlanishning tegishli ravishda ancha ifodalangan darajalarini ko`rsatadigan (har bir konkret guruh boshidan kechirishi mumkin bo`lgan son-sanoqsiz oraliq xolatlari bilan birga) qat'iyan beshta pozitsiya alohida ajralib turadi:

1. Bilvositalikning mumkin qadar yuksak darajasi va faoliyatning shaxslararo munosabatlarni bilvosita ifoda etuvchi omillarining eng yuksak sotsial qimmati. Bu jamoadir.

Agar guruhda tegishli tarzda birgalikdagi faoliyat mavjud bo`lsa, shaxslararo munosabatlarni bilvosita ifoda eta oladigan eng yuksak darajadagi sotsial yo`nalishga ega omillar mavjud bo`lgan taqdirda bilvositalikning eng past darajasi. Bu - sotsial yo`nalishdagi uyushma (misol uchun studentlarning do`stona kompaniyasi)dir.

Birgalikdagi faoliyatning yo`qligi bilan bog`liq bilvositalikning mavjud emasligi. Bu - aralash guruh (misol uchun avtobusdagi yo`lovchilar yoki umumiy palatadagi bemorlardir).

Shaxslararo munosabatlarning eng yuksak darajada nosotsial yo`nalishga ega bo`lgan bilvosita omillar mavjud sharoitlardagi qandaydir birgalikdagi faoliyatning past darajada bilvosita ifoda etilishi (misol uchun bezorilik qiluvchi o`spirinlar guruhi). Bu — nosotsial uyushmadir.

Faoliyat vositasida ifoda etishning eng yuksak darajasi va bilvosita ifoda etuvchi omillarning eng yuksak darajada aksilijtimoiy, reaktsion xarakterga egaligi. Bu – birlashma (misol uchun mafiya)dir.

Jamoaning yuksak darajada rivojlangan guruh sifatida barcha guruhlarga nisbatan printsipial jihatdan farq-tajriba yo`li bilan qayd etildi. Chunonchi, psixologiyaga oid g`arb adabiyotida qaror topgan fikrga ko`ra sotsial-psixologik qonuniyatlar guruh uchun «umuman» to`g`ri keladi, deb tasavvur qilinishiga qarama-qarshi o`laroq, jamoalarda aralash guruhlardagiga qaraganda sifat jihatidan boshqacha, ko`pincha bamisoli «to`nkarilgan», «qarama-qarshi belgi bilan» ifodalangan qonuniyatlar amal qiladi. Masalan, amerikalik sotsial psixologlar guruhdagi his-hayajonli munosabatning jadalligi bilan uning ishi samaradorligi o`rtasidagi bog`lanishni aniqlasharkan, bir-biriga zid xulosalarga kelishgan edi: bir xil tadqiqotchilar ko`rsatilgan omillar o`rtasidagi ijobiy aloqa mavjud deyishsa, boshqalari teskari aloqa mavjud deyishadi. Guruhlarning birgalikdagi faoliyat mazmuniga ko`ra bilvosita ifodalanishiga qarab ajratilishi natijalarining qarama-qarshi bo`lib tuyulishiga barham beradi. Jamoada faoliyatning samaradorligi bilan o`zaro his-hayajonli psixologik munosabatlarning maqbul xarakteri o`rtasidagi nisbat ijobiy, sust rivojlangan guruhlarda esa salbiy bo`ladi. Past darajada rivojlangan guruhlarda guruhning miqyosi bilan uning a'zolaridagi umumiy ishga eng ko`p hissa qo`shish istagi o`rtasidagi teskari bog`lanish mavjudligi aniqlandi, guruhning miqyosi yiriklasha borishi bilan jamoada birgalikdagi faoliyat ishtirokchilarining motivlari susaymaydi. Tasodifiy guruhda yordamga muhtoj kishiga yordam ko`rsatilishi ehtimoli guruhning miqyosi kengayishi bilan susaya boradi, jamoada esa bunday qonuniyat namoyon bo`lmaydi va hokazo.

Shunday qilib, birgalikdagi sotsial qimmatga ega va shaxs uchun ahamiyatga molik faoliyatning amalga oshirilishi o`zaro jamoachilik munosabatlari o`rnatilishini, individual munosabat bilan jamoa munosabatlari o`rtasidagi ziddiyatlar barham topishini ta'minlaydi. Bunday faoliyat jarayonida shaxslararo munosabatlarda boshqa sharoitlarda qayd etilishi mumkin bo`lmagan alohida hodisalar yuz beradiki, guruh rivojlanishining alohida belgisi sifatidagi jamoachilik hosil bo`ladi. Aynan jamoa shaxsning jamiyatga bog`liqligini ifoda etadi. Shaxs ana shu bog`liqlik orqali erkinlikka muvaffaq bo`ladi. «Haqiqiy kollektivlik sharoitida individlar uyushib turib va shu uyushma orqali ozodlikka erishadi», deb yozishgan edi K. Marks va F. Engels «Nemis ideologiyasi»da.

Adabiyotlar

Донцов А. И. Психология коллектива. М., MDU nashriyoti, 1984.

Коллектив и личность. М., Наука, 1975.

Коломинский Я. Л. Психология взаимоотношений в малых группах. №1 Минск, V. I. Lenin nomli BDU nashriyoti, 1976.

Психологическая теория коллектива (Под ред. А. В. Петровского). М, Педагогика, 1979.

Коломинский Я. Л. Человек среди людей. Молодая гвардия, 1970.

Леви В. Л. Я и Мы. М., Молодая гвардия, 1969.

16-ma'ruza. Guruhlarda va jamoalarda tabaqalanish

Reja:

1. Shaxslararo tanlash. Sotsiometriya
2. Shaxslararo munosabatlarda tanlashning sababiy mohiyati
3. Shaxslararo tanlash. Referentometriya
4. Guruhning peshqadami

Guruhga kiruvchi odamlar bir-birlariga nisbatan va guruh band bo`lgan faoliyatga nisbatan bir xil nuqtai nazarda tura olmaydilar. Guruhning har bir a'zosi o`zining ishchanlik va shaxsiy fazilatlariga, o`z statusiga, ya'ni uning guruhda tutgan o`rni haqida dalolat beradigan qilib, mustahkamlanib qo`yilgan huquqlari va burchlariga, uning xizmatlari va fazilatlari guruh tomonidan tan olinishi yoki olinmasligini aks ettiradigan nufuziga binoan guruhdagi shaxslararo munosabatlar sistemasida muayyan mavqeiga ega bo`ladi. O`quvchilardan biriga sportga taalluqli barcha soxalarda dong taratgan obro`-e'tiborli kishi sifatida munosabatda bo`lishsa boshqasiga kuldirishda va biron-bir hazilkashlikni uyushtirishda ustasi farang sifatida munosabatda bo`lishadi: bittasi bilan jnddiy masalalar xususida juda yaxshi va samimiy suhbat qurish mumkin, boshqasi bilan esa umuman hech narsa xaqida gaplashib bo`lmaydi; bittasiga xuddi o`zingga ishongandek ishonish mumkin, boshqasiga esa hech narsani ishonib bo`lmaydi. Bularning hammasi har bir o`quvchi muayyan statusga va nufuzga ega bo`lgan maktab sinfida guruhning yetarli darajada rang-barang tabaqalanishiga olib keladi.

Masalan, sinfga yangi pedagog kelganida maktab direktori yoki ilmiy mudir o`sha zahotiyoq uni ayrim o`quvchilar statusining tabaqalashtirilgan manzarasini tasvirlab bergan, a'lochilarni va ulgurmovchilarni, sinfning faollari va «lanjlarini», ashaddiy tartibbuzarlarni, eng yaxshi sportchilarni va shu kabilarni ajratib ko`rsatgan holda sinfda «kimning qanaqaligi» bilan tanishtirib qo`yadi. Pedagog bularning hammasini bilishi shart. Lekin tashqaridan qaraganda osongina farqlanadigan bunday tabaqalanish zamirida yo uzoq. vaqt mobaynida, muntazam ravishda va diqqat-e'tibor bilan olib boriladigan pedagogik kuzatuv, yoxud tajriba yo`li bilan aniqlanadigan shaxslararo xayrixoxlik va tanlashning nufuz va statusning ko`zga ko`rinmaydigan manzarasi mujassamlashgandir.

Psixologiyada guruh ichidagi tabaqalanishning ikkita asosiy sistemasi - sotsiometrik va referentometrik afzal ko`rish va tanlashlar alohida ajralib turadi.

1. Shaxslararo tanlash. Sotsiometriya

Yaxshi o`quvchi bo`lish mumkin va lekin o`rtoqlariga yoqmasligi, sinfdagi eng intizomsizlar safida bo`lishi va lekin ko`pchilik uchun aziz bo`lib qolishi ham mumkin.

Xush ko`rish - hissiyotga ko`ra afzal ko`rish - guruhdagi tabaqalanishning yashirin manzarasini tushunib etishda g`oyat muhim omildir.

Amerikalik psixolog J. Moreno guruhlarda shaxslararo afzal ko`rishlarni aniqlash usulini va hissiy afzal ko`rishlarni qayd qilish texnikasini taklif etdi. Buni u sotsiometriya deb atadi. Sotsiometriya yordamida shaxslararo birgalikdagi harakat jarayonida guruh a'zolarida namoyon bo`ladigan afzal ko`rishning, befarqlik yoki xush ko`rmaslikning miqdoriy me'yorini aniqlash mumkin. Sotsiometriya guruh a'zolarining bir-birlarini xush ko`rishi yoki xush ko`rmasligini aniqlashda keng qo`llaniladi. Guruh a'zolarining o`zlari bunday munosabatlarni anglab ola olmasliklari va ularning mavjudligi, yoki mavjud emasligi haqida o`zlariga hisob bermasliklari mumkin. Sotsiometriya metodi juda ham tezkor bo`lib, uning natijalari matematik usul bilan qayta ishlanishi va yozma shaklda ifoda etilishi mumkin (guruhda tabaqalanishning sotsiometrik holatini 3-rasmdan ko`ring).



3-rasm. Maktab sinfining guruhiy tabaqalanishi holati (Ya.L.Koloshnskiyga ko`ra). qizlar doirachalar bilan, o`g`il bolalar uchburchaklar bilan ko`rsatilgan.

Sotsiometrik usulning negizida «Sen kim bilan birga bo`lishni xohlarding?» degan to`g`ridan-to`g`ri savol turadi. U kishilar o`rtasidagi o`zaro munosabatlarning xohlagan jabhasiiga tatbiqan qo`yilishi mumkin: sen kim bilan birga bitta partada o`tirishni, dam olishni, vaqtichog`lik qilishni, ishlashni xohlarding va hokazo. qoida tariqasida tanlashning ikki yo`nalishi - birgalikda mehnat qilish sohasidagi va vaqtichog`lik qilish sohasidagi yo`nalishlari tavsiya qilinadi. Bu o`rinda tanlashning maqbulligi darajasiga (benihoya istak borligi, bajonudilligi, befarqligi, unchalik istalmayotganligi, sira ham istak yo`qligi) aniqlik kiritilishi va tanlash uchun tavsiya qilinadigan shaxslar soni cheklangan bo`lishi ham mumkin. Tanlashlarni tanlash matritsasiga tushirish chog`ida yanada tahlil etish o`zaro xush ko`rish va xush ko`rmasliklarning murakkab tarzda chatishib ketganligini, sotsiometrik «yulduzlar» (ularni ko`pchilik tanlaydi), «bas boylash»larning

(ulardan hamma o`zini chetga tortadi) mavjudligini va bu karama-qarshi tomonlar o`rtasidagi oraliq bo`g`inlarning butun ierarxiyasini ko`rsatib beradi.

Sotsiometriya metodining juda ham tezkor ekanligiga shubha yo`q va uning yordami bilan guruh ichidagi hissiy intilishlari manzarasi etarli darajada aniq-ravshan ko`rsatilgan bo`lishi mumkin. Uni kuzatishlar yo`li bilan aniqlash uchun uzoq vaqt sarflashga to`g`ri kelgan bo`lardi.

Har qanday guruhni uning a'zolarining o`zaro birgalikdagi harakati jarayonida hosil bo`ladigan kommunikativ shahobcha sifatida talqin qilish mumkin.

Lekin sotsiometrik tahlil bu kommunikativ shahobchaga juda ham umumiy tarzdagi ta'rif berishi mumkin. U nima uchun individ bir xil birliklarda guruhga qarama-qarshi qo`yilganligini, boshqalarida esa kommunikativ shahobchadagi bunday uzilish payqamasligini tushunib etishga olib bormaydi.

Sotsiometrik texnika yordamida qayd etiladigan bog`lanishlar sistemasini muqarrar deb hisoblab bo`lmaydi. Bugungi «yulduz» ertaga yakkalanib qolishi mumkin.

Sotsiogrammalar bizga bunday o`zgarishlarning sabablari haqida ma'lumot bera olmaydi. Shuningdek, guruh a'zolari birovlarni rad etib, boshqalarini tanlaganlarida nimalarga asoslanganliklari, guruhning xar xil a'zolariga xos xush ko`rish va xush ko`rmasliklar zamirida qanday ma'no borligi mavhumligicha qoladi.

Sotsiometrik tadqiqotlar negizini tashkil etuvchi hissiy-psixologik hodisa sifatidagi guruhning modeli odamlarning shaxslararo munosabatlarini ijtimoiy jihatdan qaror topgan muayyan qoidalar, qadriyatli mo`ljallar va baholar asosida tahlil etish imkonini bermaydi. Negaki, u hammasini o`zaro birgalikdagi harakatlarning, o`zaro xissiy baholar va mayllarning qayd etilishidan iborat kilib qo`yadi.

Aftidan, bunday yondashuv chog`ida guruh va uning a'zolari sobitqadamlik bilan amalga oshirayotgan faoliyat shunchaki e'tiborga olinmasdan qolib ketadi.

Kishining shaxs sifatida atrof muhit bilan o`zaro birgalikdagi faoliyati uning ishlab chiqarish va sotsial hayotidagi ob'ektiv munosabatlari sistemasida tarkib topadi va amalga oshiriladi. Odamlarning o`zaro munosabatlari jarayonida ob'ektiv tarzda tarkib topadigan real bog`lanishlar zamirida shaxslararo ko`rsatmalar qaror topadigan niyatlarning o`zaro bir-biriga qiziqishning, turli xildagi vaziyatlarining murakkab shaxobchasini ko`ramiz. Shubhasiz, ob'ektiv tarzda tarkib topayotgan bog`lanishlarning xarakteri va ahamiyatiga beriladigan baho, eng avvalo, real faktlarni, odamlarning xarakterlari va xatti-harakatlarini, ularning birgalikdagi faoliyatining ob'ektiv natijalarini tadqiq etish tufayli ma'lum bo`ladi.

Guruhdagi o`zaro yoqtirish va o`zaro yoqtirmaslikning ayon bo`lgan manzarasiga tayangan holdagina olisni ko`zlaydigan xulosalar chiqarib bo`lmaydi. Bog`lanishlarning faqat tashqi jihatini qayd qilarkan, sotsiometriya o`z mohiyati e'tibori bilan bunday afzal ko`rishlarning xususiyatini ochib berishga qodir emas.

Sotsiometriya bilan tanishuv sinaluvchilarning javoblari tanlashning haqiqiy iegizini aks ettirmasligi ham mumkinligini payqab olishga imkon beradi va shuning uchun ham ko`pincha uning haqiqiy sabablarini topishga yordam bermaydi, ulardan chetga chalg`itadi.

Shunday savol tug`iladi: guruhdagi o`zaro munosabatlarning sotsiometriya metodi uchun yashirin bo`lib qoladigan, lekin bu munosabatlarning faqat tashqi jnhatini oddiy kuzatuvga qaraganda ancha tez va aniqroq ko`rsatib bera oladigan haqiqiy ichki rivojlanishni qanday aniqlash mumkin? Guruh ichidagi o`zaro birgalikdagi harakatning tashqi manzarasi guruh a'zolari o`rtasidagi teran munosabatlarning oqibati sifatida

qaralishi mumkin, lekin sotsiometriya afzal ko`rish va yakkalanib qolishning sabablarini aniqlamaydi.

2. Shaxslararo munosabatlarda tanlashning sababiy mohiyati

Shu munosabat bilan muhim psixologik vazifa - shaxsning guruhning bir xil a'zolari bilan hissiy (shuningdek amaliy) aloqa bog`lashiga va boshqalarini rad etishga turtki beradigan sabablarni aniqlash vazifasi o`rtaga qo`yiladi. Uni shaxslararo munosabatlarda tarzida belgilash mumkin.

Savol to`g`ridan-to`g`ri qo`yilgan taqdirda har doim ham samimiy javob olishga umid qilish qiyin. Bundan tashqari individning o`zi ham nimaga bir kishini yoqtirishi va boshqasini suymasligi haqida o`ziga hamisha ham hisob beravermaydi Shu munosabat bilan bunday maqsadlarni amalga oshirishda shaxslararo tanlashning sababiyatlarni tajriba yo`li bilash bilvosita ma'lumotlarga asoslangan holda aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Tanlashning sababiy mohiyatini aniqlash metodikasini ishlab kuyidagi mulohazalar e'tiborga olindi. Larionov degan o`quvchiga partada birga o`tiradigan o`rtog`ini o`zi tanlash huquqi berildi, deb taxmin qilaylik. U nega Nosovni yoki Smirnovni tanlamasdan, balki Kovalyovni tanlaganida qanday sabablarga asoslangan edi? Hamma narsa u amal qilmoqchi bo`lgan sababga bog`liqdir. Larionovning hayolidan o`tishi mumkin bo`lgan fikrlarni eslab ko`raylikchi: «Kovalyov — xushchaqchaq, tinib-tinchimas... U bilgi zerikmaysan, u hatto yurakni zil qiladigan darsda ham bironta alomat narsani topadi, kuldiradi, u bilan birga bo`lsang, vaqtning qanday o`tganini bilmaysan. Lekin haqiqatini aytganda, u biron narsani bilmay qolganingda sekingina aytib ham yubora olmaydi va undan ko`chirib olish ham befoyda u menga qaraganda ham ko`proq xatoga yo`l qo`yadi. Nosov-chi? U hamisha hamma narsani biladi, daftarini so`rasam, yo`q demaydi, hamma narsani ko`chirib olish, tushunmagan barcha narsalarni so`rab bilish mumkin, lekiya u bilan dars vaqtida kulisha olmaysan... Kimni tanlash kerak? O`z-o`zidan ravshanki, agar Kovalyovni tanlanadigan bo`lsa, u holda afzal ko`rishning sababi vaqtining xushchaqchaqlik bilan o`tkazilishidan, agar Nosovni tanlanadigan bo`lsa - bilmaganni sekingina aytib yuborishdan iborat g`arazli manfaatdorlikka borib taqaladi.

Bularning hammasi tajribaning programmasini belgilab beradi. O`quvchiga dastlab tartibga solingan sotsiometrik qatorni tuzish taklif qilinishi (yo`llanma: «Partada sen birinchi navbatda kim bilan, ikkinchi navbatda kim bilan, uchinchi navbatda kim bilan birga o`tirishni istashingni ko`rsat va xokazo»), so`ngra esa undan o`quv faoliyatida va munosabatga kirishishda muhim bo`lgan sifat jihatidan tartibga solingan qatorlarni tuzishni iltimos qilish (yo`llanma: «Sinfda kim bilan senga xamisha zavqli bo`lishini ko`rsat (birinchi navbatda kim bilan, ikkinchi navbatda kim bilan va hokazo)»). Bu qatorni tuzib bo`lgandan keyin yangi yo`llanma beriladi: «O`qishning qiyin vaziyatlarida sinfda kim senga yordam berishi mumkinligini ko`rsat (birinchi navbatda kim, ikkinchi navbatda kim va hokazo)». Agar sotsiometrik qator sifatlariga ko`ra tartibga solingan birinchi qatorga mos kelsa (yoki shunga yaqinroq bo`lsa), u holda tanlashning sababiy mohiyatiga o`ng`aylik tug`diradigan munosabat sabablari ham kiradi, sotsiometrik tanlash ikkinchi qatorga yaqin bo`lgan taqdirda esa tanlashning sababiy mohiyatiga o`qishda yordam berilishini kutish sababi ham kiritilgan bo`ladi. Darajalarning bir-biriga bog`liqligi koeffitsientini qo`llagan holda sifatlarga ko`ra tartibga solingan qatorlardan birining sotsiometrik qatorga qanchalik yaqinlashuvini, boshqacha so`zlar bilan aytganda, ularning qaysi biri shaxslararo tanlashning sababiy mohiyatiga kirishishini aniqlash mumkin.

Darhaqiqat, shaxsning turli xildagi fazilatlariga qiyosan tartibga solingan qatorlarni tuzish mumkin. Agar keyinchalik bu qatorlarni darajalariga qarab tartibga solinsa va sotsiometrik yo`llanma asosida hosil bo`lgan qator bilan taqqoslansa, guruh a'zolariniig tegishli shaxsiy fazilatlari sotsiometrik tajribada tanlashning sababiy mohiyatiga qay tarzda kirishi aniq-ravshan bo`ladi.

Tanlangan qatorlarning bahosi, birinchidan, individual afzallikning darajasi shaxsiy fazilatlarning asosan qaysi biridan tarkib topishini aniqlash, ikkinchidan, bog`liqlik koeffitsientlarini bir-biriga taqqoslagan holda yuqorida keltirklgai shaxsiy fazilatlardan har birining nisbiy salmog`ini aniqlash, uchinchidan, bog`liqlikning yuksak koeffitsientlariga mos keladigan shaxsiy ta'riflar gruppasini belgilash imkonini beradi. Shaxslararo munosabatlar sistemasida tanlashning sababiy mohiyati aynan ana shulardan iboratdir. Buni aniklagan holda tanlash chog`ida shaxsning ehtiyojlaridan qaysi biri ustunlik qilishi haqida xulosa chiqarish mumkin.

Afzal ko`rishning sababiy mohiyatini aniqlash har gal muayyan bir guruhda sotsiometrik manzara nima uchun aynan mana shunaqa, necha guruhning falonchi a'zosi, falonchini xush ko`radi, nima uchun guruhning ma'lum bir qismi «yulduzlar» toifasiga, boshqalari esa «bechoralar» toifasiga ajratiladi, degan savollar yuzaga chiqqan paytda o`zaro munosabatlarni tushunib etishga yordam beradi. Bu savollarning javoblari pedagog uchun bebaho ahamiyatga egadir.

Tajriba yo`li bilan shu narsa aniqlandiki, shaxslararo munosabatlar sistemasida sherikni tanlashning sababiy mohiyati mazmunan muayyan guruh jamoa sifatida erishgan darajaning ko`rsatkichi vazifasini bajaradi. Guruhni shakllantirishning dastlabki bosqichida tanlash bevosita hissiy tusdan bo`lib, sherikni tanlashda mo`ljal ko`proq uning tashqi qiyofasiga (dilkashligiga, tashqaridan qaraganda yoqimliligiga, kiyimning xushbichimligiga va hokazolarga) qaratilgan bo`ladi. Ancha yuksakroq rivojlanish darajasiga ega bo`lgan guruhlarda esa tanlash dastlabki taassurotga binoan hosil bo`ladigan his-tuyg`ulargagina emas, balki birgalikdagi faoliyat davomida va shaxs uchun ahamiyatli xatti-harakatlar oqibatida hosil bo`ladigan ancha teran shaxsiy fazilatlar haqidagi fikrlarga asoslanadi.

Guruh jamoa sifatida rivojlana borgan sari shaxsning bunday fazilatlari «bahosi» orta boradi. Bu fazilatlar dunyoqarashni va mehnatga munosabatni, ya'ni birgalikdagi faoliyat davomida shakllanadigan va namoyon bo`ladigan xususiyatlarni o`zida aks ettiradi.

3. Shaxslararo tanlash. Referentometriya

Guruhga sotsiometrik jihatdan yondashilgan taqdirda xayrixoxlik va yoqtirmaslik shaxslararo munosabatlar sistemasida tanlashning asosiy omili hisoblanadi. Kishi biron kishini aynan shu kishi bilan birga bo`lishni, munosabat bog`lashni, ishlashni, dam olishni, vaqtichog`lik qilishni xohlagani uchun tanlaydi. Lekin xayrixohlikka bir kishi boshqasini alohida ajratib ko`rsatishiga, guruhni o`zi uchun eng muhim belgilar bo`yicha tabaqalashtirgan holda ko`pchilik orasidan-tanlab olishga yagona asos sifatida qaramasligi kerak.

Kishining o`z guruhi o`zini qurshab turgan voqelikda mo`ljal olish manbai sifatida munosabatda bo`lishi uning eng muhim xususiyatlaridan biridir. Bu tendentsiya mehnat taqsimotining qonuniyatli oqibati hisoblanadi. Birgalikdagi faoliyatning har bir ishtirokchisi ushbu faoliyatning ahamiyatiga molik shart-sharoitlariga, maqsadlari va vazifalariga, umumiy ishga har bir kishining va uning o`zi qo`shgan hissasiga beriladigan

bahodan, o`z shaxsining umumiy fikr ko`zgusida aks etgan bahosidan manfaatdordir. Bularning hammasi shaxslararo munosabatlar umumiy ish vositasida, uning jamoa oldiga jamiyat tomonidan qo`yilayotgan talablardan, ijtimoiy ideologiyadan kelib chiqqan mazmuni va qadriyatlari orqali namoyon bo`ladigan jamoaga ko`proq xos bo`ladi.

Individ guruh a'zolari bilan birgalikda o`zaro faol harakat qila borgan va uning oldiga qo`yilgan konkret vazifalarni hal eta borgan holda o`zining qimmatli niyatlariga ega buladi. Ularning o`zlashtirilishi shaxs faoliyati ustidan guruh tomonidan real amalga oshiriladigan yoki shaxs guruhga mansub deb hisoblaydigan o`ziga xos nazorat olib borishni taqozo qiladi. Guruhning qadriyatlariga, uniig fikriga qarab mo`ljal olish individni nuqtai nazari va bahosi uning uchun juda ham muhim bo`lgan kishilar doirasini alohida ajratib olishga majbur qiladi. Bunday odamlar o`ziga xos prizma bo`lib xizmat qiladiki, u shu tufayli o`zi uchun ahamiyatga molik ob'ektlarni, maqsadlarni, vazifalarni va boshqa odamlar faoliyatining usullarini ko`rishga va baholashga - sotsial pertseptsiya, amallarini bajarishga intiladi. Bular uning uchun bamisoli o`zini ko`ra boshlaydigan ko`zguga aylanadi. Aftidan, bularning hammasi shaxslararo munosabatlarda afzal ko`rish va tanlashning sotsiometrik tadqiqotda uchramaydigan muayyan printsipini taqozo etishi kerak.

Sub'ekt o`ziga va boshqa odamlarga baho berishda mezon bo`lib xizmat qiladigan fikrlari va baxolarini o`zlashtirish uchun individ tomonidan tanlanadigan odamlar munosabatining referent doirasi yoki referent guruh deb qaraladi. Kishi o`z xatti-harakatlariga, shaxsning fazilatlariga, faoliyatining jiddiy muhim holatlariga, shaxsan kiziqadigan narsalariga va shu kabilarga uning referent guruhi tomonidan beriladigan bahoga qarab ish ko`radi. Individ hatto o`z referent guruhi tomonidan o`z shaxsiga berilgan baho xaqida axborotga ega bo`lmagan hollarda ham uniig tomonidan bildirilishi mumkin bo`lgan fikr to`g`risida taxmin qilib ko`rmasligi mumkin emas. Referent guruhning qoidalari va qadriyatlari individ uchun doimiy ta'sir ko`rsatuvchi mo`ljal bo`lib qolishi uchun uning real xulq-atvori hamisha o`sha qoidalar va qadriyatlar bilan o`zaro bog`langan bo`lishi kerak. U atrofdagi ko`plab kishilar orasidan uning uchun sub'ektiv tarzda alohida fazilatga, alohida xususiyat - referentlik xususiyatiga ega deb hisoblanganlarini tanlaydi.

Referentlik sub'ektning o`zi uchun ahamiyatli ob'ektlarga (faoliyatning maqsadlari va vazifalariga, shuningdek ularni ruyobga chiqarishdagi ob'ektiv qiyinchiliklariga, mojaroli vazyatlarga, birgalikdagi faoliyatda ishtirok etuvchilarning va, shu jumladan, shaxsan o`zining shaxsiy fazilatlariga) nisbatan munosabati aniq belgilangan vaziyatda namoyon bo`ladi. Sub'ekt bilan mo`ljal olish ob'ektlari o`rtasidagi o`zaro aniqlash boshqa shaxsga, jamoaning boshqa a'zosi yoki a'zolariga mansub qadriyatli mo`ljallarga murojaat yo`li bilan amalga oshiriladi. Ahamiyatga ega bo`lgan «boshqa birov» individning o`zi va uni qurshab turgan barcha kishilarni aks ettiruvchi o`ziga xos ko`zguga aylanadi. Tabiiyki, guruh a'zolari turli darajadagi referentlik fazilatlariga ega bo`ladilar va tanlashning yo`naltirilganligi, birovlarning afzal ko`rilishi va boshqalarning unchalik afzal ko`rilmasligi ana shu hol bilan izohlanadi.

Referentlik belgisiga ko`ra afzal ko`rish sotsiometriyadaya afzal ko`rishdan jiddiy ravishda farq qiladi. Referentlik guruh ichidagi faollikning mazkur kollektivda qabul qilingan qadriyatlar orqali namoyon bo`ladigan ancha chuqurroq qatlamlarida mujassamlashgandir. Individ o`zini qurshab turgan dunyoni faqat o`rtoqlarining qadriyatli mo`ljallari (e'tiqodlari, nuqtai nazarlari, o`y-fikrlari) orqali idrok etish imkoniyatiga ega bo`lib qolmasdan, balki shu tufayli tevarak atrofga nisbatan o`z munosabatini to`g`rilab

olish, o`zini yaxshiroq tushunib etish va baholash imkoniyatiga ham ega bo`ladi. Shaxs o`z referent doirasi bilan munosabatga kirishgan sharoitlarida bilish sub'ekti tarzida unga o`zi muhim deb hisoblagan o`lchovlar bo`yicha baho berishga layoqatli individlarni anglangan yoki anglanmagan holda alohida ajratib olarkan, o`zini o`zi bilish ob'ektiga aylanib qoladi.

Shu tariqa guruhda tanlash va afzal ko`rishga tamomila sotsiometrik nuqtai nazardan yondashish - shaxslararo munosabatlar talqinini va guruh ichidagi tabaqalanishning mohiyatini ochiqdan-ochiq kamsitish, guruh jarayonlarga va gruppada shaxsning tushunib etilishiga faoliyatlilik nuqtai nazardan yondashuvini inkor etish bilan barobardir. Referent afzal ko`rishini hisobga olinmas ekan, shaxslararo munosabatlar psixologiyasi o`ta torayib qoladi.

Demak, har bir kishining o`z referent guruhi mavjud bulib, uning talablari bilan u so`zsiz hisoblashadi, uning fikriga qarab mo`ljal oladi. Odatda u bittagina guruh bo`lmasdan balki ularning muayyan yig`indisidir. O`quvchilardan biri uchun oila va shu bilan bir qatorda hovlidagi bolalar ulfati, sport jamiyatidagi gimnastika sektsiyasi, shuningdek otasining do`sti ana shunday referent guruhi bo`lishi mumkin, boshqa bir o`spirin uchun esa o`qiyotgan sinfi, o`qituvchilari, ikkita oshnasi, ishqivoz filatelistlar referent guruhi hisoblanadi.

Agar mazkur shaxs uchun referent hisoblangan barcha guruhlarning talablari, orzu-istaklari, manfaatlari, ideallari va boshqa barcha qadriyatli mo`ljallari u yoki bu darajada mos kelsa, yohud yaqinroq bo`lsa va zng muhimi, ijtimoiy ahamiyatga molik maqsadlar va ideallar bilan bog`liq bo`lsa durust. Lekin ko`pincha shunday bo`ladiki, jumladan, o`spirinlarning ulfati o`quvchining oila uchun mutlaqo maqbul bo`lmagan, ota-onasi yo`naltirib kelayotgan barcha mo`ljallarga qarama-qarshi baholarini, manfaatlarini, xatti-harakatlarini va xohish-istaklarini ma'qul ko`radi va har tomonlama qo`llab-quvvatlaydi. Holbuki, bola unisi bilan ham, bunisi bilan ham hisoblashgan holda ish ko`radi. Natijada ikkita bir-biriga qarama-qarshi yo`nalishdagi referent guruhlarga mansub bo`lgan shaxs jiddiy ichki ixtilofni boshdan kechiradi. Tarbiyachining bu ixtilof mohiyatini anglab olishigina uning bartaraf etilishini engillashtiradi.

Bolaning, masalan, oila uchun yoki sinf uchun qimmatli, muhim va ahamiyatli bo`lgan barcha narsalarga ko`p hollarda befarq ekanligi faktlari referent guruhning tarbiyachi uchun yashirin, noma'lum bo`lib qolayotgan fikriga qarab mo`ljal olayotgani bilan izohlanadi. «U hech kim bilan hisoblashmaydi, uning uchun birorta ham mo`'tabar odam yo`q, unga hech kim ta'sir o`tkaza olmaydi», - ta'kidlaydi bolaning onasi o`qituvchi bilan suhbat qilayotib. Ba'zan pedagog bunday nuqtai nazarga qo`shiladiki, bu jiddiy psixologik va pedagogik xatoga aylanib qolishi mumkin. Shaxsda zimdan oilaga va maktabga nisbatan salbiy fikrni shakllantirishi ehtimol tutilgan ta'sirchan referent guruhlarning mavjudligi aniq bo`lmaguncha bunday deb e'tirof qilish mumkin emas.

Referentlarning afzal ko`rishi faktini aniqlash uchun psixologiyada ishlab chiqilgan alohida metodik usul - referentometriya qo`llaniladi.

Referentometriya g`oyasi, bir tomondan, sinaluvchiga guruhning har qanday a'zosi oldindan tanlab olingan va shubhasiz ahamiyatli hisoblangan ob'ekt hakida qanday fikrda ekanligi bilan (shu jumladan, sinaluvchining shaxsiy fazilatlari xususidagi baho bilan ham) tanishish imkoniyati berilishidan, ikkinchidan esa, bu xilda tanlanadigan shaxslar sonining qat'iyan cheklanganligidan iboratdir. Bu hol sinaluvchilarni fikri va bahosi ilgarilari boshqa barcha odamlarning e'tiborini o`ziga jalb qilib kelgan shaxslar doirasining yuksak darajada tanlangan bo`lishi haqida qayg`urishga majbur qiladi. Referentlik hodisalarini referentometrik tadbir yordamida tadqiq qilish juda qiziqarli natijalarga olib keldi.

Ularning har bir kollektivda afzal kurishlar va tanlashlarning zamirini referentlik belgisi tashkil etadigan alohida sistema mavjudligi haqidagi gipotezani tamomila tasdiqlab turganidan bilsa ham bo`ladi. Bog`lanishning bu sistemasi ham xuddi sotsiometrik sistemaga xos bo`lgani kabi rasmiy ta'riflarga egadir. Referentometrik tadbir nihoyat darajada tezkor va qulay bo`lib, statuslarning tuzilishi (guruhda kimning qanaqaligi) haqida, afzal ko`rishlarning o`zaro bahamjihatliligi yoki bunaqa hamjihatlikning yo`qligi haqida taavvur turdiradi, tanlashning sababiy mohiyatini aniqlash, shuningdek autoreferentometrik eksperiment deb atalmish tajribani amalga oshirish (bunda sinaluvchi tanlashlar sistemada o`zining o`rnini taxminan aniqlab oladi) imkoniyatini tug`diradi, ma'lumotlarni matematik usullar bilan qayta ishlashga, ularni yozma shaklda ifoda etishga, tanlashning xaritasi va matritsalarini tuzib chiqishga yordam beradi va hokazo. Lekin sotsiometrik tarmoqdan farqli ravishda tanlashga xayrixohlik yoki xush ko`rmaslik emas, balki qadriyatli omil asos qilib olinadi.

Jamoaning sotsial ahamiyatga molik faoliyatining tub negizini tashkil etuvchi qadriyatlar ayni paytda guruh ichidagi afzal ko`rish va referentlik belgisiga ko`ra tanlash uchun asos bo`ladi. Bu guruhiy tabaqalanishning sotsiometriyaga qaraganda, shubhasiz, ancha mazmunliroq ta'rifi hisoblanadi. Agar sotsioyametriya guruhga nisbatan bog`lanishlar tashqaridan va asosan hissiyotga oid (men bunisi bilan birga bo`lishni istayman - bunisi bilan birga bo`lishni istamayman, u menga xush yoqadi - unisini yoqtirmayman) bo`lgan qandaydir birlik sifatidagi shaxslararo munosabatlarning nuqtalar bilan belgilangan xomaki ko`rinishini taqdim etsa, uning a'zolari o`rtasidagi munosabatlar mazmunan namoyon bo`ladigan jamoani psixologik jihatdan o`rganish referentlik ko`rsatkichlari muqarrar ravishda hisobga olinishini taqozo etadi.

Referentometrik topshiriqda bizni qiziqtirgan sub'ekt (yoki sub'ektlar) uchun ahamiyatli bo`lgan, uning fikri va nuqtai nazari bilan hisoblashishni zarurat deb biladigan shaxslar doirasini aniqlarkan, psixologiya pedagogga tanlangan ta'sir maqsadlarini aytib berishi mumkin. Referentlik fazilatiga ega qilib qo`yilganlar uchun referent hisoblangan individga o`tkazilgan pedagogik ta'sir shaxslarning mazkur butun guruhiga bilvosita, lekin yetarlicha kuchli ta'sir ko`rsatishga ko`maklashadi. Bu tarbiyaviy ta'sir o`tkazish jarayonida soxta, lekin shu bilan birga umumiy (butun sinf bilan ish olib borish) va individual (har bir o`quvchi bilan alohida ishlash) yondashuvga alternativa uchun o`rin qoldiradigan yo`llardan biri bo`lishi ehtimoldan holi emas.

4. Guruhning peshqadami

Har qanday guruh tuzilishiga ko`ra guruh a'zolari nufuzi va statusining o`ziga xos darajasini aks ettiradi. Uning yuqori qismidan referentometrik va sotsiometrik tarzda tanlanadigan shaxslar o`rin oladi, eng orqada esa noreferent va sotsiometrik jihatidan surib chiqarilgan individlar turishadi. Mazkur ierarxiya zinapoyasining eng yuqori bosqichida guruhning peshqadami (lideri) joylashadi.

Peshqadam - bu shunday shaxsdirki, guruhning qolgan barcha a'zolari uchun o`zlarining manfaatlariga dahldor bo`lgan hamda butun guruh faoliyatining yo`nalishini va xarakterini belgilab beradigan eng mas'uliyatli echimlarni qabul qilishga haqli deb hisoblaydilar. Shunday qilib, peshqadam guruhning eng muhim muammolariga qiyosan undagi eng ko`proq darajadagi referentlik egasi bo`lgan shaxsdir. Peshqadam sotsiometrik «yulduz» bo`lishi ham va, aksincha, bunday bo`lmasligi ham mumkin - u tevarak-atrofdagilarning shaxsiy xayrixohligiga sazovor bo`lmasligi ham mumkin, lekin agar u peshqadam bo`lsa, xolda uning tevarak-atrofdagilar uchun referentliligi shubhasizdir.

Peshqadam rasman guruhning rahbari bo`lishi ham va, aksincha, bo`lmasligi ham mumkin. Peshqadam bilan rahbarlikning yagona bitta shaxsga to`g`ri kelishi maqbul hodisa hisoblanadi. Bordi-yu, agar bunday muvofiqlik bo`lmasa, u holda guruh faoliyatining samaradorligi rasmiy rahbar (masalan, sinfboshi) bilan norasmiy peshqadam yoki peshqadamlar o`rtasidagi munosabatlar qay tarzda yuz berishiga bog`liq bo`ladi.

O`spirinlik yoshida o`quvchilarning shaxslararo munosabatlar sistemasi doirasida bir-birlariga nisbatan talablari va orzu-umidlari ayniqsa keskin tusga kiradi. Ana shunday hollarda yuqori sinf o`quvchilari jamoasidagi peshqadam ko`pincha namuna, sinfda yuqori darajadagi referent shaxs bo`lib hisoblanadi, boshqa barcha o`quvchilar o`zlarining va boshqalarning xatti-harakatlarnni shularga qarab baholashadi. Ba'zan pedagoglar va ota-onalar a'lochi o`quvchilar sinf jamoasi mavqeini egallaydilar, degan yanglish fikrga tayangan holda ish tutadilar. Agar quyi sinflarning o`quvchilari haqida so`z ketganda shunday xulosaga kelish uchun ma'lum darajada asos bo`lsa ham, yuqori sinflarda a'lochi o`quvchi bilan jamoaning peshqadami maqomlari o`rtasida bevosita bog`lanish sezilmaydi. Yaxshi o`qishning o`zi tahsinga loyiq narsa, lekin a'lochi o`quvchi o`z sinfdoshlari orasida peshqadamlik mavqeiga faqat o`zi bilan birga o`qiydiganlarning o`quv faoliyatiga faol ko`maklashgan taqdirdagina ega bo`lishi mumkin, Bu ayniqsa darsda muntazam jamoa tarzdagi o`quv ishini tashkil etish jarayonida namoyon bo`ladi.

Sinf jamoasidagi peshqadam o`z o`rtoklari qarshisida tahlil qilish va erishish uchun namunaga aylanib qolayotgan shaxsiy fazilatlar sohibi sifatida namoyon bo`ladi. Bunday peshqadamning shaxsiga mansub fazilatlar mazkur yoshdagi guruhda qabul qilingan va tan olinadigan qadriyatlarga mos keladi. Tajriba yo`li bilan shu narsa aniqlanganki, yuqori sinf o`quvchilari o`z tengdoshlariga faqat shu yoshda alohida qimmatga ega deb tan olinadigan fazilatlardan emas, balki ularning o`zlarida sust rivojlangan yoki umuman mavjud bo`lmagan fazilatlardan kelib chiqqan holda ham baho beradilar. Bu xildagi fazilatlarga ega bo`lgan o`rtoqlarning ta'siri ancha kuchli bo`ladi va ular obro`-e'tibor qozonish uchun, sinf jamoasida peshqadamlikka erishish uchun ko`pgina asosga egadirlar.

«Biz u bilan birga qayin shirasini yig`ish uchun o`rmonga borib turardik. Ushanda oyog`im shunchalik lat yegan ediki, yurolmasdan qolgandim. U hech o`ylab o`tirmasdan, meni yelkasiga opichtirib, o`rmondan olib chiqqan edi.

Holdan toyib qolsa ham, baribir meni eltib qo`ygandi... Sinfimizda kecha o`tkazgan edik. Hammasi juda yaxshi o`tayotgandi. Lekin bolalar tarqalisha boshlagan ham ediki, mast-alast kishilar bir qizga tegajog`lik kilisha boshladi. Kim birinchi bo`lib qizni himoya kilishga o`tdi, deng? Soliev».

«...Men Valiga o`xshagan bo`lishni xohlayman. Menda uning ochiqligi, hayotdagi sobitqadamligi yetishmaydi. Lekin u yonimda bo`lsa, yuz berayotgan voqea-hodisalarni hamisha oqilona baholashimga yordam bsradi» (o`quvchilar yozgan insholardan).

Sinf jamoasiga rasmiy rahbarlik sistemasi (sinfboshi, yoshlar tashkilotchisi va jamoatchilik ishlarining ayrim sohalari uchun mas'ul kishilar) unda norasmiy nufuzning taqsimlanishi va norasmiy peshqadam sifatida tanilish, bilan to`g`ri kelishi ham, to`g`ri kelmasligi ham mumkin. Agar pirovard natijada shaxslararo munosabatlar umumiy maqsadga bo`ysundirilgan bo`lsa, norasmiy guruhlardagi peshqadamlarning mavjudligi jamoaga xalaqit qilmaydigina emas, balki hatto yordam berishi ham mumkin. Chunonchi, 30-40 o`quvchidan iborat guruh hisoblanadigan sinfda sinfboshi va yoshlar tashkilotchisidan tashqari odatda bir necha peshkadamlar: mavjud bo`lib, ular tevaragida bir necha peshqadamlar mavjud bo`lib, ular tevaragida bir nechta norasmiy guruhlar uyushadi. Pedagog ularda tarkib topgan shaxslararo munosabatlardan ogoh bo`lgani holda

o`zaro bir-birini to`ldiruvchi ushbu guruhlarni bitta yo`nalishda mo`ljal oldira bilishi kerak. Tajribali pedagog alohida guruhlar orasida yuz beradigan ziddiyatlardan hamisha umuman jamoani rivojlantirishnini harakatlantiruvchi kuchi sifatida foydalana oladi.

Agar alohida guruhlar faoliyatining maqsadlari sinfning umumiy maqsadlariga bo`ysundirilmasdan va ana shu guruhlarning ichkarisida cheklanib qoladigan bo`lsa, ish boshqacha bo`ladi. U holda sinf jamoasi, aslini olganda, faqat o`z ichidagi peshqadamlar emas, balki barcha a'zolar ham ozmi-ko`pmi darajada shaxslararo antagonistik munosabatlarga kirishadigan bir qator guruhlar bilan almashtiriladi.

Agar pedagog buni o`z vaqtida payqay bilsa, u shaxslararo munosabatlarni o`zgartira oladi va buzila boshlagan jamoa yana jipslasha boshlaydi.

Adabiyotlar

Донцов А. И. Психология коллектива. М., MDU nashriyoti, 1984.

Коллектив и личность. М., Наука, 1975.

Коломинский Я. Л. Психология взаимоотношений в малых группах. №1 Минск, V. I. Lenin nomli BDU nashriyoti, 1976.

Психологическая теория коллектива (Под ред. А. В. Петровского). М, Педагогика, 1979.

Коломинский Я. Л. Человек среди людей. Молодая гвардия, 1970.

Леви В. Л. Я и Мы. М., Молодая гвардия, 1969.

17-ma'ruza. Guruhlar va jamoalardagi alohida guruhlarning birga qo`shilishi

Reja:

1. Jamoani aynan bir xil qilish
2. Guruhning qadriyatlarga mo`ljallangan birligi sifatidagi jipslashuvi
3. Ma'suliyatning yuklanishi va qabul qilinishi

Jamoaning integratsiyalashuvi (undagi alohida guruhlarning birga qo`shilishi), ya'ni unda yuz beradigan ichki birlik jamoalardagi munosabatlar uchun xos bo`lgan jamoani identim fikatsiyalash (aynan bir xil qilish), qadriyatli-mo`ljallangan birlik sifatida jipslashtirish, birgalikdagi faoliyat jarayonida muvaffaqiyat qozonish va muvaffaqiyatsizlik uchun javobgarlikning yuklanishi va qabul qilinishi hodisalarida yuz beradi. Shaxsning munosabat va faoliyat jarayonida jamoaning a'zolari bilan sig`ishuvchanligi uning jamoadagi birga qo`shilishi natijasi sifatida ro`y beradi.

1. Jamoani aynan bir xil qilish

Jamoani aynan bir xil qilish - bu xatti-harakatlarga undovchi mayllarning alohida bir xususiyatiki, bunda sub'ekt ma'naviy printsiplarga tayangan holda jamoaning boshqa barcha a'zolariga o`ziga qanday bo`lsa, shunday tarzda, o`ziga ham o`z jamoasidagi boshka barcha kishilarga bo`lganidek munosabatda bo`ladi. Jamoadagi bir xillik sharoitida «men» va «ular» degan ziddiyat «biz» degan tushuncha orqali barham topadi.

Jamoani aynan bir xil qilish altrustik tarzdagi yoppasiga yaxshilik qilishdan ham va tevarak-atrofdagilarga nisbatan xudbinlarcha iste'molchilik munosabatidan ham bab-baravar voz kechishni taqozo etadi. Insonparvarlik, o`rtog`iga nisbatan talabchanlik ko`rsatish bilan birga uning to`g`risida g`amxo`rlik qilish (A. S. Makarenkoni bir eslang: eng ko`p darajada ishonch va eng ko`p darajada talabchanlik - bu ikkita har xil narsalar emas, balki aynan bitta narsadir) - jamoachilikka asoslangan o`zaro munosabatlar

mezonidir. Shaxsning har tomonlama va uyg`un tarzda voyaga etishi uchun qulaylik tug`diradigan psixologik muhit ana shunday paydo bo`ladi.

Individning aynan bir xil yoki shunga o`xshash vaziyatda o`ziga va boshqalarga nisbatan turli xildagi ma'naviy qoidalarni tatbiq etadigan va o`z xatti-harakatlarini xuddi shu xildagi qoidalar asosida sodir qiladigan xulq-atvori jamoani bir xil qilish printsiplarining buzilishi demakdir. Shaxslararo munosabatlarning tajriba yo`li bilan aniqlash va mikdoriy nuqtai nazardan baholash uchun qulay konkret psixologik o`lchovi bu sohadagi ko`rsatkich vazifasini bajaradi. Uning ifodalanishi jadalligini o`lchash guruhlarda jamoani aynan bir xil qilishning yuz berishi haqida aniq xulosa chiqarish imkonini berdi. Bu o`lchov ta'sirchan guruh tarzidagi hissiyotli bir xillikni hosil qilish yoki aralashib ketish sifatidagi xayrixohlik degan nom olgandir.

Shunday ekan, aralashib ketish sifatidagi xayrixohlik - bu jamoaning aynan bir xil bo`lishi demakdir. Bunda birmuncha noqulay hodisa, shuningdek. guruh a'zolaridan birining u bilan bog`liq, kechinmalari boshqalarga ularning aynan bir vaqtda guruh tarzidagi maqsadlari ruyobga chiqarilishiga va mazkur hodisa (frustrator) ta'sirining muhosara qilinishiga qaratilgan, xususan o`z faoliyatini tashkil etuvchi xulq-atvor mayllari sifatida berilgandir.

Aralashib ketishni aniqlash uchun alohida tajriba tadbiri qo`llanildiki, u guruh tarzidagi o`zaro birgalikdagi harakat orqali jamoani aynan bir xil qilishning zamirida yashiringan chuqur shaxslararo munosabatlarini ko`rish imkonini beradi.

Shu maqsadlarda guruhning barcha a'zolariga, shu jumladan, unga jazo berilishi (integral sanktsiyalar) xavfi tug`ilgan va tajribada ishtirok etayotgan o`rtoqlaridan kimningdir jazolanish (partsial sanktsiyalar) xavfi tug`ilgan sharoitlarda har bir sinaluvchi o`zini qanday tutishini qayd etish imkonini beradigan maxsus apparatlar ko`llaniladi. Bunda topshiriqning shunday turidan foydalanish nazarda tutiladiki uni hal etish tezligi, shoshilinchligi jazoga loyiq ko`plab xatolarga yo`l qo`yilishini oldindanoq shart qilib qo`yadi. Boshqa guruh bilan musobaqada faqat topshiriqni bajarish tezligining ko`rsatkichi hisobga olinadi, xushmuomilalik bilan bexato ishlash zarurligi esa nazarda tutiladi, xolos. Shunday qilib, topshirikni bajarish tezligining oshirilishi - gurhiy faoliyatning maqsadidir. Lekin shuning tezligi xatolarga yo`l ko`yish ehtimolini va, demak, jazolannsh mumkinligim ham oshiradi. Bu xol esa kelgusida guruhda aralashib ketishning rivojlanish darajasini tasniflash uchun asosiy zaminni tashkil etadi. Sinaluvchilar tomonidan boshqa guruhlar bilan musobaqalashish sharoitlarida faoliyatning faqat kelishilganligi va samaradorligiga oid topshiriq sifatida qabul qilinadigan eksperimentning haqiqiy maqsadi sinaluvchi uchun hamisha yashirin bo`lib qoladi.

Tadqiqot gipotezasi shundan iborat ediki, rivojlanish darajasi turli xil bo`lgan guruhlar zamirida shaxslararo munosabatlar yashirinib yotganligi namoyon bo`ladigan guruh tarzidagi xulq-atvor integral va partsial sanktsiyalar qo`llanilgan hollarda sifat jihatidan turlicha bo`ladi va bu sifat tafovutlarni miqdor jihatdan ifoda etish va o`lchash mumkin bo`ladi. Agar guruhda biron bir darajada alohida ajralib turadigan aralashib ketish mavjud bo`lmasa, u holda partsial jazolash vaziyatida (hamma uchun bittasi jazolanadigan bo`lsa) guruh integral sanktsiya sharoitidagiga nisbatan ancha jadal ishlashi kerak. Ish yuzasidan guruhdagi sherik frustratsiyaga duchor qilingan holat boshqa barcha odamlar va alohida har bir kishi xavf-xatardan holi bo`lganligi uchun ham bunday holda hisobga olinmaydi. Tajribaning birinchi bosqichida frustratorni muxosar qilish uchun (integral sanktsiya sharoitida) sarflanadigan kuch-g`ayratlarga xojat qolmaydi. Buning evaziga harakat (ish) ni bajarish tezligi oshadi.

Agar topshiriqni bajarishga integral va partsial jazolash vaziyatlarida taxminan baravar vaqt sarflanadigan bo`lsa, u holda bu guruhda aralashib ketishning, ta'sirchan hissiyotli bir xil qilish hodisasining ifodaliligidan dalolat beradi. Negaki, hammaning ichida faqat bittasi jazo olish xavfi tug`ilgan taqdirda ham guruh a'zolarining barchasi yo`l qo`ilgan xato uchun bamisoli o`zlari bevosita jazolangandek harakat qilishadi. Bunday holatda o`zaro munosabatlarning boshqa birovning kayfiyatini shaxsan o`zinikidek xayoldan o`tkazish xususiyatiga ega bo`lgan turi namoyon bo`ladi, deb faraz qilish mumkin.

O`tkazilgan tajribalardan olingan birinchi va asosiy xulosa guruhning xohlagan bir a'zosi bilan qayg`udosh bo`lish qobiliyatini ko`rsatadigan va undagi jamoachilik munosabatlarining rivojlanish darajasini o`lchash imkonini beradigan o`ziga xos sotsial-psixologik hodisa sifatida aralashib ketishning realligini tasdiqlashdan iborat bo`ldi. Ikkinchi xulosa: bu hodisaning yuz berishi uchun eng qulay shart-sharoitlar o`z turiga ko`ra jamoaga yaqin turadigan guruhlarda mavjud bo`ladi. Aralash guruhlarda va, misol uchun, huquqbuzarlardan iborat guruhlarda aralashib ketish sust namoyon bo`ladi yoki umuman bo`lmaydi. Jamoa a'zolari esa o`rtoqlari bilan aynan bir xil bo`lishga intiladilar, bu hol ularning fe'l-atvorini o`zgartirib yuboradi. Asosiy tajribaning birinchi va ikkinchi bosqichlarida tolshiriqning bajarilish vaqti baravarlashtirilganligi, shuningdek, sinaluvchilarning tajriba o`tkazuvchi tomonidan qayd etilgan hissiy fikrlari, ifodali ish harakatlari va hokazolar shundan dalolat beradi.

Jamoada aralashib ketish sifatidagi xayrixohlik darajasi jamoaning «veterani»ga jazolanish xavfi tug`ilgan holda ham va kollektivga yangi qo`shilgan a'zoga xuddi shunday xavf tug`ilgan holda ham saqlanib qoladi. Ma'lumki, rivojlanish darajasi past bo`lgan guruhlarda yangi kelganlar oldindanoq «baloga qoladiganlar» rolida bo`ladilar. Yangi kelgan bolaga munosabat ko`p jihatdan jamoadagi insonparvarlik munosabatlarining mezoni sifatida talqin etilishi mumkin. Jamoada insonparvarlik guruhga xali noma'lum bo`lgan, lekin jamoa a'zosining faqat burchlari emas, balki xuquqlari ham joriy etiladigan individning jazolanish xavfi tug`ilgan xollarda aralashib ketishning tajriba yo`li bilan olingan ko`rsatkichlari doimiyligida namoyon bo`ladi. Eksperimental tadqiqotlarda bu narsa ishonchli tarzda tasdiqlandi.

Shunday qilib, aralashib ketish jamoa ayian bir xil bo`lib qolishining ko`rinishlaridan biri sifatida guruhdagi shaxslararo munosabatlar rivojlanish darajasining o`ziga xos ko`rsatkichi hisoblanadi. Kishisining axloqiy ideallariga mos keladigan ma'naviy qadriyatlarni va xulq-atvor qoidalarini o`z ichiga olgan holda jamoaning aynan bir xil bo`lishi jamiyatning asosiy bo`g`ini sifatidagi jamoa tipida mavjud bo`lgan guruhlarda jamoaning integratsiyasiga ko`maklasha borib, yuksak darajada rivoj topadi.

2. Guruhning qadriyatlarga mo`ljallangan birligi sifatidagi jipslashuvi

Guruhning jipsligi masalasi avvalo u yoki bu ishlab chiqarish, harbiy yoki o`quv topshiriqlarini yaxshiroq qilib bajarishga layoqatli guruhlarni tanlashda katta amaliy ahamiyatga egadir.

Amerikalik psixologlar guruhni bir-birlari bilan bevosita (yuzma-yuz) aloqada bo`lgan va o`zaro birgalashib harakat qiladigan odamlarning muayyan ko`pchiligi tariqasida mexanistik tarzda tushungan holda guruhning jipsligini amalda uning a'zolari o`rtasida aloqa o`rnatilganligi bilan aynan bir narsa deb hisoblaydilar. Ularning fikriga qaraganda guruhdagi kommunikatsiyalar (o`zaro birgalashib harakat qilishi va aloqalari)ning miqdori, takrorlanib turishi va jadalligi bilan uning jipsligi o`rtasida

bevosita bog`lanish mavjud emish - ijobiy yoki salbiy tanlashlarning miqdori va kuchi guruhdagi jipslikning ma'lum bir darajasini ko`rsatarmish. Guruhdagi jipslik koeffitsienti ko`pincha unda mavjud bo`lgan o`zaro aloqalar sonini mazkur guruhda mavjud bo`lishi mumkin deb hisoblangan aloqalar soniga bo`lish natijasida hosil bo`lgan son tariqasida belgilanadigan o`lchov printsipi ham shundan kelib chiqadi. Lekin bunday usul bilan albatta jipslikni emas, balki faqat guruhdagi munosabatning jadalligini aniqlash mumkin, xolos. Aloqalarning jonlanishi, masalan, ob'ektiv tarzda guruhning jipsligini ta'minlashga emas, aksincha uning tarqalib ketishiga va tugatilishiga yo`naltiridgan kuchlarning faollashuvi bilan bog`liq bo`lib qolishi mumkin. Bunday usul bilan aralash guruhlardagi hissiyotga asoslangan aloqalardan bo`lak hech qanday vosita orqali bog`lanmagan va amalda sotsial mazmunidan uzib olingan allaqanday jipslikni eslatadigan hodisaning aniqlanishini faraz qilish mumkin. Lekin bunday metodikalar aralash guruhlarni emas, balki jamoalarning jipsligini aniqlash yo`lini ko`rsatadi deb hisoblash xato bo`lur edi.

Jipslashgan jamoa qiyinchiliklarni osongina bartaraf etishga, ahillik bilan ishlashga, har bir kishi shaxsini kamol toptirish uchun eng kulay imkoniyatlarni yaratib berishga, turli xil, shu jumladan, noqulay sharoitlarda ham yaxlitligini saqlab qolishga layoqatli bo`ladi. Masalan, guruhda jipslikning mavjudligi yoki mavjud emasligi tajriba metodlari bilan qanday aniqlanishida va uning guruhda namoyon bo`lishi qanday o`lchanishidadir. Jamoaning sotsial-psixologik o`lchovlarini eksperimental jihatdan tadqiq qilishda uning eng muhim xususiyati - unda tarkib topadigan guruh shaklidagi o`zaro ta'sirning bilvositaligi hisobga olinishi shart.

A. S. Makarenkoning izdoshlari bo`lgan pedagoglar va psixologlar shaxsda o`z jamoasini rahbarlik qilish hamda mo`ljal olish manbai tarzida idrok etishdek muayyan tendentsiya mavjudligi haqidagi xulosaga kelishgan edi. O`z navbatida bu jamoa a'zolarining yo`l-yo`riqlarida birgalikdagi faoliyatning mazmuni jihatini baholashda anchagina bir xillikka olib keladi. Bularning hammasi o`zlari uchun umumiy bo`lgan vazifalar asosida etarli darajada uzoq vaqt faoliyat ko`rsatib kelgan guruhlarda ularning qadriyatlarga mo`ljallangan birligi sifatida jipslashuvn jarayoni kuchayadi, deb faraz qilish imkonini beradi. qadriyatlarga mo`ljallangan birlik sifatidagi jipslashuv guruh ichidagi aloqalarning umuman guruh uchun ancha ahamiyatli ob'ektlarga (shaxslarga, topshiriqlarga, g`oyalarga, vokealarga) nisbatan guruhning baholari, yo`l-yo`riqlari va nuqtai nazari to`g`ri kelishi darajasini ko`rsatadigan sistemasiga oid xususiyat hisoblanadi.

Guruh tarzidagi jipslikning miqdor ko`rsatkichi (indeksi)ni topish yuzasidan o`tkaziladngan tajribaning programmasi xususan ana shundan kelib chiqadi. Umuman guruh uchun jiddiy ahamiyatga molik ob'ektlarga nisbatan guruh a'zolarining baholari yoki nuqtai nazarlarining to`g`ri kelish darajasi jipslik indeksi o`rnida xizmat qiladi. Guruhning qadriyatlarga mo`ljallangan birligi uning jipsligi ko`rsatkichi sifatida guruh a'zolarining baholari va nuqtai nazarlari barcha jihatlarda bir-birinikiga to`g`ri kelishini, guruhda shaxsning, masalan, didlar, estetik qadriyatlar, kitobxonlik qiziqishlari va hokazo sohalardan baravarlashtirilishini aslo taqozo etmaydi. Bu xildagi mo`ljal olishlar manzarasining har tomonlamaligi va rang-barangligi guruhning jipslignni saqlashga halaqit bermaydi. Jamoadagi qadriyatlarga mo`ljallangan birlik — bu eng avvalo, ma'naviy va amaliy sohadagi, birlikdagi faoliyatning maqsadlari va vazifalariga yondashishdagi baholarning yaqinligidir. Masalan, bordi-yu, guruh a'zolaridan ba'zi birovlari zimmalariga yuklangan topshiriqni bajarib bo`lmaydi yoki guruh rahbari uning bajarilishini ta'minlashga layoqatli emas (rahbarlik qila olmaydi), deb hisoblasa, guruhning boshqa a'zolari esa boshqacha fikrda bo`lishsa (va bunday kelishmovchiliklar mazkur

guruhga xos bo`lsa), u holda guruhning hech qanday jipsligi haqida so`z ham bo`lishi mumkin emas.

Umumiy ish yuzasidan birlashgan odamlar jipsligining ishonarli va nafis psixologik tahlili A. I. Gertsenning «O`tmish hikoyalari va orzular» kitobida berilgandir; «...aslini olganda, shu bugun ham chinakamiga qalin munosabatlarda din aynan bir xil bo`lishi, ya'ni asosiy nazariy e'tiqodlarda bir xillik bo`lishi lozimligiga imonim komil. O`z-o`zidan ravshanki, odamlar o`rtasidagi aloqalar yaqin bo`lishi uchun yolg`iz bir nazariy murosaning o`zi kamlik qiladi; men, masalan, xayrixohlik yuzasidan o`zimiznikilarning ko`plariga nisbatan I. V. Kireevskiy bilan qalinroq edim. Bo`lmasam-chi, bir muayyan ishni birgalikda bajargan va lekin fikrlar bir xil bo`lmagan holda yaxshi va sodiq ittifoqchi bo`lish mumkin; men o`zim cheksiz hurmat kiladigan lekin ular bilan ko`p masalalarda kelisha olmaydigan odamlar, masalan, Matstsini bilan, Vortsel bilan ana shunday munosabatda bo`lganman. Men ularni ishontirish yo`lini izlagan emasman, ular ham meni ishontirishga urinishmasdi; janjallashib qolmasdan bitta yo`ldan borishimiz uchun bizning oramizda yetarlicha umumiylik mavjud edi. Lekin bitta oiladagi aka-ukalar, bitta hayotni boshdan kechirayotgan egizaklar bo`lmish bizlarning oramizda bu qadar jiddiy kelishmovchilik bo`lishi mumkin emasdi». Aslida bu o`rinda gap odamlarning hissiy yaqinligi sifatidagi jipslikni ittifoqchilar va pirovard natijada maslakdoshlarning qadriyatlarga mo`ljallangan birligi sifatidagi jipslikka qarama-karshi ko`yilishi xususida bormoqda. Keyingilari uchun A. I. Gertsenning izoh berishiga ko`ra, «asosiy nazariy e'tiqodlardagi bir xillikni bildiradigan (kishining ateistim qarashlari isbot talab qilmaydi) din aynan bir xil bo`lishi» zarur.

Konkret eksperimental tadqiqotlar va olingan ma'lumotlarni tahlil qilish natijasida jamoalarda qadriyatlarga mo`ljallangan birlik koeffitsienti aralash guruhlardagiga nisbatan yukoriroq bo`ladi, degan asosli xulosaga kelindi.

3. Masuliyatning yuksalishi va qabul qilinishi

Jamoaning bir xil bo`lib qolishini va qadriyatlarga mo`ljallangan birlikni aniqlashdan tashqari birgalikdagi faoliyat natijalari uchun mas'uliyat yuklanishining aynan bir xilligi hodisasi mavjudligi yoki mavjud emasligiga qarab ham jamoadagi alohida guruhlarning birlashuvi haqida fikr yuritish mumkin. Mas'uliyatni yuklash xususiyatlari birgalikdagi faoliyat jarayonida yutuq yoki muvaffaqiyatsizlik uchun ma'qullash yoki jazolash shaklidagi har xil sotsial sanktsiyalarni shaxsning o`ziga yoki guruhdagi boshka shaxslarga nisbatan qo`llashning to`g`riligini tan olishda namoyon bo`ladi.

Mas'uliyat yuklash hodisasi g`arb sotsial psixologiyasida kishiga muvaffakiyatsizlik uchun mas'uliyat yuklanishi va yutukqa erishgani uchun hurmat-ehtiromga sazovor bo`lishi mumkin bo`lgan boshqa bir individning kimligiga va faoliyatning qanaka vaziyatda sodir bo`lishiga - uning kooperativ yoki raqobat asosidami ekanligiga bog`liq tarzda namoyon bo`ladigan yoki namoyon bo`lmaydigan individual-psixologik xususiyati sifatida o`rganildi.

Jumladan, kanadalik psixologlar mas'uliyat yuklanishi boshqa shaxsning tashqi jozibasiga bog`liq ekanligiga ishora qilishdi. Yaxshi xatti-harakatlar va muvaffaqiyatli ishlar uchun mas'uliyat dilbar ayollarga xos deya tashqi qiyofasi ko`rimsiz ayollar esa muvaffaqiyatsizlik va xunuk xatti-harakatlar uchun mas'ul deb hisoblanishi ma'lum bo`ldi. Mas'uliyatning yuklanishi hodisasini odatda konkret sotsial muhitga, guruhlarda birgalikda olib boriladigan ahamiyatga molik faoliyatga bog`liq bo`lmagan o`tish sharoitlarida o`rganishardi.

Psixologlarning tajribalari mas'uliyat yuklanishining xususiyati guruhning jamoa sifatida rivojlanishi darajasiga bog`liq ekanligidan dalolat beradi. Jamoada mas'uliyatning yuklanishi asosan ob'ektiv xarakterda bo`ladi har bir kishining shaxsiy xossasi esa birgalikdagi faoliyatning pirovard muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligiga bog`liq bo`lmagai holda amalda to`g`ri baholanadi. Yaxshi rivojlanmagan guruhda teskari manzara kuzatildi. Unda sinaluvchi birgalikdagi faoliyatda muvaffaqiyatga erishilgan holda ko`pincha o`zining xizmatlarini ta'kidlaydi, muvaffaqiyatsizlik yuz bergan holda esa, aksincha, aybni boshqa barcha kishilarga, yoki hech bo`lmasa, «ob'ektiv holatlarga» yuklashga urinadi. Bunday guruhda mas'uliyatni yuklash hodisalari asosan baholanish sub'ektining individual-psixologik xususiyatlari bilan belgilanadi, deb faraz qilish mumkin. Bu esa aynan g`arbdagi sotsial psixologlar tomonidan tajriba yo`li bilan aniqlangan va umuman kichik guruhlar ta'rifiga taalluqli deb nohaq xulosa qilingan o`sha qonuniyatlar va bog`lanishlar namoyon bo`ladigan sohadir.

Real tarzda bajariladigan va sotsial jihatdan baholanadigan faoliyat jarayonida erishiladigan yutuklar va muvaffaqiyatsizliklar uchun mas'uliyatning qayd etilishidagi har xillik guruhda mojarolar kelib chiqishiga sabab bo`ladi. Hamma joyda ham birgalikdagi faoliyat ishtirokchilari o`zlarining umumiy ishga qo`shgan xissalarini ob'ektiv ravishda baholashga qadir bo`lmaganliklari sababli ularning baholari hech shubhasiz sub'ektiv ruhda bo`ladi. Kollektivning sub'ektivizm hollariga to`sqinlik qiluvchi ma'naviy kuchlari kollektiv a'zolarining uning barcha a'zolari tomonidan qabul qilingan ahloqiy qoidalar asosida bir-biri bilan sig`ishuvi uchun shart-sharoitlar yaratadi. Agar aybdor bo`lsang, mas'uliyatni soqit qilmaslik, «o`z aybingni birovga to`nkamaslik», erishilgan yutuqni o`zingniki qilib olmaslik, umumiy muvaffaqiyatlarga erishilganda boshqalarning roli va ahamiyatini kamsitmaslik, «ob'ektiv holatlarga» ishora qilmaslik va hokazolar ana shunday qoidalar jumlasiga kiradi.

Adabiyotlar

Донцов А. И. Психология коллектива. М., MDU nashriyoti, 1984.

Коллектив и личность. М., Наука, 1975.

Коломинский Я. Л. Психология взаимоотношений в малых группах. №1 Минск, V. I. Lenin nomli BDU nashriyoti, 1976.

Психологическая теория коллектива (Под ред. А. В. Петровского). М, Педагогика, 1979.

Коломинский Я. Л. Человек среди людей. Молодая гвардия, 1970.

Леви В. Л. Я и Мы. М., Молодая гвардия, 1969.

18-ma'ruza. Tarbiyaviy jarayondagi jamoa va jamoatchilik

Reja:

1. Maktabda jamoatchilikning shakllantirilishi
2. Oilada jamoatchilikning shakllantirilishi

1. Maktabda jamoachilikning shakllantirilishi

Jamoa o`spirinlar va yoshlarning shaxsini shakllantirish uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratiladigan birlik hisoblanadi. Oila jamoasi, maktabdagi o`quv-tarbiya jamoasi, o`quvchilar ishlab chiqarish brigadasi, nihoyat kechagi maktab o`quvchilari o`rta ma'lumot olgandan keyin borib qo`shiladigan mehnat jamoalari shunday bir sotsial muhit hisoblanadiki, unda shaxsning voyaga etishi va har tomonlama rivojlanishi yuz beradi,

kishining eng muhim fazilati - «kollektivda yashash va ishlash uquvini» taqozo etadigan jamoachilik tarkib topadi. Jamoachilik - bu ijtimoiy munosabatlarning shunchaki oddiy belgisi emas, bu axloqning, kishini ma'naviy xulq-atvorining printsiplaridan biridir. Jamoachilik, bu o`rtoqchilik, o`zaro yordam ko`rsatish, uyushqoqlik, intizom saqlash demakdir. «Biz bolaning shaxsi faqat kollektivdagina ko`p va har tomonlama kamol topa oladi, deb hisoblaymiz. Kollektiv bolaning shaxsini o`z komiga tortib olmaydi, lekin tarbiyaning sifatiga, mazmuniga ta'sir ko`rsatadi». «...Maktab bolalarni birlashishga, umumiy maqsadlarni va umumiy vazifalarni belgilab olishga hamda bu vazifalarni umumiy kuch-g`ayrat bilan hal etishga o`rnatishi shart... O`rtoqlarcha mustahkam jipslik, kollektiv bo`lib harakat qilish odati yangi kishilarni - kollektiv bo`lib tashvish qiladigan, kollektiv bo`lib fikrlaydigan bolalarni vujudga keltiradi... Uyushgan tarzda yashay bilish va uyushgan tarzda ishlay bilish kerak, lekin bilimlarsiz, maktablarsiz bunga erishib bo`lmaydi».

Tarbiya haqida so`z yuritilayotganda o`rtoqchilik to`g`risida, jamoachilik ishi haqida, birgalikdagi mehnat va umumiy ish uchun kurasha bilish haqida gapirmasdan o`tish mumkin emasligini alohida ta'kidlagan holda jamoachilikni, ya'ni o`z shaxsiy manfaatini ijtimoiy manfaatlarga bo`ysundira oladigan kishini tarbiyalash zarurligini aytgan edi. Munosabatlar negizining o`zida birgalikdagi ijtimoiy foydali faoliyat g`oyasi mujassamlashgandir. Maktab hayoti maktabdagi boshlang`ich jamoalar (sinflar, otryadlar, zvenolar)ning faoliyatida ishtirok etish aynan shunday ko`nikma hosil qilinadigan va shakllantiriladigan sohalardan biri hisoblanadi. Bolalar tashkiloti mavjudligining o`zi xam juda muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Bola, keyinroq esa o`spirin, yosh yigit va qiz ham umumiy ish manfaatlarini, butun bir jamoaning, aytish joizki, o`zining boshlang`ich jamoasining ham xuddi shuningdek, butun maktabning ham manfaatlarini hisobga olishga ko`nikadi. Eng muhimi, bolaning mumkin qadar ertaroq jamoa bilan hamnafas hayot kechira boshlashidadir. Yetakchilar va pedagoglar, ota-onalar bilan suhbat qilarkan, o`quvchining chin inson bo`lib etishishi uning sinf va maktab jamoasidagi hayoti qanday uyushtirilganiga bog`liq.

Bundan kelib chiqadigan muhim xulosa shundan iboratki, o`quvchilar faoliyatining barcha turlari jamoachilik ruhida bo`lishi kerak. O`yin, mehnat, o`quv faoliyatlari va faoliyatning boshqa turlariga shunday tarzda tashkil etilishi kerakki, hamisha va hamma sohada jamoachilik printsiplari shakllantiriladigan, do`stona madadkorlik, o`zaro bir-biriga yordam ko`rsatish mustahkamlanib va rivojlanib boradigan, lozim bo`lib qolgan taqdirda o`z shaxsiy manfaatini jamoa manfaatiga bo`ysindira olish malakasi tarbiyalanadigan bo`lishi shart. Umumiy ish natijalari alohida har bir kishining ish sifatiga bog`liq bo`lmasligi mumkin emas (va o`quv-tarbiya jarayonida har bir o`quvchi buni his qilishi hamda ko`rib borishi shart).

O`quvchilar jamoasining ahil bo`lishi uchun, bolalarning fanlar bo`yicha olimpiadalar, sport bellashuvlari, sborlar, ertaliklar, kechalar uyushtirish va o`tkazish jarayonida birgalashib tashvish tortishlari g`oyat muhimdir. O`quvchilarning turli xildagi ijtimoiy foydali faoliyati bilan bir vaqtda jamoada yuz beradigan hissiy tashvishlanish hollari jamoaning shakllanishiga yordam beradi, o`quvchilarni o`zaro bir-birlari bilan yaqinlashtiradi, ularni bir-birining dardi va quvonchini his etishga o`rgatadi.

O`spirinlik yoshini shaxs o`zligini namoyon qilish uchun intiladigan yosh. Pedagoglar va tarbiyachilarni sinfda juda katta tashkiliy, g`oyaviy-tarbiyaviy ish olib borishga alohida e'tibor berishga, ishlarni, birinchidan, u o`quvchilarga o`z qobiliyatlari va iste'dodlarini ro`yobga chiqarishlari, erishilgan yutuqni mustahkamlashga va yanada kuch-

g`ayrat sarflashga safarbar etish uchun yordam beradigan, ikkinchidan, unda barcha o`quvchilar qamrab olinadigan darajada tashkil etish kerak.

Jamoachilikning tajriba yo`li bilan aniqlanishi mumkin bo`lgan psixologik ko`rsatkichlari (jamoaning o`zini-o`zi belgilashi va bir xil bo`lib qolishi, birgalikdagi faoliyat jarayonida yutuqlar yoki muvaffaqiyatsizliklar uchun mas'uliyatning yuklanishidagi bir xillik, aralashib ketish tarzidagi xayrixohlik va xokazolar) oiladagi va maktabdagi muvaffaqiyatli tarbiyaviy ishning natijasi sifatida tarkib topadigan jipslashgan jamoalarni alohida ajratib ko`rsatish imkonini beradi.

Shaxsning maktab sharoitida shakllanishi o`quvchilarning o`quv va ijtimoiy foydali faoliyatida yuz beradi. O`quv faoliyatining ba'zi bir o`ziga xos xususiyatlari o`quvchilarning shaxslararo munosabatlari tarkib topish xususiyatlariga ta'sir ko`rsatmasdan qolmaydi. Tashqi ko`rinishidan birgalikdagi faoliyat kabi tuyuladigan o`quv faoliyati (negaki, o`qituvchi butun sinf bilan yoppasiga ish olib boradi) bilimlarni o`zlashtirishning asosan individual tarzdagi jarayonini taqozo etadi va shuning uchun ham amalda o`qishda erishiladigan individual muvaffaqiyatlar yig`indisidan iborat bo`ladi. O`quv faoliyatining umumiy tarzda qabul qilingan shakllari sharoitida o`zaro birgalikda amaliy harakat qilishga juda ham oz darajada ehtiyoj seziladi va bu onda-sonda yuz beradi. Bu ayniqsa maktab ishida muhim bo`lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo`lib keladigan bo`g`in hisoblangan darsga taalluqlidir. Darsda o`zaro birgalikda harakat qilish (o`quvchilarning biron bir darajadagi kengashlari, bilmaganini aytib turishi, vazifalarni kollektiv bo`lib echishlari va hokazolar nomaqbul ish deb, ko`p hollarda esa o`quvchilar xulq atvorining jazoga mahkum shakli deb hisoblanadi. To`g`ri darsdan tashqari paytda o`zaro yordamlashishning turli xil usullari qoloq o`kuvchilarning a'lochilar yordamida ilg`orlar safiga olib chiqilishi, imtihonlarga birgalashib tayyorlanishi va shu kabilar rag`batlantirishga loyiq va bu taomillar o`rinlidir. Bu borada birgalikdagi o`quv faoliyatini tashkil etishning ko`plab qiziqarli usullari topildi. Misol uchun quyi sinfda yaxshi o`qimaydigan o`quvchiga yuqori sinfda o`qiydigan qoloq o`quvchi yordam berishining oldinroq hikoya kilib o`tilgan va psixologik jihatdan asoslangan usulini ko`rsatish mumkin. Shunday qilinishi natijasida faqat o`rgatilgan muayyan samaraga erishilib qolmasdan, balki shaxsiyatga dahldor soxada ham sezilarli siljish yuz beradi - yuqori sinf o`quvchisining o`quv faoliyati sohasida intilishlari va o`qish xaqidagi fikrlari darajasi oshadi va ayni shu holda kichik yoshli o`quvchining o`qishda ojizligini anglashi kuchaymasdan qoladi. Lekin baribir, dars, yuqorida aytilganidek, maktabdagi ta'lim-tarbiya ishining yetakchi usuli bo`lib qoladi. Vaholanki o`quvchining aynan shu dars vaqtidagi o`quv faoliyati hozirgi paytda eng kam darajada jamoachilik xususiyatiga egadir.

Darsda amalga oshiriladigan o`quv faoliyatn jamoa tuzilmasining yuksak natijalarga erishishini ta'minlaydigan. ishlab chiqarish, mehnat faoliyati bilan taqqoslanganda ustunlik qila olmaydi, albatta. Ishlab chiqarish faoliyati, avvalo birgalikdagi, umumiy faoliyatdir. Mehnat taqsimoti jarayonida va uning natijalarida aks etadigan umumiylik real xususiyatga egadir. Mehnatning moddiylashgan mahsulida; ishlab chiqarish jarayoni ishtirokchilarining o`zaro bir-biriga bog`liqligi namoyon bo`ladi. Bir kishining muvaffaqiyati boshqasining yutug`ini ta'minlash sharti bo`lsa, bittasining muvaffaqiyatsizligi umumiy ishning barcha ishtirokchilariga ta'sir qiladi. Har bir kishi faoliyatining jami mahsulida uning hissasi me'yorini aniqlashning ob'ektiv mezonlari mavjudligi o`zaro bir-biriga baho berishning ob'ektiv negizi bo`lib xizmat qiladi. Ishlab chiqarish jarayonidagi shaxslararo munosabatlar real amaliy faoliyatda ro`y bergan holda

bilvosita xususiyatga ega bo`ladi va shu tarzda jamoaning tarkib topish jarayoniga zamin yaratadi.

O`z navbatida yetarlicha yuksak darajada rivojlangan va ko`pgina o`lchovlariga ko`ra jamoalar qatoriga qo`shish mumkin bo`lgan guruhlar hosil bo`ladigan va faoliyat ko`rsatadigan o`rta maktabda jamoalarning yuzaga kelishi va shakllanishi qanday yuz beradi? Bu yerda ham jamoani tarkib toptiradigan omillardan biri o`quvchilarning jamoa xususiyatiga ega bo`lgan unumli mehnatda, ijtimoiy foydali faoliyatda, to`garaklarda, yoshlar tashkilotlari ishida va, nihoyat real tarzda o`zaro birgalikda harakat qilish va bir-biriga yordam ko`rsatish mumkin bo`lgan sinfdan tashqari o`quv faoliyatining har xil turlarida baholi qudrat ishtiroki tariqasidagi mehnat faoliyati bo`lib hisoblanadi.

Darsdan va unda ro`y beradigan o`quv faoliyatidan o`quvchidar jamoalarini hamda jamoada birgalikdagi faoliyatning mazmuni va qadriyatlari orqali namoyon bo`ladigan shaxslararo munosabatlarni shakllantirish vazifalarining bajarilishini ta'minlash uchun foydalanish sotsial-psixologik jihatdan asoslangan masala hisoblanadi.

Keyingi yillarda maktabda, garchand haliga qadar eksperimental tekshiruv bosqichidan nari o`tmagan bo`lsa ham, sinfda guruh shaklida ish olib borish deb ataladigan yangi usul tajriba qilina boshladi. O`quv materiali ustida ish olib borish jarayonida «o`quvchilarniig bevosita o`zaro birgalikda harakat qilishi, ularning birgalikdagi kelishilgan faoliyatini tashkil etadi.

Guruh shaklida ish olib borish o`quvchilarni faqat o`qitish jarayoniga emas, balki ularni tarbiyalash jarayoniga ham jiddiy o`zgarishlar kiritadi. O`quvchilarning faoliyat ne'matlari ayirboshlanishini va shu asnoda o`zaro bir-birlarini nazorat qilishdan iborat munosabatlar yuzaga kelishini taqozo etadigan o`zaro kelishilgan holda birgalikda harakat qilishi vaziyatida olib boriladigan guruh tarzidagi ish tufayli bunday sharoitlardagi o`qish jarayoni haqiqiy jamoachilik tusini kasb etishi mumkin. Tengdoshlar o`rtasida o`rnatiladigan va o`quvchilar shaxsini rivojlantirishning eng muhim omili bo`lgan va odatda bolalarning o`quv faoliyatidan tashqarida bo`ladigan munosabat yangi sharoitlarda uning ajralmas qismiga, darsdagi mehnat mahsuli, ya'ni o`quvchilar erishgan qadriyatlar, bilimlar va qiziqishlar esa bevosita munosabat mavzusiga aylanib qoladi.

O`quvchining hayotida eng muhim o`rin egallaydigan faoliyatda, o`qishda va muomalada yuz beradigan bunday tub o`zgarishlar guruh hayotida va uning rivojlanish darajasida sifat jihatidan yangi sotsial-psixologik hodisalarning yuz berishiga olib kelmasligi mumkin emas. Chindan xam guruh shaklida ishlashni tajriba qilib kelayotgan pedagoglar uning o`quvchi shaxsining tarkib topishiga so`zsiz ta'sir etishini qayd qiladilar.

Shunisi diqqatga sazovorki, guruh shaklidagi o`quv faoliyatini tashkil etish chog`ida o`qitishning jamoachilik xususiyatidan mahrum shakli uchun xarakterli bo`lgan bog`lanishlarning o`ziga xos tarzdagi «ag`darilish» hodisasi ro`y beradi. Chunonchi, bordiyu guruhning o`quv faoliyati samaradorligi bilan uning miqyosi o`rtasida odatdagi teskari bog`lanish mavjud (o`quvchilar soni qancha ko`p bo`lsa, pedagogning har bir bolaga e'tibor berishi shuncha qiyinlashadi), u holda guruh tarzdagi o`quv ishida bu bog`lanish namoyon bo`lmaydi, muayyan chegaralarda esa guruhning samaradorligi bilan miqyosi o`rtasida teskari bog`lanish emas, aksincha, bevosita bog`lanish kuzatiladi.

Maktabda jamoachilikni shakllantirish uchun shart-sharoinlar yaratilishi bilan bir qatorda oilaning o`zi xam bu muhim fazilatlarni rivojlantirish omili bo`lib hisoblanadi.

Oilani jamoa desa bo`ladimi? Agar oila a'zolarining` hammasi uchun umumiy va oila ichidagi o`zaro munosabatlarning bilvosita ifodasi bo`la oladigan sotsial jihatdan

qimmatga ega, shaxs uchun ahamiyatga molik faoliyat yuz berayotganligi aniq bo`lsa, bu savolga ijobiy javob berish mumkin.

2. Oilada jamoachilikning shakllantirilishi.

Oila - jamiyatning yosh avlodini tarbiyalash va odamlarning o`zaro ahloqiy javobgarligini hamda bir-biriga o`zaro yordam ko`rsatishini taqozo etadigan shaxsiy baxt-saodatini ta'minlashdan iborat eng muhim sotsial vazifani bajaradigan bo`g`inidir. Har bir oila a'zosining shaxsiy baxt-saodatini ta'minlash va jamiyatning barkamol fuqarosini voyaga etkazish - oila a'zolarining hammasi uchun umumiy faoliyat aynan ana shunday xususiyatga ega bo`lishi kerak. Oila faoliyatining maqsadi oila ichidagi munosabatlar doirasidan tashqariga chiqadi hamda sotsial jihatdan da'vat etiladi va sotsial qimmatga molik bo`ladi. Agar bu muayyan oilaga xos xususiyat hisobdanadigan bo`lsa, bu holda unda yuksak darajada rivojlangan guruh sifatidagi jamoani shakllantirish uchun zarur shart-sharoyatlar tarkib topadi deb taxmin qilishga barcha asoslar bor. Bunday oilada jamoani psixologik jihatdan tadqiq qilishda bir necha martalab aniqlangan sotsial-psixologik hodisalar, misol uchun oila barcha a'zolarining jamoadagi shaxslararo munosabatlarga ta'rif berishda muhim hisoblangan qadriyatlarga mo`ljallangan birligi sifatidagi jipslikdan iborat sotsial-psixologik hodisalar o`zini muqarrar ravishda namoyon qiladi, deb faraz qilish mumkin. Bu oila a'zolarining oila uchun eng muhim hisoblangan fikrlari, nuqtai nazarlari, mavqei, qarashlari bir muncha yaqin bo`ladi, mos keladi, degan ma'noni anglatadi. Uning jipsligi mohiyati ham ana shundadir. Ayni paytda bu bolalarni oilada tarbiyalash samaradorligining, ya'ni uning eng muhim vazifalaridan birini muvaffaqiyatli amalga oshirishning muqarrar sharti hamdir.

Qadriyatlarga mo`ljallangan birlikning mavjudligi oila tarbiyasining eng muhim printsipi, oilaning jamoa tariqasidagi jiddiy xususiyati hisoblanadi.

Birgalikdagi faoliyatda erishilgan yutuq va muvaffaqiyatsizlik uchun mas'uliyat yuklashdagi adolatlilik umuman jamoachilik munosabatlar va shu jumladan, oiladagi munosabatlarning alohida ajralib turadigan xususiyatlaridan biridir. Mas'uliyatning aynan o`ziga o`xshash belgilari faqat oiladagi qulay psixologik muhitning belgisi bo`lib qolmasdan, balki oilaviy jamoa a'zolari sig`ishuvchanligining sharti hamdir. Agar odamlar birgalikdagi faoliyatga har bir kishining qo`shgan hissasini haqqoniy baholashga layoqatli bo`lmasa, bu albatta mojaro chiqishiga olib boradi, oila jipsligining negizlarini bo`shashtirib yuboradi. Aytilgan gaplar oilaning har qanday a'zosiga - qariyalarga ham, yoshlarga ham babbaravar taalluqlidir.

Yuqorida ko`rsatib o`tilganidek, jamoaning aynan bir xil bo`lib qolishi yuksak darajada rivojlangan guruh sifatidagi jamoaning g`oyat muhim belgisidir.

Oilada jamoaning aynan bir xil bo`lib qolishi bolaga hadeb rahmdillik qilaverishdan va unga hamma narsani ravo ko`raverishdan ham, bolaga nisbatan xudbinlarcha, g`arazgo`ylik bilan munosabatda bo`lishdan ham babbaravar voz kechilishini taqozo etadi. Bunda bolalar to`g`risida va ularning rohat-farog`ati haqida amaliy g`amxo`rlik hamda shu bilan birga ota-onalar mabodo ularning o`rnida bo`lganlarida o`zlariga nisbatan qanday talab qo`yishsa, xuddi ana shunday talablar qo`yilishi ko`zda tutiladi.

Axloq printsiplariga tayanadigan yagona ma'naviy tartib-qoidalardan kelib chiqilishi kerak: uyda xam, ishda ham o`zingga boshqalarga nisbatan bo`lgani kabi, boshqalarga esa o`zingga nisbatan bo`lgani kabi munosabatda bo`lish kerak - kishining chinakam kollektivchiligiga va haqiqiy insonparvarligiga eng yuksak darajada mos keladigan munosabatlar turi ana shundan iboratdir.

Jamiyatda va uning bo`g`ini snfatidagi oila jamoasida «men» va «ular» degan azaliy bir-biriga qarama-qarshi so`zlar «biz» degan tushuncha vositasida chindan ham barham topadi.

Adabiyotlar

Донцов А. И. Психология коллектива. М., MDU nashriyoti, 1984.

Коллектив и личность. М., Наука, 1975.

Коломинский Я. Л. Психология взаимоотношений в малых группах. №1 Минск, V. I. Lenin nomli BDU nashriyoti, 1976.

Психологическая теория коллектива (Под ред. А. В. Петровского). М, Педагогика, 1979.

Коломинский Я. Л. Человек среди людей. Молодая гвардия, 1970.

Леви В. Л. Я и Мы. М., Молодая гвардия, 1969.

19-ma'ruza. Shaxs haqida tushuncha. Shaxsning tuzilishi

Reja:

1. Indvid va shaxs
2. Shaxs indvidlararo munosabatlar sub'ektidir
3. Shaxs va individuallik
4. Individuallik bilan shaxsning tuzilishi o`rtasidagi o`zaro bog`liqlik
5. Shaxsning tuzilishidagi biologik va ijtimoiy omillar
6. Shaxs tuzilishining uch tarkibiy qismi

Mehnat tufayli hayvonot olamidan ajralib chiqqan va jamiyatda rivoj topayotgan, boshqa odamlar bilan birgalikdagi faoliyatni amalga oshirayotgan va ular bilan munosabatga kirishayotgan kishi sekin-asta shaxsga aylanib bormoqda - moddiy dunyoni, jamiyatni va xususan o`zini o`rganish va faol tarzda qayta o`zgartirish sub'ektiga aylanmoqda.

1. Individ va shaxs

Odam dunyoga odam bo`lib keladi. Bu ta'kid yuzaki qaragandagina isbot talab qilmaydigan haqiqat bo`lib va takrorlanaverib siyqasi chiqib ketgan ibora bo`lib tuyuladi. Gap shundaki, bu o`rinda xususan insoniy belgilar va fazilatlarning rivojlantirilishi uchun tabiiy shart-sharoitlar paydo bo`lishi genetik jihatdan oldindan belgilab qo`yilganligi ta'kidlanadi. Dunyoga kelayotgan chaqaloqning gavda tuzilishi unda tik yurish uchun imkoniyatning mavjudligini taqozo etsa, miyasining tuzilishi aqli-xushining rivojlanishi uchun imkoniyat tug`diradi, qo`llarining shakl shamoyili mehnat qurollaridan foydalanish istiqbolining mavjudligini ko`rsatadi va hokazo. Bular bilan chaqaloq o`z imkoniyatlari yig`indisiga binoan odam har qanday holatda ham bu xildagi fazilatlar yig`indisining sohibiga aylana olmaydigan hayvon bolasidan farq qiladi. Shunday qilib, yuqorida aytilganlar orqali chaqaloqning inson zotiga mansubligi tasdiqlanadi va bu fakt individ tushunchasida qayd etiladi (bundan farqli o`laroq, hayvon bolasi dunyoga kelishi bilanoq va hayotining oxiriga qadar jonzot deb yuritiladi). «Individ» tushunchasida kishining nasl-nasabi ham mujassamlashgandir. Yangi tug`ilgan chaqaloqni ham, katta yoshdagi odamni ham, mutafakkirni ham, aqli zaif ovsarni ham yovvoyilik bosqichidagi qabilaning vakilini ham, madaniyatli mamlakatda yashayotgan yuksak bilimli kishini ham individ deb hisoblash mumkin.

Shunday qilib, konkret kishini individ deb ataganda biz juda ko`p narsalarni aytgan bo`lamiz. Aslini olganda, bu bilan uning potentsial ravishda inson ekanligi aytilgandir. Uning bundan keyingi va hatto juda ham umumiy tarzdagi ta'rifi fazilatlarining bayon etilishi va izohlanishini taqozo qiladi. Bunday fazilatlarsiz u faqat boshqalarga o`xshamaydigan emas, balki ular kabi harakat qilmaydigan, fikrlamaydigan, iztirob ham chekmaydigan, jamiyat a'zosi sifatida, tarixiy jarayonning ishtirokchisi sifatida sotsial aloqalarga jalb ham etilmagan real kishi emas, balki demografik ma'lumotnomalardagi jonsiz birlik holida qoladi, xolos. Individ sifitida dunyoga kelgan kishi alohida sotsial fazilat kashf etadi, shaxs bo`lib etishadi. Individ hali bolaligidayoq tarixan tarkib topgan ijtimoiy munosabatlar sistemasiga jalb etiladi. U bu sistemani allaqachon tayyor holda uchratadi. Kishining jamiyatdagi bundan keyingi rivojlanishi munosabatlarning shu qadar chigalliklarini vujudga keltiradiki, bu hol uni shaxs sifatida shakllantiradi. Psixologiyada individ tomonidan amaliy faoliyat va munosabat jarayonida hosil qilinadigan hamda ijtimoiy munosabatlarning individga ta'sir o`tkazish darajasi va sifatini belgilaydigan sistemali tarzdagi sotsial fazilat shaxs tushunchasi bilan ifoda etiladi.

Individning alohida sotsial fazilati sifatidagi shaxsning xo`sh nima? Eng avvalo, agar biz shaxs individning fazilati ekanligini tan oladigan bo`lsak, bu bilan biz individ va shaxsning birligini tasdiqlagan va ayni pantda bu tushunchalarning bir-biriga o`xshashligini inkor etgan bo`lamiz (misol uchun, yorug`likni sezuvchanlik fotoplenkaning xususiyati hisoblanadi, lekin fotoplenka - bu yorug`likni sezuvchanlik, yoki yorug`likni sezuvchanlik - bu fotoplenka degan ma'noni anglatmaydi). «Shaxs» va «individ» tushunchalarining bir-biriga o`xshashligini barcha yetakchi psixologlar - B. G. Ananev, A. N. Leontev, B. F. Lomov, S. L. Rubinshteyn va boshqalar inkor etishadi. «Shaxs ? individ; bu jamiyatda indvid jalb etiladigan va o`z mohiyatiga ko`ra ijtimoiy hisoblangan munosabatlarning butun bir yig`indisi ichida individ tomonidan egallab olinadigan alohida fazilat, shu munosabatlar «to`lqini» - shaxsning mohiyati, demakdir... garchi tamomila sezgir, jismiy individ o`zining barcha tug`ma va hosil qilingan xususiyatlari bilan «g`ayrihissiy» fazilatlar sohibi bo`lsa ham shaxs - sistemali tarzdagi va shuning uchun ham «g`ayrihissiy» fazilat hisoblanadi».

Shunday qilib, shaxs sotsial fazilatni tavsiflab bera oladigan alohida ta'rifga muhtojdir. Eng avvalo, nima sababdan shaxs xaqida individning «g`ayrihissiy» fazilati to`g`risida gapirilgandek gapirish mumkin ekanligiga aniqlik kirtish kerak (sistemali tarzda va shuning uchun xam «g`ayrihissiy»dir). O`z-o`zidan ravshanki, individ tamomila hissiy (ya'ni sezgi a'zolari yordamida idrok etiladigan) xususiyatlarga - jismiylikka, individual xulq-atvor, nutq, imo-ishora va boshqa xususiyatlarga egadir. Kishida bevosita o`zining sezgisi shaklida qayd etilishi mumkin bo`lmagan fazilatlar qay tarzda namoyon bo`ladi? qo`shimcha qiymatga - K. Marks buni juda ham aniq-ravshan ko`rsatib bergan edi — ma'lum darajadagi «g`ayrihissiy» fazilati bo`lib, uni tayyorlangan buyumda hech qanaqa mikroskop orqali ko`rib bo`lmasligi, lekin unda ishchining kapitalist tomonidan xaq to`lanmagan mehnati mujassamlashgan bo`lgani kabi shaxs o`z mohiyatiga ko`ra, ijtimoiy hisoblangan va individning hayot faoliyati jabhalaridan uning sistemali tarzdagi (ichki qismlarga bo`lingan, murakkab) fazilati sifatida o`rin oladigan ijtimoiy munosabatlar sistemasini o`zida mujassamlashtiradi. Ular faqat ilmiy tahlil yo`li bilan topilishi mumkin, ularni his-tuyg`u bilan idrok etib bo`lmaydi.

Sotsial munosabatlar sistemasini o`zida mujassamlashtirish sub'ekt bo`lish degan ma'noni anglatadi. Katta yoshdagi kishilar bilan o`zaro munosabatlarga jalb etilgan bola dastavval ular faolligi ob'ekti tarzida, lekin unga katta yoshdagilar uning rivojlanishidagi

yetakchi omil sifatida tavsiya qiladigan o`sha faoliyat tarkibini egallagan, masalan, ta'lim olgan holda ish ko`radi, o`z navbatida ana shu o`zaro munosabatlarning sub'ektiga aylanadi.

Ijtimoiy munosabatlar ular sub'ektining allaqanday tashqi mohiyati emas, balki individning sotsial fazilati tarzidagi shaxsning bir qismi, yo`nalishi, jihati sifatida namoyon bo`ladi.

K.Marks shunday deb yozgan edi: «Insonning mohiyati ayrim individga xos bo`lgan abstrakt emasdir. Hakiqat holida u barcha ijtimoiy munosabatlarning majmuidir». Agar boshqa barcha jonli mavjudotlardan farqli o`laroq, inson nasl-nasabining mohiyati barcha ijtimoiy munosabatlar majmuidan iborat bo`lsa, u holda har bir konkret kishining mohiyati, ya'ni shaxs tarzidagi alohida individga xos abstrakt sub'ekt sifatida u jalb etiladigan konkret sotsial bog`lanishlar va munosabatlar majmuasini tashkil etadi. Ular, o`sha bog`lanishlar va munosabatlar, undan tashqaridadir, ya'ni ijtimoiy hayotdadir va shuning uchun ham shaxssiz, ham ob'ektivdir (qul quldorga batamom qaramdir) va shu bilan birga ular shaxs sifatida uning ichkarisida, uning o`zida mujassamdir va shunga ko`ra sub'ektivdir (u quldorni yomon ko`radi, unga itoat qiladi yoki unga qarshi isyon ko`taradi, umuman unga nisbatan munosabat bildiradi, u bilan sotsial jihatdan taqozo etiladigan aloqalar o`rnatadi).

«Individ» va «shaxs» tushunchalarining o`xshashligi emas balki birligi haqidagi fikr quyidagicha tarzda o`rtaga qo`yilishi mumkin bo`lgan savolga javob berilishini taqozo qiladi: shaxs bo`lib hisoblanmagan individning mavjud bo`lishi yoki aksincha individning konkret sohibi sifatida undan tashqarida va usiz mavjud bo`lish fakti ko`rsatilishi mumkinmi? Taxminiy tarzda fikr yuritilgan taqdirda unisi ham va bunisi ham bo`lishi mumkin. Agar kishilik jamiyatidan tashqarida voyaga etgan individni hayolan tasavvur qilinadigan bo`lsa, bu holda u birinchi bor odamlarga duch kelib, biologik jonzotga xos individual xususiyatlardan bo`lak hech qanday, yuqorida aytilganidek, kelib chiqishi jihatidan hamisha ijtimoiy-tarixiy xarakter kasb etadigan shaxsiy fazilatlarga ega ekanligini namoyon qila olmaydi balki tevarak-atrofdagi odamlar mabodo uni birgalikdagi faoliyat va munosabat jarayoniga «torta olishgan» taqdirda ularning paydo bo`lishi uchun zarur tabiiy shart-sharoitlargagina ega bo`ladi. Hayvonlar orasida tarbiyalangan bolalar tajribasini o`rganish bu vazifani amalga oshirishning g`oyat darajada murakkabligidan dalolat beradi. qarshimizda hali shaxs sifatida kamolatga erishmagan individ bo`ladi. Real individni gavdalantirmaydigan shaxsning paydo bo`lish imkoniyatlari mavjudligi muayyan istisnolar bilan tan olinishi ham mumkin.

Misol uchun A. K. Tolstoy va aka-uka Jemchujnikovlarning hamkorlikdagi ijodlari tufayli yaratilgan Kozma Prutkov ana shular jumlasiga kiradi. E. Voynichning «So`na» romanidagi qahramon real individni aks ettirmasa ham, revolyutsion yoshlarda jasurlikni, sabot-matonatni, mustahkam printsipiallikni shakllantira borgan holda juda katta ta'sir o`tkazdi.

«Shaxssiz individ» yoki «individsiz shaxs» vaziyatiga murojaat qilinishi shaxs va individning birligi va aynan bir xil emasligi problemasini tushunib etish uchun foydadan xoli bo`lmagan hayoliy, eksperimentdir.

2. Shaxs individlararo munosabalar sub'ektidir.

«Individ» va «shaxs» tushunchalarining bir-biriga mos kelmasligi va aynan o`xshash emasligi faktidan shu narsa ayonki, shaxs tushunchasi birgalikdagi faoliyatniig har bir ishtirokchisi uchun ushbu faoliyatning mazmuni, qadriyatlari va mohiyati orqali

namoyon bo`ladigan shaxslararo barqaror bog`lanishlar sistemasidagina anglanilishi mumkin. Bunday shaxslararo aloqalar realdir, lekin ular tabiatan «g`ayrihissiy»dir. Ular jamoaga kiradigan odamlarning konkret individual xususiyatlari va xatti-harakatlarida namoyon bo`ladi, lekin ularning sababchisi bo`la olmaydi. Ular har bir individlararo aloqalar sistemasida va undan kengroq miqyosda ijtimoiy munosabatlar sistemasida egallaydigan alohida mavqeini belgilab beradigan ana shu shaxsiy hislatlarini namoyon qiladigan guruh shaklidagi o`sha faoliyatning alohida fazilatini tashkil etadi.

Shaxsni jamoada shakllantiradigan shaxslararo aloqlar, tashqaridan qaraganda, konkret faoliyatga xos munosbat yoki sub'ekt-sub'ekt munosabati qabilida yonma-yon mavjud bo`lgan sub'ekt-ob'ekt munosaoati shaklida yuzaga chiqadi.

Lekin bilvosita namoyon bo`lish momenti, fakti faqat konkret faoliyatning emas, balki munosabatning ham eng muhim tarkibiy qismi bo`lib qoladi. Chuqurroq yondashiladigan bo`lsa bevosita sub'ekt-sub'ekt aloqasi shunchaki o`zicha mavjud bo`lishdan ko`ra ko`proq allaqanday ob'ektlar (moddiy yoki hayoliy ob'ektlar) vositasida namoyon bo`lishi aniqlanadi. Bu individning boshqa individga munosabati faoliyat ob'ekti (sub'ekt – ob'ekt - sub'ekt) orqali namoyon bo`ladi, demakdir.

O`z navbatida individning konkret faoliyatiga oid to`g`ridan-to`g`ri ishi bo`lib ko`ringan narsa aslida bilvositalik hosilasi hisoblanadi. Buning ustiga shaxs uchun bilvosita ifodalanish bo`g`ini endilikda faoliyat ob'ekti ham emas, uning konkret mohiyati ham emas, balki faoliyatda birgalikda ishtirok etayogan boshqa bir kishiniig shaxsi hisoblanadiki, u bamisoli faoliyat ob'ektini yaxshiroq idrok etish, anglab olish, his qilish mumkin bo`lgan nurning aksini sindirib qaytaradigan uskuna sifatida xizmat qiladi. O`zimni bezovta qilayotgan savolga javob topish uchun men boshqa birovga murojaat qilaman.

Aytganlarniig hammasi shaxsni faoliyatda va munosabatda tarkib topadigan individlararo (sub'ekt - ob'ekt - sub'ektlararo va sub'ekt - sub'ekt - ob'ektlararo) munosabatlarning nisbatan, barqaror sistemasi sub'ekti sifatida anglab etish imkonini beradi.

3. Shaxs va individuallik.

Har bir kishining shaxsi uning individualligini vujudga keltiradigan hislatlar va fazilatlarning faqat unga xos birikuvidan tarkib topgandir. Individuallik - kishining o`ziga xosligini, uning boshqa odamlardan farqini aks ettiruvchi psixologik fazilatlar birikmasidir. Individuallik temperament va xarakter xususiyatlarda, odatlarda, ustun darajadagi qiziqishlarda, bilish jarayonlariga oid fazilatlar (idrok, xotira, tafakkur, tasavvur)da, qobiliyatlarda, faoliyatning shaxsga xos uslubda va hokazolarda namoyon bo`ladi. Zikr etilgan psixologik xususiyatlarning bir xildagi birikmasini o`zida mujassalashtirgan odam yo`q - inson shaxsi o`z individualligi jihatidan betakrordir.

«Individ» va «shaxs» tushunchalari bir-biriga o`xshash bo`lmagani singari, o`z navbatida, shaxs va individuallik ham birlikni tashkil qiladi. Lekin ular bir-biriga o`xshash emasdir. Kishining katta sonlarni «ichida» juda tez qo`sha olish va ko`paytirish kabi qobiliyati epchilligi kat'iyatliligi o`ychanligi, tirnoqlarini tishlash odati, bo`lar-bo`lmasga qo`laverishi va boshqa xislatlari uning individualligi belgisi sifatida namoyon bo`ladi, lekin bular birgina faoliyat va munosabatning ana shunday belgilarga ega bo`lgan individ kirgan guruh uchun muhim hisoblangan shakllarida mavjud bo`lmasligi mumkinligi vajidan ham uning shaxsiga beriladigan ta'rifga muqarrar tarzda kirmaydi. Agar individuallik belgilari shaxslararo munosabatlar sistemasida ifodalanmagan bo`lsa, u holda

individ shaxsiga baho berishda muhim ahamiyat kasb etmaydi va rivojlanish uchun shart-sharoitlarga ega bo`lolmaydi. Muayyan sotsial birlik uchun yetakchi faoliyatga ko`proq darajada «jalb qilingan» individual fazilatlargina shaxsning xususan o`ziga xos fazilatlari sifatida yuzaga chiqadi. Misol uchun epchillik va qat'iylik o`spirinning individualligi belgilari bo`lgan holda, jumladan, u sportda rayon birinchiligiga da'vogar komandaga ko`shilmagunga qadar, yoki uzoq joylarga turistik sayohat paytida u tezoqar va muzdek daryodan kechib o`tilishini ta'minlash vazifasini o`z zimmasiga olmagunga qadar uning shaxsini ta'riflaydigan belgi sifatida yuzaga chiqmasdan keldi. Kishining individual xususiyatlari ularga shaxs sifatida mazkur kishi sub'ekt hisoblangan shaxslararo munosabatlar sistemasida zarurat tug`ilguncha ma'lum bir vaqtga qadar «soqov»ligicha qolib ketadi. Shunday qilib, individuallik inson shaxsiga xos fazilatlarning faqat bitta jihati bo`lib hisoblanadi, xolos.

Aynan shu sababli ham pedagog uchun ahamiyatli bo`lgan o`quvchiga individual yondashishni amalga oshirish vazifasini ajratib ko`rsatish kerak. Bu esa o`quvchining differentsial-psixologik xususiyatlari (xotirasi, diqqat temperamenti tipi, u yoki bu qobiliyatlarining rivojlanganligi va hokazolar)ni hisobga olishni, ya'ni o`quvchining o`z tengdoshlaridan nimasi bilan farq qilishi va shu munosabat bilan tarbiyaviy ishni qanday tashkil etish kerakligini aniqlashni taqozo etadi. Shu bilan birga individual yondashuv o`quvchiga birmuncha umumiy, shaxsiy yondashuvning bir jihati ekanligini unutmaslik kerak. O`quvchiga shaxsiy yondoshish o`spirinning, yoxud yosh yigitcha, yo qizning katta yoshdagi kishilar bilan, o`qituvchilar va ota-onalar bilan, har ikkala jinsdagi o`z tengdoshlari bilan, birga o`qiydigan bolalar, ko`chadagi oshnolari va boshqalar bilan individlararo munosabatlar sistemasiga jalb etilishi shart-sharoitlari va holatlarini o`rganish asosida tarkib topadi. O`quvchilar bilan o`qituvchi o`rtasida yaxshi yo`lga qo`yilgan pedagogik munosabat jarayonidagina o`qituvchi u yoki bu bolaning sinf jamoasiga qanchalik «qo`shilib ketgani»ni, ular individlararo munosabatlar ierarxiyasida qanday o`rin egallashini, ularning u yoki bu tarzda ish tutishlariga sabab nimaligini, jamoaga jipslashib ketgan yoki unda umuman moslasha olmagan o`quvchi shaxsida qanday o`zgarishlar yuz berayotganini aniqlab oladi. O`quvchi shaxsiga nisbatan uning munosabatlari sistemasi sub'ekti sifatidagi yondashuv ham aynan ana shunday shart-sharoitlarda ro`y beradi. O`quvchining tafakkuri, irodasi, xotirasi, xis-tuyg`ularining individual xususiyatlarini hisobga olish bilangina cheklamasdan, balki individning jamoadagi va jamoaning esa uning shaxsidagi mavqeini aniqlashga yo`naltirilgan yondashuvgina insonning sotsial bog`lanishlar sistemasining shaxsda namoyon bo`lishi sifatidagi mohiyatini markschasiga anglab olishga mos keladigan shaxsiy yondashuv tarzida talqin kilinishi mumkin. Jamoa o`quv faoliyati va shuniigdek, o`quvchilar ishlab chiqarish brigadasida mehnat qilishda ishtirok etish, shaxsiy yondashuvni amalga oshirish uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratadi.

Agar pedagogika va psixologiyada individual yondashuv shaxsiy yondashuvdan ajratilgan bo`lsa, bu holda u bolaning individualligi xususiyatlari «kollektsiyasining to`planishi»ga olib keladiki, bunday «kollektsiyani to`plash» asosida qanday xulosalar chiqarish mumkinligi tegishli darajada anglanilmagan bo`ladi. Tarbiya sohasida shaxsiy yondashuvni mohirona ko`llana bilgan A. S. Makarenko shunday deb yozgan edi: «insonni o`rganishdi, bilib olishdi va uning irodasi - A, hissiyoti - B, tuyg`usi - V deb yozib ham qo`yishdi, lekin shundan keyin bu o`lchovlarni nima qilish kerakligini hech kim bilmaydi».

O`quvchining haqiqiy munosabatlar sistemasiga kiradigan shaxsi hamisha pedagogning diqqat markazida turishi kerak, o`quvchilarning ma'naviy dunyosini boyitish esa pedagogning doimiy vazifasi bo`lib qolishi zarur. «...Individning chinakam ma'naviy boyligi tamomila uning haqiqiy munosabatlari boyligiga bog`likdir...».

4. Individuallik bilan shaxsning tuzilishi o`rtasidagi o`zaro bog`liqlik.

«Shaxs» va «individuallik» tushunchalari qanchalik darajada birlikdan iborat bo`lganiga qaramay, bir-biriga mos kelmasligining o`zi ham shaxsning tuzilishini kishining individual-psixologik xislatlari va fazilatlaridan tarkib topadigan allaqanday shakl sifatida tasavvur qilish imkoniyatini bermaydi. «Shaxs» va «individuallik» tushunchalari (xuddi «individ» va «shaxs» tushunchalari singari) aynan bir-biriga o`xshaydi, deb tan olinadigan va shaxsga tabiatan ijtimoiy munosabatlar sub'ekti sifatida, individning sistemasi tarzidagi sotsial fazilat sifatida qaraladigan g`arb psixologiya fanining nomarksistik yo`nalishlarida shaxs bilan individuallikning strukturasi (ya'ni tuzilishi, tashkil topishi) bir-biriga tamomila mosligi tan olinadi. Bunday psixologik maktablar va yo`nalishlarning vakillari nndividuallikning tuzilishi aniq ta'riflab berilsa bas, bu kishining shaxsini to`laligicha o`z ichiga oladi va ta'riflab beradi, degan nuqtai nazarni ilgari surishadi. Jumladan, psixologlar maxsus shaxsiy so`roqnomalarni qo`llashadi (bular sinaluvchining o`ziga, o`zining individual-shaxsiy fazilatlariga o`zi baho berishini taklif etadigan savollardan tashkil topgan o`ziga xos anketalardir). Ulardagi javoblar mazmunini tahlil qilgan va so`roq natijalarini matematik amallar vositasida qayta ishlagan holda tadqiqotchi biron bir xislatning (tipning) ana shu xislatga mos keladigan darajasida namoyon bo`lishining sonlar bilan ifodalanadigan belgisiga ega bo`ladi. Lekin bunday metodlar yordamida nari borsa kishining individualligi tavsiflanishini tasavvur qilish mumkin. Biroq kishi jalb etilgan ijtimoiy munosabatlarning «yaxlit birligida» shaxsni har tomonlama tavsiflab bo`lmaydi.

Haqiqatda esa, agar shaxs hamisha o`zining konkret sotsial muhiti bilan «haqiqiy munosabatlari» sub'ekti sifatida namoyon bo`lishi inobatga olinadigan bo`lsa, «shaxsning tuzilishiga konkret sotsial guruhlar va jamoalar faoliyati va munosabatida tarkib topadigan ana shu «haqiqiy munosabatlar» va aloqalar muqarrar tarzda kiritilishi shart. So`roqnomalar esa kishining o`ziga hali shakllanib bo`lmagan sotsial muhit sharoitidagi, «umuman mavhum muhitda»gi holati bo`yicha beradigan bahosiga mo`ljallangandir. Shaxsning individlararo real munosabatlaridan iborat jihatini so`roqnomalarda aks ettirib va aniqlab bo`lmaydi. Aytib o`tilganidek, so`roqnomalar shaxsning tuzilishiga umumiy ta'rif berish huquqiga da'vogarlik qilar ekan, aslida individuallikni tavsiflashga, individuallik hislatlarining uning bir asosiy belgilari (omillari) atrofida tashkil bo`lish printsiplarini topishga urinishlar bilan cheklanadi. Majoziy ma'noda aytganda, individual-psixologik hislatlarning keng «kollektsiyasi» yorliqlar taqiladigan («shizotimiya - siklotimiya», «introversiya - ekstroversiya», «hissiyotlilik - vazminlik» va hokazo) bir qancha «vitrinalarda» joylashtiriladi.

Jumladan, psixologiyada individuallikning ko`pgina hislatlari - moslashuvchanlik, tajovuzkorlik, mayillik darajasi, tashvishlanish va shular kabilar aniqlangandir. Bular jamlanib individning o`ziga xosligini ko`rsatadi. Bu psixologik hodisalar o`z mohiyatiga ko`ra o`zaro munosabatda bo`lib, oshkora yoki oshkora bo`lmagan holda allaqanday muhitning mavjudligini taqozo etadi. Shaxs aynan ana shunday muhitga nisbatan moslashuvchanlik, tajovuzkorlik tashvishlanish va hakazolarni namoyon qiladi. Bordiyu, agar odamlarning individual fazilatlari bu tadqiqotlarda izchil, o`zgaruvchan, rang-barang

mazmunli tarzda namoyon bo`lsa, u holda sotsial muhit o`zgarmaydigan, shakllanmagan (amorf), mazmunsiz, «umuman muhit» sifatida tasavvur qilinadi. Sotsial muhitning «shaxs - muhit»dan iborat o`zaro munosabatiga qiyosan an'ana bo`lib qolgan mexanistik tarzda talqin qilish; muhitni yo faol shaxsning o`z kuch-g`ayratlarini ishga soladigan maydon sifatida, yoxud guruh tarzida shaxsga tazyiq ko`rsatuvchi kuch sifatida izohdaydi. Shaxsning va uni qurshab turgan sotsial muhitning o`zaro birgalikdagi harakatning faol xususiyati to`g`risidagi tasavvur g`arb fanida shaxs psixologiyasining nazariy qismlari to`qimalariga va na shaxsni tadqiq etishning psixologik metodlariga kiritilmagandir.

Lekin sotsial muhitga nisbatan «umuman muhitga» bo`lgan kabi yondashuv shaxs yashaydigan, harakat qiladigan va rivojlanadigan hamda sotsial jihatdan bir-biriga bog`liq o`zaro munosabatlar sistemasiga dahli bo`lmagan umuman shaxs haqidagi nazariy tasavvurni keltirib chiqardi. g`arbning an'anaviy shaxs psixologiyasi qurol qilib olgan barcha shaxsning so`roqnomalar o`sha shakllanmagan (amorf) sotsial muhitga qarab tuzilgan bo`ladi.

Shu bilan birga konkret sotsial guruh sharoitlarida individual-psixologik fazilatlar shaxsning unga hamisha ham mos kelavermaydigan fe'l-atvori shaklida mavjud bo`ladi. Kishining individualligi birgalikdagi konkret faoliyat va munosabatning guruh rivojlanishining muayyan darajasi uchun xarakterli bo`lgan sharoitlarida jiddiy ravishda qayta o`zgaradi. Bunday sharoitlarda individual psixologik xususiyat shaxsiy fazilat, shaxslararo munosabatning jihati sifatida o`zgaradi. Bu gipoteza hozirgi paytda tekshirilgan va qator konkret ilmiy ishlarda tasdiqlangan.

Bir tadkiqotning vazifasi, jumladan, yuqorida ko`rsatilgan gipotezaning shaxsning hislati sifatidagi gapga ko`nish (moslashuvchanlik) odatiga moslab, shuningdek bunda qarama-qarshi hodisaga guruhdagi shaxslararo munosabatlarning hodisasi sifatida jamoaning o`zini o`zi belgilashiga moslab tekshirishdan iborat qilib qo`yilgan edi. Gipoteza tajribaning quyidagicha tartibida konkretlashtiriladi. Real tarzda mavjud bo`lgan bir qancha guruhlar guruh tarzida rivojlanishning hali uyushmagan guruhdan tortib to jamoaga qadar darajalar ierarxiyasini hosil qiladi. Har bir guruhda sinaluvchilarning uchdan bir qismiga yaqini, tajriba ma'lumotlariga qaraganda, guruhning uyushganligi darajasiga bog`liq bo`lmagan holda ahamiyatsiz vaziyatda moslashuvchanlikka mayillik ko`rsatishdi. Shaxsiy so`rovnomalarning ma'lumotlari ham ana shundan dalolat beradi. Hamma gap sinaluvchilar rivojlanish darajasi har xil bo`lgan guruhlarda jamoaning o`zini-o`zi belgilash hodisasini aniqlash maqsadida o`tkaziladigan tajriba sharoitida o`zlarini qanday tutishlarida edi. Tajriba ma'lumotlari rivojlanish darajasi har xil bo`lgan va o`zlariga nisbatan uncha ahamiyatsiz ta'sir o`tkazilganda guruh tarzidagi tazyiqqa ko`nadi degan xulosaga kelingan guruhlarga kiradigan nidividlar jamoaning o`zini-o`zi belgilash kabi xususiyati borligini ya'ni jamoa qadriyatlarni himoya qila borib, guruh tarzidagi tazyiqqa yon bermaslik kabi qobiliyati mavjudligini ko`rsatishini tasdiqladi. Boshqacha so`z bilan aytganda, gapga ko`nish kabi individual-psixologik fazilat jamoa a'zosi sifatida individning shaxsida tubdan o`zgarib qolishi mumkin.

Boshqa tadqiqotlarda kishi individualligining ekstrapunitivligi (o`zining xususiy muvaffaqiyatsizliklari uchun aybni boshqa odamlarga ag`darish mayli) kabi belgisi yaxshi jamoa a'zosining fe'l-atvoriga xos bo`lish-bo`lmasligi, ya'ni bu uning shaxsida muqarrar namoyon bo`lish-bo`lmasligi aniqlandi. Oldiniga maxsus shaxs testi yordamida ekstrapunitivligi yaqqol sezilib turgan sportchilar (sportning o`ynaladigan turlariga oid komandalarning a'zolari orasida ular juda ham ko`pchilik edi) guruhi aniqlandi. Individuallikning ushbu belgisi ular uchun yetakchi hisoblanmish sport faoliyatida

ularning shaxsiga oid fazilatlarni aniq ko`rsatib beradigandek tuyuladi. Haqiqatda esa sportchilarning yaxshi uyushgan guruhlarida (xaqikiy jamoalarda), shaxsiy test ma'lumotlariga binoan ekstrapunitiv shaxslar o`z komandasi a'zolariga nisbatan jamoaning aynan bir xil bo`lib qolishiga qaratilgan munosabatda bo`la boshlashibdi, ya'ni shaxsning ekstrapunitiv belgisiga tamomila qarama-qarshi fazilatni namoyon qilishibdi.

Shunday qilib, inson shaxsining tuzilishi individuallikning tuzilishiga qaraganda keng ekanligi shubhasizdir. Shu boisdan bunga, birinchi navbatda, uning individualligini ko`rsatadigan va faqat ehtirosda, ichki qiyofada, qobiliyatlarda va hokazolarda ancha keng ifodalanadigan fazilatlari va umumiy tuzilishinigina emas, balki shaxsning rivojlanish darajasi har xil bo`lgan guruhlarda, ana shu guruh uchun yetakchi hisoblangan faoliyat orqali ifodalanadigan individlararo munosabatlarda o`zini namoyon etishini ham qo`shish shart. Individuallik tarzidagi shaxsni tadqiq etish natijasida olingan ma'lumotlar individlararo munosabatlar sub'ekti sifatidagi shaxsning ta'rifiga bevosita ko`chirilishi mumkin emas: individual-tipologik xususiyat shaxs yashayotgan va shakllanayotgan birlikning rivojlanishiga va individlararo munosabatlarning bilvosita ifodasi hisoblangan faoliyatning xarakteri, qadriyatlari va maqsadlariga bog`liq tarzda jiddiy ravishda turli xil ko`rinishda namoyon bo`ladi.

5. Shaxsning tuzilishida biologik va ijtimoiy omillar.

Inson shaxsi tuzilishida biologik (tabiiy) va ijtimoiy omillarning o`zaro nisbati masalasi hozirgi zamon psixologiyasidagi eng murakkab va munozarali masalalardan biridir.

Nomarksistik psixologiyada shaxsda ikkita omil - biologik va ijtimoiy omillar ta'siri ostida shakllangan ikkita asosiy kichik struktura borligini alohida ta'kidlaydigan nazariya sezilarli o`rin egallaydi. Inson shaxsining o`zi «endopsixik» va «ekzopsixik» tuzilishga bo`linadi, degan fikr ham ilgari surildi. Shaxs tuzilishining kichik strukturasi sifatidagi «endopsixika» bamisoli kishining nerv-psixik tuzilishiga o`xshash bo`lgan inson shaxsining ichki mexanizmi kabi psixik qismlar va funktsiyalarning o`zaro ichki bog`liqligini ifoda etadi. «Ekzopsixika»ning tashqi muhitga munosabati bilan, ya'ni shaxs qanday bo`lmasin, baribir munosabatga kirishishi mumkin bo`lgan va shaxsga qarama-qarshi turadigan tuzilishlarning barchasiga nisbatan munosabati bilan belgilanadi.

«Endopsixika» moyillik, xotira, tafakkur va hayol xususiyatlari, irodaviy zo`r berish, tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik kabi boshqa hislatlarni, «ekzopsixika» esa kishi munosabatlari sistemasini va uning tajribasini, ya'ni qiziqishlarini, moyilliklarini, ideallarini, ustun darajadagi his-tuyg`ularini, shakllangan bilimlari va boshqa belgilarini o`z ichiga oladi. Tabiiy asosdagi «endopsixika», ijtimoiy omil bilan belgilanadigan «ekzopsixika»ga qarama-qarshi o`laroq, biologik jihat bilan bog`liqdir. Shaxsning seromilligi to`g`risida chet ellarda mavjud bo`lgan zamonaviy nazariyalarda shaxsning tuzilishini pirovard natijada yana o`sha asosiy hisoblanmish biologik va ijtimoiy negizlarga bog`liq qilib qo`yiladi.

Ikki omilning yuqorida bayon qilingan kontseptsiyasiga nisbatan qanday yondashish kerak? Tarixiy jarayonning ayni bir vaqtda ham mahsuli, ham sub'ekti bo`lgan inson shaxsi ijtimoiy tuzilish bilan yonma-yon joylashgan va teng xuquqqa ega bo`lgan biologik tuzilishni saqlab qola olmasdi. Individ rivojlanishining tabiiy shart-sharoitlari, uning jismiy tuzilishi, nerv va ichki sekretsiya bezlari sistemasi, jismoniy tuzilishidagi afzalliklari va nuqsonlari uning individual-psixologik fazilatlari shakllanishiga qat'iy ta'sir ko`rsatadi. Lekin biologik xususiyat kishi shaxsning tarkibiga singib, ijtimoiy omilga

aylanib qoladi va keyinchalik ijtimoiy shaklda (psixologik jihatdan) mavjud bo`ladi. Jumladan, miya patologiyasi individda, uning tuzilishida uning biologik jihatlar bilan bog`liq, lekin shaxsiy belgilari hisoblanmish individual psixologik xislatlarni keltirib chiqaradi. Ular ijtimoiy sababiyatlarga (determinatsiyaga) ko`ra shaxsning konkret fazilatlariga aylanib qolishi ham, aylanmasligi ham mumkin. Tabiiy, tarkibiy fazilatlar va hislatlar shaxs tuzilishida uning qismlari bilan ijtimoiy jihatdan bog`langan tarzda yuzaga chiqadi.

Inson shaxsning individualligida uning tabiiy, biologik tuzilishi o`zining izini qoldiradi, albatta. Gap shaxsning tuzilishida biologik va ijtimoiy omillarni hisobga olish kerakmi, yo yo`kligi haqida emas (ularni e'tiborga olish shart, albatta), balki ular o`rtasidagi o`zaro munosabatlarni qanday tushunish kerakligi haqidadir. Ikkita omil nazariyasi ijtimoiy va biologik omillarni, muhit va biologik tuzilishi, «ekzopsixika»ni beixtiyor ravishda bir-biriga qarama-qarshi qo`yadi. Haqiqatda esa bunday tashqi, o`zidan-o`zi bo`ladigan qarama-qarshi qo`yish samarasizdir va shaxsning tuzilishini anglab olish uchun hech bir naf keltirmaydi. Lekin shaxsning shakllanishi va tuzilishidagi tabiiylik va ijtimoiylik masalasiga boshqacha yondashish ham mumkin.

Buni bo`yi 80-130 santimetrdan oshmaydigan odamlar shaxsiga xos belgilarning shakllanishini o`rganishga bag`ishlangan tadqiqot misolida ko`rib chiqamiz. Bo`yining pastligidan boshqa biron-bir patologik cheklanishlari bo`lmagan bu odamlar individualligining tuzilishida anchagina o`xshash jihatdan mavjudligi aniqlandi. Ularda o`ziga xos bachkana yumor, mulohazasiz nekbinlik, samimiylik, anchagina hissiy zo`riqishni taqozo etadigan vaziyatlarga yuksak sabr-bardoshlik, biron-bir darajada iymanib o`tirmaslik va shu kabilar kuzatildi. Shaxsning bu xislatlari pakana kishilarning tabiiy xususiyatlari natijasi hisoblangan holda, yo`q deganda, pakanalar bilan ularning tengdoshlari o`rtasida bo`ylarining o`sishidagi farq bilinib qolgan paytdan boshlab, pakanalar mavjud bo`lgan sotsial vaziyat sharoitlaridagina paydo bo`lishi va shakllanishi mumkinligi uchun ham ularni na «endopsixika»ga, na «ekzopsixika»ga qo`shib bo`lmaydi. Aynan tevarak-atrofdagilar pakanalarga nisbatan o`yinchoq sifatida munosabatda bo`lib, ular ham boshqqalar singari sezishlari va fikr yuritishlari mumkinligini ko`rib xayratlanisharkan, ularga boshqa odamlarga qaraganda o`zgacha munosabatda bo`lishlari sababli pakanalarda individuallikning o`ziga xos tuzilishi yuzaga keladi va qayd etiladi. Agar pakana kishining bo`yi xuddi shunaqa odamlar orasida shakllanadi, deb bir daqiqa tasavvur etiladigan bo`lsa, u holda unda ham shaxsning atrofidagi boshka odamlardagi kabi tamomila boshqa belgilari shakllana boshlashi mutlaqo ravshan bo`lib qoladi.

Tabiiy, tarkibiy jihatlar va belgilar kishi shaxsining individualligi tuzilishida uning ijtimoiy jihatdan taqozo etilgan qismlari sifatida mavjud bo`ladi. Tabiiy (anatomik, fiziologik va boshqa fazilatlar) va ijtimoiy xislatlar birlikni tashkil toptiradi va shaxsning mustaqil kichik tuzilishi sifatida bir-biriga o`zidan-o`zi qarama-qarshi qo`yilishi mumkin emas.

Binobarin, individuallikning tuzilishida tabiiy, biologik omillarning ham ijtimoiy omillarning ham rolini tan olgan holda, kishi shaxsidagi biologik kichik tuzilishni faqat shunga asoslanib izlash mumkin emas. Negaki, unda ular o`zgargan holda allaqachon mavjuddir.

6. Shaxs tuzilishining uch tarkibiy qismi

Shunday qilib, shaxsning tuzilishiga, birinchi navbatda, uning individualligining kishi ehtirosining, ichki kiyofasining, qobiliyatlarining tuzilishida mujassamlashgan, shaxs psixologiyasini anglab etish uchun zarur, lekin yetarli bo`lmagan sistemali tarzda tuzilishi kiradi. Shu tariqa shaxs tuzilishining birinchi tarkibiy qismi - uning individ ichkarisidagi (interindivid) kichik sistema alohida namoyon bo`ladi.

Shaxs o`zi birikib ketgan jamiyat bilan, guruhlar bilan haqiqiy munosabatlar sistemasida sub'ekt bo`lib, individning organik gavdasi ichidagi allaqanday yopiq bo`shliqdagina joylashgan bo`lishi mumkin emas, balki u o`zini individlarar munosabatlar bo`shlig`ida namoyon qiladi. Individ o`z holicha emas, balki shaxslararo o`zaro birgalikdagi harakatning hech bo`lmaganda ikkita individ (amalda birlik, guruh, jamoa) jalb etiladigan jarayonlari ana shu o`zaro birgalikdagi harakat ishtirokchilaridan har birining shaxsi namoyon bo`lishi sifatida talqin qilinishi mumkin.

Bunda shaxs o`zining «haqiqiy munosabatlari» (K.Marks sistemasida bamisoli o`zining individning jismiy borlig`idan farq qiladigan alohida borligiga ega bo`ladi. Markscha falsafa nuqtai nazaridan qaraganda, shaxsning real tarzdagi mavjudligi individlarning faoliyati orqali ifoda etiladigan konkret o`zaro munosabatlari majmuida namoyon bo`ladi. Shuning uchun ham shaxs tuzilishining ta'riflarnda birini shaxsning interindivid kichik sistemasini tashkil etiladigan individning organik tarzdagi gavdasidan tashqaridagi «bo`shliqdan» qidirish kerak.

Shunisi diqqatga sazovorki, shaxsning tadkiq etilishini individlararo «bo`shliqqa» ko`chirib, yuqorida bayon etilgan jamoaga taalluqli hodisalar - jamoaning o`zini-o`zi belgilashi, jamoaning aynan bir xil bo`lib ketishi va hokozolar nimalardan iboratligi haqidagi savolga javob olamiz. Xususan, bular o`zi nima: guruh tarzidagi ko`rinishlarmi, yoki shaxsiy ko`rinishlarmi. Shaxsning ta'rifi va mavjudligining o`zi individning «terisi ichida» qolmasdan, balki individlararo «bo`shliqqa» olib chiqilishi bilanoq «individ» va «shaxs» (yoxud shaxsiy, yo guruh tarzidagi) tushunchalarni aynan bir-biriga o`xshatish natijasida hosil bo`ladigan soxta alternativaga barham berilgan bo`ladi. Shaxsni fazilatlarning namoyon bo`lishi guruh tarzidagi o`zaro munosabatlarning namoyon bo`lishi sifatida, guruh tarzidagi namoyon bo`lish esa shaxsning o`zini namoyon qilishining konkret shakli sifatida yuzaga chiqadi.

Intraindivid va interindivid kichik sistemalari shaxsning o`zini namoyon qilishining barcha jihatlarini aks ettira olmaydi. Shaxsning tuzilishini tarkib toptiradigan uchinchi bir qismni - metaindivid (individning ustki ko`rinishi) kichik tuzilishini ham alohida ko`rsatish imkoniyati mavjuddir. Bunda shaxs individning organik gavdasidan tashqariga chiqkarilib qolmasdan, balki uning boshqa individlar bilan «shu yyerda va endilikda» mavjud bo`lgan aloqalaridan ham tashqarida joylashtiriladi. Bunday holda sub'ektkning o`z faoliyati yordamida bilib yo bilmasdan boshqa kishilarga o`tkazadlgan «jamg`armalari» psixologning diqqat markazida bo`ladi. Bu bilan individ shaxs sifatida o`zi bilan u yoki bu darajada bog`liq odamlarning aqliy va hissiy-irodaviy jihatlarida faol tarzda hosil qilinadigan tub o`zgarishlar sub'ekti bo`lib xizmat qiladi. Gap sub'ekning boshqa individlarga ta'sir o`tkazishi chog`idagina emas, balki bevosita bir lahzalik o`zaro birgalikda harakat qilish chegaralaridan tashqarida ham o`zligini boshqalarda o`ziga xos davom ettirishdek faol jarayon haqida bormoqda. Sub'ektning o`zligini boshqa individda davom etgirishdan, boshqa kishilarga o`tkazilgan «jamg`armalar» hisobiga o`zining shaxs sifatida boshqalar «ko`ngildagidek» o`rnashib qolishini ta'minlashdan iborat bo`lgan bu jarayon personalizatsiya (personajlashtirish) degan nom olgandir.

Personajlashtirish hodisasi insoniyatni hamisha to`lqinlantirib kelgan shaxsning insoniylik masalasini izohlab berish imkoniyatini tug`diradi. Agar inson shaxsi uning gavda sifatidagi sub'ektda mujassamlashganligi bilan cheklanib qolmay, balki boshqa odamlarda davom etadigan bo`lsa, u holda individ o`lishi bilan shaxs ham batamom «o`lmaydi». A. S. Pushkinning «Oy balqigan dunyoda biror banda tirikki,... hali zamon butun vujudim bilan o`lib ketmasmen», degan so`zlarini bir eslab ko`ring-a. Shaxsning ifodachisi sifatidagi individ hayotdan ko`z yumadi, lekin u boshqa odamlarda individning hayolda mavjudligi bilan uning moddiy jihatdan yo`q bo`lib ketganligi o`rtasidagi uzilishning fojialiligi izohlanishi mumkin bo`lgan qayg`u-hasratlarga olib kelgan holda personajlashgan tarzda davom etaveradi. «O`limidan keyin ham u bizning oramizda qoladi», degan so`zlarda hech qanday mutasavvuf narsa, hech qanday sof majoziy ma'no yashiringan emas - bu yaxlit psixologik tuzilishning bo`g`inlaridan birining saqlab qolingani holda uning buzib tashlanishi - faktini qayd qilish demakdir.

Agar biz mazkur individ o`zining real konkret faoliyati va munosabati orqali boshqa individlarda sodir qilgan hamda boshqalarda uning ko`ngildagidek iz qoldiradigan - shaxsga xoslikni takrorlaydigan darajada jiddiy o`zgarishlarni qayd eta olgan bo`lsak, u holda biz uning aynan shaxs sifatidagi ancha to`la ta'rifga ega bo`lur edik. Individ shaxsning tarixdagi roliga oid markscha kontseptsiyada tasvirlab berilgan muayyan ijtimoiy-tarixiy vaziyatdagi tarixiy shaxs darajasiga bordi-yu, bu o`zgarishlar faqat zamondoshlarining emas, balki pirovard natijada ijtimoiy amaliyotga jamg`arma hisoblanadigan ana shu shaxsiy jamg`armalarni etarlicha aniq chamalab ko`rish imkoniyatiga ega bo`lgan tarixning ham bahosini olgan holda odamlarning etarli darajada keng doirasiga ta'sir ko`rsatgan taqdirdagina ko`tarilishi mumkin.

Agar haqiqiy shaxsni majoziy ma'noda faoliyat orqali o`zligini namoyon qilish sharoitlarida ushbu shaxs bilan bog`liq odamlarni o`zgartirib yuboradigan allaqanday kuchli Radiatsiya manbai deb (ma'lumki, radiatsiya foydali ham, zararli ham bo`lishi mumkin, davolashi ham, dardmand qilib ko`yishi ham, tarakqiyotni jadallashtirishi ham, sekinlatib qo`yishi turli xildagi yangi alomatlarning paydo bo`lishiga olib kelishi ham mumkin va hokazo) talqin qilish mumkin bo`lsa, u holda shaxsiy ta'rifi kambag`al bo`lgan individni na foydali va na zararli biron-bir o`zgarish qilmasdan har qanday qalin muhitga ham kirib bora oladigan neytron zarrachaga o`xshatish mumkin. «Shaxsning qiyofasizligi» boshqa odamlar uch ahamiyati bo`lmagan individning, ularni «na isitmaydigan va na sovutmaydigan», borligi yoki yo`qligi ularning hayotini xulq-atvorini hech qanday tarzda o`zgartira olmaydigan, na boyitmaydigan va na qashshoqlashtira olmaydigan, bu bilan ko`p jihatdan uni shaxssiz qilib ko`yadigan kishining ta'rifidir.

Personajlashtirish hodisasi tajriba yo`li bilan aniqlanishi mumkin. Bu ko`plab tadqiqotlarda isbotlandi.

Masalan, o`quvchiga o`ziga notanish bo`lgan tengdoshining fotosuratini ko`rish imkoniyatini berib, uning, jumladan, aqliy, irodaviy, ma'naviy va boshqa hislatlariga baho berish taklif etiladi. Suratga tushirilgan noma'lum kishi bo`lib, uning yuzlaridagi belgilar xulosalar chiqarish uchun yetarli darajadagi axborotga boy emasligi vajidan sinaluvchilar beradigan baholar ham tugal va aniq bo`lmaydi. Uni aqlli deb ham hisoblashmaydi, ayni paytda ahmoq deb ham tasdiqlashmaydi va hokazo. Tajribaning ikkinchi marta takrorlanishida boshqa bir o`quvchining aynan shunday fotosuri takdim etiladi. Lekin endi bunda shu pedagogning ovozi yozilgan fonogrammadan eshittiriladi. Bunda u nimani gapirayotgani sinaluvchi tomonidan amalda anglab olinmaydi, buning ustiga uning aytganlari bilan portretni baholash yuzasidan berilgan topshiriq o`rtasida hech qanday

bog`lanish yo`q. Shunday bo`lsa ham bir pedagogning ovozi baholarning keskin farq qilishiga olib keladi — notanish kishi axmoq, johil, ayyor va hokazo, yoki aksincha aqlli, mehribon, oq ko`ngil va hokazo tarzda baholansa, boshqasining ovozi baholarning birinchi tajribadagi kabi aralash-quralash bo`lib kolishiga olib keladi. Aftidan, birinchi pedagog o`zini shaxs sifatida ko`proq darajada namoyon etgan, o`z o`quvchilariga personajlashgan bo`lsa kerak.

Shunday qilib, inson shaxsining tuzilishi uchta tarkibiy qismdan, uchta kichik sistemadan iboratdir: shaxsning individualligi, uning shaxslararo munosabatlar sistemasida va boshqa odamlarda gavdalanganligi hamda shaxsning o`zi kelib chiqishiga ko`ra individlararo, ijtimoiy aloqalar va munosabatlar sub'ekti sifatida mavjud bo`lishiga barcha, uchala jihatning birligida ta'riflangan bo`lishi shart.

Shaxsni uning barcha uchala kichik tuzilishi jihatidan tahlil etishning birligini uning obro`-e'tiborliligi kabi muhim ta'rifi misolida ko`rib chiqamiz.

Obro`-e'tibor individlararo munosabatlar sistemasida tarkib topadi va guruhning rivojlanish darajasiga bog`liq holda bir xil jamoalarda qat'iy avtoritarizm, kuchlining huquqi tan olinishi sifatida afzalligiga ko`ra «xokimiyat obro`-e'tibori» sifatida namoyon bo`lsa, boshqalarida, ya'ni yuksak darajada uyushgan guruhlarda esa «obro`-e'tiborning» demokratik «xokimiyati» sifatida yuzaga chiqadi. Bunda shaxsiy xususiyatlar guruhga xos xususiyat, guruhning xususiyatlari esa shaxsga xos xususiyatlar sifatida (shaxsning interindivid kichik sistemasi) xizmat qiladi. Shaxsning metaindivid kichik sistemasi doirasidagi obro`-e'tiborlilik-bu individlarning ahamiyatga molik holatlarda o`zlari uchun qarorlar qabul qila olish huquqining boshqalar tomonidan tan olinishi, u o`z faoliyati bilan ko`shgan hissa - shaxsga tegishli faoliyatlari natijasidir. Yaxshi rivojlanmagan guruhlarda bu uning a'zolari moslashuvchanligi natijasi bo`lsa, jamoa tusidagi guruhlarda jamoaning o`zini o`zi belgilashi samarasi hisoblanadi. Shunday qilib, jamoadagi obro`-e'tiborlilik - bu sub'ektning avvalo boshqalarda (ba'zida u o`z obro`-e'tiborining kay darajada ekanligini bilmasligi ham mumkin) va faqat shu munosabat bilan sub'ektning o`zida yuksak darajada gavdalanganligi demakdir. Nihoyat, shaxsning individ ichidagi «bo`shlig`i»da - sub'ektning psixologik fazilatlari kompleksidir: birinchi holda o`zboshimchaligi, kattiqqo`lligi, o`ziga ortiqcha bino qo`yishi, tanqidni yoqtirmasligi bo`lsa, boshqa hollarda - printsipialligi, behad aqlliligi, xayrixohligi, me'yorida talabchanligi (shaxsning interaindivid kichik sistemasi) va hokazolardir.

Shaxsning metaindivid kichik sistemasi kishining eng muhim ma'naviy ehtiyojlaridan biri - shaxs darajasiga ko`tarilish ehtiyojini, ya'ni o`z faoliyati bilan boshqa odamlarning aqliy va hissiy jabhalarada ular uchun ahamiyatga ega bo`lgan o`zgarishlar yasashini boshqalardan ko`proq darajada ifoda etadi. Bunday ehtiyoj sub'ekt tomonidan anglanilgan yoki anglanilmagan bo`lishi mumkin, bir kishida u ancha tezroq, boshqa birovida esa sekinroq bo`lishi, uning ro`yobga chiqarilishi boshqa odamlar uchun ijobiy yoki salbiy oqibatlar keltirishi mumkin, nihoyat, bir kishida bu ehtiyojlarni qondirish uchun vositalar mavjud bo`lishi (yuksak darajada bilimdonligi, «xud hissiy olamining boyligi, yoxud turli xildagi ko`plab malakalarga egaligi, yoxud behad mardligi va qat'iyligi, yoxud ana shu fazilatlarning hajmi evaziga) mumkin, boshqasida esa bunday vositalar ancha cheklangan bo`ladi.

Individning shaxs darajasiga ko`tarilish ehtiyoji konkret-tarixiy shaklda mavjud bo`lib, sinfiy mazmunga egadir. Ijtimoiy formatsiyalarda bu ehtiyoj faqat hukmron sinflarning vakillari tomonidan batamom qondirilgan bo`lishi mumkin edi va mehnatkashlarning bu kabi ehtiyoji barcha usullar bilan tiyib qo`yilardi.

Korporativ tusdagi guruhlar har bir kishi depersonalizatsiyalash hisobiga, boshqa barcha odamlardagi shaxs darajasiga ko`tarilish ehtiyoji va qobiliyatlarini tiyib qo`yish evaziga «shaxs» bo`lib etishishga intiladi. Tajriba yo`li bilan o`tkazilgan tadqiqotlar shaxs darajasiga ko`tarilish ehtiyojining qondirilishi personajlashgan, boshqa kishilarda gavdalangan bo`lish uchun qulay shart-sharoitlar rivojlanishining yuksak darajasiga erishgan guruh sifatidagi jamoada yaratilishini ko`rsatadi.

Jamiyatda yashayotgan kishida ta'lim va tarbiya to`g`ri yo`lga qo`yilgan taqdirda ijtimoiy foydali faoliyatda shaxs darajasiga ko`tarilish extiyojining shakllanishi va qondirilishi uchun zarur barcha shart-sharoitlar tarkib topadi. O`quvchining shaxsini anglab etish uchun pedagog o`kuvchini sinf va maktab tarkibida bekinib yotgan individual fazilatlarning «zarrachalari»ni qat'iyan biriktirishda hosil bo`lgan «molekula» sifatida emas, balki uning tengdoshlari bilan ota-onalar va o`qituvchilar bilan haqiqiy munosabatlar sistemasida o`rganishi kerak. O`quvchi kirgan, u harakat kiladigan va munosabatga kirishadigan boshqa odamlarning aqliy va hissiy jabhalarini o`zlashtirgan holda «hissalar» qo`shadigan va qabul qiladigan hamda o`z navbatida ulardan «hissalar» qabul qilgan holda o`zini ham o`zgartiradigan guruhni o`rganmay va anglamay turib, uning shaxsini o`rgana olishi va anglab etishi amrimaholdir. Shaxsning faolligi va uning ijtimoiy jihatdan ahamiyatga molik yo`naltirilganligi xususiyati masalalari o`qituvchining diqqat markazida bo`lishi kerak.

Adabiyotlar

Marks K. Feyerbax to`g`risidagn tezislar.- Marks K. va Engels F. Uch tomlik tanlangan asarlar, 1-tom. T., O`zbekitson, 1980.

Ананев Б. Г. Избранные психологические труды. М., Педагогика, 1980, 1-том.

Абулханова-Славская К. А. Деятелность и психология личности М.,Наука, 1980.

Бодалев А. А. Личность и общение. М., Педагогика, 1983.

Божович Л. И. Личность и ее формирование в детском возрасте. М., Просвещение, 1968.

Кон И. С. В поисках себя: личность и самосознанне. М., Политиздат,1984.

Леонтев А.Н. Деятелность. Сознание. Личность. М, Политаздат, 1982.

Петровский А. В. Личность. Деятелность. Коллектив М., Политиздат, 1982.

Рубинштейн С. Л. Проблемы общей психологии. М., Педагогика, 1973, 241-385-betlar.

Узнадзе Д. Н. Эксперименталные основы психологии установки. В книге: Узнадзе Д. Н. Психологические исследования. М., Наука, 1966. 135- 327-betlar.

Психология личности. Тексты. М, MDU nashriyoti, 1982. Кон И. С, Открытие «Я» М., Политиздат, 1978.

Михайлов Ф. Т. Загадка человеческого Я- 2-нашри. М., Политиздат. 1976.

Петровский А. В. Популярные беседы о психологии.2-nashri. М, Pedagogika, 1983.

20-ma'ruza. Shaxsning faolligi va yo`naltirilganligi

Reja:

1. Shaxsning faolligi va uning hayotiy pozitsiyasi
2. Shaxs va uning faolligi to`g`risidagi g`arb nazariyalari

3. Shaxsning yo`naltirilganligi
4. Qiziqishlar
5. Shaxsning e'tiqodi va dunyoqarashi
6. Shaxsning yo`l-yo`riqlari

1. Shaxsning faolligi va uning hayotiy pozitsiyasi.

Kishining tevarak-atrofda munosabat, birgalikdagi faoliyat va ijodiy ish jarayonida namoyon bo`ladigan ijtimoiy ahamiyatga molik o`zgarishlar qilish layoqati shaxsning faolligi sifatida tushuniladi. Shaxs faolligining ancha umumiy tarzdagi, birikma holidagi ta'rifi uning g`oyaviy printsipialligida, o`z nuqtai nazarini izchil himoya qila borishida, so`zi bilan ishining birligida ifodalanadigan faol hayotiy pozitsiyasini bildiradi. Jamiyatda faol hayotiy pozitsiya ijtimoiy burchga nisbatan ongli munosabatda bo`lishi, grajdanlikni jamoachilikni, faoliyatga nisbatan ijodiy munosabatda bo`lishni, ilmiy dunyoqarashga tayanadigan e'tiqodni, ijtimoiy-ahloqiy qoidalarning buzilishiga murosasizlikni taqozo etadi.

Ijtimoiy foydali faoliyatda me'yoridan ortiqcha deb atalmish faollik kishilarga xos faol hayotiy pozitsiyada turishning eng muhim ko`rinishlaridan biri hisoblanadi. Me'yoridan ortiqcha faollik - shaxs faolligining hali birinchi shanbalik uchun va keyinchalik mehnat zarbdorlari uchun, staxanovchilik harakati, mehnat brigadalari va shu kabilarga xos holda namoyon bo`lishining jamiyatda ro`y beradigan turidir. Me'yoridan ortiqcha faollik muayyan shaxs uchun qat'iyan majburiy bo`lmagan, lekin jamiyatning oliy maqsadlariga va qadriyatlariga mos keladigan faoliyat ko`rsatishini taqozo etadi. Hech kim ishchiga mehnat huquqi tartib-qoidalariga binoan o`zining kunlik topshirig`idan oshirib yuborish, kelgusi yil hisobiga ishlash, faqat o`z normasini emas, balki sexda o`zi bilan birga ishlagan va Vatanni himoya qilish chog`ida mardlarcha xalok bo`lgan o`rtog`ining normasini ham bajarish, o`z jamg`armalarni Tinchlik fondiga, yodgorlik o`rnatish uchun hadya qilish kabi talablarni qo`ymaydi. Bularning hammasi me'yoridan ortiqcha faollik tufayli yuz beradi. Shaxs me'yoridan ortiqcha faollik ko`rsatgan holda o`zining ijtimoiy orzu-istaklari sari olg`a kadam tashlaydi. Shu asnoda pedagog me'yoridan ortiqcha faollikni uning xo`jako`rsin uchun namoyish qilinadigan turidan farqlay bilishi kerak. O`zi uchun majburiy yo`lgan, ya'ni qoida tarzidagi faoliyat o`qishda, mehnat tayyorgarligi va hokazoda etarli darajada faollik ko`rsatmasdan, ba'zi hollarda hammaning ko`z o`ngida «me'yoridan ortiqcha» faolligi haqida tasavvur hosil kilish uchun urinadi. Jumladan, u devoriy gazeta chiqarishni o`z zimmasiga olayotib, ehtimol, bu bilan o`zining butun kollektivga ma'lum bo`lib qolayotgan faoliyatsizligini yashirishga uringan bo`lishi ham mumkin. Me'yoridan ortiqcha faollik me'yoridagi (normativ) faollikdan holi va undan, tashqarida yuz berishi mumkin emas. Shaxsning moslashuvchanlikka ham, xulq-atvorning salbiy (nokonformliligi) turiga ham zid bo`lgan jamoa tarzida o`zini-o`zi belgilashi ham uning faol hayotiy pozitsiyasidan dalolat beradi.

Yosh yigit va qizlarda faol hayotiy pozitsiyani shakllantirish axloqiy tarbiyaning eng muhim vazifalaridan biridir.

2. Shaxs va uning faolligi to`g`risidagi g`arb nazariyalarining tanqidiy tahlili.

Hozirgi paytda g`arb psixologiyasida shaxsni uning tadqiq qilish va tushunish borasida «insonparvarlik psixologiyasi» deb atalmish psixologiya nazariyalari vakillarining psixoanalitik nazariyalari va qarashlari (shaxsning ekzistentsialist nazariyalari) eng nufuzli yo`nalishlar bo`lib hisoblanadi.

Asrimiz boshlaridayoq venalik psixiator va psixolog Z.Freyd kishi shaxsi faolligi manbai va xarakterining o`zicha talqinini tavsiya qilgan edi. Uning ko`pchilik izdoshlari tomonidan ma'qullangan nuqtai nazariga ko`ra, kishi unda hayvonot dunyosiga mansub ajdodlaridan meros qilib olgan instinktiv mayllar va, eng avvalo, jinsiy instinkt va o`zini himoya qilish instinkti mavjud bo`lganligi tufayli faol emish. Lekin jamiyatda instinktlar o`zini hayvonot olamida bo`lgani kabi namoyon qila olmaydi, negaki, jamiyat kishini ko`plab cheklashlar to`riga o`rab tashlaydi, uning instinktlari va mayllarini «senzura»ga ro`baro` qiladi, bu esa kishini)larni cheklashga, tayilishga majbur etadi. Instinktiv mayllar shu tariqa shaxsning anglanilgan hayotidan sharmandali bo`lgan, man etilgan va obro`-e'tiborga putur yetkazadigan hodisalar sifatida chiqarib tashlanadi va anglanilgan sohasiga aylanadi, «yashirin holatda yashay boshlaydi», lekin yo`qolib ketmaydi. Ular o`zining harakatlanuvchi kuchini, o`z faolligini saqlab qolgan holda anglanilganlik sohasidan sekin-asta kishilik madaniyatining turli shakllari va inson faoliyati mahsuli tusiga kirib (qismlarga ajratgan holda) shaxsning xulq-atvorini yo`naltirishni davom ettiraveradi. Anglanilganlik sohasida instinktiv mayllar o`zining kelib chiqishiga bog`liq holda turlicha «komplekslar»ga birlashadi, bu esa, Freydning va freydchilarning ta'kidlashlaricha, shaxs faolligining haqiqiy sababi bo`lib hisoblanadi. Psixologiyaning vazifalaridan birigina muvofiq tarzda anglanilgan «komplekslar»ning aniqlanishi va ularning anglanishiga yordam berishi, go`yo bu shaxsning ichki ziddiyatlari yuzaga chiqishi ehtimolini (psixoanaliz deb atalmish metod) bartaraf etadi. Masalan, «edipcha kompleks»ni ana shunday qo`zg`atuvchi sabablar qatoriga kiritishar edi. Buning ma'nosi shuki, har bir bolada hali yoshligidayoq go`yo qadimga yunon dramaturgi Sofoklning «Shoh Edip» tragediyasining asosiy mazmunini tashkil etadigan mojaroni bolaning g`aflat ostida o`z onasi bilai jinsiy aloqa qilib qo`yishi va otasini o`ldirishini eslatuvchi fojiali vaziyat ro`y berarmish. Freydning ta'kidlashicha, to`rt yashar o`g`il bolaning onasiga nisbatan shahvoniy hirs qo`yishi va otasining o`limini orzu qilishi («edipcha kompleks») boshqa bir kuch-yaqin kishisi bilan jinsiy aloqada bo`lganligi uchun dahshatli jazoga tortilish xavfi («axtalanish kompleksi») bilan to`qnash keladi.

Shaxsning bundan keyingi butun rivojlanishini freydchilar anglanilganlik sohasiga majburiy tarzda olib kirilgan turli xil «komplekslar» o`rtasidagi to`qnashuvlar sifatida talqin qiladilar.

Freydning shaxs faolligi haqidagi kontseptsiyasi (barcha xatolariga qaramay, uning yutug`i anglanilmaganlik va moyilliklar jabhasiga e'tiborni jalb etganligida edi)ni xatto bolaning shahvoniy istaklari va qo`rqinchlari haqida hech narsaga asoslanmagan hayoliy uydirmalarini bir chekkaga surib qo`ygan holda diqqat bilan qarab chiqilishi bu yerda faollikning o`zi ham biologik tabiiy kuch deb tushunilayotganini payqab olish imkonini beradi. U hayvonlar instinktiga o`xshash, ya'ni o`zining barcha o`lchovlariga, «sublimatsiya»lari («qismlarga ajratilishi») va unga qarama-qarshi qo`yilgan jamiyat bilan mojarolari bo`lgani holda o`sha hayvonlar istinkti singari anglanilmagan bo`ladi. Bunda jamiyatning vazifasi mayllarni cheklashdan va «senzura» ostiga olishdan iborat bo`lib qoladi. Shaxs va uning faolligini bunday tarzda talqin qilish shaxsning ijtimoiy mavjudot emas balki biologik jonzot ekanligi haqidagi bahoni keltirib chiqaradi. Bunda inson va jamiyat bir-birlariga printsipial jihatdan yotdir va ularning «uyg`un tarzda» munosabat o`rnatishlari faqat birini ikkinchisining kuchi bilan bostirilgan taqdirdagina, birining ikkinchisi ustidan abadiy zo`rligi bo`lgandagina, anglanilgan jabhaning isyon ko`tarishi, tajovuzga yuz tutishi, ichki a'zolarning kasallanishi va hokazolar doimiy havf solayotgan taqdirdagina mumkin deb faraz qilinadi.

Freydnnng shaxs faolligini butunlayicha faqat shaxvoniy hirsga bog`liq qilib qo`yishga intilishi markscha yo`nalishda bo`lmagan psixologlarning ham ko`pchiligida e'tiroz tug`dirdi. Bu hol klassik freydizmning va undan muayyan chekinishlarning birikuvidan iborat xususiyatga ega bo`lgan neofreydizm (A. Kardiner, E. Fromm, K. Xorni va boshqalar)ning kelib chiqish sabablaridan biri bo`lgan edi. Neofreydchilar shaxsning faolligini tushunish borasida shahvoniy mayllarning ustunligi fikridan voz kechishadi va insonning biologik mavjudotligidan chetga chiqishadi. Shaxsning muhitga bog`liqligi birinchi o`ringa qo`yiladi. Bunda shaxs go`yo uni beixtiyor belgilaydigan ijtimoiy muhitning shunchaki oddiy tasviri sifatida namoyon bo`ladi. Muhit shaxsga o`zining eng muhim xususiyatlari aksini singdiradi. Ular ana shu shaxs faolligining ko`rinishlariga aylanadi. Masalan, qanday bo`lmasin mehr qo`yishlariga va ma'qullashlariga muvaffaq bo`lish uchun intilish, hokimiyatning, obro`-e'tiborning va soxiblikning orqasidan quvish, obro`-e'tiborli odamlar guruhining fikriga bo`ysunishga va qabul qilishga intilish, jamiyatdan o`zini olib qochish ana shunday ko`rinishlardir. Bu kontseptsiyalarda ham shaxsning faolligi haqiqatga to`g`ri kelmaydigan fikrligicha qoladi.

Shaxsni va uning faolligini tushunish borasida g`arb psixologiyasi (asosan amerikaparast psixologiya)ning boshqa bir nazariy yo`nalishi «insonparvarlik psixologiyasi» birinchi qarashda psixoanalitik yo`nalishga nimasi bilandir zid bo`lib ko`rinadi. Lekin keyinchalik ular o`zlarining asosiy tariflariga ko`ra bir-birlariga yaqinlashib ketgani aniq-ravshan bo`lib qoladi. Faollikning manbaini kashf etishga urinarkan, o`tmishga bolaning «anglanilmagan holatga surib chiqarilgan» taassurotlari va kechinmalariga murojaat qiladigan psixoanalitiklardan farqli o`laroq rivojlanishi K. Rodjers, A. Maslou, G. Olport va boshqalarning ilmiy ishlari bilan bog`liq bo`lgan «insonparvarlik psixologiyasi» kelajakka, o`zligini eng ko`p darajada namoyon qilishga (o`zini faollashtirishga) intilishni shaxs faolligining asosiy omili deb hisoblaydi.

Maslou, Rodjers va «insonparvarlik psixologiyasi»ning boshqa vakillari o`zini faollashtirishni o`z mohiyati e'tibori bilan egotsentrik (o`zini hammadan ustun qo`yish) jarayonga aylantirib yuborishadi. O`zligini faollashtirish, A. Maslouning fikricha, o`zini va faqat o`zini ro`yobga chiqarish uchun intilishdirki, bu ijodiy faollik va «hususiy Men»ini to`laqonli namoyon qilish uchun intilish kabi fazilatlarga ega bo`lgan «o`zini faollashtiruvchi shaxslar»ning (A. Maslouning fikricha, ularning soni unchalik ko`p emas - 1 protsent atrofida bo`ladi) o`ta individualligi haqida dalolat beradi. Haqiqatda esa agar o`zligini faollashtiruvchi shaxsni o`z hatti-xarakatlari va ishlari bilan o`zini ijtimoiy jihatdan shart qilib qo`yilgan aloqalar orqali bog`langan boshka odamlarning hissiy va aqliy jihatlaridagi o`zgarishlarni ta'minlovchi sifatida personajlashuvini amalga oshiradigan faoliyat va munosabat sub'ekti tarzida tushuniladigan bo`lsa, u holda A. Maslou va boshqalar tomonidan e'lon qilingan o`zini faollashtirish uydirmaligidan nari o`tmadi. Haykalni yasayotgan xaykaltarosh marmarda o`z rejasini mujassamlashtirishdek ijodiy intilishini ro`yobga chiqaradi va avvalam bor o`sha intilishning o`zini anglab etgan bo`ladi. Shaxsning A. Maslou kontseptsiyasiga o`xshash tarzda «o`zligini namoyon etishi» va «o`zini faollashtirishi» kabi har xil nazariyalar aynan ana shu momentni ushlab oladi va shu bilan o`ralashib qoladi. Bu holda san'atkor nima uchun o`z ijodining mahsulini iloji boricha ko`proq odamlarga va, ayniqsa, o`zicha «qadriga yetmaganlar» deb hisoblaydiganlarga, ya'ni o`zining referent guruhiga namoyish qilishga intiladi. Shunchaki o`zligini namoyon qilish, buyumda ro`yobga chiqarish, nihoyat buning uchun pul olish bilan o`zining faollashtirish ham tugallanganday bo`lib tuyuladi. Shubhasiz, ijodiy faoliyat sub'ekt-ob'ekt (rassom - kartina) ishi bilan tugallanmaydi va maqsad rassomning o`zi

«boshqalar» hisoblaydiganlar uchun ahamiyatli bo`lgan muqarrar personajlashuvini amalga oshirish imkonini beradigan sub'ekt-ob'ekt-sub'ektga oid bog`lanish (rassom-kartina-tomoshabin) ning navbatdagi bo`g`ini hosil qilinmagunga qadar ro`yobga chiqmagan bo`lib qoladi.

Lekin, umuman olganda, «insonparvarlik psixologiyasi» shuningdek, psixoanaliz nazariyasi inson shaxsining mohiyatini uning faolligini va harakatlantiruvchi kuchlarini izohlab bera olmaydi, chunki nomarksistik psixologiyadagi bu yo`nalishlar noto`g`ri falsafiy nuqtai nazarlarga tayanadi, bunday nuqtai nazarga tayangan holda psixologiya fanining eng muhim nazariy va metodologik muammolarini hal etib bo`lmaydi. Yolg`iz individning o`zini unga dushman bo`lgan jamiyatga qarama-qarshi qo`yish shaxsning psixoanalitik kontseptsiyalariga ham, ekzistentsialistik kontseptsiyalariga ham xos xususiyatdir. Haqiqatdan ham agar shunday bo`lsa, u xolda shaxs uchun abadiy mojarodan qutilish juda ham amri maholdir: yoxud barcha shakllarda moslashuvchanlik, yoxud muhitni xush ko`rmaslik (undan o`zligini chetga olish yoki nonkonformizm yuz berishi kerak), yoxud bamisoli biron bir tashqi narsaga mutelik qilmagan holda o`zligini namoyon qilishdan iborat xayotiy rejani amalga oshirish maqsadida o`zligida saqlanib qolish lozim bo`ladi.

Shunday qilib, butun kuch-g`ayratlar shaxs yashaydigan va harakat qiladigan muhitni o`zgartirishga emas, balki shaxs o`zini o`zgartirishga safarbar etilgan bo`ladi. Shaxs bilan jamiyat o`rtasidagn ziddiyatni abadiy saqlab qolish yo`lidagi nomarkscha fikrlaydigan barcha psixologlarga xos urinishlar tarixan tushunarli, lekin oqibati asossizdir.

Dunyoni odamlarning o`zlari o`zgartirishadi, lekin buni ongli ravishda amalga oshirish uchun dastavval uni o`zgartirishda, uni qurishda ishtirok etishga yo`naltirilgan bo`lish kerakki, bu ish jarayonida shaxsning o`zi ham o`zgaradi. Yuqorida ko`rsatib o`tilganidek, kishi o`z faolligini faoliyat jarayonida va, eng avvalo, birgalikda faoliyat jarayonida namoyon qilishi to`g`risidagi qoidani qabul qiladi.

3. Shaxsning yo`naltirilgangani.

Agar biz kishi nima uchun faollashib qolayotni haqidagi masalani hal etayotib, nimagadir yoki kimgadir zarurat mavjudligi holatini ifodalaydigan ehtiyojning faollikka olib boradigan mohiyatini taxlil kilar ekanmiz, u holda bundan faollik nimalar evaziga yuz berishini aniqlash uchun uning yo`nalishi nima bilan belgilanishini, bu faollik qayoqqa va nimaga qaratilganligink tahlil qilib chiqamiz.

Masalan, o`quvchi oliy o`quv yurtiga kirib o`qishni davom ettirishni orzu qiladi. Lekin bu (ko`pchilik o`quvchilar uchun umumiy bo`lgan) ehtiyojning o`zi uning sabablari haqida, ya'ni o`quvchining nima uchun u yoki bu harakatni (masalan, oliy o`quv yurtiga obro`sizlanib qolmaslik yo ota-onasini ranjitmaslik, yoxud o`zi yoktirgan ixtisoslik bo`yicha bilim va malakalarni egallash yoki qayerda bo`lishidan qat'iy nazar, o`qishni davom ettirish maqsadida) qilishi haqida hali biron ma'noni anglatmaydi. Oliy o`kuv yurtiga kirish uchun tayyorgarlik harakatlari tashqaridan qaraganda aynan bir xilda bo`lib tuyulishi mumkin, lekin psixologik jihatdan ular har xil bo`ladi, negaki ularning sabablari turlichadir. Shubhasiz, shaxsning bundan keyin professional kamolatga erishish motivlarining ahamiyati ham kelajakda turlicha bo`ladi: bir xil studentlar uchun o`qish o`z shaxsini teranlashtirish, bilim va malakalarni egallash yo`lidagi bosqich bo`lib hisoblansa, boshqalari uchun esa o`qish istagi shunchaki o`tkinchi mayl bo`lgani vajidan biron bir sezilarli iz qoldirmasdan o`tib ketadi.

Shaxsning faoliyatini yo`naltarib turadigan va mavjud vaziyatlarga nisbatan bog`liq, bo`lmagan barqaror motivlar majmua kishi shaxsining yo`naltirilganligi deb ataladi.

Elektr payvandchi kasbini egallashni o`z oldiga maqsad qilib qo`ygan yuqori sinf o`quvchisi bu maqsadga yuksak darajada moyillik bildirgan holda bunday moyillikni har qanday va hatto buning ro`yobga chiqarilishi uchun noqulay sharoitlarda (masalan, ota-onalari farzandining mo`'tabar tasavvurlarga mos keladigan boshqa kasbni egallashi kerak, deb hisoblab, mutaasiblik qilishgan paytlarda) ham saqlab qoladi.

O`quvchining xulq-atvorini yaxlit holda qarab chiqqan va uning psixologiyasini tahlil etgan holda uning barqaror mayllarini aniqlash lozim. Faqat shunday qilgan taqdirda o`spirinning muayyan hatti-harakatni tasodifan yoki qonuniy tarzda qilgani xaqida xulosa chikarish, uning takrorlanish extimolini oldindan ko`ra bilish, shaxsning xislatlaridan biri paydo bo`lishining oldini olish va boshqalarining rivojlanishini rag`batlantirish mumkin bo`ladi.

Motivlar oz yo ko`p darajada anglangan bo`lishi yoki umuman anglanilmagan bo`lishi ham mumkin.

Shaxsning yo`naltirilganligida anglangan motivlar asosiy rol o`ynaydi.

Kishi ehtiyoj ob'ektini maqsad deb anglagan holda o`zining shaxsiy maqsadlarini o`zi kirgan jamoaning maqsadlari bilan bog`laydi va o`z maqsadlarini tegishli ravishda o`zgartiradi, mazmunga tuzatishlar kiritadi, yoxud jamoaning, jamiyatning maqsadlariga mos kelmay qolgan taqdirda ularni niqoblaydi.

Kishi faoliyatining natijasini hayolan oldindan belgilab beradigan maqsadning o`zigina emas, balki ushbu maksad ahamiyatiga molik ob'ektda ro`yobga chiqishining realligi ham anglanilgan bo`lsa, bu hol shaxsning istiqboli deb qaraladi. A. S. Makarenko shunday deb yozgan edi: «O`z xulq-atvorini juda ham yaqin istiqbolga qaratib belgilaydigan kishi eng ojiz kishi hisoblanadi. Agar u garchand uzoqni ko`zlaydigan bo`lsa ham faqat xususan o`zining istiqboli bilan qanoat hosil qiladigan bo`lsa, uni kuchli deb faraz qilish mumkin, lekin u bizda shaxsning go`zalligi va uning haqiqiy qadr-qiymati haqidagi his-tuyg`uni uyg`ota olmaydi. Istiqbollari kishi uchun shaxsiy istiqbol hisoblanadigan jamoa qanchalik ulkan bo`lsa, kishi ham shunchalik go`zal va ulug`vor bo`ladi». Jamoa bilan va shu asnoda alohida xar bir o`quvchi bilan ish olib boradigan pedagogning vazifasi shunga ko`ra mavjud istiqbollardan foydalanish va ularni asta-sekin yanada qimmatliroqlari bilan almashtirish yo`li bilan yangi istiqbollar yaratishdan iborat bo`ladi.

Istiqboli anglaydigan kishiga xos ta'bi xiralik, kechinmalarga qarama-qarshi o`laroq ruhsizlik holati frustratsiya deb ataladi. Bu kishi maqsadiga erishish yulida real tarzda bartaraf etib bo`lmaydi deb hisoblangan yoki shunday deb idrok etiladigan tusqinliklarga, g`ovlarga duch kelgan hollarda yuz beradi.

Frustratsiyaning yuz berishi shaxsning xulq-atvorida va uning o`zini anglashida turli xil o`zgarishlarga olib keladi.

4. Qiziqishlar

Qiziqish - biron bir sohada to`g`ri mo`ljal olishga, yangi faktlar bilan tanishishga, voqelikni ancha to`la va chuqur aks ettirishga yordam beradigan motivdir. Individ uchun qiziqish, sub'ektiv tarzda olganda, bilish jarayoni tusini kashf etadigan ijobiy hissiy oxangda, ob'ekt bilan chuqurroq tanishishga, u haqda ko`proq bilish, uni anglab etishga bo`lgan istakda namoyon bo`ladi.

Qiziqishning faoliyat jarayonlaridagi roli benihoya kattadir. Qiziqishlar shaxsni o`zida bilim olish va anglab etish borasida hosil bo`lgan ishtiyoqni qondirish yo`llariki va usullarini faol tarzda izlashga majbur etadi. Shaxsning yo`naltirilganligini ifodalaydigan qiziqishning qondirilishi, odamda, uning so`nishiga olib kelmaydi, aksincha, uni qayta qurgan, boyitgan va chuqurlashtirgan holda bilish faoliyatining yanada yuksak darajasiga mos keladigan yangi qiziqishlarni keltirib chiqaradi.

Tarixga qiziqadigan o`quvchi to`garakda o`z shaxrining o`tmishi haqida ma'ruza bilan chiqarkan, ma'ruzasining mazmunini tashkil etgan faktlarning muayyan guruhiga nisbatan qiziqishini shu bilan cheklab qo`ymaydi, balki bu qiziqish yanada ortadi, u o`lkashunoslik muammolari asosiy o`rin olgan ancha keng doiradagi masalalarga ham qiziqa boshlaydi.

Shunday qilib, qiziqishlar bilishning doimiy qo`zg`atuvchi mexanizmi sifatida namoyon bo`ladi.

Qiziqishlar mazmuniga, maqsadlariga, miqyosi va barqarorligiga ko`ra tasnif qilinishi mumkin.

Qiziqishlarning mazmun jihatidan farqi bilish ehtiyojlarining ob'ektlarini va ularning mazkur faoliyat maqsadlari uchun va kengroq qilib olganda, shaxs mansub bo`lgan jamiyat uchun real ahamiyatini ko`rsatadi. Kishida ko`proq nimaga qiziqish paydo bo`lishi va uning bilish ehtiyojlari ob'ektining ijtimoiy qimmati psixologik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Maktabning eng muhim vazifalaridan biri - o`smirlik yoki yoshlarning faol bilish va mehnat faoliyatiga rag`batlantiradigan va maktabdan tashqarida ham saqlanib qolishi mumkin bo`lgan jiddiy va sermazmun qiziqishlarnnn uyg`otishdan iboratdir.

Qiziqishlarning maqsad jihatidan farqi bevosita va bilvosita namoyon bo`ladigan kiziqishlarning borligini aniklaydi. Bilvosita qiziqishlar ahamiyatga molik ob'ektning hissiy jihatdan jozibaliligi tufayli yuzaga keladi. («Buni bilish, ko`rish, anglab etish men uchun qiziqarli»- deydi kishi.) Bilvosita qiziqishlar biron bir narsa (masalan, ta'lim olish)ning real ijtimoiy ahamiyati bilan uning shaxs uchun sub'ektiv ahamiyati bir-biriga mos kelgan. (Bunday holda kishi: «Bu meni qiziqtirgani uchun ham qiziqarlidir!»—deydi) taqdirda paydo bo`ladi. Mehnat va o`qish faoliyatida hamma odam ham bevosita hissiy jozibaga ega bo`lavermaydi. Shuning uchun ham mehnat jarayonini ongli tashkil etishda yetakchi rol o`ynaydigan bilvosita kiziqishlarni tarkib toptirish muhimdir.

Qiziqishlar o`zining kengligi bo`yicha ham farq qiladi. Bir xil odamlarda qiziqishlar bir sohaga qaratilgan bo`lishi mumkin, boshqalarda esa barqaror ahamiyatga ega bo`lgan ko`plab ob'ektlarga bo`lingan bo`ladi. qiziqishlarning tarqoqligi ko`pincha shaxsning salbiy hislati sifatida yuzaga keladi, lekin ayni chog`da qiziqishlarning keng miqyosdaligini kamchilik tariqasida talqin qilish noto`g`ri bo`lur edi. Shaxsning ko`ngildagidek rivojlanishi, kuzatishlar ko`rsatganidek, qiziqishlar miqyosining tor emas, aksincha keng bo`lishini taqozo etadi.

Qiziqishlar barqarorligi darajasiga ko`ra ham xar xil bo`lishi mumkin. qiziqishning barkarorligi uning nisbatan jadal tarzda namoyon bo`lishi uzoq davom etishi bilan ifodalanadi. Shaxsning asosiy ehtiyojlarini eng ko`proq darajada namoyon qiladigan va shu boisdan ham uning psixologik tuzilishiga xos hislatlarga aylanib qoladpgan qiziqishlari barqaror hisoblanadi. Barqaror qiziqish kabi qobiliyatlari uyg`onishining bir ko`rinishi bo`lib, shu jihatdan ham muayyan darajada muhim qimmatga egadir.

Qiziqishlarning ba'zan barqaror bo`lmasligi katta yoshdagi o`quvchilarning yosh xususiyati hisoblanadi. Ularda qiziqishlar ko`pincha g`oyat ehtirosli, lekin qisqa muddatli

bo`ladi. Masalan, bir vaqtning o`zida ular matematika, tarix, falsafa, psixologiya va logikaga qizikishlari mumkin. Bunday bolalar hamma narsaga qizg`ii kirishib, masalaga xali chuqur kirib bormasdan, boshqa narsalar bilan qiziqib ketadalar. Har xil mashg`ulotlarga nisbatan o`spirinlik va yoshlik chog`ida goh alangalanib, goh so`nib turadigan qiziqishlar yoshlarning o`z iste'dodlarini jadal ro`yobga chiqarishini ta'minlaydi va qobiliyatlarining namoyon bo`lishiga hamda o`z samarasini ko`rsatishiga yordam beradi. Pedagoglarning vazifasi yoshlarni albatta avval qiziqish o`yg`otgan ish bilangina mashg`ul bo`lishga majbur etishdan iborat emas, balki uning qiziqishlarini chuqurlashtirish va kengaytirishdan, ularning ta'sirchanligiga erishishdan, ularni umuman bola qiziqishlarining o`zagini tashkil etadigan faoliyat bilan mashg`ul bo`lishga intilishga, maylga aylantirishdan iborat bo`lishi kerak.

Qizikishlar - shaxs faoliyatini asoslashning birdan-bir emas, lekin muhim jihatidir. Xulq-atvorning muhim motivlaridan biri e'tiqoddir.

5. Shaxsning e'tiqodi va dunyoqarashi

E'tiqod - shaxsni o`z qarashlaraga, printsiplariga, dunyoqarashiga muvofiq tarzda ish kurishga da'vat etadigan motivlar sistemasidir. E'tiqod shaklida namoyon bo`ladigan ehtiyojlarning mazmuni - bu tabiat, tevarak-atrofdagi olam to`g`risidagi bilimlar va ularning muayyan tarzdagi tushunilishi demakdir. Bu bilimlar nuqtai nazarlar (falsafiy, estetik, axloqiy, tabiiy-ilmiy va hokazolar)ning tartibga solingan va ichki uyushgan sistemasini tashkil etgan taqdirda kishining dunyoqarashi safatida talqin qilinishi mumkin.

Dunyoqarash sinfiy xarakterga ega. Markscha dunyoqarash - chinakam ilmiy dunyoqarash bo`lib, u odamlarning ijtimoiy hayot qonunlarini to`g`ri tushunishni ta'minlaydi.

E'tiqodlarning evolyutsiyasi eng avvalo ularning mazmunli tomonlariga taalluqlidir. Ularda shaxsning dunyoqarashini ifoda etadigan xislatlar ko`proq darajada namoyon bo`la boshlaydi. Kishnning fikrlari va g`oyalari, printsiplari uning butun hayoti mazmuni bilan, uning o`zlashtirgan bilimlari bilan belgilanadi, uning qarashlari sistemasiga zarur tarkibiy qism sifatida kirgan bo`ladi, kishi uchun alohida shaxsiy mohiyat kasb etadi va shuning uchun ham u bu fikrlar va printsiplarni qaror toptirishga, ularni himoya qilishga, ularni boshqa odamlar ham ma'qul ko`rishlariga erishish uchun qat'iyan ehtiyoj sezadi.

O`z mazmuniga ko`ra dunyoqarashning qismlari bo`lgan adabiyot, san'at, ijtimoiy hayot, ishlab chiqarish faoliyati sohasidagi keng doiradagi masalalarni o`z ichiga oladigan e'tiqodlarning mavjudligi kishi shaxsining faolligi darajasining yuksakligi haqida dalolat beradi.

Shaxs faolligining rivojlanish darajasi va yo`naltirilganligi xarakteri har xil odamlarda har xil bo`ladi. Ko`pincha kishi u yoki bu mojaroviy vaziyatlarda o`zini qanday tutishi kerakligini biladi, munozarada qanday nuqtai nazarni ma'qullash zarurligini biladi va lekin bunday bilimni hayotida qaror toptirishga ehtiyoj sifatida hayoldan o`tkazmaydi. Shaxs bilimlarining, ehtiyojlarining va motivlarining bir-biriga muvofiq kelmay qolishi e'tiqodlar sohasidagi nuqsonga aylanadi. Bunday kishining so`zi bilan ishi ko`pincha bir bo`lmaydi: uning bilimlari bilan xulq-atvorida birlik bo`lmaydi, pozitsiyasi o`ziga xos «ikkiyoqlama axloq»dan tarkib topganligi uchun u faol hayotiy pozitsiyada tura olmaydi. Boshqacha so`z bilan aytganda, uning haqiqiy e'tiqodiu tevarak-atrofdagilarga e'lon qilgani va namoyish etganidan tamomila farq qiladi. Buni anglagan holda u o`zini barkamol, printsipial kishi qilib ko`rsatish uchun kuch-g`ayrat sarflashi mumkin.

Hozirga qadar so`z yuritilayotgan motivlar, avvalo, anglanilganligi bilan xarakterlanadi. Boshqacha qilib aytganda, motiv (sabab)lar paydo bo`ladigan kishi uni faoliyatga nimalar da'vat etayotganini, uning ehtiyojlari qanday ma'no kasb etishini biladi. Lekin barcha motivlar ham bu kategoriyaga kiravermaydi. Inson ishlari va xatti-harakatlari sababiyatining anchagina ahamiyatga molik jabhasi anglanilmagan motivlardan tarkib topadi. Endi ana shularni ko`rib chiqamiz.

6. Shaxsning yo`l-yo`riklari

Psixologiyada shaxsning yul-yo`riqlari uning u yoki bu ehtiyoji qondirilishiga yordam berishi mumkin bo`lgan faoliyatga tayyorligining, moyilligining o`zi tomonidan anglanilmaydigan holatini belgilaydi. Yo`l-yo`riq ob'ektni aynan muayyan tarzda idrok etish, tushunib etish va anglab olish yoki u bilan ish ko`rishga o`tmishdagi tajribada shakllangan shaylik va moyillikdan iboratdir. D. N. Uznadze va uning xodimlari o`tkazgan ajoyib tadqiqotlar shaxs xulq-atvorini belgilaydigan qayd etilgan yo`l-yo`riqlarning shakllanish jarayonini ko`rsatib berdi.

Masalan, birinchi sinf o`quvchilarining muallimaga nisbatan uning har qanday ko`rsatmasini bajarishga shayligi shaklida namoyon bo`ladigan yo`l-yo`riqlari ana shundaydir. Bunda muallimaning har qanday hatti-harakatlariga, shu jumladan, biron bir boshqa kishida namoyon bo`lganida bolalarning qarshi harakatini ko`zg`atishi mumkin bo`lgan hatti-harakatlariga nisbatan ham hech qanday tanqidiy yondashish bo`lmaydi.

Ko`pgina yo`l-yo`riqlarning mohiyatini tashkil etadigan noxolislik yo kishining shaxsiy tajribasidagi ba'zi faktlardan shoshilinch va etarli darajada asoslanmagan xulosalar chiqarilishining oqibati hisoblanadi, yoxud bu tafakkur stereotiplarining-muayyan ijtimoiy guruhda qabul qilingan standartlashtirilgan mulohazalarning natijasi bo`ladi.

Ijtimoiy xayotning turli faktlari (hodisalar, odamlar va boshqalar)ga nisbatan yo`l-yo`riqlar ijobiy bo`lishi ham (vrachning barcha ko`rsatmalarini bajonidil va aniq bajaradigan bemor umuman tibbiyotga va qolaversa, uni davolayotgan doktorga nisbatan ijobiy munosabatga asoslanadigan yo`l-yo`riqqa amal kiladi) va noto`g`ri tushuncha tusini olgan holda salbiy bo`lishi ham mumkin.

Negrlarning ma'naviy fazilatlari, ularning aqliy qobiliyatlari, «shahvoniy tajovuzkorligi» va hokazolar xususidagi baholar Amerika Ko`shma Shtatlarida negr aholisi taxqirlanib kelayotganligi vaziyati noto`g`ri tushunchalarning kelib chiqishiga sabab bo`lgandir. Bu xildagi noto`gri tushunchalar irqchilarning xulq-atvori va tafakkuriga xos narsadir. Bunda irqchi o`zining noto`g`ri fikr yuritayotganini, odatda, anglab etmaydi, balki o`z xulq-atvorining unga ma'lum bo`lgan qandaydir faktlarni xolisona va mustaqil tarzda baholash oqibati sifatidagi natijasi deb qaraydi. Ayrim hollarda ushbu anglanilmagan yo`l-yo`riq (yanglish fikr) e'tiroz bildirib bo`lmaydigan biron bir fakt (masalan, negr o`z hayotini xavf ostida qoldirgan holda o`sha irqchining farzandi hayotini saqlab qoladi) bilan ochiqdan-ochiq zid qilib qoladi, lekin bu negrlarga qarshi targ`ibotning butun sistemasiga binoan o`tkazib kelinayotgan irqchilik yo`l-yo`riqlarining o`zgarishi uchun hali asos bo`la olmaydi (bolaning xaloskoriga mustasno tarzida qaraladi xolos).

Yo`l-yo`riqlar ko`p yo oz darajada anglanilmagan bo`lishi mumkin. Kishi avvaliga anglanilmagan yo`l-yo`riq sifatida xizmat qilib kelgan nuqtai nazarini yaxshiroq anglab olishi va uni bayon etib berishi lozim bo`lgan ayrim paytlarda u e'tiqod, ya'ni faoliyatning tamomila anglanilgan motivi sifatida namoyon bo`ladi.

Psixologik tadqiqotlar yo`l-yo`riqning tuzilishi uchta tarkibiy qism (kichik tuzilish) dan iboratliginn ko`rsatdiyu. Bular: kishining bilib olishga va idrok etishga tayyor qiyofa (obraz) dan iborat bo`lgan kognitiv (lotincha cognitio - bilish degan so`zdan olingan) kichik tuzilish, yo`l-yo`rik, ob'ektiga nisbatan xayrihohlik va xush ko`rmaslik hislatlari kompleksidan iborat bo`lgan hissiy-baholash kichik tuzilishi, yo`l-yo`riq ob'ektiga nisbatan muayyan tarzda harakat qilishga, irodaviy kuch-g`ayratlarni safarbar etishga shaylikdan iborat bo`lgan xulq-atvor kichik tuzilishidir.

Adabiyotlar

Marks K. Feyerbax to`g`risidagn tezislar.- Marks K. va Engels F. Uch tomlik tanlangan asarlar, 1-tom. T., O`zbekitson, 1980.

Ананев Б. Г. Избранные психологические труды. М., Педагогика, 1980, 1-том.

Абулханова-Славская К. А. Деятелность и психология личности М.,Наука, 1980.

Бодалев А. А. Личность и общение. М., Педагогика, 1983.

Божович Л. И. Личность и ее формирование в детском возрасте. М., Просвещение, 1968.

Кон И. С. В поисках себя: личность и самосознанне. М., Политиздат,1984.

Леонтев А.Н. Деятелность. Сознание. Личность. М, Политаздат, 1982.

Петровский А. В. Личность. Деятелность. Коллектив М., Политиздат, 1982.

Рубинштейн С. Л. Проблемы общей психологии. М., Педагогика, 1973, 241-385-betlar.

Узнадзе Д. Н. Эксперименталные основы психологии установки. В книге: Узнадзе Д. Н. Психологические исследования. М., Наука, 1966. 135- 327-betlar.

Психология личности. Тексты. М, MDU nashriyoti, 1982. Кон И. С, Открытие «Я» М., Политиздат, 1978.

Михайлов Ф. Т. Загадка человеческого Я- 2-нашри. М., Политиздат. 1976.

Петровский А. В. Популярные беседы о психологии.2-nashri. M, Pedagogika, 1983.

21-ma'ruza. Shaxsning o`zini anglab yetishi. Shaxsning shakllanishi

Reja:

1. “Men”ning kashf etilishi
2. “Men”ning siymosi
3. O`ziga-o`zi baho berish va uning shaxsning o`zini-o`zi anglab yetishning shakllanishlagi roli
4. O`ziga-o`zi baho berish va shaxsning intilishlari darajasi
5. Shaxsning psixologik muhofazasi
6. Psixologiya va pedagogikada shaxsning shakllanishi tushunchasi
7. Shaxsning rivojlanishidagi harakatlantiruvchi kuchlar

1. «Men»ning kashf etilishi

Kishi o`z mohiyatiga ko`ra ijtimoiy hisoblangan munosabatlar sistemasiga kirgan, odamlar bilan o`zaro birgalikda harakat qilgan va munosabatda bo`lgan holda o`zini atrof-muhitdan alohida ajratib ko`rsatadi, o`zining jismoniy va psixik holati, harakatlari va jarayonlarining sub'ekti sifatida his etadi, o`zi uchun «boshqalarga» qarshi turgan va ayni

chog`da ular bilan uzviy bog`liq bo`lgan «Men» sifatida namoyon bo`ladi. Sub'ektiv ravishda xususiy «Men»ning mavjudligini his qilish, avvalo, kishining hozirgi paytda, o`tmishda va kelajakda o`ziga aynan o`xshash bo`lishini tushunib etishida ifodalanadi. Bugungi «Men» mening holatimning har qanday yangi va kutilmagan vaziyatlarda har qancha o`zgarishi mumkin bo`lgan taqdirda ham, mening hayotim, mening ongim, qarashlarim va yo`l-yo`riqlarim har qancha qayta qurilgan taqdirda ham o`sha kecha yashagan va ertangi kunga qadam qo`ygandan keyin bo`lajak kishining o`zini bildiradigan «Men» i demakdir. Ayrim psixik kasalliklarning alomatlaridan biri kishining o`ziga aynan o`xshamay qolishidan, xususiy «Men» ini yo`qotib qo`yishidan iboratdir.

O`z «Men»ining mavjudligini his qilish shaxsning hali chaqaloqligi paytidayoq boshlanadigan va uzoq davom etadigan hamda sotsiolog va psixolog I. S. Kon «Men»ning kashf etilishi» deb juda o`rinli atagan shakllanish jarayonining natijasi hisoblanadi. Bir yasharli bola o`z tanasining sezgirligi undan tashqaridagi buyumlar tufayli hosil bo`ladigan sezgilardan farqini anglay boshlaydi. So`ngra 2—3 yoshida bola buyumlar bilan o`z xususiy harakatlari jarayoni va natijasida hosil bo`ladigan xursandchilikning katta yoshdagilarning konkret harakatlaridan farqini ajratadi va kattalarga qarata: «Yo`q, men o`zim qilaman!» deydi. U endi o`zini atrofdagi muhitdan faqat alohida ajratib olgan holda emas, balki o`zini boshqalarning hammasiga qarama-qarshi («Bu seniki emas, meniki!») qo`ygan holda o`zini birinchi marta o`zining xususiy harakatlari va xatti-xarakatlari sub'ekti (bolaning nutqida shaxsiy olmosh paydo bo`ladi) sifatida anglay boshlaydi. Bolalarda bog`cha bilan maktabga borishi oralig`ida va boshlang`ich sinflarda katta yoshdagilar, ota-onalar va o`qituvchilar yordamida hali o`z yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklarining sabablarini anglab etish darajasida («Men hammasidan «besh» olib kelganman, matematikadan esa «uch» qo`yishgan, sababi men doskadan noto`g`ri ko`chirarkanman. E'tiborsizligim uchun Anna Petrovna necha martalab menga «ikki» qo`ygan») o`zining psixik hislatlariga baho bera olish imkoniyatlari (xotira, tafakkur va hokazolar) paydo bo`ladi. Nihoyat, o`spirinlik va yoshlik davrida ijtimoiy hayotga va mehnat faoliyatiga faol qo`shilib ketish natijasida o`ziga ijtimoiy-ahloqiy jihatdan baho berishning kengaytirilgan sistemasi shakllana boshlaydi, o`zini anglab yetishi tugallanadi va «Men»ning siymosi asosan tarkib topadi.

2. «Men»ning siymosi

Ma'lumki, o`spirinlik va yoshlik yillarida o`zini tarbiyalashga, o`zining hayotdagi o`rnini va tevarak-atrofdagilar bilan munosabatlar sub'ekti sifatida o`zini anglab yetishga intilish kuchayadi. O`zini anglashning yuzaga chiqa boshlashi ana shu bilan bog`liqdir. Katta yoshdagi o`quvchilarda o`z xususiy «Men»ining siymosi shakllana boradi («Men-siymo», «Men-kontseptsiya»), «Men»ning siymosi - individning o`zi haqidagi nisbatan barqaror, ko`proq, yoki ozroq darajada anglanilmagan, betakror deb his qilinadigan tasavvurlar sistemasidirki, individ boshqalar bilan o`zaro birgalikda harakat qilishda ana shunga asoslanadi. «Men» siymosiga kishining o`ziga nisbatan munosabati ham qo`shiladi: kishi o`zini izzat qilgan yoki o`zidan nafratlangan, sevgan va yomon ko`rgan, hatto o`zini tushungan va tushunmagan holda o`ziga amalda boshqa birovga qanday bo`lsa, xuddi shunday munosabatda bo`lishi mumkin - individ o`zida o`z harakatlari va xatti-harakatlari bilan boshqa birovda mujassamlashgani singari mujassamlashadi. Shu asnoda «Men» ning siymosi shaxs tuzilishining tarkibiga ko`shilib ketadi. U kishining o`ziga nisbatan yo`l-yo`rig`i sifatida yuzaga chiqadi. Har qanday yo`l-yo`riq kabi «Men» ning siymosi uchta komponent (tarkibiy qism)ni o`z ichiga oladi. Birinchidan, kognitiv

tarkibiy qism: kishining o`z qobiliyatlari, tashqi qiyofasi, ijtimoiy ahamiyati va hokazolar haqidagi tasavvuri. Buyumlarga hirs qo`ygan oilada voyaga etgan o`spirin o`zining «Men-siymosi»da uning tasavvurida ko`zga tashlanib turadigan firma yorlig`i bo`lgan djinsi shim tufayli orttiriladigan savlatlilikni birinchi o`ringa qo`yadi. Uning boshqa bir tengdoshi stol tennisi bo`yicha rayon birinchiligi uchun musobaqalarda erishilgai unutilmas g`alabani ana shunday deb hisoblaydi. Uchinchisi esa o`sha musobaqalarda uning uchun fojiali mag`lubiyatni hamda haqiqatan ham qiynalib o`qiydigan fizika va matematikani o`zlashtirishda qiynalayotganligini birinchi o`ringa qo`yadi. Ikkinchidan, hissiy baholash tarkibiy qismi: o`zini hurmat qilishi, o`ziga tanqidiy nuqtai nazrdan yondashishi, o`zinigina ssvishi, o`zini erga urishi va xokazolar. Uchinchidan, xulq-atvor (irodaviy) tarkibiy kismi: seni tushunishlari uchun intilish, o`rtoqlarining va o`kituvchilarning xayrixohligini, hurmatini qozonish, o`z mavqeingni kuchaytirish yoki sezilmasdan qolish istagi, baho berish va tanqid qilishdan tiyilish, o`zining kamchiliklarini bekitish va hokazolar.

«Men»ning siymosi»- ijtimoiy munosabatning ham shart-sharoiti va ham oqibatidir. Psixologlar kishida amalda birgina uning «Men»i siymosini emas, balki navbatma-navbat goh o`zini anglashni, goh muayyan vaziyatda o`zining ahamiyatini yo`qotadigan ijtimoiy o`zaro birgalikdagi harakatni qo`yadigan va bir-birining o`rnini egallab turadigan ko`plab «Men-siymo»lar bo`lishini qayd etishadi. «Men-siymo» individ shaxsining turg`un holatda emas, balki jadal holatda tarkib topishini bildiradi.

«Men-siymo» kishi his qilishi chog`ida o`zining o`zi to`g`risidagi tasavvuri tarzida his etilishi mumkin. Psixologiyada bu odatda «real tarzdagi Men» deb belgilanadi, lekin, ehtimol, uni sub'ektning bir lahzalik yoki «odatdagi Meni» deb atash to`g`riroq bo`lur edi. Uspirin payti kelib «Men o`zimni o`zim yomon ko`raman» deb gapirganda yoki o`ylaganda, baho berishda o`spirinlikka xos haddan ziyod talabchanlikning bunday ko`rinishi o`quvchining «Men-siymosi»ga beriladigan barqaror ta'rif sifatida tushunilmasligi kerak. Salgina vaqtdan keyin uning o`zi haqidagi tasavvuri qarama-qarshi tomonga o`zgarib qolishi ham ehtimoldan ko`ra haqiqatga yaqinroqdir.

«Men-siymo» shu bilan bir qatorda sub'ektning «ideal Meni» hamki, bu uning fikricha, jamiyatning tartib-qoidalariga va tevarak-atrofdagilarning istaklariga mos keladigan bo`lib etishishini anglatadi. O`quvchining «ideal Meni» badiiy adabiyot, kino, televidenie ta'siri, o`z zamondoshlari — O`zbekiston qahramonlari, Mehnat qahramonlari bilan uchrashuvlari, Ulug` Vatan urushi- qatnashchilarining hikoyalari ta'siri ostida juda erta shakllana boshlaydi. «Ideal Men» shaxsning o`zini-o`zi tarbiyalashida muqarrar orientir bo`lib xizmat qiladi. Pedagog ushbu orientirning xarakteri va ta'sirchanligini aniqlay borgan holda tarbiyalanuvchiga jiddiy ta'sir o`tkazish imkoniga ega bo`ladi. Bunda yosh yigitcha yoki qizcha o`z hayotini yo`lga qo`yish uchun ideal sifatida qanday idealga karab mo`ljal olishini bilish muhimdir. Chunki bu namunalarning ijtimoiy qiymati juda ham farq qiladi va ulariing sababiy ahamiyati esa juda buyukdir.

«Men-siymo» hosil bo`lishining yana bir ko`rinishi «hayoliy Men» dan iborat ekanligini, ya'ni sub'ektning agar iloji bo`lsa, orzu kilgani kabi darajaga etish, umuman o`zining tasavvur qilganidek bo`lib qolish istagida ekanligini aytib qo`yish kerak. «Men»ning bu xildagi siymosi ayniqsa o`spirinlik va yoshlik davrida juda katta ahamiyatga ega. Negaki, yuqori sinf o`kuvchilarida kelajak uchun rejalar tuzishga moyillik mavjud bo`lib, orzu-umid tusini oladigan hayollarsiz bunday rejalarni tuzish mumkin emas.

O`zining hayoliy «Men»ini yaratish faqat yoshlarga emas, balki katta yoshdagi odamlarga ham xosdir. Bunday «Men siymo»ning sababiy ahamiyatini baholashda individning hayotdagi hamda tevarak-atrofdagilar bilan o`zaro munosabatdagi o`z mavqei va o`rnini ob'ektiv tarzda o`zining «hayoliy men»i sifatida tushunilishidan iborat bo`lib qolgan-qolmaganligini bilish muhim ahamiyatga egadir. Shaxsning tuzilishida uning o`zi to`g`risida orzu qilinganlarning ro`yobga chiqishiga yordam beradigan xatti-harakatlar bilan mustahkamlanmaydigan hayoliy tasavvurlarning ustunligi kishi faoliyatini hamda o`zini anglab etishini chalg`itib qo`yadi va oqibat natijada orzu qilingan narsalar bilan haqiqatda ro`yobga chiqkan narsalar bir-biriga mos kelmaganligi vajidan unga shikast yetkazib qo`yadi.

«Men-siymo»ning aynan o`xshashlik darajasi uning eng muhim jihatlaridan biri - shaxsning o`ziga o`zi baho berishini o`rganish jarayonida aniqlanadi.

3. O`ziga-o`zi baho berish va uning shaxsning o`zini-o`zi anglab yetishining shakllanishdagi roli

O`ziga-o`zi baho berish - shaxsning o`zi tomonidan o`ziga, o`z imkoniyatlariga, boshqa odamlar orasidagi fazilatlariga va o`rniga baho berilishidir. Bu shaxsning o`zini anglab etishining psixologiyasidagi ancha muhim va eng ko`p o`rganilgan jihati hisoblanadi. O`ziga-o`zi baho berish orqali shaxsning xulq-atvori to`g`rilanib, tartibga solib turiladi.

Shaxs o`ziga o`zi baho berishni qay tarzda amalga oshiradi? Kishi, yuqorida aytib o`tilganidek, birgalikdagi faoliyat va munosabat natijasida shaxs bo`lib etishadi. Shaxsda tarkib topgan va barqaror bo`lib qolgan jamiki hislatlar boshqa odamlar bilan birgalikda faoliyat ko`rsatish va ular bilan munosabat qilish jarayonida paydo bo`lgan hamda ana shunday maqsadlar uchun mo`ljallangandir. Kishi faoliyatga va munosabatga jalb etilarkan, o`zining xulq-atvori uchun ba'zi muhim mo`ljallarni o`sha jabhalarda tanlay oladi, o`zining barcha harakatlarini tevarak-atrofdagilar undan kutayotgani xatti-harakatlar bilan taqqoslab turadi, ularning fikrlari, his-tuyg`ulari va talablariga muvofiq ish ko`radi. Pirovard natijada, agar tabiiy ehtiyojlarning qondirilishini bir chetga surib qo`yadigan bo`lsak, kishi o`zi uchun nimaiki narsa qiladigan bo`lsa (u o`qiydimi, biron-bir narsaga yordam beradimi, yo to`sqinlik qiladimi), u buni shu bilan birga va boshqalar uchun ham qiladi va xatto o`zi uchun qilayotgandek bo`lib tuyulayotgan bo`lsa ham, ehtimol, aksincha o`zidan ko`ra ko`proq boshqalar uchun qilishi mumkin.

K. Marks shunday fikr bildirgan edi: «Odam... eng avval... o`z aksini ko`rish uchun ko`zgu o`rniga boshqa odamga boqadi. Bir odam, masalan, Petr, boshqa odamga, masalan, Pavelga o`ziga o`xshagan odam deb qaragandagina o`zini odam deb hisoblay boshlaydi». Boshqacha qilib aytganda, shaxs boshqa bir kishining fazilatlarini bila borib, o`zining xususiy bahosini ishlab chiqishga yordam beradigan zarur ma'lumotlarga ega bo`ladi. Xususiy «Men»ning allaqachon tarkib topgan baholari shaxs o`zida kuzatganlarini boshqa odamlarda ko`rganlari bilan doimiy ravishda taqqoslab borishining natijasi hisoblanadi. Kishi o`zi haqida ba'zi narsalarni allaqachon bilgani holda boshqa kishiga razm solib boradi, o`zini u bilan solishtirib ko`radi, u ham uning shaxsiy fazilatlariga, xatti-harakatlariga, faolligiga nisbatan befarq qola olmaydi, deb taxmin qiladi; ana shularning hammasi shaxsning o`ziga o`zi baho bsrishiga kiradi va uning psixologik kayfiyatini belgilaydi. Boshqacha so`zlar bilan aytganda, shaxsda hamisha referent guruh (real yoki hayoliy) bo`lib; u bilan hisoblashgan holda ish ko`radi, undan o`ziga qadriyatli

mo`ljallar oladi, guruhning ideallari uning ideallari, uning ideallari esa guruhning ideallari hisoblanadi va hokazo.

Agar shaxs o`z xatti-harakatlarini referent guruhning nuqtai nazari va qadriyatli mo`ljallari bilan doimo taqqoslab borishi shu qadar aniq-ravshan bo`lsa, u holda kishi o`zida bor bo`lgan fazilatlarni, uning uchun biron qiymatga va ahamiyatga ega bo`lgan narsalar bilan taqkoslab ko`rish muhimdir. Shaxs munosabat jarayonida o`zini hamisha allaqanday andaza bilan taqqoslaydi va tekshirish natijalariga ko`ra o`zidan mamnun bo`ladi, yohud qoniqmaydi. Bunday tekshirishning psixologik mexanizmi nimalardan iborat bo`ladi?

Psixologiyada kishining o`ziga o`zi beradigan bahoni, uning miqdoriy va sifatiy ta'rifini aniqlashning bir qator ekperimental metodlari mavjuddir.

Jumladan, darajalarning o`zaro bog`liqlik koeffitsienti yordami bilan individning shaxsiga oid andazaviy fazilatlari (ya'ni uning «ideal Men» i aniqlangani) ning uning «oddiy Men»idan, ya'ni muayyan kishining o`zida u qanday gavdalangan bo`lsa, shu yo`sinda joylashgan fazilatlar farqidan izchil farqi haqidagi tasavvuri taqqoslangan bo`lishi mumkin.

Muhimi, tajribada sinalayotgan kishi eksperiment o`tkazayotgan kishiga o`zining real va ideal «Men»i haqidagi ma'lumotlarni bermaydi, balki tavsiya qilingan formula bo`yicha tegishli hisoblarnn mustaqil ravishda o`zi bajaradi. Bu unga o`zi haqida xohlaganiga qaraganda ko`proq narsani aytib qo`yishdan, o`zini ortiqcha oshkor qilib qo`yishi xavfidan xalos qiladi. Shaxsning o`ziga o`zi beradigan bahoning koeffitsienti. «Men siymo»ning miqdoriy jihatdan qanday ifodalanishi haqida fikr bildirish imkonini beradi.

Har bir kishi o`ziga xos «ichki manometr»ga ega degan tasavvur hosil bo`ladi. U kishi o`zini qanday baholanayottanini, kayfiyatining qandayligini, o`zidan mamnun yo mamnun emasligini ko`rsatib turadi. O`z fazilatlaridan mamnunligining umumiy baholanishi juda katta ahamiyatga egadir. O`ziga o`zi tomonidan behad yuqori va behad past baho berilishi shaxs mojarolarining ichki manbai bo`lib chiqishi mumkin. Bunday mojaroviy hollar turlicha namoyon bo`lishi shubhasiz, albatta. O`ziga o`zi tomonidan yuksak baho berilishi kishini hech qanday asos bo`lmagan vaziyatlarda ham o`zining bahosini oshirib yuboradigan qilib qo`yadi. Natijada u ko`pincha tevarak-atrofdagilar tomonidan uning da'volari rad etilib, qarshilik ko`rsatilishiga duch keladi, jahli chiqadi, hadiksiraydigan, har narsadan gumonsiraydigan, yoxud ataylab takabburlik qiladigan, tajovuzkor bo`lib qoladi va oqibat natijada tegishli darajadagi shaxslararo aloqalarni yo`qotib, o`zi bilan o`zi ovora bo`lib qolishi mumkin.

O`ziga haddan ziyod past baho berish norasolik deb atalmish hislatlar kompleksining, o`ziga qat'iyan ishonchsizlikning, tashabbuskorlikdan voz kechishning, befarqlikning, o`zini o`zi koyishning va qo`rquvning kuchayishidan darak berishi mumkin. O`ziga o`zi baho berish real «Men»ning «ideal Men» dagi o`ziga xos aksining shaxs tomonidan hamisha ham aniq anglanilmaganligi natijasi ekanligi, shubhasiz o`ziga o`zi baho berishning murakkab, yig`ma tusini tushunib etishga, o`zini o`zi baholash bevosita emas, balki shaxsning qadriyatli mo`ljallaridan, timsollaridan tarkib topgan namuna yordamida aniqlashga imkon beradi.

Lekin shaxsning nuqtai nazarini ta'riflash uchun, aftidan, birgina o`ziga o`zi baho berishni bilish yetarli emas. Muayyan shaxsning fikriga ko`ra, guruhda unga o`rtoqlari berishi mumkin deb taxmin qilingan (kutilmagan baho), uning o`zi guruhda sazovor bo`lgan bahoning qandayligini bilish muhimdir. Bu baho shunga o`xshash tajriba tadbiri

yordamida aniqlanishi va shuningdek u yuksak, o`rtacha, past bo`lishi mumkin, o`ziga o`zi beradigan baho darajasiga ko`proq yoki kamroq yaqinlashgan bo`lishi, nihoyat turli referent guruhlariga nisbatan turlicha bo`lishi mumkin. Kutilgan baho o`z jamoasiga nisbatan barqaror bo`lib qolgani holda shaxs boshqa jamoaga ko`shilgan, yangi aloqalar o`rnatayotgan paytda jiddiy o`zgaradi, barqarorligini yo`qotib, susayib qoladi.

Jumladan, oila sharoitida, o`rtoqlari va sinf jamoasi sharoitida o`ziga ishongan o`spirin yangi, uni bilmaydigan, unga nisbatan muayyan nuqtai nazar va bahoga ham ega bo`lmagan, uning to`g`risida ko`pincha tasodifiy va tashli kuzatishga tayangan holda xulosa chiqaradigan odamlar duch keladigan oromgohda bunday ishonchni ma'lum darajada yo`qotib qo`yadi.

Yangicha hayotiy holatlarda bo`lgan shaxsning ilk bor qo`yilgan bahoga qaytish faktini aniqlash bilan biz shaxsning yangi guruhga kirish darajasini, uning guruh bilan hamjihatligi darajasini, shu bilan birga uning guruhdagi kayfiyatining xususiyatini ham aniqlay olamiz. Guruh tarzidagi o`zaro munosabatlarni yo`naltirib turadigan baholar sistemasining ta'sirini namoyish qiladigan eksperimental ma'lumotlar olindi. Masalan, shaxsning o`ziga o`zi beradigan bahoning birmuncha oshirib yuborilishi kutilgan baho ko`rsatkichlarining kamayishi bilan bog`langan bo`ladi. O`ziga o`zi bergan bahoning va tevarak-atrofdagilarning unga nisbatan amalda mavjud munosabatining bir-biriga mos kelmasligiga ishonch hosil qilgan individ ularning baholari yuksak bo`lishiga ortiq umid qilmaydi. Bundan tashqari, shaxs tevarak-atrofdagilarga beradigan bahoning oshirib yuborilishi boshqalar tomonidan beriladigan real bahoning, ya'ni shaxsga guruh tomonidan beriladigan bahoning oshib ketishiga olib borishi aniqlandi. Shaxs tomonidan guruhga beriladigan bahoning yuqori bo`lishi individning haqiqatan ham tez qovushib ketadiganligiga, guruhning tashvishlari bilan yashayotganligiga, uning qadriyatlarini avaylab asrayotganligiga, jamoachilik tuyg`ularining mavjudligiga bog`liq ekanligi haqida tamomila asosli tahmin aytildi. O`z navbatida kollektiv o`z a'zolaridan birining unga nisbatan yaxshi munosabatini bamisoli jamlaydi va bu yuksak bahoni unga ko`paytirilgan holida qaytaradi. Bu o`rinda jamoaning birlashtiruvchilik kuchining ta'siri sezilib turadi.

Shaxsga beriladigan baholar sistemasidagi boshqa o`zaro bog`lanishlarni qarab chiqamiz. qarshimizda o`ziga o`zi yuksak baho bergan, tevarak-atrofdagilar tomonidan past baholangan va kutilgan bahosi ham past bo`lgan kishi - boshqa odamlar bilan munosabatlarda hoynahoy mojaroli, tevarak-atrofdagilarni toshbag`irlikda ayblashga moyil shaxs turibdi, deylik. Boshqa bir kishi kutilgan bahosi asossiz ravishda oshirib yuborilganligi bilan farq qiladi. Uning tevarak-atrofdagilarga nisbatan iltifotlik bilan munosabatda bo`lishini, o`zini katta olishini kuzatish mumkin. Har holda agar bu hislatlar xulq-atvorda namoyon bo`lmagan taqdirda ham ular potentsial jihatdan, asta-sekin tarkib topadi va qulay hollarda shaxs xulq-atvorining yalpi tuzilishida namoyon bo`lishi mumkin. Negaki, buning uchun ularda qulay zamin mavjuddir.

Uchta ko`rsatkich - o`ziga o`zi baho berish, kutilgan baho, guruhning shaxs tomonidan baholanishi - shaxsning tuzilishiga kiradi va kishi buni xohlaydimi-yo`qmi, bundan qat'iy nazar, u o`zining guruhdagi kayfiyatini, o`zi erishgan natijalarning muvaffaqiyatli yoki muvaffakiyatsiz ekanligini, o`ziga va tevarak-atrofdagilarga nisbatan nuqtai nazarlarni belgilaydigan sub'ektiv vositalarni hisobga olishga ob'ektiv ravishda majburdir. U hatto bu ko`rsatkichlarning mavjudligini sezmagan, baholar va o`ziga o`zi beradigan baholarning psixologik mexanizmi ko`rsatadigan ta'sir to`g`risida hech narsani bilmagan taqdirda ham ular bilan hisoblashishi kerak. O`z mohiyatiga ko`ra bu mexanizm ijtimoiy aloqalarning, mo`ljallar va qadriyatlarning inson shaxsi diliga jo qilingan

(interorizatsiyalashgan) mexanizmdir. Kishi munosabatga kirisharkan, faol harakat qilgan holda uning bu ko`rsatkichlari bilan o`zini solishtirib ko`radi. Bu tekshirish asosan anglanilmagan holda yuz beradi, shaxs esa ana shu vositalar bilan belgilanadigan xulq-atvor tartiblariga moslasha boradi.

Anglanilmaganlik - bu nazorat qilinmaslik degani emas. Jiddiy ahamiyatga molik barcha baholar shaxsning anglanilgan hayoti jarayonida tarkib topishini unutmaslik kerak. Ular interiorizatsiyalashmasidan oldin shaxslararo aloqalarda yaqqol namoyon bo`lib kelgan edi. Masalan, oila, o`qituvchilar, o`rtoqlari, kitoblar, filmlar bolada uning «ideal Men»ini faol tarzda shakllantirdi va ayni chog`da uning «real Men»i ularni taqqoslashga o`rgatdi. Bola oldiniga o`zini boshqalarga tenglashtirishga o`rganib, tevarak-atrofdagilarga o`zini baholagani kabi ko`rsatkichlar bo`yicha baholashga o`rgandi. «Onadan tug`ilganda qo`lida ko`zgu bo`lmagan» odam sotsial guruhga xuddi ko`zguga boqqanday qarashga odatlanib qolgan va so`ngra uning ichki dunyosini o`z shaxsiga ko`chirgandir.

Shaxsni tarbiyalash jarayonini ongli ravishda boshqarish uchun shaxsning o`z xulq-atvorini boshqarishning anglanilmagan tarzda tarkib topadigan shakllarining ta'sirini aniq-ravshan tasavvur etish, kishi o`z o`zini va boshqalarni ta'riflaydigan baholarning butun sistemasiga e'tibor berish, ana shu baholarning o`zgarish sur'atini ko`ra bilish kerak; kishini yaxshiroq anglab etishga intilgan holda uni doimo o`zi uchun referent hisoblanmish jami guruhlar bilan munosabatlar jabhasida ko`ra olish, shaxsning ijtimoiy mohiyati ko`rinishlari qanchalik darajada o`ta yashirin va individual ekanligiga qaramay, uni e'tibordan qochirmaslik lozim.

4. O`ziga-o`zi baho berish va shaxsning intilishlari darajasi

O`ziga o`zi baho berish shaxsning intilishlari darajasi bilan chambarchas bog`liqdir. Intilishlarning darajasi shaxs o`ziga o`zi beradigan bahoning individ o`z oldiga qo`yadigan maqsadlarning qiyinchiliklari darajasida namoyon bo`ladigan kutilgan darajasi («Men» siymolarining darajasi)dir.

Kishi navbatdagi harakatning qiyinchilik darajasini bemalol tanlash imkoniyatiga ega bo`lgan paytda o`ziga o`zi beradigan bahoni oshirib yuborishga intilish ikkita tendentsiya o`rtasida mojaro kelib chiqishiga sabab bo`ladi: bir tomondan eng ko`p yutukqa erishish uchun intilishni kuchaytirib yuborishga harakat qilinsa, ikkinchidan muvaffakiyatsizlikka uchramaslik uchun intilishlarni kamaytirishga harakat qilinadi. Muvaffaqqiyatga erishilgan taqdirda intilishlar darajasi odatda osha boradi, kishi yana ham qiyinroq vazifalarni bajarishga shayligini ko`rsatadi, muvaffaqiyatsizlikka uchragan paytda bunday shaylik tegishli ravishda susayadi.

Shaxsning konkret faoliyatidagi intilishlari darajasi deyarli aniq belgilanishi mumkin.

Misol keltiramiz. Yengil atletika bilan endigina shug`ullana boshlagan sportchi balandlikka sakrashda 1 m 70 sm belgida o`rnatilgan tayoqchani tushirib yuborgan taqdirda muvaffakiyatsizlik tuyg`usini sezmaydp va xafa bo`lmaydi - u sakrashda rekord qo`ya olmasligini biladi. Xuddi shuningdek, agar 1 m 10 sm balandlikka sakragan taqdirda ham u xursand bo`lmaydi - bunday marrani egallash juda oson. Lekin haligi tayoqchani sekin-asta yuqoriroq ko`tarib va zachyot uchun etarli bo`lgan balandlik yigitchani qanoatlantirishi yo qanoatlantirmasligini surishtira borib, uning intilishlari darajasini aniqlash mumkin.

Bu soddagina model shuni ko`rsatadiki, shaxs o`zini o`zi baholashni yetarlicha yuksak darajada saklash uchun o`z intilishlari darajasini haddan ziyod qiyin vazifalar va

maqsadlar bilan haddan tashqari engil vazifa va maqsadlarning qandaydir o`rtasida belgilaydi.

Intilishlar darajasining shakllanishi faqat yutuqqa erishilishi yoki muvaffaqiyatsizlikka uchrash mumkinligini oldindan sezish bilan emas, balki eng avvalo aql-idrok bilan, ba'zan esa o`tmishdagi yutuqlar va muvaffaqiyatsizliklarni sal bo`lsa-da anglanilgan tarzda hisobga olish va baholash bilan belgilanadi. Intilishlarning shakllanishnni o`quvchining o`qishdagi ishlarida, to`garakda kiladigan ma'ruzaning mavzusini, jamoat topshirig`ini tanlash jarayonlarida va hokazolarda ko`rish mumkin.

Chet ellarda o`tkazilgan tajribalardan biri sinaluvchilar orasida xavf-xatar bo`lgan taqdirda muvaffaqiyat qozonish emas, balki muvaffaqiyatsizlikka uchramaslik uchun ko`proq intiladigan shaxslarning borligini ko`rsatdi. Agar ularga qiyinlik darajasi har xil bo`lgan vazifalardan birini tanlash topshiriladigan bo`lsa, bu holda ular yoxud eng yengil vazifalarni, yoki eng qiyin vazifalarni tanlaydilar. Birinchilari muvaffaqiyatga erishilishiga ishonganlari (xavf-xatar juda kam bo`ladi) uchun shunday qilishsa, boshqalari muvaffaqiyatsizlikka duch kelganda buni vazifaning g`oyat darajada qiyin ekanligi bilan izohlash mumkinligi uchun shunday qilishadi. Bunda nafsoniyatga ham putur etmaydi va «Men»ning siymosi ham buzilmaydi.

Shaxsning intilishlari darajasini faqat ularning ta'sirchanligi jihatidan emas, balki ularning mazmuni yuzasidan, kollektivning maqsadlari va vazifalari bilan aloqadorligi yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar kishi xulq-atvori motivlarini yaxshiroq anglab etish va shaxsda eng yaxshi fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan ta'sir o`tkazish imkoniyatini beradi. Bir xil hollarda pedagog uchun shaxsning intilishlari darajasini oshirish vazifasi juda muhim bo`lib chiqadi; agar maktab o`quvchisi o`ziga va o`z imkoniyatlariga unchalik yuqori baho bermaydigan bo`lsa, bu muayyan darajada ziyon ko`rilishiga, muvaffaqiyatga erishishga ishonchning tamomila yo`qolishiga olib boradi. Ketma-ket muvaffakiyatsizlikka duch kelishlar o`ziga o`zi beradigan bahoning hissiy ishkalliklar va mojarolar kelib chikishiga olib keladigan darajada umuman pasayib ketishiga, o`quvchining hafsalasi pir bo`lishiga olib kelishi mumkin. Bu o`quvchining jurnaldagi familiyasi qarshisiga go`yo uning bilimlarini to`g`ri baholagan holda muntazam ravishda «ikki» qo`yaveradigan o`qituvchi, agar bunday ahvolga ko`nikib ketgan o`quvchining psixologiyasini e'tiborsiz qoldiradigan bo`lsa, jiddiy xatoga yo`l qo`yadi.

Intilishlarning darajasini oshirish yo`llari turlicha bo`lib, o`quvchining individualligiga, frustratsiya xususiyatiga, pedagogning real imkoniyatlariga va hokazolarga bog`liqdir. Bu o`rinda o`qituvchi va sinf jamoasi tomonidan ko`rsatiladigan bevosita yordam ham, shaxs istiqbolini yaratishning turli xil usullari ham ish beradi. Bu istiqbollar oldiniga frustratsiya namoyon bo`ladigan soha bilan bog`lanmagan boshqa jabhada aniqlanadi. So`ngra shu tariqa vujudga kelgan faollik shaxsning intilishlari darajasini oshirish va o`ziga o`zi berilgan bahoning pasayib ketgan darajasini asli holiga ko`tarish lozim bo`lgan jabhaga ko`chiriladi. Inson shaxsiga nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo`lish, uning istiqbollariga oqilona ishonch bilan yondashuv pedagogga o`quvchilar va o`qituvchilar jamoasining yordamiga tayangan holda bola yoki o`spirin bilan unda o`ziga nisbatan hurmat va o`z imkoniyatlariga ishonchning uyg`onishiga yordam beradigan individual ish olib borish strategiyasini topish imkonini beradi. Boshqa ko`pgina sohalardagi kabi bunda ham tarbiya sistemasining insonparvarligi namoyon bo`ladi.

Pedagog uchun bola yoki o`spirinning intilishlari darajasini boshqa hollarda, ayniqsa o`quvchi o`z oldiga qo`ygan vazifalar real vaziyatga to`g`ri kelmasdan, uning o`z

imkoniyatlariga beradigan bahosi asossiz ravishda oshirib yuborilishi sababli unda manmanlik, o`zini ustun tutishning o`ziga xos kompleksi paydo bo`ladigan joylarda biroz pasaytirish muhimdir. Bunday vazifani hal etishning zarurligi o`quvchining intilishlari darajasi asossiz ravishda oshib ketganligi natijasida jamoada qat'iyan qarshilikka duch kelishi (maqtanchoq degan nom olishi) dangina emas, balki uning o`ziga o`zi oshirilgan baho berishi real muvaffaqiyatsizliklar bilan ko`p marta ziddiyatga uchragani holda keskin hissiy o`kinchlarga sabab bo`lganligidan ham kelib chiqadi. Bunda o`quvchi shaxsiy muvaffaqiyatsizliklarining o`ziga o`zi bergan va aniq ko`rinib turgan oshirilgan baho bilan muvofiq kelmaydigan faktlarini inkor etishga urinarkan, o`jarlik qiladi, xafa bo`ladi, o`zini tamomila koniqish sezayotgan kishi qilib ko`rsatarkan, bir qolipda turmaydi, yoxud o`zining muvaffaqiyatsizliklarini allakimning qarshilign bilan, gumonsiraydigan, jahl qiladigan, tajovuzkor bo`lib qolgan holda allakimning yovuz niyatliligi bilan izohlashga harakat qiladi. Bunday psixologik holatlar tez-tez takrorlanaverishi oqibatida barqaror xususiyatlar tarzida mustahkamlanadni.

5. Shaxsning psixologik muhofazasi

Shaxsning o`zini anglashi o`ziga o`zi baxo berish mexanizmini qo`llagan holda xususiy intilish lari va real yutuqlari o`rtasidagi o`zaro nisbatni aniq qayd etadi. Amerikalik psixolog U. Djems o`zining psixologik nazariyasida insonga nisbatan amerikacha utilitar munosabatga xos pragmatizmi uchun markscha psixologiya tomonidan adolatln tanqid qilingandan qat'iy nazar, hali XX asrning boshlaridayoq shaxs «Men»i siymosining eng muhim tarkibiy qismi - o`zini hurmat qilishi haqiqatan ham erishgan yutuqlarining kishi da'vogarlik qilgan, mo`ljallagap narsalarga munosabati bilan belgilanishi haqida umuman to`g`ri fikr bildirgan edi. U surati individning real muvaffaqiyatlarini, maxraji esa uning intilishlarini ifoda etadigan formulani:

o`zini hurmat qilishi q muvaffaqiyat / intilishlar

taklif etgan edi. Ma'lumki, surati oshib, maxraji kamayganda kasr katalashadi. Shu sababli kishi o`zini xurmat qilishini saqlab qolishi uchun bir xil hollarda eng ko`p kuch va g`ayrat sarflashi va o`zini hurmat qilishini saqlab qolishi shart bo`lib, bu ko`pincha murakkab vazifa hisoblansa, boshqa bir yo`li intilishlarning darajasini pasaytirishdan iboratki, bunda hatto juda ham kamtarona muvaffaqiyatlarga erishganda ham o`zini hurmat qilish hissi yo`qolmaydi.

To`g`ri yo`lga qo`yilgan tarbiyaviy jarayon shaxsni o`zini hurmat qilishini saqlab qolishning birinchi usuliga binoan ish tutishga da'vat etadi, albatga. Kishi o`z faoliyatida (o`qishda, ishda va hokazolarda) qiyinchiliklar oldida bo`sh kelmasligi, aksincha o`zining irodaviy fazilatlari va matonatliligini namoyon qilgan hamda shu orqali muvaffaqiyat bilan real intilishlar o`rtasidagi o`zaro maqbul nisbatini saqlab qolgan holda ularni engishi kerak. Lekin ayrim odamlarning intilishlar darajasini pasaytirib yuborgan holda o`zini hurmat qilishni saqlab qolishning ikkinchi yo`lini tanlab olishga, ya'ni o`zining «Men-siymosi»ni psixologik jihatdan sust muhofaza qilishga urinayotganligiga duch kelinayotganligi bilan ham hisoblashmoq kerak. Psixologik muhofaza faqat intilishlar darajasini pasaytirish hollaridan iborat qilib ko`yilishi mumkin emas. Bu psixologik qulaylikning buzilishshi, «Men-siymo»ning mavjud bo`lishiga xavf tug`diradigan his-tuyg`ularni bartaraf etish va uni mazkur holatlar uchun maqbul va mumkin bo`lgan darajada saqlab qolish maqsadida shaxs tomonidan qo`llaniladigan, alohida yo`naltiruvchi

sistemadan iboratdir. Psixologik muhofaza tushunchasiga yaqin «muhofaza mexanizmlari» to`g`risidagi tushunchani psixoanaliz maktabining yetakchisi Z. Freyd ishlatgan edi. U bu tushunchani shaxsni biologik mavjudot deb hisoblaydigan mexanistik falsafa nuqtai nazaridan talqin qilgan edi. Z. Freyd kishining ongsiz instinktlari (asosan, shahvoniy hirsi) ongli «Men»ning «muhofaza mexanizmlari», shaxsning «ichki senzurasi» bilan to`qnashib qoladi va buning natijasida turli xildagi o`zgarishlarga uchraydi, deb taxmin qilarkan, psixologik muhofazaning noto`g`ri talqin etilishiga yo`l qo`ygan edi. Lekin Freydni «muhofaza mexanizmlari» va «psixologik muhofaza»ning mavjudligini birinchilardan bo`lib kashf etgan deb hisoblash noto`g`ri bo`lur edi. Psixologik muhofaza undan ancha ilgari buyuk yozuvchilar, inson psixologiyasining bilimdonlari F. M. Dostoevskiy, L. N. Tolstoy va boshqalar tomonidan tavsiflangan edi.

Misol uchun, psixologik muhofazaning mexanizmlaridan biri, kishi o`z maqsadiga erishish yo`lidagi g`ovlarni bartaraf eta olmagan va frustratsiyaga tushgan paytida ro`y beradigan tajovuzkorlikdan, iboratdir. Tajovuzkorlik ba'zida boshka odamlarga to`g`ridan-to`g`ri hujum kilish shaklida yuz beradi, ba'zan esa faqat to`siq paydo bo`lishiga olib kelgan hollar yoki shaxslarga nisbatan do`q-po`pisa, ko`pollik, dushmanlik qilishdan emas, balki tevarak-atrofdagi barcha kishilarga nisbatan «jahldorlik»da ifodalanadi. Ayrim hollarda frustratsiya kishining hayolida yashirinib qolgan tajovuzkorlikka olib keladi. Hafa bo`lgan odam amalda hech qanday chora-tadbirni boshlamagan holda o`ch olish manzarasini tasavvur qiladi. Ba'zan frustratsiya kishining o`ziga qarshi qaratilgan tajovuzkorlik bilan hal qilinadi. Nihoyat, frustratsiya shaxsning bartaraf etib bo`lmaydigan (yohud o`tib bo`lmaydi deb faraz qilingan) to`siq bilan bog`langan faoliyatini uning uchun ancha engil, istiqbolli (yoxud shunday deb tasavvur qilingan) faoliyat bilan almashtirishga olib kelishi mumkin. Bu o`rinda biz psixologik muhofazannng yana bir mexanizmi - ko`chirish holatiga duch kelamiz. L. N. Tolstoyning «Bolalik. O`smirlik. Yoshlik» trilogiyasida psixologik muhofazaning maqbullashtirish va siqib chiqarish kabi turlari juda ajoyib tarzda bayon qilingan. Ular trilogiya bosh qaxramonining quyidagi dilrozida o`z aksini topgandir:

«Men juda ham izzattalab edim, o`z mavqeimga ko`nikib ketish maqsadida tulkiga o`xshab o`zimni uzum hali g`o`r deb ishontirish bilan qanoat hosil qilardim, ya'ni kuz o`ngimda Volodya foydalanib kelgan va men unga samimiy havas qiladigan, tashqi ko`rinishidan xush yoqadigan barcha roxatijon narsalardan jirkanishga urinardim va mag`rurona yolg`izlik gashtini surish uchun o`z aqlim va tasavvurim kuchini ishga solardim.

Siqib chiqarish mexanizmi «qumga boshini yashirib olish» va «oyog`ining ostidagini ko`rmaslik» kabi mashhur iboralarda o`z aksini topadi.

Shaxs kishining konkret-tarixiy hayot kechirish sharoitlarida, faoliyat (mehnat qilish, o`qish va hokazolar) jarayonida shakllanadi. Shaxsning shakllanishi jarayonlarida guruhlarda va jamoalarda amalga oshiriladigan ta'lim va tarbiya yetakchi rol o`ynaydi.

6. Psixologiya va pedagogikada shaxsni shakllanishi tushunchasi

«Shaxsning shakllanishi» ikki xil ma'noda qo`llaniladi. Birinchisi - shaxsning shakllanishi uning rivojlanishi, ana shu rivojlanish tushunchasi jarayoni va uning natijasi ekanligidir. Shu ma'nodagi shaxsni shakllantirish tushunchasi psixologik tadqiqot mavzusi hisoblanadi. Uning vazifasi biror maqsadga qaratilgan tarbiyaviy ta'sirlar o`tkazish sharoitida rivojlanayotgan shaxsda nimalar mavjudligini (mavjud bo`lgan, tajriba yo`li

bilan aniqlanadigan, namoyon bo`ladigan) va nimalar bo`lishi mumkinligini aniqlashdan iboratdir. Bu shaxsning shakllanishiga nisbatan xususan psixologik yondashuv hisoblanadi.

Ikkinchi ma'nosi - shaxsni maqsadga yo`naltirilgan tarzda tarbiyalash sifatidagi shakllantirish (agar shunday deb aytish mumkin bo`lsa, «qolipga solish», «yasash», «tuzash»; A. S. Makarenko bu jarayonni «shaxsni loyihalash» deb juda topib atagan edi) dan iborat. Xususan bu shaxsni shakllantirish vazifalari va usullarini ajratib olishga pedagogik yondashuvdir. Pedagogik yondashuv shaxsning jamiyat unga qo`yayotgan ijtimoiy jihatdan taqozo etilgan talablarga javob beradigan bo`lishi uchun unda nimalar va qanday qilib shakllantirilishi kerakligini aniqlash zarur deb hisoblaydi.

Shaxsni shakllantirishga psixologik va pedagogik yondashuvning aralashtirib yuborilishiga yo`l qo`yib bo`lmaydi. Aks xolda orzu qilingan narsa haqiqatda ro`y bergan narsa qilib ko`rsatilishi mumkin. «Umumiy ta'lim va hunar maktabini isloh qilishning asosiy yo`nalishlari»da uqdirilganidek, «ilk bolalik yillaridanoq kollektivizm, o`ziga va boshqalarga talabchanlik, sofdillik va rostgo`ylik, mehribonlik va printsipiallik, matonatlilik va jasoratlilik ruhida tarbiyalashda juda muhimdir». Islohot hujjatlari o`kituvchilarning diqqat-e'tiborini hozirdayoq barcha o`quvchilarda rivojlangan tarzda mavjud bo`lgan narsalarga emas, balki ularda shakllantirilishi lozim bo`lgan narsalarga qaratadi, maktab xodimlarini bartaraf etilishi kerak bo`lgan kamchiliklarni ahamiyatsiz qoldirmagan holda o`quvchilar bilan katta va mas'uliyatli ish olib borishga safarbar etadi. Shu o`rinda yoshlar shaxsini shakllantirish jarayoniga to`g`ri pedagogik yondashuv vazifalari aniq belgilab beriladi, tarbiya jarayonida nima shakllantirilgan bo`lishi kerakligi aniqlanadi. Pedagogika tarbiyaviy ish metodikasini yaratarkan, ilgari surilgan maqsadni ro`yobga chiqarish yuzasidan o`z usullari va vositalarini tavsiya qiladi, shaxsning printsipiallik, rostgo`ylik, mehribonlik va boshqa shu kabi eng muhim fazilatlari qanday shakllantirilishi lozimligi haqida so`z yuritadi.

Psixologiyaning vazifasi - konkret jamoa (o`quv-ishlab chiqarish kombinatlaridagi kasbiy-mehnat jamoasi, o`quvchilar jamoasi, oilaviy jamoa va shu kabilar)dagi konkret o`quvchilarda ana shu shaxsiy fazilatlar shakllanganligiyaing boshlang`ich darajasini o`rganishda, tarbiyaviy ishda maktab islohotining ruxiga mos keladigan qanday natijalarga erishilganini, ya'ni real tarzda nimalar shakllanganini-yu, nimalar yana vazifa bo`lib qolganini o`spirin shaxsining amaldagi qaysi bir o`zgarishi samarali va ijtimoiy jihatdan qimmatli bo`lib chikqani-yu, qaysi birlari samarasizligini, shaxsni shakllantirish jarayoni qay yo`sinda ro`y berganligini (qanday qiyinchiliklarga duch kelganini, u qanchalik muvaffaqiyatli bo`lganligini va hokazolarni) aniqlashdan iboratdir.

Shaxsning shakllanishiga nisbatan pedagogik va psixologik yondashuvlar bir-birlariga aynan o`xshamasa ham ajralmas birlikni tashkil qiladi. Agar pedagoglarning qanday metodlarni qo`llaganliklari va qanday maqsadni ko`zlaganliklarini bilib bo`lmasa, agar bu metodlar qanday takomillashtirilishi kerakligi haqida xulosaga kelinmasa shaxsning shakllanishini psixolog nuqtai nazaridan o`rganish xomhayoldan bo`lak narsa emas. Agar pedagog o`quvchining real xususiyatini aniqlab beradigan psixologning imkoniyatlaridan foydalanmasa, agar u o`z o`quvchilarida tarbiyaning shubhasiz bo`lib tuyulgan shakllari va metodlarini qo`llanish bilan bir vaqtning o`zida va undan mustasno tarzda paydo bo`ladigan noxush xislatlarning sabablarini psixologik jihatdan bilib olmasa, agar u o`zining konkret pedagogik faoliyatining ayrim holda bir-biriga zid bo`lgan psixologik oqibatlari rang-barangligini faxmlay olmasa, uning pedagoglik ishi ham uncha istiqbolli bo`lavermaydi va hokazo.

Shakllantiruvchi psixologik-pedagogik eksperimentda (misol uchun gruziyalik psixolog va pedagog Sh. A. Amonashvili olib borgan tadqiqot ishlaridan biri kichik yoshdagi o`quvchilarda mehribonlikni shakllantirish vazifasini hal etishga bag`ishlangan edi) pedagog bilan psixologning nuqtai nazarlari birlashishi mumkin, ya'ni pedagog va psixolog o`sha bitta tadqiqotchi sifatida chiqishi mumkin. Lekin bunday holda ham o`quvchining shaxsida pedagog sifatidagi psixolog nimani va qanday qilib shakllantirishi kerakligi (tarbiyaning maqsadlarini psixologiya emas, balki jamiyat belgilaydi, metodlarini esa pedagogika ishlab chikadi) bilan psixolog sifatidagi pedagog pedagoglik ta'sir o`tkazish natijasi sifatida rivojlanayotgan shaxsning tuzilishida nimalar borligini va nimalar ro`y berganini aniqlay borib, nimani tadqiq qilishi lozimligi o`rtasidagi farqni yo`qqa chiqarmaslik kerak.

7. Shaxsning rivojlanishidagi harakatlantiruvchi kuchlar

Shakllantiruvchi pedagogik ta'sir sharoitida shaxsning rivojlanishi, uning eng muhim psixologik xususiyatlari va fazilatlarining takomillashuvi ro`y beradi. Shaxsning ijtimoiy kamolotga erishuviga yordam beradigan harakatlantiruvchi kuchlari nimalardan iborat?

Psixologiya tarixida shaxs rivojlanishi va takomillashuvini harakatlantiradigan kuchlar va manba masalasini hal etishning ikkita yo`nalishi mavjud bo`lgan. Bu yo`nalishlar rivojlanishning biogenetik va sotsiogenetik kontseptsiyalari nomini olgandir.

Biogenetik kontseptsiya inson shaxsining rivojlanishi biologik, asosan, nasliy omillar bilan belgilanishiga asoslanadi. Shuning uchun ham shaxsning rivojlanishi ichki sabab natijasida (o`z-o`zidan) sodir bo`lish xususiyatiga egadir. Shu nuqtai nazarga binoan kishi tabiatan hissiy ta'sirotlarning ro`y berishidagi ba'zi bir xususiyatlarga, harakat sur'atining xususiyatlarigagina emas, balki sababiyatlarning muayyan kompleksiga ham moyil (birovlarda jinoyat qilishga, boshqalarda ma'muriyatchilik faoliyatida yutuqlar qozonishga moyillik va hokazo) bo`ladi. Kishida go`yo uning psixik faoliyati shakllarigina emas, balki uning mazmuni ham tabiat tomonidan programmalashtirilgan, psixik rivojlanish bosqichlari va ularning ro`y berish tartibi oldindan belgilab ko`yilgan emish.

Inson shaxsini xususiy faolligidan mahrum bo`lgan narsa deb, peshanaga yozib ko`yilgan biologik omillar ta'sirining mahsuli deb ifodalaydigan biogenetik kontseptsiya pedagogikani shaxsning qismatiga ko`ra oldindan belgilab qo`yilgan ushbu fazilatlari paydo bo`lishining sustkash shohidi qilib qo`ygan edi. Biogenetiklar pedagoglarni bolaga kuchi etgunga qadar xudbinlik qilishga qo`yib berishga, yolg`on gapirishga, aldashga imkon berishga da'vat etisharkan, yorqin xudbinlik xatti-harakatlari bolada uning «Meni» g`oyasini hosil qiladi, deyishardi. Ular pedagoglarning xuquq doirasini bolada shaxsning qanaqa fazilatlari peshanasiga yozib qo`yilgan holda paydo bo`lishini bilishdan va majburiyatlarini ularning paydo bo`lishiga to`sqinlik qilmasdan, aksincha, unga yordam berishdangina iborat deb hisoblashardi.

Sotsiogenetik kontseptsiya shaxsni tevarak-atrofdagi ijtimoiy muhitning bevosita ta'siri natijasi deb, muhitdan olingan nusxa deb hisoblaydi. Bunda ham xuddi biogenetik kontseptsiyadagi kabi rivojlanib borayotgan kishining xususiy faolligi inobatga olinmaydi, uning tevarak-atrofdagi vaziyatga moslashayotgan mavjudotga xos sust rol o`ynashigina mumkin deb hisoblanadi. Agar sotsiogenetik kontseptsiyaga amal qilinadigan bo`lsa, nima uchun ba'zi vaqtlarda bir xildagi ijtimoiy muhitlarda har xil odamlar etishib chiqishini tushuntirib bo`lmaydi.

Shunday qilib, na biogenetik va na sotsiogenetik kontseptsiyalar shaxs rivojlanishining konuniyatlarini tushunib etishga asos qilib olinishi mumkin emas. Unisi ham bunisi ham psixik rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchlarini aniqlab olmaydi. Buni amalga oshirishga ikkala omilning (muhit va irsiyatning) mexanik tarzdagi o`zaro birgalikdagi harakati, yoxud konvergentsiya (bir xil tashqi muhitda o`xshaash belgilarning hosil bo`lishi) nazariyasi ham yordam bera olmaydiki bunda rivojlanishning ikkala kontseptsiyasi xatolari bartaraf etilishidan ko`ra ko`proq orta bordi.

Shaxs rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchlari muammosini hal etishdagi dialektik-materialistik nuqtai nazar echimi rivojlanishda amalga oshiriladigan quyidan (oddiydan) yuqoriga (murakkabga) o`tishni ta'minlaydigan ziddiyatlar ta'rifiga murojaat qilinishini muqarrar taqozo etadi. Shaxsning faolligi kishini anglanilgan va anglanilmagan sabablar sistemasi orqali faoliyatga undovchi ehtiyojlarning majmui bilan belgilanadi. Lekin ehtiyojlarning qondirilishi jarayoni zamirida ziddiyat mavjuddir. Ehtiyojlar odatda paydo bo`lishi bilanoq darhol qondirilmaydi. Ularning kondirilishi uchun moddiy mablag`lar, shaxsning faoliyatga muayyan darajada tayyorligi, bilimlar, malakalar va hokazolar zarur. Shaxsning rivojlanishini harakatlantiruvchi kuchlar kishining faoliyatda o`zgarib turuvchi ehtiyojlari bilan ularni qondirishning real imkoniyatlari o`rtasidagi ziddiyatlarda aniqlanadi.

Ehtiyojlarning qondirilishi yana va yana shunday bir vaziyatni keltirib chiqaradiki, bunda kishi extiyojlari rivojlanishining erishilgan darajasi bilan ularni qondirishning real imkoniyatlari o`rtasidagi ziddiyat namoyon bo`ladi. Zid-diyatlarning shaxs rivojlanishiga olib boradigan darajada hal etilishi faoliyatda uni amalga oshirishning muayyan vositalarini (usullarini, vositalarini, jarayonlarini, malakalarini, bilimlarini va hokazolarni) ta'lim jarayonida egallash orqali yuz beradi. Buning ustiga ehtiyojlarning jo`shqin faoliyat vositasida qondirilishi qonuniy tarzda yangi, yuksakroq darajadagi ehtiyojni keltirib chiqaradi.

Shuning uchun ham rivojlanib borayotgan shaxs doimo yangi va yangi ehtiyojlarni (va, demak, sabablarning keng shahobchali sistemasini ham) keltirib chiqararkan, o`z navbatida ehtiyojlar rivojlanishining natijasi bo`lib ham hisoblanadi. Ehtiyojlarni rivojlantirish, tanlash va tarbiyalash, ularni hozirgi jamiyat kishisiga xos bo`lgan ma'naviy yuksaklik darajasiga olib chiqish kishi shaxsini shakllantirishning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Shaxsning shakllanishi uning jamoaga qo`shilganligi sharoitlarida ro`y beradi. A. S. Makarenko ta'kidlaganidek, shaxs yuksak darajada rivojlangan guruhdan iborat va shaxsning qimmatli fazilatlarini shakllantirish uchun eng qulay sharoitlarga ega bo`lgan jamoada va jamoa vositasida rivojlanadi. Individning shaxs bo`lish, yangi jamiyatni qurishning faol ishtirokchisi bo`lish kabi ehtiyoji aynan jamoadagina to`laqonli qondiriladi.

Shaxsning shakllanishida unga maqsadga yo`naltirilgan tarzda ta'sir o`tkazish - tarbiya yetakchi rol o`ynaydi. Tarbiya shaxsning rivojlantirilishini jamiyat tomonidan qo`yilgan maqsadlarga muvofiq tarzda yo`naltirib boradi va uyushtiradi. Shu bilan birga tarbiya bola hayoti va faoliyatini muayyan tarzda uyushtirib va tartibga solib qolmasdan, balki mavjud pedagogik printsiplarga binoan konkret shaxs imkoniyatlarini eng yaxshi darajada ko`rsatadigan rivojlanishning maxsus muhitini, yoxud vaziyatini vujudga keltiradi, uni shakllantirgan va yo`naltirib borgan holda faolligini namoyon qilish uchun shart-sharoit yaratadi. Shu o`rinda shaxs psixologiyasi shaxsni tarbiyalash pedagogikasi, axloqiy tarbiya metodikasi bilan o`rin almashadi. Ularning vazifasi shaxsni har tomonlama

rivojlantirish, ma'naviy ongni shakllantirish, ongli intizomni, vatanparvarlik va baynalmilallikni tarbiyalash vositalari va yo`llarini aniqlashdan iboratdir. Bu yuksak vazifalarning ro`yobga chiqarilishi shaxsning takomillashuvini ta'min etadi.

Adabiyotlar

Marks K. Feyerbax to`g`risidagn tezislar.- Marks K. va Engels F. Uch tomlik tanlangan asarlar, 1-tom. T., O`zbekitson, 1980.

Ананев Б. Г. Избранные психологические труды. М., Педагогика, 1980, 1-том.

Абулханова-Славская К. А. Деятелность и психология личности М.,Наука, 1980.

Бодалев А. А. Личность и общение. М., Педагогика, 1983.

Божович Л. И. Личность и ее формирование в детском возрасте. М., Просвещение, 1968.

Кон И. С. В поисках себя: личность и самосознанне. М., Политиздат,1984.

Леонтев А.Н. Деятелность. Сознание. Личность. М, Политаздат, 1982.

Петровский А. В. Личность. Деятелность. Коллектив М., Политиздат, 1982.

Рубинштейн С. Л. Проблемы общей психологии. М., Педагогика, 1973, 241-385-betlar.

Узнадзе Д. Н. Эксперименталные основы психологии установки. В книге: Узнадзе Д. Н. Психологические исследования. М., Наука, 1966. 135- 327-betlar.

Психология личности. Тексты. М, MDU nashriyoti, 1982. Кон И. С, Открытие «Я» М., Политиздат, 1978.

Михайлов Ф. Т. Загадка человеческого Я- 2-нашри. М., Политиздат. 1976.

Петровский А. В. Популярные беседы о психологии.2-nashri. M, Pedagogika, 1983.